



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAYLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

TOG‘AYEV T.M.

HOZIRGI O‘ZBEK TILI

(1-KURS, 2-SEMESTR)

FANI BO‘YICHA

O‘QUV – USLUBIY MAJMUUA

TOSHKENT-2016

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI




O'QUV-USLUBIY MAJMUA

HOZIRGI O'ZBEK TILI

(1-kurs, 2-semestr)

37473



TOSHKENT-2016

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016-yil 6-apreldagi 137-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi

Tog'ayev T.M. ,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotseni v.b.,
filol.fan.nomzodi

Taqrizchilar:

B.Mengliyev, filol.f.d., prof.,

M.Qurbonova, filol.f.d., prof.

O'quv-uslubiy majmua Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti kengashining 201__-yil "___" _____dagi ___-sonli qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI	6
Syllabus	7
Namunaviy dastur.....	13
Ishchi o‘quv dasturi.....	30
Modulni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta’lim metodlari	57
MA’RUZA MATERIALLARI	57
1- <u>Ma’ruza</u> . Kirish. O‘zbek tili va tilshunosligi taraqqiyoti (<i>“Toifali jadval” asosida</i>).....	57
2- <u>Ma’ruza</u> . Til, lison va nutq munosabati. Til sathlari va birliklari. Lisoniy paradigma, lisoniy ziddiyat va uning turlari (<i>“O‘quv loyihasi” asosida</i>).	74
3- <u>Ma’ruza</u> . Fonetika-fonologiya, uning o‘rganish manbai va predmeti, yo‘nalishlari (<i>“Toifali jadval” asosida</i>).....	92
4- <u>Ma’ruza</u> . Fonemalar paradigmasi va fonologik ziddiyatlar (<i>“Anjuman ma’ruza” usuli</i>)	114
5- <u>Ma’ruza</u> . Hozirgi o‘zbek tilida fonemalarning variantlashuvi, fonetik jarayon...127	
6- <u>Ma’ruza</u> .Hozirgi o‘zbek tilida urg‘u va bo‘g‘in. Nutqning fonetik bo‘linishi (<i>“Klasterlash” usuli</i>).	134
7- <u>Ma’ruza</u> . Grafika. Orfoepiya. Imlo (<i>“Intervyu” usuli</i>).....	144
8- <u>Ma’ruza</u> . Leksikologiya, uning turlari, o‘rganish manbai va predmeti. Semasiologiya. (<i>Bumerang metodi</i>).....	173
9- <u>Ma’ruza</u> . Leksema. Leksema va so‘z munosabati	180
10- <u>Ma’ruza</u> . Leksemaning ifoda va mazmun tomoni. Polisemantiklik va ko‘p ma’ nolilik. (<i>Aqliy hujum usuli</i>)	192
11- <u>Ma’ruza</u> . Leksemalararo lisoniy ziddiyatlar va leksik paradigm.....	198
12- <u>Ma’ruza</u> . Leksikaning sistem tabiati va leksemalarning tizimiy birlashmalari.....	214
13- <u>Ma’ruza</u> . O‘zbek tilida barqaror birikmalar.....	231
14- <u>Ma’ruza</u> . O‘zbek leksikografiyasi.....	238

AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-Amaliy mashg‘ulot. Til, lison va nutq munosabati. Til sathlari va

birliklari bo'yicha mashq. (" <i>Aqliy hujum</i> " usuli)	248
2- <u>Amaliy mashg'ulot.</u> Unli fonemalar paradigmasi bo'yicha mashq (<i>BxBxB usuli</i>).....	251
3- <u>Amaliy mashg'ulot.</u> Undosh fonemalar paradigmasi bo'yicha mashq.....	257
4- <u>Amaliy mashg'ulo.</u> Fonetikada lisoniy munosabatlar bo'yicha mashq (" <i>Intervyu</i> " usuli)	264
5- <u>Amaliy mashg'ulot.</u> Fonetik hodisalar bo'yicha mashq (<i>Blits metodi</i>)	268
6- <u>Amaliy mashg'ulot.</u> Leksikologiya, uning turlari, o'rganish manbai va predmeti. Semasiologiya.....	275
7- <u>Amaliy mashg'ulot.</u> Leksemaning ifoda va mazmun tomoni. Polisemantiklik va ko'p ma'nolilik	279
8- <u>Amaliy mashg'ulot.</u> Leksemalar tahlili. (" <i>Intervyu</i> " usullari).....	283
9- <u>Amaliy mashg'ulot.</u> Leksemalararo lisoniy ziddiyatlar va leksik paradigma bo'yicha mashq.....	288
10- <u>Amaliy mashg'ulot.</u> Hozirgi o'zbek tili leksikasi tasnifi bo'yicha mashq (" <i>Toifali jadval</i> " usuli asosida).....	291
11- <u>Amaliy mashg'ulot.</u> Barqaror birikmalar bo'yicha mashq (" <i>Intervyu</i> va " <i>Bumerang</i> " usullari asosida).....	293
SEMINAR MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	298
NAZORAT SAVOLLARI.....	304
TEST TOPSHIRIQLARI.....	345
GLOSSARIY.....	370

SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda oliy maktabda ta‘lim tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish, talabalar uchun yangi, zamonaviy o‘quv dasturlari, darslik va qo‘llanmalar yaratish va ular bilan o‘tkaziladigan nazariy hamda amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirishni hozirgi davr kun tartibining dolzarb masalalari qilib qo‘ydi. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan oliy maktab ilmiy jamoalari oldiga qo‘yilayotgan yuksak talablarning boisi ham shundadir.

Oliy ta‘lim muassasalarida o‘zbek tilshunosligi fani va uning barcha sohalarini, ayniqsa, “Hozirgi o‘zbek tili” kursini ana shu talablar darajasida o‘qitish, buning uchun mavjud darslik va qo‘llanmalarni yangi mazmun asosida qayta ko‘rib chiqish zarurati tug‘ilmoqda. Chunki ular nazariy jihatdan eskirmagan bo‘lsa ham, darslik va qo‘llanmalar matnlaridagi iste‘moldan chiqqan ayrim so‘z va iboralar, atamalarni almashtirish zarurati paydo bo‘ldi.

Ushbu o‘quv uslubiy majmua besh qismdan iborat bo‘lib, ular sillabus, ishchi o‘quv reja, namunaviy va ishchi o‘quv dastur, modulni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta‘lim metodlari, ma‘ruza materiallari (ma‘ruza matni, adabiyotlar ro‘yxati, mustaqil ta‘lim mavzulari, glossariy, keyslar banki, nazorat savollari va test savollari) va amaliy mashg‘ulotlar materiallari (amaliy topshiriqlar, namuna, adabiyotlar ro‘yxati, tarqatma materiallar, keyslar banki, test savollari)dan tashkil topgan. Ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar materiallari semestrlarga ajratilgan holda berilgan.

“Hozirgi o‘zbek tili” fanining sillabusi
(2016/2017-o‘quv yili)

Kafedra nomi:	O‘zbek tilshunosligi	
O‘qituvchi haqida ma‘lumot:	T.To‘ayev	Filologiya fanlari nomzodi
Semestr va o‘quv kursining davomiyligi	2 semestr	
O‘quv soatlari hajmi:	jami:	118
	shuningdek:	
	Ma‘ruza	30
	Seminar	24
	Amaliy (laboratoriya)	22
	mustaqil ta‘lim	42
Yo‘nalish nomi va shifri	Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)	
	5120100	
<p>Kursning predmeti va mazmuni: “Hozirgi o‘zbek tili” fanining predmeti, vazifalarini yoritish, fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun mundarijasini belgilash, “Hozirgi o‘zbek tili” filologiya mutaxassisligi uchun asosiy poydevor fan ekanligini asoslash.</p> <p>Hozirgi o‘zbek tilining fonetik tizimi, asosiy lug‘at tarkibi va grammatik qurilishi qadim turkiy tillar manbaida yuzaga kelgan bo‘lib, davrlar o‘tishi bilan uning tovushlar tizimida sifat va miqdor o‘zgarishlari yuz bergan. Lug‘at tarkibi asosiy lug‘at fondi negizida yasalgan yangi so‘zlar hisobiga boyib, kengayib borgan, grammatik qurilishi ham yangi-yangi grammatik formalar vositasida silliqlashgan va takomillashgan.</p>		
<p>Kursni o‘qitishning maqsadi va vazifalari: “Hozirgi o‘zbek tili” kursi ta‘limining maqsadi Davlat ta‘lim standartlari asosida bo‘lajak filologlarga hozirgi o‘zbek tilining lisoniy qurilishi va imkoniyatlari hamda ularning nutqiy qo‘llanilishi masalalari bo‘yicha sistemali ilmiy-nazariy ma‘lumot berishdan iborat bo‘lib, ta‘lim oluvchilarda qayd etilgan masalalar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uning asosiy vazifalarini tashkil etadi.</p> <ul style="list-style-type: none"> – O‘quv fanining vazifalari: Fanni o‘qitishning vazifalari – talabalarda o‘zbek tilshunosligi sohasidagi asosiy muammolarni tushuntirish; – o‘z ixtisosligi doirasida muayyan tadqiqot sohasining ob‘ektlari va 		

- jarayonlariga nisbatan shaxsiy ilmiy filologik munosabatlarni shakllantirish;
- hozirgi o‘zbek tili muammolari va ularni hal qilish yo‘llari haqida *tasavvur hosil qilish*;
- hozirgi o‘zbek tili fanining tushunchaviy apparati haqida ma’lumot berish;
- hozirgi o‘zbek tili fanining metod va usullarini tahlil qilish;
- hozirgi o‘zbek tili fanining ilmiy-tadqiq mavzularini *o‘rgatish va ulardan foydalana olish ko‘nikmalarini shakllantirish*;
- o‘zbek tili va shevalari namunalarini yozib olish, to‘plash va nashrga tayyorlashni amalga oshirish.

Kursning tarkibi va mazmuni

№	Mavzular	Ma’ruza	Amaliy	Semi- nar	Musta- qil ta’lim
2-semestr					
1.	Kirish. O‘zbek tili va tilshunosligi taraqqiyoti.	2			2
2.	Til, lison va nutq munosabati. Til sathlari va birliklari. Lisoniy paradigma, lisoniy ziddiyat va uning turlari.	2	2	2	4
3.	Fonetika-fonologiya, uning o‘rganish manbayi va predmeti, yo‘nalishlari.	2	2	2	4
4.	Fonemalar paradigmasi va fonologik ziddiyatlar	2	2	2	4
5.	Hozirgi o‘zbek tilida fonetik jarayon (hodisalar)	2	2	2	4
6	Hozirgi o‘zbek tilida urg‘u va bo‘g‘in. Nutqning fonetik bo‘linishi	2	2	2	4
7	Grafika. Orfoepiya. Imlo.	2		2	4
8	Leksikologiya, uning turlari, o‘rganish manbayi va predmeti. Semasiologiya.	2	2	2	4
9	Leksema. Leksema va so‘z munosabati	2	2	2	2
10	Leksemaning ifoda va mazmun tomoni. Polisemantiklik va ko‘p ma’nolilik	2	2	2	2
11	Leksemalararo lisoniy ziddiyatlar va leksik paradigmalarni	2	2	2	2
12	Leksikaning sistem tabiati va leksemalarning tizimiy birlashmalari	2	2		2
13	O‘zbek tilida barqaror birikmalar	2	2	2	2
14	O‘zbek leksikografiyasi	4		2	2
Jami:		30	22	24	42

1-mavzu. O'zbek tili va tilshunosligi taraqqiyoti. Tilshunoslik fanining tushunchaviy terminologik apparati. Tilning ijtimoiy, biologik, fiziologik tabiati. Til kishilar o'rtasidagi munosabatning eng muhim quroli bo'lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va umuminsoniy manfaatlarga xizmat qiladi. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ekan, inson kamoloti haqida fikr yurituvchi barcha fanlarning o'rganish manbai tilga aloqador hisoblanadi.

2-mavzu. Til, lison va nutq munosabati. Til sathlari va birliklari. Lisoniy paradigma, lisoniy ziddiyat va uning turlari. Til – insoniy jamiyat uchun tayyor, umumiy, mohiyat xarakterdagi hodisa sifatida. Nutq - yakkalik, xususiylik, tilning moddiy voqelanish shakli sifatida. Til sathlari. Fonetik sath, leksik sath, Grammatik sath. Fonetik sath birliklari, leksik sath birliklari, Grammatik sath birliklari.

3-mavzu. Fonetika-fonologiya, uning o'rganish manbai va predmeti, yo'nalishlari. Fonetika va fonologiya, fonetikaning o'rganish manbayi, fonologiyaning o'rganish manbayi, yo'nalishlari.

4-mavzu. Fonemalar paradigmasi va fonologik ziddiyatlar. O'zbek tili fonemalari, unli va undosh fonemalar tizimi, fonemalar paradigmasi, fonologik ziddiyatlar, binar oppozitsiyalar.

5-modul. Hozirgi o'zbek tilida fonetik jarayonlar (hodisalar).

O'zbek tilida fonetik hodisalar. Kombinator omillar ta'sirida sodir bo'ladigan hodisalar. Pozitsion omillar ta'sirida sodir bo'ladigan hodisalar. Ularning fonema ottenkalarini shakllantirishi. Pozitsion o'zgarishlar. Sintagmatik omil va uning ta'sirida sodir bo'ladigan fonetik jarayonlar. Proteza, epenteza, epiteza. Tovush tushishi va uning turlari.

6-mavzu. Hozirgi o'zbek tilida urg'u va bo'g'in. Nutqning fonetik bo'linishi. Hozirgi o'zbek tilida urg'u. Hozirgi o'zbek tilida bo'g'in. Nutqning fonetik bo'linishi va uning nutq jarayonida voqelanishi.

7-mavzu. Grafika. Orfoepiya. Imlo. Grafika – tilshunoslik sohasi sifatida. Orfoepiya – talaffuz qoidalari haqidagi tarmoq. O'zbek tilining imlo qoidalari va uning takomillashish bosqichlari. Kirill yozuvi. Lotin yozuvi. So'zlarning kirill va lotin alifbosi asosida yozilishida tafovutlar ustida ish.

8-mavzu. Leksikologiya, uning turlari, o'rganish manbai va predmeti. Semasiologiya. Leksikologiya – so'z ma'nolari haqidagi fan sifatida. Tilning mazmuniy tomoni va uning shakily tomonga munosabati. Leksikologiya va uning turlari. Leksikologiyaning o'rganish manbayi. Semasiologik tadqiqotlar.

9-mavzu. Leksema. Leksema va so'z munosabati. Sistem-struktur tilshunoslik va uning metodlari. Leksema shakl va mazmun yaxlitligi sifatida.

Leksema va nomema munosabati. Leksema va semema munosabati. Soʻz – leksemaning voqelanish shakli sifatida.

10-mavzu. Leksemaning ifoda va mazmun tomoni. Polisemantiklik va koʻp maʼnolilik. Nomema – leksemaning shakliiy (tashqi) tomoni sifatida. Semema – leksemaning ichki (mazmuniy) tomoni sifatida. Leksemaning ifoda va mazmun tomoniga koʻra munosabat turlarini oʻrganish.

11-mavzu. Leksemalararo lisoniy ziddiyatlar va leksik paradigma. Leksemalarda shakl va maʼno munosabatiga koʻra semantik ziddiyatlar va leksik paradigma munosabati. Leksik paradigmalarni oʻrganishda semantic tadqiqotlarning oʻrni.

12-mavzu. Leksikaning sistem tabiati va leksemalarning tizimiy birlashmalari. Sistem-struktur metod va uning leksikaga taʼsiri. Leksikani sistem metod asosida tahlil qilish tamoyillari. Leksemalarning tizimiy birlashmalarini oʻrganish.

13-mavzu. Oʻzbek tilida barqaror birikmalar. Soʻzlarning erkin bogʻlanish omillari. Soʻzlarning barqaror birikish omillari. Turgʻun birikmalar va ularning nutqdagi oʻrni. Frazologizmlar – nutqni boyituvchi vositalar sifatida.

14-mavzu. Oʻzbek leksikografiyasi. Oʻzbek leksikografiyasi va uning tadqiq manbayi. Oʻzbek leksikografiyasi taraqqiyoti. Oʻzbek tilida lugʻatlar. Bir tilli ligʻatlar. Ikki tilli ligʻatlar.

Mustaqil taʼlim

“Tilshunoslik nazariyasi” fanini oʻrganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va fanga doir masalalarni yechishda koʻnikma hosil qilish uchun mustaqil taʼlim tizimiga asoslanib, kafedra oʻqituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qoʻshimcha adabiyotlarni oʻrganib hamda internet saytlaridan foydalanib referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy mashgʻulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, koʻrgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashgʻulotlarga tayyorgarlik;
- seminar mashgʻulotlariga tayyorgarlik;
- darslik va oʻquv qoʻllanmalar boʻyicha fan boblari va mavzularini oʻrganish;
- tarqatma materiallar boʻyicha maʼruza

	<p>qismini o'zlashtirish;</p> <ul style="list-style-type: none"> ▪ maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash; ▪ o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish; ▪ faol va muammoli o'qitish metodlaridan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari; ▪ masofaviy ta'lim.
--	---

Reyting nazoratlari va baholash mezonlari

Reyting nazorati jadvali

No	Reyting nazorat shakli, maksimal ballari	1-JN	2-JN	1-ON	2-ON	YaN	Ballar yig'indisi
1	Maksimal ball	30	30	15	15	30	100
2	Shakli:(test, yozma, og'zaki)	og'zaki	test	yozma	test	yozma	
	MT	og'zaki	og'zaki				
3	Muddati (haftalarda)	13	15	17	19	20	

Axborot resurslari bazasi

<i>Asosiy adabiyotlar</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'zME, 2013. 2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009. 3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010. 4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.
<i>Qo'shimcha adabiyotlar</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Fan, 2009. 2. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. Darslik. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2008. 3. Zamonaviy o'zbek tili. Sintaksis. Darslik. – Toshkent:

	<p>Mumtoz soʻz, 2013.</p> <ol style="list-style-type: none"> 4. Mirtojdiyev M. Oʻzbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013. 5. Nazarov K., Egamberdiyev B. Oʻzbek tili ishora-imlo qoidalari. (Punktuatsiya). Oliy oʻquv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun qoʻllanma. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1996. 6. Neʼmatov H, Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1989. 7. Neʼmatov H, Rasulov R. Oʻzbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1995. 8. Nurmonov A. Oʻzbek tilshunosligi tarixi. Oliy oʻquv yurtlari oʻzbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2002. 9. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixojayeva S. Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1992. 10. Oʻrinboyev B. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida sintaktik munosabatlar. (Oʻquv qoʻllanma). – Samarqand: SamDU nashri, 2002. 11. Hojiyev A. Oʻzbek tili soʻz yasalishi tizimi. Oliy oʻquv yurtlarining filologiya fakultetlari oʻqituvchi va talabalari uchun qoʻllanma. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2007. 12. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
<i>Normativ-huquqiy hujjatlar:</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Maʼnaviyat, 2008. 2. Karimov I.A. Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -Toshkent: Oʻzbekiston, 2011. 3. Karimov I.A. Oʻrta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati. -Toshkent, 2014
<i>Internet resurslar:</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. www.literature.uz 2. www.genhis.philol.ru. 3. 29.http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism 4. 30.http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

Ro‘yxatga olindi

№ BD-5120100-3

2016-yil “8” 08



Oliy va o‘rta maxsus
ta‘lim vazirligi

2016-yil “25” 08

**HOZIRGI O‘ZBEK TILI
FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta‘lim sohasi:	120000 – Gumanitar fanlar
Ta‘lim yo‘nalishi:	5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

TOSHKENT – 2016

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016-yil "25" 08 dagi 355-sonli buyrug'ining 2-ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2016-yil "8" 08 dagi 3-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

- M.Qurbonova – ToshDO'TAU "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida professori, filol.f.d.
R.Bahiddinova – ToshDO'TAU "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida dotsenti, filol.f.n.

Tayyorlovchilar:

- Mudiri O. – I.D. Muminov filologiya kafedrasida mudiri, filol.f.d., professor.
Kafedrasida M. – O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2016-yil "29" 08 dagi 1-sonli bayonnomasi).

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda dastur hozirgi o'zbek tilidagi lisoniy va nutqiy sathlarni izchil farqlab, lisoniy sistema sathlari va birliklari, bu birliklarning o'zaro munosabatlarini til imkoniyatlari sifatida tavsiflaydi, bu imkoniyatlarning nutqiy voqelanishini lisoniy va nolisoniy omillar yaxlitligida talqin qilish masalalari ta'limini sistemalashtiradi. Oliy ta'lim DTS asosida o'zbek tilining lisoniy sathlari bo'yicha beriladigan ma'lumotlarni tilshunoslikning tegishli bo'limlariga mos ravishda tartiblashtiradi.

Fanning maqsadi va vazifalari

"... 1989-yili yurtimizda "Davlat tili to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani va ushbu huquqiy norma Konstitutsiyamizda muhrlab qo'yilganini alohida ta'kidlash lozim". Shu ma'noda, "Hozirgi o'zbek tili" kursi ta'limining maqsadi Davlat ta'lim standartlari asosida bo'lajak filologlarga hozirgi o'zbek tilining lisoniy qurilishi va imkoniyatlari hamda ularning nutqiy qo'llanilishi masalalari bo'yicha sistemali ilmiy-nazariy ma'lumot berishdan iborat bo'lib, ta'lim oluvchilarda qayd etilgan masalalar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uning asosiy vazifalarini tashkil etadi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

Hozirgi o'zbek tili o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr hozirgi o'zbek tilining shakllanish tarixi, shevalarga munosabati, lisoniy sathlari, lisoniy paradigmalari, lisoniy birliklarining substansial imkoniyatlari, lisoniy munosabatlar, lisoniy tasnif asoslari, lisoniy birliklari substansial imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, imlo qoidalari va talaffuz me'yorlari, fonetikasi, leksikasi, morfemikasi, so'z yasalishi, morfologiyasi, sintaksisi, punktuatsiyasi haqida tasavvurga ega bo'lishi ko'zda tutildi. Shuningdek, hozirgi o'zbek tili sathlari va ularning birliklarini farqlash tamoyillarini, lisoniy munosabat hamda uning turlarining ilmiy asoslarini, lisoniy birliklar substansial imkoniyatlarini aniqlash usullarini, fonetik, leksik, grammatik imkoniyatlarini aniqlash asoslarini, substansial imkoniyatlarining nutqiy voqelanishida lisoniy, shaxsiy va pragmatik omillar roli va hamkorligining ilmiy asoslarini, imlo, talaffuz va punktuatsiyasi me'yorlarining ilmiy mezonlarini bilishi va ulardan foydalana olishi malakasini egallashlari ta'limning hal qiluvchi vazifalaridir. Pirovardida hozirgi o'zbek tilida lison, nutq hamda ular birliklarini farqlash asoslarini sharhlay olish, lisoniy va nutqiy birliklarini ajratish mezonlarini tushuntira olish, birliklar orasidagi lisoniy munosabatlarni tavsiflay olish, lisoniy imkoniyatlarini nutqiy vaziyat va sharoitga bog'liq ravishda samarali ishga solish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

Kursni o'zlashtirish uchun quyi ta'lim bo'g'inlaridagi "Hozirgi o'zbek adabiy tili" va oliy ta'limdagi "Tilshunoslikka kirish" fanlari bo'yicha egallangan ma'lumotlar zamin vazifasini o'taydi.

"Hozirgi o'zbek tili" kursi bakalavriat bosqichidagi "Qadimgi turkiy til", "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi", "O'zbek dialektologiyasi", "Umumiy tilshunoslik", "Ona tili o'qitish metodikasi", "O'zbek tili stilistikasi", shuningdek, magistratura bosqichidagi "Nazariy tilshunoslik masalalari", "Pragmalingvistika", "Matn tilshunosligi", "Psixolingvistika", "Lingvokulturologiya" kabi o'quv kurslari ta'limiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qismda (ma'ruza) kurs mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan til ta'limi sohasidagi o'zgarishlar, til imkoniyatlarini egallashni takomillashtirish, ta'lim va boshqa sohalardagi islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'nggi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Talabalarining o'zbek tilshunosligi fani bo'yicha o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida olgan bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish; o'zbek tilshunosligida qo'llanilayotgan atamalarni o'zlashtirish, hozirgi o'zbek tili fanining nazariy masalalarini yoritish; substansial yo'nalish muammolari ustida ishlash va hamda pragmatik lingvistika masalalarini chuqur o'rganishga da'vat etib, mukammal bilimli mutaxassis tayyorlash hozirda muhim ahamiyatga ega.

Fanni o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarining "Hozirgi o'zbek tili" kursini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish katta ahamiyatga egadir. Kursni o'qitishda ta'limning darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari kabi asosiy, lug'atlar, qomuslar, tarqatma, elektron materiallar, ko'rgazmali vositalardan, ma'ruza, seminar va amaliy va mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Klaster", "Aqliy hujum", "Keys-stadi", "Bumerang", "Matbuot konferensiyasi" singari metodlari orqali hamda slaydlar, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan-kompyuter, elektron darsliklar, elektron lug'atlar va internet materiallaridan, multimediya imkoniyatlaridan ham unumli foydalaniladi.

Asosiy qism

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. Hozirgi o'zbek tili va uning tabiati. Hozirgi o'zbek tilining manbalari. Hozirgi o'zbek tilining tarixiy ildizlari. Hozirgi o'zbek tilining dialektal tarkibi. Hozirgi o'zbek tiliga boshqa tillarning ta'siri. Hozirgi o'zbek tili tushunchasi. Uning lisoniy imkoniyat ekanligi va voqelanish shakllari: adabiy va noadabiy, og'zaki va yozma shakllari, uslubiy ko'rinishlari. Hozirgi o'zbek adabiy tilining dialektal asoslari. O'zbek tili davlat tili sifatida. Davlat tili tushunchasi va uning yondosh hodisalar (milliy til, xalq tili, xalqaro til, rasmiy til kabi) dan farqi.

Hozirgi o'zbek tilini ilmiy o'rganish bosqichlari. XX asrgacha bo'lgan o'zbek til ilmi. O'zbek an'anaviy tilshunosligi. O'zbek substansial tilshunosligi. Hozirgi o'zbek tilining yangi lingvistik paradigmalarda ilmiy talqin qilinishi.

Hozirgi o'zbek tili sathlari: fonetik-fonologik sath, leksik sath, grammatik sath. "Hozirgi o'zbek tili" fanining bo'limlari. Til sathlari va tilshunoslik bo'limlari munosabati.

Hozirgi o'zbek tilida lison, nutq, me'yor munosabati. Lison tilning immanent imkoniyati sifatida. Nutq til imkoniyatlarining lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida voqelang holati ekanligi. Lisonning umumiylik, mohiyat, imkoniyat, voqelik (UMIS), nutqning alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat (AHVO) tabiatiga egaligi. Lisoniy va nutqiy birliklar. Me'yor lison va nutqni bog'lovchi hodisa sifatida.

Hozirgi o'zbek tilida lisoniy munosabatlarning turlari: paradigmatic munosabat, sintagmatik munosabat, ularning xususiyatlari. Paradigmatic munosabatlarda lisoniy ziddiyatlar. O'zbek tili tizimida lisoniy ziddiyatning turlari: noto'liq (privativ) ziddiyat, teng qiymatli (ekvipolent) ziddiyat, darajali (gradual) ziddiyat, ularning xususiyatlari.

Hozirgi o'zbek tili hodisalarini tasniflash asoslari. Tasnif belgisi. Tasnifning turlari.

Hozirgi o'zbek tilining fonetik sathi va fonologiyasi

O'zbek tili fonetikasi va fonologiyasi tushunchalari. Empirik soha sifatidagi fonetika nazariy soha sifatidagi fonologiyaning asosi ekanligi. O'zbek tili fonologiyasi va uning asosiy birligi. Fonema va tovush munosabati, unda lison va nutq munosabatining aks etishi. Fonemaning turlari. Unli fonemalar va ularning substansial xususiyatlari, unli fonemalarni tasniflash asoslari. Undosh fonemalar va ularning substansial xususiyatlari, undosh fonemalarni tasniflash asoslari. Fonemalararo lisoniy ziddiyatlarning voqelanishi.

O'zbek tili fonemalari lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi. Nutqiy voqelanishda fonema lisoniy imkoniyatlarining nutqiy sharoit va vaziyatga moslashishi. Fonemalarning nutqiy voqelanishiga ta'sir qiluvchi lisoniy omillar: yondosh tovushlar, urg'u, bo'g'in, ohang va b. Fonemalarning nutqiy voqelanishiga ta'sir qiluvchi nolisoniy omillar (nutqiy vaziyat va sharoit, so'zlovchi shaxs va b.), ularning lisoniy omillar bilan uyg'unlashuvi.

Fonetikaning turlari, ularning maqsad va vazifalari. Nutq tovushlari fonetik birliklar sifatida. Nutq tovushining turlari, xususiyatlari. O'zbek nutq tovushlarining

fizik-akustik aspekti. Nutq tovushining akustik belgilari. O'zbek nutq tovushlarining anatomik-fiziologik aspekti. O'zbek tilida fonetik hodisalar. Kombinator omillar ta'sirida sodir bo'ladigan hodisalar. Pozitsion omillar ta'sirida sodir bo'ladigan hodisalar.

O'zbek tilida bo'g'in (sillabema) va uning xususiyatlari. Bo'g'in turlari. Bo'g'inning o'zgarishi. O'zbek tilida urg'u (aksentuatsiya) va ohang (intonatsiya). Urg'uning turlari. Urg'uning o'zgarishi.

O'zbek tili grafikasi, orfografiyasi va orfoepiyasi

O'zbek tilining yozuv tizimlari. Arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvi va uning xususiyatlari. Kirill alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvi va uning xususiyatlari. Lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuvi va uning o'ziga xos xususiyatlari, o'zbek milliy-madaniy taraqqiyotidagi roli.

O'zbek tili orfografiyasining asosiy prinsiplari: fonetik prinsip, fonematik prinsip, morfologik prinsip, grafik prinsip, tarixiy-an'anaviy prinsip, differensiatsiya prinsipi (simvolik prinsip), shakliy-an'anaviy prinsip.

O'zbek tili orfoepiyasi. Nutq tovushlari orfoepiyasi. Unli tovushlar orfoepiyasi. Undosh tovushlar orfoepiyasi. Adabiy orfoepiya. O'zlashma so'zlar talaffuzidagi muammolar. Orfoepiya va imlo munosabati.

Hozirgi o'zbek tilining leksik sathi va leksikologiya

Leksik sath, uning xususiyatlari va birligi. Leksema leksik sath birligi sifatida. Leksema va so'z, ularning xususiyatlari. Leksema va so'zda lison va nutq munosabatining aks etishi. Leksemaning tuzilishi, tub/yasalganligi, ma'no ko'lami, genezisi, qo'llanishi va boshqa belgilariga ko'ra turlari, munosabatlari. Semema va nutqiy ma'no, ularning turlari va xususiyatlari, uzual va okkazonal ma'no. Sema va uning xususiyatlari, semaning turlari. Leksemaning nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy (morfologik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar) omillar hamkorligi. So'zning ma'noviy taraqqiyoti. Leksema ma'nosining torayishi va kengayishi. Hosila ma'no vujudga kelish yo'llari va usullari: metafora va vazifadoshlik; metonimiya va sinekdoxa.

O'zbek tilida leksik-semantik sistemalar. Leksema – shakl va ma'no unsuridan iborat sistema sifatida. Lug'aviy qator. Lug'aviy mikrosistema. Lug'aviy-ma'noviy guruh. Lug'aviy-mavzuviy guruh. Lug'aviy-mavzuviy to'da. Lug'aviy-mazmuniy maydon.

O'zbek tilida paradigmatic munosabatlar. Sinonimiya. Sinonimik qator. Dominanta. Lisoniy sinonimlar, nutqiy sinonimlar. Sinonimik darajalanish (graduonimiya). Lug'aviy sinonimlarning markaz va qurshov qatlami.

Leksik antonimiya. Antonimik juftlik. Lisoniy va nutqiy antonimiya.

Omonimlar, omoformalar. Omonimiyaga yondosh hodisalar: omofonlar va omograflar. Paronim va paranomaziya.

Giponimiya, graduonimiya.

O'zbek tili leksikasida lisoniy ziddiyatlarning amal qilishi.

O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti. O'zbek tili leksikasida eskirgan qatlam va uning turlari: arxaizmlar va istorizmlar. So'z o'zlashtirish. O'zlashma va olinma so'zlar. So'z olish yo'llari.

O'zbek tili leksemalarining ishlatilish doirasi. Ishlatilish doirasi chegaralangan va chegaralanmagan leksika. Ishlatilish doirasi chegaralangan leksikaning turlari.

O'zbek tili leksikasining emotsional-ekspressivlikka munosabati. Ekspressivlikning ifodalanish usullari.

O'zbek tilida onomastik leksika, uning turlari va tarkibi.

O'zbek tili frazeologiyasi. Frazema. Frazeologik ma'no, uning turlari. Frazeologik-semantik munosabatlar. Frazemalarning nutqiy voqelanishi. Frazemaning nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy (morfologik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar) omillar hamkorligi.

Perifraza. Perifrazalarning turlari, tarkibi, uslubiy xususiyatlari.

Leksikografiya. Lug'at va uning turlari. Umumiy va maxsus, filologik va qomusiy, alifboli va sistemali, akademik va ta'limiy, bosma va elektron, yopiq (doimiy yangilanmaydigan) va ochiq (doimiy yangilanib turadigan) lug'atlar. O'zbek o'quv leksikografiyasi muammolari va o'quv lug'atlari.

Til korpusi.

O'zbek tili morfemikasi va derivatsiyasi

Morfema morfemika birligi sifatida. Morfemaning leksemaga munosabati. Morfemaning xususiyatlari, variantlari, tiplari: derivatsion va grammatik morfemalar. Derivatsion morfemaning turlari. Grammatik morfemaning turlari: lug'aviy shakl hosil qiluvchi morfemalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar. Morfemalarda shakl va ma'no munosabatlari. Morfema lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy (leksik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar va b.) omillar hamkorligi.

O'zbek tili derivatsiyasi va so'z yasalishi. So'z yasash qolipi. So'z yasash qolipi UMIS, yasama so'z AHVO sifatida. So'z yasash qolipining turlari: unumli va unumsiz, mahsuldor va kammahsul qoliplar. Yasama so'zlarning xususiyatlari, tiplari va turlari. Yasama so'z nutqiy, yasalgan so'z lisoniy hodisa ekanligi. Yasama so'z taraqqiyotida ixtisoslashish, soddalashish, tublashish hodisalari. So'z turkumlarida yasaliş va yasama so'zlarning leksemalashishi. So'z turkumlarining ko'chishi. So'z turkumlarida transpozitsiya, konversiya va polifunksionallik.

Hozirgi o'zbek tili grammatikasi

Morfologiya

Grammatikaning tarkibiy qismlari. Morfologiya, grammatik shakllangan so'z uning birligi sifatida. O'zbek tilida leksemani grammatik shakllantiruvchi vosita va uning turlari. Grammatik ma'no, uning turlari: morfologik va sintaktik ma'no, umumiy, oraliq va xususiy grammatik ma'no, kategorial, yondosh va hamroh ma'no, ularning xususiyatlari va turlari.

O'zbek tili grammatik (morfologik) kategoriyalari va ularning turlari: lug'aviy shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar. Grammatik shakl lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy (leksik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar va b.) omillar hamkorligi.

O'zbek tilida so'z turkumlari. So'zlarni turkumlash tamoyillari, tasnif asoslari. Mustaqil so'z turkumlari, ularning o'rganilish tarixiga sharh. Mustaqil so'z turkumlarining xususiyatlari, tiplari: o'zgaruvchi va o'zgarmas turkumlar,

muayyirdiy ma'noli turkumlar (olmosh, taqlid). Mustaqil so'z turkumlari tartibi.

Fe'l. Fe'ning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Fe'ning umumiy grammatik ma'nosi. Fe'ning lug'aviy-grammatik guruhlar. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'ning nutqdagi turlari: tuslangan va tuslanmagan ko'rinishlari; tuzilish turlari, to'liqsiz fe'llarning so'z turkumlari sistemasidagi o'rni.

Fe'ning tasniflovchi kategoriyalari. Nisbat kategoriyasi va uning shakllari tizimi. Nisbat kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi ularning substansial mohiyati sifatida. Nisbat kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi ularning substansial mohiyati sifatida. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasining tasdiq-inkor kategoriyasiga munosabati. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Fe'ning o'zgalovchi kategoriyasi va uning shakllari: sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi. O'zgalovchi kategoriya va shakllari umumiy grammatik ma'nosi ularning substansial mohiyati sifatida. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Fe'ning harakat tarzi kategoriyasi murakkab tarkibli kategoriya sifatida. [Ravishdosh+ko'makchi fe'l] harakat tarzi kategoriyasi shakli sifatida. Harakat tarzi kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Harakat tarzi kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Fe'ning nokategorial shakllari tizimi.

Ot va uning o'rganilish tarixi. Otning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Otning umumiy grammatik ma'nosi. Otning lug'aviy-grammatik guruhlar.

Otning tasniflovchi kategoriyasi. Son kategoriyasi va uning shakllari. Son kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Son kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Otning nokategorial shakllari.

Sifat va uning o'rganilish tarixi. Sifatning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sifatning lug'aviy-grammatik guruhlar. Asliy va nisbiy sifatlar.

Daraja sifatning tasniflovchi kategoriyasi sifatida. Daraja kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvi.

Sifatning nokategorial shakllari: kuchaytirma va ozaytirma shakllari.

Son va uning o'rganilish tarixi. Sonning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sonning lug'aviy-grammatik guruhlar va tasniflanishi. Son grammatik shakllarining lug'aviy ma'noga ta'sir qilish imkoniyatlari. Son shakllari umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvi. Numerativlar. Numerativli birikuvlarning qoliplari.

Ravish va uning o'rganilish tarixi. Ravishning mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. O'zgarmaslik ravishning grammatik belgisi sifatida. Ravishning lug'aviy-grammatik guruhlari.

Taqlid so'zlar, ularning o'rganilishi. Taqlidning mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. O'zgarmaslik taqlidning grammatik belgisi sifatida. Taqlidning lug'aviy-grammatik guruhlari.

Olmosh va uning o'rganilish tarixi. Olmoshning o'ziga xos ishoraviy (deyktik) tabiati, mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. Olmoshlarning matndagi o'rni. Sintaktik imkoniyatlari.

Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar va ularning turlari: egalik, kelishik va kesimlik kategoriyasi. Ularning umumturkumiy va sintaktik vazifa uchun xoslangan kategoriyalar ekanligi.

Egalik kategoriyasi va uning shakllari paradigmasi. Egalik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Egalik kategoriyasining turli mustaqil so'z turkumlarida qo'llanish xususiyatlari. Egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Kelishik kategoriyasi va uning shakllari paradigmasi. Kelishik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Kelishik kategoriyasining turli mustaqil so'z turkumlarida qo'llanish xususiyatlari. Kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Kesimlik kategoriyasi murakkab kategoriya sifatida. Kesimlik kategoriyasining tarkibi (shaxs-son, zamon, tasdiq/inkor, modallik kategoriyalari), uning shakllari paradigmasi. Shaxs-son kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nolari. Zamon kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nolari. Tasdiq-inkor kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nolari.

Kesimlik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Kesimlik kategoriyasining turli mustaqil so'z turkumlarida qo'llanish xususiyatlari. Kesimlik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi. Bog'lama.

Yordamchi so'zlar va ularning turlari: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

Ko'makchi, uning o'rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Ko'makchi lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Bog'lovchi, uning o'rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Bog'lovchi lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Yuklama, uning o'rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Yuklama lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar uyg'unligi.

So'z-gaplar, ularning o'rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. So'z-gaplar lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Sintaksis

Sintaksis va uning o'rganilish predmeti. Sintaktik birliklar: so'z birikmasi va gap. O'zbek tilida lisoniy sintaktik qolip va uning turlari: so'z birikmasi qoliplari va gap qoliplari, ularning qurilish xususiyatlari.

Valentlik, uning tildagi mohiyati. Valentlik va sintaktik aloqa UMIS va AHVO dialektikasining sintaktik sathdagi voqelanishi sifatida.

Erkin birikmalar va uning turlari. Soʻz birikmasi, uning xususiyatlari, tarkibi, tiplari va turlari, yondosh hodisalarga munosabati. Soʻz birikmasi lisoniy sintaktik qolipining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati. Soʻz birikmasi qoliplarida erkin birikuv omillari: maʼnoviy, shakliy va joylashuv omilari. Soʻz birikmasida tobe aloqaning turlari: moslashuv, boshqaruv, bitishuv aloqalari.

Gap va uning qurilish turlari. Sodda gap, uning lisoniy va nutqiy xususiyatlari. Sodda gap qolipi va uning turlari. Sodda gapning lisoniy belgilar asosidagi turlari: yigʻiq va yoyiq gap, bir bosh boʻlakli va ikki bosh boʻlakli gap. Sodda gap qoliplari. Gap boʻlaklari. Gap boʻlaklarida darajalanish (kesim – ega – hol – toʻldiruvchi – aniqlovchi). Gap markazi. Gap va soʻz kengaytiruvchilari.

Kesim – gap markazi va uning uyushtiruvchisi. Kesimning turlari: mustaqil va nomustaqil kesim, sodda va murakkab kesim. Feʼl kesim va ism kesim. Feʼl kesim, unda kesimlik kategoriyasining voqelanish imkoniyatlari kengligi. Feʼl kesimning tuzilish turlari va koʻrinishlari. Ism kesim, uning grammatik shakli, ifodalanishi. Bogʻlama, uning koʻrinishlari. Ism kesim, unda kesimlik kategoriyasining voqelanish xususiyatlari. Feʼl kesimning tuzilish turlari va koʻrinishlari.

Ega, uning gap qurilishidagi oʻrni. Egali va egasiz gaplar. Eganing ifodalanishi.

Hol, uning gap qurilishidagi oʻrni, maʼnoviy turlari, ifodalanishi.

Toʻldiruvchi, uning gap qurilishida soʻz kengaytiruvchisi sifatidagi oʻrni, ifodalanishi. Toʻldiruvchilarning turlari.

Aniqlovchi, uning gap qurilishidagi oʻrni, ifodalanishi. Aniqlovchining turlari.

Sodda gapning murakkablashuvi: gapning ajratilgan boʻlaklari, uyushiq boʻlaklar, undalma, kirish va kiritma kengaytiruvchilar.

Sodda gap lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Qoʻshma gap. Qoʻshma gap tasnifi asoslari. Qoʻshma gapning qurilishiga koʻra tasnifi: teng munosabatli, tobe munosabatli, mutanosib munosabatli qoʻshma gaplar. Qoʻshma gapning tarkibidagi bogʻlovchi vositalariga koʻra tasnifi: faqat ohang vositasida, yuklamalar vositasida, teng bogʻlovchilar vositasida, ergashtiruvchi bogʻlovchilar vositasida, nisbiy soʻzlar vositasida bogʻlangan qoʻshma gap.

Qoʻshma gapning tarkibiy qismlari orasidagi maʼnoviy munosabatga koʻra turlari: qismlari payt, oʻrin, sabab, birin-ketinlik, bir vaqtdalik, izohlash, qiyoslash va b. maʼnoviy munosabatlar asosida bogʻlangan qoʻshma gaplar. Qoʻshma gapning qismlari orasidagi funksional munosabatlarga koʻra turlari: kesim tobe gapli, ega tobe gapli, hol tobe gapli, toʻldiruvchi tobe gapli, aniqlovchi tobe gapli qoʻshma gap. Qoʻshma gap tarkibiy qismlarining irreallikka munosabatiga koʻra tasnifi.

Murakkab qoʻshma gap. Murakkab qoʻshma gaplarda sintaktik aloqa turlari.

Qoʻshma gap lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Oʻzga gapli qurilmalar, ularning turlari, lisoniy xususiyatlari, nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Uyushgan gap, uning sodda va qoʻshma gap oraligʻida tutgan oʻrni. Uyushgan gapning lisoniy-sintaktik qolipi, turlari, nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Murakkab sintaktik butunlik tushunchasi. Murakkab sintaktik butunlik matnning tarkibiy qismi sifatida. Murakkab sintaktik butunlik tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalar. Olmosh, so'z-gaplarning murakkab sintaktik butunlikdagi o'rnini. Murakkab sintaktik butunlik va mikrotekst. Murakkab sintaktik butunlik va abzats.

Punktuatsiya

Tinish belgilari yozma nutq mohiyatini anglashning muhim vositasi sifatida. O'zbek punktuatsiyasi tarixi. I-VIII asrlar yozuvlarida tinish belgilari. IX-XIX asrlarda tinish belgilarining turlari va xususiyatlari. XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning oxirlarigacha bo'lgan davrda tinish belgilari. XX asrning 90-yillaridan hozirgacha bo'lgan davrda tinish belgilarining xususiyatlari. Punktuatsiya qoidalarini belgilashda nutq mazmuni, qurilishi hamda intonatsion xususiyatlariga asoslanish. O'zbek tilshunosligi taraqqiyoti va punktuatsiya muammolari. Punktuatsiya va ohang. Punktuatsiya va sintaksis. Axborot texnologiyalari taraqqiyoti punktuatsiya muammolari.

Tinish belgilarining qo'llanishi: qo'llanish o'rnini va usuliga ko'ra, tuzilishi va vazifasiga ko'ra turlari. Tinish belgilarining takror va qator ishlatilishi.

Tinish belgilari vazifadoshligi. Vergul – tire vazifadoshligi. Qo'shtirnoq – tire vazifadoshligi. Ikki nuqta – vergul vazifadoshligi. Muallif punktuatsiyasi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulot talabalarni "Hozirgi o'zbek tili" faniga doir ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni og'zaki nutq va yozma matnlarni tanqidiy jihatdan tahlil va talqin qilishga yo'naltiradi. Talabalar to'plagan bilimlarini dars vaqtida munozara yoki ma'ruza ko'rinishida himoya qiladi. Amaliy mashg'ulotlarda talabalar "Hozirgi o'zbek tili" fanining o'ziga xos nazariy xususiyatlariga doir ilmiy masalalarni amaliy jihatdan o'rganishadi.

Amaliy mashg'ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular quyidagicha:

1. Matnni lisoniy va nutqiy birliklarga ajratish mashqlari.
2. Lisoniy munosabat va lisoniy ziddiyat bo'yicha mashq.
3. Fonemalarning lisoniy va nutqiy xususiyatlari bo'yicha mashq.
4. So'z urg'usi va bo'g'in turlari bo'yicha mashq.
5. Fonetik tahlil.
6. Orfografiya va orfoepiya tamoyillari bo'yicha mashq.
7. *Kompleks fonetik-orfoepik-orfografik tahlil.*
8. Leksema va so'z munosabati bo'yicha mashq.
9. Leksik ziddiyatlar bo'yicha mashq.
10. Semema va nutqiy ma'no, sema va uning turlari bo'yicha mashq.
11. So'z ma'nosi taraqqiyoti, hosila ma'noning vujudga kelish yo'llari va usullarini farqlash mashqlari.
12. Leksemalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra tahlili.
13. Leksemalarning tasnifi bo'yicha mashq.
14. Frazologik tahlil.
15. *Kompleks leksik tahlil.*
16. Morfemik tahlil. So'z yasalishi tahlili.

17. Grammatik ma'no turlari bo'yicha mashq.
18. Fe'ning lug'aviy-grammatik turlari va lug'aviy shakllari bo'yicha mashq.
19. Fe'l tahlili.
20. Otning lug'aviy-grammatik turlari va lug'aviy shakllari bo'yicha mashq.
21. Ot tahlili.
22. Sifatning lug'aviy-grammatik turlari va lug'aviy shakllari bo'yicha mashq.
23. Sifat tahlili.
24. Sonning lug'aviy-grammatik turlari va va lug'aviy shakllari bo'yicha mashq.
25. Son tahlili.
26. Ravish, uning lug'aviy-grammatik xususiyatlari va turlari bo'yicha mashq. Ravish tahlili.
27. Taqlid, uning lug'aviy-grammatik xususiyatlari va turlari bo'yicha mashq. Taqlid tahlili.
28. Olmosh, uning lug'aviy-grammatik xususiyatlari va turlari bo'yicha mashq. Olmosh tahlili.
29. Sintaktik kategoriyalar bo'yicha mashq.
30. Yordamchi so'zlar bo'yicha mashq.
31. Yordamchi so'zlar tahlili.
32. So'z-gaplar bo'yicha mashq.
33. So'z-gaplar tahlili.
34. Kompleks morfologik tahlil.
35. So'z birikmasi tahlili.
36. Sodda gap tahlili.
37. Gap bo'laklari tahlili.
38. Murakkab sodda gap tahlili.
39. Qo'shma gap tahlili.
40. O'zga gapli qurilmalar tahlili.
41. Uyushgan gap tahlili.
42. Kompleks sintaktik tahlil.
43. Murakkab sintaktik butunlik bo'yicha mashq va tahlil.
44. Uyushiq bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.
45. Ajratilgan bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.
46. Undalma va kiritmali gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.
47. Ohang yordamida birikkan gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.
48. Kiritma gapli qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlari talabalarni "Hozirgi o'zbek tili"ga oid ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni tanqidiy nuqtai nazaridan tahlil va talqin etishga yo'naltiradi. Talabalar egallagan bilimlarini dars paytida munozara yoki ma'ruza shaklida namoyish etadi.

Seminar mashg'ulotlarida talabalar hozirgi o'zbek tilining ilmiy muammolari to'g'risida amaliy ko'nikma va malaka hosil qilishadi.

Seminar mashgʻulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular quyidagicha:

1. Oʻzbek tilining taraqqiyot bosqichlari, manbalari va dialektal tarkibi.
2. Oʻzbek tilshunosligi taraqqiyoti va unda yangi lingvistik paradigmlar.
3. Hozirgi oʻzbek tilida lison, nutq, meʼyor munosabati. Lisoniy va nutqiy birliklar.
4. Hozirgi oʻzbek tilida lisoniy munosabat va uning turlari. Lisoniy ziddiyatlar. Lisoniy tasnif va uning turlari.
5. Fonetika va fonologiya. Fonema va tovushning dialektik munosabati.
6. Oʻzbek tilshunosligida aksentuatsiya va sillabika. Urgʻu va boʻgʻin.
7. Oʻzbek tilining yozuv tizimlari taraqqiyoti: taʼrix va muosir.
8. Oʻzbek tili orfografiyasining asosiy prinsiplari.
9. Leksik sath va uning birligi lingvistik muammo sifatida.
10. Leksemaning semantik strukturasi. Semema va sema munosabati. Sema turlari. Monosemiya va polisemiya.
11. Leksik-semantik sistemalar: lugʻaviy-maʼnoviy guruh, lugʻaviy-mazmuniy toʻda, lugʻaviy-mazmuniy maydon.
12. Oʻzbek tilidagi leksemalarning shakl va maʼno munosabatlari: omonimiya, sinonimiya, antonimiya, graduonimiya, giponimiya, partonimiya.
13. Oʻzbek tili leksemalari tasnifi.
14. Oʻzbek tili frazeologizmlari.
15. Oʻzbek leksikografiyasi va lugʻatchiligi. Umumiy va maxsus lugʻatlar. Akademik, ommabop va oʻquv lugʻatlari.
16. Morfema, uning turlari, lisoniy xususiyatlari va nutqiy voqelanishi.
17. Oʻzbek tili derivatsiyasi va soʻz yasalishi.
18. Grammatik shakl, grammatik maʼno va grammatik kategoriya.
19. Oʻzbek tilida soʻz turkumlari. Mustaqil soʻz turkumlari.
20. Feʼl, uning grammatik xususiyatlari va tasniflovchi kategoriyalari.
21. Ot, uning grammatik xususiyatlari va tasniflovchi kategoriyalari.
22. Sifat, uning grammatik xususiyatlari va tasniflovchi kategoriyalari.
23. Son, uning grammatik xususiyatlari va tasniflovchi kategoriyalari.
24. Ravish va uning grammatik xususiyatlari.
25. Taqlid va uning grammatik xususiyatlari.
26. Olmosh va uning grammatik xususiyatlari.
27. Oʻzbek tilida sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar. Egalik kategoriyasi, uning umumiy grammatik maʼnosi va shakllari paradigmasi. Egalik kategoriyasining mustaqil soʻz turkumlarida voqelanish imkoniyatlari.
28. Kelishik kategoriyasi, uning umumiy grammatik maʼnosi va shakllari paradigmasi. Kelishik kategoriyasining mustaqil soʻz turkumlarida voqelanish imkoniyatlari.
29. Kesimlik kategoriyasi, uning umumiy grammatik maʼnosi va shakllari paradigmasi. Kesimlik kategoriyasining mustaqil soʻz turkumlarida voqelanish imkoniyatlari.
30. Oʻzbek tilida soʻz-gaplar: tizimi, turlari va substansial-grammatik xususiyatlari.
31. Yordamchi soʻzlar: tizimi, turlari va substansial-grammatik xususiyatlari.

32. Sintaktik birliklar. Soʻz birikmasining lisoniy sintaktik xususiyati va bogʻlanish omillari.
33. Valentlik va sintaktik aloqa lison va nutq dixotomik boʻlinishida.
34. Sodda gapning lisoniy sintaktik xususiyatlari va nutqiy voqelanishi.
35. Gap boʻlaklari. Soʻz kengaytiruvchilari va gap kengaytiruvchilari.
36. Qoʻshma gap, uning lisoniy turlari va xususiyatlari.
37. Oʻzga gapli sintaktik hodisalarning lisoniy qurilish xususiyatlari.
38. Uyushgan gap va uning til lisoniy sintaktik sistemasidagi oʻrni.
39. Tinish belgilari: turlari va vazifalari. Tinish belgilarining qoʻllanishidagi muammolar.

Izoh: Mazkur roʻyxatdagi mavzulardan seminar mashgʻulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

Kurs ishini tashkil etish boʻyicha uslubiy koʻrsatmalar

Kurs ishlari talabalarning egallagan bilim va koʻnikmalarini amaliyotda sinash, nazariy tayyorgarlik asosida amaliy ishlarni bajarish malakasini oshirishga yoʻnaltiriladi.

Kafedra talabaga oʻzining eng yaqin yordamchisi sifatida munosabatda boʻlishi, ularning birorta mustaqil ish, referat, kurs ishi, bitiruv-malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasining kafedra istiqbolli ilmiy dasturidan tashqarida boʻlishiga yoʻl qoʻymasligi lozim. Buning uchun mustaqil ishlar uchun ajratilayotgan soatlardan unumli foydalanish, unga kafedraning toʻla maʼnodagi xazinasi sifatida qarash madaniyatini yuksaltirish zarur.

Talaba kafedraning istiqbolli ilmiy konsepsiyasida aks etgan uch bosqichli "fundamental tadqiqotlar → innovatsion tadqiqotlar → amaliy tadqiqotlar"ning uchinchi bosqichi boʻyicha faoliyat koʻrsatishi maqsadga muvofiq. U kafedraning ilmiy tadqiqotlari laboratoriyasi eksperimentatori maqomiga koʻtarilmogʻi lozim.

Uzoq yillar davomida kurs ishlari mavzulari asosan dars jarayonida oʻtilgan nazariy mavzular boʻyicha rejalashtirilib kelindi. Oqibatda koʻplab kurs ishlari tayyor nazariy maʼlumotlarning qayta bayon etishdan iborat boʻlishi anʼana tusini oldi. Bu esa talabada mustaqil izlanish, yaratuvchanlik faoliyatining passivlashib ketishiga, oʻzining esa koʻchirmakashlikka oʻrganib qolishiga olib keldi.

Taʼlim oluvchilarning professional kompetensiyasi asosida mustaqil va ijodiy fikrlash salohiyati yotadi. Shuning uchun talabalarni mahsulot yaratishga undovchi, ularning bu boradagi koʻnikmalarini rivojlantiruvchi faoliyat turlari bilan shugʻullanishlarini taʼminlaydigan amaliy ish turlarini rejalashtirish, har bir talabaning bajargan amaliy tadqiqoti kafedra ilmiy konsepsiyasining maʼlum bir zarrasi boʻlishiga erishish zarur. Buning uchun talabalar bajarishi lozim boʻlgan amaliy ishlarning kamida besh yillik dasturi ishlab chiqilishi va u davomiylik, uzviylik, uzluksizlik, takroriylikdan xolilik tamoyillari asosida boʻlmogʻi lozim. Yaʼni birinchi yilda bajarilgan ish ikkinchi yilda yangi bosqichda davom ettirilishi, ikkinchi yilda bajarilgan ishlar uchinchi yil topshiriqlari uchun material boʻlib xizmat qilishi kerak.

Albatta, bu kurs ishlariga rahbar qilib tayinlangan professor-oʻqituvchi zimmasiga katta masʼuliyat yuklaydi. Har bir bosqich kurs ishlari uchun kafedra umumiy rejasidan kelib chiqqan holda indiviudal rejalar tizimini shakllantirish,

ishlarning bajarilishini monitoring qilishning qulay va tezkor usullari ishlab chiqilishi zarur. Kurs ishlari himoyasi ham “reja→faoliyat→himoya” uzviy yaxlitligining yakuniy bosqichi sifatida aniq mezonlar asosida, natijalarni baholashning maqbul shakl, usul va vositalari uygʻunligida tashkil etiladi.

Kafedra 5 yilga moʻljallangan kurs ishlari mavzularini taʼlimning maʼlum boʻgʻini (bogʻcha, boshlangʻich sinf, oʻrta umumiy taʼlim, oʻrta maxsus taʼlim) uchun biror oʻquv lugʻatini yaratishni quyidagicha rejalashtirishi mumkin. Lugʻatni tayyorlash bosqichlari quyidagicha kechadi:

1-bosqich. Soʻz tanlash. Bunda talabalarga tegishli lugʻat uchun harflar asosida soʻz tanlash topshirigʻi kurs ishi sifatida beriladi. Talabalar sonidan kelib chiqqan holda harflar teng taqsimlanadi (bir harf bir necha talabaga boʻlib berilishi ham mumkin). Talaba oʻzi toʻplagan soʻzlarini nega tanlaganligini berilgan topshiriq mezonlari asosida himoya qiladi.

2-bosqich. Soʻzlarga misol tanlash. Talaba soʻzlarga koʻrsatilgan manbalar asosida tegishli misollar tanlaydi. Kartochkalarga yozadi. Misollarning kompyuter variantini tayyorlaydi.

3-bosqich. Berilgan misollarni guruhlariga ajratish va har bir guruhga tegishli umumiy belgilarni aniqlash.

4-bosqich. Maʼnolarni izohlash.

5-bosqich. Lugʻat maqolalarini tuzish, tahrir qilish.

Kafedra professor-oʻqituvchilari lugʻatni nashrga tayyorlash ishlari bilan shugʻullanadi.

Shu asosda talabalarni kuchi va ilmiy rahbarning koʻrsatmalari asosida bir oʻquv lugʻati yaratiladi.

Agar tegishli har bir universitetdagi kafedrada shunday tipdagi oʻquv lugʻatlari yaratilsa, demak, 5 yilda taxminan respublikaning turdosh kafedralarida 10 ga yaqin oʻquv lugʻati dunyoga keladi.

Kurs ishlari uchun tayanch kafedra tomonidan turdosh kafedralar uchun tavsiya etilayotgan uzoq muddatli konseptual mavzular quyidagilar:

1. Oʻzbek tilining oʻquv izohli lugʻati (OʻzMU).
2. Oʻzbek tilining maʼnodosh soʻzlar oʻquv izohli lugʻati (AnDU).
3. Oʻzbek tilining zid maʼnoli soʻzlar oʻquv izohli lugʻati (BuxDU).
4. Oʻzbek tilining shakldosh soʻzlar oʻquv izohli lugʻati (GulDU).
5. Oʻzbek tilining talaffuzdosh soʻzlar oʻquv izohli lugʻati (NamDU).
6. Oʻzbek tilining soʻz yasalishi oʻquv lugʻati (NukusDU)
7. Oʻzbek tili iboralarining oʻquv izohli lugʻati (SamDU).
8. Oʻzbek tilining soʻzlar darajalanishi oʻquv izohli lugʻati (UrDU).
9. Oʻzbek tilining uyadosh soʻzlar oʻquv izohli lugʻati (FarDU).
10. Oʻzbek tilining eskirgan soʻzlar oʻquv izohli lugʻati (TerDU).
11. Oʻzbek tilining oʻzlashma soʻzlar oʻquv izohli lugʻati (QarDU).

Tayanch oliy oʻquv yurti Oʻzbek tilshunosligi kafedrasi ushbu amaliy tadqiqotlarni muvofiqlashtirish, tayyor boʻlgan lugʻatni taqrizlash, masʼul muharrirlik qilish masʼuliyatini oʻz zimmasiga oladi.

Mustaqil taʼlimni tashkil etishning shakli va mazmuni

“Hozirgi oʻzbek tili” fanini oʻrganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy

bilimlarini mustahkamlash va tilshunoslikning amaliy masalalarni hal qilishda ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib hamda Internet saytlaridan foydalanib referat va ilmiy doklad tayyorlaydi, amaliy mashg'ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradi, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydi.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishga tavsiya etiladi:

1. Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan mavzularini o'rganish.
2. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish.
3. Internet saytlaridan ma'lumotlarni tanlash va o'zlashtirish.
4. Maxsus adabiyotlar bo'yicha referat va konspektlar tayyorlash;
5. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanish.
6. Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish.
7. Ilmiy ma'ruza tayyorlash.
8. Slaydlar tayyorlash.
9. Grafikli organayzerlar tayyorlash.
10. Misollar to'plash.
11. Lingvistik masalalar tayyorlash.
12. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida e'lon qilingan maqolalar ustida ishlash.
13. "Til va adabiyot ta'limi" jurnalida e'lon qilingan maqolalar ustida ishlash.
14. "Filologiya masalalari" jurnalida e'lon qilingan maqolalar ustida ishlash.
15. Mavzu bo'yicha Internet materiallari bilan tanishish.

Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan mustaqil ta'lim mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

Dasturning informatsion-metodik ta'minoti

Ilmiy-nazariy adabiyotlar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, lug'atlar, shuningdek, axborot texnologiyalari (kompyuter, internet materiallari, proyektor, slaydlar, prezentatsiyalar va hokazolar) keng qo'llaniladi. Slaydlar asosida o'quv loyihalari, grafikli organayzerlar, keys-stadilar tayyorlash ko'zda tutilgan. Shuningdek, grafikli organayzerlar asosida ko'p bosqichli testlar yaratish bo'yicha kurs ishlarini bajarishda axborot texnologiyalaridan unumli foydalaniladi va elektron testlar tizimi vujudga keltiriladi. Mavzuning xarakteri va murakkablik darajasi va mashg'ulot turidan kelib chiqqan holda o'qitishning an'anaviy (ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, kollokvium, turli xil lug'atlar, shuningdek, ko'rgazmali qurollardan) va noan'anaviy (aqliy hujum, komandada o'qitish, aralash va turli xil didaktik o'yinlardan) turlardan unumli foydalaniladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Rahbariy adabiyotlar

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

Asosiy adabiyotlar

2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - Toshkent: O'zME, 2013.

3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.

4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.

5. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.

Qo'shimcha adabiyotlar

6. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2009.

7. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. Darslik.– Toshkent: Mumtoz so'z, 2008.

8. Zamonaviy o'zbek tili. Sintaksis. Darslik. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.

9. Mirtojiyev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.

10. Nazarov K., Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. (Punktuatsiya). Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.

11. Ne'matov H, Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.

12. Ne'matov H, Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.

13. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. Oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.

14. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo'jayeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1992.

15. O'rinboyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida sintaktik munosabatlar. (O'quv qo'llanma). – Samarqand: SamDU nashri, 2002.

16. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari o'qituvchi va talabalari uchun qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.

17. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.

Elektron manbalar

18. www.ziyo.net

19. www.thinsan.com


20. www.uforum.uz

21. www.literature.uz

Ro'yxatga olindi

№ 301.52-5/20100

201_-yil "4" 09



"HOZIRGI O'ZBEK TILI" FANIDAN

ISHCHI O'QUV DASTURI

Ta'lim yo'nalishi: 5120100 - Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Umumiy o'quv soati - 118

Shu jumladan:

Ma'ruza mashg'ulot - 30

Amaliy mashg'ulot - 22

Seminar mashg'uloti - 24

Mustaqil ish - 42

TOSHKENT – 2016

Fanning ishchi o'quv dasturi o'zbek tili va adabiyoti fakulteti tomonidan tasdiqlangan naminaviy o'quv dasturi asosida ishlatilmoqda.

Tuzuvchi

prof. M. Qurbanova
Ara. B. Haliyiddinova

Taqiqlanuvchi

prof. H. R. Mengliyev

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbek tili va adabiyoti fakultetining 2016-yil 29-avgustdagi 7-sonli majlisida muhokama qilinib va o'ziga qo'llangan.

Kavafidan muhokama

H. R. Mengliyev

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbek filologiyasi fakulteti Fani kengashining 2016-yil 25-avgustdagi 7-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlanib tavsiya etilgan.

Dekan

prof. B. R. Mengliyev

Mazkur ishchi o'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'quv-uslubiy kengashining 2016-yil 25-avgustdagi majlisida tasdiqlangan.

O'quv-uslubiy boshqarmasi boshlig'i

A. Fayzullayev

2016-2017-o‘quv yili uchun “Hozirgi o‘zbek tili” fani ishchi o‘quv dasturiga kiritilgan o‘zgartirish haqida

1. Ishchi dasturda namunaviy o‘quv dasturdagi kabi o‘quv fanining maqsadi va vazifalari, fan bo‘yicha talabalarning bilimi, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar, fanning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi, fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni, fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, rejalashtirilgan mashg‘ulotlar mavzusi qo‘yildi.

2. Amaliy va seminar mashg‘ulotlari mavzulari qayta ko‘rib chiqildi va juz‘iy o‘zgartirishlar kiritildi.

O‘zgartirish va qo‘shimchalar kirituvchi: dots. T.Tog‘ayev

Fanning dolzarbligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”dan, shuningdek, “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asaridan kelib chiqqan holda talabalarda “Hozirgi o‘zbek tili” fanining predmeti, vazifalarini yoritish, fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun mundarijasini belgilash, “Hozirgi o‘zbek tili” filologiya mutaxassisligi uchun asosiy poydevor fan ekanligini asoslash.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fan dasturi va kursi oliy o‘quv yurtlari o‘zbek filologiyasi bakalavriat bosqichi talabalarining hozirgi o‘zbek tili haqidagi tushunchalarini, xususan, til, lison va nutq munosabati, unli va undosh fonemalar paradigmasi, urg‘u, bo‘g‘in, talaffuz va imlo, grafika, leksikologiya, leksema va so‘z, leksemalararo lisoniy ziddiyatlar, leksik paradigma, o‘zbek tilida barqaror birikmalar, o‘zbek leksikografiyasiga oid bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish va oshirishga yordam beradi.

Fanning asosiy maqsad va vazifalari

“Hozirgi o‘zbek tili” fani o‘zbek filologiyasi mutaxassisliklar uchun asosiy poydevor fanlardan hisoblanadi.

“Hozirgi o‘zbek tili” fanini o‘qitishdan maqsad Davlat ta‘lim standartlari asosida bo‘lg‘usi filologlarga o‘zbek tilining fonetik qurilishi, fonetik qonuniyatlari, lug‘at tarkibi, leksik-semantik guruhlari, lug‘atchilik masalasi, morfemik qurilishi, so‘z yasalishi tizimi, so‘z turkumlari, sintaktik qurilishi (so‘z birikmasi, sodda gap, qo‘shma gap va matn sintaksisi) muammolari yuzasidan izchil ilmiy–nazariy ma‘lumot berishdan, immanent imkoniyat sifatida ularning ongida joylashgan ifoda vositalarini yetkazishdan iborat.

Fan bo‘yicha talabalarining bilim, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar Hozirgi o‘zbek adabiy tili o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- o‘zbek tilshunosligi sohasidagi asosiy muammolarni tushunishi;
- o‘z ixtisosligi doirasida muayyan tadqiqot sohasining ob‘ektlari va jarayonlariga nisbatan shaxsiy ilmiy filologik munosabatlar;
- hozirgi o‘zbek tili muammolari va ularni hal qilish yo‘llari haqida *tasavvurga ega bo‘lishi*;
- hozirgi o‘zbek tili fanining tushunchaviy apparati;
- hozirgi o‘zbek tili fanining metod va usullari;
- hozirgi o‘zbek tili fanining ilmiy-tadqiq mavzularini *bilishi va ulardan foydalana olishi*;
- hozirgi o‘zbek tilida lison, nutq hamda ular birliklarini farqlash asoslarini sharhlay olish;

- hozirgi o'zbek tili lisoniy va nutqiy birliklarini ajratish mezonlarini tushuntira olish;
- hozirgi o'zbek tili birliklari orasidagi lisoniy munosabatlarni tavsiflay olish;
- hozirgi o'zbek tili lisoniy imkoniyatlarini nutqiy vaziyat va sharoitga bog'liq ravishda *samarali ishga solish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Mazkur fan oliy ta'limning bakalavriat bosqichi filologiya yo'nalishida o'qitilayotgan "Tilshunoslikka kirish", "Qadimgi turkiy til", "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi", "O'zbek dialektologiyasi", "Umumiy tilshunoslik", "Kompyuter tilshunosligi" "Ona tili o'qitish metodikasi", "Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari", "Tilshunoslik va tabiiy fanlar", "Sotsiolingvistika" fanlari bilan, shuningdek, magistratura bosqichidagi "Amaliy tilshunoslik", "Matn tilshunosligi", "O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari", "Psixolingvistika", "Areal tilshunoslik", "Struktural tilshunoslik" kabi fanlar bilan uzviy bog'liqligi.

Fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'rni

Talabalarda o'zbek tilshunosligi fani bo'yicha o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassalarida olgan bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish; tilshunoslik, xususan, o'zbek tilshunosligida qo'llanilayotgan atamalarni o'zlashtirish, Hozirgi o'zbek tili fanining nazariy masalalarini yoritish; substansial (zotiy) yo'nalish muammolari ustida ishlash va kognitiv hamda paradigmatic lingvistika masalalarini chuqur o'rganishga da'vat etib, mukammal bilimli mutaxassis tayyorlash hozirda muhim ahamiyatga ega.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda o'quv mashg'ulotlarini loyihalash

"Hozirgi o'zbek tili" fanini o'qitishda mavzularning xarakteri va murakkablik darajasidan kelib chiqib o'qitishning an'anaviy (ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, kollektivium, shuningdek, ko'rgazmali qurollardan) va noan'anaviy (aqliy hujum, komandada o'qitish, arralash va turli xil didaktik o'yinlardan), shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan - kompyuter, elektron darsliklar, elektron lug'atlar va internet materiallaridan, multimediya imkoniyatlaridan unumli foydalaniladi. Ma'lumki, har qanday tilni o'qitishda bo'lganidek, bu fanni o'qitishda ham lug'atlar (izohli lug'atlar, elektron lug'atlar, lingvistik lug'atlar va h.k.lar)dan keng foydalaniladi.

Fan o'qituvchisi tomonidan pedagogik va modulli texnologiya tamoyilari asosida o'quv mashg'ulotlarining loyihalari ishlab chiqiladi.

"Hozirgi o'zbek tili" kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish

maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

Fan modulining dasturi (module sillabus)

O'quv kursining to'liq nomi	Hozirgi o'zbek tili (Fonetika)	
Kursning qisqacha nomi:	HO'T	
Kafedra nomi:	O'zbek tilshunosligi	
O'qituvchi haqida ma'lumot:	Tog'ayev To'lqin Mamanazarovich	tm-togav@mail.ru
Semestr va o'quv kursining davomiyligi	2-semestr	
O'quv soatlari hajmi:	Jami:	118
	Shuningdek:	
	Ma'ruza	30
	Seminar	22
	Amaliy	24
	Mustaqil ta'lim:	42
O'quv kursining statusi	Umumkasbiy fanlar bloki	
Dastlabki tayyorgarlik:	Kurs "Hozirgi o'zbek adabiy tili, "Tilshunoslikka kirish", "Qadimgi turkiy til", "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi", "O'zbek dialektologiyasi" fanlaridan o'zlashtirilgan bilimlarga asoslanadi.	

Fanning predmeti va mazmuni – "Hozirgi o'zbek tili" fanining predmeti, vazifalarini yoritish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun mundarijasini belgilash, "Hozirgi o'zbek tili" filologiya mutaxassisligi uchun asosiy poydevor fan ekanligini asoslash.

Hozirgi o'zbek tilining fonetik tizimi, asosiy lug'at tarkibi va grammatik qurilishi qadim turkiy tillar manbaida yuzaga kelgan bo'lib, davrlar o'tishi bilan uning tovushlar tizimida sifat va miqdor o'zgarishlari yuz bergan. Lug'at tarkibi asosiy lug'at fondi negizida yasalgan yangi so'zlar hisobiga boyib, kengayib borgan, grammatik qurilishi ham yangi-yangi grammatik formalar vositasida silliqlashgan va takomillashgan.

Fanni o'qitishdan maqsad – Davlat ta'lim standartlari asosida bo'lajak filologlarga hozirgi o'zbek tilining lisoniy qurilishi va imkoniyatlari hamda ularning nutqiy qo'llanilishi masalalari bo'yicha sistemali ilmiy-nazariy ma'lumot berishdan iborat.

Fanning vazifasi – ta'lim oluvchilarda qayd etilgan masalalar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

"Hozirgi o'zbek tili" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- hozirgi o'zbek tilining shakllanish tarixi;
- hozirgi o'zbek adabiy tilining shevalarga munosabati;
- hozirgi o'zbek tili lisoniy sathlari;
- hozirgi o'zbek tili lisoniy paradigmalari;
- hozirgi o'zbek tili lisoniy birliklarining substansial imkoniyatlari;

- hozirgi o‘zbek tilidagi lisoniy munosabatlar;
- lisoniy tasnif asoslari;
- hozirgi o‘zbek tili lisoniy birliklari substansial imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi;
- hozirgi o‘zbek tili imlo qoidalari va talaffuz meyorlari;
- hozirgi o‘zbek tili fonetikasi, leksikasi, morfemikasi, so‘z yasalishi, morfologiyasi, sintaksisi, punktuatsiyasi *haqida tasavvurga ega bo‘lishi*;
- hozirgi o‘zbek tili sathlari va ularning birliklarini farqlash tamoyillarini;
- hozirgi o‘zbek tilidagi lisoniy munosabat hamda uning turlarining ilmiy asoslarini;
- hozirgi o‘zbek tili lisoniy birliklari substansial imkoniyatlarini aniqlash usullarini;
- hozirgi o‘zbek tilining fonetik imkoniyatlarini aniqlash asoslarini;
- hozirgi o‘zbek tilining leksik-frazeologik imkoniyatlarini aniqlash asoslarini;
- hozirgi o‘zbek tili imlo, talaffuz va punktuatsiyasi meyorlarining ilmiy mezonlarini *bilishi va ulardan foydalana olishi*;
- hozirgi o‘zbek tilida lison, nutq hamda ular birliklarini farqlash asoslarini sharhlay olish;
- hozirgi o‘zbek tili lisoniy va nutqiy birliklarini ajratish mezonlarini tushuntira olish;
- hozirgi o‘zbek tili birliklari orasidagi lisoniy munosabatlarni tavsiflay olish;
- hozirgi o‘zbek tili lisoniy imkoniyatlarini nutqiy vaziyat va sharoitga bog‘liq ravishda *samarali ishga solish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak*.

Kursning tarkibi va mazmuni

№	Mavzular	Ma’ruza	Amaliy	Semi- nar	Musta qil ta’lim
2-semestr					
1.	Kirish. O‘zbek tili va tilshunosligi taraqqiyoti.	2			2
2.	Til, lison va nutq munosabati. Til sathlari va birliklari. Lisoniy paradigma, lisoniy ziddiyat va uning turlari.	2	2	2	4
3.	Fonetika-fonologiya, uning o‘rganish manbayi va predmeti, yo‘nalishlari.	2	2	2	4
4.	Fonemalar paradigmasi va fonologik ziddiyatlar	2	2	2	4
5.	Hozirgi o‘zbek tilida fonemalarning variantlashuvi, fonetik jarayon	2	2	2	4
6.	Hozirgi o‘zbek tilida urg‘u va bo‘g‘in. Nutqning fonetik bo‘linishi	2	2	2	4

7	Grafika. Orfoepiya. Imlo.	2		2	4
8	Leksikologiya, uning turlari, o'rganish manbasi va predmeti. Semasiologiya.	2	2	2	4
9	Leksema. Leksema va so'z munosabati	2	2	2	2
10	Leksemaning ifoda va mazmun tomoni. Polisemantiklik va ko'p ma'nolilik	2	2	2	2
11	Leksemalararo lisoniy ziddiyatlar va leksik paradigm	2	2	2	2
12	Leksikaning sistem tabiati va leksemalarning tizimiy birlashmalari	2	2		2
13	O'zbek tilida barqaror birikmalar	2	2	2	2
14	O'zbek leksikografiyasi	4		2	2
Jami:		30	22	24	42

**Bilimlarni baholash va usullari, mezonlari va tartibi:
JN va ON ning ballari ishchi dasturda beriladi**

Baholash usullari	Testlar, yozma ishlar, og'zaki so'rov, prezentatsiya
Fan bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish va baholash	Nazorat shakllari Joriy nazorat: Og'zaki savol-javob, amaliy mashqlarni bajarish, testlar, taqdimotlar, referatlar shaklida Oraliq nazorat: og'zaki shaklda

Fan bo'yicha talabalar bilimni baholash mezoni

Ball	Talabaning bilim darajasi
86-100 ball	- talaba mashg'ulotlarga doim tayyorlanib keladi, juda faol, dasturiy materiallarni yaxshi biladi, xulosa va qarorlar qabul qila oladi, ijodiy fikrlaydi, bilimlarni amaliyotda qo'llay oladi. - talaba ijodiy masalalarni hal qilish mobaynida tegishli bilimlarni qo'llash doirasini maqsadga muvofiq tanlab, yechimini topishga xizmat qiluvchi yangi usul va yo'nalishlarni topa oladi, o'quv materiali mohiyatini tushunadi. - talaba taqdim etilgan o'quv masalalarini yechish yo'llarini izlaydi, dasturiy materiallarni biladi va aytib bera oladi hamda tasavvurga ega bo'ladi.
71-85 ball	- talaba o'rganilayotgan hodisalar aloqadorligini bilish hamda ob'vektni tavsiflay olish ko'nikmasiga ega

	<p>bo'lishi bilan birgalikda, qo'yilgan masalalarni sabab-oqibat aloqadorligini ochib bergan holda yecha oladi, o'rganilayotgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lay oladi va mustaqil mushohada qila oladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - bilim va ko'nikmalar mazmunini tadbiq qila olish mahorati, bir tipdagi mashq va topshiriqlarni yecha olish, yozib olish va eslab qolish qobiliyatiga ega, bilimlarini amalda qo'llay oladi.
55-70 ball	<ul style="list-style-type: none"> - talabaning eshitganlari, ularga berilgan namunalari, taqdim etilgan ko'rsatmalar asosida topshiriqlarni bajara oladi, mohiyatni tushunadi. - talaba qator belgilar asosida ma'lum birliklarni farqlash bilan birga unga ta'rif bera oladi va o'quv materialini tushuntirib bera oladi.
0-54 ball	<ul style="list-style-type: none"> - talaba fan mavzulari bo'yicha umumiy tasavvurga ega emas. - talaba dasturiy materiallarni bilmaydi.
Fanga doir video ma'ruzalar, video roliklar	
Glossariy	
Axborot resurs baza	

ASOSIY QISM

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

1-modul. O'zbek tili va tilshunosligi taraqqiyoti

O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. Hozirgi o'zbek tili va uning tabiati. Hozirgi o'zbek tilining manbalari. Hozirgi o'zbek tilining tarixiy ildizlari. Hozirgi o'zbek tilining dialektal tarkibi va asoslari. Hozirgi o'zbek tiliga boshqa tillarning ta'siri. Hozirgi o'zbek tilining og'zaki va yozma shakllari, uslubiy ko'rinishlari. O'zbek tili davlat tili sifatida.

Hozirgi o'zbek tilini ilmiy o'rganish bosqichlari.

2-modul. Til, lison va nutq munosabati. Til sathlari va birliklari. Lisoniy paradigma, lisoniy ziddiyat va uning turlari

Til – insoniy jamiyat uchun tayyor, umumiy, mohiyat xarakterdagi hodisa sifatida. Nutq - yakkalik, xususiylik, tilning moddiy voqelanish shakli sifatida. Til sathlari. Hozirgi o'zbek tili sathlari: fonetik sath, leksik sath, grammatik sath. Fonetik sath birliklari, leksik sath birliklari, grammatik sath birliklari.

3-modul. Fonetika-fonologiya, uning o'rganish manbai va predmeti, yo'nalishlari

Fonetika haqida umumiy tushuncha. Fonetikaning ob'ekti, maqsadi va vazifalari. Fonetik birliklarning segment va supersegment turlari. Fonetik birliklarning til tizimidagi vazifalari, birliklarning shakllanishidagi roli.

Fonetikaning tekshirish uslubi va maqsadiga ko'ra turlari: umumiy fonetika, qiyosiy fonetika, tavsifiy fonetika, tarixiy fonetika, eksperimental fonetika. Fonetikaning to'rt aspekti. Tovushning murakkab hodisa ekanligi.

4-modul. Fonemalar paradigmasi va fonologik ziddiyatlar

Fonema haqida ma'lumot. Fonemaning differensial va integral belgilari; fonologik zidlanishlar, ularning turlari, korrelyatsiya; fonema ottenkalari va fonema qatori, fonemalarning variatsiyalari va variantlari; transkripsiya, uning turlari.

Hozirgi o'zbek tili vokalizmi. Vokalizm haqida ma'lumot. Unlilar tasnifi. Bunday tasnifning hozirgi o'zbek tilshunosligida har xilligi, uning sabablari. Ayrim unlilar tasnifi, ularning kombinator va pozitsion ko'rinishlari. Unli fonemalarning kombinator va pozitsion ottenkalari (allafonlari).

Fonetikaning fizik-akustik aspekti: tovushning balandligi, kuchi, tembri, cho'ziqligi, ovoz (asosiy ton), qo'shimcha tonlar va shovqin, ularning fonetik-fonologik sathdagi roli.

Fonetikaning anatomik-fiziologik aspekti: nutq a'zolari anatomiyasi (nafas apparati, bo'g'iz bo'shlig'i, halqum, og'iz bo'shlig'i, burun bo'shlig'i), nutq a'zolari fiziologiyasi (nutq a'zolari faoliyatining bosh miya tomonidan boshqarilishi), bosh miya markazi va eshituv markazi kabi nerv hujayralari faoliyatining nutq a'zolari harakatidagi kechimlarni boshqarishi; nutq a'zolarining ijro kechimi: artikulyasiya o'rni, artikulyasiya usuli, artikulyasiya bazasi, artikulyasiya bosqichlari (ekskursiya, ish holati, rekursiya).

Eshitib his etish aspekti (perseptiv aspekt). Bu aspektda o'rganiladigan hodisalarning lisoniy kommunikatsiyadagi roli.

5-modul. Hozirgi o'zbek tilida fonemalarning variantlashuvi, fonetik jarayon

Hozirgi o'zbek tili konsonantizmi. Konsonantizm haqida ma'lumot. Undosh fonemalarning fokuslari. Bir fokusli va ikki fokusli undoshlar. Undosh fonemalar tasnifi: artikulyatsiya o'rniga, artikulyatsiya usuliga, un paychalarining ishtirokiga hamda ovoz bilan shovqin nisbatiga ko'ra undoshlarning turlari. Tasnifning bahsli o'rinlari. Undosh fonemalar tavsifi. Labial undoshlar tavsifi. Til-dental undoshlari tavsifi. Til-alveolyar undoshlar tavsifi. Til o'rta undoshi tavsifi. Sayoz til orqa undoshlari tavsifi va chuqur til orqa undoshlari tavsifi. Bo'g'iz undoshi tavsifi. Qorishiq s undoshi tavsifi.

6-modul. Hozirgi o'zbek tilida urg'u va bo'g'in. Nutqning fonetik bo'linishi

Aksentuatsiyaning urg'ular tizimi ekanligi. Urg'u tiplari. So'z urg'usi, uning fonetik tabiatiga, o'rniga va harakat qilish belgisiga ko'ra turlari. Sintagma urg'usi. Ayiruv urg'usi, uning turlari. Intonatsiya, uning prosodik elementlari. Intonatsiya turlari. Intonatsiyaning nutqdagi o'rni.

Bo'g'in haqida umumiy tushuncha. Bo'g'in tuzilishi. Bo'g'in markazi. Bo'g'in tiplari: berkitilgan bo'g'in, berkitilmagan bo'g'in, ochiq bo'g'in, yopiq bo'g'in. Bo'g'in tiplarining boshqacha tasniflari. Bo'g'inning til va nutqdagi ahamiyati.

7-modul. Grafika. Orfoepiya. Imlo.

Hozirgi o'zbek tilining yozuv tizimlari. Arab grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvi. Lotin grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvi. Rus grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvi. Rus va lotin grafikalariga asoslangan ikki yozuvlikning yuzaga kelishi. Amaldagi (kirillcha) va yangi (lotincha) o'zbek yozuvlarining grafik tavsifi. Bu ikki yozuvlarning qiyosiy tavsifi.

Orfografiya, uning to'g'ri yozish qoidalari tizimi ekanligi. Orfografiya prinsiplari: fonetik prinsip, fonematik prinsip, morfologik prinsip, grafik prinsip, tarixiy-an'anaviy prinsip, differensiyasiya prinsipi (simvolik prinsip), shakliy-an'anaviy prinsip. Amaldagi va yangi o'zbek yozuvlarining imlo qoidalaridagi tafovutlar.

Orfoepiya. Orfoepiyaning adabiy tildagi ahamiyati. Unli tovushlar orfoepiyasi. Undosh tovushlar orfoepiyasi. So'z qismlari (o'zak va qo'shimcha) orfoepiyasi. Boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim so'zlar orfoepiyasi.

8-modul. Leksikologiya, uning turlari, o'rganish manbayi va predmeti. Semasiologiya

Leksikologiya – so'z ma'nolari haqidagi fan sifatida. Uning ob'ekti, predmeti, vazifalari. Lug'aviy sath, uning o'zgaruvchanligi, sistemaviyligi. Leksik sathning boshqa sath birliklari bilan aloqasi. Tilning mazmuniy tomoni va uning shakily tomonga munosabati. Leksikologiya va uning turlari. Leksikologiyaning o'rganish

manbasi. Semasiologik tadqiqotlar.

9-modul. Leksema. Leksema va soʻz munosabati

Soʻzning leksik birlik sifatidagi mohiyati. Soʻzning nominativ birlik ekanligi, leksik soʻz, grammatik soʻz. Leksemaning ifoda plani (nomema), mazmun plani (semema),

Leksemaning semantik tarkibi: a) fonetik soʻz; b) denotat; v) signifikat. Leksik maʼno va tushuncha. Grammatik sema.

Leksik maʼnoning semantik tarkibi. Leksik maʼnoning semalari. Atash semalari, ifoda semalari, vazifa semalari. Integral sema va differensial sema. Terminlar. Leksemaning uzual va okkazional maʼnolari. Leksik monosemiya va polisemiya.

10-modul. Leksemaning ifoda va mazmun tomoni. Polisemantiklik va koʻp maʼnolilik

Nomema – leksemaning shakliy (tashqi) tomoni sifatida. Semema – leksemaning ichki (mazmuniy) tomoni sifatida. Leksemaning ifoda va mazmun tomoniga koʻra munosabat turlarini oʻrganish.

11-modul. Leksemalararo lisoniy ziddiyatlar va leksik paradigm

Leksemalarda shakl va maʼno munosabatiga koʻra semantik ziddiyatlar va leksik paradigma munosabati. Leksik paradigmalarni oʻrganishda semantik tadqiqotlarning oʻrni.

Leksik maʼno taraqqiyoti. Leksik maʼno taraqqiyotiga olib keluvchi nolisoniy va lisoniy omillar. Maʼno koʻchishi: metafora, metonimiya, sinektoxa, vazifadoshlik. Maʼnoning kengashi va torayishi.

Leksik maʼno tiplari: sinxron semasiologiya va diaxron semasiologiya. Sinxron semasiologiya: bosh maʼno, hosila maʼno. Toʻgʻri maʼno va koʻchma maʼno. Nominativ maʼno va maʼjuziy maʼno. Erkin maʼno va bogʻli maʼno. Diaxron semasiologiya: arxaik maʼno, etimologik maʼno. Etimon.

Leksik sinonimiya. Sinonimik qator. Dominanta. Maʼnaviy sinonimlar, uslubiy sinonimlar, nutqiy sinonimlar, kontekstual sinonimlar. Sinonimik darajalanish (graduonimiya). Lugʻaviy sinonimlarning markaziy va atrof qatlami. Funktsional-semantik sinonimlar, ularning yuzaga kelish omillari, shakliy va maʼnoviy tabiati, uslubiy xoslanishi.

Leksik antonimiya. Antonimik juftlik. Kontekstual antonimiya, enantiosemiya, mantiqiy markaz. Omonimlar, omoformalar. Omonimiyaga yondosh hodisalar: omofonlar va omograflar. Paronim va paranomaziya.

Giponimiya, graduonimiya, partonimiya. Lugʻaviy tizimchalar; lugʻaviy maʼnoviy guruh, lugʻaviy mavzuiy toʻplam, lugʻaviy mazmuniy maydon.

12-modul. Leksikaning sistem tabiati va leksemalarning tizimiy birlashmalari

Sistem-struktur metod va uning leksikaga taʼsiri. Leksikani sistem metod

asosida tahlil qilish tamoyillari. Leksemalarning tizimiy birlashmalarini o'rganish.

O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti. O'zbek tili leksikasining tarixiy etimologik qatlamlari: umumturkiy so'zlar, o'zbekcha so'zlar. O'zlashma so'zlar: arab tilidan o'zlashgan so'zlar, fors-tojik tilidan o'zlashgan so'zlar, ruscha-baynalmilal so'zlar.

So'z o'zlashtirish. So'z o'zlashtirish yo'llari: jonli so'zlashuv orqali va bosma manbalar orqali o'zlashtirish. So'z o'zlashtirish usullari: o'zicha olish, kal'kalab olish, to'liq kalka va yarim kalka.

13-modul. O'zbek tilida barqaror birikmalar

So'zlarning erkin bog'lanish omillari. So'zlarning barqaror birikish omillari. Turg'un birikmalar va ularning nutqdagi o'rni. Frazelogizmlar – nutqni boyituvchi vositalar sifatida. Frazema, uning ifoda plani va mazmun plani. Frazelogik polisemiya va monosemiya. Frazelogik sinonimiya va antonimiya. Perifrazalar.

Leksikografiya. Uning vazifalari. Ensiklopedik lug'atlar: universal ensiklopediyalar, soha ensiklopediyalari. Lisoniy lug'atlar: umumiy lug'atlar, xususiy (maxsus) lug'atlar; bir tilli, ikki tilli, ko'p tilli; izohli, izohsiz, terminologik lug'atlar.

14-modul. O'zbek leksikografiyasi

O'zbek leksikografiyasi va uning tadqiq manbayi. O'zbek leksikografiyasi taraqqiyoti. O'zbek tilida lug'atlar. Bir tilli lig'atlar. Ikki tilli lig'atlar.

Hozirgi o'zbek tili milliy o'zbek tilining muayyan sifatiy me'yorlarga ega bo'lgan, sayqallangan, yuqori bosqichda rivojlangan oliy shakli ekanligi. Hozirgi o'zbek tilining og'zaki va yozma shakllari. Uning taraqqiyotida lisoniy va nolisoniy omillarning roli.

O'zbek tili lahja, dialekt va shevalari. Hozirgi o'zbek tilining tarixiy ildizlari va dialektal asoslari. Uning taraqqiyot bosqichlari. Hozirgi o'zbek tilining shakllanishida yetakchi shevalarning ishtiroki.

Til va nutq. Ularning o'zaro munosabati. Til birliklari va nutq birliklari. Hozirgi o'zbek tilining yozuv va so'zlashuv uslublari ko'rinishlari, ularning ijtimoiy vazifasidagi uzviy aloqadorlik. So'zlashuv va yozuv tili vositalari.

Ma'ruza mavzularining soatlarda taqsimoti

No	Ma'ruza mavzulari	Soati
1	Kirish. O'zbek tili va tilshunosligi taraqqiyoti	2
2	Til, lison va nutq munosabati. Til sathlari va birliklari. Lisoniy paradigma, lisoniy ziddiyat va uning turlari	2
3	Fonetika-fonologiya, uning o'rganish manbai va predmeti, yo'nalishlari	2
4	Fonemalar paradigmasi va fonologik ziddiyatlar	2
5	Hozirgi o'zbek tilida fonemalarning variantlashuvi, fonetik jarayon	2
6	Hozirgi o'zbek tilida urg'u va bo'g'in. Nutqning fonetik bo'linishi	2
7	Grafika. Orfoepiya. Imlo	2
8	Leksikologiya, uning turlari, o'rganish manbai va predmeti. Semasiologiya	2
9	Leksema. Leksema va so'z munosabati	2
10	Leksemaning ifoda va mazmun tomoni. Polisemantiklik va ko'p ma'nolilik	2
11	Leksemalararo lisoniy ziddiyatlar va leksik paradigma	2
12	Leksikaning sistem tabiati va leksemalarning tizimiy birlashmalari	2
13	O'zbek tilida barqaror birikmalar	2
14	O'zbek leksikografiyasi	4
	Jami	30

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulot talabalarni "Hozirgi o'zbek tili" faniga doir ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni adabiy asarni tanqidiy jihatdan tahlil va talqin qilishga yo'naltiradi. Talabalar to'plagan bilimlarini dars vaqtida munozara yoki ma'ruza ko'rinishida himoya qiladi. Amaliy mashg'ulotlarda talabalar "Hozirgi o'zbek tili" fanining o'ziga xos nazariy xususiyatlariga doir ilmiy masalalarni amaliy jihatlardan o'rganishadi.

Amaliy mashg'ulotlar mavzularining soatlarda taqsimoti

No	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	Soati
1.	Til, lison va nutq munosabati. Til sathlari va birliklari bo'yicha mashq. (<i>"Aqliy hujum" usuli</i>)	2
2.	Unli fonemalar paradigmasi bo'yicha mashq (<i>BxBxB usuli</i>)	2
3.	Undosh fonemalar paradigmasi bo'yicha mashq	2
4.	Fonetikada lisoniy munosabatlar bo'yicha mashq (<i>"Intervyu" usuli</i>)	2
5.	Fonetik hodisalar bo'yicha mashq (<i>Blits metodi</i>)	2
6.	Leksikologiya, uning turlari, o'rganish manbayi va predmeti. Semasiologiya	2

7.	Leksemaning ifoda va mazmun tomoni. Polisemantiklik va ko'p ma'nolilik	2
8.	Leksemalar tahlili. (<i>"Intervyu" usullari</i>)	2
9.	Leksemalararo lisoniy ziddiyatlar va leksik paradigma bo'yicha mashq	2
10.	Hozirgi o'zbek tili leksikasi tasnifi bo'yicha mashq (<i>"Toifali jadval" usuli asosida</i>)	2
11.	Barqaror birikmalar bo'yicha mashq (<i>"Intervyu va "Bumerang" usullari asosida</i>)	2
	Jami	22

Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlari talabalarni "Hozirgi o'zbek tili"ga oid ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni tanqidiy nuqtai nazaridan tahlil va talqin etishga yo'naltiradi. Talabalar egallagan bilimlarini dars chog'ida munozara yoki ma'ruza shaklida himoya qiladi.

Seminar mashg'ulotlarida talabalar "Hozirgi o'zbek tili" ning ilmiy muammolari to'g'risida amaliy ko'nikma va malaka hosil qilishadi.

1-seminar

TIL, LISON VA NUTQ MUNOSABATI

Reja:

1. Til – ijtimoiy hadisa.
2. Til sathlari.
3. Lison va nutq – korreliativ munosabat.
4. Lisoniy va nutqiy birliklari.

Uyga vazifa: Yuqoridagi reja asosida ko'rsatilgan adabiyotlardan foydalanib konspektlashtirib kelish, har bir rejadagi mavzuni chuqur o'zlashtirish.

Mavzu bo'yicha zaruriy adabiyotlar:

1. "Tilshunoslikka kirish" ma'ruzalar matni, 18-19-bet
2. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1981; 212-213-betlar
3. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., "Ўқитувчи", 1992; 29,43,99-122-betlar
4. Усмонов С. Умумий тилшунослик. Тошкент, 1972; 125-126
5. Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. Тошкент, 1993. 9-10 б.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Lisoniy UMIS va YAHVOga izoh bering
2. Til, lison va nutqning bir-biridan farqini tushuntiring.
3. Tilning qanday sathlari ajratiladi?
4. Lisoniy birliklar deb nimalar kiritiladi?

2- seminar

LISONIY MUNOSABATLAR, ULARNING TURLARI

Reja:

1. Lisoniy munosabatlar haqida tushuncha.
2. Paradigmatik, sintagmatik, iyerarxik munosabat.
3. Lisoniy ziddiyatlar va uning turlari.
4. Lisoniy tasnif.

Uyga vazifa: Yuqoridagi reja asosida ko'rsatilgan adabiyotlardan foydalanib konspeklashtib kelish, har bir rejadagi mavzuni chuqur o'zlashtirish.

3- seminar

FONETIKA VA FONOLOGIYA

Reja:

1. Fonetika va fonologiya haqida tushuncha, ularning o'rganish ob'yekti.
2. Nutqning fonetik bo'linishi.
3. Fonema va tovush munosabati.

Uyga vazifa: Yuqoridagi reja asosida ko'rsatilgan adabiyotlardan foydalanib konspeklashtib kelish, har bir rejadagi mavzuni chuqur o'zlashtirish.

4- seminar

FONETIK JARAYONLAR

Reja:

1. Fonetik jarayonlar haqida tushuncha.
2. Tovush o'zgarishi hodisalarining turlari.

Uyga vazifa: Yuqoridagi reja asosida ko'rsatilgan adabiyotlardan foydalanib konspeklashtib kelish, har bir rejadagi mavzuni chuqur o'zlashtirish.

5- seminar

GRAFIKA. YOZUV TARIXI

Reja:

1. Grafika haqida tushuncha.
2. Tovush va harf munosabati.
3. Yozuv bosqichlari.
4. Yozuv turlari.
5. Alifbo.

Uyga vazifa: Yuqoridagi reja asosida ko'rsatilgan adabiyotlardan foydalanib konspeklashtib kelish, har bir rejadagi mavzuni chuqur o'zlashtirish.

6- seminar

Orfografiya. Orfografik tamoyillar

Reja:

1. Orfografiya tog'risida tushuncha.
2. Orfografik tamoyillar.

3. Imlo to'g'risidagi qonun.

Uyga vazifa: Yuqoridagi reja asosida ko'rsatilgan adabiyotlardan foydalanib konspeklashtib kelish, har bir rejadagi mavzuni chuqur o'zlashtirish.

7- seminar

LEKSIKOLOGIYA VA SEMASIOLOGIYA

Reja:

1. Leksikologiya haqida tushuncha.
2. Leksikologiya bo'limlari.
3. Semasiologiya leksikologiyaning muhim bo'limi.
4. O'zbek tili leksikasi.

Uyga vazifa: Yuqoridagi reja asosida ko'rsatilgan adabiyotlardan foydalanib konspeklashtib kelish, har bir rejadagi mavzuni chuqur o'zlashtirish.

8- seminar

LEKSEMA VA SO'Z

Reja:

1. Leksik sistema haqida.
2. Leksema va so'z munosabati.
3. Leksemaning ifoda va mazmun tomoni.

Uyga vazifa: Yuqoridagi reja asosida ko'rsatilgan adabiyotlardan foydalanib konspeklashtib kelish, har bir rejadagi mavzuni chuqur o'zlashtirish.

9- seminar

SEMEMANING TARKIBIY QISMLARI

Reja:

1. Semema haqida tushuncha.
2. Semema va nutqiy ma'no.
3. Polisemiya va monosemiya.
4. So'z ma'nosining ko'chish usullari.

Uyga vazifa: Yuqoridagi reja asosida ko'rsatilgan adabiyotlardan foydalanib konspeklashtib kelish, har bir rejadagi mavzuni chuqur o'zlashtirish.

10- seminar

LEKSIK-SEMANTIK MUNOSABATLAR

Reja:

1. Leksik-semantik munosabatlar va ularning turlari.
2. Sinonimik munosabat.
3. Antonimik munosabat.
4. Giponimik munosabat.
5. Partonimik munosabat.

Uyga vazifa: Yuqoridagi reja asosida ko'rsatilgan adabiyotlardan foydalanib konspektlashtirib kelish, har bir rejadagi mavzuni chuqur o'zlashtirish.

11- seminar FRAZEOLOGIYA

Reja:

1. Iboralar haqida tushuncha.
2. Iboralarning semantik tarkibi.
3. Iboralarning lug'atlarda berilishi masalasi.

Uyga vazifa: Yuqoridagi reja asosida ko'rsatilgan adabiyotlardan foydalanib konspektlashtirib kelish, har bir rejadagi mavzuni chuqur o'zlashtirish.

12- seminar LEKSIKOGRAFIYA

Reja:

1. Leksikografiya haqida tushuncha.
2. Lug'at va uning turlari.
3. Milliy istiqloq mafkurasi va o'zbek lug'atlarining tarkibi, so'zlarni (atamalarini) sharhlash masalalari.

Uyga vazifa: Yuqoridagi reja asosida ko'rsatilgan adabiyotlardan foydalanib konspektlashtirib kelish, har bir rejadagi mavzuni chuqur o'zlashtirish.

Seminar mashg'ulotlari mavzularining soatlarda taqsimoti

	Seminar mashg'ulotlari mavzulari	Soati
1	Til, lison va nutq munosabati. Til sathlari va birliklari. Lisoniy paradigma, lisoniy ziddiyat va uning turlari (<i>"O'quv loyihasi" asosida</i>)	2
2	Fonetika-fonologiya, uning o'rganish manbai va predmeti, yo'nalishlari. Fonema va uning tasnifiy belgilari	2
3	Fonemalar paradigmasi va fonologik siddiyatlar (<i>"Toifali jadval" asosida</i>)	2
4	Hozirgi o'zbek tilida fonemalarning variantlashuvi va fonetik jarayon	2
5	Grafika. Orfoepiya. Imlo.	2
6	Hozirgi o'zbek tilida urg'u va bo'g'in. Nutqning fonetik bo'linishi (<i>"Klasterlash" usuli asosida</i>)	2
7	Leksema. Leksema va so'z munosabati	2
8	Sememaning tarkibiy qismlari	2
9	Leksemalararo lisoniy ziddiyatlar va leksik paradigma (<i>"O'quv loyiha tayyorlash" usuli asosida</i>)	2
10	Leksemalar o'rtasidagi shakl va ma'no munosabati	2
11	Frazeologiya	2
12	O'zbek lug'atchiligi masalalari (<i>"Keys-stadi" bajarish usuli asosida</i>)	2
	Jami	24

Mustaqil ta'lim hajmi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Soati
1.	Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik	10
2.	Seminar mashg'ulotlarga tayyorgarlik	12
3	O'quv loyihalarini tayyorlash	20
	Jami	42

Mustaqil ta'lim mazmuni va mavzulari

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishga tavsiya etiladi:

1. Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan mavzularini o'rganish.
2. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish.
3. Internet saytlaridan ma'lumotlarni tanlash va o'zlashtirish.
4. Maxsus adabiyotlar bo'yicha referat va konspektlar tayyorlash;
5. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanish.
6. Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish.
7. Ilmiy ma'ruza tayyorlash.
8. Slaydlar tayyorlash.

9. Grafikli organayzerlar tayyorlash.
10. Misollar to'plash.
11. Lingvistik masalalar tayyorlash.
12. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida e'lon qilingan lingvistik maqolalar ustida ishlash.
13. "Til va adabiyot ta'limi" jurnalida e'lon qilingan lingvistik maqolalar ustida ishlash.
14. Fonetika, leksikologiya sathlari bo'yicha Internet materiallari bilan tanishish.
15. A. Abduazizovning o'zbek tili fonologiyasi haqidagi asarlarini o'rganish, tahlili.
16. Sh.Rahmatullayev, I.Qo'chqortoyevning o'zbek tili semasiologiyasi taraqqiyotidagi xizmatlari.
17. O'zbek leksikografiyasi tarixi va buguni.
18. A. Nurmonovning o'zbek tili morfonologiyasiga oid asarlarini o'rganish.
19. Sh.Rahmatullayevning «Hozirgi adabiy o'zbek tili» («Universitet» nashriyoti, T., 2006) darsligida morfemika, derivatologiya, morfologiya bahslari.
20. M. Mirtojdiyevning "O'zbek tili fonetikasi" (Toshkent: Fan, 2013.) kitobini o'rganish.
21. H.Ne'matov, O.Bozorovning "Til va nutq"(Toshkent: O'qituvchi, 1989) asari tahlili.
22. H.Ne'matov va R. Rasulovning "O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari" (Toshkent: O'qituvchi, 1995) asarini o'zlashtirish.
23. A.Hojiyevning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" asosida "Sinonimlarning turli funksional uslublarga xoslanishi" mavzuida ma'ruza tayyorlash.
24. A.Hojiyevning "O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasashining nazariy masalalari" (-T.Fan. 2010. 256 b.) asarida morfemika, derivatologiya, morfologiya bahslari.

Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan mustaqil ta'lim mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

Tilshunoslikka oid darsliklar, o'quv qo'llanmalari, dissertatsiya va monografiyalar, internet ma'lumotlari dasturning informatsion-metodik ta'minotini tashkil etadi.

Dasturdagi mavzularni o'tishda ta'limning zamonaviy metodlaridan keng foydalanish, o'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Matbuot konferensiyasi", "Bumerang", "Yelpig'ich" hamda "Muammoli ta'lim" texnologiyasining "Munozarali dars" metodi, shuningdek, tilshunoslik nazariyasiga doir slaydlardan foydalanish, didaktik va rolli o'yin usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Reyting nazoratlari va baholash mezonlari

Reyting nazorati jadvali

Nazorat Turi	O'tkazish shakli	Bajarish mexanizmi	Maksimal ball	Saralash bali	O'tkazish haftasi
1-JN	Og'zaki	3 ta savol x 5 ball	15	11	
	MT - o'quv loyihalari tayyorlash	5x1 ball	5		
2-JN	Test	30 ta test x 0,5 ball	15	11	
	Mustaqil ta'lim vazifalari	5x1 ball	5		
1-ON	Yozma	3 ta savol x 5 ball	15	8.25	
2-ON	Test	30 ta test x 0,5 ball	15	8.25	
YN	Yozma	3 ta savol x 10 ball	30	15.5	
Jami			100	55	

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'zME, 2013.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.

Qo'shimcha adabiyotlar:

13. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2009.
14. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. Darslik. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2008.
15. Zamonaviy o'zbek tili. Sintaksis. Darslik. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.
16. Mirtojdiyev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
17. Nazarov K., Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. (Punktuatsiya). Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.

18. Ne'matov H, Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.
19. Ne'matov H, Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
20. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. Oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
21. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo'jaeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1992.
22. O'rinboyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida sintaktik munosabatlar. (O'quv qo'llanma). – Samarqand: SamDU nashri, 2002.
23. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari o'qituvchi va talabalari uchun qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.
24. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.

Internet ma'lumotlari:

18. www.ziyo.net
19. www.thinsan.com
20. www.uforum.uz
21. www.literature.uz

Ilova

Joriy nazoratni baholash mezonlari

35-40 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi

lozim:

- talaba rejalashtirilgan 2 ta joriy nazoratning barchasida faol qatnashsa;
- “Hozirgi o'zbek tili” fanining tegishli bo'limlari bo'yicha mustaqil ta'limda o'zlashtirishi kerak bo'lgan adabiyotlarni topshirsa;
- hozirgi o'zbek tili birliklari, qurilishi haqida berilgan savollarga to'liq javob bersa;
- adabiyotlarni o'zlashtirishda va amaliy mashg'ulotlardagi savollarga javob berishda mustaqil fikr-mulohazalarga ega bo'lsa.

29-34 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- talaba rejalashtirilgan 2 joriy nazoratning barchasiga qatnashsa;
- til birliklari haqidagi savollarning ayrimlariga yetarlicha javob bersa;
- o'zbek tili masalalari yoritilgan ilmiy adabiyotlarni mustaqil o'zlashtirgan bo'lsa;
- hozirgi o'zbek tili birliklari, qurilishi bo'yicha berilgan savollarga yetarlicha javob bersa;
- adabiyotlarni o'zlashtirishda va amaliy mashqulotlardagi savollarga javob berishda faol ishtirok etsa.

22-28 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- talaba rejalashtirilgan 2 joriy nazoratning uchtasiga qatnashsa;
- “Hozirgi o'zbek tili” fani tegishli bo'limi bo'yicha nazorat savollarining ayrimlariga qisman javob bersa;

- o‘zbek tili masalalari yoritilgan ilmiy adabiyotlarni qisman o‘zlashtirgan bo‘lsa;
- til birliklari, qurilishi va tasnifiga oid adabiyotlarni o‘zlashtirishda va amaliy mashqulotlardagi savollarga javob berishda mustaqil fikrga ega bo‘lmasa;
- hozirgi o‘zbek tilining birliklari, qurilishi haqida berilgan savollarga yetarlicha javob bermasa.

0-21 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- talaba rejalashtirilgan 2 joriy nazoratning 1 tasiga qatnashsa;
- “Hozirgi o‘zbek tili» fanining fonetika va leksikologiya bo‘limi bo‘yicha nazorat savollarining ko‘p qismiga javob bera olmasa;
- leksika, fonetika, til qurilishi va tasnifiga oid mustaqil ta’limda o‘zlashtirilgan adabiyotlarga qisman javob bersa;
- hozirgi o‘zbek tili birliklari, qurilishi va tasnifi bo‘yicha berilgan savollarga qoniqarsiz javob bersa;
- adabiyotlarni o‘zlashtirishda va amaliy mashqulotlardagi savollarga javob berishda qoniqarsiz ishtirok etsa;
- ko‘zda tutilgan uch joriy nazorat topshiriqlarini o‘z vaqtida topshirmasa.

Oraliq nazoratni baholash mezonlari

26-30 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- hozirgi o‘zbek tili bo‘yicha berilgan savollarga to‘liq javob bergan bo‘lsa;
- til birliklari, til qurilishiga oid berilgan savollarga javob yozishda izchillik va mantiqiylik kuzatilsa;
- fonetika va leksikaga oid istiloh va atamalarni qo‘llashda xatoliklar bo‘lmasa;
- hozirgi o‘zbek tili birliklari, qurilishi bo‘yicha berilgan savollarga javob yozishda talabaning mustaqil yondashuvi sezilib tursa;
- fonetika va leksika masalalariga oid har uchta savolning javoblarida imlo xatolari va uslubiy g‘alizliklarga yo‘l qo‘ymasa.

22-25 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- hozirgi o‘zbek tili bo‘yicha berilgan savollarga to‘liq javob bergan bo‘lsa;
- o‘zbek tili masalalariga oid savollarga javob yozishda mavzuga doir istiloq va atamalarni to‘qri qo‘llay bilsa;
- o‘zbek tiliga oid adabiyotlarni o‘zlashtirgan va ularning mazmunidan xabardor bo‘lsa;
- o‘zbek tili masalalari bo‘yicha yozgan nazorat ishlarida juz’iy bo‘lmagan ba’zi imloviy xatolar bo‘lsa.

17-21 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- hozirgi o‘zbek tili bo‘yicha berilgan savollarga qisman javob berilgan bo‘lsa;
- o‘zbek tili mavzulari bo‘yicha yozgan nazorat ishida ba’zi savollarga javob to‘liq bo‘lmasa;
- fonetika va leksika masalalari bo‘yicha yozgan nazorat ishlarida imloviy va uslubiy xatolarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa.

0-16 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

hozirgi o'zbek tili bo'yicha berilgan savollar umuman javob berilmasa;
fonetika va leksika masalalari bo'yicha yozgan nazorat ishlarida imloviy va uslubiy xatolar ko'p kuzatilsa;
o'zbek tili fonetikasi va leksikasi bo'yicha yozgan har uch savolga javob noto'g'ri bo'lsa.

Yakuniy nazoratni baholash mezonlari

26-30 ball uchun talabning faoliyati quyidalarga javob berishi lozim:

hozirgi o'zbek tili fonetikasi va leksikasi bo'yicha berilgan savollar nazorat ishida to'liq yoritilgan bo'lsa;
til qurilishi, til birliklari va tasnifiga oid berilgan savollarga javob yozishda izchillik va mantiqiylik kuzatilsa;
til qurilishiga oid istiloh va atamalarni qo'llashda xatoliklar bo'lmasa;
til qurilishi, til birliklari va tasnifiga oid savollarga javob yozishda talabning mustaqil yondashuvi sezilib tursa;
nazorat savollariga javoblarida imlo xatolari va uslubiy qalizliklarga ega bo'lmasa.

22-25 ball uchun talabning faoliyati quyidagi talablarga javob berishi lozim:

hozirgi o'zbek tili fonetikasi va leksikasi bo'yicha berilgan savollar atroflicha yoritilgan bo'lsa;
hozirgi o'zbek tili fonetikasi va leksikasi bo'yicha istiloh va atamalarni to'g'ri qo'llay bilsa;
hozirgi o'zbek tili fonetikasi va leksikasi bo'yicha adabiyotlar bilan tanish bo'lsa;
hozirgi o'zbek tili fonetikasi va leksikasi bo'yicha yozgan nazorat ishi savollarida juz'iy bo'lmagan ba'zi imloviy xatolar bo'lsa.

17-21 ball uchun talabning faoliyati quyidagi talablarga javob berishi lozim:

hozirgi o'zbek tili bo'yicha berilgan savollarga qisman bo'lsada yoritilgan bo'lsa;
hozirgi o'zbek tili bo'yicha nazorat ishi savollariga javob to'liq bo'lmasa;
fonetika va leksika masalalari bo'yicha yozgan nazorat ishi savollarida imloviy va uslubiy xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa.

0-16 ball uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

fonetika va leksika bo'yicha berilgan savollarlarga javoblar umuman yoritilmagan bo'lsa;
fonetika va leksika bo'yicha yozgan nazorat ishi javoblarida imloviy va uslubiy xatolar ko'p kuzatilsa;
fonetika va leksika bo'yicha yozgan nazorat ishi javoblari talablarga javob bermasa.

MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TALIM METODLARI

1. “Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» - aniq vaziyat, hodisa, «stadi» - o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab, 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday / Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	S yakka tartibdagi audio-vizual ish; S keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); S axborotni umumlashtirish; S axborot tahlili; S muammolarni aniqlash.
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ini belgilash	S individual va guruhda ishlash; S muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; S asosiy muammoli vaziyatni belgilash.
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orkali o‘quv topshirigining yechimini izlash, hal etish yullarini ishlab chiqish	S individual va guruhda ishlash; S muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; S har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish;
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	S yakka va guruhda ishlash; S muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; S ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; S yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish.

Keys. Dinamik massivlar bilan ishlaydigan dastur tuzildi. Dastur vazifasi massiv elementlarini izchil ravishda chapga n ta surish. Dastur ishlashi natijasida xatolik kelib chiqdi. Yani ilova xatolik haqida habar berdi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruxda).

- Dasturni tugri ishlashi uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

2. “Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali talim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan maruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma‘lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma‘lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chikib, assesmentga kushimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

3. “Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot koidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bulgan suzlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday mano anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma‘lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga etgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izoxini ukib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma‘lumot glossariyda keltirilgan.

MA'RUZA MATERIALLARI

1-MODUL

KIRISH. O'ZBEK TILI VA TILSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI (Hozirgi o'zbek tilining shakllanishi, dialektal asosi, taraqqiyot omillari. Adabiy til tushunchasi)

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 60 –70 gacha
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza (ommaviy, jamoaviy ishlash)
Ma'ruza	(2 soat)
Ma'ruza rejasi	<p>1. Kirish : Mavzu nomi, adabiyotlar ro'yxati, ulardan foydalanish tartibi (5 minut).</p> <p>1.1-mavzu : « Hozirgi o'zbek adabiy tili » fani haqida ma'lumot (20 minut).</p> <p>1.2-mavzu: Hozirgi o'zbek tilining tarixiy ildizlari va dialektal asoslari (30 minut) .</p> <p>1.3-mavzu: "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining bo'limlari (15 minut).</p> <p><i>Dars yakuni</i> : savol-javob,xulosa, uyga vazifa (10 minut)</p>
<i>O'quv mashg'ulotlarining maqsadi:</i> 1. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining obyekt, maqsadi, vazifalari, bo'limlari, adabiy tilning tarixiy ildizlari va dialektal asoslari haqida ma'lumot berish.	
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <p>Talabalarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fani haqida, bu fanning tadqiqot obyekti bo'lgan hozirgi o'zbek adabiy tilining qadimgi turkiy va eski o'zbek tillaridan farqli jihatlari xususida tegishli bilimga ega bo'lishlarini ta'minlash.</p>	<p><i>O'quv faoliyati natijalari :</i></p> <p>Talaba "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fani, uning obyekti, maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqasi haqida, shuningdek o'zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlari xususida ma'lum tasavvurga ega bo'ladi.</p>
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Ma'lumotli ma'ruza ta'lim texnologiyasi, jamoada ishlash, elektron matnning mantiqiy nuqtalarini va tayanch tushunchalarni ajratib ko'rsatish.
<i>Ta'lim berish metodlari</i>	Og'zaki, ma'ruza, hikoya, suhbat, ko'rgazmalilik, namoyish qilish
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, tarqatma materiallar, proyektor, doska.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Hamkorlikda ishlash va taqdimotlarni amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob.

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1. Mavzuga kirish (5 minut)	1. O'quv fanining nomini aytadi. Mavzular va adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi. 2. Birinchi mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 3. Talabalarni o'quv faoliyatini baholash mezonini bilan tanishtiradi (2 ilova). 4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar Tinglaydilar
2. Asosiy bosqich (70 minut)	Slaydlarni namoyish qilish va izohlash orqali talabalarga mavzular bo'yicha asosiy nazariy ma'lumotlarni beradi.	Tinglaydilar, yozadilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
3. Yakuniy bosqich (5 minut)	1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 2. Mustaqil ishlash uchun 1.1, 1.2 va 1.3- mavzularni taqdim etadi.	Savollar beradilar Vazifani yozib oladilar.

1-ilova

REJA:

1. "Hozirgi o'zbek tili" fani haqida ma'lumot.
2. Hozirgi o'zbek tilining tarixiy ildizlari va dialektal asoslari. Taraqqiyot omillari. Adabiy til tushunchasi.
3. "Hozirgi o'zbek tili" fanining bo'limlari.

Tayanch so'zlarning o'zbekcha - inglizcha-ruscha lug'ati

O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Fonetika	Phonetics	Фонетика
Fonologiya	Phonology	Фонология
Grafika	Graphic	Графика
Orfografiya	Orthographical	Орфография
Orfoepiya	Orthoepiy	Орфоэпия
Leksikologiya	Lexicology	Лексикология
Frazeologiya	Phraseology	Фразеология
Leksikografiya	Lexicography	Лексикография
Morfemika	Morphemics	Морфемика

So'z yasalishi	Word formation	Словообразование
Morfologiya	Morphology	Морфология
Sintaksis	Syntax	Синтаксис
Punktuatsiya	Punctuation	Пунктуация
Dialekt	Dialect	Диалект
Sheva	Talk	Говоры
Lahja	Adverb	Наречие
Jargon	Jargon	Жаргон
Argo	Argo	Арго
Rasmiy ish uslubi	The official-business style	Официально - деловой стиль
Ilmiy uslub	Scientific style	Научный стиль
Publitsistik uslub	Journalistic style	Публицистический стиль
So'zlashuv uslubi	Conversational style	Разговорный стиль
Adabiy so'zlashuv uslubi	Literary style	Литературный стиль
Jonli so'zlashuv uslubu	A living conversational style	Живой разговорный стиль
Badiiy uslub	Artistic style	Художественный стиль
Vokalizm	Vowels	Гласные
Konsonantizm	Consonant	Согласные
Divergensiya	Divergence	Дивергенция
Konvergensiya	Convergence	Конвергенция

FANNING OBYEKTI, MAQSADI, VAZIFALARI

Mavzuning mazmun-mundarijasi:

a) obyekt – hozirgi o'zbek adabiy tili;

b) maqsad – talabalarda hozirgi o'zbek tilining fonetik-fonologik, leksik-semantik va grammatik sathlari, ulardagi struktura va sistema munosabatlari, hozirgi o'zbek tilining milliy til sifatidagi tavsifi, milliy tilning yuqori va quyi bosqichlari, adabiy til, uning yashash formalari va meyorlari, xizmat doirasi bo'yicha tegishli bilim darajasini, shu bilimdan unumli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

d) vazifalari – talabalarni o'zbek tilshunosligining fonetika, fonologiya, grafika, orfografiya, orfoepiya, leksika, frazeologiya, leksikografiya, morfemika, so'z yasalishi va grammatika (morfologiya va sintaksis) bo'limlari bilan tanishtirish.

Hozirgi o'zbek tili

Hozirgi o'zbek adabiy tili o'zbek milliy tilning yuqori bosqichi, fonetik-

fonologik, leksik-semantik va grammatik jihatdan me'yorlashtirilgan, sayqal berilgan qismidir. U milliy tilga zid qo'yilmaydi, undan boshqa tizim ham emas, balki shu milliy tilning tartibga solingan bosh ko'rinishi, xolos.

Adabiy tildan dialekt, sheva, jargon va argolarni farqlash kerak.

Dialekt¹ – umumxalq tilining ma'lum etnik guruhga mansub ko'rinishi: qipchoq dialekti, o'g'uz dialekti va qarluq-cnigil-uyg'ur dialekti (prof. V.V.Peshetov klassifikatsiyasi)²

Sheva – mahalliy dialektning fonetik, leksik, grammatik umumiylikka ega bo'lgan, bir yoki bir necha qishloqni o'z ichiga oluvchi kichik bir qismi, guruhi. Dialekt va shevalar adabiy tilning shakllanishida ishtirok etadi, ammo adabiy tildan quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

a) **adabiy til** millatning barcha vakillari uchun umumiydir, dialekt va shevalar esa millat tarkibidagi etnik guruhlarning har biri uchun alohida-alohida bo'ladi, bir-biridan fonetik, leksik va grammatik jihatdan farqlanadi;

b) **adabiy tilning yozma shakli** mavjud: u ma'lum me'yorlarga bo'ysundirilgan yozuv sistemasiga (adabiy-orfograik yozuvga) asoslanadi. Dialekt va shevalar uchun esa alohida adabiy-orfografik yozuv vo'q:

d) adabiy tilning qo'llanishi hududiy jihatdan chegaralanmaydi, dialekt va shevalarning qo'llanishi esa bu jihatdan chegaralangandir;

e) **adabiy tilda davlat ishlari**- xalq ta'limi, matbuot, radio-televideniye, ilmlan, ma'muriy-idoraviy hujjatlashtirish ishlari olib boriladi; qonun, farmon va qarorlar shu tilda e'lon qilinadi. Dialekt va shevalar esa bu funksiyada qo'llanmaydi;

Jargon va argolar - ma'lum ijtimoiy guruhlarga, masalan, o'g'rilarga, sportchilarga, talabalarga yoki savdogar-chayqovchilarga xizmat qiladigan yasama "til". Jargon terminining mazmun jihatida "yasama til" ma'nosi bilan birga *peyorativ sema* (kamsituvchi konnotatsiya) ham bor (*harbiy jargon, o'g'rilar jargoni* kabi), argo termini ma'nosida esa *peyorativ sema* yoq. Jargon yoki argoga mansub lug'aviy birliklar jargonizm va argotizmlar deb yuritiladi. Jargonizm va argotizmlar adabiy tilda ishlatilmaydi. Ulardan jonli so'zlashuv nutqida yoki badiiy asar tilida uslubiy maqsadlardagina foydalanish mumkin. Masalan: 1) *Pivoni bu yoqqa uzat, - deya "bomj" uning qadahini o'ziga tortdi.* (N. I. Iblis saltanati, 1-kitob, 2009-yil, 114-bet).

Jargonizm - bomj (ma'nosi: "yashash joyining tayini yo'q, daydi odam").

2)...*Sherning bir-biridan qimmat mebellari joyida yo'q edi. O'shanda ular shoshilib qolishgan, buni boshqa chaqqonlarning ishi, deb o'ylashgandi. Qaysidir ma'noda ular haq edilar, chunki Sherning qo'shnilari orasida ham yuxolar topilardi.* (N. I. Iblis saltanati, 2-kitob, 2009-yil, 47-bet). Jargonizm – yuxolar (ma'nosi: "mayda o'grilar", "zimdan o'marib ketuvchilar"). 3)*Xo'jayin,-dedi Samandar tashqariga chiqqanlaridan keyin,- anavi men sigareta so'ragan kimsalarning ko'rinishi juda boshqacha ekan, ular sizning yoningizga kelishayotgandi. Niyatlari buzuqqa o'xshaydi.*

- *Nima deding ularga?*

- Mentlar turganini aytdim. Yuraklari tushib qolayozdi. (N. I. Iblis saltanati,

¹ Sculanova G.M. Dialect, Accent and Prosody. – M., 1999.

² V.V.Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 1978, 36-b.

1-kitob, 2009-yil, 210-bet). Jargonizm- mentlar (“militSIONERlar” ma’nosida).

4) *Xo’jayin,-deb kirib keldi shu mahal Ikromning uyda qolgan shotirlaridan biri,- “musorlar”ning moshinasi darvozaning yoniga keldi.* (N. I. Iblis saltanati, 1-kitob, 2009-yil, 299-bet).

Jargonizmlar: shotir (kriminal guruhlar jargonida “guruh boshlig’i xizmatida bo’lgan jinoyatchi unsur”), musor (“militsiya”).

Hozirgi o‘zbek tilining funksional stillari (vazifaviy uslublari) :

- 1) rasmiy ish uslub;
- 2) ilmiy uslub;
- 3) publitsistik uslub;
- 4) so‘zlashuv uslubi;
- 5) adabiy so‘zlashuv uslubi;
- 6) jonli so‘zlashuv uslubi;
- 7) badiiy uslub.

1. Rasmiy ish uslubi. Bu uslub qonunlar, farmonlar va turli ma’muriy-idoraviy hujjatlar (qarorlar, buyruqlar, ariza, bildirishnoma, nizom, tilxat, ishonchnoma, yo‘riqnoma, shartnoma, farmoyish kabi ish qog‘ozlari) tiliga xosdir. Rasmiy uslubda avvaldan shakllanib, ma’lum qolipga tushgan konstruksiyalar, formulirovka va so‘z birikmalaridan (... *joriy etilsin, ... amalga oshirilsin, ... chora ko‘rilsin, ... e’tborga olinsin, ... ni hisobga olib buyuraman, ... ma’lum qilaman, ... ni so‘rayman, ... ga taqdim etish uchun berildi* kabi qurilmalardan) foydalaniladi. Bu uslubda tuzilgan matnlarda emotsional-ekspressivlik, so‘z o‘yini, ma’joziylik kabilarga yo‘l qo‘yilmaydi.

N a m u n a l a r: a) *Respublika aholisining daromadlari va turmush darajasini yanada muttasil oshirib borish, fuqarolarga ijtimoiy madadni kuchaytirish maqsadida:*

2010 yilning 1-avgustidan boshlab byudjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar hamda ijtimoiy nafaqalar, stipendiyalar miqdori o‘rta hisobda 1,2 baravar oshirilsin... (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonidan). b) *Mehnat ta’lim tugab, shu yil 26 avgustdan ishga tushganligimni ma’lum qilaman* (Bildirishnomadan). d) *Viloyatdan kelganligimni va qatnab o‘qishga imkoniyatim yo‘qligini e’tiborga olib, menga talabalar uyidan joy berishingizni so‘rayman* (Arizadan).

2. Ilmiy uslub. Bu uslubda ilmiy asarlar tili, ilmiy nutq shakllantiriladi: matndagi aniqlik, turli ekspressiyadan, bo‘yoqdorlikdan, polisemiya xolislik, soha terminlarining faol ishtiroki kabi holatlar ilmiy uslub talablaridan kelib chiqadi. Un-da so‘zlashuv uslubiga xos erkinlik, tasviriylik va obrazlilik uchramaydi, adabiy tilning orfoepik (to‘g‘ri talaffuz) va orfografik (to‘g‘ri yozish) me’yorlariga ham to‘la rioya qilinadi; gap qurilishi mukammalligi va murakkabligi bilan ajralib turadi; qo‘shma gaplar, kesimi fe’lning majhullik nisbatidagi formalari bilan ifodalangan gap turlari, gap bo‘laklari deyarli tushirib qoldirilmaydi, yig‘iq va to‘liqsiz gaplar kam ishlatiladi. Nutq, asosan, monologik xarakterda bo‘ladi. **M a s a l a n,** “*Dala sharoitida ishlash usulidan foydalanib to‘plangan birmuncha*

mukammal ma'lumotlar Urgut tumani mikrotoponimlari, ular yasalishining regional xususiyatlari haqida chiqarilgan ilmiy xulosalar va bu xulosalar asosida o'zbek onomastikasi, xususan, toponomastikasida mavjud bo'lgan qarashlarga muayyan darajada kiritilgan aniqliklar ishning nazariy ahamiyatini belgilaydi". Mikrotoponimlarning leksik-semantik tahliliga oid dissertatsiya avtoreferatidan ko'chirilgan mazkur gapda ilmiy uslubga xos quyidagi belgilar ko'zga tashlanadi:

1) gap qurilishi mukammal va murakkab; 2) gap tarkibida toponimika va onomastikaga oid terminlar (tuman, mikrotoponim, onomastika, toponomastika, region atamaları faol qatnashgan); 3) gapda ma'juziy ma'noli yoki uslubiy bo'yoqdor so'zlar qo'llanmagan.

3. Publitsistik uslub. Bu uslub ommabop asarlar, ommabop ma'ruzalar, matbuot vositalaridagi bosh maqolalar, axborotlar, felyetonlar, murojaatnoma va chaqiriqlar, ocherk va reportajlar tilini qoliplaydi, shu sababdan u *ommabop uslub* deb ham nomlanadi. Publitsistik uslubda nutqning bir yo'la bir necha vazifasi - informativ funksiya (xabar, ma'lumot berish), agitatsion funksiya (targ'ib qilish, undash) va, zaruratga qarab, emotsional-ekspressiv funksiya mujassamlashgan bo'ladi. Shuning uchun mazkur uslub asosida shakllantirilgan matn (nutq)da ilmiy, so'zlashuv, badiiy va rasmiy uslublarga xos elementlar aralash holda qo'llanishi mumkin. Bunday paytda emotsional bo'yoqdor so'zlarga, frazema, aforizm va idiomalarga, turli emfatik qo'llanishlarga keng o'rin beriladi. Quyidagi ikki matnni ko'zdan kechiraylik:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Janobi Oliylarining taklifiga binoan Quvayt Davlati Amiri shayx Saboh al-Ahmad al-Jobir as-Saboh Hazrati Oliylari 2008- yil 21-23-iyul kunlari rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi.*

Tashrif doirasida ikki davlat o'rtasida bo'lib o'tgan rasmiy uchrashuv chog'ida O'zbekiston tomoniga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Janobi Oliylari va Quvayt tomoniga Quvayt Davlati Amiri shayx Saboh al-Ahmad al-Jobir as-Saboh Hazrati Oliylari rahbarlik qilindi.

Do'stona, o'zaro hamkorlik va anglashuv ruhida bo'lib o'tgan rasmiy muzokaralarda davlatlararo aloqalar yuzasidan fikr almashildi... ("Toshkent oqshomi" gazetasi, 2008 -yil, 23-iyul).

2. *Biz tushgan "UAZ" qurib qolgan soy yoqalab asta yuqorilamoqda. Mashina derazasidan suruv ko'rindi. Hozir u kattakon po'stakka o'xshaydi. Lahzadan keyin po'stak go'yo yirtilib, bo'lak-bo'lak bo'lib ketdi. Bir cho'pon tayog'ini siltab tashlab, suruvni kesib o'tdi.*

Quduq boshida to'xtab, mashinadan tushganimizda, cho'pon ham yaqin kelib qolgan edi. Uning shaxdam qadam tashlashi, alpday kelishgan qomatiga qarab yosh deb o'ylagandim, yo'q...

- *Otaxon cho'pon,-dedi Hakim Xudoyberdiyev qo'lini oldinga cho'zib,- sardor desak ham bo'ladi, Umar aka Toshniyozov...*

- *Uyaltirmang-ey ... - Umar akaning ot jag'li cho'zinchoq yuzi yanada cho'zilib, do'ng peshanasini qat-qat ajin qopladi. U kular ekan, o'ziga yarashgan qirqma mo'ylovini, xuddi tushib qoladiganday, barmog'ining orqasi bilan bosib qo'yardi.- Sardoringiz nimasi?*

- *Sardor bo'lmay kimsiz? Ming bir yuz qo'y ixtiyoringizda. Qancha-qancha*

cho'ponlar ta'limingizni olgan. Bu kishi,-Hakim Xudoyberdiyev Umar akaning tirsagidan tutgancha menga yuzlandi,-sovhoz tashkil bo'lmasidan ilgari, "Qizil chorvador" kolxozi vaqtida, otasidan keyin uzoq vaqt fermaga boshchilik ham qilgan. Ha, bu jihatdan ham sardor! (S. Anorboyevning "Qarnob cho'llarida" ocherkidan).

Ko'rinib turibdiki, rasmiy bayonotdan olingan birinchi matn mazmuni informativ xarakterda bo'lib, uslubiy jihatdan betarafdir. Ocherkdan keltirilgan matn parchasining stilida esa metaforik oxshatishlar ("kattakon po'stakka o'xshaydi", "ot jag'li cho'zinchoq yuzi"), ko'chma ma'noli so'zlar ("soy yoqasida", "suruvni kesib"), hurmat ma'nosini beruvchi leksik birliklar ("otaxon", "sardor"), uslubiy bo'yoqdor so'zlar va elementlar ("jilmayganicha", "uyaltirmang-ey"), dialektal qo'llanishlar ("bova") bor. Bularning barchasi ocherkka xos belgilarni - peyzaj tasviri, qahramonning portreti, ma'naviy qiyofasi, psixologik va nutqiy xarakteristikasining obrazli va ta'sirchan bo'lishini ta'milash uchun muhim vositalar bo'lib xizmat qilgan.

4. So'zlashuv uslubi. Bu uslubning ikki ko'rinishi mavjud: a) *adabiy so'zlashuv uslubi.* Bu uslubda yaratilgan nutqda so'z tanlash, gap tuzish ancha erkin bo'ladi, inversiya holatlari ham uchrab turadi. ammo adabiy til me'yorlaridan chetga chiqilmaydi; b) *jonli so'zlashuv uslubi.* Bu uslubga asoslangan nutqda ham erkinlik saqlanadi, ammo unda adabiy so'zlashuv uslubidan farqli ravishda quyidagilarga ham o'rin beriladi:

a) salbiy baho semasi bor bo'lgan, kamsitish yoki haqorat ma'noli so'zlarga: *endi tushunib olgandirsan, oshqovoq?(...).* O'pandavaqi, agar og'zingdan yana bir marta shunaqa gap chiqsa, tilingni sug'urib olaman, tushundingmi? (...). *Bomj ekansan-ku. Ipirisqi, yo'qol bu yerdan (...);*

b) varvarizm, ekzotizmlarga: *prikaz qilsangiz, dalshe ketamiz(...).* Maskirovka, oka, bir soatdan keyin ko'chaga chiqadi, voobshe tanimaysiz (...);

d) so'z, grammatik formalar, so'z birikmalari tarkibidagi ayrim tovushlar (ba'zan bir necha tovush yoki bo'g'in) tushib qoladi: *obor* (olib bor), *aytvor* (aytib yubor), *pasqam* (pastqam), *bolla* (bolalar), *mashu* (mana shu) kabi. Ba'zi tovushlarning co'z tarkibidagi o'rni almashadi: *turpoq* (tuproq), *tervat* (tebrat), *to'rg'amoq* (to'g'ramoq); bir tovush o'rnida boshqa tovush qo'llanadi: *kegin* (keyin), *shoyi* (shohi), *so'ngak* (suyak), *ko'ynak* (ko'ylak), *qalmoq* (qarmoq); so'z boshida, o'rtasida yoki oxirida tovush orttiriladi: *o'ris* (rus), *ishkop* (shkaf), *tiraktir* (traktor), *tanka* (tank); so'z tarkibidagi ba'zi unlilar cho'ziladi: *hozir* – *ho:zir*, *katta*- *ka:tta*, *ayta qol* – *ayta qo:l*, *jonim*- *jo:nim* kabi; undoshlar qavatlanadi: *maza*- *mazza*, *yasha*-*yashsha* (bunda so'z urg'usining o'rni o'zgaradi: *mazá* – *mázza*, *yashá* – *yáshsha* kabi);

e) kishi nomlari yoki ayrim so'z va so'z birikmalarini qisqartirib talaffuz qilish hollari ham uchraydi: *Dilor* (Dilorom), *Guli* (Gulnora), *Muqad* (Muqaddas), *Dilfuz* (Dilfuza), *kilo* (kilogramm), *avtomat* (telefon-avtomat), *marshrutka* (marshrutli taksi) kabi;

f) grammatik konstruktiv jihatdan qaraganda jonli so'zlashuv usulidagi nutq ko'proq dialogik xarakterda bo'lishi, sodda gaplarning, ayniqsa, to'liqsiz va bir sostavli gaplarning faol qo'llanishi bilan ajralib turadi: *Boshlandi* ("Majlis

boshlandi”), *Ana taksi* (“Ana, taksi kelyapti”), *Xo ‘sh?* (“Endi nima qildik?”) kabi, Qo’shma, murakkab gaplar nisbatan kam qo’llanadi, qo’shma gap komponentlari ko’pincha bog’lovchisiz birikadi: *Kechikdim: avtobus buzilib qoldi.*(Bu gapning to’liq shakli: *Ishga kechikdim, chunki yo’lda avtobus buzilib qoldi*) kabi;

g) fe’lning –b(-ib) affiksli ravishdosh shakli hamda –gan affiksli sifatdosh shakli edi to’liqsiz fe’li bilan birga kelganda, undagi affikslar–*uvdi, -ovdi, -gandi* shakllarida qo’llanadi: *aytuvdi* (aytib edi), *boruvdi* (borib edi), *yozuvdi* (yozib edi); *aytgandi* (aytgan edi), *borgandi* (borgan edi), *yozgandi* (yozgan edi) kabi;

h) hurmat, kamsitish, kesatq ma’nolarini ifodalash uchun xizmat qiluvchi –jon, –xon, –lar, –cha, –loq qo’shimchalariga ham keng o’rin beriladi: *akajon, Lolaxon, dadamla(dadamlar), oyimla (oyimlar), yigitcha, qizaloq* kabi.

E s l a t m a: Jonli so’zlashuv uslubiga asoslangan nutqda, ba’zan, noverbal vositalar (imo-ishora, ko’z, qo’l va bosh harakatlari) ham yordamchi vositalar sifatida ishtirok etadi.

Jonli so’zlashuv uslubi ko’prpq og’zaki nutqqa xosdir, ammo uning ba’zi ko’rinishlari, elementlari yozma nutqda, masalan, o’zaro yaqin dugonalar, sirdosh do’stlarning bir-biriga yozgan xususiy xatlarida ham uchraydi.

5. Badiiv uslub. Bu uslubda badiiy asar tili va badiiy nutq shakllantiriladi.

I z o h: Adabiy til bilan funksional uslublar o’rtasidagi munosabatlar quyidagicha: rasmiy ish uslubi, ilmiy uslub, publitsistik uslubning ayrim ko’rinishlari (informativ va agitatsion funksiyalarni bajaruvchi ko’rinishlari) adabiy til me’yorlariga tayanadi, demak, adabiy tilga zid qo’yilmaydi; so’zlashuv uslubining “a” ko’rinishi ham shunday: unda so’z tanlash, gap tuzishda erkinlik sezilib tursa-da, adabiy til me’yorlariga xilof bo’lgan birliklar va elementlardan foydalanilmaydi; so’zlashuv uslubining “b” ko’rinishida esa nutqning maxsus tayyorgarliksiz shakllantirilishi, erkin muomalaga asoslanishi bilan birga, adabiy til me’yorlaridan chetga chiqish holatlari ham kuzatiladi (mavzuning jonli so’zlashuv uslubiga oid qismiga qarang).

Adabiy tilga munosabat jihatidan *badiiy uslub* alohida baholaniladi: u, odatda, badiiy asar tilini belgilaydi, badiiy asar tilida esa adabiy til me’yorlaridan chetga chiqish hollari ham uchrab turadi: obraz va personajlar nutqini tipiklashtirish zarurati shuni taqozo qiladi. Quyidagi misollarga e’tibor beraylik:

1. *Asadbek molodes! Visshiy klass!- dedi u.-Aniq topibdi. Endi u bilan xazillashib bo’lmaydi. (T.M.).*

2. *U qizig’ar mashinasini Qoraqamishga qarab uchirdi... (T.M.)*

3. - *Akamullo, akamullo, sizni yo’qloshopti, idoraga yo’qloshopti.*

-*Nima gap?*

-*Hojar ayani bachasi sahroda borkan ekan... Bo’ronda qolgan ekan...Qaytib kelmopti... So’g’in Xo’janazar akoning duxtori bo’ronga qolip o’lipti...*

-*Hoshim yugurganicha chiqib ketdi. Mahmuda bilan Mohidil bir-biriga hayron qarab qolishdi!(J.A.)*

4. *Sho’rim qursin, bolam. Tovni ursa talqon qiladigan ullarim turib, meni talab tashlashayapti,-dedi kampir o’zi bilan olib kelgan tayoqqa tayanib. (N.Ismoilov.)*

Birinchi misoldagi nutqiy parchada grammatik-sintaktik varvarizm ("Asadbek molodes!", "Visshiy klass"), ikkinchi gapda vulgarizm ("qizig'ar"), uchinchi misoldagi dialogda esa o'zbek-tojik ikki tilliligi ta'sirida bo'lgan o'zbek shevalarining so'zlari ("akamullo" "bacha", "duxtor", so'g'in" kabi leksik dialektizmlar), shu shevaga xos grammatik formalar ("yo'qloshopti", "kelmopti" kabi grammatik dialektizmlar), aka so'zining ako shaklidagi dialektal ko'rinishi (leksik-fonetik dialektizm) qo'llangan. Bunday dialektizmlar (tov, ularim) to'rtinchi gapda ham bor. Ular adabiy til me'yoriga xilof ravishda badiiy uslub talablaridan kelib chiqib badiiy matnga kiritilgan, natijada badiiy asarning g'oyaviy-estetik jihatlarini ta'sirli, ishonarli qilib ifodalashga erishilgan.

Hozirgi o'zbek tilining og'zaki va yozma shakllari

Hozirgi o'zbek tilining *og'zaki va yozma* shakllari bor, shu ikki shakl vositasida u xalqqa xizmat qiladi:

1) adabiy tilning og'zaki shakli to'g'ri talaffuz me'yorlariga, eshitish orqali idrok qilishga tayanadi. Bu shaklning moddiy-material asosini fonetik birliklar (nutq tovushlari, urg'u, ohang, melodika, pauza, tembr, ritm, temp) tashkil etadi; uning tarixiy ildizlari xalq og'zaki ijodi namunalarida - dostonlar, qo'shiqlar, maqollar, hikmatli so'zlar, topishmoqlar, ertaklar negizida rivojlanib, og'izdanog'izga o'tib kelgan, shu jarayonda uning hozirgi milliy adabiy tilga xos yagona talaffuz me'yorlari shakllangan. Hozirgi o'zbek adabiy tilining og'zaki shakli ko'proq adabiy so'zlashuv uslubida namoyon bo'ladi, uning faoliyatida imoishora, nutq vaziyati kabi noverbal vositalar ham muhim rol o'ynaydi;

2) hozirgi o'zbek adabiy tilining yozma shakli, avvalo, yozuv sistemasiga hamda shu sistema birliklarini (grafemalarni, orfogrammarni) ko'rish va o'qishga asoslanadi. Yozuv sistemasi, ma'lumki, grafika, orfografiya va punktuatsiya kabi komponentlardan tarkib topadi, demak, uning moddiy-material asosini optik-grafik vositalar tashkil qiladi.

Adabiy tilning yozma shakli faoliyatida ilmiy uslub, rasmiy uslub, ommabop (publitsistik) uslub qoliplariga xoslanish xususiyatlari borligi ham ko'zga tashlanadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili taraqqiyotini belgilovchi omillar

Hozirgi o'zbek adabiy tili taraqqiyotini belgilovchi omillar ikki xildir:

1. **Lingvistik (lisoniy) omillar.** Bularga muayyan tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatlari - fonemalar tizimi, lug'at boyligi, morfema tiplari, so'z yasash modellari, grammatik qurilishi, leksik, grammatik birliklarning semantic va funksional xususiyatlari, ular o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni belgilovchi qoida-qonuniyatlar kiradi. Adabiy til taraqqiyoti, birinchi navbatda, ana shularga tayanadi³.

2. **Ekstralingvistik (nolisoniy) omillar⁴.** Bularga tildan tashqarida mavjud bo'lgan faktorlar kiradi: ijtimoiy tuzum formalari, tarixiy jarayonlar, xalqlar va

³ Bu haqda qarang: Crystal D. How Language Works. – Penguin Books, 2007

⁴ Bu haqda qarang: Crystal D. English as a Global Language. – Cambridge, 1997.

millatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy aloqalar, ilm-fan rivoji, ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti, ijtimoiy tafakkur, inson ruhiyati, his-tuyg'ulari, til va yozuvga oid qonun va farmonlar shular jumlasidandir. Masalan, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va ma'naviy hayotida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi: bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni boshlandi, milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning yangi shakllari yuzaga keldi. Bularning burchasi o'zbek tili leksikasiga ham ta'sir o'tkazdi: sobiq ittifoqdagi davlat tuzumiga xos ayrim tushuncha nomlari (*partkom, raykom, obkom, sovxoz, oblast* kabi so'zlar) iste'moldan chiqib, o'zbek tili lug'at boyligining tarixiy qatlamiga o'tib qoldi, ularning o'rnida hozirgi mustaqil O'zbekiston hayoti taqozo qilgan yangi so'z va atamalar (*kollej, litsey, gimnaziya, litsenziya, reyting, test, marketing, minimarket, investitsiya, biznes* kabilar) paydo bo'ldi, *hokim, hokimiyat, viloyat, tuman* kabi leksemalarning mazmun mundarijasida hozirgi tuzum tushunchalariga mos ravishda yangilanish yuz berdi, natijada bunday so'zlar eski qatlamdan zamonaviy qatlamga o'tib qoldi.

Keltirilgan ma'lumotlardan shu narsa anglashiladiki, milliy tilning, shu jumladan, milliy adabiy tilning taraqqiyotida lisoniy va nolisoniy omillar birga qatnashadi, ularning biri ikkinchisiga sharoit yaratadi, har ikkalasi bir butun mexanizm sifatida xizmat qiladi; til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur munosabatlari shuni taqozo qiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining davlat tili mavqeyidagi o'rni

Hozirgi o'zbek adabiy tilida, yuqorida aytib o'tilganidek, davlat ishlari olib boriladi. Davlat tili deyilganda ham aslida o'zbek adabiy tili nazarda tutilgan, binobarin, adabiy til davlat tomonidan himoyalangandir. Bunday himoya quyidagi hujjatlar bilan kafolatlangan:

1. O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqidagi qonuni (o'n birinchi chaqiriq O'zbekiston Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1989-yil 21- oktabrda qabul qilingan).

2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (4-modda).

3. «Davlat tili haqida» gi qonunning yangi tahriri, 1995-yil 21-dekabr.

Hozirgi o'zbek tilining tarixiy ildizlari va dialektal asoslari

Hozirgi o'zbek adabiy tilining, ma'lumki, bir qator tarixiy ildizlari bor: 1) *eng qadimgi turkiy til* (VII asrgacha bo'lgan davr); 2) *qadimgi turkiy adabiy til* (VII-X asrlar); 3) *eski turkiy til* (XI-XIII asrlar); 4) *eski o'zbek adabiy tili* (XIV-XVII asrlar); 5) yangi o'zbek adabiy tili (XVII-XX asr boshlari). O'zbek tili ana shu tarixiy ildizlardan o'sib chiqib, XX asrning 30-yillarida hozirgi o'zbek adabiy tili shakliga kirgan⁵.

Turkologiyada va o'zbek tilshunosligida o'zbek tili tarixini boshqacharoq davrlashtirish holatlari ham uchraydi (qarang: 17, 21-23).

P.S. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlarini ko'zdan kechirish qadimgi turkiy tildan hozirgi o'zbek adabiy

⁵ Bu haqda qarang: Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. -T: O'zbekiston Respublikasi Milliy jamiyati nashriyoti, 2008, 30-39-6.

tiligacha bo'lgan lisoniy taraqqiyot dinamikasini kuzatish, hozirgi o'zbek adabiy tilining qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o'zbek adabiy tillaridan farqlarini aniqlash imkonini beradi. Bunday farqlarning paydo bo'lishi, odatda, ikki omilga asoslanadi: 1) muayyan tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlariga—tilning o'zidagi sistemaviy va strukturaviy hodisalar munosabatiga; 2) ikki yoki undan ortiq tillar o'rtasidagi kontaktga (interstrat munosabatiga). O'zbek tili taraqqiyotida eng qadimgi turkiy til va qadimgi turkiy til substrat (asos til) vazifasini, arab, tojik-fors va rus tillari esa superstrat (ustama til) vazifasini o'tagan. Substrat va superstrat tillar o'rtasidagi aloqa odatda bilingvizm (ikki tillilik) yoki polilingvizm (ko'p tillilik) sharoitida yuzaga keladi va tillar substratsiyasi deb ataladi: turkiy-arab, turkiy-fors, o'zbek-arab, o'zbek-tojik, o'zbek-rus ikki tilliliklari sharoitida asos til bilan ustama tillar o'rtasida bog'langan aloqalar ana shunday substratsiyalar sanaladi. Ayni shu omillar (ichki taraqqiyot qonuniyatlari bilan birga) qadimgi turkiy tildan hozirgi o'zbek adabiy tiligacha bo'lgan davrda til strukturasi qator o'zgarishlarni yuzaga keltirgan. Buni til sathlari va tizimlari bo'yicha keltirilgan quyidagi ma'lumotlardan anglab olsa bo'ladi.

1. Tilning fonetik-fonologik sathidagi o'zgarishlar⁶

Vokalizm tizimida: a) qadimgi turkiy til vokalizmida 8 unli bo'lgan (a, ы, o, u - orqa qator, yo'g'on unililar; ə, i, ə, y - old qator, ingichka unililar); b) eski turkiy tilda (XI- XIV asrlarda) unililar soni 9 taga (a- ə, e, , ы-i, o- ə,u-y), eski o'zbek tilida (XV-XIX asrlarda) esa ularning soni 10 taga [a,ä(o), ə,e, o,ə,u,y, ы,i] yetgan;⁷ d) qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o'zbek tillarida unli tovushlarning yo'g'onlik-ingichkalik ziddiyati (oppozitsiyasi) bo'lgan: i-ы, ə-a, y-u, ə-o kabi; e) hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmida unlilarning qator belgisi fonologik jihatdan ahamiyatsizdir, shuning uchun unililar miqdori 6 taga tushib qolgan (i,e,a,u,o'). Bu tizimda yo'g'onlik-ingichkalik oppozitsiyasi yo'q, ayrim tovushlarning sifat belgilari ham o'zgargan. Masalan, orqa qator, lablanmagan a o'rnida kuchsiz lablangan o unlisi paydo bo'lgan. Qiyos qiling: *ata-ota, at-ot* kabi.

Konsonantizm tizimida: a) qadimgi turkiy til konsonantizmida b,g,d,z,k,q, g', - p, m, n, l, r, y, s, t, sh, ch, ng undoshlari va nt, nch, lt, mt qo'sh undoshlari bo'lgan, ularning ko'pchiligi til orqa va til oldi belgilri bilan farqlangan : b (1), b (2), g. D (1), d (2), z, k, q, g', p, m, n (1), n (2), l (1), l (2), r (1), r (2), y (1), y (2), s (1), s (2), t (1), t (2), sh, ch, ng, nt,nch,lt, mt kabi ;⁸ b) eski o'zbek adabiy tilida undoshlar 24 taga yetgan (b, m, p, v, f, s, z, t, d, n, l, r, ch, sh, j, j (dj), y, q, k, g', g, η, x, h). Konsonantizm tarkibida undoshlar miqdorining ortishi o'sha davrdagi o'zbek-arab va o'zbek-fors ikki tilliligi (bilingvizmi) ta'sirida, shuningdek, ayrim undoshlarning divergensiyasi (bir fonemaning ikki fonemaga ajralishi) natijasida sodir bo'lgan; d) hozirgi o'zbek adabiy tili konsonantizmida yuqoridagi 24 undoshning barchasi bor. Ayrim tilshunoslarning (masalan, prof. A. Abduazizovning) fikricha, rus tilidan o'zlashgan so'zlarda uchraydigan qorishoq "ts" ham o'zbek tili undosh fonemalari qatoridan o'rin olgan deb qaralishi kerak.⁹ Yuqoridagi ma'lumotlar tahlildan quyidagilar ma'lum bo'ladi:a)qadimgi turkiy til konsonantizmida f, x, h, j, j (dj) undoshlari bo'lmagan. Ular eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tili davrida turli lisoniy (lingvistik) va nolisoniy (ekstralingvistik) omillar ta'sirida paydo bo'lgan; b) qadimgi turkiy tilda q va k undoshlari bir fonemaning nutqdagi ikki ko'rinishi - ottenkalari bo'lgan, keyinchalik bu fonema divergensiyaga uchrab, ikki mustaqil fonemaga aylangan; g' va g undoshlari rivojida ham ayni shu jarayon (divergensiya) bo'lganligini - "g" ning "g'" va "g" ga parchalanganligini ko'ramiz.

2. Nutq tovushlarining pozitsion va sintagmatik xususiyatlaridagi

⁶ Labov W. Principles in Linguistic Change. Vol. 2. Social Factors. – Cambridge, 2001.

⁷ Bu haqda qarang : Махмудов Қозоқбой. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. -Т.: “Ижод” нашриёт уйи, 2006, 45-6.

⁸ Bu haqda qarang : Махмудов Қозоқбой. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. -Т.: Ижод нашриёт уйи, 2006, 55-56-6.

⁹ Qarang: Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1992, 19-20-6.

o'zgarishlar: a) qadimgi turkiy tilda r, l, v, g' (g), z, d, η undoshlari so'z boshida qo'llanmagan. Eski o'zbek adabiy tili va hozirgi o'zbek adabiy tilida esa bu tovushlar ("η" dan boshqalari) so'z boshida ham ishlatiladi; b) m undoshi qadimda so'z boshidagi "b" ning varianti sifatida qo'llangan, BEN – «men» (105, 94), MEN – «men» (105,340), Biη – «ming» (105, 101), Miη – «ming» (105, 344) kabi; so'z o'rtasida va oxirida esa mustaqil fonema bo'lgan: Qabaq – «g'ovog'» (105, 399) – Qamaq – «butun», «barcha», «to'la» (105, 414); TAM – «devor» (105, 523), «uy» (107, 3-t., 151) – TAB – «Top» (105, 525). Uning mustaqil fonema sifatida so'z boshida qo'llanishi eski o'zbek tilida bir qadar uchrab turadi, hozirgi o'zbek adabiy tilida esa uning so'z boshida qo'llanishi ancha keng tarqalgan; d) qadimgi turkiy tilda undosh tovushlar so'z boshida qatorlashib kelmagan. Bu xususiyat eski o'zbek tilida ham saqlangan, ammo hozirgi o'zbek adabiy tilida esa undoshlarning so'z yoki bo'g'in boshida qatorlashib kelishi me'yoriy holatga aylangan; bu hodisa o'zbek tiliga rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlarga xos (*brom, professor, shkaf, traktor, trolleybus, tramvay* kabi); e) qadimgi turkiy tilda undosh tovushlarning so'z oxirida qatorlashib kelishi juda kam uchraydi: *qirq, alp* ("mergan ovchi"), *art* ("yelka") kabi. Eski o'zbek tilida undosh tovushlarning so'z oxirida qatorlashib kelishi bir oz ko'paygan (fors-tojik va arab tillaridan so'z o'zlashtirish hisobiga): *do'st* (forscha o'zlashma), *hamd* (arabcha o'zlashma: "maqtov"), *g'isht* (tojikcha o'zlashma), *go'sht* (tojikcha o'zlashma) kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bo'g'in yoki so'z oxirida ikki undoshning qatorlashib kelishi rus tili orqali o'zlashgan so'zlar hisobiga ancha ko'paygan: *boks, kodeks, kort, iks* kabi; f) qadimgi turkiy va eski o'zbek tillarida so'z oxirida ikkita bir xil undoshning qavatlanishi (geminatsiya) bo'lmagan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa ikkita bir xil undoshning so'z oxirida qavatlanishi uchrab turadi: *gramm, klass, vatt, ball* kabi ruscha-baynalmilal o'zlashmalar buning dalilidir; g) qadimgi turkiy tilda so'zning birinchi bo'g'inidan keyingi bo'g'inlari faqat undosh bilan boshlangan: *o-na, o-ta, o-g'a, i-ni, bo-la* kabi. Bu hol so'z tarkibida ikki unlining yonma-yon kela olmasligiga sabab bo'lgan. Eski o'zbek tilida arab tili o'zlashmalarining paydo bo'lishi bu qonuniyatga chek qo'ygan: *saodat, oila, maorif, soat, foiz, mutolaa* kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa ruscha-baynalmilal leksik o'zlashmalar hisobiga bu hodisa yanada kengaygan: *biologiya, zoologiya, geometriya, geografiya* kabi.

3. Singarmonizm: 1) qadimgi turkiy til va eski o'zbek tilida singarmonizm (so'z tarkibidagi o'zak va qo'shimchalarda unlilarning uyg'unlashuvi) mavjud bo'lgan. Qiyos qiling: *keldyk* ("kel" dagi "e" - old qator, ingichka unli + "-dyk" dagi "y" ham old qator, ingichka unli) va *barduk* ("bar" dagi "a" - orqa qator, yo'g'on unli+ "-duk" dagi "u" ham orqa qator yo'g'on unli). Bu misollardagi unlilar til garmoniyasi qonuniyati asosida uyg'unlashgan. *Kelip* va *keryp* so'z shakllarining birinchisida ("kel+ip" da) o'zak va qo'shimchadagi unlilar lablanmagan, ikkinchisida ("keryp" da) esa o'zak va qo'shimchadagi unlilar lablangandir. Demak, ikkinchi misolda unlilar lab garmoniyasi qonuniyati asosida uyg'unlashgan; 2) hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizm o'z mavqeini ancha yo'qotgan. Qiyos qiling: *konlynyz* (eski o'zbek tilida) – *ko'nglingiz* (hozirgi o'zbek adabiy tilda), *keryp* (eski o'zbek tilida) – *ko'rib* (hozirgi o'zbek adabiy tilida) kabi.

Izoh: singarmonizm qonuniyati hozirgi paytda qipchoq va o'g'uz dialektlariga mansub o'zbek shevalarida saqlangan: *algan* (adabiy tilda)-*alg'an* (qipchoq lahjasi

shevalarida), *borgan* (adabiy tilda) – *barg'an* (qipchoq lahjasi shevalarida), *kelgan* (adabiy tilda)-*kelgan* (qipchoq lahjasi shevalarida), *o'ttiz* (adabiy tilda) – *o'ttuz* (qipchoq lahjasi shevalarida), *uyimga* (adabiy tilda) - *uyumə* (o'g'uz lahjasi shevalarida) kabi.

4. Tilning lug'at boyligida: 1) qadimgi turkiy tilda fors-tojik va arab so'zlari bo'lmagan. Eski turkiy tilda fors-tojik va arab so'zlari qo'llana boshlagan, eski o'zbek tilida bunday o'zlashmalar ancha ko'paygan: *gul*, *gavhar*, *guruch*, *go'r* (fors-tojik so'zlari), *madrasa*, *oila*, *fikr*, *firoq*, *hosil* (arabcha so'zlar). Hozirgi o'zbek adabiy tilida bunday o'zlashma so'zlarning ayrimlari eskirgan (masalan, *muvalhidulhamuza*, *handasa*, *tarh* kabilar), ularning o'rnida bir qator ruscha o'zlashma termin va atamalar paydo bo'lgan (*kislorod*, *geometriya*, *avtobus*, *tramvay* va b.lar); 2) qadimgi turkiy tildagi ayrim so'zlarning eski o'zbek tilida tojikcha sinonimlari paydo bo'lgan: *chechak* (turkiy)- *gul* (tojikcha), *yog'och*, *yig'och* (turkiy) - *daraxt* (tojikcha), *oltin* (turkiy)- *tilla* (tojikcha), *buloq* (o'zbekcha)-*chashma* (tojikcha), *qirov* (o'zbekcha)- *shabnam* (tojikcha) kabi; 3) qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o'zbek tillarida qisqartma so'zlar (abbreviaturalar) bo'lmagan. Hozirgi o'zbek tilida bunday qisqartmalar anchagina bor: BMT, TDPU, SamDU kabi. Keyingi yillarda o'zbek tili leksikasida IIB (Ichki ishlar bo'limi), IIBB (Ichki ishlar bo'limi boshqarmasi), IIV (Ichki ishlar vazirligi), DAN (Davlat avtoinspeksiya nazorati), O'zMU (O'zbekiston Milliy universiteti), BuxDU (Buxoro Davlat universiteti), QarMII (Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot instituti) kabi yangi qisqartma nomlar ham paydo bo'ldi; 4) o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, shuningdek, mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ma'rifiy islohotlar o'zbek tili leksikasida yana bir qator yangi so'zlarning yuzaga kelishiga yoki ayrim eskirgan so'zlarning qayta tiklanishiga sabab bo'lmoqda: *supermarket*, *fermer*, *aksiyador*, *vazirlik*, *nozir*, *devonxona*, *ta'til* kabilar shular jumlasidandir; 5) rus tili va rus yozuvi ta'sirida yuzaga kelgan *tok* ("elektor toki") va *tok* ("uzum toki") kabi omograflar, *to'rt* ("miqdor son") va *tort* ("konditer mahsuloti") kabi omofonlar ham ko'proq hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasiga xosdir.

5. Tilning grammatik qurilishida: 1) qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tillarida ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish kabi mustaqil so'z turkumlari bo'lgan. Bunday mustaqil so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida ham bor; 2) qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tillarida yordamchi so'zlar – ko'makchilar, bog'lovchilar va yuklamalar bo'lgan. Bunday turkumlarga xos so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida ham mavjud; 3) qadimgi turkiy va eski o'zbek tillarida undovlar va modal so'zlar bo'lgan. Ular hozirgi o'zbek adabiy tilida ham bor; 4) qadimgi turkiy tilda ham, eski o'zbek tilida ham har bir so'z turkumining o'ziga xos grammatik kategoriyalari (otlarda-egallik, kelishik, son; sifatlarda- daraja; fe'llarda - shaxs-son, mayl, nisbat, zamon va b.lar) bo'lgan. Bu xususiyatlar hozirgi o'zbek adabiy tiliga ham xos. Biroq, hozirgi o'zbek adabiy tilida qadimgi turkiy va eski o'zbek tillaridan farq qiladigan yangi jihatlar ham uchraydi: 1) hozirgi o'zbek adabiy tilida morfemalar qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tillaridagiga nisbatan miqdoran ko'p va mazmunan boydir. Masalan: qadimgi turkiy tilda o'zakdan oldin qo'shiluvchi affiks morfemalar (prefiksalar) bo'lmagan. Bu tipdagi morfemalar eski o'zbek tilida va hozirgi o'zbek adabiy tilida uchraydi: *bebosh*, *bevosita*, *bavasita* (*bilvosita*),

noo'rin, sersuv, sergap kabi; b) eski o'zbek adabiy tilida "-ov", "-ev", "-ova", "-eva", "-ovna", "-evna", "-ovich", "-evich" kabi familiya va otchestvo yasovchi qo'shimchalar bo'lmagan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bunday qo'shimchalar bor; d) eski o'zbek adabiy tilida "-lar" affiksi ko'plikni (*odamlar, qishloqlar* kabi), birgalikni (*Karimlar kelishdi*), ma'no kuchaytirilishini (*suvlar oqib yotibdi*), chama yoki taxminni (*qirq yillar bo'ldi* kabi) ifodalagan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa "-lar" affiksining so'zlarni terminlashtirish funksiyasi ham paydo bo'lgan: *qirqquloqsimonlar, sutemizuvchilar...* kabi; 2) qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tillarida singlarizm mavjud bo'lganligidan ko'pchilik morfemalarning yo'g'on va ingichka turlari saqlangan: "-мыз" va "-miz" (*baramыз va kelamiz* kabi), "-gən" va "-g'an" (*kelgən va barg'an*), "-чы" va "-chi" (*yog'чы "azani boshqaruvchi" va bədzichi- "naqqosh" kabi*). Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa ulardan faqat bittasi standart forma sifatida saqlangan (*boramiz, kelamiz, borgan, kelgan, qo'riqchi va ishchi* kabi), "-lyq" va "-lik" haqida ham shu fikrni aytish mumkin; 3) eski o'zbek adabiy tilidagi ba'zi affikslar hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydi. Masalan, "-vul" affiksi eski o'zbek adabiy tilida *qorovul, yasovul* kabi so'zlarni yasagan, hozir esa bu affiks so'z yasash xususiyatini yo'qotgan; 4) qadimgi turkiy tilda bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, vosita kelishigi ("-n", "-ы", "-in", "-yn", "-un", "-on", "-ən"), jo'nalish kelishigi, o'rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi bo'lgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida shulardan bittasi - vosita kelishigi yo'q. U qadimgi turkiy tilda "bilan" ko'makchisi funksiyasiga teng bo'lgan: masalan, *tilin sözləp, qolqaqын eshidip* ("tili bilan so'zlab, qulog'i bilan eshitib...") kabi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining dialektal asoslari

O'zbek tili bir qator shevalarni o'z ichiga oladi, bunday shevalar etnolingvistik nuqtayi nazardan uchta katta dialektga - qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalariga birlashtiriladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilining tarkib topishida ana shu uchta lahja shevalarining ishtirok etganligi tabiiy bir holdir, ammo ulardan qaysi biri adabiy tilga ko'proq darajada asos bo'lganligi masalasida tilshunoslar o'rasida yakdillik yo'q. Ko'pchilik manbalarda hozirgi o'zbek adabiy tilining tayanch dialekti sifatida qarluq lahjasi, xususan, uning Toshkent-Farg'ona tipidagi shahar shevalari ishtirok etganligi ko'rsatiladi¹⁰. Ammo ayrim tilshunoslar (masalan, prof.X. Doniyorov, dotsent B. To'ychiyoyev) adabiy tilning tayanch dialekti masalasiga boshqacharoq yondashadilar: ularning fikricha, hozirgi o'zbek adabiy tilining tarkib topishida qipchoq lahjasiga mansub shevalar ham faol qatnashgan, shunga ko'ra adabiy til me'yorlariga oid ayrim masalalar (xususan, vokalizm tizimi, alifbo tuzilishi) qayta ko'rilishi kerak. Bu mualliflarning ta'kidlashicha, hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmida 6 ta emas, 8-9 ta unli fonema bor, ular i/ы, ə/a, y/u, ø/o kabi kontrast juftliklarni hosil qiladi¹¹.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining grammatik qurilishida otning jo'nalish, o'rin-payt

¹⁰ Bu haqda qarang: Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш.Ш. Ўзбек тили диалектологияси.-Т.: Ўқитувчи,1978,43-6. У а н а: Абдурахмонов Ф., Мамажонов С. Ўзбек тили ва адабиёти.-Т.: Ўзбекистон, 2002,44-6.

¹¹ Qarang: Данияров Х. Опыт изучения джекающих диалектов в сравнении с узбекским литературным языком.-Т.: Фан, 1975,с.224. Е г о ж е: Восточно-кыпчакские (джекающие) говоры и их участие в развитии узбекского литературного языка.- АДД. Ташкент, 1977, с.46-47. У а н а қ а г а н г: Тўйчибоев Б. Ўзбек тилининг тараққиёт босқичлари.-Т.: Ўқитувчи, 1996, 174-6.

va chiqish kelishiklaridagi shakllari Toshkent- Farg'ona gruppasi shevalariga asoslanadi: "-ga"(j.k), "-da" (o'-p.k) va "-dan"(ch.k) kabi. Boshqa shevalarda otning bu kelishiklaridagi shakllari quyidagicha bo'ladi: Samarqand shevasida "-ga" formanti jo'nalish va o'rin-payt kelishiklari ma'nosini ifodalaydi: *Buxoroga ketopti* ("Buxoroga"- otning jo'nalish kelishigidagi shakli), *Buxoroga o'qopti* ("Buxoroga"- otning o'rin-payt kelishigidagi shakli) kabi. O'g'uz lahjasi shevalarida "-ga" o'rnida "-g'a" (qurvaqag'a), "-yə" (tangəyə), "-nə" (ərkinə), "-na(уаныма),"-ə" (uyimə) formantlari ishlatiladi. Bunday har xillik tushum va qaratqich kelishiklarida ham mavjud: "-ni"/"-ны", "-ning"/"-ның" (qipchoq lahjasi shevalarida), "-ning"/"-ing", "-ның"/"-ың" (Iqon, Qorabuloq, Hazoras shevalarida), "-ni"/"-ti"/"-pi"/"-yi"/"-mi" (Toshkent shevasida) kabi. Bunday ko'p variantlilik adabiy tilga ko'chirilmagan.

Shuni ham aytish kerakki, ko'pchilik shevalarda tushum va qaratqich kelishiklari deyarli farqlanmaydi. Shuning uchun ham kelishiklar soni Toshkent, Farg'ona, Xeva-Urganch shevalarida-5ta, Qarshi shevasida 4 tadir. Qipchoq lahjasining jlovchi shevalarida, qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining Iqon-Qorabuloq dialektida esa ularning soni 6 taga yetadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilining 6 kelishikli tizimga asoslanishida ana shu lahjalarning morfologik xususiyati hisobga olingan.

"Hozirgi o'zbek tili" kursining bo'limlari:

1. Fonetika va fonologiya¹². Bu bo'limlarda hozirgi o'zbek adabiy tilining fonetik-fonologik sathiga oid tizimlar (vokalizm, konsonantizm), segment va supersegment birliklar (fonema, bo'g'in, urg'u, intonatsiya, fraza, takt), prosodik elementlar (temp, tembr, ritm, melodika, pauza va b.lar), ularning til va nutqdagi roli haqida fikr yuritiladi.

2. Grafika va orfografiya¹³. Bu bo'limlarda hozirgi o'zbek adabiy tilining yozuv tizimlari (kirillcha va lotincha o'zbek yozuvlari), ularning asosiy komponentlari va belgilari, orfografiya prinsiplari va qoidalari xususida bahs yuritiladi.

3. Orfoepiya. Bu bo'limda o'zbek tilining to'g'ri (adabiy) talaffuz me'yorlari, ularni belgilovchi omillar haqida ma'lumot beriladi.

4. Leksikologiya va frazeologiya. Bu bo'limlarda o'zbek tilining lug'at boyligi, uning rivojlanish qonuniyatlari, lug'aviy birliklarning qatlamlanishi, turlari, leksik-semantik va tematik guruhlari, leksema va frazemalarning semantik tarkibi, qo'llanish xususiyatlari o'rganiladi.

5. Leksikografiya. Bu bo'limda lug'atchilik, lug'at tiplari va turlari, lug'atlarning tuzilish prinsiplari, lug'at maqolalarining sxemalari, lug'atlarning amaliy ahamiyati xususida bahs yuritiladi.

6. Morfemika. Bu bo'limda so'z yoki so'zning grammatik shakllari tarkibidagi ma'noli qismlar – morfemalar xususida, morfemalarning funksional-semantik, strukturaviy va pozitsion tavsifi haqida ma'lumot beriladi.

7. So'z yasalishi. Bu bo'limda o'zbek tilining so'z yasash usullari, ularning so'z turkumlari bo'yicha tavsifi, tarixiy va hozirgi so'z yasalishi kabi masalalar yoritiladi.

¹² Bu haqda qarang: Roach P. English Phonetics and Phonology, 3d ed. – Cambridge University Press, 2007.

¹³ Bu haqda qarang: Crystal D. How Language Works. – Penguin Books, 2007

8. Morfologiya. Bu bo‘lim grammatikaning bir qismi bo‘lib, unda grammatik ma‘no va grammatik shakllar, shular orasidagi aloqadorlik asosida yuzaga kelgan grammatik kategoriyalar, so‘zlarni turkumlarga birlashtirish prinsiplari, har bir so‘z turkumining ma‘no turlari, morfologik belgilari, gapdagi funksional xarakteristikasi haqida fikr yuritiladi.

9. Sintaksis. Bu bo‘lim grammatikaning ikkinchi qismi bo‘lib, unda so‘z birikmalari va gap turlari, sozlarning grammatik munosabatga kirishish yo‘llari o‘rganiladi.

10. Punktuaitsiya. Bu bo‘limda yozuv sistemasining uchinchi komponenti (birinchi komponenti-grafika, ikkinchi komponenti-orfografiya) xususida ma‘lumot beriladi. U sintaksis bilan parallel ravishda o‘rganiladi, chunki tinish belgilarining qo‘llanishi, asosan, gap ichida va nutqda namoyon bo‘ladi.

Mavzu bo‘yicha tekshirish savollari

1. "Hozirgi o‘zbek adabiy tili" fani nimani o‘rganadi ?
2. Fan oldiga qanday maqsad va vazifalar qo‘yilgan?
3. Nima uchun adabiy til milliy tilning oliy formasi sanaladi? Belgilari?
4. Adabiy til bilan dialekt, sheva va funksional stillar o‘rtasidagi munosabatlar va talfovutlar nimadan iborat?
5. Adabiy tilning og‘zaki va yozma shakllari qanday farqlanadi?
6. Til taraqqiyotini belgilovchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni qanday tushunasiz?
7. Adabiy tilning vazifa doirasi?
8. O‘zbek tilining davlat tili maqomi qanday hijjatlar bilan kafolatlangan?
9. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining qanday tarixiy ildizlari bo‘lgan?
10. Bunday tarixiy ildizlar va jarayonlardan xabardor bo‘lishning amaliy ahamiyati nimada?
11. Qadimgi turkiy til vokalizmi qanday unililardan tarkib topgan?
12. Eski turkiy va eski o‘zbek adabiy tillari vokalizmi haqida nimalarni bilasiz?
13. Vokalizm tizimidagi kontrast juftliklarni qanday tushunasiz?
14. Hozirgi o‘zbek adabiy tili vokalizmida nechta unli bor? Ular yo‘g‘onlik-
15. "Hozirgi o‘zbek adabiy tili" kursining qanday bo‘limlari bor?
16. Fonetika va fonologiyada nimalar o‘rganiladi?
17. Grafika va orfografiyada nimalar haqida ma‘lumot beriladi?
18. Orfoepiya qanday fan?
19. Leksokologiyaning o‘rganish obyekti haqida nimalarni bilasiz?
20. Frazologiyada tilning qanday birliklari haqida fikr yuritiladi?
21. Tilshunoslikning qaysi sohasi leksikografiya deb yuritiladi? Unda nimalar haqida ma‘lumot beriladi?
22. Morfemika nimani o‘rganadi?
23. Tilshunoslikning so‘z yasalishi bo‘limida qanday masalalar ko‘riladi?
24. Morfologiyada nimalar o‘rganiladi?
25. Sintaksisning tadqiqot predmetini qanday tushunasiz?
26. Punktuaitsiyada qaysi masalalar ko‘riladi?

Tushunchalar izohi

Fonetik-fonologik sath¹⁴ - til ierarxiasining tovush tizimidan iborat quyi pog'onasi (quyi yarusi): nutq tovushlari, bo'g'in, urg'u, ohang va b.lar.

Leksik sath¹⁵ - til ierarxiasining lug'at boyligidan iborat yuqori pog'onasi: so'zlar, iboralar, ularning turli qatlamlari.

Morfologik sath¹⁶ - til ierarxiasining morfologik va sintaktik birliklardan iborat eng yuqori pog'onasi: so'z turkumlari, grammatik ma'no va grammatik shakllar, so'z birikmalari va gap, ularning turlari va konstruksiya modellari.

Sintaktik sath¹⁷ - sintaksis (grekcha *suntaxis* so'zidan olingan bo'lib, yopishtirmoq, birlashtirmoq demakdir) til tizimining yuqori sathi bo'lgan sintaktik sath hamda shu sath haqidagi ta'limotdir. Sintaktik sath - bir tomondan, so'z shakllarining bog'lanish qoidalarini, ikkinchi tomondan, tarkibida bu qoidalar ro'ebga chiqadigan bir butunlikni — gapni o'rganadi.

Vokalizm - unli fonemalar tizimi.

Konsonantizm - undosh fonemalar tizimi.

Divergensiya - til strukturasiidagi o'zgarishlar ta'sirida bir fonemaning ikki fonemaga bo'linishi. Mas. "k"ning "k" va "q"ga ajralishi.

Konvergensiya - tarixiy taraqqiyot natijasida ikki fonemaning bir fonema holiga kelishi: qadimgi turkiy va eski o'zbek tillarida alohida-alohida fonemalar bo'lgan "θ" va "o" unlilari shu qonuniyat asosida hozirgi o'zbek adabiy tilida bitta "o" fonemasiga birlashgan.

Pozitsion xususiyatlar - nutq tovushlarining so'z tarkibidagi o'rni (unlining urg'uli yoki urg'usiz bo'g'inda, undosh tovushning kuchli yoki kuchsiz pozitsiyada bo'lishi), shu omil ta'sirida yuz beradigan hodisalar.

Sintagmatik xususiyat — so'z yoki bo'g'in tarkibida tovushlarning zanjirsimon joylashuvi, birin-ketin kelishi, gorizontaal chiziq bo'ylab joylashuvidan kelib chiqadigan xususiyatlar.

Singarmonizm — so'zning asosi va affiks tarkibidagi unlilarning o'zaro uyg'unlashuvi, garmoniyasi.

DARS YAKUNI

1. Xulosa.
2. Savollarga javoblar.
3. Taklif-tavsiyalar.
4. Baholash ballari e'lon qilinadi.
5. Vazifalar.

Asosiy adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. — Toshkent: O'zME, 2013.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy

¹⁴ Bu haqda qarang: Collins B. *Practical Phonetics and Phonology* – Routledge, 2008.

¹⁵ Bu haqda qarang: Collins B. *Practical Phonetics and Phonology* – Routledge, 2008.

¹⁶ O'sha asar: Collins B. *Practical Phonetics and Phonology* – Routledge, 2008.

¹⁷ Collins B. *Practical Phonetics and Phonology* – Routledge, 2008.

tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.

4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Т., 1994.
2. Jamolxonov H. O‘zbek tilining nazariy fonetikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan, 2009.
3. Mirtojdiyev M. O‘zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
4. Ne‘matov H, Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989.
5. Ne‘matov H, Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
6. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. Oliy o‘quv yurtlari o‘zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
7. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. –Т. 2006.
8. Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti Toshkent-2010.
9. Hojiyev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi. Oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlari o‘qituvchi va talabalari uchun qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007.
10. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
11. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфологияси. –Т., 1992

2-MODUL. TIL, LISON VA NUTQ MUNOSABATI. TIL SATHLARI VA BIRLIKLARI. LISONIY PARADIGMA, LISONIY ZIDDIYAT VA UNING TURLARI

REJA:

1. Til hodisalarida zohiriy (nutqiy) va botiniy (lisoniy) jihat.
2. Til, lison va nutq munosabati.
3. Lisoniy va nutqiy birliklar.
4. Lisoniy paradigma va uning turlari.
5. Lisoniy ziddiyat va uning turlari.

Tayanch tushunchalar: til, lison , nutq, umumiylik , alohidalik, mohiyat, hodisa, imkoniyat, voqelik, sabab, oqibat, tiln sathlari, lisoniy birliklar, fonema, tovush, leksema, so‘z, morfema, qo‘shimcha, qolip, hosila, lisoniy paradigma, lisoniy munosabat, lisoniy ziddiyat.

1. Til hodisalarida zohiriy (nutqiy) va botiniy (lisoniy) jihat.

O‘zbek tilshunosligi o‘zining (XX asrning 20-yillaridan 90-yillari-gacha) amaliy bosqichni bosib o‘tdi. Bu davrda amalga oshirilgan ishlar quyidagilardan iborat edi:

- 1) tilning bo'limlari aniqlandi;
- 2) har bir bo'limga doir birliklar chegaralandi;
- 3) birliklarning zohiriy alomatlari yoritildi.

Masalan, fonetika sohasida hozirgi o'zbek tilida 6 ta unli, 24 ta undosh borligi aniqlanib, ularning bevosita sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi xossalari o'rganildi. Unlilardagi lablanganlik-lablanmaganlik, til orqa, til o'rta, til oldi, yuqori torlik, quyi va o'rta kenglik belgilari shular jumlasidandir. Biroq har bir unlining mohiyati-substantsiyasiga bu zohiriy belgilar qay darajada daxldor degan muammo nazariy o'rganish jarayonida fonemalarning variant-invariantlik muammosi ostida tadqiq qilindi. Har bir unlining (undoshlarning ham) mohiyati nazariy usullarda ochib berildi. Shunday holatni morfologiyada ham kuzatish mumkin. Bunda so'z turkumlari, har bir turkumga xos grammatik shakllar aniqlandi. Grammatik shaklning zohiriy belgilari – nutqiy xususiyati tadqiq qilindi. Masalan, har bir kelishikning 20 dan 50–60 tagacha ma'nosi ajratilib, tavsiflandi. Bu ma'nolarni yanada ko'paytirish mumkin edi. Zero hodisalar cheksiz bo'lib, ular qanchalik ko'paysa, manba mohiyatini shuncha qorong'ilashtiradi, to'sib qo'yadi. Quyidagi misollarga diqqat qiling:

Gulnoraning kitobi

Gulnoraning opasi

Gulnoraning uyi

Gulnoraning yig'isi

Bunda empirik yondashuv qaratqich kelishigining «qarashlilik», «mansublik», «egalik», «subyekt-harakat» kabi to'rtta ma'nosini farqlashni taqozo qiladi (qatorni yana davom ettirish va ma'nolar sonini ko'paytirish mumkin). Bu – zohiriy ma'no, nutqiy hodisa. Empirik tilshunosdan mohiyatga tomon bundan chuqurroq borish talab qilinmaydi. Nazariyotchi kelishikning har bir qo'llanishidagi farqdan «ko'z yumib», umumiy jihatni qidiradi. Farqlarning (kitob), (opa), (uy), (yig'i) va boshqa so'zlar ta'sirida ekanligini nazariy yo'l bilan aniqlaydi va shu asosda qaratqich kelishigining mohiyatini ochadi.

Nazariy o'rganish jarayonida til hodisalarida zohiriy (nutqiy) va botiniy (lisoniy) jihat farqlanadi. Har bir birlik yondoshlari bilan o'zaro munosabatda o'rganiladi, ularga tizimiy yondashiladi. Masalan, yuqoridagi misolning birinchisida (Gulnoraning kitobi) qaratqich kelishigining «qarashlilik», ikkinchisida (Gulnoraning opasi) «mansublik» nutqiy (xususiy) ma'nolari voqelangan. Biroq qaratqich kelishigi shaklining barcha qo'llanishi uchun umumiy jihat – «oldingi ismni keyingi ismga tobelash» ma'nosi bevosita kuzatishda berilmagan va lisoniy ahamiyatga ega. Bu umumiylik yuqoridagi misollarda «Gulnora so'zining opa so'ziga qaratuvchilik munosabatini ifodalash», ikkinchisi «Gulnora so'zining kitob so'ziga qaratuvchilik munosabatini ifodalash» tarzida bevosita kuzatishga chiqqan, sezgi a'zosi bilan his qilinadigan qiymat kasb etib xususiylashgan. Empirik tilshunos har bir birlikni alohida-alohida tekshiradi. Masalan, [a] unlisini boshqa unlisiz, biror zamon yoki kelishik shaklini boshqasidan ajratib, uzib o'rganadi. Nazariy o'rganish bosqichida esa ular o'z tizimdoshi bilan yaxlitlikda tahlil etiladi. Har bir birlikning, deylik, unlining, boshqa tizimdoshi bilan o'zaro munosabatida namoyon bo'ladigan belgisi nazariyotchi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Til hodisalarini bu tarzda o'rganish tizimiy yondashish deyiladi. Nazariy tilshunoslik

har qanday birlikning mohiyati uning munosabatini chuqur tahlil qilish bilan ochiladi, degan g'oyaga tayanib ish ko'radi.

Falsafiy UMIS va AHVOning lisoniy tizimda voqelanishi

Dialektika har qanday o'rganish manbaida, borliqdagi har bir narsada ikki jihat borligini ta'kidlaydi va uni quyidagi ikki tomonli kategoriyalar asosida sistemalashtiradi:

Umumiylik – Alohidalik;

Mohiyat – Hodisa;

Imkoniyat – Voqelik;

Sabab – Oqibat.

Birinchi jihat (uni tegishli kategoriyalarning bosh harflari asosida qisqacha **UMIS** deb ataymiz) narsalarning bevosita kuzatishda berilmagan substansiyasi bo'lib, aqliy, idrokiy usul bilan anglanadi.

Ikkinchi jihat esa (**AHVO** – alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat) **UMIS** ning voqelanishi bo'lib, uni tadqiqotchi, o'rganuvchi kishi sezgi a'zolari yordamida his qila oladi.

Har bir narsada **UMIS** turlari (umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab) yaxlit holda mavjud bo'ladi va **AHVO** turlari birgalikda (alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat) yaxlit holda voqelanadi. Masala mohiyatini yaqqolroq tasavvur qilish uchun hammaga tushunarli bo'lgan hayotiy bir dalilga murojaat qilamiz.

Hovlida beshta har xil o'rik daraxti bo'lib, ular bevosita kuzatishda berilgan, sezgi a'zolari yordamida ularni his qila olamiz. Lekin ongimizda yaxlit o'rik tushunchasi mavjud. U bevosita kuzatishda berilmagan bo'lib, aqliy yo'l bilan tiklangan. Falsafada ana shu «umuman o'rik»ka nisbatan **UMIS**, muayyan, ko'z oldimizda turgan o'rikka nisbatan **AHVO** atamasini qo'llash mumkin. Bevosita kuzatishda berilmagan **UMIS** va sezgilar yordamida his qilish mumkin bo'lgan **AHVOning** biri ikkinchisiz bo'lmaydi. Masalan, «umuman o'rik» tushunchasi xususiy, yakka, alohida o'riklar haqidagi tasavvurlardan tiklansa, yakka o'rik «umuman o'rik»ning voqelanishi, muayyanlashuvi. **UMIS** va **AHVOni** farqli belgilari asosida quyidagicha tasavvur qilishi mumkin (1-jadval):

1-jadval

UMIS	AHVO
Moddiylikdan xoli	Moddiylikka ega
Takrorlanuvchan	Betakror
Cheklangan	Cheksiz

va h.

Buni quyidagicha sharhlash mumkin:

1. «Umuman o'rik» **UMIS** sifatida ong orqali idrok etiladi. U o'zida yakka, alohida o'riklarning barcha umumiy belgilarini mujassamlashtirib, farqli jihatini chetda qoldiradi. Masalan, bir o'rik – daraxti erta, ikkinchisi esa kech pishadi, uchinchisi achchiq danakli, to'rtinchisi esa kam hosillidir. Bu farqli jihatlar «o'rik» **UMISida** aks etmaydi. Ular **AHVOLarda** namoyon bo'ladi. **AHVO** moddiy tarzda

bo'lib, sezgi uzvlariga ta'sir qiladi.

2. «Umuman o'rik» UMISi har bir o'rik AHVOsida takrorlanadi. Borliqda qancha AHVO bo'lsa ham, har birida UMIS o'zining bir qirrasini namoyon qilaveradi. Lekin AHVO sifatidagi muayyan o'riklar takrorlanmaydi. Kesilgan bir o'rikni qayta ekishning iloji yo'q. Ammo qancha o'rik kesilgani-yu ekilgani bilan umuman, o'rik UMISi o'zgarmasdan turaveradi. UMIS barqaror, AHVO o'tkinchidir.

3. UMIS sifatida «umuman o'rik» bitta. Ammo o'rik AHVOLari cheksiz. Shu kungacha mavjud bo'lgan va kelajakda ekib, o'stiriladigan o'riklar sonini tasavvur qilib bo'lmaydi. Ammo UMIS bittaligicha turaveradi.

UMIS va AHVO munosabati falsafada substansiya va aksidensiya, tasavvufda zot va tajalli sifatida qaraladi.

Xo'sh, falsafiy UMIS va AHVO til hodisalarga nisbatan qanday tatbiq etiladi?

(Qalin), (qora), (katta) so'zlaridagi [a] tovushlarini talaffuz qilaylik. Sezgilarimiz 6 ta [a] unli tovushni his qiladi. Bunday birorta (a) tovushini qayta talaffuz qilib bo'lmaydi. Qayta aytilgani esa endi yettinchi (a) tovushi bo'ladi. Talaffuz qilingan (a) tovushini (boshqa tovushlarni ham) qayta talaffuz qilish mumkin emas va har bir qayta aytilgan tovush yangi ekan, demak, nutqimizdagi (a) tovushlari cheksiz bo'lib, hech qachon takrorlanmaydi va sezgi a'zolari yordamida his qilinadi (aytilganda eshitiladi, yozilganda o'qiladi). (a) tovushi AHVO bo'lib, u yuqorida zikr etilgan «alohida o'rik»ka monand.

AHVOLar qanchalik ko'p, rang-barang bo'lishiga qaramay, ongimizda ularning umumlashmasi sifatidagi yakka [a] UMISi bor. Bu [a] yuqorida aytilgan «umuman o'rik» kabi moddiylikka ega emaslik (ongda psixofizik holatda mavjudlik), barcha (a) AHVOLarida takrorlanuvchanlik, miqdoran cheklilik (ya'ni bittalik) xossalriga ega. Fonetik AHVO *tovush* va fonologik UMIS *fonema* deb yuritiladi.

Falsafiy UMIS va AHVOning leksikada voqelanishiga diqqat qilamiz. Misollar: *Men kitob o'qishni boshladim. Bu kitobni Halim nega keltirdi? Kitob qiziqarliligi bilan meni tezda o'ziga rom qildi* gaplarida uchta (*kitob*) so'zi mavjud. Bu so'zning ham har biri «muayyan o'rik», «muayyan (a) tovushi» kabi moddiy voqelanganlik, takrorlanmaslik belgilariga ega va ular qatorini yana cheksiz davom ettirish mumkin bo'lganligi sababli miqdoran cheklanmaganlik kabi AHVOLarning barchasiga xos belgilarni o'zida mujassamlashtirgan. Cheksiz (*kitob*) so'zlarining zamirida esa «umuman kitob» UMISi yashiringan. U nutqqa chiqadigan barcha (*kitob*) so'zlari uchun doimiy asos sifatida yashaydi. Chunki ikkinchi (*kitob*) so'zi birinchisining takrori emas. U – yangi so'z. Uchinchi va qolgan barcha so'zlar uchun shunday fikrni aytish mumkin.

Shuningdek, morfologiyada [-ni] tushum kelishigi shaklining turli nutqiy qo'llanishlari morfologik AHVOLar bo'lib, bu qo'shimchalar ongdagi [-ni] UMISi (morfemasi) asosida voqelangan.

Sintaksisda UMIS va AHVO munosabati quyidagi tarzda namoyon bo'ladi.

Masalan, *kitobning varag'i, uyning eshigi, Halimning savoli, qog'ozning qalinligi, ruchkaning qopqog'i* kabi so'z birikmalari alohida-alohida AHVO bo'lib, ularning umumiy [qaratqich kelishigidagi mustaqil so'z + egalik shaklidagi mustaqil so'z=qaratuvchi va qaralmishning turli munosabatlari] qolipi – UMISining (mustaqil so'z atamasi uchun qulaylik maqsadida tilshunoslar

tomonidan qabul qilingan inglizcha *word* soʻzining bosh harfi boʻlgan W shartli belgisidan foydalanamiz: [W^{qaratqich kelishi} - W^{egalik qoʻshimchasi}] tarzida) voqelanishi. Oʻzbek tilida barcha gaplar esa AHVOlar sifatida [kesimlik qoʻshimchalari bilan shakllangan atov birligi], yaʼni [WPm] (bunda (W) – yuqoridagidek mustaqil soʻz, atov birligi, (Pm) esa kesimlik koʻrsatkichi boʻlib, *predikat, marker* soʻzlarining bosh harflaridan iborat) UMISining yuzaga chiqishi.

Esda tutish kerakki, UMIS hech qachon muayyan bir AHVoda toʻla-toʻkis voqelana olmaydi, unda oʻzining maʼlum bir qisminigina yuzaga chiqaradi. Masalan, [WPm] UMISi *Men keldim* gapida boshqa, *Ketadimi?* gapida boshqa bir qirrasini namoyon qilgan. Gapning darak va soʻroq belgilari bir butun holda birdaniga voqelana olmaydi. Biroq AHVO UMISdan tashqarida ham boʻla olmaydi. Har qanday sodda gap baribir [WPm] UMISi doirasidan tashqariga chiqa olmaydi. Buni Soʻfi Olloyor HAQ (UMIS) va sifat (tajalli, AHVO) munosabati misolida mahorat bilan tasvirlaydi:

*Subutiyydir aning (yaʼni HAQning) sakkiz sifoti,
Sifot zoti emas, na gʻayri zoti.*

Mazmuni: HAQning sakkizta sifati barqarordir, biroq ulardan birortasi (oʻz-oʻzicha, yakka holda) uning zoti (UMIS)ni tashkil eta olmaydi.

2. Til, lison, meʼyor va nutq munosabati

UMIS va AHVO munosabati dialektikaning (yaʼni butun borliq – tabiat, jamiyat va inson tafakkurining asosiy yashash) qonuniyatidan biri boʻlganligi sababli, u har bir fanda oʻziga xos tarzda xususiylashadi. UMISning tildagi tajallisi *lison*, AHVOniki esa *nutq* deb yuritiladi. Lison va nutqning majmui *til* deyiladi.

Tilshunoslikda lisoniy va nutqiy jihatni farqlashga intilish ushbu fan bilan tengdosh. Chunki har qanday fan cheksiz hodisalarni umumlashtirishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻyadi. Xususiylash hodisalar zamiridagi umumiylikni koʻrishga intilish bilishning har ikkala bosqichi (fahmiy va idrokiy)da ham mavjud. Shu boisdan aytish mumkinki, bilishning fahmiy bosqichi mutlaq xususiylash bilan oʻralashib qolmaganligi kabi, idrokiy bosqich ham mutlaq umumiylikni – UMISni tiklay olmaydi. Biroq har bosqich oʻz vazifasiga ega. Chunki har bir davr oʻz fani oldiga muayyan maqsad va aniq talablarni qoʻyadi. «Fanlarning taraqqiyoti shu davrning ilgʻor falsafiy fikri, davr uchun yetakchi boʻlgan fan sohalarining yutuqlari bilan uzviy bogʻliq. Turli fanlarning manbalari koʻp qirrali boʻlganligi sababli, davrning yetakchi falsafiy fikri aniq fanlardan oʻrganish manbaining qaysi tomonlariga alohida eʼtibor berish lozimligini, borliqdagi mavjud qonuniyatlarni mantiqiy kategoriyalarda qay usulda aks ettirish yoʻllarini belgilab beradi» (H.Neʼmatov). Shu asosda aytish mumkinki, zamonaviy oʻzbek tilshunosligining birinchi bosqichi, dialektika nuqtayi nazaridan, tildagi UMIS va AHVOni bir-biridan farqlamay tasnif etish bosqichi. Tilshunoslikda lison va nutqni izchil farqlab oʻrganish avvalo, tilshunoslar V.fon Humboldt, B.de Kurtene va F.de Sossyur nomi bilan bogʻliq. Lison va nutqning farqlanishi, tilga tizim sifatida yondashuv XX asr jahon tilshunosligida tub burilish sifatida baholanadi. Chunki u mavjud qarashlarni tubdan oʻzgartirib yubordi.

Tilga, xususan, o‘zbek tiliga sistema sifatida yondashuvning dastlabki yillarida *lison* o‘rnida *til* atamasi qo‘llanilib, u ko‘p ma‘nolilik tabiatiga ega bo‘lganligi sababli ayrim chalkashliklarni keltirib chiqarar edi. Chunonchi, insonning nutq so‘zlash qobiliyati ham, nutqi ham ushbu atama bilan yuritilar edi. Shu boisdan nazariyotchi tilshunoslar UMISning tildagi voqelanishiga nisbatan *lison* atamasini qabul qildilar. Natijada, *til*, *lison*, *nutq* munosabati quyidagicha tushunildi (2-jadval):

2-jadval

TIL		
LISON	ME'YOR	NUTQ

Yuqorida UMIS va AHVOning tildagi tajallisi misolida lison va nutqning o‘zaro munosabati haqida kirish xarakterida so‘z yuritildi. Endi unga batafsil to‘xtalinadi.

Til – sof lisoniy qobiliyat va imkoniyat. U tafakkurni shakllantirishga (kodlashtirishga), xotirada qat’iy sistemaga tizib saqlashga, axborotni uzatish va qabul qilishga imkoniyat beruvchi muhim (birlamchi) insoniy ijtimoiy-ruhiy kommunikatsiya vositasi. Tilda bosh ichki ziddiyat – atash (nominativ) va ifodalash (ekspresiv) vazifalarining dialektik birligi.

Lison – UMIS tabiatli lisoniy birliklarning serqirra, ko‘p qavatli sathlaridan tashkil topgan barqaror, tashqi muhit ta’siriga o‘ta sezgir, o‘zgarish, rivojlanish va moslashish immanent qobiliyatini o‘z ichida mujassamlashtirgan murakkab qurilishli iyerarxik sistemasidir. Lison deyilganda, ma’lum bir jamiyatning barcha a’zolari uchun avvaldan (oldingi avlodlar tomonidan) tayyor holga keltirib qo‘yilgan, hamma uchun umumiy va majburiy, fikrni ifodalash va boshqa maqsad uchun xizmat qiladigan birliklar hamda bu birliklarning o‘zaro birikish qonuniyatlari yig‘indisi tushuniladi.

Me’yor – lisonning ichki qurilish tizimiga nisbatan tashqi omil bo‘lib, lisoniy imkoniyat – sinonimik qator, lisoniy birliklarning dublet, allovariant va variantlari, sohaviy birliklardan har birining voqelanish o‘rni va xususiyatini belgilaydi.

Nutq – lisonning me’yor elagidan o‘tgan muayyan moddiy (yozma, og‘zaki, tasviriy/imo-ishora, signal, va h.k.) shakllaridan birida voqelanishidir.

Demak, lisonda birlik va birikish qonuniyati farqlanadi.

Har qanday lisoniy birlik psixofizik tabiatli bo‘ladi. Shu bilan birga ular ikki tomonning bir butunligidan iborat:

a) lisoniy birlikning shakliy, tashqi tomoni;

b) lisoniy birlikning ma’lum bir vazifasi, ma’noviy qiymati.

Lisoniy birlik UMIS sifatida mavjud ekan, u moddiylikdan xoli bo‘lmog‘i lozim. Bunda «lisoniy birlikning tashqi tomoni» ko‘rinishga, moddiylikka ishora qilmaydimi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. To‘g‘ri, lisoniy birlik moddiy qiyofadan xoli. Biroq ular ongda qandaydir tarh, ramz sifatida saqlanadi. Masalan, [a] fonemasining talaffuz xususiyati haqida umumlashma tasavvur o‘zbek tilida so‘zlashuvchi barcha jamiyat a’zolari tilida birdir. Bu [a] fonemasining shakli, tashqi tomoni bo‘lsa, uning ma’no farqlash, chegaralash tomoni ichki jihati sanaladi. [a] fonemasi xususiyatlari va ma’no farqlashning o‘ziga xos birligi, yaxlitligi sifatida ongda mavjud bo‘ladi. Har bir fonemaning ma’no farqlash va talaffuz xususiyatlari umumlashmasi o‘ziga xos bo‘lib, biriniki ikkinchisidan farqlanadi

va mustaqil fonemaga qo'yilgan talab uning aynan o'xshash bo'lishiga yo'l qo'ymaydi.

Lisoniy birliklarning bu tashqi va ichki tomonini bir-biridan ajratish, ulardan birini mutlaqlashtirish mumkin emas. Ichki va tashqi tomon bir varaqning ikki betiga o'xshaydi va ajratish mumkin emas. Nutq esa yuqorida ta'riflangan so'zlashish qobiliyati asosida ayrim shaxs tomonidan ma'lum bir xabar berish maqsadi uchun ishga solinishi yoki qo'llanishi natijasi.

Bir-birini shartlovchi, bir-biriga bog'liq bo'lgan «lison – nutq qobiliyati – nutq» zanjirida faqat nutqqina tashqi (moddiy) shaklda (og'zaki, yozma) namoyon bo'ladi va sezgi a'zolarimizga ta'sir qiladi.

F.de Sossyur lison-nutq munosabatini shatranj o'yini qoidalari asosida tushuntirib berishga harakat qilgan.

Shaxmat donalari va har bir donaning yurish qoidasi ongdagi lisoniy birliklar va ularning birikish imkoniyatiga o'xshaydi. O'yinchi bamisoli so'zlovchi bo'lib, shaxmat o'yinini bilishi esa so'zlovchining nutq qobiliyatiga o'xshaydi. Donalarning harakatlantirilishini nutqqa qiyoslash mumkin. Qiyoslang:

shaxmat – o'ynash qobiliyati – o'yin;

lison – nutq qobiliyati – nutq.

Shaxmat donalari va ularning yurish imkoniyati o'ynovchining barchasi uchun umumiy bo'lganligi kabi lisondan foydalanishda ham shu tilda so'zlashuvchilar teng huquqli.

Lison va shatranj qurilmalari o'zaro qiyoslanadigan bo'lsa, avvalo, ularning birliklari orasida umumiy o'xshashliklar borligini ta'kidlash lozim. Har ikkala qurilma ham birliklar sistemasi (tizimi) va bu birliklarning o'ziga xos vazifalari bilan ish ko'radi. Bunda ma'lum qoida va qonuniyatlarga tayaniladi. Har ikkala holatning ishtirokchisi inson bo'lib, ular har ikkala faoliyatda ham ma'lum bir imkoniyatni ishga soluvchilar. Shu boisdan shaxmat taxtasi, uning donalari, ya'ni shaxmat o'yinining tashqi, moddiy tomonini lisoniy birlikning tashqi tomoniga, shaxmat o'yini qoidalari – donalarining joylashuvi, harakat qoidalari, ya'ni shatranj o'yinining ichki tomoni haqidagi tasavvurlarni lisoniy birliklarning mazmun mundarijasiga qiyoslash mumkin.

Lison va nutq munosabatiga dialektika kategoriyalari nuqtayi nazaridan yondashilsa, u haqdagi tasavvur va bilim to'laqonli bo'ladi (3-jadval):

3-jadval

BORLIQ		
TIL		
LISON	ME'YOR	NUTQ
Umumiylik		Alohidalik
Mohiyat		Hodisa
Imkoniyat		Voqelik
Sabab		Oqibat

Lison bilan nutqning o'zaro munosabatini teran anglamoq uchun, avvalo, lisonning o'zini, uning qanday qurilma ekanligini aniq tasavvur etmoq lozim


bo'ladi.

Lison bo'linuvchan birliklarning majmui yoki turg'un xususiy birliklarning o'zaro barqaror, doimiy bog'lanish munosabati asosida tashkil topgan yangi bir butunlik. Masalan, gap so'z va qo'shimchaga, ular esa tovushga bo'linadi. Shu nuqtayi nazardan lisoniy birliklarni avvalo, ikki guruhga ajratish mumkin:

a) tashkil etuvchi eng kichik lisoniy birlik;

b) eng kichik tashkil etuvchilar asosida vujudga kelgan hosila lisoniy birlik.

Tashkil etuvchi deyilganda, hosilalari o'zaro birikib, yirikroq lisoniy birlikni hosil qiluvchi birlik tushuniladi. Masalan, ABC uchburchagi hosila birlik:



Bu hosila birlik AB, BC, CA tomonlar va shu chiziqlar asosida vujudga kelgan burchaklardan iborat. Tashkil etuvchidan birortasi o'zgarsa, butunlik ham o'z mohiyatini o'zgartiradi. Masalan, [uka] lisoniy birligi uch fonema ko'rinishining muvofiqligi asosida tashkil topgan. Bulardan birortasi almashtirilsa, boshqa lisoniy birlik vujudga keladi. Masalan, [aka].

Tashkil etuvchi va hosila birlik orasida pog'onali munosabat mavjud bo'ladi. Pog'onali munosabat lisoniy birliklarning sathma-sath qatlamlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Qatlamlanish quyidagi tartibda bo'ladi:

- fonema;
- morfema;
- leksema;
- qolip.

O'zbek tilidagi fonemalar ma'lum bir butunlikni, bir sath (fonologik sath)ni tashkil etadi. Bu sath esa unlilar va undoshlar tizimidan tashkil topadi. Deylik, unlilar tizimi yana ikkiga – lablanmagan unli ([i]-[e]-[a]) va lablangan unli ([u]-[o]-[o]) tizimchasidan tashkil topgan. Ko'rinadiki, tashkil etuvchining o'zi ham tashkil etuvchidan iborat. Demak, tashkil etuvchilik – nisbiy tushuncha. Bunda minimal tashkil etuvchigina boshqa bo'laklarga bo'linmasligi mumkin.

Minimal tashkil etuvchi nafaqat birliklarni, shu bilan birgalikda, birliklarning o'zaro munosabatini ham o'z ichiga oladi. Shuni ta'kidlash lozimki, eng kichik (minimal) tashkil etuvchi bo'lgan fonema yana ichki va tashqi jihatga ajraladi.

Aytilganlar asosida, lison hamda nutq birliklari sifatida quyidagilar ajratiladi. Lison va nutq birliklari ham lison va nutqning o'zi kabi UMIS va AHVO munosabatida bo'ladi (4-jadval):

4-jadval

LISONIY BIRLIK	NUTQIY BIRLIK
Fonema	Tovush
Morfema	Qo'shimcha
Leksema	So'z

3. Lisoniy va nutqiy birliklar

1. Fonema va tovush. Eng kichik bir yoqlama (yaʼni faqat shakliy tomondan iborat) lisoniy birlik – fonema. Fonema muayyan til egalarining maʼlum tovush tipi haqidagi umumiy tasavvuri. Har bir fonema soʻzlovchi ongida oʻz tipini farqlovchi belgilari majmui asosida vujudga kelgan maxsus «akustik-artikulyatsion portret» yoki «tovush obrazi» sifatida saqlanadi. Muayyan fonemaning farqlovchi belgilari uning artikulyatsion va akustik xususiyati asosida shakllanadi. Artikulyatsion belgi muayyan tovushni talaffuz qilish uchun nutq aʼzolarining bir xil harakatga moslashgan avtomatik, standart holati haqidagi tasavvur boʻlsa, akustik belgi sifatida bir turdagi tovushga xos talaffuz sifati va miqdori tushuniladi.

Oʻzbek tilida soʻzlovchi shaxsning ongida hozirgi oʻzbek tilidagi 30 ta tovush tipi – fonema haqida maʼlumot bor. Bu maʼlumot kishi ongida uning til oʻrganishi, oʻzgarlar va oʻzining nutqini kuzatish natijalari sifatida hosil boʻladi. Masalan, oʻzbek tili sohibi oʻzining eshitish va soʻzlash aʼzolari faoliyatini kuzatish natijasida [a] fonemasining unlilik, kenglik, lablanmaganlik, [u] fonemasining unlilik, torlik, lablanganlik, [p] fonemasining undoshlik, shovqinlilik, jarangsizlik, portlovchilik, lab-lablik kabi belgilarga ega ekanligi haqidagi «tabiiy» (goʻyoki oʻzi hosil qilingan) bilimga ega boʻladi. Nutq soʻzlaganda, ana shu umumiy belgini jonlantirishga, ongidagi imkoniyatni voqelantirishga, fonetik umumiylikni xususiyashtirishga harakat qiladi.

Lisoniy birliklar nutqiy birliklarga nisbatan miqdoran cheklangan boʻlsa-da, ammo ularning soni ham sanoqli emas. Shu boisdan ularning xotirada saqlanish mexanizmini bilish lozim boʻladi.

Maʼlumki, inson narsani uning umumlashtiruvchi va farqlovchi belgilari asosida xotirada saqlaydi. Xotirada saqlanishi lozim boʻlgan narsa miqdor jihatdan koʻp boʻlsa, eslab qolishning asosiy yoʻli – tasniflash, yaʼni guruhga ajratish. Tasnif esa oʻxshash va nooʻxshash, umumiy va farqlovchi belgilarini aniqlash asosida kechadi. Bu tamoyil barcha lisoniy birliklar, xususan, fonemalar tasnifida ham toʻla amal qiladi.

Hozirgi oʻzbek tilida 30 ta fonema soʻzlovchi ongida, avvalo, ikki guruh – unli va undoshga boʻlingan holda mavjud boʻladi. Bu guruhlar tovush talaffuzidagi ovoz va shovqinning ishtiroki darajasiga qarab belgilanadi. Boʻlinish shu tarzda alohida fonemagacha davom etib boradi. Unli ham, undosh ham qarama-qarshi belgilari asosida kichik guruhchalarga boʻlinib boraveradi. Masalan, oʻzbek tilidagi 6 ta unli bir tizim boʻlib, ular shovqinsizligi bilan undoshdan ajraladi. Biroq bu tizimchaning oʻzi ham unsurlarning qarama-qarshi belgilari asosida boʻlinadi. Unlilarning qarama-qarshi qoʻyilishi quyidagicha (5-jadval):

5-jadval

I	U
E	Oʻ
A	O

Umuman olganda, minimal lisoniy birlik bo'lgan fonema inson nutq a'zosi yordamida vujudga kelgan tovush ko'rinishlarining umumiy andozasi bo'lib, cheksiz tovushning umumlashmalari qatori sifatida ongda yashaydi. So'zlovchi ushbu psixo-akustik obraz asosida nutq a'zolarini harakatga keltirib, tovush hosil qiladi. Yoki tinglovchi o'zga tomonidan hosil qilingan tovushni eshitish orqali ongidagi andozaga solishtirib ko'radi.

Fonemaning ma'no farqlash xossasi mavjud bo'lib, bir fonemaning turli ko'rinishi bo'lgan tovushlarda bu hodisa kuzatilmaydi. Bir fonemaning nutqiy varianti bo'lgan tovush boshqa fonemaning varianti bo'lgan tovush bilan almashtirilsa, so'z ma'nosi yangilanadi, ya'ni boshqa so'zga aylanadi. Qiyoslang: [qora] va [qara], [ota] va [ata], [ona] va [ana]. Shu boisdan ham fonemaga tilning ma'no farqlovchi eng kichik birligi deb ta'rif berildi. Bir fonemaning turli varianti ma'no farqlamaydi. Masalan, til oldi va til orqa (o') unlilari quyida ma'no farqlamagan: o'l-o'l.

2. Leksema va so'z. Lisonning borliq hodisalarini nomlash, ifodalash, ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi birligi – leksema. Lisoniy birlik sifatidagi leksema biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydigan ikkita psixofizik tomon – akustik struktura (tovush qobig'i), ya'ni nomema hamda ma'lum bir tushuncha asosida vujudga kelgan mazmuniy struktura, ya'ni sememaning birligidan iborat.

Lisoniy birlik sifatidagi leksemaning tovush strukturasi fonetik birlik ko'rinish (variant)larining turlicha kombinatsiyalari asosida vujudga kelgan. O'zbek tilida mavjud barcha leksemaning shakliy tomoni tilimizda mavjud 30 ta fonema asosida, xolos. Shu boisdan tashqi fonetik strukturasi asosida leksemalarni kuchli va kuchsiz ziddiyatga qo'yish mumkin. Kuchli oppozitsiya bittadan (u – olmosh, e – undash), ikkitadan (ot – ish), uchtdan (bor – kel), to'rttdan (qunt–band) fonema variantining zidlanishi asosida hosil bo'lgan bo'lsa, kuchsiz ziddiyat leksemaning tarkibidagi ayrim fonema variantlari asosida bo'ladi (tub-tup, bob-bop).

Har bir leksema lisoniy birlik sifatida mazmun mundarijasiga ham ega. Leksemaning mazmun mundarijasi denotat yoki referent deb ataladigan borliqdagi narsa, harakat, belgi, miqdor kabini ifodalaydigan tushunchalarni anglatadi. Masalan, borliqda [yuz] deb ataluvchi kishi burni ikki tomonining peshonadan iyakkacha bo'lgan qismi mavjud. Shu asosda kishi ongida «yuz» tushunchasi vujudga kelgan. Mazkur tushuncha asosida esa semema (leksema ma'nosi) shakllanadi. Tushuncha bilan ma'no bitta narsa emas, ular farqli xususiyatga ega. Masalan, ingliz, rus, nemis tilida so'zlashuvchi kishilarning ongida «aka» va «uka» tushunchalari mavjud. Biroq bu tushunchalar [brother] (ingliz), [brat] (rus) va [bruder] (nemis) leksemalarida bitta ma'no (semema)da birlashgan. Yoki [yuz], [bet], [bashara], [chehra], [oraz] leksemalari bitta tushunchani ifodalaydi, lekin ma'nolari o'zaro farqlanadi.

Leksemaning mazmun silsilasi bo'lgan sememani tashkil etuvchi a'zo – sema. Nomema tovushlarning turlicha kombinatsiyalari asosida tashkil topganligi kabi, ana shu semalarning turlicha birikuvi va ba'zilarining o'rin almashinuvi asosida turli mazmundagi semema vujudga keladi. Bu sememalarning semik tarkibi quyidagicha:

[yuz] – «odamga xos», «boshning old qismi», «burunning ikki tomoni», «peshonadan iyakkacha», «burundan quloqqacha», «qo'llanilishi chegaralanmagan», «uslubiy betaraf», «turkiy qatlamga oid», «umumiste'mol»;

[jamol] – «odamga xos», «boshning old qismi», «burunning ikki tomoni», «peshonadan iyakkacha», «burundan quloqqacha», «qoʻllanilishi chegaralangan», «badiiy uslubga xos», «arabiy qatlamga xos».

Har ikkala leksema ham bir tushunchani ifodalaydi. Ularning mazmun mundarijasi – sememalarining semik tarkibi farqlanadi. Leksemalar sememalarining atash semalari denotativning inʼikosi – tushunchani ifodalaydi. Har bir leksema sememasi oʻxshash va farqlovchi semaga ega. Oʻxshash sema ularni guruhlarga birlashtirishga, farqli sema esa ajratishga xizmat qiladi.

Leksemaning nutqiy qoʻllanilishidagi varianti soʻz boʻlib, ular turlicha matniy qurshov asosida har xil xususiyat kasb etadi.

Leksema tub yoki yasama boʻlishi mumkin. Masalan, [kitob], [savdogar], (nonchi) birliklarini olaylik. Qatordagi [kitob] va [savdogar] birliklari tayyorlik, umumiylik, ijtimoiylik xossalarga ega. Biroq tilimizda (nonchi) degan lisoniy birlik yoʻq. U nutq jarayonidagina hosil qilinishi mumkin va yuqoridagi birliklar ega boʻlgan xususiyatdan xoli. [nonchi] birligining nutq jarayonigagina xosligi uning tayyorlik belgisiga ega emasligini koʻrsatadi.

3. Morfema va qoʻshimcha. Morfema leksemadan ajralgan holda oʻz mohiyatini namoyon qila olmaydigan, shakl va denotativ boʻlmagan mazmunning birligidan iborat boʻlgan kichik lisoniy birlik. Qoʻshimcha ana shu psixofizik mohiyatning nutqda namoyon boʻlishi. Morfema ham tashqi (moddiy) va ichki (maʼno, vazifa) jihat yaxlitligidan iborat. Atov mustaqilligiga, mustaqil sintaktik mavqega ega boʻlmagan bu birliklar oʻzida leksik va grammatik mohiyatni uygʻunlashtirgan:

a) yangi soʻzlar hosil qiladi;

b) soʻzlarga qoʻshimcha leksik-semantik qiymat beradi.

Bir tilga xos birlik boshqa tillarnikidan farqlanadi. Masalan, amorf, agglyutinativ va flektiv tillardagi leksema mohiyatan oʻziga xos.

4. Qolip va hosila. Lisoniy birlikning navbatdagi turi–qurilma–qolip. Qolip deganda yasama soʻz, soʻz birikmasi va gaplar hosil qilish sxemalari tushuniladi. Qoliplar ikki xil boʻladi:

a) soʻz yasash qolipi;

b) sintaktik (soʻz birikmasi va gap) qolip.

Qolip ham boshqa lisoniy birlik kabi UMIS tabiatli boʻladi. Masalan, nutqdagi cheksiz yasama soʻz (masalan, (sutchi), (nisholdachi) kabi bitta bevosita kuzatishda berilmagan lisoniy birlik (masalan, [narsa/buyum oti+chi=shu narsa/buyum bilan shugʻullanuvchi kishi], yaʼni soʻz yasash qolipining nutqiy hosilasi. Kitobni oʻqimoq nutqiy hosilasi boshqa oʻziga oʻxshash cheksiz soʻz birikmalari (qogʻozni yirtmoq, uyni sotmoq va h.k.) bilan birgalikda [O^{tushum kelishigi}+ Feʼl]=vositasiz toʻldiruvchili feʼlli birikma] lisoniy sintaktik qolipidan chiqqan nutqiy birlik.

Qolip miqdoran cheklangan. Masalan, oʻzbek tilida soʻz birikmasi hosil qilishning 18 ta ustuvor qolipi ajratilgan va nutqimizda ulardan son-sanoqsiz soʻz birikmasi hosil qilinadi.

Qolip ham boshqa lisoniy birlik kabi shakl va mazmun yaxlitligidan iborat. Yuqorida keltirilgan qoliplarning tenglikdan chap qismi shakliy, oʻng qismi esa mazmun tomoni deb yuritiladi. Qolipning [sifat+ot] tarzida mazmuniy tomonsiz berilishi ham xato emas. Chunki, masalan, [-mi] morfemasi misol sifatida

olinganda, uning grammatik ma'nosi, [kitob] leksemasi haqida fikr yuritilganda, har doim uning sememasi ham berilishi [masalan, [-chi=so'roq, taajjub bildiruvchi morfema], [kitob=varaqlaridan tashkil topgan, muqovalangan, bosma yoki qo'lyozma holdagi o'qish quroli] shart emas. Shu boisdan qolip haqida gap ketganda, uning shakl tomonini qayd etish yetarli.

Shunday qilib, fonema, morfema, leksema va qolip lisoniy, tovush, qo'shimcha, so'z, so'z birikmasi va gap esa nutqiy birlik. Ularning o'zaro munosabati va o'ziga xos belgilariga doir fikrni jadvalda quyidagicha xulosalash mumkin (6-jadval):

6-jadval

BORLIQ		
TIL		
LISON	ME'YOR	NUTQ
Fonema		Tovush
Morfema		Qo'shimcha
Leksema		So'z
Qolip		yasama so'z, so'z
		birikmasi, gap

Demak, lisoniy va nutqiy birlik o'zaro quyidagi dialektik munosabatda bo'lsa (7-jadval):

7-jadval

LISONIY BIRLIK	NUTQIY BIRLIK
Umumiylik	Xususiylik
Mohiyat	Hodisa
Imkoniyat	Voqelik
Sabab	Oqibat

bir vaqtning o'zida quyidagi qarama-qarshi belgilarga ega bo'ladi (8-jadval):

8-jadval

LISONIY BIRLIK	NUTQIY BIRLIK
Moddiylikdan xoli	Moddiylikka ega
Cheklangan	Cheksiz
Ijtimoiy	Individual
Barqaror	O'tkinchi

4. Lisoniy paradigma va uning turlari

Lisoniy birliklar bir-birini eslatib turish xossasiga ega. Shu boisdan ular jamiyat a'zolari ongida bir tizimga birlashgan holda yashaydi. Masalan, [a] fonemasi [o] fonemasini, [u] fonemasi [o] fonemasini, [i] fonemasi [e] fonemasini eslatadi. Lekin [a] fonemasi [q] yoki [h] fonemasini eslatmaydi. Chunki ular ikki tizim – unli va undosh tizimiga kiradi. Unlilar bir-birini unlilar tizimida, undoshlar bir-birini undoshlar tizimida eslata oladi. Hatto [u] fonemasining [a]ni eslatishi o'z tizimdoshi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Masalan, [a], [o] fonemalari kichik, ichki tizim hosil qilib, birgalikda qolgan fonema juftliklarini eslatadi. Eslatish ikki tomonlama bo'lishi ham mumkin. Masalan, [yuz] leksemasi, bir tomondan [bet],

[chehra], [jamol], [oraz] kabi birliklarni, ikkinchi tomondan, [burun], [ko'z], [quloq], [qosh], [lab] leksemalarini eslatadi va bunda u ikki tizimning a'zosi hisoblanadi.

Bir-birini eslatuvchi birliklar umumiy, o'xshash belgi-xususiyatga ega bo'ladi. Ana shu o'xshashlik va umumiylik ularni birlashtiruvchi, bir tizimda ushlab turuvchi belgilari sanaladi. Masalan, unlilar «sof ovozga egalik» umumiy belgisi asosida birlashadi. Ammo ular farqli belgiga ham ega bo'lishi shart. Masalan, [a] «lablanmaganlik», [o] «lablanganlik» farqlovchi belgisiga ega, «kenglik» belgisi esa ularni birlashtiradi.

Umumiy belgisi asosida birlashgan va bir-birini taqozo etadigan, ammo har biri o'ziga xos belgisi bilan boshqasiga qarama-qarshi turuvchi lisoniy birliklar tizimi *paradigma* deyiladi (*paradigma* grekcha *paradeigma* - misol, namuna degan ma'noni bildiradi). Paradigmani tashkil etuvchi birlik *paradigma a'zosi* deb yuritiladi. Paradigmada kamida ikkita a'zo bo'lib, ular, asosan, bir lisoniy sathga mansub bo'ladi. Bir paradigma a'zolari orasidagi o'zaro munosabat *paradigmatik munosabat* deyiladi.

F.de Sossyur lisoniy mikrosistema va, umuman, lisoniy birlik orasidagi paradigmatik (assotsiativ, bir-birini eslatib turish, o'xshashlik) munosabatini lisoniy birlik uchun eng asosiy munosabat sifatida baholagan.

Bir paradigma tarkibiga kiradigan birliklar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

1. Paradigmadagi bitta birlik eslanganda, shu paradigmaga kiruvchi boshqa a'zo ham xotirlanishi (esga olinishi) zarur.

2. Muayyan nutq sharoiti uchun o'zaro paradigmatik munosabatda turgan birlikdan, ya'ni paradigma a'zolaridan bittasi tanlanishi lozim.

3. Bir paradigmaning a'zolari o'zaro o'xshashlik bilan birga, har bir a'zo ikkinchisidan qaysidir bir xususiy belgisi bilan farqlanib turishadi.

4. Paradigma a'zolari nutqda bir pozitsiyada (mavqeda) kelib, bir-birini ma'lum holatda almashtira olishi, o'rnini egallashi mumkin.

Lisoniy paradigma va uning a'zolariga nisbatan F.de Sossyur tomonidan qo'yilgan bu talab qariyb yuz yildan beri deyarli o'zgarishsiz saqlanib kelmoqda.

Paradigma, qamroviga ko'ra, katta va kichik yoki tashqi va ichki paradigmaga bo'linadi. Bu paradigmalar bir-biriga nisbatan olinadi. Masalan, undoshlar jarangli va jarangsizga bo'linadi.

Paradigmatik munosabat atamasining muqobillari sifatida *o'xshashlik munosabati*, *assotsiativ munosabat* atamaları ham ishlatiladi. *Tizim* so'zi ham ko'p hollarda *paradigma* atamasi o'rnida ishlatiladi: *unlilar tizimi*, *kelishik tizimi* kabi. Jarangli va jarangsizlar alohida kichik yoki ichki paradigma bo'lib, undosh tizimi bir butun holda ularga nisbatan katta yoki tashqi paradigma deyiladi.

Lisoniy birliklar tizimining qaysi lisoniy sathga mansubligiga ko'ra, *fonetik*, *leksik*, *morfologik*, *sintaktik paradigma* farqlanadi.

Aytilganidek, fonema tizimi va ularning ichki bo'linishi *fonologik paradigma* deyiladi. Fonologik paradigmaning xususiyati, uni tashkil etuvchi birlikning paradigmatik munosabati xususida «Fonetika-fonologiya» bo'limida bahs yuritiladi.

Semantik-grammatik umumiylikka ega bo'lgan leksik birliklar lug'aviy paradigmani tashkil etadi. Sinonimik, partonimik, giponimik, ierarxionimik,

graduonimik, funksionimik qatorga birlashgan leksemalar tizimi, alohida lug‘aviy guruh, lug‘aviy-mavzuviy to‘da, lug‘aviy-mazmuniy maydon, so‘z turkumi ham yirik (makro) paradigmani tashkil etadi. Leksik paradigma va ularda amal qiluvchi paradigmatic munosabat haqida «Leksikologiya-semasiologiya» bo‘limida bahs yuritiladi.

Morfologik kategoriya (morfologik shakllar tizimi) – morfologik paradigmadir. Morfologik shakllarning paradigmatic munosabati haqida «Morfologiya-morfemika» bo‘limida batafsil to‘xtalindi.

Sintaktik qoliplar tizimi sintaktik paradigmani tashkil etadi. Sintaktik paradigma ikkiga – gap paradigmasi va so‘z birikmasi paradigmasiga bo‘linadi. Gap paradigmasining o‘zi ikki – sodda gap qolipi va qo‘shma gap qolipi kabi ichki (mikro) paradigmaga bo‘linadi. Bu bilan «Sintaksis» bo‘limida tanishasiz.

Lisoniy munosabat va uning turlari

Munosabat keng qamrovli tushuncha, bir butunlikning tarkibiy qismi–birliklari orasidagi o‘zaro aloqa va bog‘lanishni anglatadi. Bunday aloqa turlicha bo‘lishi mumkin. Quyidagi gapga diqqat qiling: *Ularning ismi – Salim va Halim*. Bunday nutqiy birliklar turli munosabat bilan bog‘langan. (*Ular*) so‘zi (*ism*) so‘zi bilan, (*u*) olmoshi (*-lar*) qo‘shimchasi bilan ketma-ket, zanjirsimon aloqada. Yoki (*ism*) so‘zi uchta tovushning ketma-ketligidan iborat. Bunday chiziqsimon, liniyaviy ketma-ketlik aloqasi *sintagmatik aloqa* deyiladi. Sintagmatik aloqa lisonda ham, nutqda ham mavjud bo‘ladi. Masalan, [*kitob*] leksemasi beshta tovushning birikuvidan iborat nomemaga ega bo‘lib, u lisoniy birlik sanaladi. Shuningdek, yasama so‘z ((*suvchi*), (*ertapishar*)), so‘z birikmasi (*kitobni o‘qimoq*)da ham birikuvchi a‘zolar sintagmatik aloqada bo‘ladi.

Sintagmatik aloqani sintaktik aloqadan farqlash lozim. Sintagmatik aloqa barcha til birliklariga xos ketma-ket bog‘lanish bo‘lsa, sintaktik aloqa so‘z va gaplarning hokim-tobelik munosabati. Demak, sintagmatik aloqa va sintaktik aloqani butunlay boshqa-boshqa hodisalar ham, shuningdek, ularni bir-biriga aynan tenglashtirish, bir-birini qoplovchi tushuncha sifatida qarash ham mumkin emas. Sintagmatik va sintaktik aloqa butun-bo‘lak munosabatida. Boshqacha aytganda, sintaktik aloqa sintagmatik aloqaning bir ko‘rinishi.

Ko‘pincha sintagmatik aloqani nutqqagina xos deb tushunish ham uchraydi. Bu – hodisani tor ma‘noda tushunish. Yuqoridagi gapda ishtirok etayotgan birliklar orasida pog‘onali munosabat ham mavjud. Pog‘onali munosabat deganda birlikning boshqasi tomonidan qamrab olinishi tushuniladi. Masalan, (*Halim*) va (*Karim*) so‘zlari erkak kishining ismi bo‘lib, ayolning ismi bo‘lgan (*Halima*) so‘ziga qarama-qarshi turadi. Lekin ularning barchasini [*ism*] leksemasi qamrab oladi. [*ism*] leksemasi esa, [*nom*] leksemasi bilan birgalikda, [*ot*] leksemasi tomonidan qamrab olinadi. Uni shartli ravishda quyidagicha tasavvur qilish mumkin (9-jadval):

9-jadval

Ot					
Ism				Nom	
<i>Halim</i>	<i>Salim</i>	<i>Gulnora</i>	<i>Lola</i>	<i>qo‘y</i>	<i>kitob</i>

Bu pog'ona yuqoriga va quyiga qarab yana davom ettirilishi mumkin. Demak, [Salim], [ism], [ot] leksemalari pog'onali munosabatga kirishgan. Lisoniy birliklarning pog'onali munosabati ikki xil. Masalan, [daraxt] va [tana], [ildiz], [barg], [shox] birliklarining o'zaro munosabati [daraxt] va [olma], [o'rik], [nok], [gilos] leksemalarining o'zaro munosabatidan farq qiladi.

Avvalgi pog'onali munosabatda [daraxt] butunni va qolganlari qismni ifodalasa, keyingisida [daraxt] turni ifodalab, mevaning muayyan nomini ifodalovchi birliklar turning ko'rinishi – jins sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchi munosabatdagi birliklar [daraxt] leksemasining xususiy ko'rinishi – juz'iy lashishi. Birinchisida esa bunday munosabat mavjud emas. Shu boisdan «Gilos daraxtdir» tarzidagi hukmni aytish mantiqiy. Biroq «Ildiz daraxtdir» deyish mumkin emas.

Tilshunoslikda lisoniy birlikning butun-bo'lak munosabati *partonimik* (*part* – qism, bo'lak), tur-jins munosabati *giponimik munosabat* deyiladi. Partonimik munosabatga kirishuvchi qismni ifodalovchi birliklar *partonim*, giponimik munosabatga kirishuvchi jins nomlari *giponim* deyiladi. Butunlik *totonim* va tur nomi *giperonim* deyiladi.

O'xshashlik (paradigmatik) munosabati o'zaro teng (pog'onali munosabatdagi [daraxt] va [tana], [daraxt] va [gilos] birliklari semantik qamrovi jihatdan teng emas edi), bir umumiy belgi asosida birlashib, qator hosil qiluvchi, ammo o'ziga xos belgilarga ko'ra farqlanib turuvchi birliklarning o'zaro aloqasini ifodalaydi.

Yuqorida aytilganidek, paradigma a'zolari o'zaro teng bo'lib, nutqda bir xil o'rinni egallaydi va bir xil xususiyatga ega bo'ladi. Berilgan misoldagi [Halim], [Karim], [Halima] so'zlari o'zaro teng, bir xil o'rinda kela oladi, biroq o'zaro farqlarga ham ega.

O'zaro o'xshashlik munosabatida bo'lgan birliklarning bir-biri bilan farqli xususiyati asosida qarama-qarshi qo'yilishi *ziddiyat (oppozitsiya)*, ziddiyatga kirishayotgan paradigma a'zolari *ziddiyat a'zosi* deyiladi. Ziddiyatdagi birliklar o'zaro ma'lum bir belgi asosida qarama-qarshi qo'yiladi. Bu belgi *ziddiyat belgisi* deyiladi.

Navbatdagi mavzuda ziddiyat turi va mohiyati haqida so'z yuritiladi.

5. Lisoniy ziddiyat va uning turlari

Ziddiyat (ar.*qarama-qarshilik*; var.*oppozitsiya*. lat.*oppositio-qarama-qarshi qo'yish*) – lisoniy birliklarning ifodalanishidagi farqlarga muvofiq ifodalovchilarining va, aksincha, ifodalovchi-lardagi farqlarga muvofiq ifodalanishlarining muhim lisoniy farqlanishi. Masalan, [b] va [t] fonemalari orasida ziddiyat mavjud bo'lib, shunga muvofiq, (*bosh*) va (*tosh*) birliklari orasida shakliy-mazmuniy qarama-qarshilik munosabati amal qiladi. Yoki «birlik son», «ko'plik son» orasidagi semantik ziddiyat (*kitob*) va (*kitoblar*) birliklarida ham shakliy (formal), ham mazmuniy (semantik) farqni keltirib chiqaradi.

Tabiat, jamiyat va tafakkurdagi mavjudlik va taraqqiyotning asosiy omili qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni bo'lganligi kabi lisoniy paradigmadagi birliklarni bir-biriga bog'lab turuvchi, paradigmaning yashovchanligini ta'minlovchi omil lisoniy ziddiyatdir. Demak, lisoniy ziddiyat falsafiy qarama-qarshilik birligi va kurashi qonunning tildagi xususiylashmasi, voqelanishi.

Lisoniy ziddiyatni aniqlash yoki lisoniy ziddiyatga bunday yondashish ziddiyatli va ziddiyatsiz munosabatni farqlashni taqozo qiladi. Chunki turli lisoniy birlik va bir birlikning turli varianti orasidagi munosabat har xil tabiatli unsurlar, a'zolar orasidagi munosabatlar sifatida muayyanlashtirilmog'i lozim. Masalan, shaxs-son shakli bo'lgan [-miz] va [-siz] (o'qiymiz-o'qiysiz) har xil lisoniy morfologik birlik bo'lib, bir paradigmaning turli a'zolari sifatida ziddiyatli munosabatda bo'ladi. Biroq turli farqli xossaga ega bo'lgan til oldi va til orqa (o') unililari bitta (o') fonemasining variantlari sifatida fonetik jihatdan farqlansa-da, funksional jihatdan tafovutga ega emas. Chunki o'zbek tilida bitta [o'] fonemasi mavjud bo'lib, uning variantlari ma'no farqlash tabiatiga ega emas. Ba'zilar [o'y] so'zini aytganda, (o') ni til oldi, boshqalar esa til orqa unlisi sifatida talaffuz qiladi. Baribir, bu so'z (o') tovushlari qanday bo'lishidan qat'i nazar, «fikr», «xayol» ma'nolarini beradi. Lisoniy birlikning varianti orasidagi bunday munosabat ziddiyatsiz munosabat deyiladi.

Ziddiyat paradigmatic munosabatning xos ko'rinishi va xossasi sifatida sintagmatik munosabatga qarama-qarshi qo'yiladi.

Ma'lum bir lisoniy birlik mansub ziddiyatlar majmui bu birlikning paradigmatic sifatini aniqlashda, paradigmatic muayyanlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Paradigmatic muayyanlashtirish birlikning boshqa birlikdan farqlanuvchi substansial tabiatini oydinlashtirish demakdir.

Tilshunoslar lisoniy ziddiyatni bir necha tomondan tasniflaydilar:

1. Ziddiyat tizimida tutgan o'rniga ko'ra.
2. Ziddiyat a'zolarining o'zaro munosabatiga ko'ra.
3. Turli vaziyatda ziddiyatning amal qilishiga ko'ra.

Lisoniy ziddiyat, ziddiyat tizimiga munosabatiga ko'ra, o'lchami va uchrovchanlik belgilari bilan farqlanadi.

Lisoniy ziddiyat o'lchoviga ko'ra, bir o'lchamli va ko'p o'lchamli turga bo'linadi.

Agar belgilar majmui tizimda zidlanuvchi ikki a'zo uchungina amal qilib, boshqa a'zoga tegishli bo'lmasa, bir o'lchamli ziddiyat deyiladi. Masalan, o'zbek tilidagi [l] va [h] fonemalari hosil bo'lish o'rniga ko'ra «yon» va «bo'g'iz» belgilari asosida zidlanib, bu belgi undoshlar tizimining boshqa a'zolarida uchramaydi. Chunki bu undoshlar o'zbek tili fonologik tizimida yagona yon va yagona bo'g'iz undoshlaridir.

Ko'p o'lchamli ziddiyatda zidlanuvchi birlikdagi belgi boshqa a'zoda ham uchraydi. Masalan, til oldi undoshlari bo'lgan [m] – [d] zidlanar ekan, [m]dagi «til oldi»lik belgisi [d] fonemasida ham mavjud. Bunda a'zolar boshqa belgi asosida zidlanadi.

«Uchrovchanlik» belgisiga ko'ra ziddiyat ajralgan va muntazam ziddiyatga bo'linadi. Ajralgan ziddiyatda shunday belgi asos qilib olinadiki, bu belgi boshqa ziddiyatga asos bo'la olmaydi. Masalan, unililarning lablangan-lablanmaganlik belgisi faqat teng qiymatli ziddiyat uchun asos bo'ladi. Bunday ziddiyat «ajralgan» ziddiyat deyiladi. Lekin tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra belgisi teng qiymatli ziddiyatga ham asos bo'lib xizmat qiladi.

Bir belgi turli a'zoni juftlab zidlash uchun xizmat qilsa, muntazam ziddiyat deyiladi. Masalan, erlik, ayollik jinsi asosidagi ziddiyat [ata]-[ona], [o'g'il]-[qiz],

[aka]-[singil], [chol]-[kampir] ziddiyatida uchrayveradi.

A'zolari orasidagi munosabatga ko'ra ziddiyat:

A) noto'liq (privativ);

B) darajali (gradual) ;

D) teng qiymatli (ekvipolent)

kabi turga bo'linadi.

Noto'liq ziddiyatda qarshilanuvchi a'zodan biri ziddiyat belgisiga ijobiy, boshqasi esa betaraf munosabatda bo'ladi. Masalan, [bola] va [o'g'il] leksemalarini olaylik. Ular «erkak jinsli» deb atalgan ziddiyat belgisiga ikki xil munosabat bildiradi. Bu belgi [o'g'il] leksemasi semantik tarkibida aniq berilgan, shu boisdan uning munosabati ijobiy yoki belgilangan deyiladi va shartli ravishda [+] belgisi bilan beriladi. [bola] leksemasida esa jins belgisi aniq emas. Chunki uning semantik tarkibida «er» yoki «ayol» (ya'ni jins) semasi yo'q. Boshqacha aytganda, bola o'g'il ham, qiz ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun bu leksemaning ziddiyat ko'rsatkichiga ishorasi belgilanmagan (noma'lum, majhul) deyiladi va shartli ravishda +/- yoki O (nol) belgisi bilan beriladi. Bu chizmada quyidagicha beriladi (10-jadval):

10-jadval

«erkak»	
[o'g'il] (+)	[bola] (0)

Noto'liq ziddiyat tilning barcha sathida amal qiluvchi muhim qonuniyatdir. Masalan, morfologiyada leksemalarni umumiy grammatik ma'nosiga ko'ra mustaqil va nomustaqil leksemaga bo'lish privativlik asosida amalga oshiriladi. Bunda «lug'aviy ma'no ifodalay olmaslik» noto'liq ziddiyatning belgisi bo'lib, ziddiyatda mustaqil leksema belgilanmagan, kuchsiz a'zo bo'lsa, nomustaqil leksema belgisi, kuchli a'zo sifatida namoyon bo'ladi (11-jadval):

11-jadval

«lug'aviy ma'no ifodalay olmaslik»	
[nomustaqil leksemalar] (+)	[mustaqil leksemalar] (0)

Chunki mustaqil leksema lug'aviy ma'no ifodalashi ham, nomustaqil leksema vazifasida kelishi ham mumkin. Masalan, ot ko'makchi, fe'l ko'makchi, ko'makchi fe'l va h.lar nomustaqil leksema kabi lug'aviy ma'noga ega bo'la olmaydi.

Noto'liq ziddiyatda belgi tanlash ixtiyoriy emas. Masalan, bir qarashda yuqoridagi ziddiyatda belgini «lug'aviy ma'no ifodalash» deb ham, «lug'aviy ma'no ifodalay olmaslik» deb ham qo'yish mumkindek tuyuladi. Keling, ziddiyat belgisini yuqorida qo'yilganidek emas, balki «lug'aviy ma'no ifodalay olish» deb o'zgartirib ko'raylik (12-jadval):

12-jadval

«lug'aviy ma'no ifodalay olish»	
[mustaqil leksemalar] (+)	[nomustaqil leksemalar] (0)

Bu to'g'rimi? Birinchidan, noto'liq ziddiyatda qaysidir bir a'zo O (nol) belgisini olishi kerak. Oldingi ziddiyatda mustaqil leksemalar ushbu belgiga ega edi. Bunda endi nomustaqil leksemalar olishi kerakka o'xshaydi. Yo'q, bunday emas. Chunki

nomustaqil leksema goh lug‘aviy ma‘no ifodalash, goh ifodalamaslik xossasiga ega emas. Ziddiyatning ikkinchi a‘zosi [+] belgisiga egami? U (ya‘ni mustaqil leksemalar) h a m i s h a «lug‘aviy ma‘no ifodalay olish» belgisiga ega bo‘lib, boshqa xil vazifada qo‘llanila olmaydimi? Yo‘q, u bunday xususiyatga ega emas; oldingi ziddiyatda ko‘rib o‘tganimizdek, mustaqil leksema «lug‘aviy ma‘no ifodalay olmaslik» belgisiga ega bo‘la oladi. [-] belgisiga ham ega. Demak, keyingi «ziddiyat» ziddiyat emas. Ziddiyat lisoniy birlikning mohiyatini, substansial tabiatini o‘zida aks ettirmog‘i lozim. Aks holda «sun‘iy» ziddiyat kelib chiqadi. Boshqa ziddiyat kabi noto‘liq ziddiyat ham obyektiv va xohish- irodamizga bog‘liq emas.

Darajali ziddiyat a‘zolari kamida uchta bo‘lib, bir belgi (ziddiyat belgisi) ning o‘sib borishiga ko‘ra a‘zolar qator hosil qiladi. Masalan, tilning ko‘tarilishiga ko‘ra unli fonemalar darajalanishi quyidagicha: [a] - [e] - [i] yoki [o] - [o‘] - [u]. Bunda belgi birinchi a‘zoda kuchsiz, ikkinchi a‘zoda o‘rtacha va keyingi a‘zoda kuchli yoki aksincha, bo‘lishi mumkin. Darajali ziddiyat ham barcha sath birliklarida uchraydi. Masalan, leksikada [ninni]-[chaqaloq]-[go‘dak]-[bola]..., [turq]-[bashara]-[bet]-[yuz] [cheh-ra]..., morfologiyada [harakat nomi]-[sifatdosh]-[ravishdosh] («fe‘lni o‘zgalash darajasiga ko‘ra» belgisi asosida) kabi.

Ekvipolent (teng qiymatli) ziddiyatda ikki a‘zo qarshilantirilib, har biri o‘ziga xos, ikkinchisiga xos bo‘lmagan belgiga ega bo‘ladi. Masalan, ovoz va shovqinga ko‘ra jarangli va jarangsiz undosh teng qiymatli (o‘ziga xos belgiga ega bo‘lgan a‘zoli) ziddiyatni hosil qiladi.

Muntazam (proporsional) ziddiyatda bir ziddiyat belgisi juftlangan turli birliklar uchun oppozitiv ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi. «jins» belgisi [ota]-[ona], [aka]-[opa], [singil]-[uka], [tog‘a]-[xola] lug‘aviy zidlanishlari uchun umumiy.

Ziddiyat a‘zolari miqdoriga ko‘ra ziddiyat ikki a‘zoli (binar) va ko‘p a‘zoli ziddiyatga bo‘linadi.

Uchinchi belgisiga ko‘ra ziddiyat doimiy va mo‘tadillashgan ziddiyatga bo‘linadi.

Mo‘tadillashish jarayonida munosabatga kirishayotgan birliklar o‘rtasidagi ziddiyat kuchsizlanadi. Masalan, [yot]-[yod] zidlanishda so‘z oxiridagi [t], [d] tovushlari jarangli-jarangsizlik bilan farqlanmaydi. [d] fonemasining nutqdagi vaziyatidan kelib chiqqan holda unda jarangsizlik belgisi kuchsizlanadi. Ammo bu sof nutqiy hodisa. Mo‘tadillashish lisoniy birlikning nutqiy voqelanishida yuz beradi. Leksema va morfema ham nutqiy voqelanganda, ularning lisonda boshqa birliklar bilan ziddiyatli munosabatini belgilaydigan xossasi, belgisi kuchsizlanishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan [t] va [d] undoshlarining jarangli-jarangsizlilik belgisiga ko‘ra zidlanishini yorqin namoyon qiladigan vaziyat [d] fonemasining so‘z boshi va so‘z o‘rtasida voqelanishi. Ziddiyatni voqelantiradigan pozitsiya kuchli va uni so‘ndiradigan nutqiy holat kuchsiz pozitsiya deyiladi.

Tekshirish savollari

1. Til, lison va nutqning bir-biridan farqini tushuntiring.
2. Lisoniy UMIS va YAHVOga izoh bering.
3. Tilning qanday sathlari ajratiladi?

4. Lisoniy birliklar deb nimalar kiritiladi?
5. Fonema va tovushning farqi?
6. Leksema va soʻzning bir-biridan farqi. ?
7. Morfema va qoʻshimchaga izoh bering.
8. Qolip va hosilaning munosabati.
9. Lisoniy paradigma nima?
10. Lisoniy munosabat deganda nimani tushunasiz?
11. Lisoniy munosabatning asosiy turlarini sanang.
12. Lisoniy ziddiyat va uning asosiy turlari sanang.

Asosiy adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Oliy oʻquv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: OʻzME, 2013.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2003.

Qoʻshimcha adabiyotlar

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Т., 1994.
2. Jamolxonov H. Oʻzbek tilining nazariy fonetikasi. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: Fan, 2009.
3. Mirtojdiyev M. Oʻzbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
4. Neʼmatov H, Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1989.
5. Neʼmatov H, Rasulov R. Oʻzbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1995.
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. –T. 2006.
7. Hojiyev A. Oʻzbek tili morfologiyasi, morfemikasi va soʻz yasalishining nazariy masalalari. Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti Toshkent-2010.
8. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
9. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Т., 1992

3-MODUL. FONETIKA-FONOLOGIYA, UNING OʻRGANISH MANBAI VA PREDMETI, YOʻNALISHLARI

Taʼlim berish texnologiyasi

Mashgʻulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 60 –70 gacha
Mashgʻulot shakli	Maʼruza (ommaviy, jamoaviy ishlash)
Maʼruza	FONETIKA VA FONOLOGIYA (2 soat)
Maʼruza rejasi	1. Fonetika, uning tadqiqot obyekti, maqsadi va vazifalari haqida maʼlumot(10 minut) . 2. Fonetikaning tadqiqot maqsadi va usullariga koʻra turlari (50 minut).

	<p>a) umumiy fonetika ; b) xususiy fonetika; - tavsifiy fonetika; - tarixiy fonetika; d) qiyosiy fonetika; e) eksperimental (instrumental) fonetika.</p> <p>Dars yakuni : 1. Talabalarni tekshirish savollari va tayanch tushunchalar bilan tanishtirish. (10 minut) 2. Savol-javob, xulosa, uyga vazifa. (10 minut)</p>
<p><i>O'quv mashg'ulotlarining maqsadi:</i> . Talabalarni fonetikaning obyektini, maqsadini, vazifalari va turlari, ularning til va nutqdagi vazifalari bilan tanishtirish.</p>	
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Fonetika fani, uning turlari va vazifalari haqida nazariy ma'lumot berish. • Talabalarni tilning fonetik sathi, undagi asosiy birliklar, bunday birliklarning til va nutqdagi vazifalari bilan tanishtirish. 	<p><i>O'quv faoliyati natijalari :</i></p> <p>Talaba: fonetika fani, uning obyektini, maqsadini va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqasi xususida ma'lum tasavvurga ega bo'ladi.</p>
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Anjuman ma'ruza, jamoada ishlash, elektron matnning mantiqiy nuqtalarini ajratib ko'rsatish.
<i>Ta'lim berish metodlari</i>	Og'zaki, ma'ruza, hikoya, suhbat, ko'rgazmalilik, namoyish qilish
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, tarqatma materiallar, proyektor, doska.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Hamkorlikda ishlash va taqdimotlarni amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob.

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1. Mavzuga kirish (5-7 minut)	<p>1 O'quv fanining nomini aytadi. Mavzular va adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi.</p> <p>2. Talabalarni o'quv faoliyatini baholash mezonini bilan tanishtiradi (2 ilova).</p> <p>3. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.</p>	<p>Tinglaydilar</p> <p>Tinglaydilar</p> <p>Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.</p>
2. Asosiy bosqich (60 - minut)	Slaydlarni namoyish qilish va izohlash orqali talabalarga mavzular bo'yicha asosiy nazariy ma'lumotlarni beradi.	<p>Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>Talabalar berilgan savollarga javob beradilar</p>
3. Yakuniy bosqich	1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob	Savollar beradilar

(13-15- minut)	beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 2. Ikkinchi mustaqil ish topshiriqlari bilan tanishtiradi. 3. Uyga vazifa beradi.	Vazifani yozib oladilar.
----------------	--	--------------------------

1-ilova

Reja:

1. **Fonetika, uning tadqiqot obyekti, maqsadi va vazifalari haqida ma'lumot.**
2. **Fonetikaning tadqiqot maqsadi va usullariga ko'ra turlari:**
 - 1) umumiy fonetika ;
 - 2) xususiy fonetika;
 - 3) tavsifiy fonetika;
 - 4) tarixiy fonetika;
 - 5) qiyosiy fonetika;
 - 6) eksperimental (instrumental) fonetika.

Tayanch so'zlarning o'zbekcha - inglizcha - ruscha lug'ati

O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Segment	Segment	Сегмент
Segment birliklar	Segment unit	Сегментнауа единица
Supersegment birliklar	Supersegment unit	Суперсегментнауа единица
Fonetik so'z	A phonetic word	Фонетическое слово
Umumiy fonetika	General phonetics	Общуауа фонетика
Xususiy fonetika	Private phonetics	СНастнауа фонетика
Tarixiy fonetika	Historical phonetics	Историческая фонетика
Tavsifiy fonetika	Descriptive phonetics	Описательнауа фонетика
Qiyosiy fonetika	Comparison phonetics	Сопоставительнауа фонетика
Eksperimental fonetika	Experimental phonetics	Экспериментальнауа фонетика

MA'RUZA MATNI

FONETIKA, UNING TADQIQOT OBYEKTI, MAQSADI VA VAZIFALARI

1. **Fonetika** tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning tovush tizimini, bu tizim birliklarining fizik-akustik, artikulatsion va lingvistik-funksional jihatlarini o'rganadi. Demak, tilning tovush materiyasi mazkur fanning tadqiqot obyekti sanaladi. Bu materiya *nutq tovushlari, bo'gin, urg'u, ohang (intonatsiya)* kabi

birliklarni hamda ularning *prosodik elementlarini* (*temp, tembr, melodika, ovoz, ton, qo‘shimcha ton, shovqin va hokazolarni*) o‘z ichiga oladi.

2. Fonetikaning o‘quv predmeti sifatidagi maqsadi - talabalarda fonetika bo‘yicha tegishli bilim darajasini shakllantirish.

3. Vazifalari – a) fonetik birliklarning (tovush, bo‘gin, urg‘u, ohangning) yuzaga kelish qonuniyatlarini o‘rganish; b) talabalarni yuqoridagi qonuniyatlar va shu qonuniyatlarga oid ilmiy-nazariy fikrlar bilan tanishtirish; d) adabiy tilning fonetik-fonologik tizimiga oid munozarali masalalarni aniqlash, ularga munosabat bildirish; e) talabalarda fonetik tahlil konikmalarini shakllantirish; f) talabalarga shu sohada ishlagan va ishlayotgan fonetist-fonologlar, ularning mazkur sohaga oid ishlari haqida qisqacha ma‘lumot berish.

Fonetik birliklarning turlari

1. Segment birliklar - til tovushlari. Ular nutq oqimida (so‘z yoki morfema tarkibida) birin-ketin ulanib keladi. Masalan, $s + i + n + f > \text{sinf}$, $s + n + f + d + o + sh > \text{sinf} + \text{“-dosh”}$ kabi. Bunday birliklarni nutq oqimidan ajratib olish mumkin: *katta* so‘zi *k, a, t, t, a* tovushlariga, *kichik* so‘zi esa *k, i, ch, i, k* tovushlariga ajralgani kabi. Bulardagi har bir tovush (ajratilgan qism) *mikrosegment* sanaladi (yunoncha: *mikros-* “kichik” + lotincha: *segmentum-* “kesik”, “bo‘lak”). Aslida nutq oqimining talaffuzdagi bo‘linishlari katta bo‘lakdan (*makrosegmentdan*) kichik bo‘laklarga (*mikrosegmentlarga*) qarab taqsimlanib boradi: *fraza* (makrosegment), *takt*, *fonetik so‘z*, *bo‘g‘in* va *tovush* (*mikrosegmentlar*) kabi. Demak, nutq tovushi ana shu bo‘linishning eng so‘ngisi (boshqa bo‘laklarga ajralmaydigani) dir.

2. Supersegment birliklar - *urg‘u* va *ohang* (*intonatsiya*). Supersegment birliklarning segment birliklardan (tovushlardan) farqi shundaki, ular til birliklarining (leksema, morfema, gapning) moddiy qobig‘idan ajralgan holda mavjud emas, balki shu birlikka ustama hodisa sifatida bog‘langan bo‘ladi: *so‘z urg‘usi* leksemaga, *tinch ohang* darak gapga, *so‘roq ohangi* esa so‘roq gapga yaxlit aloqador bo‘lgani kabi. Ularni so‘z yoki gapdan ajratib, alohida talaffuz etib bo‘lmaydi (tovushni esa so‘zdan yoki bo‘g‘indan ajratib olish va alohida talaffuz qilish mumkin).

Fonetik birliklarning tildagi vazifasi

a) shakllantiruvchi vazifa (ruscha: *образующая функция*). Bunda fonetik birliklarning so‘z yoki morfemalar tarkibida yoxud gap va nutq tuzilishida qurilish materiali sifatida ishtirok etishi nazarda tutiladi. Chunonchi, *paxta* so‘zining tarkib topishida 5 ta tovush (*p, a, x, t, a*), ikkita bo‘g‘in (*pax-ta*) va bitta so‘z urg‘usi (*paxta*) «qurilish materiali» vazifasida qatnashgan. bu birliklarning shu tartibda joylashtirilishidan *paxta* so‘ining tovush qobig‘i (moddiy qiyofasi) – *fonetik so‘z* shakllangan. Ohang, melodika, pauza kabi supersegment birliklar esa gap qurilishida yoxud nutqning tarkib topishida ustama hodisa sifatida qatnashadi: darak, so‘roq va buyruq gaplarning o‘ziga xos intonatsiyalari, she‘riy misralardagi ohang tovlanishlari bunga misol bo‘ladi;

b) tanituvchi vazifa (ruscha: *опознавательная функция*). Bunda fonetik so‘z tarkibidagi fonetik birliklarning shu so‘zni va uning ma‘nosini «tanib olish» va «eslab qolish» uchun xizmat qilishi nazarda tutiladi: so‘z va uning ma‘nosi (yoxud

morfema va uning ma'nosi) shu so'zning (yoki morfemaning) moddiy qiyofasi (shakli) tufayligina inson ongida (til xotirasida) doimiy yashaydi. Masalan, inson *paxta* so'zini (fonetik so'zni) eshitganda yoki o'qiganda, uning xotirasida «g'o'za o'simligining oq tolali yumshoq mahsuli», *taxta* so'zini eshitganda yoki o'qiganda esa «g'o'ladan uzunasiga tilib olingan yassi yog'och bo'lagi» esga keladi, bu hol har bir so'zning fonetik qobig'i (nomemasi) bilan shu so'zning mazmun jihatidagi ma'nolar o'rtasida doimiy aloqa borligidan (shakl va mazmun birligidan) dalolat beradi. Ko'pchilik so'zlarning fonetik tarkibi (demak, shakli, nomemasi) o'zaro farqli bo'lishini hisobga olsak, bunday farqlar shu so'zlarning ma'nolarini tafovutlash uchun xizmat qilishi ham ma'lum bo'ladi: «qishloq»ni «pishloq»dan, «g'o'za»ni «ko'za»dan, «uy»ni «kuy»dan farqlash imkoni yaratiladi. Demak, so'z va grammatik formalar o'zlarining tovush materiyasi tufayligina nutqda ma'lum ahamiyat kasb etadi. Tovushgina so'z yoki so'z shaklini eshituvchi uchun borliq tusiga kiritadi.

Fonetikaning tadqiqot maqsadiga ko'ra turlari¹⁸

1. *Umumiy fonetika*. Fonetikaning bu turi barcha tillarning tovush tomoni uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlar va hodisalar bilan tanishtiradi¹⁹. Masalan, barcha tillarda fonetik birliklarning fizik-akustik tabiati, anatomik-fiziologik (biologik) asosi va lingvistik-funksional jihatlari bor; barcha tillarda nutq tovushlari fonemalarga birlashadi, barcha tillarda fonemalar fonologik oppozitsiyalar (zidlanishlar) va korrelatsiyalarni yuzaga keltiradi, shular orqali fonologik sistemalar shakllanadi. Tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatiga xos bo'lgan bunday nazariy masalalarni ko'rish umumiy fonetika predmeti sanaladi.

O'zbek tilshunosligida umumiy fonetikaga oid ma'lumotlar «Узбекский язык» (V.V.Reshetov, 1959), «Umumiy tilshunoslik» (Baskakov N.A., Sodiqov A.S., Abduazizov A., 1979), «Umumiy tilshunoslik» (Usmonov S., 1972) kabi asarlarda berilgan.

2. *Xususiy fonetika*²⁰. Fonetikaning bu turi konkret bir tilning fonetik tizimi haqida ma'lumot beradi: o'zbek tili fonetikasi, rus tili fonetikasi, ingliz tili fonetikasi kabi.

Xususiy fonetika ayrim olingan bir tilning fonetik tizimini o'rganishda umumiy fonetika xulosalariga (umumnazariy qarashlarga), shuningdek, fonetikaning boshqa turlarida to'plangan tajribalarga tayanadi.

Uning quyidagi ikki turi bor:

a) *tavsifiy fonetika*. Bunda ayrim olingan bir tilning fonetik tizimi, undagi fonetik hodisalar va faktlar statik holatda (shu tilning oldingi tarixiy taraqqiyoti bilan bog'lanmay) o'rganiladi. Xususan, "Hozirgi o'zbek adabiy tili fonetikasi" ham aslida tavsifiy fonetikadir, chunki unda o'zbek tilining fonetik tizimi, bu tizimda mavjud bo'lgan fonetik faktlar (unli va undosh tovushlarning miqdor va sifat belgilari, tasnifi, urg'u, bo'g'in va hokazolar) hozirgi o'zbek tilida qanday bo'lsa, shundayligicha (tarixiy jarayon va faktlarga bog'lanmay) o'rganiladi.

¹⁸ Napoli, Donna Jo (1996). *Linguistics: An Introduction*. New York: Oxford University Press.

¹⁹ Lass, Roger (1998). "Phonology: An Introduction to Basic Concepts". Cambridge, UK; New York; Melbourne, Australia: Cambridge University Press: 1. ISBN 0-521-23728-9. Retrieved 8 January 2011 Paperback ISBN 0-521-28183-0

²⁰ Lass, Roger (1998). "Phonology: An Introduction to Basic Concepts". Cambridge, UK; New York; Melbourne, Australia: Cambridge University Press: 1. ISBN 0-521-23728-9. Retrieved 8 January 2011 Paperback ISBN 0-521-28183-0

Hozirgi o'zbek adabiy tilining tavsifiy fonetikasi "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fani bo'yicha nashr etilgan ko'pchilik darsliklarda, shuningdek, "Узбекский язык" (Reshetov V.V., 1959-y.), "Основы фонетики и грамматики узбекского языка" (Reshetov V.V., 1965-y.), "Общая характеристика особенностей узбекского вокализма" (Reshetov V.V., 1949-y.), "Фонетическая система узбекского литературного языка", ADD (A. Mahmudov, 1980-y.), "Hozirgi o'zbek adabiy tili" dan metodik ko'rsatmalar va konspektiv kurs: fonetika, orfoepiya, grafika va orfografiya (Tursunova T., Jamolxonov H., 1981-y.), "O'zbek tili fonetikasi" (Mirtojiev M.M., 1991-y., 1-nashri; 1998-y., 2-nashri), «O'zbek tili» S.Otamirzayeva, M.Yusupova, 2002-y.), "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (Jamolxonov H., 2005-y.) kabi ishlarda hamda "Сочетание гласных и согласных в современном узбекском литературном языке" (A.Ishayev., 1985), "Редукция гласных в узбекском языке: типы, функция, программирование" (С.Атамирзаева, Х.Юлдашева, Дж. Маматов, 1985) kabi maqolalarda bayon etilgan;

b) *tarixiy fonetika*²¹. Bunda ayrim olingan bir tilning fonetik tizimi, undagi fonetik hodisalar va faktlar shu tilning uzoq tarixiy taraqqiyoti bilan bog'lab o'rganiladi, shu asosda muayyan tilning fonetik - fonologik tizimida yuz bergan tarixiy o'zgarishlar (divergensiya, konvergensiya faktlari, fonologik tizimdagi eskirish va yangilanish jarayonlari) aniqlanadi. Shunga ko'ra u *diaxron fonetika* deb ham yuritiladi.

O'zbek tilshunosligida o'zbek tilining tarixiy fonetikasiga oid ma'lumotlar V.V.Reshetov, F.Abdullayev, G'.Abdurahmonov, A.Rustamov, E.Fozilov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov, S.Ashirboyev, H.Ne'matov, Q.Sodiqov, B.To'ychiboyev kabi tilshunoslarning ishlarida berilgan: "Qadimgi turkiy til" Abdurahmonov G', Rustamov A., 1982-y.), "Фонетико-морфологические особенности языка Алишера Наваи", ADD (Rustamov A., 1966-г.), "Некоторые вопросы исторической фонетики узбекского языка" (A. Рустамов, 1985), "К истории утраты сингармонизма в узбекском языке" (Ф. Абдуллаев, 1985), "Фонетические и морфологические особенности языка "Хибатул хакаик", АКД (Махмудов К., 1964-г.), "Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq" asari haqida" (Mahmudov Q., 1972-y.), "Qadimgi obidalar va Alisher Navoiy tili" (Fozilov E., 1969-y.), "XIV asr Xorazm yodnomalari" (Fozilov E., 1973-y.), "Qutbning "Xusrav va Shirin" dostoni va o'zbek adabiy tili" (Ashirboyev S., 1997-y.), "O'zbek tili tarixiy fonetikasi" (Ne'matov H., 1992-y.), "O'zbek tili tarixiy fonetikasi" (To'ychiboyev B., 1990-y.), "O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari" (To'ychiboyev B., 1996-y.), «XI-XV asr uyg'ur yozuvli turkiy yodgorliklarning grafik-fonetik xususiyatlari» (Q.Sodiqov. Dokt. Dissertatsiyasi, 1992), "O'zbek adabiy tili tarixi" (Muxtorov. A., Sanaqulov U., 1995-y.), "Алишер Наввай как основоположник узбекского литературного языка" (А.К. Воронков, 1946.), "A tovushining XV asrdagi sifat xususiyatlari haqida" (E. Umarov., 1982), "XV asr o'zbek tili unlilari haqida" (E. Umarov, 1982), "O'zbek tilining tarixiy fonetikasi" (Qozoqbot Mahmudov, 2006), "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" (G'.Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov,

²¹ Napoli, Donna Jo (1996). Linguistics: An Introduction. New York: Oxford University Press.

2008), "Грамматика староузбекского языка" (А.М. Щербак, 1962) kabi ishlar shular jumlasidandir.

3. *Qiyosiy fonetika*²². Fonetikaning bu turi qardosh tillarning (masalan, o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman va boshqa turkiy tillarning) fonetik tizimidagi umumiy va xususiy jihatlarni aniqlash imkonini beradi: "Сравнительная фонетика тюркских языков" (А.М. Щербак, 1970), "Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков" (В.А.Серебrennikov, N.Z.Gadjiyeva, 1986) kabi ishlar shular jumlasidandir. O'zbek tilshunosligida noqardosh tillarning, xususan, o'zbek va rus tillarining fonetik tizimlarini qiyosiy o'rganishga ham alohida e'tibor berilmoqda: "Русская грамматика в сопоставлении с узбекским языком" (Polivanov E.D., 1933-у.), "Краткий очерк фонетики русского языка в сопоставлении с фонетикой узбекского языка" (Kissen I.A., 1952-у.), "Курс сопоставительной грамматики русского и узбекского языков" (Kissen I.A., 1966, 1969, 1971, 1979-уillar), "Сопоставление фонетических явлений русского и узбекского языков в речевом потоке", АКД (Asfandiyarov I.U., 1968-у.), "O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi" (Azizov O, Safayev A, Jamolxonov H, 1986-у.) kabi ishlar buning dalili.

O'zbek va rus tillari fonetikasini qiyosan o'rganish rus maktablarida o'zbek tilini, o'zbek maktablarida esa rus tilini o'qitish uslubiyatini takomillashtirish nuqtayi nazaridan, shuningdek, o'zbek-rus bilingvizmi (ikki tilliligi) masalalarini, bunday bilingvizmning har ikkala til strukturasi va sistemasiga ta'sirini aniqlash pozitsiyasidan foydalidir.

4. *Eksperimental (instrumental) fonetika*²³. Fonetikaning bu turida nutq tovushlarining fizik-akustik va artikulyatsion jihatlari maxsus asboblarda (pnevмограф, осциллограф, фонограф, спектрограф va boshqalar) yordamida tadqiq qilinadi, shu asosda tovushlarning sifat va miqdor belgilari (balandligi, kuchi, tembri, spektri, cho'ziqlik darajasi), ularning artikulyatsiyasi (hosil bo'lish o'rni, usuli) aniqlanadi. Bunday tadqiqot natijalaridan fonetik birliklarning fonologik jihatlari tavsiflashda foydalaniladi.

O'zbek tilshunosligida eksperimental fonetikaning rivojlantirilishida Mahmudov Ahmadjon va Otamirzayeva Sora kabi fonetistlarning xizmati katta. Bu tilshunoslarning qator ishlarida o'zbek tili fonetik tizimining tovushlari, urg'u, bo'g'in kabi birliklari ayni shu usulda tadqiq qilingan: "Unlilar" (Mahmudov. A., 1992-у.) "Согласные узбекского литературного языка" (Mahmudov.A., 1986-у.), "Сонорные узбекского языка" (Mahmudov A., 1980-у), "Словесное ударение в узбекском языке" (Mahmudov.A., 1960-у), "Звуковой состав наманганского говора узбекского языка. Экспериментальное исследование", АКД (Atamirzayeva S., 1963-у), Экспериментально-фонетическое исследование наманганского говора узбекского языка" (Atamirzayeva S., 1974-у), "Акустико-артикуляционный анализ узбекской речи применительно к аудиометрии" (Atamirzayeva S. в соавторстве, 1979-у) kabi ishlar fikrimizning dalili.

Tekshirish savollari

²² Sandler, Wendy and Lillo-Martin, Diane. 2006. Sign language and linguistic universals. Cambridge: Cambridge University Press

²³ Collins B. Practical Phonetics and Phonology – Routledge, 2008.

1. Fonetikaning obykti?
2. Fonetikaning maqsadi?
3. Fonetik birliklarga nimalar kiradi?
4. Segment va supersegment birliklar qanday farqlanadi?
5. Fonetik birliklarning shakllantiruvchi va tanituvchi vazifalarini qanday tushunasiz?
6. Fonetik soʻz nima?
7. Fonetikaning qanday turlari bor?
8. Umumiy fonetika nimani oʻrganadi? Xususiy fonetika-chi?
9. Tavsifiy (sinxron) va tarixiy (diaxron) fonetikalarning farqi nimada? Bu sohalarida ishlagan va ishlayotgan tilshunoslardan kimlarni bilasiz?
10. Qiyosiy va eksperimental fonetikalarda nimalar tadqiq qilinadi? Bu sohaga oid ishlardan qaysilarini bilasiz?

Tayanch tushunchalar

Fonetika - tilshunoslikning fonetik birliklar, ularning fizik-akustik va h.k. xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi bo'limi.

Segment – nutq oqimining talaffuzdagi bo'lagi: *makrosegment*- fraza, *mikrosegmentlar* – takt, bo'g'in, tovush.

Segment birliklar – soʻz yoki morfema tarkibida gorizontaal chiziq bo'ylab birin-ketin keladigan tovushlar (fonemalar).

Supersegment birliklar - urg'u, ohang, melodika, pauza kabi ustama hodisalar, ular soʻzga, frazaga, gapga yoki nutqqa yaxlit holda aloqador bo'lishi bilan segment birliklardan farq qiladi.

Shakllantiruvchi vazifa – fonetik birliklarning leksema yoki morfemalarni shakllantirishda "qurilish materiali" (moddiy asos) sifatida ishtirok etishi.

Tanituvchi vazifa - fonetik birliklarning soʻz qiyofasini "tanib olish" va shu orqali soʻzning ma'nosini "eslab qolish" uchun xizmat qilishi.

Fonetik soʻz - nutq tovushlarining ma'lum tartibda joylashuvidan tarkib topgan soʻzning fonetik qiyofasi, leksemaning ifoda plani(nomemasi).

Umumiy fonetika - fonetikaning barcha tillarga xos umumnazariy masalalari haqida ma'lumot beruvchi turi.

Xususiy fonetika - fonetikaning muayyan bir til tovushlari, ularning turlari, fizik-akustik va artikulyatsion xususiyatlari xususida bahs yurituvchi turi.

Tarixiy fonetika - xususiy fonetikaning ichki bir turi. U muayyan til tovush tizimini diaxron planda va dinamik holatda (tarixiy taraqqiyotda) oʻrganadi.

Tavsifiy fonetika - xususiy fonetikaning ichki bir turi. U muayyan tilning fonetik tizimini statika holatida (til taraqqiyotining oldingi bosqichlarida yuz bergan hodisalar bilan bog'lamay) oʻrganadi.

Qiyosiy fonetika – qardosh yoki noqardosh tillarning tovush tizimlarini qiyoslab oʻrganadigan fonetika.

Eksperimental (instrumental) fonetika - nutq tovushlari, urg'u kabi birliklarning fizik-akustik va artikulyatsion xususiyatlarini maxsus asboblarda vositasida oʻrganadigan fonetika.

FONETIKANING TO'RT ASPEKTI

Tilning tovush tomonini o'rganish aspektlari²⁴. Tilning tovush tomoni ancha murakkab hodisadir: a) har qanday tovushning fizik-akustik tabiati bor; b) har qanday nutq tovushining biologik asosi (nutq a'zolarining harakati va holati bilan bog'liq jihatlari) mavjud; d) har qanday nutq tovushlari talaffuz etiladi va eshitiladi; e) nutq tovushlari til va nutqda ma'lum lisoniy vazifalarni bajaradi, shu ma'noda ular ijtimoiy qiymatga ega bo'ladi. Fonetik birliklarning ana shu jihatlarni o'rganish fonetikaning fizik-akustik, anatomik-fiziologik, perseptiv va lingvistik-funksional aspektlari deb qaraladi.

I. Fizik-akustik aspekt²⁵

Eksperimental fonetikaning bu aspekti fonetik birliklarning fizik tabiatini tadqiq qiladi. Fonetik birliklarning fizik tabiatiga tovushning balandligi, kuchi, tembr, cho'ziqligi kiradi. Tovushning ovoz, shovqin, qo'shimcha (yordamchi) ton labi komponentlari ham fizik-akustik omillar sanaladi.

1. Tovushning balandligi - tovushning un paychalari tebranishi chastotasiga bog'liq sifati. Ma'lum vaqt o'lchovida (masalan, bir sekundda) un paychalarining tebranish miqdori qancha ko'p bo'lsa, tovush shuncha baland bo'ladi yoki, aksincha, shu vaqt o'lchovi hisobida un paychalari qancha kam (siyrak) tebransa, tovush shuncha past chiqadi. Tebranayotgan jismning, masalan, un paychalarining tinch holatdagi nuqtadan ikki (qarama-qarshi) tomonga bir marta borib kelishi bitta to'la tebranish sanaladi, ana shu bitta to'la tebranish *bir gerts* hisoblanadi, demak, baland ovozda gerslar miqdori ko'p (tebranish zich), past ovozda esa gerslar miqdori kam (tebranish siyrak) bo'ladi. Insonning eshitish qobiliyati 16 gersdan 20000 gersgachadir: 16 gers eshitishning eng quyi pog'onasi, 20000 gers esa eshitishning eng yuqori pog'onasi hisoblanadi. 16 gersdan kam chastotali tebranish *infratovush*, 20000 gersdan ortiq chastotali tebranish esa *ultratovush* sanaladi. Inson oddiy so'zlashuvda 100 gersdan 400 gersgacha balandlikdagi tovushni qo'llaydi. Insonning eng past tovushi *bas* (u 40 gersga teng), eng baland tovushi esa *sopranodir* (u 170 gersga teng).

Nutqda ovozning (tonning) baland-past tarzda to'ldirilishi melodikani yuzaga keltiradi, melodika esa gapning ifoda maqsadiga yoki emotsionallikka ko'ra turlarini belgilashda, sintagmalarni, kirish so'z yoki kiritma gaplarni ifodalashda muhim vosita sanaladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tebranish chastotasi nutqda boshqa akustik vositalar (urg'u, intonatsiya, tembr, temp kabilar) bilan munosabatga kirishib, murakkab tovushni hosil qilishi ham mumkin, bunday murakkab tovushlardan esa turli *ekspressiv-stilistik maqsadlarda, ayniqsa, she'riy misralardagi tovush tovlanishlarini tarkib toptirishda* foydalaniladi.

2. Tovushning kuchi (intensivligi)- 1sm^2 maydondan 1 sekundda o'tadigan energiya miqdori. Bunday energiya miqdorining ko'p yoki oz bo'lishi tebranish amplitudasining (kengligining) katta yoki kichikligiga bog'liqdir: tebranish amplitudasining katta bo'lishi unga berilayotgan zarba darajasiga, masalan, o'pkadan kelayotgan havo oqimi kuchiga bog'liq. Masalan, zarb urg'usini (dinamik

²⁴ Bu haqda qarang: Collins B. Practical Phonetics and Phonology – Routledge, 2008.

²⁵ Bu haqda qarang: Lass, Roger (1998). "Phonology: An Introduction to Basic Concepts". Cambridge, UK; New York; Melbourne, Australia: Cambridge University Press: 1. ISBN 0-521-23728-9. Retrieved 8 January 2011 Paperback ISBN 0-521-28183-0

urg'uni) yuzaga keltirishda havo zarbi kuchli bo'ladi. Demak, tovush kuchining nutqdagi ahamiyati ko'proq zarb urg'usini ifodalashda namoyon bo'ladi.

Tovush kuchi odatda *detsibel* bilan o'lchanadi. Masalan, soatning chiqillashi - 20db, pichirlash - 40db, yarim ovoz bilan gapirish-60db, baland ovoz bilan gapirish - 80 db, simfonik orkestr ovozi-100dan 110 detsibelgacha bo'ladi. 130 detsibeldan ortiq kuchdagi tovush quloqqa og'riq beradi, insonni noxush qiladi.

3. *Tovush tembri* - tovushning asosiy ton va yordamchi tonlar (oberton, parsial tonlar) qo'shilmasidan tarkib topadigan sifati. Tovush tembrini ifodalovchi va uning boshqa tovushlar tembridan farqini ko'rsatuvchi chastotalar formantlar deyiladi. Tovush formantlari maxsus eksperimental apparat - spektograf yordamida aniqlanadi.

Tovush tembrining turli xil formantlarga ega bo'lishida bo'g'iz bo'shlig'i, halqum, og'iz bo'shlig'i va burun bo'shlig'i maxsus rezonatorlik (akustik filtrlik) vazifasini bajaradi: bunday bo'shliqlarning turli shaklga kirishi, hajmi, undagi a'zolarining harakati-holati tovushning bo'yoqdorligini (sifat belgilarini) o'zgartirib turadi, shu tariqa fonemalarning o'zaro farqlanishi ta'minlanadi. Odatda, tovush tembri unli fonemalarda muhim rol o'ynaydi: hamma unli fonemalarda ovoz bor, ammo ular bir-biridan tembri bilan farq qiladi. Ayni paytda, tovush tembri ayrim undoshlarni, masalan, sonantlarni farqlashda ham qatnashadi. Bulardan tashqari, tembr nutqning supersegment birligi, ovoz tovlanishlari tarzida ham namoyon bo'ladi: *quvnoq tembr*, *ma'yus tembr* kabi. Tembrning bu turlari nutqning ekspressiv-emotsional xususiyatlarini, ayniqsa nazm va navodagi ohang tovlanishlarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. *Tovush cho'ziqligi* - tebranishning oz yoki ko'p vaqt davom etishi. Tovush cho'ziqligi ikki xil bo'ladi; a) fonologik cho'ziqlik (birlamchi cho'ziqlik). Bunday cho'ziqlik, odatda, ma'no ajratish uchun xizmat qiladi. Masalan, turkman tilida "yilqi" ma'nosidagi "ot" so'zi bilan "ism" ma'nosidagi "ot" so'zining ma'nolari shu so'zlar tarkibidagi "o" unlisining cho'ziqlik darajasi bilan farqlanadi; ot(ad-"yilqi")-o:t (a:d- "ism") kabi; b) fonetik cho'ziqlik (ikkilamchi cho'ziqlik) - sof fizik-akustik faktorga asoslangan (fonologik vazifa bajarmaydigan) cho'ziqlik. Masalan, urg'uli bo'g'indagi unli bir oz cho'ziladi, ammo u so'z ma'nosini farqlash uchun xizmat qilmaydi (atlas va atlas kabi ayrim holatlar bundan mustasno). Shuningdek, *imon* so'zi boshidagi "i" cho'ziqroq talaffuz etilganidan, unda bir "y" orttiriladi yoki *shahar*, *zahar* so'zlarida "h"ning tushib qolishi natijasida ikki "a" yonma-yon kelib, bir cho'ziq "a" tarzida talaffuz qilinadi (*sha:ar, za:ar* kabi), ammo bu holat so'z ma'nolarini o'zgartirmaydi (demak, fonologik qiymatga ega bo'lmaydi).

Izoh: Nutq tovushlarining balandligi, kuchi (intensivligi) va tembri ularning sifat belgilari sanaladi, tovushning cho'ziqligi esa miqdor belgisi hisoblanadi.

II. Anatomik-fiziologik aspekt²⁶


²⁶ Jump up^ Clark, John; Yallop, Colin; Fletcher, Janet (2007). An Introduction to Phonetics and Phonology (3rd ed.). Massachusetts, USA; Oxford, UK; Victoria, Australia: Blackwell Publishing. ISBN 978-1-4051-3083-7. Retrieved 8 January 2011 Alternative ISBN 1-4051-3083-0

Fonetikaning bu aspekti fonetik birliklarning biologik asosini – inson organizmidagi ayrim a’zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi rolini, ularning tuzilishi va faoliyatini o’rganadi.

Nutq tovushlarining biologik asosini quyidagi turlarga bo’lish mumkin: 1) nutq a’zolarining anatomiyasi; 2) nutq a’zolarining fiziologiyasi; 3) nutq a’zolarining ijro kyechimi.

1. Nutq a’zolarining anatomiyasi deyilganda shu a’zolarining shakli, tuzilishi, o’rni nazarda tutiladi. Bunday a’zolar quyidagi apparatlarga birlashadi:

a) *nafas apparati* – o’pka, bronxlar, traxeya, diafragma, ko’krak qafasi. Bu apparat a’zolari tovush hosil qilish uchun zarur bo’lgan havo oqimini boshqa a’zolariga yetkazib beradi, shu ma’noda havo manbai sanaladi;



1-rasm. Nafas apparati²⁷.


1-qalqonsimon tog’ay; 2-uzuksimon tog’ay) 3-kekirdak (traxeya); 4-bronxlar; 5-bronxlarning uchi tarmoqlari; 6-o’pkaning tepa qismi; 7- o’pkaning tag (ost) qismi.

b) bo’g’iz bo’shlig’i- traxeyaning yuqori (kengaygan) qismi. Unda un paychalari, uzuksimon, qalqonsimon, cho’michsimon, ponasimon, shoxsimon tog’aylar mavjud. Bu apparatdagi eng faol a’zolar un paychalaridir:

A

B


²⁷ Jump up^ Clark, John; Yallop, Colin; Fletcher, Janet (2007). An Introduction to Phonetics and Phonology (3rd ed.). Massachusetts, USA; Oxford, UK; Victoria, Australia: Blackwell Publishing. ISBN 978-1-4051-3083-7. Retrieved 8 January 2011 Alternative ISBN 1-4051-3083-0




2-rasm Bo'g'iz (hiqildoq)²⁸.

A) bo'g'izning old tomoni: 1- qalqonsimon tog'ay; 2-uzuksimon tog'ay; 3- til osti suyagi; 4- qalqonsimon tog'ayni til osti suyakka ulab turuvchi pay; 5- uzuksimon tog'ay bilan qalqonsimon tog'ay orasidagi pay; 6- kekirdak (traxeya).

B) bo'g'izning orqa tomoni: 1- qalqonsimon tog'ay; 2- uzuksimon tog'ay; 3- qalqonsimon tog'ayning yuqori shoxlari; 4- qalqonsimon tog'ayning quyi shoxlari; 5- cho'michsimon tog'aylar; 6- bo'g'iz qopqog'i; 7- traxeyaning pardasimon (orqa) qismi.



3-rasm. Bo'g'izning ko'ndalang kesilgandagi ko'rinishi. 1-qalqonsimon tog'ay; 2- cho'michsimon tog'aylar; 3- un (ovoz) paychalarining qirralari; 4- ovoz paychalari orasidagi tirqish.



²⁸ Jump up^ Clark, John; Yallop, Colin; Fletcher, Janet (2007). An Introduction to Phonetics and Phonology (3rd ed.). Massachusetts, USA; Oxford, UK; Victoria, Australia: Blackwell Publishing. ISBN 978-1-4051-3083-7. Retrieved 8 January 2011 Alternative ISBN 1-4051-3083-0

4-rasm. Ovoz paychalari orasidagi tirqish ko'rinishlari.

- a) yopiq holat(un paychalari tarang tortilgan);
- b) ovoz holati;
- d) shivirlash (pichirlash) holati;
- e) nafas chiqarish holati;
- f) nafas olish holati.

- un (ovoz) paychalari tinch holatda turganda, ularning oralig'i u yoki bu darajada ochiq bo'ladi (qarang: 4-rasmning "e", "f" ko'rinishlari), natijada nafas apparatidan kelayotgan havo oqimi shu oraliqdagi paychalarni tebratmay o'tadi. Bunday vaziyatda ovoz hosil bo'lmaydi;


- ovoz paychalari tortilgan (taranglashgan)da, ular orasidagi ochiq bo'shliq yumuq holatga keladi(5-rasmning "a" ko'rinishi), natijada havo oqimining yo'li to'siladi, havo oqimi taranglashgan un paychalariga urilib, davriy tebranishni yuzaga keltiradi. Bunday tebranish ovozni (asosiy tonni) hosil qiladi(5-rasmning "b" ko'rinishi). Shuning uchun bo'g'iz bo'shlig'i ovoz manbai hisoblanadi. Ovoz esa unli tovushlarni, jarangli va sonor undoshlarni shakllantirishda fizik-akustik komponent sifatida qatnashadi.

-ovoz paychalari bo'shroq tortilgan holatda shu paychalar orasida torroq bo'shliq yuzaga keladi, havo oqimi shu bo'shliqdan sirg'alib, ishqalanib o'tadi, ammo un paychalarini tebratmaydi, natijada shovqin hosil bo'ladi, bu shovqin pichirlab yoki shivirlab gapirganda qo'llanadi (5-rasmning "d" ko'rinishi);


d) *halqum*- bo'g'izdan yuqoriroqda joylashgan bo'shliq. U uch qismdan iborat: pastki qismi hiqildoq (bo'g'iz)ga tutashgan o'rni; o'rta qismi-halqumning og'zi. Bu qism og'iz bo'shlig'i tomonga ochilgan bo'ladi; yuqori qismi-burun bo'shlig'iga va eshitish paylariga birikkan (tutashgan) qismi;

e) *og'iz bo'shlig'i*- til, kichik til, tishlar, lablar, lunjlar, qattiq va yumshoq tanglay, til osti muskulidan iborat apparat. U orqa tomonidagi tomoq orqali halqumga tutashadi;

f) *burun bo'shlig'i* – qo'shimcha ton manbai. U yumshoq tanglay oxiridagi kichik tilning quyi tomon harakat qilishi natijasida rezonatorga aylanadi: havo oqimining bir qismi burun bo'shlig'idan o'tib, qo'shimcha tonlarni yuzaga keltiradi. O'zbek tilining *m, n, ng* undoshlari shu apparat ishtirokida yuzaga keladi.



5-rasm. Boshning bo'ylama kesmasi. Yumshoq tanglay pastga tomon siljigan.
I. Og'iz bo'shlig'i. II. Halqum. III. Burun bo'shlig'i. IV. Bo'g'iz²⁹.



6-rasm. Boshning bo'ylama kesmasi. Yumshoq tanglay yuqori tomon siljigan.

Faol a'zolar: 1-lablar; 2-tilning old qismi; 3-tilning o'rta qismi; 4-tilning orqa qismi; 5-til o'zagi; 6-kichik til; 7-yumshoq tanglay; 8-halqumning orqa qismi.

Nofaol a'zolar: 9-old tomondagi yuqori tishlarning uchi; 10-old tomondagi yuqori tishlarning orqa qismi; 11-12-qattiq tanglayning old qismi; 13-tanglayning o'rta qismi; 14-yumshoq tanglayning old qismi; 15- yumshoq tanglayning orqa qismi.

²⁹ Jump up^ Clark, John; Yallop, Colin; Fletcher, Janet (2007). An Introduction to Phonetics and Phonology (3rd ed.). Massachusetts, USA; Oxford, UK; Victoria, Australia: Blackwell Publishing. ISBN 978-1-4051-3083-7. Retrieved 8 January 2011 Alternative ISBN 1-4051-3083-0

2. Nutq a'zolarining fiziologiyasi deyilganda shu a'zolarining hayotiy kyechimi, muhit bilan bo'ladigan munosabatlari nazarda tutiladi. Bunday kyechim bosh miya qobig'ining cho'zinchoq miya qismida joylashgan markaziy nerv sistemasi tomonidan boshqariladi. Bu sistema maxsus funksiyalarni bajaradigan nerv hujayralari to'plamidan iboratdir. Uning *brok markazi* deb nomlanuvchi turi nutqning yuzaga chiqishida qatnashadigan mushaklarni harakatga keltiradigan nerv markazi hisoblanadi. *Eshituv markazi* (sensorlar) nomli turi esa eshitish a'zolaridan keladigan ta'sirni idrok etadigan nerv markazi sanaladi. Bu markaz faoliyatini o'rganish fonetikaning perseptiv (eshitib his etish) aspekti deb ham qaraladi. Demak, til vositasida amalga oshiriladigan nutqiy aloqa bevosita shu markazlar ishtirokida yuz beradi.

3. Nutq a'zolarining ijro kyechimi - nutq a'zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi ishtiroki (harakati va holati). Bunday kyechim, yuqorida aytib o'tilganidek, nutq a'zolarining fiziologiyasi bilan bog'liqdir. Odatda, nutq a'zolarining harakati va holati artikulatsiyani shakllantiradi. Artikulatsiya esa har bir millat vakillarida psixologik va fiziologik ko'nikmalarga tayanadi. Bu holat o'sha millat tilining *artikulatsiya bazasi* hisoblanadi. Shuning uchun bir millat vakilida boshqa millat tiliga xos artikulatsiya bazasi (psixologik va fiziologik ko'nikmalar) bo'lmasligi mumkin. Demak, tillar bir-biridan artikulatsiya bazalaridagi ba'zi belgilari bilan o'zaro farq qiladi.

Har qanday nutq tovushining artikulatsiyasi uch bosqichdan tarkib topadi: birinchi bosqich-*ekskursiya* (hozirlanish), ikkinchi bosqich - o'rta holat (ish holati), uchinchi bosqich-*rekursiya* (talaffuzning qaytishi). Nutq jarayonida bu bosqichlarning chegarasi mavhumlashadi: odatda, bir tovushning artikulatsiyasi nihoyasiga yetmay, ikkinchi tovush ekskursiyasi boshlanadi, natijada tovushlar bir-biriga dinamik ravishda ulanib, ular orasidagi talaffuz chegaralari sezilmas holga keladi. Bunday chegaralarni yozuvda (harflar misolida) aniq sezish mumkin.

Izoh. 1) nafas apparati tovush hosil qilish uchun kerak bo'lgan havo oqimini yetkazib beradi; 2) bo'g'iz (hiqildoq) ovoz hosil qiladi; 3) halqum, og'iz bo'shlig'i tovushni shakllantiradi; 4) burun bo'shlig'i qo'shimcha ton beradi.

III. Eshitib his etish aspekti (perseptiv aspekt).

Fonetikaning bu aspekti fonetik birliklarning eshitish a'zolariga ta'sirini his etish orqali so'zning ma'nosini yoxud gap va nutq mazmunini idrok qilish qonuniyatlarini o'rganadi.

Ma'lumki, inson tashqi dunyoni o'zining sezgi a'zolari orqali his etadi: ko'radi, eshitadi, sezadi. Fonetik birliklar ham moddiy-material hodisa sifatida insonning eshitish a'zolariga ta'sir qiladi, ammo bu ta'sir shunchaki moddiy hodisaning ta'sirigina emas, balki fonetik so'zning (ma'noga ega bo'lgan formaning) yoxud gapning ta'siri bo'ladi. Shuning uchun har qanday so'zni, so'z shaklini yoki gapni eshitganimizda, ongimizda shu birliklarning ma'nosi yoki mazmuni, aniqrog'i, ma'no yoki mazmun obrazi gavdalanadi. Bunday his etish, idrok qilishsiz tilning birorta funksiyasi (nominativ funksiya, kommunikativ funksiya, emotiv funksiya va hokazolar) amalga oshirilmaydi.

IV. Lingvistik-funksional aspekt

Fonetikaning bu aspekti fonetik birliklarning til mexanizmidagi rolini, demak, tilning ijtimoiy mohiyatini belgilashdagi ahamiyatini o'rganadi. Tilshunoslikda fonetikaning bu aspekti *fonologiya* deb ataladi (qarang: Fonologiya).

Tekshirish savollari

1. Tovushning fizik-akustik tabiatiga nimalar kiradi?
2. Tovushning balandligi nima?
3. Tovushning balandligi nima bilan o'lchanadi?
4. Tovushning baland-past tarzda to'qinlanishi nimani hosil qiladi?
5. Melodika nima? Uning nutqda qanday ahamiyati bor?
6. Murakkab tovushni qanday tushunasiz?
7. Tovush kuchi nima? U qanday o'lchov birligi bilan olchanadi?
8. Tovush kuchining til va nutqda qanday ahamiyati bor?
9. Tovush tembrini qanday tushunasiz?
10. Formant nima? U qanday aniqlanadi?
11. Nutq apparatlaridan qaysilari rezonatorlik (akustik filtrlik) funksiyasini bajaradi?
12. Tovush tembri vositasida nimalar farqlanadi?
13. Tovush cho'ziqligi nima? Uning qanday turlari bor?
14. Fonologik va fonetik cho'ziqliklar nimasi bilan farqlanadi?
15. Tovushning sifat va miqdor belgilariga nimalar kiradi?
16. Fonetik birliklarning biologik asosini qanday tushunasiz? Fonetikaning qaysi aspektida "biologik asos" haqida ma'lumot beriladi?
17. "Biologik asos"ni o'rganishning qanday ahamiyati bor?
18. Nutq a'zolarining anatomiyasi, fiziologiyasi va ijro kyechimlarini qanday tushunasiz?
19. Artikulatsiya qanday bosqichlardan tarkib topadi? Ekskursiya, o'rta holat (ish holati), rekursiya nima?
20. Fonetikaning perseptiv aspekti nimani o'rganadi?
21. Fonetikaning lingvistik-funksional aspekti deganda nimani tushunasiz? Nima uchun bu aspekt fonologiya deb nomlanadi?

Tayanch tushunchalar

Tovushning fizik-akustik tabiati - tovushning balandligi, kuchi, tembri, cho'ziqligi, ularning eshitalish xususiyatlari.

Gers - tebranayotgan jismning (mas., un paychalarining) tinch holatdagi nuqtadan ikki (qarama-qarshi) tomonga bir marta borib kelishi. Ovozning past yoki balandligi gerslar miqdori bilan belgilanadi.

Infratovush - 16 gersdan kam chastotali tovush.

Ultratovush - 20000 gersdan ortiq chastotali tovush.

Tovushning balandligi - tovushning un paychalari tebranishi chastotasiga bog'liq sifati.

Tovushning kuchi - 1sm² maydondan 1 sekundda o'tadigan energiya miqdori. U detsibel bilan o'lchanadi.

Tovush tembri - tovushning asosiy ton (ovoz) va yordamchi tonlar (parsial

tonlar yoki obertonlar) qoshilmasidan tarkib topuvchi sifati.

Formantlar - tovush tembrini ifodalovchi va uning boshqa tovushlar tembridan farqini ko'rsatuvchi chastotalar.

Spektograf - tovush formantlarini aniqlovchi maxsus apparat.

Tovush cho'ziqligi - tebranishning oz yoki ko'p vaqt davom etishi.

Tovushning sifat belgilari - tovushning balandligi, kuchi (intensivligi), tembr.

Tovushning miqdor belgisi - tovushning cho'ziqligi.

Nafas apparati - havo manbai. Bu apparat o'pka, bronxlar, traxeya, diafragma, ko'krak qafasi kabi a'zolaridan iborat.

Bo'g'iz bo'shlig'i - traxeyaning yuqori (kengaygan) qismi. Unda un puychalar va bir qancha tog'aylar mavjud. Bo'g'iz bo'shlig'i ovoz manbai hisoblanadi (un puychalari tebranishidan ovoz hosil bo'ladi).

Halqum - bo'g'izdan yuqoriroqdagi bo'shliq. U rezonatorlik vazifasini bajaradi.

Og'iz bo'shlig'i - til, kichik til, tishlar, lablar, lunjlar, qattiq va yumshoq tanglaylar, til osti muskullaridan iborat apparat. U shovqin va qo'shimcha tonlar manbai sanaladi.

Burun bo'shlig'i - qo'shimcha ton manbai.

Nutq a'zolarining fiziologiyasi - nutq a'zolarining hayotiy kyechimlari, muhit bilan munosabatlari.

Brok markazi - bosh miya qobig'idagi markaziy nerv sistemasiga kiruvchi nerv xujayralarining bir turi. U nutqning yuzaga chiqishida qatnashadigan mushaklarni harakatga keltiradigan nerv markazi hisoblanadi.

Eshituv markazi - bosh miya qobig'i tizimiga kiruvchi nerv xujayralarining yana bir turi. U eshitish a'zolaridan keladigan ta'sirni idrok etadigan nerv markazi sanaladi.

Artikulatsiya - nutq a'zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi harakati va holati.

Artikulatsiya bazasi - til egalarida shu tilga xos artikulatsiyani amalga oshirish uchun shakllangan psixologik va fiziologik ko'nikmalar.

Ekskursiya - artikulatsiyaning birinchi bosqichi.

O'rta holat (ish holati) - artikulatsiyaning ikkinchi bosqichi.

Rekursiya - artikulatsiyaning uchinchi bosqichi (talaffuzning qaytishi).

Perseptiv aspekt - fonetikaning eshitish va his etish bilan bog'liq jarayonlarini o'rganuvchi aspekti.

Lingvistik-funksional aspekt - fonetikaning yuqori bosqichi. U fonetik birliklarning til mexanizmidagi rolini, demak, ijtimoiy mohiyatini o'rganadi.

1. Fonologiyaning fan sifatidagi ta'rifi

Fonologiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning tovush materiyasi taraqqiyotini va shu materiyaning fonologik sistemaga uyushish qonuniyatlarini hamda tildagi vazifalarini tadqiq qiladi.

Fonologiyaning o'ziga xos jihati shundaki, u o'z obyektini semiologik aspektida (semantik darajadagi birliklarni farqlovchi belgilar tizimi sifatida) o'rganadi.

Tilshunoslikda fonologiya ikki turga – segmental fonologiya va supersegmental fonologiyaga ajratiladi.

1. Segmental fonologiya tilning segment fonemalari bilan shug'ullanadi, shunga ko'ra u fonemika (yoki fonematika) deb ham ataladi.

I z o h: fonemalar so'z tarkibida birin-ketin joylashadi, o'zaro zanjirsimon ulanib keladi, ayni shu xususiyat fonemalarning segment birliklar ekanligini belgilaydi. Masalan, a+ t+ l+ a+ s > atlas, k +a+ t+ t+ a > katta kabi.

2. Supersegmental fonologiya tilning supersegment birliklari- sillabema, aksentema va intonema masalalari bilan shug'ullanadi, shunga ko'ra u prosodiya (yoki prosodika) deb ham yuritiladi.

I z o h: supersegment birliklar til va nutqda ustama hodisa sifatida ishtirok etadi. Masalan, *aksentema* (so'z urg'usi, sintagma urg'usi, ayiruv urg'usi) yoki *intonema* (ohang, uning turlari, prosodik elementlari) shu xususiyatga ega: *yangi* (sifat: "yangi xabar") – *yangi* (ravish: "yangi kelib ketdi") kabi. Bu ikki so'zning ma'nolarini farqlashda so'z urg'usi ustama hodisa (supersegment fonem) sifatida ishtirok etgan. Intonema, uning prosodik elementlari (ton balandligi, cho'ziqligi, kuchi, temp, tembr va boshqalar) esa gapning ifoda maqsadiga yoki emotsionallikka ko'ra turlarini faqlashda ustama hodisa (supersegment fonema yoki supersegment morfema) sifatida qatnashadi.

III. Fonologiyaning fan sifatida yuzaga kelishi (tarixiy obzor)

Tilning tovush sistemasini o'rganish tarixini ikki davrga bo'lish mumkin:

1) «fonema» tushunchasi paydo bo'lganga qadar bo'lgan davr: bu davrda tovush va fonema aniq farqlanmagan, hattoki tovush bilan harf qorishtirilgan (IV asrda yashagan Prissiananing grammatikasida harfga oid terminlar tovushga nisbatan qo'llangan, taniqli tilshunos Mahmud Koshg'ariyning XI asrda yaratilgan «Devonu lug'otit turk» asarida, Yakob Grimmning 1819-yilda yozilgan «Deutsche Grammatik» kitobida ham shu holat kuzatiladi);

2) XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrda fonema nazariyalarining yuzaga kelish davri («fonema» tushunchasini birinchi bo'lib taklif etganlar qatorida Boduen de Kurtene, N.V. Krushevskiy, fransuz olimi P. Passi, ingliz tilshunosi G. Suit,

³⁰ Gussenhoven, Carlos & Jacobs, Haïke. "Understanding Phonology", Hodder & Arnold, 1998. 2nd edition 2005.

shveysariyalik tilshunos F. de Sossyur, rus tilshunosi P. Uslarning nomlari bor. Bu atamani turkologiyada birinchi bo'lib N.K. Dmitriev, o'zbek tilshunosligida esa Y. D. Polivanov, keyinroq esa Ulug' Tursunov (1934 yilda) va Qayum Ramazon (1935 yilda) qo'llagan.

IV. Fonema va fonemika³¹

1. **Fonema** so'zlar yoki morfemalarni tarkib toptiruvchi va ularning tovush qobog'ini farqlash orqali ma'nolarini tafovutlash vazifasini bajaradigan eng kichik segment birlikdir. *Masalan*, bur va bo'r (so'zlarni tarkib toptiruvchi *segment birliklar* – b,u,r va b,o',r), “-man” va “-san”(mofemalarni tarkib toptiruvchi segment birliklar: m,a,n va s,a,n) kabi.

2. **Fonemika** –fonlarning fonemalarga birlashuvini o'rganadigan fan. U *segmental fonologiya* deb ham ataladi. *Masalan*, kúl so'zidagi old qator (ingichka) “ú” va qul so'zidagi orqa qator (yo'g'on) “u” tovushlarining har biri alohida fonlardir, ammo bu ikki fon bitta “u” fonemasiga birlashadi va shu fonemaning allofonlari sanaladi. Biroq, “kúl” va “køl”so'zlaridagi old qator “ú” va “ø”lar, “qul” va “qol” so'zlaridagi orqa qator “u” va “o”lar bitta fonemaning allofonlari emas, balki alohida fonemalarning allofonlaridir. Ular yuqoridagi zo'zlar tarkibida “u” va “o” fonemalarining vakillari sifatida qatnashgan. Bunday hodisalarni farqlay bilish uchun fonemalarning differensial va integral belgilari, fonologik oppozitsiya va korrelatsiya, fonema ottenkalari, ularning turlari haqida tasavvurga ega bo'lish talab qilinadi.

V. Fonemalarning differensial (farqlanadigan) va integral (farqlanmaydigan) belgilari:

1) *fonemalarning differensial belgilari* ularni bir-biridan faqlash uchun xizmat qiladi. *Masalan*, “k” undoshi o'zining jarangsizligi bilan jarangli “g”dan ajralib turadi, demak, “k”ning jarangsizligi va “g”ning esa jarangliligi bu ikki fonemaning differensial (farqlanadigan) belgilari sanaladi. Differensial belgilar fonemalarning fonologik xususiyatga ega bo'lishini ta'minlaydi – so'zlarning fonetik qobigini va ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladi: kul va gul so'zlarining ma'nolari ayni shu ikki fonemaning (“k” va “g”larning) differensial belgilari – birining jarangsiz, ikkinchisining esa jarangli ekanligi tufayli farqlanmoqda.

Differensial belgilar fonemalar artikulyatsiyasiga bogliq bo'lishi ham mumkin: “b”- lab-lab undoshi, “d”-til-tish (til oldi-dental) undoshi. Artikulyatsiya o'rnidagi bu tafovutlar bor va dor sozlarining fonetik tarkibini va ma'nolarini farqlamoqda; “q”-portlovchi undosh, “x”-sirg'aluvchi undosh. Artikulyatsiya usulidagi bu tafovutlar qol va xol sozlarining tovush tarkibi va ma'nolarini farqlash imkonini yaratmoqda. Shuning uchun differensial belgilar fonologik relevant yoki semiologik relevant belgilar sanaladi;

2) *fonemalarning integral belgilari* ularning o'zaro farqlanmaydigan alomatlaridir. *Masalan*, yuqorida keltirilgan “k” va “g” undoshlarining har ikkalasi

³¹ Gussenhoven, Carlos & Jacobs, Haïke. "Understanding Phonology", Hodder & Arnold, 1998. 2nd edition 2005.

portlovchi, har ikkalasi sayoz til orqa fonemalardir. Demak, bu ikki fonema artikulasiya usuli va artikulasiya o'rniga ko'ra farqlanmaydi. Shunga ko'ra, integral belgilar fonologik norelevant yoki semiologik norelevant belgilar hisoblanadi.

Fonemalarning integral va differensial belgilari unli fonemalarda ham mavjuddir. Buni «u» va «o'» unilari misolida ko'rib o'taylik:

a) *lablar ishtirokiga ko'ra* «u» va «o'» unilarining har ikkalasi lablashgandir (lablanish shu ikki fonema uchun integral belgi sanaladi);

b) *tilning gorizontal (yotiq) harakatiga ko'ra* «u» va «o'» unilarining har ikkalasi orqa qatoridir (demak, "orqa qator" belgisi bu ikki unli uchun "integral belgi" sanaladi);

d) *tilning uch darajali ko'tarilish belgisiga (vertikal harakatiga) ko'ra*: «u»-yuqori tor unli, «o'»-orta keng unli, demak, bu ikki unlining mazkur belgilari o'zaro farqlidir (differensial belgilar).

I z o h: hozirgi o'bek adabiy tili vokalizmida unilarning *lablanish-lablanmaslik belgilari va tilning uch darajali ko'tarilishiga (vertikal harakatiga) gorizontal (yotiq) harakatiga asoslangan belgilari* esa o'zicha fonologik rol o'ynamaydi, chunki unilarning *old qator* yoki *orqa qator* bo'lishi lablarning ishtirokiga yoxud turli kombinator omillar ta'siriga bog'liq: lablanmaslik tilning tish tomon siljishini, lablanish esa tilning tishdan orqaga tortilishini taqozo qiladi. Demak, old qator (i, e, a) va orqa qator (u, o', o) unilarining fonologik xususiyati lablar ishtirokisiz namoyon bo'lmaydi { bu haqda qarang: A-1(47-bet); A-4(52-bet); A-5(53-b.); A-7(109-bet); A-13(15-bet); }

Xulosa

1) fonemalar til mexanizmida muhim ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan mustaqil birliklardir: ular so'z va morfemalarning tovush qobig'ini (ifoda jihatini) farqlash bilan birga, shu so'z va morfemalarning ma'nolarini farqlash vazifasini ham bajaradi; 2) fonemalarda differensial (farqlanadigan) va integral (farqlanmaydigan) belgilar mavjud bo'lib, ulardan *birinchisi (differensial belgi)* fonologik jihatdan relevant belgi, *ikkinchisi (integral belgi)* esa fonologik jihatdan norelevant belgi hisoblanadi; 3) ikki fonemaning qarama-qarshi qo'yilayotgan differensial belgilari shu fonemalarni bitta oppozitsiyaga birlashtiradi, bir farqlanish belgisiga asoslangan ikki va undan ortiq oppozitsiyalar esa korrelatsiyalarga uyushadi. Demak, oppozitsiyalardagi farqlovchi belgilar korrelatsiyada birlashtiruvchi belgiga aylanadi, bunda oppozitsiya sistemaning quyi pog'onasi (yadrosi), korrelatsiya esa uning yuqori pog'onasi bo'ladi.

Eslatma: tilning fonologik tizimida korrelatsiya hodisasi borligini aniqlagan olimlardan biri (ehtimol, birinchisi) bizning yurtdoshimiz Abu Ali ibn Sino bo'lgan. U o'zining fonetikaga doir bir risolasida "dol" "to"ga qanday munosabatda bo'lsa, "zod" "sin"ga shunday munosabatda bo'ladi," - degan edi. Qiyos qiling: "dol" (jarangli "d") - "to" (jarangsiz "t"), "zod" (jarangli "z") - "sin" (jarangsiz "s"). Bunda jaranglilik va jarangsizlik belgilariga asoslangan d-t, z-s oppozitsiyalarining bir korrelatsiyaga uyushayotganligi nazarda tutilganligi shubhasiz.

O'zaro zidlanishda (oppozitsiyada) bo'lgan fonemalardan birini ikkinchisi bilan almashtirish qonuniyatiga oid ayrim ma'lumotlar Z.M. Boburning "Boburnoma"

unda ham qayd etilgan. Unda, xususan, shunday deyilgan: «Soʻngra maʼlum boʻldikim, turki lafzida mahal iqtizosi bila to va dol, yana gʻayn va qof va kof birlari bila mubaddal; boʻlurlar emish» (Boburnoma // Bobur. Asarlar. Uch jildlik, 2-jild.- Toshkent, 1965, 145-bet).

Mavzu boyicha tekshirish savollari

1. Fonema nima?
2. Fonemalarning differensial va integral belgilarini qanday tushunasiz? Bu belgilarning tilda qanday roli bor?
3. Fonologik oppozitsiya (zidlanish) nima? Korrelyatsiya-chi?
4. Korrelatsiyaning yadrosini nima tashkil qiladi?
5. Korrelatsiya hodisasini dastlab kim aniqlagan?
6. Oʻzbek tili konsonantizmida korrelatsiyaning qanday turlari bor?
7. Oʻzbek tili vokalizmida korrelatsiyaning qanday turlari mavjud?
8. Vokalizm sistemasining shakllanishida tilning koʻtarilishi, tilning yotiq harakati va lablarning ishtiroki qanday rol oʻynaydi? Ulardan qaysilari unli fonemalarning fonologik belgilarini shakllantiradi?
9. Fonema ottenkalari va fonema qatori nima?
10. Fonema ottenkalari haqidagi tushunchaga kim asos solgan?
11. Fonema ottenkalaridan birining oʻrnida ikkinchisini qoʻllab boʻladimi?
12. Fonemalarning variatsiya va variantlari qanday farqlanadi?
13. Fonemalarning moʻtadillashuvi (neytrallashuvi) va arxifonema (giperfonema) tushunchalarini qanday izohlaysiz?

Tayanch tushunchalar

Fonema – soʻzlar, morfemalar va grammatik shakllarning tovush qobigʻini, binobarin, maʼnolarini ham farqlash uchun xizmat qiladigan eng kichik segment birlik.

Fonemalarning differensial belgilari - oʻzaro qarama-qarshi qoʻyilayotgan ikki fonemaning farqlanadigan belgilari.

Fonemalarning integral belgilari - oʻzaro qarama-qarshi qoʻyilayotgan ikki fonemaning farqlanmaydigan belgilari.

Fonologik oppozitsiya - differensial belgilar asosida ikki fonemaning bir-biriga qarama-qarshi qoʻyilishi (fonologik zidlanish).

Gradual oppozitsiya - pogʻonali zidlanish.

Korrelatsiya - bir farqlanish belgisi asosida tarkib topgan ikki va undan ortiq oppozitsiyalar qatori.

Artikulatsiya oʻrni - talaffuzda ishtirok etuvchi asosiy nutq aʼzosi yoki shu aʼzoning faol ishtirok etayotgan qismi.

Artikulatsiya usuli – nutq aʼzolari hosil qilgan toʻsiqdan havo oqimining portlab, sirgʻalib yoki titrab oʻtishi.

Jaranglilik-jarangsizlik belgilariga asoslangan oppozitsiyalar - undosh tovushlarning jaranglilik va jarangsizlik belgilari asosida zidlanish hosil qilishi.

Lablanish va lablanmaslik oppozitsiyasi - unli fonemalarning lablar

ishtirokiga ko'ra zidlanishi.

Tilning uch darajali ko'tarilishi - unli fonemalarning hosil bo'lishida tilning tanglay tomon ko'tarilish darajasi: quyi ko'tarilish, o'rta ko'tarilish, yuqori ko'tarilish kabi.

Fonema ottenkalari - fonemalarning talaffuzdagi real ko'rinishlari.

Kombinator ottenka - fonemaning so'z tarkibidagi tovushlar ta'sirida yuzaga kelgan ko'rinishi.

Pozitsion ottenka - fonemaning so'z yoki bo'g'indagi pozitsiya talabiga moslashgan ko'rinishi.

Variatsiya - fonema ottenkasining Moskva fonologlari maktabiga qabul qilingan nomi.

Transkripsiya - fonemalarning turli ottenkalarini, shuningdek, lahja va shevalarga xos fonetik xususiyatlarni yozuvda aniq ifodalash uchun shakllantirilgan maxsus grafik belgilar tizimi.

Uyga vazifa

- 1). 4-mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish.
- 2). Q-3 [16- va 17-topshiriqlar, 17-22-betlarda]

Asosiy adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'zME, 2013.

2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.

4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Т., 1994.

2. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2009.

3. Mirtojdiyev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.

4. Nazarov K., Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. (Punktuatsiya). Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.

5. Ne'matov H, Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.

6. Ne'matov H, Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.

7. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. Oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.

8. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –Т. 2006.

9. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti Toshkent-2010.

10. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Т., 1992

4-MODUL. FONEMALAR PARADIGMASI VA FONOLOGIK ZIDDIYATLAR

Reja

1. Fonemalar paradigmasi.
2. Unli fonemalar paradigmasi.
3. Undosh fonemalar paradigmasi.
4. Fonologik ziddiyatlar.
5. Korrelatsiya

Tayanch tushunchalar: fonemalar paradigmasi, unli fonemalar paradigmasi, undosh fonemalar paradigmasi, onologik ziddiyatlar, korrelatsiya, fonologik paradigmatika va fonologik sintagmatika, fonologik zidlanish, , pozitsiya, oppozitsiya.

1. Fonemalar paradigmasi

Boshqa lisoniy birlik kabi fonema ham paradigmatic va sintagmatic munosabatda yashaydi. Bu *fonologik paradigmatika* va *fonologik sintagmatika* deyiladi.

O‘zaro qarama-qarshi belgiga ega bo‘lgan, biroq umumiy, integral belgilari asosida birlashgan bir tipdagi fonemalar sirasi *fonologik paradigma*, fonemalarning o‘zaro munosabati *fonologik paradigmatic munosabat* deyiladi.

Fonologik paradigmaning markazida fonologik ziddiyat turadi. Fonologik ziddiyat (opozitsiya) fonemaning farqli belgilarini o‘zida ifodalaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi unli fonemalar bir umumiy belgi – «o‘pkadan kelayotgan havoning tovush paychalariga urilish natijasida hosil bo‘lgan ovozning og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchramay chiqishidan vujudga keladigan tovush tipi» invariant xossasiga ega. Bu mohiyat 6 ta unli fonema uchun ham amal qiladi. Biroq bu mohiyat ostida birlashgan fonemalar o‘zaro zidlanib, kichik guruhlar hosil qiladi. [i] va [u] «yuqori tor» belgisi bilan «o‘rta keng» xossasiga ega [e] va [o] hamda «quyi keng» xossasiga ega [a] va [o] fonemalar guruhlariga qarama-qarshi turadi. Yoki «lablanmagan» belgisiga ega [i], [e], [a] fonemalari guruhi «lablangan» belgisiga ega [u], [o], [o] guruhiga qarama-qarshi turadi. O‘z navbatida [i], [e], [e] guruhi a‘zolari o‘ziga xos belgilari asosida o‘zaro zidlanadi.

Tilshunoslikda fonologik ziddiyatning har xil tur va ko‘rinishlari farqlanadi. N.S.Trubetskoy «Fonologiya asoslari» asarida fonologik ziddiyatni uch asosga ko‘ra tasniflaydi:


1. Fonologik ziddiyatning ziddiyat tizimiga munosabatiga ko‘ra tasnifi. Bunda ziddiyat bir o‘lchovli va ko‘p o‘lchovli, muntazam va ajralgan ziddiyatga bo‘linadi. Bir o‘lchovli ziddiyatda fonemalar bir belgi asosida zidlanadi. Masalan, [i] va [u] fonemalaridan biri lablanmagan va ikkinchisi lablangan bo‘lib, bunda ular bir belgi – «lablangan»lik xossasiga ko‘ra qarama-qarshi turadi.

Ko‘p o‘lchovli ziddiyatda ziddiyat a‘zolari birdan ortiq belgi asosida qarama-qarshi qo‘yiladi: [i]~[o] ziddiyatida [i] yopiq va lablanmagan bo‘lsa, [o] yarim yopiq, lablangan.

Muntazam ziddiyatda zidlanuvchi a‘zolar o‘zaro o‘ziga xos belgilar asosida

qarama-qarshi qo'yiladi: «[i]-tor~ [o]-keng» zidlanishi muntazam zidlanish. Bunda [i] fonemasi «tor»lik, [o] fonemasi «keng»lik belgisiga ega. «[i] (tor)~[o] (tor emas)» zidlanishi esa muntazam emas. Chunki birinchi a'zoda ziddiyat belgisi aniq, ikkinchi a'zoda aniq emas. Agar ikkinchi a'zoning ziddiyatdagi belgisi «keng» bo'lganda edi, ziddiyatni muntazam ziddiyat deyish mumkin bo'lur edi.

Bir belgining bo'linishlari asosida zidlanish ajralgan zidlanish deyiladi. Quyidagi ikki zidlanishga diqqat qiling:



Birinchi zidlanishda ziddiyat belgisi bo'lingan, ajralgan, ikkinchida esa bunday hol mavjud emas.

2. A'zolari o'rtasidagi munosabatga ko'ra ziddiyat tasnifi. Bunga ko'ra, privativ (noto'liq), gradual (darajali), teng qiymatli ziddiyatlar ajratiladi.

Birinchi tasnifda ziddiyat belgisi xarakteriga ko'ra ziddiyat turlari ajratilgan bo'lsa, ikkinchi tasnifda fonemalarning ziddiyat a'zolariga munosabatiga ko'ra tasnifi amalga oshiriladi.

3. Barqarorlik darajasiga ko'ra zidlanish barqaror va barqaror bo'lmagan turga bo'linadi. Barqaror zidlanishda fonemalar qanday nutqiy vaziyatda bo'lishidan qat'i nazar, ulardagi ziddiyat saqlanib qoladi. Masalan, til oldi unlisi til orqa undoshi bilan kelgan vaziyatda til orqa unlisi sifatida namoyon bo'ladi. Bunda [a] unlisi bilan til orqa [u] unlisi orasidagi ziddiyat kuchsizlanadi.

Barqaror bo'lmagan ziddiyatning neytrallashtirmagan holatini ta'minlovchi fonetik pozitsiya – kuchli pozitsiya. Masalan, [b] fonemasi so'z boshida jarangsizlashmaydi va bu pozitsiyada uning [p] fonemasiga zidligi saqlanadi. Bu kuchli pozitsiyadir. Neytrallanish, so'nishga olib keluvchi pozitsiya kuchsiz pozitsiyadir. Demak, bunday pozitsiyadagi ziddiyat barqaror bo'lmagan ziddiyat deyiladi. Unli va undosh orasidagi qarama-qarshilik barqaror ziddiyatga misol bo'la oladi. Yoki undoshning paydo bo'lish o'rniga ko'ra, unli larning tor-kenglik xossalariga ko'ra zidlanishi ham barqaror ziddiyat. Lablanish belgisiga ko'ra [o]~[e] tizimchasi ham barqaror ziddiyat asosiga qurilgan.

Demak, o'zbek tilining fonetik paradigmasi deganda, har qaysisi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan barqaror bir umumiy belgi ostida birlashadigan fonetik unsurlardan tashkil topgan tizim tushuniladi. Bu butunlik yoki paradigma o'z ichida ayrim belgilari bilan umumiylikni tashkil etgan va shu umumiylik uchun asos bo'lgan belgilari bilan boshqa shunday umumiylikdan farq qiladigan kichik butunlik, ichki paradigmalardan tashkil topadi. Bu tizimchalar unli va undosh fonemalar paradigmalari. Paradigma a'zolarining umumiy belgisi ularning shu tizimni tashkil etishini ta'minlasa, farqlovchi belgisi bu ichki paradigmaning yana kichik bo'laklarga bo'linib ketishiga olib keladi. Jarangli undoshlar paradigmasi, jarangsiz undoshlar paradigmasi kabi.

2. Unli fonemalar paradigmasi

Tilning ko‘tarilish darajasi (yuqori, o‘rta, quyi) va lablanish- lablanmaslik – kuchli pozitsiyadagi unli fonemalarning asosiy, sistema hosil qiluvchi belgisi. Unlilarning til gorizontol holatiga ko‘ra (old qator, o‘rta qator va orqa qator) belgilari asosiy hisoblanmaydi. Chunki bu belgilar ularga nutqiy yondosh tovush ta‘sirida o‘zgarib turadi. Masalan, [q] undoshi bilan qo‘shnichilik munosabatida [a] unlisi til orqalik xossasiga ega bo‘lsa, [k] undoshi qurshovida o‘z holatini saqlaydi.

Unli fonemalarning asosiy belgilariga ko‘ra tasnifi quyidagicha (15-jadval):

15-jadval

Unli fonemalar	Asosiy belgilari				
	Tilning ko‘tarilish darajasi			Lablanish belgisi bor-yo‘qligi	
	Yuqori	O‘rt a	Quyi	Lablangan	Lablanmagan
[i]	+				+
[u]	+			+	
[o‘]		+		+	
[o]			+	+	
[e]		+			+
[a]			+		+

Jadvaldan ko‘rinadiki, tilning ko‘tarilish darajasiga ko‘ra unli fonemalar uch pog‘onali, lablanish belgisiga ko‘ra ikki pog‘onali sistemani hosil qiladi.

Unli fonema yaxlit tizimni tashkil etib, bu tizim ham o‘z navbatida tizimchalarga bo‘linadi. [i] va [u] fonemalari «yuqori tor» belgisi ostida birlashib, bunday belgiga ega bo‘lmagan fonemalardan ajraladi. Biroq [i] va [u] kichik paradigmasi a‘zolari farqlovchi belgilari ([i]-lablanmaganlik va [u]-lablanganlik belgilari) asosida o‘z mustaqilliklarini saqlab qoladi va ziddiyatda turadi. [e]-[o‘] tizimchasi «o‘rta keng» belgisiga ko‘ra [i]-[u] tizimchasidan ham, [e]-[o] tizimchasidan ham farqlanadi.

Demak, unli fonemaning har biri ikki belgidan iborat:

[i]-yuqori, lablanmagan

[u]-yuqori, lablangan

[e]-o‘rta, lablanmagan

[o‘]-o‘rta, lablangan

[a]-quyi, lablanmagan

[o]-quyi, lablangan.

Tilning ko‘tarilish darajasi birlashtiruvchi belgi bo‘lganda (masalan, [i], [u] unlilari «torlik» belgisi ostida birlashadi) lablanganlik-lablanmaganlik farqlovchi belgi sanaladi: (i)-lablanmagan, [u]-lablangan. «Lablanganlik» birlashtiruvchi belgi bo‘lganda, tilning ko‘tarilish darajasi farqlovchi belgi sanaladi. Masalan, [i], [e], [a] unlilari «lablanmaganlik» umumiy birlashtiruvchi belgisiga ega, biroq «yuqori» ([i]), «o‘rta» ([e]), «quyi» ([a]) lik belgilari bu fonemalarning farqlovchi belgilari sanaladi.

Ma‘lum bo‘ladiki, o‘zbek tilida unli fonemalar bir belgi asosida uch (tor, o‘rta, keng) va ikki a‘zoli ziddiyatni (lablangan, lablanmagan), ikki belgi («tilning

ko'tarilish darajasi» va «lablanganlik-lablanmaganlik») asosida olti a'zoli ziddiyatni hosil qiladi.

3. Undosh fonemalar paradigmasi

Kuchli ziddiyatdagi undosh fonemalarni farqlovchi asosiy belgi quyidagilarni hisoblanadi:

- a) hosil bo'lish o'rniga ko'ra;
- b) hosil bo'lish usuliga ko'ra;
- d) ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra.

Hozirgi o'zbek tilida 24 ta undosh fonema bo'lib, ularni yuqorida sanab o'tilgan belgilari bilan quyidagicha ko'rsatish mumkin: (2-jadvalga qarang).

Boshqa sath birliklarida bo'lgani kabi, fonemalarning asosiy belgilari korrelyativ va korrelyativ bo'lmaganlarga ajraladi. Ziddiyatda turgan fonemaning birida bor, ammo ikkinchisida mavjud bo'lmagan belgi – *korrelyativ belgi*. Masalan, [b]-[p] zidlanishda jarangli-jarangsizlik korrelyativ belgidir. Ammo til oldi va portlovchilik belgisi har ikkala fonema uchun ham xos bo'lganligi sababli korrelyativ bo'lmagan belgi deyiladi. Shuningdek, [h] undoshda jarangsizlik belgisi mavjud. Ammo shu belgi asosida uni boshqa fonema bilan zid qo'yib bo'lmaydi. Chunki [p] fonemasining jarangli jufti [b] fonemasi. [h] fonemasining esa jarangli jufti o'zbek tili fonologik tizimida mavjud emas.

O'zbek tilidagi 8 ta fonema uchun «jarangli-jarangsizlik» korrelyativ belgi hisoblanadi:

[b]-[p], [d]-[t], [k]-[g], [s]-[z], [j]-[ch], [j]-[sh], [g]-[q], [v]-[f]

«Jarangli-jarangsizlik» belgisi asosida korrelyativ munosabatga kirishmaydigan fonemalarning jarangli yoki jarangsiz jufti bo'lmaydi. Masalan: [s], [l], [m], [y], [x], [h], [n], [r], [ng].

Undosh fonemalar tizimini jadvalda quyidagicha berish mumkin (16-jadval):

6-jadval

		FONEMALAR																							
		p	b	f	v	T	d	s	z	Ch	j	sh	j	k	g	g'	q	x	h	m	n	ng	Y	l	r
Shovqinli	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+					+		
																				+	+	+		+	+
Jarangli		+		+		+		+		+		+		+	+	+				+	+	+	+	+	+
		p	b	f	v	T	d	s	z	Ch	j	sh	j	k	g	g'	q	x	h	m	n	ng	Y	l	r
Jarangsiz	+		+		+		+		+		+		+				+	+	+						

a) «lab-lab - til oldi»: [p]-[t]; [b]-[d]; [m]-[n]; [ʃ]-[s]; [v]-[z]; [ʃ]-[sh]; [v]-[l]; [v]-[r];

b) «lab-lab - til o'rtta»: [ʃ]-[y]; [v]-[y];

d) «lab-lab - til orqa»: [p]-[k]; [b]-[k]; [ʃ]-[x]; [v]-[g];

e) «lab-lab - bo'g'iz»: [ʃ]-[h]; [v]-[h];

f) «til oldi - til orqa»: [t]-[k]; [t]-[q]; [d]-[g]; [s]-[x]; [z]-[g]; [n]-[g].

Hosil bo'lish usuliga ko'ra undosh fonemalar quyidagi ziddiyatli munosabatda bo'ladi:

a) «portlovchi-sirg'aluvchi»: [p]-[ʃ]; [b]-[v]; [t]-[s]; [d]-[z]; [t]-[sh]; [k]-[x].

Ayrim fonemalar affrikat fonemalar bilan teng qiymatli ziddiyatda bo'ladi: [t]-[ng], [d]-[dj].

Sirg'aluvchi fonemalar ham affrikat fonemalar bilan teng qiymatli ziddiyat hosil qiladi: [sh]-[ch], [ʃ]-[dj].

Yana quyidagi ziddiyatli juftliklar mavjud:

a) «portlovchi-shovqinli – burun sonanti»: [b]-[m] [d]-[n] [g]-[n];

b) «sirg'aluvchi – sonant»: [z]-[l]; [ʃ]-[r];

d) «shovqinli sonant-burun sonant»: [l]-[n]; [r]-[n];

e) «yon sonant-titroq sonant»: [l]-[r];

f) «titroq sonant -til o'rtta sonant»: [ʃ]-[y].

4. Fonologik zidlanish, uning turlari. Pozitsiya, oppozitsiya va fonemalar o'rtasidagi aloqadorlik³²

FONOLOGIK OPPOZITSIYA ikki fonemaning bitta (ba'zan bir necha) farqlanish belgisi asosida o'zaro zidlanishidir. Shuning uchun «oppozitsiya» tushunchasi o'zbek tilshunosligida «zidlanish» deb ham yuritiladi. Masalan, “p” (jarangsiz) va “b” (jarangli) undoshlari «jarangsiz-jarangli»lik farqlanish belgisi asosida bir oppozitsiyaga (zidlanishga) birlashadi: p – b kabi. Bu ikki fonemaning boshqa belgilari farqlanmaydi: p (lab-lab) -b (lab-lab), p (portlovchi) -b (portlovchi) kabi. Demak, undosh fonemalarga xos bo'lgan uchta fonologik belgidan (artikulatsiya o'rni, artikulatsiya usuli va jaranglilik–jarangsizlik belgilaridan) faqat bittasi (so'nggisi) p – b oppozitsiyasiga asos bo'lgan. Shuning uchun u «birlik oppozitsiya» sanaladi. (Qarang: A-1, 21-bet).

Prof. A. Abduazizovning ta'kidlashicha, hozirgi o'zbek adabiy tili konsonantizmi tarkibida quyidagi birlik oppozitsiyalar bor:

1. *Talaffuzda ishtirok etuvchi asosiy nutq a'zosi va tovushning hosil bo'lish o'rniga ko'ra:*

a) labial-til oldi (dental, alveolar) undoshlar oppozitsiyalari: p-t, b-d (portlovchilar), m-n (burun sonantlari), f-s, v-z, f-sh, v-l (sirg'aluvchilar), v-l, v-r (labial sirg'aluvchi – til oldi sonant. Bunda v, l, r fonemalari sonorlar sifatida

³² Jump up^ Carr, Philip (2003). English Phonetics and Phonology: An Introduction. Massachusetts, USA; Oxford, UK; Victoria, Australia; Berlin, Germany: Blackwell Publishing. ISBN 0-631-19775-3. Retrieved 8 January 2011 Paperback ISBN 0-631-19776-1

qoʻlalgan, aks holda ular ikkitalik oppozitshiya tashkil etishi mumkin);

b) labial-til oʻrta farqlanish elementlari boʻyicha faqat ikkita birlik oppozitsiyasi mavjud: f-y, v-y;

v) labial-til orqa undoshlari oppozitsiyalari: p-k, b-g (portlovchilar), f-x, v-gʻ (sirgʻaluvchilar);

g) labial-boʻgʻiz undoshlari oppozitsiyalari: f-h, v-h. Bunda "h" ning jarangli yoki jarangsiz ekanligi eʼtiborga olinmagan, chunki bu xususiyat eksperimental jihatdan aniqlanmagan...

d) til oldi-til orqa undoshlari oppozitsiyalari: t-k, t-q, d-g (portlovchilar), s-x, z-gʻ (sirgʻaluvchilar), n-ng (burun sonantlari). Bunda ng faqat soʻz oxirida kelganda sonantlik elementi boʻlib, soʻz oʻrtasida kelganda, boʻgʻin chegarasi uning elementini oʻziga boʻlib, n-g, yaʼni ikki fonema birikmasiga aylantirishi nazarga olinadi);

e) til oldi-boʻgʻiz undoshlari oppozitsiyalari: s-h, z-h, sh-h, j-h (sirgʻaluvchilar), ch-h, dj-h (til oldi affrikata va boʻgʻiz sirgʻaluvchisi). Bunda ch-h va dj-h qoʻllanishlari "ikkilik oppozitsiyalar boʻladi", chunki ularda "til oldi-boʻgʻiz undoshi" belgisidan tashqari, ikkinchi differensial belgi ham bor: ch (qorishiq portlovchi) -h (sirgʻaluvchi), dj (qorishiq portlovchi)- h (sirgʻaluvchi) kabi.

2. Artikulatsiya usuli va toʻsiqning qanday hosil boʻlishiga koʻra:

a) portlovchi-sirgʻaluvchi undoshlar oppozitsiyalari: p-f, b-v (labial undoshlar), t-d, d-z, t-sh, d-j (til oldi undoshlari), k-x, g-gʻ, q-x (til orqa undoshlari), k-h, g-h (til orqa va boʻiz undoshlari);

b) portlovchi-affrikatalar oppozitsiyalari: t-ch, d-dj (til oldi undoshlar);

v) sirgʻaluvchi-affrikatalar oppozitsiyalari: sh-ch, j-dj (til oʻrta undoshlari);

g) portlovchi-burun sonanti oppozitsiyalari: b-m (labial undoshlar), d-n (til oldi undoshlari), g-ng (til orqa undoshlari);

d) sirgʻaluvchi-sonantlar oppozitsiyalari: z-l, j-r;

e) shovqinli sonant-burun sonanti oppozitsiyalari: v-m, l-n, r-n;

j) yon sonant-titroq sonant oppozitsiyasi: l-r (yakkalangan oppozitsiya).

3. Jarangsizlik-jaranglilik belgilariga koʻra: (p-b), (t-d), (s-z), (f-v), (k-g), (sh-ch), (ch-dj), (x-gʻ). (Qarang: A-1, 21-23-betlar).

Hozirgi oʻzbek adabiy tili vokalizmi tizimi quyidagi oppozitsiyalarni oʻz ichiga oladi:

1. Tilning uch darajali koʻtarilish belgisiga koʻra:

a) i (yuqori tir unli) - e (oʻrta keng unli) = i - e oppozitsiyasi;

b) e (oʻrta keng unli) - a (quyi keng unli) = e - a oppozitsiyasi;

v) i (yuqori tor unli) - a (quyi keng unli) = i - a oppozitsiyasi;

g) u (yuqori tor unli) - oʻ (oʻrta keng unli) = u - oʻ oppozitsiyasi;

d) oʻ (oʻrta keng unli) - o (quyi keng unli) = oʻ - o oppozitsiyasi;

e) u (yuqori tor unli) - o (quyi keng unli) = u - o oppozitsiyasi;

2. Lablanish-lablanmaslik belgisiga koʻra:

a) i (lablanmagan) - u (lablangan) = i - u oppozitsiyasi;

b) e (lablanmagan) - oʻ (lablangan) = e - oʻ oppozitsiyasi;

v) a (lablanmagan) - o (lablangan) = a - o oppozitsiyasi.

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, fonologik oppozitsiya turli til tovushlarini qarama-qarshi qoʻyishga asoslanmaydi, chunki u muayyan bir tilning strukturaviy birligidir va shu tilning oʻzigagina xizmat qiladi. Boshqa til tovushlari muayyan

til, masalan, o'zbek tili tarkibida oppozitsiya hosil qilishi uchun u shu til tizimidagi kvaziomonimlar tarkibida qo'llanadigan darajaga ko'tarilgan bo'lishi shart. Masalan, arab tilining "f" undoshi o'zbek tilinig "p" unüdoshi bilan zidlanish hosil qilish darajasiga ko'tarilgan deyish mumkin, chunki shu ikki undoshdagi farqlovchi belgi (sirg'alish-portlash belgisi) o'zbek tilidagi sof va sop minimal juftligida fonologik vazifa bajarmoqda. Bunday holatni x-h oppozitsiyasi misolida ham ko'rish mumkin: o'zbek tilida xol va hol, shox va shoh kabi minimal juftliklarning (kvaziomonimlarning) mavjudligi arab tilidan o'zlashgan "h" undoshini o'zbek tilidagi x-h oppozitsiyasi vakili deb qarashga asos bo'ladi..

Tilshunoslikda fonologik oppozitsiyalar tasnifining yana bir necha turi bor. Shulardan biri professor N.S.Trubetskoyga mansubdir³³. U fonologik oppozitsiyalarni quyidagi uch asosga ko'ra tasnif qiladi:

Birinci asos oppozitsiya bilan sistema o'rtasidagi munosabatga ko'ra belgilanadi. Bu belgi asosida oppozitsiyalar quyidagicha tasnif qilinadi:

1. **Bir o'lchovli oppozitsiyalar** (оппозитсии одномерные). Bunda bir oppozitsiya a'zolariga xos bo'lgan belgilar yig'indisi shu sistema tarkibidagi boshqa oppozitsiyalarning a'zolarida uchramaydi. Masalan (p-b)dagi "lab-lab+portlovchi" belgilari yig'indisi shu sistema tarkibidagi (t-d) oppozitsiyasida yo'q, (t-d)dagi "til oldi+portlovchi" belgilari yig'indisi (k-g) oppozitsiyasida yo'q, (k-g)dagi "til orqa+portlovchi" belgilari yig'indisi (s-z) oppozitsiyasida yo'q, (s-z)dagi "til oldi-dental+sirg'aluvchi" belgilari yig'indisi (sh-j) oppozitsiyasida yo'q, (sh-j)dagi "til oldi-tanglay+ sirg'aluvchi" belgilari yig'indisi (ch-dj) oppozitsiyasida yo'q. Suning uchun (p-b) oppozitsiyasi tarkibida uchinchi a'zo uchramaydi. Bu xususiyat "jarangli-jarangsizlik" farqlanish belgisi asosida uyushib kelgan korrelatsiya tarkibiga kirgan barcha juftliklarga xos. Bir o'lchovli oppozitsiyalar ba'zan "bilateral oppozitsiyalar" deb ham nomlanadi. (Qarang: A-7, 95-96-betlar);

2. **Ko'p o'lchovli oppozitsiyalar** (оппозитсии многомерные). Bunda oppozitsiya a'zolaridagi belgilar shu sistemadagi boshqa oppozitsiya tarkibiga kirgan fonemaga ham xos b'ladi. Masalan, (b-d) oppozitsiyasi a'zolaridagi "portlovchi, jarangli" lik belgilari (d-g) oppozitsiyasidagi (g) fonemasida ham bor (b-d-g kabi), (p-t) oppozitsiyasi a'zolaridagi "portlovchi, jarangsiz" lik belgilari esa (t-k) oppozitsiyasi tarkibidagi (k) undoshida ham mavjud (p-t-k kabi).

3. **Proporsional oppozitsiyalar** (оппозитсии пропорциональные). Bunda bir oppozitsiya a'zolaridagi farqlanish belgilari shu sistemadagi barcha oppozitsiyalarga xos bo'ladi. Masalan: (p-b) dagi "jarangsiz-jarangli"lik farqlanish belgisi shu belgi asosida tarkib topgan korrelatsiya a'zolarining barchasida bor: (p-b), (t-d), (k-g), (s-z), (sh-j), (ch-dj), (f-v), (x-g') kabi.

4. **Yakkalangan oppozitsiya** (оппозитси́я изолированная). Bunday oppozitsiya a'zolari o'rtasidagi aloqa boshqa oppozitsiyalarda takrorlanmaydi. Masalan: o'zbek tilidagi (l-r) oppozitsiyasiga xos "yon sonant" va "titroq sonant" farqlanish belgisi boshqa biror oppozitsiyada yo'q.

³³ Jump up to: ^a b Trubetskoy N., Grundzüge der Phonologie (published 1939), translated by C. Baltaxe as Principles of Phonology, University of California Press, 1969

Ikkinchi asos oppozitsiya a'zolari o'rtasidagi munosabatga tayanadi. Bu belgi masofada oppozitsiyalar quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Privativ oppozitsiya. Bunday oppozitsiya a'zolaridan birida bor bo'lgan belgi shu oppozitsiyaning ikkinchi a'zosida bo'lmaydi. Mas., (b-p) oppozitsiyaning birinchi a'zosidagi "jaranglilik" belgisi shu oppozitsiyaning ikkinchi a'zosida qo'yilgan b (jarangli) - p (jarangsiz) kabi. Bu xususiyat "portlash-sirg'alish" differensial belgisiga asoslangan (t-s) oppozitsiyasiga ham xos: t (portlovchi) - s (sirg'aluvchi) kabi. Demak, bunday oppozitsiya a'zolaridagi belgilar bir-birini inkor etishiga (inkorni inkor qonuniga) asoslanadi: b-p (jarangli-jarangsiz), d-t (jarangli-jarangsiz), t-s (portlovchi-sirg'aluvchi) kabi.

2. Gradual (pog'onali) oppozitsiya. Bunday oppozitsiya fonemalardagi farqlanish belgisining darajalanishiga asoslanadi. Masalan, (i-e-a), (u-o'-o) holatlarida ana shunday darajalanish bor: i (tor) - e (o'rta keng) - a (quyi keng); u (tor) - o' (o'rta keng) - o (quyi keng) kabi. Bularning barchasida til bilan tanglay holatidagi masofa "tor" dan "keng" ga qarab darajalanib bormoqda.

Darajalanish xususiyati undoshlar oppozitsiyasida ham kuzatiladi: t (portlovchi) - ch (qorishiq) - sh (sirg'aluvchi). Bunda qorishiq (ch) dagi "portlash-sirg'alish" belgisi uning portlovchi (t) bilan sirg'aluvchi (sh) o'rtasida qo'yilishini taqozo qiladi (t-ch-sh kabi). Gradual xarakterdagi zidlanish (b-d-g), (p-t-k) oppozitsiyalarida ham mavjud: b (lab - lab) - d (til oldi-dental') - g (sayoz til orqa), p (lab -lab) - t (til oldi-dental') - k (til orqa). Bundagi gradatsiya artikulyatsiya o'rnining labdan tilning orqa qismiga qarab ko'chib borish darajasi bilan belgilanadi.

3. Ekvipolent oppozitsiya. Bunday oppozitsiya a'zolarida asosiy farqlovchi belgidan tashqari, yana bitta qo'shimcha farqlanish belgisi ham mavjud bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi (i) va (u) unlilari "lablanmagan va lablangan" farqlanish belgisi asosida (i-u) oppozitsiyasini hosil qiladi, ammo bu oppozitsiya a'zolarida qo'shimcha farqlanish belgisi ham bor: i (lablanmagan, old qator) - u (lablangan, orqa qator) kabi. Bulardagi "lablanmagan, old qator" belgilari "lablangan, orqa qator" belgilariga teng qiymatli belgilar sifatida qarama-qarshi qo'yiladi. Bunday holat (e-o'), (a-o) oppozitsiyalarida ham kuzatiladi. O'zbek tili undoshlari tizimidagi (t-sh) zidlanishi ham ekvipolent oppozitsiyadir, chunki unda zidlanish ikki belgiga asoslanadi: t (til oldi-tish, portlovchi) - sh (til oldi-tanglay, sirg'aluvchi) = t-sh oppozitsiyasi kabi.

Uchinchi asos oppozitsiya a'zolarining ma'no ajratish kuchiga va shu a'zolarining turli pozitsiyadagi xizmatiga tayanadi. Bunday asosga ko'ra oppozitsiyalarning quyidagi ikki turi farqlanadi.

1. Doimiy oppozitsiyalar. Bunday oppozitsiya a'zolari barcha pozitsiyalarda o'z farqlanish belgilarini yo'qotmaydi.

O'zbek tilidagi (p-t), (s-sh) oppozitsiyalarida shunday holat kuzatiladi. Qiyos qiling: paxta - taxta (so'z boshida, unlidan oldin), opa - ota (intervokal holatda), topmoq - totmoq (so'z o'rtasida, sonordan oldin), ip - it (so'z oxirida), sim - shim (so'z boshida, unlidan oldin), asir - ashir (intervokal holatda), osmoq - oshmoq (so'z o'rtasida, sonordan oldin), tus - tush (so'z oxirida kabi). Bunday doimiylik, barqarorlik oppozitsiyaning har ikkala a'zosi jarangsiz bo'lganda ko'proq uchraydi.

Zidlanishning bu turi ayrim manbalarda "konstant oppozitsiya" deb ham nomlangan.

2. Neytrallashuvchi (mo'tadillashuvchi) oppozitsiya. Bunday oppozitsiya a'zolari kuchli pozitsiyada (masalan, undoshlar so'zning boshida, ikki unli orasida yoki unlidan oldin qo'llanganda) o'zlarining farqlanish belgilarini yo'qotmaydi: bol va pol (b-p), dor va tor (d-t) kabi. Kuchsiz pozitsiyada (masalan, so'z oxirida) esa ular neytrallashadi: (tub) dagi "b" undoshi jarangsiz "p" tarzida (tub > tup kabi), (qad)dagi "d" esa jarangsiz "t" tarzida (qad > qat kabi) talaffuz qililadi, natijada (b-p) va (d-t) ga xos "jarangli-jarangsiz"lik farqlanish belgisi yo'qolib, shu fonemalarga xos umumiy (integral) belgilar - (b-p) dagi "lab - lab, portlovchi" lik, (d-t) dagi "til oldi-dental, portlovchi"lik xususiyatlari saqlanadi. Kuchsiz pozitsiyadagi neytrallashuv tufayli yuzaga kelgan tovush o'zaro zidlanishda bo'lgan ikkala fonemaning bir umumiy vakili - varianti sanaladi, u bir yo'la ikki fonemaga tegishli bo'lgani uchun arxifonema deb ham ataladi: b/p yoki P arxifonemasi (tub va tup so'zlarida), d/t yoki T arxifonemasi (qad va qat so'zlarida), z/s yoki S arxifonemasi (tuz va tus so'zlarida) bo'lgani kabi. (Qarang: A-7, 98-bet).

Fonologik oppozitsiyalar fonologik sistemaning eng kichik (minimal) strukturaviy birliklari sanaladi, ular tarixan o'zgarib turishi ham mumkin. Masalan, qadimgi turkiy va eski turkiy tillarda unli fonemalar tilning yotiq (gorizontal) harakatiga ko'ra old qator va orqa qator zidlanishiga ega bo'lgan: (i-ɨ), (ü-u), (ö-o), (ä-a) kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa bunday zidlanish o'zining fonologik xususiyatini yo'qotgan - fonemalar konvergensiya natijasida (i-ɨ) unlilari bitta (i) ga, (ü-u) unlilari bitta (u) ga, (ö-o) unlilari bitta (o) ga, (ä-a) unlilari esa bitta (a) ga birlashgan. Demak, fonologik oppozitsiyalar til taraqqiyotining muayyan bosqichiga nisbatan belgilanadi, ayni shu bosqichda bir fonema boshqa fonemaga bir xil pozitsiyada qarama-qarshi qo'yiladi: hozirgi o'zbek adabiy tilidagi (i) va (u) unlilari so'z boshida (ich va uch) yoki bir xil fonetik qurshovda (bir va bur, qish va qush) bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgani kabi. Demak, "opozitsiya" tushunchasi "fonema" va "pozitsiya" tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir: fonemaning bo'lishi oppozitsiyaning bo'lishini, oppozitsiyaning bo'lishi esa pozitsiyaning bo'lishini taqozo qiladi, o'zaro qarama-qarshi qo'yilmagan, binobarin zidlanishdan tashqarida qolgan fonemaning o'zi yo'q.

Eslatma: "pozitsiya" kategoriyasini birinchi bo'lib hamyurtimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (780-850) kashf etgan. U o'zining "hind arifmetikasi haqida kitob" (hisob al-hind") asarida o'nlik sistemasi raqamlaridan (0,1,2,3,4,5,6,7,8,9) foydalanib, katta sonlarni yozish tizimini ishlab chiqqan. Bu tizimga ko'ra raqam birinchi pozitsiyada birlikni, ikkinchi pozitsiyada o'nlikni, uchinchi pozitsiyada yuzlikni (to'rtinchi, beshinchi... pozitsiyalarda yanada kattaroq sonlarni) ifodalaydi: 0 (nol), 1(bir), 10 (o'n), 100 (yuz), 1000 (ming); 2 (ikki), 20 (yigirma), 200 (ikki yuz), 2000 (ikki ming) kabi. Keyinchalik "pozitsiya" tushunchasi til tizimiga ham tatbiq etilgan va fonologik oppozitsiya tushunchasining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

Fonologik oppozitsiyalar dialektikaning qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkorni inkor qonunlariga tayaanadi, ularning strukturaviy birlik sifatidagi mohiyati ham shu qonunlarga asoslanadi.

5. Korrelatsiya

Korrelatsiya³⁴ - ikki va undan ortiq oppozitsiyaning bir farqlanish belgisi asosida uyushib kelishidan tarkib topgan sistema (mikrosistema). Masalan, o'zbek tili undoshlari "labial-til oldi" farqlanish belgisi asosida (p-t), (b - d), (t - n), (f -s), (v - z), (f - sh), (v - l), (v -r) korrelatsiyasiga, "labial-til orqa" farqlanish belgisi asosida (p-k), (b-g), (f-x), (v-g') korrelatsiyasiga, "til oldi-til orqa" farqlanish belgisi asosida (t-k), (t-q), (d-g), (s-x), (z-g'), (n-ng) korrelatsiyasiga, "portlovchi-sirg'aluvchi" farqlanish belgisi asosida (p-f), (b-v), (t-s), (d-z), (t-sh), (d-j), (k-x), (g-g'), (q-x), (k-h), (g-h) korrelatsiyasiga uyushadi (korrelatsiyalar miqdori va turlari yuqoridagilar bilan cheklanmaydi).

Odatda, oppozitsiyadagi differensial (farqlanadigan) belgi korrelatsiyada integral (birlashtiruvchi) belgiga, oppozitsiyadagi integral belgi esa korrelatsiyada differensial belgiga aylanadi. Masalan, (p-b) oppozitsiyasidagi jarangsizlik (p) va jaranglilik (b) farqlanish belgisi (p-b), (t-d), (s-z), (f-v), (k-g), (sh-j), (ch-dj), (x-g') oppozitsiyalari-ning barchasini bir korrelatsiyaga birlashtirmoqda, demak, integral belgi vazifasini bajararmoqda, ayni paytda (p-b) oppozitsiyasidagi integral belgilar (lab-lab, portlovchi) bu oppozitsiyani korrelatsiyadagi boshqa oppozitsiyalardan farqlaydi (demak, differensial belgi vazifasini bajaradi). Qiyos qiling : p-b (lab-lab), t -d (til oldi-tish), k-g (sayoz til orqa), p - b (portlovchi), f-v (sirg'aluvchi) kabi.

Xulosa

1) fonemalar til mexanizmida muhim ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan mustaqil birliklardir: ular so'z va morfemalarning tovush qobig'ini (ifoda jihatini) farqlash bilan birga, shu so'z va morfemalarning ma'nolarini farqlash vazifasini ham bajaradi; 2) fonemalarda differensial (farqlanadigan) va integral (farqlanmaydigan) belgilar mavjud bo'lib, ulardan *birinchisi* (differensial belgi) fonologik jihatdan relevant belgi, *ikkinchisi* (integral belgi) esa fonologik jihatdan norelevant belgi hisoblanadi; 3) ikki fonemaning qarama-qarshi qo'yilayotgan differensial belgilari shu fonemalarni bitta oppozitsiyaga birlashtiradi, bir farqlanish belgisiga asoslangan ikki va undan ortiq oppozitsiyalar esa korrelatsiyalarga uyushadi. Demak, oppozitsiyalardagi farqlovchi belgilar korrelatsiyada birlashtiruvchi belgiga aylanadi, bunda oppozitsiya sistemaning quyi pog'onasi (yadrosi), korrelatsiya esa uning yuqori pog'onasi bo'ladi.

Eslatma: tilning fonologik tizimida korrelatsiya hodisasi borligini aniqlagan olimlardan biri (ehtimol, birinchisi) bizning yurtdoshimiz Abu Ali ibn Sino bo'lgan. U o'zining fonetikaga doir bir risolasida "dol" "to"ga qanday munosabatda bo'lsa, "zod" "sin"ga shunday munosabatda bo'ladi," - degan edi. Qiyos qiling: "dol" (jarangli "d") - "to" (jarangsiz "t"), "zod" (jarangli "z") - "sin" (jarangsiz "s"). Bunda jaranglilik va jarangsizlik belgilariga asoslangan d-t, z-s oppozitsiyalarining bir korrelatsiyaga uyushayotganligi nazarda tutilganligi shubhasiz.

O'zaro zidlanishda (opozitsiyada) bo'lgan fonemalardan birini ikkinchisi bilan almashtirish qonuniyatiga oid ayrim ma'lumotlar Z.M. Boburning "Boburnoma"

³⁴ Jump up to: ^a b Trubetzkoy N., Grundzüge der Phonologie (published 1939), translated by C. Baltaxe as Principles of Phonology, University of California Press, 1969

sida ham qayd etilgan. Unda, xususan, shunday deyilgan: «So'ngra ma'lum bo'ldikim, turki lafzida mahal iqtizosi bila to va dol, yana g'ayn va qof va kof birlari bila mubaddal; bo'lurlar emish» (Boburnoma // Bobur. Asarlar. Uch jildlik, 2-jild.- Toshkent, 1965, 145-bet).

Mavzu boyicha tekshirish savollari

1. Fonemalar paradigmasi nima?
2. Fonemalarning differensial va integral belgilarini qanday tushunasiz? Bu belgilarning tilda qanday roli bor?
3. Fonologik oppozitsiya (zidlanish) nima? Korrelyatsiya-chi?
4. Korrelatsiyaning yadrosini nima tashkil qiladi?
5. Korrelatsiya hodisasini dastlab kim aniqlagan?
6. O'zbek tili konsonantizmida korrelatsiyaning qanday turlari bor?
7. O'zbek tili vokalizmida korrelatsiyaning qanday turlari mavjud?
8. Vokalizm sistemasining shakllanishida tilning ko'tarilishi, tilning yotiq harakati va lablarning ishtiroki qanday rol o'ynaydi? Ulardan qaysilari unli fonemalarning fonologik belgilarini shakllantiradi?
9. Fonema ottenkalari va fonema qatori nima?
10. Fonema ottenkalari haqidagi tushunchaga kim asos solgan?
11. Fonema ottenkalaridan birining o'rnida ikkinchisini qo'llab bo'ladimi?
12. Fonemalarning variatsiya va variantlari qanday farqlanadi?
13. Fonemalarning mo'tadillashuvi (neytrallashuvi) va arxifonema (giperfonema) tushunchalarini qanday izohlaysiz?

IX. Tayanch tushunchalar

Fonema – so'zlar, morfemalar va grammatik shakllarning tovush qobig'ini, binobarin, ma'nolarini ham farqlash uchun xizmat qiladigan eng kichik segment birlik.

Fonemalarning differensial belgilari - o'zaro qarama-qarshi qo'yilayotgan ikki fonemaning farqlanadigan belgilari.

Fonemalarning integral belgilari - o'zaro qarama-qarshi qo'yilayotgan ikki fonemaning farqlanmaydigan belgilari.

Fonologik oppozitsiya - differensial belgilar asosida ikki fonemaning bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi (fonologik zidlanish).

Gradual oppozitsiya - pog'onali zidlanish.

Korrelyatsiya - bir farqlanish belgisi asosida tarkib topgan ikki va undan ortiq oppozitsiyalar qatori.

Artikulatsiya o'rni - talaffuzda ishtirok etuvchi asosiy nutq a'zosi yoki shu a'zoning faol ishtirok etayotgan qismi.

Artikulatsiya usuli – nutq a'zolari hosil qilgan to'siqdan havo oqimining portlab, sirg'alib yoki titrab o'tishi.

Jaranglilik-jarangsizlik belgilariga asoslangan oppozitsiyalar - undosh tovushlarning jaranglilik va jarangsizlik belgilari asosida zidlanish hosil qilishi.

Lablanish va lablanmaslik oppozitsiyasi - unli fonemalarning lablar

ishtirokiga ko'ra zidlanishi.

Tilning uch darajali ko'tarilishi - unli fonemalarning hosil bo'lishida tilning tanglay tomon ko'tarilish darajasi: quyi ko'tarilish, o'rta ko'tarilish, yuqori ko'tarilish kabi.

Fonema ottenkalari - fonemalarning talaffuzdagi real ko'rinishlari.

Kombinator ottenka - fonemaning so'z tarkibidagi tovushlar ta'sirida yuzaga kelgan ko'rinishi.

Pozitsion ottenka - fonemaning so'z yoki bo'g'indagi pozitsiya talabiga moslashgan ko'rinishi.

Variatsiya - fonema ottenkasining Moskva fonologlari maktabiga qabul qilingan nomi.

Transkripsiya - fonemalarning turli ottenkalarini, shuningdek, lahja va shevalarga xos fonetik xususiyatlarni yozuvda aniq ifodalash uchun shakllantirilgan muxsus grafik belgilar tizimi.

Uyga vazifa

1. 4-mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish.
2. Q-3 [16- va 17-topshiriqlar, 17-22-betlarda]

Asosiy adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'zME, 2013.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Т., 1994.
2. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2009.
3. Mirtojdiyev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
4. Nazarov K., Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. (Punktuatsiya). Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
5. Ne'matov H, Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.
6. Ne'matov H, Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
7. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. Oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
8. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –Т. 2006.
9. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti Toshkent-2010.
10. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Т., 1992

5-MODUL. HOZIRGI O‘ZBEK TILIDA FONETIK JARAYONLAR (HODISALAR)

REJA:

1. Фонетик ҳодисалар.
2. Комбинатор омиллар.
3. Позитсион омиллар. Уларнинг фонема оттенкаларини шакллантириши. Позитсион ўзгаришлар.
4. Синтагматик омил ва унинг таъсирида содир бўладиган фонетик жараёилар.
5. Протеза, эпентеза, эпитеза.
6. Товуш тушиши ва унинг турлари.

Tayanch tushunchalar: *assimilatsiya, akkomodatsiya, mazalizatsiya, reduksiya, spirantizatsiya, epenteza, epiteza, prokopa, sinkopa, apokopa, sandxi, aferezis, detateza, dissimilatsiya, geminatsiya, degeminatsiya, sinerezis.*

Fonemaning nutq oqimida turli ottenkalarda namoyon bo‘lishi, bunday ottenkalarining yuzaga kelishida kombinator, pozitsion yoki aralash (kombinator-pozitsion) va b. omillarning ishtiroki borligi yuqorida aytib o‘tilgan edi. Fonetik hodisalar ham aslida ana shu omillar mahsuli sifatida sodir bo‘ladi. Ularning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

I. Kombinator omillar ta‘sirida sodir bo‘ladigan hodisalar:

1. *Assimilatsiya* bir xil kategoriyadagi tovushlarning (mas, undosh bilan undoshning) o‘zaro moslashuvidir. Bunday moslashuvning quyidagi turlari bor:
 - a) *progressiv assimilatsiya* - oldingi tovushning keyingi tovushni o‘ziga moslashtirishi: *ketdi>ketti* (td>tt), *ekgan>ekkan* (kg>kk), *qishloqqa>qishloqqa* (qg>qq) kabi;
 - b) *regressiv assimilatsiya*. Keyingi tovushning oldingi tovushni o‘ziga moslashtirishi: *tuzsiz>tussiz* (zs>ss), *birta>bitta* (rt>tt) kabi;
 - d) *to‘liq assimilatsiya*. Bunda kuchli va kuchsiz pozitsiyadagi tovushlar bir-biriga aynan moslashadi (ular o‘rtasida neytrallashuv sodir bo‘ladi): *nonvoy>novvoy* (nv>vv), *terakga>terakka* (kg>kk) kabi;
 - e) *to‘liqsiz assimilatsiya*. Bunda kuchli va kuchsiz pozitsiyadagi tovushlar bir-biriga qisman moslashadi: *tanbur>tambur* (nb>mb), *shanba>shamba* (nb>mb) kabi. Bu so‘zlarda "n" (til-tish undoshi) lab-lab "b"ga faqat artikulatsiya o‘rni jihatdan moslashgan (lab-lab "m"ga o‘tgan), ammo boshqa belgilari moslashmagan. Qiyos qiling: "m"-sonor, "b"- shovqinli; "m"- yumuq fokusli burun tovushi (nazal tovushi), "b"- sof portlovchi kabi;
 - f) *kontakt assimilatsiya* - ketma-ket joylashgan tovushlarning o‘zaro moslashuvi (q.: yuqoridagi misollar);
 - g) *distant assimilatsiya* - so‘z tarkibida bir-biridan uzoqroqda joylashgan tovushlarning o‘zaro moslashuvi: *sichqon>chichqon, soch>choch* kabi.

O'zbek tilida o'zak bilan affiksdagi unlilar assimilatsiyasi ham uchraydi. Assimilatsiyaning bu turi singarmonizm (unlilar uyg'unlashuvi) deb ham nomlanadi. Bunda unlilarning uyg'unlashuvi lab garmoniyasi va til garmoniyasi (lingval garmoniya) shaklida namoyon bo'ladi. Masalan: *keldi*- "e" (old qator), "i" (old qator). Bunda o'zak va affikslar tarkibidagi har ikkala unli old qatordir (til garmoniyasi); *qoldi*- "o" (orqa qator), "i" (orqa qator). Bunda affiksdagi old qator "i" o'zakdagi orqa qator "o"ga moslashgan- "i"ning orqa qator ottenkasi yuzaga kelgan (bu ham til garmoniyasi hisoblanadi); lab garmoniyasi ko'proq shevalarda uchraydi: o'g'lim (adabiy tilda)- *ulum* (qipchoq lahjasi shevalarida). ko'zim (adabiy tilda)- *ko'zum* (køzym: qipchoq lahjasida) Bunda o'zak va qo'shimchalardagi unlilarning lablanish jihatdan moslashuvi sodir bo'ladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida assimilatsiyaning bu turi deyarli uchramaydi.

Assimilatsiyada fonemaning kombinator ottenkasi yuzaga keladi (o'zgarish tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida bo'lganligi uchun).

2. **Akkomodatsiya**—turli kategoriyalardagi tovushlarning, masalan, unli bilan undoshning o'zaro ta'siri tufayli yuzaga keladigan moslashuv. Masalan: *kisht* "i"ning old qator ottenkasi, u sayoz til orqa "k" undoshiga moslashgan- *qish* (qush: "i"ning orqa qator ottenkasi, u chuqur til orqa "q" undoshiga moslashgan). Bu'zan unli undoshga emas, aksincha, undosh unliga moslashadi. Masalan, lab-tish (labio-dental) "f" undoshi lablashgan "u" unlisi ta'sirida lab-lab "f"ga aylanishi mumkin. Qiyos qiling: *faqat* ("f"- lab-tish), *nufuz* ("f" —lab-lab), *aft* ("f"- lab-tish)- *ufq* ("f"- lab-lab), *saf* ("f" —lab-tish)- *tuf* ("f"- lab-lab) kabi.

O'zaro ta'sirda bo'lgan tovushlarning bir-biriga nisbatan oldin yoki keyin kelishiga ko'ra akkomodatsiya quyidagi ikki turga bo'linadi:

a) **progressiv akkomodatsiya**. Bunda oldingi tovush keyingi tovushga ta'sir qiladi: *kulmoq* so'zida sayoz til orqa "k" undoshi orqa qator "u"ni old qator "Y" ga aylantirgani kabi. Qiyos qiling: *qul* ("u"- orqa qator unli)- *kul* ("Y"- old qator unli), *qo'l* ("o'"- orqa qator "o" unlisi)- *ko'l* ("o'"- old qator "θ" unlisi);

b) **regressiv akkomodatsiya**. Bunda keyingi tovush oldingi tovushga ta'sir qilindi. Masalan: *to'k* so'zida sayoz til orqa "k" undoshi orqa qator "o'" unlisini old qator "o'"ga aylantiradi. Assimilatsiyada bo'lganidek, akkomodatsiyada ham fonemaning kombinator ottenkasi yuzaga keladi.

3. **Dissimilatsiya** - so'z tarkibidagi bir xil (yoki o'xshash) tovushlardan birining boshqa tovushga ko'chishi: *birorta*>*bironta* (ror>ron), *kissa-kista* (ss>st) kabi. Bu hodisani assimilatsiyaning aksi deyish mumkin.

Dissimilatsiya hodisasi yo'nalishiga qarab ikki xil bo'ladi:

a) **progressiv dissimilatsiya**. Bunda keyingi tovush o'zgaradi: *zarur*>*zaril* kabi;

b) **regressiv dissimilatsiya**. Bunda oldingi tovush o'zgaradi: *maqtanmoq*>*maktanmoq* kabi.

Tovushning o'zgarish darajasiga ko'ra dissimilatsiya yana ikki turga bo'linadi:

a) **to'liq dissimilatsiya**. Bunda ikkita bir xil tovushdan biri noo'xshash tovushga aylanadi: *kissa*>*kista* (ss>st) kabi;

b) **to'liqsiz dissimilatsiya** (*qisman dissimilatsiya*). Bunda tovushning

artikulatsion xususiyatlaridan ayrimlarigina o'zgaradi. Masalan, *uchta>ushta* (ch>sh) kabi: "ch" va "t" undoshlarining ikkalasi ham portlovchi, ammo "t"ning ta'sirida "ch" sirg'aluvchi "sh" ga o'tgan.

Tovushlar o'rtasidagi masofaga nisbatan ham dissimilatsiya ikki xil bo'ladi:

a) *kontakt dissimilatsiya*. Bunda yonma-yon turgan tovushlardan biri o'zgaradi: *kissa>kista* kabi;

b) *distant dissimilatsiya*. Bunda dissimilatsiyaga uchrayotgan tovushlar bir-biridan uzoqroqda joylashgan bo'ladi. Masalan: *birorta>bironta* kabi.

4. Nazalizatsiya – so'z tarkibidagi burun sonantlari ta'sirida shu sonantlar yonida qo'llangan unlining rezonator ton bilan aytilishi: *non, nok, men, meng* kabi. Bunday hollarda ham fonemaning kombinator ottenkasi (unlining ko'rinishi) paydo bo'ladi.

II. Pozitsion omillar ta'sirida sodir bo'ladigan hodisalar:

1. *Reduksiya* - unli fonemaning urg'usiz bo'g'inda kuchsizlanishi: *bilan-b:lən, biroq- b:r q* kabi. Bunda "i" unlisining kuchsizlangan, qisqa (bilinar-bilinmas) talaffuz etiladigan pozitsion ottenkasi yuzaga keladi;

2. So'z oxiridagi ochiq bo'g'inda tor unilarning biroz kengayishi: *bordi>borde* kabi. Bunda ham tor "i" unlisining biroz kengaygan pozitsion ottenkasi yuzaga keladi;

3. Jarangli "b" va "d" undoshlarining so'z oxirida jarangsizlanishi: *maktab>maktap* (b>p), *savod>savot* (d>t) kabi. Bunday holat jarangli j,j(dj),z undoshlarida ham uchraydi: *massaj>massash* (j>sh), *dilxiroj>dilxiroch* (j>ch), *sakkiz>sakkis* (z>s) kabi. Yuqoridagi barcha holatlarda b,d,j,j(dj),z fonemalarining jarangsizlashgan pozitsion ottenkalari qo'llangan. O'zbek tilida ko'p bo'g'inli so'zlarda portlovchi, jarangsiz "q" ning so'z oxirida sirg'aluvchi, jarangli "g" tarzida talaffuz qilinish hollari ham uchraydi:

aliq>balig', o'rtoq>o'rtog', taroq>tarog' kabi.

III. Turkiy so'zlarning an'anaviy fonetik tarkibiga moslashish

O'zbek tilida bunday moslashishning quyidagi turlari uchraydi:

1. *Proteza* – so'z boshida tovush orttilishi: a) *rus>o'ris, ro'za>o'raza, ro'mol>o'ramol* kabi. Ma'lumki, qadimgi turkiy tilda sonor "r" tovushi so'z boshida qo'llanmagan, demak, uni so'z boshida qo'llash ko'nikmasi ham bo'lmagan, bu hol boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar boshidagi sonor "r"dan oldin bir unlining orttirilishiga olib kelgan, shu tariqa olinma so'zning fonetik tarkibi turkiy so'zning fonetik tarkibiga moslashtirilgan;

b) *shkaf>ishkop, stakan>istakan* kabi: turkiy tillarda so'z yoki bo'g'in boshida (pozitsion omil) undoshlar o'zaro birika olmaydi (sintagmatik omil), ayni shu qonuniyat yuqorida keltirilgan ruscha o'zlashmalar boshida bir unlining orttirilishiga, demak, shu so'zlarning turkiy til qonuniyatiga moslashtirilgan shaklining yaratilishiga olib kelgan.

2. *Epenteza* – so'z o'rtasida tovush orttirilishi. Bu hodisa ham asosan boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar tarkibida yuz beradi – ularning fonetik tarkibi turkiy til qonuniyatlariga moslashtiriladi (so'z yoki bo'g'in boshida qatorlashib kelgan ikki undosh orasida bir unli orttiriladi: *plan>pilon, klubnika>qulupnay, traktor>tiraktir*

kabi).

Ma'lumki, turkiy soʻzlar tarkibida ikki unli ham yonma-yon qoʻllanmaydi. Bu hol *Said, oila, soat* kabi arabcha oʻzlashmalarning jonli tilda *Sayid, oyila, sogʻat* deb (ikki unli orasida bir undoshning orttirilib) talaffuz qilinishiga sabab boʻladi.

3. **Epitez** (*austeza*)- soʻz oxirida tovush orttirilishi: Bu hodisa koʻproq soʻz oxirida qatorlashib kelgan *sk, nk* undoshlaridan soʻng yuz beradi: *otpusk>otpuska, kiosk>kioska, tank>tanka, blank>blanka* kabi. Bunda ham pozitsion-sintagmatik omil (turkiy soʻz oxirida *sk, nk* undoshlari birikmasining uchramasligi) koʻproq darajada asos boʻlgan.

IV. Fonetik hodisalarning boshqa turlari:

1. **Tovush tushishi.** Soʻz oʻzagidagi yoki unga qoʻshilgan qoʻshimchalar tarkibidagi ayrim tovushlarning maʼlum fonetik qurshov yoki pozitsiya taʼsirida talaffuz etilmasligi. Bu hodisaning quyidagi turlari bor:

a) **prokopa, ankopa** – soʻz boshidagi tovushning tushib qolishi: *yilon>ilon, yagʻoch>agʻoch>ogʻoch, yigna>igna* kabi. Bunda til oʻrta "y"da ovozning ustunligi, demak, uning unliga yaqinligi, oʻzidan keyingi unliga singib ketishi kabi omillar taʼsiri bor. Prokopa, asosan, tarixiy jarayon mahsuli boʻlib, hozirgi oʻzbek adabiy tilida uchramaydi;

b) **sinkopa** – soʻz oʻrtasidagi tovushning tushib qolishi. Bu hodisa reduksiyaning davomi sifatida koʻproq uchraydi-oʻzak morfemaga affiks morfema qoʻshilganda, urgʻu oxirgi boʻgʻinga koʻchib, oʻzakdagi unli kuchsizlanadi va tushib qoladi: *burun>burnim, burning, burni; oʻgʻil>oʻgʻlim, oʻgʻling, oʻgʻli* kabi. Soʻz oʻrtasidagi unlining tushib qolishi baʼzan tarixiy (diaxron) planda sodir boʻlgan boʻlib, hozir sezilmasligi ham mumkin: *olcha<olicha, kelyapti<kelayapti* kabi. Oʻzbek tilida undosh tovushlar sinkopasi ham uchraydi: *pastqam>pasqam, pastda>pasda* kabi. Ularning baʼzi turlari tarixiy plandagina qaralishi mumkin: *ardi>edi* kabi;

d) **apokopa** – soʻz oxiridagi tovushning yoki qoʻshma soʻz komponentining tushib qoldirilishi: *baland>balan, xursand>xursan, gʻisht>gʻish, goʻsht>goʻsh, obroʻy>obroʻ, podshoh>podsho* kabi. Qoʻshma soʻz komponentining tushirib qoldirilishi asosan ruscha leksik oʻzlashmalarda uchraydi: *metropoliten>metro, kilogramm>kilo, taksomotor>taksi* kabi.

Tovush yoki komponentning tushib qolishiga olib keladigan sabablar qatorida pozitsion (urgʻusiz boʻgʻindagi reduksiya) va sintagmatik (yonma-yon qoʻllangan tovushlarning singishib ketishi) bilan birga fonatsion energiyani tejash, ixchamlikka erishish kabi omillar ham qatnashadi;

2. **Eliziya** – unli tovush bilan tugagan soʻzga unli bilan boshlangan soʻzning qoʻshilishi natijasida oldingi soʻz oxiridagir unli tovushning tushishi (125, 133-b.). Masalan, *ayta oldi>aytoldi, Dili orom>Dilorom* kabi. Bu hodisa unlilar tingishuvining bir koʻrinishidir. Yana qarang: *sinerezis*;

3. **Sandxi hodisasi** - analitik shakllarning ixchamlashuvi natijasida sodir boʻladigan fonetik oʻzgarishlar. Masalan: *ishlar edi>ishlardi, borgan emish>borganmish* kabi. Bu hodisa oʻz tabiatiga koʻra eliziyaga juda yaqin turadi;

4. **Aferezis** - oldingi soʻzning soʻnggi tovushi (yoki tovushlari) taʼsirida keyingi soʻz boshidagi tovushning (yoki tovushlarning) tushishi: ne

uchun>nechun, mulla aka>mullaka kabi (16, 85-86). Bu hodisa eliziyaning aksidir.

5. **Gaplologiya** - yasama soʻz tarkibida birin-ketin kelgan ikkita bir xil boʻgʻindan birining tushirib qoldirilishi. Bu hodisa ham koʻproq ixchamlashtirish, energiyani tejash asosida sodir boʻladi. Masalan, *tragikomediya<tragikokomediya*: Bu soʻzning tarkibida ikkita bir xil boʻgʻin ("ko"- uchinchi boʻgʻin va "ko"- toʻrtinchi boʻgʻin) birin-ketin kelganligidan talaffuzda ulardan biri tushirib qoldirilgan va soʻzning ana shu ixchamlashtirilgan shakli adabiy til uchun meʼyor boʻlib qolgan. Bunday hodisa *mineralogiya<mineralologiya, morfonologiya<morfofonologiya* soʻzlarida ham kuzatiladi.

6. **Tovushlarning oʻrin almashinuvi (metateza)**. Bu hodisa koʻproq jonli soʻzlashuvga, ayniqsa, shevalarga xos boʻlib, adabiy tilda kam uchraydi: *tuproq>turpoq* (Toshkent shevasida), *daryo>dayro* (qipchoq lahjasi shevalarida), *toʻgʻramoq>toʻrgʻamoq* (ayrim shevalarda) kabi. Oʻrin almashinuviga uchragan tovushlar soʻz tarkibida bir-biriga yaqin yoki uzoq joylashgan boʻlishi mumkin, shunga koʻra metatezaning ikki turi farqlanadi:

a) *kontakt metateza*- yonma-yon joylashgan tovushlarning oʻrin almashuvi: *tuproq>turpoq* (pr>rp), *ahvol>avhol* (hv>vh) kabi;

b) *distant metateza* - bir-biridan uzoqroqda joylashgan tovushlarning oʻrin almashinuvi: *aylanayin>aynalayin* (bunda ikkinchi boʻgʻin boshidagi "l" bilan uchinchi boʻgʻin boshidagi "n" tovushlari orasida "a" unlisi bor).

Tarkibida metateza hodisasi yuz bergan ayrim soʻzlar hozirgi adabiy tilda meʼyor darajasiga koʻtarilgan: *yogʻmir* (etimologik shakli)>*yomgʻir* (hozirgi adabiy tildagi shakli) kabi.

7. **Geminatsiya** - ikkita bir xil undoshning soʻz tarkibida qavatlanishi: *muddat, izzat* kabi. Bunday qavatlanish maʼlum uslubiy maqsadlarda yuzaga keltirilishi ham mumkin: Masalan, *mazaʼ*, (bitta "z", bunda uslubiy boʻyoq yoʻq.)- *mazza* (ikkita "z". Soʻzning bu shaklida maʼno kuchaytirilgan). Yana qiyos qiling: *yashamagur>yashshamagur, uchalasi>uchchalasi, rosa>rossa, juda>judda* kabi. Geminatsiya hodisasi soʻz yasalişida ham uchraydi: *achimoq* (feʼl)- *achchiq* (sifat), *isimoq* (feʼl)- *issiq* (sifat), *qotmoq* (feʼl)- *qattiq* (sifat) kabi. Sifatlarning kuchaytiruv (intensiv) formalarida ham geminatsiya hodisasi uchraydi: *oq>oppoq, sogʻ>soppa-sogʻ* kabi.

Degeminatsiya-soʻz tarkibidagi geminatsiyaning yoʻqolishi: *men+ning>mening, sizni>sizzi>sizi; qayer>qaer* kabi.

8. **Sinerezis-soʻz tarkibida yondosh qoʻllangan ikki unlining diftonglashuvi**- bir choʻziq unli holiga kelishi: *mutolaa>mutola: matbaa>matba: saodat>so:dat* kabi. Bu hodisa ikki unli orasidagi undoshning tushib qolishi hisobiga yuz berishi ham mumkin: *zahar>za:r, shahar>sha:r* kabi.

9. **Spirantizatsiya** - ayrim portlovchi undoshlarning ikki unli orasida (intervokal pozitsiyada) sirgʻaluvchi undoshga Htishi: *bora ber>boraver* (b>v), *kabob>kavob* (b>v), *poʻstloq>poʻstlogʻi* (q>gʻ), *taroq> tarogʻi* (q>gʻ) kabi. Bu hodisada pozitsion omil (intervokal holat) bilan birga kombinator omil (unlilarning undoshga taʼsiri) ham ishtirok etgan.

Tekshirish savollari

1. Fonetik hodisalar deganda nimani tushunasiz?
2. Kombinator omillar nima? Ular fonemaning qanday ottenkasini yuzaga keltiradi?
3. Assimilatsiya, akkomodatsiya va dissimilatsiya qanday farqlanadi? Ularning qanday turlari bor?
4. Pozitsion omillarga nimalar kiradi? Ular fonemaning qanday ottenkalarini shakllantiradi?
5. Pozitsion o'zgarishlarning qanday turlari bor?
6. Kombinator va pozitsion omillar fonetik jarayonda aralash ishtirok etishi mumkinmi?
7. Spirantizatsiya nima?
8. Sintagmatik omillarga nimalar kiradi? Bu omil ta'sirida qanday fonetik jarayonlar sodir bo'ladi?
9. Qanday holatlarda va nima sababdan so'z boshida, o'rtasida yoki oxirida ba'zan tovush orttiriladi?
10. Proteza, epenteza va epiteza nima?
11. Qanday holatlarda va nima sababdan so'z tarkibidagi ayrim tovushlar tushib qoladi?
12. Tovush tushishining qanday turlari bor?
13. Metateza nima?
14. Geminatsiya nima? Degeminatsiya-chi?
15. Nazalizatsiya nima? U qanday omillar ta'sirida yuz beradi?
16. Sandxi qanday hodisa? Aferezis-chi?
17. Sinerezis nima? U qanday holatda yuz beradi?

Tayanch tushunchalar izohi

Assimilatsiya- bir xil kategoriyadagi tovushlarning so'z tarkibida o'zaro moslashuvi.

Akkomodatsiya- turli kategoriyadagi tovushlarning so'z tarkibida o'zaro moslashuvi.

Nazalizatsiya- unli tovushlarning so'z tarkibidagi burun sonantlari ta'sirida rezonator ton bilan aytilishi.

Reduksiya- urg'usiz bo'g'indagi unlining kuchsizlanishi.

Spirantizatsiya- portlovchi undoshning intervokal holatda sirg'aluvchi undoshga o'tishi.

Proteza- so'z boshida tovush orttirilishi.

Epenteza- so'z o'rtasida tovush orttirilishi.

Epiteza- so'z oxirida tovush orttirilishi.

Prokopa – so'z boshidagi tovushning tushib qolishi.

Sinkopa- so'z o'rtasidagi tovushlardan birining tushib qolishi.

Apokopa- so'z oxirida tovush tushish hodisa.

Sandxi- so'zning analitik shakllarida birinchi so'z oxiridagi tovush bilan ikkinchi so'z boshidagi tovush o'rtasidagi singishuv natijasida sodir bo'ladigan o'zgarishlar.

Aferezis- sandxining bir ko‘rinishi.

Metateza- so‘z tarkibidagi ayrim tovushlarning o‘rin almashinuvi.

Dissimilatsiya- so‘z tarkibidagi ikkita bir xil (yoki o‘xshash) tovushlardan birining noo‘xshash tovushga ko‘chishi.

Geminatsiya- so‘z tarkibida bir xil undoshlarning qavatlanishi.

Degeminatsiya- so‘z tarkibidagi geminatsiyaning yo‘qolishi.

Sinerezis- so‘z tarkibidagi ikki unlining diftonglashuvi.

MUSTAIL TA‘LIM UCHUN TOPSHIRIQ

1) 9-10-11-12-mustaqil ishlarni bajarish

2) 11-mashq: Q-3 (30-b.)

3) 28-topshiriq: Q-3 (31-b.)

4) 29-topshiriq: Q-3 (32-34-b.)

Asosiy adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O‘zME, 2013.

2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.

4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Т., 1994.

2. Jamolxonov H. O‘zbek tilining nazariy fonetikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan, 2009.

3. Mirtojdiyev M. O‘zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.

4. Nazarov K., Egamberdiyev B. O‘zbek tili ishora-imlo qoidalari. (Punktuatsiya). Oliy o‘quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

5. Ne‘matov H, Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989.

6. Ne‘matov H, Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.

7. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. Oliy o‘quv yurtlari o‘zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.

8. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. –Т. 2006.

9. Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti Toshkent-2010.

10. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфологияси. –Т., 1992

6-MODUL. HOZIRGI O‘ZBEK TILIDA URG‘U VA BO‘G‘IN. NUTQNING FONETIK BO‘LINISHI

REJA

1. Bo‘g‘in va uning tuzilishi.
2. Bo‘g‘in tiplari. Bo‘g‘inga oid tasniflar.
3. Bo‘g‘inning til va nutqdagi ahamiyati.
4. Urg‘u va uning tiplari.
5. Urg‘uning til va nutqdagi roli.

Tayanch tushunchalar: bo‘g‘in, sillabema, sillabika - bo‘g‘in (sillabema) haqidagi ta‘limot, bo‘g‘in, ochiq bo‘g‘in, yopiq bo‘g‘in, urg‘u, aksentema, dinamik urg‘u, kvantitativ urg‘u, tonik (musiqiy) urg‘u, bog‘langan urg‘u, erkin urg‘u, ko‘chadigan urg‘u, fonostilistika.

1. Bo‘g‘in va uning tuzilishi

Bo‘g‘in bir havo zarbi bilan aytiladigan tovush yoki tovushlar birikma-sidir. Masalan: *ona (o-na), ota (o-ta), bola (bo-la)* kabi. Bo‘g‘in nutq oqimi-ning tovushdan katta, so‘zdan kichik (ba‘zan bir so‘zga teng) segment birli-gidir. Fonologik nuqtai nazardan bo‘g‘in *sillabema* deyiladi, uni o‘rgana-digan soha esa *sillabika* deb nomlanadi.

Bo‘g‘in unlisiz tuzilmaydi, shuning uchun unli tovush bo‘g‘inning marka-zi hisoblanadi - u undoshlarni o‘ziga tortib, bir havo zarbi bilan aytila-digan fonetik bo‘lakni (bo‘g‘inni) hosil qiladi. Undoshlar o‘zicha bo‘g‘in yasa-maydi (sonorlar bundan mustasno). Ular unlidan oldin kelganda kuchsiz boshlanib, kuchli tugaydi; *kitob* so‘zidagi “ki” bo‘g‘ini boshida kelgan "k" undoshi shunday. Undosh tovush unlidan keyin kelganda, kuchli boshlanadi, so‘ng kuchsizlanib tugaydi: *kitob* so‘zidagi "tob" bo‘g‘ini oxirida kelgan "b" undoshi shunday. Ba‘zan ikki bo‘g‘in orasida ikkita bir xil undosh yonma-yon kelib qoladi: *muddat (mud-dat)* kabi. Bu hodisa geminatsiya sanaladi. Bunda ikkala "dd" bir tovushdek talaffuz etiladi, binobarin, kuchli boshlanib, kuchli tugaydi, oralig‘ida esa bir oz pasayish kuzatiladi. Bular *ikki balandlikka ega undoshlar* sanaladi. Demak, bo‘g‘in tuzilishida undosh-lar kuchsiz boshlanuvchi, kuchli tugovchi va ikki balandlikka ega xarakteri-da bo‘ladi. Shunga ko‘ra bo‘g‘in uch qismga bo‘linadi; a) bo‘g‘in boshi - bo‘g‘in yasovchi tovushning (unlining) balandligigacha bo‘lgan qism; b) bo‘g‘in marka-zi (bo‘g‘in balandligi); v) bo‘g‘in markazidan keyingi qism (bo‘g‘in balandli-gidan so‘nggi qism).

Unli (V) yoki unli+undosh (VS) tipidagi bo‘g‘inning boshi nulga teng bo‘ladi: *o+ta* (birinchi bo‘g‘in boshi nulga teng), *ol+ma* (birinchi bo‘g‘in boshi nulga teng); undosh+unli (SV) tipidagi bo‘g‘inning oxiri ham nulga teng: *ol+ma* ("ma" bo‘g‘inining oxiri nulga teng) kabi. O‘zbek tilidagi umumturkiy so‘zlarda: a) boshi nulga teng bo‘g‘in faqat so‘z boshida uchraydi: *o+ta, uch+ta* kabi; b) boshi nulga teng bo‘lgan bo‘g‘in birinchi bo‘g‘indan keyin qo‘llanmaydi. Bu tipdagi bo‘g‘inning so‘z o‘rtasida yoki oxirida keli-shi faqat arabcha va ruscha leksik o‘zlashmalarda uchraydi: *ma-o-rif* (arab-cha), *a-or-ta* (ruscha-baynalmilal) kabi; v) oxiri nulga teng (SV

tipidagi) bo'g'in so'zning barcha qismlarida qo'llanishi mumkin: *bo+la, da+la* kabi; g) bo'g'in boshida undoshlarning qatorlashib kelishi faqat ruscha-baynalmilal so'zlarda uchraydi: *traktor* (birinchi bo'g'in sxemasi – SSVS) kabi.

2. Bo'g'in tiplari

1) *berkitilgan bo'g'in*. U undosh bilan boshlanadi: *olti* so'zining ikkinchi bo'g'ini (-*ti*);

2) *berkitilmagan bo'g'in*. U unli tovush bilan boshlanadi: *olti* so'zining birinchi bo'g'ini (*ol-*);

3) *yopiq bo'g'in*. U undosh bilan tugaydi: *olti* so'zining birinchi bo'g'ini (*ol-*);

4) *ochiq bo'g'in*. U unli bilan tugaydi: *olti* so'zining oxirgi bo'g'ini (-*ti*).

Tasnifning bu turida *o-ta, o-na* so'zlaridagi bir unli iborat bo'g'in, shuningdek, *tartib, maktab* so'zlaridagi "undosh+unli+undosh" (SVS) tipidagi bo'g'inlar nazardan chetda qolgan. Shuning uchun mavjud adabiyotlarda bo'g'in tiplari tasnifining boshqa ko'rinishlari ham uchraydi. Masalan, M.M. Mirtojiev bo'g'in tiplarini shunday tasnif qiladi:

1) *ochiq boshlanuvchi ochiq bo'g'in*: *a+na, o+na, i+liq* kabi so'zlarning birinchi bo'g'ini;

2) *ochiq boshlanuvchi yopiq bo'g'in*: *ol+tin, il+gak, as+liy, ars+lon* kabi so'zlarning birinchi bo'g'ini;

3) *yopiq boshlanuvchi yopiq bo'g'in*: *bor+moq, qiy+shiq, non+voy, ras+som* kabi so'zlarning barcha bo'g'inlari;

4) *yopiq boshlanuvchi ochiq bo'g'in*: *da+la, qo+ra, sa+ra* kabi so'zlarning barcha bo'g'inlari.

M.M. Mirtojiev unli va undoshlardagi ovoz yoki shovqin miqdori har xil bo'lishini nazarda tutib, bo'g'inning akustik tasnifini ham beradi. U shunday deydi: "Unli va undosh tovushlar tarkibida, bizga ma'lumki, un va shovqin miqdori turlichadir. Agar ularni ball tizimiga asoslangan shkala bo'yicha hisoblasak, unlilar 4 ball, sonorlar 3 ball, jaranglilar 2 ball, jarangsizlar esa 1 ball deb qaralishi mumkin. Shunga ko'ra bo'g'in tovushlarini tavsiflasak, bo'g'inlar har xil turlarga bo'linadi. Albatta, bunda bo'g'inning boshi va oxiri nazarda tutiladi:

1) *silliq bo'g'in* (bo'g'in boshi va oxiri yo'q, kesilgan holatda). Masalan, *a+e+ro+plan* so'zining birinchi va ikkinchi bo'g'inlari shunday;

2) *kuchayuvchi bo'g'in* (yopiq boshlanuvchi ochiq bo'g'in tiplari e'tiborda tutiladi). Masalan, *ma, de, shu, bu* so'zlarini tarkib toptirgan bo'g'in shunday;

3) *pasayuvchi bo'g'in* (ochiq boshlanuvchi yopiq bo'g'in tiplari e'tiborda tutiladi). Masalan, *ot, ol, it, et* kabi;

4) *kuchayuvchi-pasayuvchi bo'g'in* (to'la yopiq bo'g'in e'tiborda tutiladi). Masalan, *kuz, non, bir, tur* kabi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, *bri+ga+dir* so'zining birinchi bo'g'ini ham kuchayuvchi bo'g'in deb qaraladi. Ammo uning bo'g'in boshi ikki undosh-dan iborat. Shunga qaramay ular ball shkalasiga ko'ra har xil, ya'ni 2-3-4 deb olinadi. Unda tovushlar kuchayib borganligi kuzatiladi..."

Ilmiy adabiyotlarda bo'g'in tiplari tasnifining yana boshqa turlari ham bor. Xususan, prof. A. Mahmudov bo'g'inlarni quyidagicha tasnif qiladi:

1) *to'la ochiq bo'g'in*. U faqat unli dan iborat bo'ladi: *a+na, a+ka, o+pa* so'zlarining birinchi bo'g'ini;

2) *to'la yopiq bo'g'in*. Bunday bo'g'in undosh bilan boshlanib, undosh bilan tugaydi: *tar-tib, tar-vuz* so'zlaridagi barcha bo'g'inlar;

3) *boshi yopiq bo'g'in*. Bunday bo'g'in undosh bilan boshlanib, unli bilan tugaydi: *bo+la, ta+na* so'zlaridagi barcha bo'g'inlar;

4) *oxiri yopiq bo'g'in*. Bunday bo'g'in unli bilan boshlanib, undosh bilan tugaydi: *or+tiq, o'r+ta* so'zlarining birinchi bo'g'inlari.

Muallif to'la yopiq bo'g'in strukturasi 7 xil bo'lishini ta'kidlaydi: 1)SVS-bet, kuch; 2)SSVS-Qrim, plan; 3)SVSS-qirq, hind; 4)SSUSS-Dnepr, port; 5)SVSSS-tekst, punkt 6)SSSVS-shtraf, skver; 7)SSVSSS-Dnepr, Bratsk.

Boshi yopiq bo'g'in uchga bo'linadi: 1)SV-bu; 2)SSV-drama, smena so'zlari-ning birinchi bo'g'ini; 3)SSSV-Brno kabi.

Oxiri yopiq bo'g'inning to'rt xil bo'lishi aniqlanadi: 1)VS-o'q, el, uy; 2)VSS-ayt, ilm, ark; 3)VSSS-Omsk; 4)VSSSS-Ernst.

Shunday qilib, muallif o'zbek tilidagi bo'g'inlar o'n besh strukturada ifodalanganligini ko'rsatadi.³⁵ Bunda o'zbek tilining o'z va o'zlashgan qatlam so'zlari birga qaralgan.

3.Bo'g'inning til va nutqdagi ahamiyati

1. So'zning, xususan, fonetik so'zning shakllanishida "qurilish material" va qoliplovchi vazifalarni bajaradi. Ayrim tillarda bo'g'inning distinktiv (tafovutlash, farqlash) funksiyasi ham bor. Masalan, koreys, vietnam, xitoy tillarida bo'g'in ohang turiga qarab so'z ma'nosini farqlaydi, ayni shu xususiyati bo'lgan tillarda u *sillabema* hisoblanadi. O'zbek tilida bo'g'inning bu funksiyasi nihoyatda kuchsizdir.

2. Bo'g'inning pedagogik-metodik ahamiyati ham bor: birinchi sinf o'quvchilarini to'g'ri o'qish va to'g'ri yozishga o'rgatishda, ularda to'g'ri talaffuz va imlo ko'nikmalarini shakllantirishda bo'g'inlab o'qitish va bo'g'inlab yozdirish yaxshi natija beradi.

3. Orfografiya qoidalarining bir qismi bo'g'in ko'chirilishiga asoslanadi.

4. Bo'g'inning she'riyatdagi turoqlarni, ohangdoshlik va musiqiylikni ta'minlovchi vosita sifatidagi roli ham katta. U she'riy misralardagi ritmni yuzaga keltiruvchi asosiy unsurlardan biri, ayni paytda vazn o'lchovi bo'lib xizmat qiladi.

Quyidagi she'riy parchalarni qiyoslab ko'raylik:

1. Kuy avjida uzilmasin tor,

She'r yarmida sinmasin qalam.

Yashab bo'lmay umrini zinhor,

Bu dunyodan ketmasin odam.

³⁵ Қаранг: Маҳмудов Аҳмаджон. Ўзбек адабий тилида сўзларнинг фонетик структураси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1984, 2-сон. 30 - 34-бетлар.

(E. Vohidov. "Kuy avjida uzilmasin tor").

2. She'rlarim – chechagim, hayotim,
She'rlarim boylikdir, bisotim,
Yomg'irdan namlanmas qanotim,
Oshaman bulutlar tog'idan!

(A. Umariy . "Yomg'irda").

Keltirilgan bu ikki she'riy parchani bir-biriga ohang jihatdan solishtirsa, ularning to'qqizlik turkumiga mansubligi ma'lum bo'ladi, shunga qaramay bu ikki she'rning ritmik xususiyatlari bir xil emas. Buning sababi shuki, ularning har birida bo'g'inlar turlicha guruhlanib kelmoqda. Qiyos qiling:

1. Kuy avjida ⁴ / uzilmasin tor ⁵ = 9
She'r yarmida ⁴ / sinmasin qalam ⁵ = 9
Yashab bo'lmay ⁴ / umrini zinhor ⁵ = 9
Bu dunyodan ⁴ / ketmasin odam ⁵ = 9
2. She'rlarim ³ / chechagim ³ , / hayotim ³ = 9
She'rlarim ³ / boylikdir ³ , / bisotim ³ = 9
Yomg'irdan ³ / namlanmas ³ / qanotim ³ = 9
Oshaman ³ / bulutlar ³ / tog'idan ³ = 9

4. Urg'u va uning tiplari. (Aksentema)

Urg'u so'z tarkibidagi bo'g'inlardan birining boshqasiga nisbatan kuchliroq ovoz bilan aytilishini yoki gaplardagi ayrim bo'laklarning, nutq oqimidagi ayrim frazalarning maxsus ohang bilan ta'kidlanishini ta'minlaydigan supersegment elementlardan biridir. Urg'u fonema, bo'g'in yoki frazadan tashqarida mavjud emas, u nutqda shu birliklar bilan birga qatnashadi, shunga ko'ra urg'uning quyidagi tiplari o'zaro farqlanadi: 1) so'z urg'usi; 2) sintagma urg'usi; 3) ayiruv (ta'kidlov) urg'usi.

I. So'z urg'usi bevosita so'zga aloqador bo'lgan, so'z tarkibidagi bo'g'inlardan biriga tushadigan urg'udir. Fonetik tabiatiga, tushadigan o'rniga va harakat qilish belgisiga ko'ra so'z urg'usi har xil bo'ladi.

1. Fonetik tabiatiga ko'ra so'z urg'usi dinamik, kvantitativ, tipik ottenkali va tonik (musiqiy) xarakterlarda bo'lishi mumkin:

a) *dinamik urg'u* (zarb urg'usi). Urg'uning bu turi so'z tarkibidagi bo'g'inlardan birining, ayniqsa, undagi unli tovushning kuchli zarb bilan talaffuz qilinishiga asoslanadi. Kuchli zarb va baland ovoz dinamik urg'uning akustik belgisi bo'lsa, shu ovozni yuzaga keltiruvchi nutq a'zo-lari muskullarining kuchlanishi (tortilishi, taranglashishi) bunday urg'uning fiziologik belgisi sanaladi. Dinamik urg'uli bo'g'inda kuchli zarbning bo'lishi uning shu so'z tarkibidagi boshqa bo'g'inlardan ajralib turishini ta'minlaydi;

b) *kvantitativ urg'u*. Urg'uning bu turi urg'uli bo'g'indagi unli tovushning cho'ziq (davomli) talaffuz etilishi bilan xarakterlanadi;

v) *tipik ottenkali urg'u* (sifat urg'usi). Urg'uning bu turi bo'g'inda unlining o'ziga xos tipik ottenkasi (sifat belgisi) saqlangan bo'lishi bilan xarakterlanadi, shu belgisiga ko'ra u urg'usiz bo'g'indagi unlining notipik ottenkasidan farqlanadi;

g) *tonik (musiqiy) urg'u*. Urg'uning bu turini olgan bo'g'in ovoz tonining o'zgarishi bilan urg'usiz bo'g'inlardan farq qiladi. Demak, tonik urg'uda un paxchalari chastotasi tezlashadi, ovoz toni esa balandlashadi.

Ko'pchilik tillarning so'z urg'usida yuqoridagi fonetik (fizik-akus-tik) belgilardan bir nechasi birga ishtirok etadi, ammo ulardan bittasi, ba'zan, ikkitasi shu til uchun yetakchi belgi hisoblanadi. Masalan: rus tilidagi so'z urg'usida tonik (musiqiy) urg'u belgisi yo'q, qolgan belgi-larning barchasi bor: cho'ziqlik mavjud, bo'g'indagi unlining asosiy sifat (akustik) belgilari saqlangan, zarb ham ishtirok etadi. Quyidagi misol-larning qiyosida buni yaqqol anglab olish mumkin: a) *oltún* (o'zb.) va *karan-tún* (rus.), *ovsún* (o'zb.) va *apelsún* (rus.) so'zlarining barchasida oxirgi bo'g'in urg'ulidir, barcha urg'uli bo'g'inlarda "i" unlisi qatnashgan, ammo ruscha *karantún*, *apelsún* so'zlaridagi "i" unlisi o'zbekcha *oltún*, *ovsún* so'zlaridagi "i" dan cho'ziqroq talaffuz etilmoqda. Bunday tafovutni *mav-zý* (o'zb.) va *medýza* (rus.), *mangý* (o'zb.) va *mangýsta* (rus.) so'zlarining urg'u-li bo'g'inlaridagi "u" unlisi qiyosida ham ko'ramiz. Rus tili fonetistlarining ta'kidlashicha, ruscha unli fonemalarning urg'uli bo'g'indagi cho'ziqlik darajasi urg'usiz bo'g'indagidan bir yarim barobar ortiqdir;³⁶

b) *górod* (im. padej, yed. chislo) – *gorodá* (im. padej, mn. chislo), *vodá* (im. padej, yed. chislo) - *vódy* (im. padej, mn. chislo) - *vody* (rod. padej, yed. chislo). Keltirilgan so'zlarning barcha grammatik shakllarida lab-lab, o'rta keng "o" unlisi qatnashgan, ammo u o'zining ana shu sifat belgilarini (lab-lab, o'rta keng "o" uchun tipik ottenkalarni) faqat urg'uli bo'g'inda saqlagan, urg'usiz bo'g'inlarda esa bu belgilar o'zgarib, "o" unlisi qisqa "a" (lablanmagan, quyi keng unli) tarzida talaffuz qilinmoqda: *garadá*, *vadá*, *vady* kabi. Unli fonemaning asosiy (tipik) ottenkasi namoyon bo'li-shi uchun so'z urg'usining qanday ahamiyati borligini shu misollar tahlili-dan anglab olish mumkin. Shuning uchun ham so'z urg'usining fonetik tabi-atini baholashda rus tilshunoslari birinchi o'ringa sifat belgilarini (unli fonemadagi asosiy ottenkalarining saqlanish darajasini), ikkinchi o'ringa cho'ziqlik belgisini va, nihoyat, uchinchi o'ringa zarb belgisini qo'yadilar.³⁷

O'zbek tilida ham musiqiy urg'u yo'q, ammo unda cho'ziqlik belgisi va zarb bor. Bu belgilar urg'uli bo'g'inni shu so'zdagi urg'usiz bo'g'inlardan ajratish imkonini beradi. Bunda shuni ham ta'kiddash kerakki, so'z urg'usining cho'ziqlik darajasi rus va o'zbek tillarida bir xil emas: rus tilidagi so'z urg'usining cho'ziqlik belgisi o'zbek tilidagidan ko'proq darajada seziladi. Buni yuqorida *oltún* va *karantún*, *ovsún* va *apelsún* so'zlari qiyosida ham ko'rib o'tdik. Demak, o'zbek tilidagi so'z urg'usida zarb birinchi o'rinda turadi, shunga ko'ra uni dinamik urg'u deb baholash maqsadga muvofiqdir.

Musiqiy (tonik, melodik) urg'u yapon, xitoy, koreys tillariga xosdir. Urg'uning bu turi boshqa fonetik belgilar, xususan, zarb urg'usi bilan aralash holda shved, norvej, serb, xorvat va litva tillarida ham uchraydi.

³⁶ Бу ҳақда қаранг: Матусевич М.И. Современный русский язык. Фонетика. М.: Просвещение, 1976. С.226.

³⁷ Қаранг. Матусевич М.И. Кўрсатилган асар. 225-бет.

2. O'rniga ko'ra so'z urg'usi ikki xil bo'ladi: bog'langan urg'u va erkin urg'u:

a) *bog'langan urg'uli* tillarda urg'u so'zdagi biror bo'g'inga doimiy bog'langan bo'ladi. Masalan, turkiy tillarda urg'u so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Bu xususiyat o'zbek tiliga ham xos: *kitób, daráxt, bolá, otá, shahár* kabi. Venger va chex tillarida so'z urg'usi birinchi bo'g'inga, polyak tilida esa so'zning oxiridan bitta oldingi bo'g'inga tushadi. Bunday xusu-siyat yuqorida keltirilgan tillarning urg'u tizimiga xos doimiy va asosiy belgilardir;

b) *erkin urg'uli* tillarda urg'u so'zning turli bo'g'inlariga tushadi. Rus tili ana shunday erkin urg'uli tillar tipiga kiradi. Unda urg'u so'zning birinchi bo'g'iniga (*mágniy, závuch*), ikkinchi, uchinchi bo'g'inlariga (*orátor, baktériya, oduvánchik, baraxólka*) va oxirgi bo'g'iniga (*banderól, peyzáj*) tushishi mumkin.

Erkin urg'uli tillarda urg'uning o'rni so'z ma'nolarini farqlash funksiyasini (fonologik vazifani) ham bajaradi, ana shu funksiyasida u *aksentema* hisoblanadi: *zamók (qulf)* va *zámok (qal'a, qasr, saroy, qo'rg'on)*, *párit (bug'lamoq)* – *parút (parvoz qilmoq)* kabi. Bog'langan urg'uli tillarda bu holat juda kam uchraydi: rus tilidan o'zlashgan so'z bilan o'zbek tili so'zlari o'rtasida shunday munosabat paydo bo'lganda (*atlás va átlas* kabi), sifatlar ravishga ko'chganda (*yangú va ya'ngi* kabi) urg'uning o'rni ma'no farqlash xususiyatiga ega bo'lishi mumkin, ammo bu xususiyat bog'langan urg'uli tillar uchun yetakchi va doimiy belgi hisoblanmaydi.

3. Harakat qilish belgisiga ko'ra so'z urg'usi ko'chadigan va ko'chmaydigan turlarga bo'linadi:

a) *ko'chadigan urg'u* muayyan tildagi so'zlarda, ayniqsa, ularning turli grammatik shakllarida bir bo'g'indan boshqa bo'g'inga o'tib turadi, demak, harakatda bo'ladi. Bu xususiyat rus tilida ko'proq uchraydi. Masalan: *zagnát–zágnan–zagonya't*; *zadát–zádal–zadalá, rána–ranénie* kabi. Rus tilidagi urg'uning turli o'rinlarga ko'chishi hatto bir so'zning o'zida ham uchraydi: *dokrasná–dókrasna, zalútıy–zálıtıy, kazakú–kazáki, ináche–únache, zagúb–zágib* kabi. Bu xususiyat rus tilidagi erkin urg'uning harakatchanlik belgisidir. Bunday belgi (harakat qilish, ko'chish) o'zbek tilidagi bog'langan urg'uda ham uchraydi, Masalan: *temúr–temirchú–temirchilúk* kabi. Demak, so'z urg'usining harakat qilish, ko'chish belgisi erkin urg'uli tillarda ham, bog'langan urg'uli tillarda ham bor, ammo ulardan birida (masalan, rus tilida) ko'chish turli yo'nalishda - oldingi bo'g'indan keyingi bo'g'inga yoki, aksincha, keyingi bo'g'indan oldingi bo'g'inlarga qarab bo'ladi. Masalan: *travá* (urg'u so'zning oxirgi bo'g'inida)–*trávıy* (urg'u oxirgi bo'g'indan oldingi bo'g'inga ko'chgan), *vúdno* (urg'u birinchi bo'g'inda) - *vidát* (urg'u oxirgi bo'g'inga ko'chgan) kabi. O'zbek tilidagi ko'chish esa asosan bir yo'nalishda sodir bo'ladi: urg'u o'zak oxiridan qo'shimchalarga tomon harakat qiladi. Masalan, *shahár–shaharlúk–shaharliklár* kabi. Demak, o'zbek tilidagi so'z urg'usining harakat qilishi bu tildagi urg'uning oxirgi bo'g'inga bog'langanlik belgisiga xilof emas, aksincha, u ayni shu me'yor talabi asosida oxirgi bo'g'inga ko'chmokda. O'zbek tilida so'z urg'usining oldingi bo'g'inga qarab ko'chishi juda kam uchraydi: *yangú (yangi uy)* va *ya'ngi (yangi kelib–ketdi)* kabi. Bulardan tashqari, so'z ma'nolari kuchaytirilganda, bu ma'nolar-ga uslubiy

bo'yoq qo'shish zarurati bo'lganda yuzaga keltiriladigan geminatsiya (bir xil undoshlarning qavatlanishi) hodisasida ham urg'uning oldingi bo'g'in-larga ko'chirilishi kuzatiladi: *mazá qilmoq - mázza qilmoq, yashamagýr - ya'shshamagur* kabi. Bunday paytlarda urg'u fonostilistik vositaga aylanadi;

6) *ko'chmaydigan urg'u* so'z tarkibidagi bitta bo'g'inga bog'langan bo'lib, u boshqa bo'g'inlarga o'tmaydi: rus tilidagi *zavód, naród, rabótat* so'zlari-ning turlanishi va tuslanishida bu hodisa kuzatiladi: *naród - naródy - naródov - naródam - dlya naróda; rabótat - rabótayu - rabótaesh - rabótaet - rabótayut - prorabótay - prorabótali* kabi. O'zbek tilida bu xususiyat ayrim olmoshlarning turlanishida kuzatiladi: *hámma - hámmani - hámmaning - hámмага - hámhada - hámmadan; bárcha - bárchani - bárchaning - bárchaga - bárchada - bárchadan* kabi.

O'zbek tilidagi qo'shma va juft so'zlarda urg'u ikki va undan ortiq bo'lishi ham mumkin. Bunday paytlarda oxirgi bo'g'indagi zarb kuchliroq bo'ladi va asosiy urg'u sanaladi, qolgan urg'ular ikkinchi darajali hisoblanadi: *kaltáke-sák, temürbetón, gultojüxo'róz, aká - uká, qozön - tovóq* kabi. Bunday ikkinchi darajali urg'ular, rus tilida ham uchraydi: *jelezöbetón, samöproizvólnost, tёмno - süniy* kabi.

So'z urg'usining til va nutqdagi roli: a) so'zning fonetik qobig'ini bir butun (kompleks) holatda ushlab turuvchi markaz bo'ladi; b) nutq oqimida so'zni boshqa so'zdan ajratib olishga yordam beradi; v) so'z urg'usining harakatchan turi so'zlarning leksik va grammatik ma'nolarini farqlashi ham mumkin; g) nutqda fonostilistik vosita bo'la oladi. Keyingi ikki holat urg'uning fonologik va aksentologik xususiyatlari sanaladi.

II. Sintagma urg'usi – nutq oqimining ma'no jihatdan muhim bo'lgan qismini (sintagmani) alohida ta'kidlash, ajratish uchun qo'llangan urg'u. Sin-tagmani aniqlash mezonni ikkitadir: a) semantik mezon; b) sintaktik mezon. Bu mezonlar sintagmaning grammatik - semantik jihatdan yaxlit bir butun kons-truksiya ekanligidan kelib chiqadi. Sintagma urg'usi fraza (gap) ichidagi mazmunan yaxlit, grammatik jihatdan bir butun bo'lgan qismni maxsus ta'kid-lash, uni shu fraza (gap) ichidagi boshqa sintagmalardan ajratish uchun xizmat qiladigan fonetik vositadir. Buni quyidagi nutqiy parcha tahlilida ko'rib chiqaylik: "Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarimizning piro-ward maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoit-larini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi". (Prezident I. Karimovning 1995 yil fevral oyidagi O'zbekiston Respubli-kasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruzasidan).

Yuqoridagi nutqiy parchada ikkita sodda yoyiq gap bor: 1." Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir". 2."Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksalti-rish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga

yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi". Har bir gap nutqning fonetik bo'linishida bir frazaga teng bo'lishini hisobga olsak, keltirilgan nutqiy parchada ikkita fraza borligi ma'lum bo'ladi. Frazalar, ma'lumki, katta pauzalar bilan bir-biridan ajratiladi (pauza ham fonetik vosita–intonatsiyaning tarkibiy uzvlaridan biri). Har bir fraza taktlarga (sintagmalarga) bo'linadi. Demak, sintagmalar frazaning qichikroq (qisqaroq) pauzalar bilan ajratiladigan parchalari-dir. Yuqoridagi ikki frazadan birinchisida quyidagi parchalar – sintagmalar bor: a) "Iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi barcha islohotlari-mizning pirovard maqsadi"; b) "yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir". Bu

sintagmalardan birinchisi alohida urg'u (sintagma urg'usi) bilan yakunlangan bo'lib, uning fonetik tabiati quyidagi belgilarga ega: sintagma oxiridagi "maqsadi" so'zining so'nggi bo'g'ini ochiq bo'lib, bu bo'g'indagi "i" unlisi cho'ziq talaffuz etilmoqda (kvantitativ urg'u), tovush toni ko'tarilgan (ton belgisi), kuchi esa intensivlashgan (zarb belgisi), bu hol shu sintagmaning ma'nosini alohida ta'kidlash imkonini bergan. Sintagma urg'u-sidan so'ng kelgan qisqa pauza birinchi va ikkinchi sintagmalarni bir-biridan ajratish vazifasini bajargan. Sintagma urg'usining o'rni kuzatilgan maqsad va nutq situatsiyasiga qarab o'zgartirilishi ham mumkin. Bunday paytda u gapning grammatik jihatlariga ham ta'sir qiladi. Qiyos qiling: *Bu shifokor - Dilbarning onasi. (Bu shifokor - ega sostavi; Dilbarning onasi - kesim sostavi). Bu - shifokor Dilbarning onasi, (Bu-ega, shifokor Dilbarning onasi - kesim sostavi).*

III. Ayiruv urg'usi – gap bo'laklaridan birini alohida ta'kidlash uchun yoki so'zlovchining his-hayajoni, voqyelikka munosabatini maxsus ifodalash maqsadida qo'llanadigan urg'u. U ikki turga bo'linadi: logik urg'u (mantiq urg'usi) va emfatik urg'u.

1. *Logik urg'u* – tinglovchining e'tiborini gap bo'laklaridan biriga alohida jalb etish, shu bo'lak orqali ifodalangan ma'noni maxsus ta'kidlash uchun qo'llanadigan urg'u. Gapning logik urg'u olgan bo'lagi odatda boshqa bo'laklardan kuchliroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: 1) *Men uni-versitetda o'qiyman (boshqa birov emas, men...)* 2) *Men universitetda o'qiyman (litseyda emas, universitetda...)* 3) *Men universitetda o'qiyman (ishlamayman, o'qiyman...)* kabi.

Logik urg'u ob'ekti bo'lgan bo'lakning leksik urg'uli bo'g'ini boshqa bo'g'inlardan kuchliroq, undagi unli esa ancha cho'ziq talaffuz etiladi.

2. *Emfatik urg'u* (emotsional urg'u). Urg'uning bu turi ham biror gap bo'lagini alohida ta'kidlashga asoslanadi, ammo logik urg'uda bo'lakning (so'zning) ma'no tomoni ta'kidlansa, emfatik urg'uda shu ma'no bilan birga so'zlovchining his-hayajoni, voqyelikka bo'lgan sub'ektiv munosabatini ifodalash ham maqsad qilinadi: bu urg'u gapdagi so'zning ta'sirchanligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan: *"Eh, qanday go'zal manzara! Tabiat shu daraja go'zalki, ko'rib bahridiling ochiladi!"* Bu gapda *qanday* va *go'zal* so'zlariga, aniqrog'i, shu so'zlardagi "qan-" va "-zal" bo'g'inlariga emfatik urg'u tushgan: shu bo'g'inlardagi unli tovush ancha cho'ziq va maxsus ton

Savol va topshiriqlar

1. Bo'g'in nima?
2. Bo'g'in tuzilishining qanday xususiyatlari bor ?
3. Bo'g'inning qanday tiplari bor ?
4. Bo'g'inning til va nutqdagi ahamiyati nimalardan iborat ?
5. Sillabema va sillabika deganda nimalar anglashiladi ?
6. Urg'u nima? Uning qanday tiplari bor?
7. Qanday hollarda urg'u aksentema sanaladi?
8. So'z urg'usining fonetik tabiatiga nimalar kiradi? Bu belgilariga ko'ra so'z urg'usining qanday turlari farqlanadi?
9. O'rniga ko'ra so'z urg'usining qanday turlari bor?
10. Erkin va bog'langan urg'ular qanday farqlanadi?
11. Urg'uning til va nutqdagi rolini qanday tushunasiz?

Tayanch tushunchalar izohi

Bo'g'in - nutq oqimining tovushdan katta, so'zdan kichik (ba'zan bir so'zga teng) segment birligi.

Sillabema - bo'g'inning fonologik birlik sifatidagi nomi.

Sillabika - bo'g'in (sillabema) haqidagi ta'limot.

Bo'g'in markazi - bo'g'in balandligi, u bo'g'in tarkibidagi unliga to'g'ri keladi.

Berkitilgan bo'g'in - SV, SVS tipidagi bo'g'inlar.

Berkitilmagan bo'g'in - V, VS tipidagi bo'g'inlar.

Ochiq bo'g'in - V, SV tipidagi bo'g'inlar.

Yopiq bo'g'in - VS, SVS tipidagi bo'g'inlar.

To'la ochiq bo'g'in - faqat bir unlidan iborat (V tipidagi) bo'g'in.

To'la yopiq bo'g'in - SVS tipidagi bo'g'in.

Boshi yopiq bo'g'in - SV tipidagi bo'g'in.

Oxiri yopiq bo'g'in - VS tipidagi bo'g'in.

Silliq bo'g'in - faqat bir unlidan iborat (V tipidagi) bo'g'in.

Kuchayuvchi bo'g'in - SV tipidagi bo'g'in.

Pasayuvchi bo'g'in - VS tipidagi bo'g'in.

Kuchayuvchi - pasayuvchi bo'g'in - SVS tipidagi bo'g'in.

Urg'u - so'z, sintagma yoki gapdagi supersegment elementlardan biri. U shu birliklar bilan nutqda birga qatnashadi, ularning ifoda va mazmun jihatlarini shakllantirishda yoxud ifodalashda ustama hodisa sifatida ishtirok etadi.

Aksentema - urg'uning so'z yoki nutq oqimidagi fonologik-aksentologik xususiyatlariga nisbatan nomlanishi.

Dinamik urg'u - zarb urg'usi.

Kvantitativ urg'u (miqdor urg'usi) - cho'ziqlik belgisiga ega bo'lgan urg'u.

Tipik ottenkali urg'u - bo'g'in tarkibidagi unlining asosiy otten-kasini saqlash imkonini beradigan urg'u.

Tonik (musiqiy) urg'u – ovoz tonining o'zgarishi, tovlanishiga asoslangan urg'u.

Bog'langan urg'u – muayyan tilda so'zdagi biror bo'g'inga doimiy bog'langan urg'u.

Erkin urg'u – muayyan tilda so'zning turli bo'g'inlarida uchraydigan urg'u.

Ko'chadigan urg'u – muayyan tilda so'zning bir bo'g'inidan boshqa bo'g'inga ko'chib turadigan urg'u.

Ko'chmaydigan urg'u – so'z tarkibidagi bir bo'g'inga doimiy bog'langan bo'lib, boshqa bo'g'inga ko'chmaydigan urg'u.

Sintagma urg'usi – nutq oqimining ma'no jihatidan muhim bo'lgan qismini (sintagmani) alohida ta'kidlash, ajratish uchun qo'llanadigan urg'u.

Ayiruv urg'usi – gap bo'laklaridan birini alohida ta'kidlash uchun yoki so'zlovchining his-hayajoni, voqyelikka munosabatini maxsus ifodalash maqsadida qo'llanadigan urg'u.

Fonostilistika – fonetik-fonologik birliklar va elementlarning, shu jumladan urg'uning ham matndagi uslubiy xususiyatlariga oid ta'limot. U stilistikaning bir bo'limi sanaladi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'zME, 2013.

2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.

4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Т., 1994.

2. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2009.

3. Mirtojdiyev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.

4. Nazarov K., Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. (Punktuatsiya). Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.

5. Ne'matov H, Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.

6. Ne'matov H, Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.

7. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. Oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.

8. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –T. 2006.

9. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasashining nazariy masalalari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti Toshkent-2010.

10. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Т., 1992

7-MODUL. GRAFIKA. IMLO. ORFOEPIYA.

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti-2 soat	Талабалар сони: 60 –70 gacha
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza (ommaviy, jamoaviy ishlash)
Ma'ruzalar	<p style="text-align: center;">MAVZULAR:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Grafika haqida ma'lumot. grafema, uning bilateral belgi sifatidagi tavsifi. 2. Grafemalarning ifoda va mazmun jihatlariga ko'ra turlari 3. Orfografik belgilar (defis), diakritik harflar va diakritik belgilar
Ma'ruza rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Grafika haqida ma'lumot. 2. Grafema grafik tizimning eng asosiy strukturaviy –funktional birligi ekanligi. 3. Grafemaning bilateral (ikki tomonga ega) birlik sifatidagi tavsifi. 4. Grafemalarning tashqi (ifodalovchi) tomoniga ko'ra guruhlanishi: harfiy va noharfiy belgilar guruhi. 5. Grafemalarning ichki (ifodalanuvchi) tomoniga ko'ra guruhlanishi fonografemalar, prosodemografemalar, logografemalarva morfografemalar, ularning referentlari haqida ma'lumot.
<p>O'quv mashg'ulotining maqsadi: Grafika haqida ma'lumot berish, grafema grafik tizimning eng asosiy strukturaviy-funktional birligi ekanligi haqida, grafemaning bilateral (ikki tomonga ega) birlik sifatidagi tavsifi, grafemalarning tashqi (ifodalovchi) tomoniga ko'ra guruhlanishi: harfiy va noharfiy belgilar guruhi haqida, grafemalarning ichki (ifodalanuvchi) tomoniga ko'ra guruhlanishi fonografemalar, prosodemografemalar, logografemalarva morfografemalar, ularning referentlari haqidagi ma'lumot bilan tanishtirish, shu asosda talabalarning mazkur mavzularga oid bilim darajasini shakllantirish..</p>	
<p style="text-align: center;"><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Grafika haqida ma'lumot beradi. • Grafema grafik tizimning eng asosiy strukturaviy –funktional birligi ekanligi haqida gapiradi. • Grafemaning bilateral (ikki tomonga ega) birlik sifatidagi tavsifini tushuntiradi. • Grafemalarning tashqi (ifodalovchi) tomoniga ko'ra guruhlanishi: harfiy va noharfiy belgilar guruhi haqida ma'lumot beradi. • Grafemalarning ichki (ifodalanuvchi) tomoniga ko'ra guruhlanishi fonografemalar, prosodemografemalar, logografemalarva morfografemalar, ularning referentlari haqida ma'lumot beradi. 	<p style="text-align: center;"><i>O'quv faoliyati natijalari :</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Grafika haqidagi ma'lumotga bo'ladi. • Grafema grafik tizimning eng asosiy strukturaviy –funktional birligi ekanligi haqida eshitadi. • Grafemaning bilateral (ikki tomonga ega) birlik sifatidagi tavsifini tushunadi. • Grafemalarning tashqi (ifodalovchi) tomoniga ko'ra guruhlanishi: harfiy va noharfiy belgilar guruhi haqidagi ma'lumotga bo'ladi. • Grafemalarning ichki (ifodalanuvchi) tomoniga ko'ra guruhlanishi fonografemalar, prosodemografemalar, logografemalarva morfografemalar, ularning referentlari haqidagi ma'lumotga ega bo'ladi.
Ta'lim berish usullari	Ma'lumotli ma'ruza ta'lim tex-nologiyasi, elektron matnning mantiqiy nuqtalarini ajratib ko'rsatish.
Ta'lim berish metodlari	Og'zaki, ma'ruza, hikoya, suhbat,

	ko'rgazmalilik, namoyish qilish
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, electron matn, proyektor, ekran, doska.
Ta'lim berish sharoiti	Hamkorlikda ishlash va taqdimotlarni amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, savol-javob.

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlaydi. 2. Ma'ruza uchun taqdimot slaydlarini tayyorlaydi. 3. Talabalarning o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqadi. 4. Mavzuni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini tuzib chiqadi.	Tinglaydilar Tinglaydilar
1. Mavzuga kirish (5-7 minut)	1. Mavzuning nomini aytadi. Mavzuga oid adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi. 2. O'quv faoliyatini baholash mezoni bilan talabalarni tanishtiradi (1- ilova). 4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (60-65 minut)	Slaydlarni namoyish qilish va izohlash orqali talabalarga mavzular bo'yicha asosiy nazariy ma'lumotlarni beradi.	Tinglaydilar, yozadilar.. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
3. Yakuniy bosqich (5-7 minut)	1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 2. Mustaqil ishlash uchun mavzuga oid topshiriqlarni beradi.	Savollar beradilar Vazifani yozib oladilar.

REJA:

1. Grafika haqida ma'lumot.
2. Grafemalarning tashqi (ifodalovchi) va ichki (ifodalanuvchi) tomoniga ko'ra guruhlanishi
3. Imlo (orfografiya) haqida ma'lumot. O'zbek imlosi.
4. Orfoepiya tushuncasi va mazmuni.

Tayanch so'zlarning o'zbekcha - inglizcha-ruscha lug'ati

O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Grafika	Graphemics	Графемика
Grafema	Grapheme	Графема
Fonografemalar	Fonographemes	Фонографемы
Prosodemografemalar	Prosodemographemes	Просодемографемы
Logografemalar	Logographemes	Логографемы
Morfografemalar	Morphographemes	Морфографемы
Simvollar	Symbols	Символы

MA'RUZA MAZMUNI

1. Grafika haqida ma'lumot.

Grafika asli grekcha graphikos so'zidan olingan bo'lib, tilshunoslikda yozuv degan ma'noni anglatadi.

Demak, grafika umuman olganda, harflar yoki chiziqlar vositasida aks ettiriladigan shartli belgilarning muayyan tizimidir. YOzuvning piktografik, ideografik va fonografik kabi turlari bor.

O'zbek yozuvi hozirgi holga kelgunga qadar uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tib, juda ko'p o'zgarishlarga uchraydi.


Til va yozuvning o'zaro munosabati. YOzuv ijtimoiy talablar asosida jamiyatning muayyan taraqqiyot davrida paydo bo'lgan va uning rivojlanishi bilan bog'liq ravishda mukammallasha borgan. YOzuv tildan keyin jamiyat tomonidan qo'lga kiritilgan eng kata madaniy irotuqlardan biri hisoblanadi va tilning yozuvdagi formasi sifatida jamiyatga xizmat qiladi. YOzuv bilan til o'zaro uzviy aloqadordir. SHuning uchun ham til bilan yozuv o'rtasida juda ko'p umumiy tomonlar mavjud. YOzuv ko'p hollarda tilning o'rnini bosadi. Ba'zi hollarda esa tilda bo'lmagan imkoniyatlar yozuv orqali iuzaga chiqadi. Masalan, yozuv tufayli kishilarning uzoq masofadan ham bir-birlari bilan, hatto o'zlaridan keyingi avlodlar bilan ham aloqa bog'lash imkoniyati mavjud. Biroq, yozuvning tilga nisbatan o'ziga xos kamchiliklari ham bor. Birinchidan, u tilning to'liq emas, balki yozuvdagi shartli va sun'iy aksidir. SHuning uchun ham tilning xizmat doirasida zid ravishda yozuvning xizmat doirasi chegaralangandir. Ikkinchidan, yozuv orqali ish ko'rilganda, vaqtdan irotqaziladi. Uchinchidan, yozuv maxsus vositalarsiz, ya'ni yozuv asboblarisiz amalga oshmaydi. To'rtinchidan, yozuv savodi yo'q kishilar uchun, shuningdek, tegishli sharoit bo'lmagan taqdirda (masalan, qorong'ida) ahamiyatini yo'qotadi.

Bundan tashqari, til jamiyatning barcha a'zolariga baravar xizmat qilganidek, jamiyat taraqqiyoti davomida o'z formasini keskin o'zgartirmagan holda o'sib, mukammallashib boradi. YOzuv esa, bir tomondan, tilga nisbatan kam o'zgaradi, ikkinchidan, u aloqa vositasining shartli formasi sifatida o'z tusini yangi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar yoki jamiyatning talablariga muvofiq nisbatan tezroq yoki butunlay o'zgartirishi ham mumkin. Qisqasi, yozuv ko'p jihatdan tilga yaqin bo'lib, ba'zi hollarda uning o'rnini bosa olsa ham, lekin vazifasi jihatdan unga nisbatan ancha chegaralangandir. SHuning uchun ham u jamiyatda aloqa vositasi sifatida til


bilan teng huquqli bo'la olmaydi.

Grafika muayyan tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik va morfologik birliklarini yozuvda ifodalash uchun maxsus shakllantirilgan optik-grafik belgilar tizimidir. Bu tizim belgilarining har biri grafik tilshunoslikda *grafemalar* sanaladi. Yozuvning tovush tili bilan aloqasi, odatda, ana shu grafemalar vositasida amalga oshiriladi. Shuning uchun ular grafik tizimning eng asosiy strukturativ-funksional birligi hisoblanadi.

Grafema tashqi (moddiy) va ichki (mavhum) tomonlari bor bo'lgan bilateral birlikdir. U shu ikki tomonning - *ifodalovchi va ifodalanuvchilarning* uzviy bog'liq bo'lishiga asoslanadi. Uni quyidagi chizmalar shaklida tavsiflash mumkin.



E s l a t m a: grafemaning bosma va yozma, bosh va kichik shakllari uning allograflari sanaladi.



Chizmalarda ko'rsatilgan grafemalarning birinchisi (Q grafemasi) alifbodagi harfga, ikkinchisi (? grafemasi) tinish belgisiga, uchinchisi (8 grafemasi) raqamga asoslangan. Shunga ko'ra birinchi tip grafemalar harfiy belgilar guruhini, ikkinchi va uchinchi tip grafemalar esa noharfiy belgilar guruhini tashkil etadi. Yozuvda ishlatiladigan *defies, apostrof* (tutuq belgisi) ham noharfiy belgilar guruhiga mansubdir. Muayyan til yozuvining grafik tizimi ana shunday grafemalar va yana bir qator yordamchi vositalar (*signalizatorlar, diakritik belgilar*) dan tarkib topadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, grafema y o z u v b i r l i g i, fonema,

intonema, aksentema va leksemalar esa til birliklaridir. Binobarin, grafema bilan fonema (yoki intonema, leksema) o'rtasidagi aloqa to'ppa-to'g'ri (bevosita) bo'lishi mumkin emas, bunga tovush tilining fizik-akustik asosga, yozuvning esa optik-grafik asosga tayanganligi yo'l qo'ymaydi.

Shuning uchun yozuv birligi (grafema) bilan til birligi (fonema, intonema yoki leksema) o'rtasidagi aloqa kodlashtirish orqali ta'minlanadi: kod turli informatsiyalarni uzatish, ishlash, saqlash va xotirlab qolish uchun mo'ljallangan shartli belgilar, simvollar sistemasidir. Har qanday grafema ana shu sistemaning bir a'zosi hisoblanadi.

Grafemalarning yozuvdagi lingvistik-funksional xususiyatlarini reallashtirishda ularning differensial belgilari (shakli yoki tasviridagi tafovutlar) muhim rol o'ynaydi. Bu jihatdan grafemalar tovush tilidagi *fonemalarga o'xshaydi*, chunki fonemalar ham, ma'lumki, differensial belgilar tufayli so'z yoki morfemalarning moddiy qobig'ini va ma'nolarini farqlaydi, *farqi shundaki, fonemalardagi differensial belgilar akustik-artikulatsion omillarga, grafemalardagi differensial belgilar esa optik-grafik omillarga asoslanadi*. Masalan, tovuq va sovuq so'zlarining ma'nolarini farqlashda "t" va "s" fonemalaridan birinchisining portlovchi, ikkinchisining esa sirg'aluvchi bo'lishi (*akustik-artikulatsion tafovuti*) tovush tili uchun qanchlik ahamiyatli bo'lsa, shu tovushlarni yozuvda ifodalovchi t va s grafemalarining shakllaridagi tafovutlari (optik-grafik tasviri) tilning yozma formasi uchun shunchalik ahamiyatlidir.

Grafemalar o'zlarining tildagi muqobili (kodlashtirilgan referenti) va yozuvdagi vazifalariga ko'ra fonografema, prosodemografema, logografema va morfografema kabi tiplarga bo'linadi.

1. Fonografemalar tovush tilidagi fonemalarni ifodalaydi: i fonografemasi "i" fonemasini, b fonografemasi "b" fonemasini ifodalagani kabi.

Fonografemalarning tashqi (ifodalovchi) tomoni bitta harfga teng bo'lishi (masalan, n) yoki ikki harf qo'shilmasidan tarkib topishi (masalan, ng) mumkin. Grafik lingvistikada *tashqi (ifodalovchi) tomoni* bir harfga teng bo'lgan grafemalar monograflar deb, ikki harf birikmasiga teng grafemalar esa digraflar deb nomlanadi. Yozuv tizimida grafemalarning uch yoki to'rt harf birikmasiga teng turlari ham uchraydi. Masalan, nemis yozuvida "sh" fonemasi uchun uch harf birikmasidan iborat grafema (sch trigrafi), "ch" fonemasi uchun esa to'rt harf birikmasidan iborat grafema (tsch poligrafi) belgilangan. Ikki yoki undan ortiq harflar qo'shilmasidan tarkib topgan grafemalar poligraflar deb ham nomlanadi.

Fonografemalarning ichki (ifodalanuvchi) tomonida bitta yoki bir necha fonema kodlashtirilgan bo'lishi mumkin. Masalan, o'zbek yozuvidagi g' fonografemasining ichki tomonida o'zbek tilining bitta fonemasi - chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangli "g" "undoshi, j fonografemasining ichki tomonida esa ikkita fonema - sirg'aluvchi "j" (*jurnal* so'zi boshidagi undosh) va qorishiq "dj" (*juda* so'zi boshidagi undosh) kodlashtirilgan. Grafemalarning ichki tomonida kodlashtirilgan fonemalar shu grafemalarning *ifodalanuvchilari* yoki *referentlari* deb ham yuritiladi. Ifodalanuvchisi (*referenti*) bitta bo'lgan grafemalar *monofonemali grafemalar*, ifodalanuvchisi ikkita bo'lgan grafemalar *bifonemali yoki polifonemali grafemalar* sanaladi.

Fonografemalarning monograf, poligraf, monofonemali va polifonemali

xarakterda bo'lishi ularning *paradigmatik* tavsifiga xosdir. *Sintagmatik* tavsifda (yozma nutq oqimida) esa grafemalarning yana bir qator xususiyatlari borligi ko'zga tashlandi. Xususan, *ong*, *ming* so'zlaridagi n va g harflari birikib, bitta tovushni (sayoz til orqali "ng"ni), *menga*, *senga* so'z shakllarida esa shu ikki harf alohida-alohida tovushlarni ("n" va "g" fonemalarini) ifodalamoqda. Shunga ko'ra, *ong*, *ming* so'zlaridagi ng *digrafi* sintagmatik planda analitik grafema (yozma nutq oqimida ikki harf bir tovushni ifodalagani uchun), *menga*, *senga* so'z shakllaridagi n va g harflari esa oddiy grafemalar (yozma nutq oqimida ikkita boshqa-boshqa tovushni ifodalagani uchun) hisoblanadi; rus-o'zbek yozuvidagi e monografida esa boshqacharoq holat (grafik qoida) kuzatiladi: u so'z yoki bo'g'in boshida bir yo'la ikki fonemani - "й+э"ni ifodalaydi, demak, sintetik xarakterdagi grafema sanaladi (mas., *елкан* so'zida), boshi yopiq yoki to'la yopiq bo'g'in tarkibida esa rus-o'zbek alifbosidagi e monografi bitta "э" unlisining ozini ifodalaydi, demak, oddiy grafema xarakterida (*bir tovushga bir harf munosabatida*) bo'ladi (mas., *мен* so'zida). Bu hol turli fonetik-grafik pozitsiyada qo'llangan e va э grafemalari o'rtasida *sinonimik munosabatni* ham shakllantiradi. Qiyos qiling: *экин* (э = "э")-*текин* (е = "э"). Bu ikki so'zda ifoda plani (shakli) har xil bo'lgan э va е grafemalari bitta "э" unlisini ifodalagan. Bunday holni *парад* va *паруад* (а va ya = "а"), *суд* va *салют* (у va ю = "у"), *флот* va *слёт* (о va ё = "о") so'zlari tarkibidagi grafemalar sinonimiyasida ham ko'ramiz. *Bular rus grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvi fonografemalarining strukturaviy va funksional, paradigmatik va sintagmatik xususiyatlari ancha murakkabligidan dalolat beradi.*

2. *Prosodemografemalar* tovush tilining ohang, melodika, pauza, urg'u kabi ritmik-intonatsion vositalarini yozuvda ifodalash uchun xizmat qiladi. Xususan, *urg'u belgisi* so'zning urg'uli bo'g'inini yozuvda ko'rsatish zarur bo'lgan paytlarda ishlatiladi. U urg'uli bo'g'indagi unli tovushni ifodalagan harf (grafema) ustiga qiya chiziq tarzida qo'yiladi: *atlas* ("matoning bir turi"), *átlas* ("geografik atlas") kabi. *Tinish belgilari* esa gap va nutqning mazmun mundarijasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan fonetik-fonologik vositalarni (*ko'tariluvchi ohang*, *pasayuvchi ohang*, *to'lqinli ohang*, *sanash ohangi*, *pauza* kabi supersegment birliklarni) yozuvda ifodalash uchun qo'llanadi. *Bunday belgilar quyidagi vazifalarni bajarish uchun ishlatiladi:*

- a) *ijtimoiy aloqani (fikir almashuvi jarayonini) yozuvda to'g'ri ifodalash uchun;*
- b) *maqsad, mazmun yoki ma'noni, ularning o'ziga xos "rang" va "tus"larini yozuvda aniq ifodalash uchun;*
- v) *gapning tarkibini hamda shu tarkib elementlari (komponentlari) o'rtasidagi grammatik-semantik munosabatlarni ifodalash uchun;*
- g) *yozma nutqning ixcham va ravonligini ta'minlash uchun;*
- d) *yozma nutqdagi murakkab fikriy munosabatlarni ifodalash uchun.*

O'zbek tilshunosligida tinish belgilarining quyidagi 10 ta turi grafikaning markaziy sistemasiga kiritiladi:

- Nuqta -----(.)
- So'roq belgisi -----(?)
- Undov belgisi -----(!)
- Nuqtali vergul -----(:)

Ko'p nuqta (uch nuqta)-----	(...)
Vergul (qo'sh vergul)-----	(,yoki ,,)
Ikki nuqta (bayon belgisi)-----	(:)
Tire (qo'sh tire)-----	(-yoki- -)
Qavs (qo'sh qavs)-----	(,[])
Tirnoq (qo'sh tirnoq) -----	(" ") (" "

Izoh: tinish belgilarining yuqorida sharhlangan xususiyatlari va shu asosda yuratilgan klassifikatsiyalar ularning *grafik belgi (prosodemografema)* sifatidagi xarakteristikasi hisoblanadi, ammo tinish belgilarining qo'llanishini me'yorlaydigan qoidalar tizimi esa grafikada maxsus ko'rilmaydi, chunki "qoidalar" "Grafika"ning emas, "Punktuatsiya"ning predmeti sanaladi.

Yuqorida sanab ko'rsatilgan tinish belgilarining misra balandligiga nisbatan joylashtirilishi ham bir xil emas: nuqta (.), vergul (,), ko'p nuqta (...) misraning pastki chizig'i bo'yicha qo'yib boriladi; qolgan belgilar, masalan, qavs (), nuqtali vergul (;), undov belgisi (!), so'roq belgisi (?), ikki nuqta (:), qo'sh tirnoq (" ") misraning ustki chiziqidan ostki chizig'igacha bo'lgan masofa hajmida yoziladi. Qo'sh tirnoqning asosan qo'lyozmada qo'llanadigan turi (" ") so'z yoki gap boshida misraning ostki chizig'i bo'ylab, shu so'z yoki gap oxirida esa misraning ustki chizig'i bo'ylab joylashtiriladi.

3. *Logografemalar (logogrammalar)*. Grafemalarning bu tipi tushunchalarni yoki tushuncha nomi bo'lgan so'zlarni yozuvda ifodalashga asoslanadi. Bunday belgilar aslida *ideografik (semasiografik)* yozuv tipiga mansub birliklar sanaladi, ammo ulardan fonografik yozuv tarkibida ham foydalaniladi. Yozuv tizimining murakkab optik-grafik sistema ekanligi ham shundan.

Kirill grafikasi asosidagi o'zbek yozuvida logografemalarning quyidagi turlari ishlatiladi:

Raqaqlar - son turkumiga mansub so'zlarning ma'nolarini ifodalovchi logografemalar. Ular o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

a) *g'arbiy arab (g'ubor) raqaqlari*: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 20, 100, 1000, 100000, 1000000, 1000000000 kabi.

Arab raqaqlari aslida Hindistonda (5-asrga yaqin) kashf etilgan bo'lsa-da, Arabistonga buyuk o'zbek olimi Muhammad Xorazmiyning arab tilida yozilgan "Hisob al-hind" ("Hind arifmetikasi haqida kitob") asari orqali kirib kelgan, bu usar lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropaga (10-asrda Ispaniyaga, 12-asrda Yevropadagi boshqa mamlakatlarga) tarqalgan. Demak, Hindistonda yuzaga kelgan yuqoridagi raqaqlarning "arab raqaqlari" nomi bilan ommalashib ketishida lumyurtimiz Muhammad Xorazmiyning ulkan xizmati bor;

b) *rim raqaqlari* - qadimgi rimliklar ishlatgan raqaqlar bo'lib, ular quyidagi belgilardan tarkib topgan: I (bir), V (besh), X (o'n), L (ellik), C (yuz), D (besh yuz), M (ming). Qolgan raqaqlar shu belgilar kombinatsiyasiga asoslanadi: I(1), II(2), III(3), IV(4), V(5), VI(6), VII(7), VIII (8), IX (9), X (10), XI (11), XII (12), XIII (13), XIV (14), XV (15), XVI (16), XVII (17), XVIII(18), XIX(19), XX(20), XXX(30) XL(40), L(50), LX (60), LXX(70), LXXX(80), XC(90), C(100), CD(400), D(500), DC(600), CM(900), M (1000), MC(1100), MD(1500) va boshqalar.

Rim raqaqlari miloddan oldingi 500-yillarda etrusklar tomonidan kashf

qilingan.

4. *Morfografemalar* soʻz tarkibidagi maʼnoli qismlarni (morfemalarni) ifodalovchi belgilar. Masalan, defies (chiziqcha) raqamdan keyin qoʻllanganda tartib son takibidagi “-nchi” (“-inchi”) morfemasini ifodalaydi – shu morfema defiesning referenti boʻladi: 5-uy (beshinchi uy), 20-xona (yigirmanchi xona) kabi. Biriq, qozon-tovoq, aka-uka kabi juft soʻzlarning yozuvdagi shakllarida defies morfografema emas, orfografik belgi vazifasida qatnashadi (juft soʻzlar orfogrammasiga tegishli boʻlganligi uchun).

5. *Simvollar* - ilm-fanning maʼlum sohalarida qabul qilingan maxsus ideografik belgilar: a) matematik simvollar - $\sqrt{\quad}$ (ildiz), - (oluv), + (qoʻshuv), x (koʻpaytiruv), : (boʻluv), X (iks), X² (iks kvadrat), ~ (davriylik, uzluksizlik), > (katta), < (kichik) va boshqalar; b) astronomik simvollar - ☉ (Quyosh), ☾ (Oy), ♂ (Mars), ♀ (Merkuriy), ♃ (Yupiter), ♀ (Venera, Zuhra), ♄ (Saturn) va boshqalar; d) kimyoviy simvollar - O (oltin), C (kumush), O (mis), δ (qoʻrgʻoshin), ♀ (simob), ♂ (temir) va boshqalar; e) botanik simvollar - A (androtsey, changchilar), O (bir yillik oʻsimlik), O (ikki yillik oʻsimlik), ♄ (buta), G (ginesey, urugʻchi), () gul boʻlaklari qoʻshilib oʻsgan), L (daraxt), Θ (kuzgi oʻsimlik) va boshqalar.

Yangi (lotin oʻzbek) yozuvining grafik tavsifi. Har ikki yozuv grafemalarining qiyosiy tavsifi

Lotin-oʻzbek yozuvi ham fonografik xarakterdagi sistema boʻlib, uning grafik tizimi, rus-oʻzbek yozuvida boʻlganidek, harfiy va noharfiy belgilardan tarkib topgan.

1. Harfiy belgilar

Harfiy belgilarning optik-grafik tasviri rus-oʻzbek yozuvi grafemalari shaklidan jiddiy farq qiladi.

Bu alifbo Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 -yil 6 -may qarori bilan tasdiqlangan. Ana shu alifbo harflariga asoslangan fonografemalarning ifoda jihatiga koʻra *monograf* (t, l, i...) *poligraf* (sh, ch, ng, ts) kabi tiplari mavjud. Mazmun planiga koʻra *polifonemali grafemalar* koʻpchilikni tashkil qiladi: o grafemasi oʻzbek tilining lablashgan, quyi keng "o" (“uyning tomi”) va ruscha oʻzlashmalardagi lablashgan, oʻrta keng "o" (“lugʻatning 5-tomi”) fonemalarini, j grafemasi sirgʻaluvchi "j" va qorishiq "dj"ni (“jargon” va “jahon” soʻzlarida), i grafemasi oʻzbek tilining "i" (*bir* soʻzida), rus tilining "i" (*lirika* soʻzida) va "ы" (*richag* soʻzida) fonemalarini ifodalagani kabi.

Sintetik va *sinonim* grafemalar yangi (lotin) oʻzbek yozuvining grafik tizimida yoʻq.

Yangi (lotin) oʻzbek yozuvida oʻzbek tilining 6 ta unli fonemasi 6 ta grafema vositasida ifodalanadi: i, e, u, o, o kabi. Rus- oʻzbek yozuvida esa bu 6 unli uchun 10 ta grafema qoʻllanmoqda: и,е,а, у,ѳ,о,е,ѳ,ю,я kabi.

2. Noharfий belgilar

Noharfий belgilarning aksariyati (signalizatorlardan boshqalari) rus- o'zbek yozuvidagidan farq qilmaydi: tinish belgilari (prosodemografemalar), raqamlar (logografemalar) va defis (chiziqcha) har ikkala yozuv uchun umumiydir.

Signalizatorlik funksiyasida *tutuq belgisi (apostrof)* qatnashadi, u rus-o'zbek yozuvidagi ayirish () belgisi o'rnida qo'llanmoqda.

Yangi (lotin) o'zbek yozuvida signalizatorlik vazifasini bajaruvchi yumshatish (i) belgisi ham yo'q.

Har ikki yozuv grafemalarining qiyosiy tavsifi

1. Kirill-o'zbek alifbosida **35 harf bor** [shu jumladan, ikkita diakritik harf (i, b) mavjud]. Lotin- o'zbek alifbosida **29 harf bor**, shulardan 3 tasi (**sh, ch, ng**) qo'shma harflardir. Ular grafemikada, yuqorida aytib o'tilganidek, digraflar yoki poligraflar sanaladi.

2. Har ikki yozuv tizimida monograflar ko'pchilikni tashkil qiladi, ularning aksariyati yozma nutq oqimida oddiy grafemalar sifatida qatnashib, harf va tovush aloqasida fonetik-grafik (fonografik) simmetriyani - "*bir tovushga bir harf*" munosabatini ta'minlaydi. Qiyos qiling: *maktab* (fonemalar - 6 ta, grafemalar - 6 ta, harflar - 6 ta) - *maktab* (fonemalar - 6 ta, grafemalar - 6 ta, harflar - 6 ta) kabi.

Fonetik-grafik simmetriya yozuv amaliyotida ijobiy hodisa sifatida baholanishi mumkin, chunki u tez va ravon o'qish ko'nikmasining shakllanishiga yordam beradi.

3. Kirill-o'zbek yozuvining grafik tizimida ikkita poligraf (**шч, нг** digraflari) bor. Lotin- o'zbek yozuvining grafik tizimida esa poligraflar ancha ko'p: **sh, ch, ng, ts, shch, ya, yu, yo** kabi. Alifboda ulardan uch tasi (sh, ch, ng) rasman qayd etilgan, qolganlarining yozma nutq oqimida ishlatilishi qoidalashtirilgan: konstitutsiya (ts = "t"), meshchan (shch = "m"), slavyan ("slavyan" so'zidagi "ya" = "я"), byuro ("byuro" so'zidagi "yu" = "ю"), aktyor ("aktyor" so'zidagi "yo" = "ё") kabi.

4. Kirill-o'zbek va lotin- o'zbek yozuvlarining grafik to'qimalaridagi belgilarining (grafemalarning) qiyosiy tavsifida yana bir jiddiy farqning borligi ko'zga tashlanadi, bunday farq masalaning statistik tomoniga taalluqli ekanligi bilan xarakterlidir. Buni "O'zbek tilining imlo lug'ati" (1976-y) misolida shunday izohlash mumkin:

Lug'atdagi barcha so'zlar - 65000, shulardan 4140 tasi "A" harfi bilan boshlanadi. "A" harfi bilan boshlangan so'zlar tarkibida "sh", "ch", "ng", "ts", "shch" fonemalarining qo'llanish chastotasi quyidagicha:

- "sh" fonemasi 573 so'z tarkibida bor (13,5%).
- "ch" fonemasi 481 so'zda qo'llangan (12%).
- "ng" fonemasi 93 so'zda uchraydi (2,24 %).
- "ts" fonemasi 133 so'zda mavjud (3 %).
- "shch" fonemasi 1 tagina so'zda qo'llangan .

Demak, 4140 soʻzdan 1280 tasida "sh", "ch", "ng", "ts", "shch" fonemalari ishtirok etgan. Rus-oʻzbek yozuvida shulardan ikkitasi - "η" va "щ" fonemalari analitik grafemalar (hr va shch digraflari) bilan, lotin- oʻzbek yozuvida esa 5 tasi - "ng", "shch", "sh", "ch", "ts" fonemalari analitik grafemalar (ng, sh, shch, sh, ch, ts poligraflari) bilan ifodalanmoqda. Bu hol analitik grafemalar (digraflar, poligraflar) tufayli sodir boʻladigan fonografik asimmetriya hodisasining lotin- oʻzbek yozuvida ancha keng tarqalishiga sabab boʻlmoqda. Qiyos qiling: xushchaxchaq (fonemalar - 9 ta, grafemalar - 9 ta, harflar - 9 ta) - xushchaqchaq (fonemalar - 9 ta, grafemalar - 9 ta, harflar - 12 ta), shoshилинch (fonemalar - 8 ta, grafemalar - 8 ta, harflar - 8 ta) - shoshilinch (fonemalar - 8 ta, grafemalar - 8 ta harflar - 11 ta), meshchan (fonemalar - 5 ta, grafemalar - 5 ta, harflar - 6 ta) - *meshchan* (fonemalar - 5 ta, grafemalar - 5 ta, harflar 8 ta: ruscha "щ" fonemasi lotin -oʻzbek yozuvida 4 ta harf qoʻshilmasi vositasida ifodalangan).

Yuqoridagi tahlildan koʻrinib turibdiki, yozma nutq oqimida yuz berishi mumkin boʻlgan fonetik-grafik asimmetriya hodisasi rus-oʻzbek yozuvida kam uchraydi, lotin- oʻzbek yozuvida esa u ancha koʻp tarqalgan. Ayniqsa, "sh", "ch" fonemalarining qoʻllanish chastotasi behad faol ekanligini (13,5 % + 12 %=25,5 % boʻlishini) hisobga olsak, lotin- oʻzbek yozuvidagi fonografik asimmetriyaning keng tarqalishiga sabab boʻlgan va boʻlayotgan omillarni bilib olish qiyin emas. Bunday asimmetriya esa, oʻz navbatida, tez va ravon oʻqish koʻnikmalarining shakllantirilishiga xalaqit bermoqda. Demak, uni (asimmetriyani) yozuv amaliyotining pedagogik-psixologik aspektidagi ijobiy hodisa deb baholab boʻlmaydi.

5. Kirill-oʻzbek yozuvining grafik tizimida rus tili orqali oʻzlashtirilgan soʻzlar tarkibidagi qattiq va yumshoq undoshlarni farqlash sistemasi bor, bu sistema yozma nutq oqimida qattiq undoshni ifodalovchi harflardan soʻng a, o, y harflarining, yumshoq undoshlarni ifodalovchi harflardan soʻng esa и, е, ё, ю, ya harflarining va yumshatish (ь) belgisining qoʻllanishiga asoslanadi. Lotin- oʻzbek yozuvining grafik tizimida esa bunday sistema yoʻq, bunga oʻzbek tili konsonantizmida qattqlik-yumshoqlik oppozitsiyasining (zidlanishining) yoʻqligi asos qilib olingan. Qiyos qiling: укол va пароль (rus- oʻzbek yozuvida) - ukol va parol (lotin- oʻzbek yozuvida), плуг va плюс (rus- oʻzbek yozuvida) - plug va plus (lotin - oʻzbek yozuvida), кислота va слёт (rus- oʻzbek yozuvida), kislota va slot (lotin - oʻzbek yozuvida) kabi. Lotin - oʻzbek yozuvining bu xususiyati oʻzbek yozuvining milliy pozitsiyalarini mustahkamlash uchun xizmat qiladi, ammo uning ayrim ruscha-baynalmilal oʻzlashmalarning fonetik-orfoepik xususiyatlarini yozuvda toʻgʻri ifodalash imkoniyatlarini cheklab qoʻyayotganligi ham shubhasiz.

Qiyos qiling: мотор va актёр (kirill - oʻzbek yozuvida) - motor va aktor (lotin - oʻzbek yozuvida), парад va наряд (kirill - oʻzbek yozuvida) - parad va narad (lotin- oʻzbek yozuvida), футбол va бюро (kirill - oʻzbek yozuvida) - futbol va buro (lotin- oʻzbek yozuvida) kabi. Bu tipdagi oʻzlashma soʻzlarni ruscha meʼyor asosida talaffuz qilish koʻpchilik oʻzbeklarda nutqiy koʻnikma holiga kelib qolganligini hisobga olsak, ularni yozuvda ham aks ettirish zarurati borligi maʼlum boʻladi. Shuning uchun prof. Sh. U. Rahmatullayev "Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalari"ga quyidagi ilovani kiritadi: "... soʻzning talaffuzi keskin oʻzgarib ketmasligi uchun baʼzan yo, yu, ya harflari yoziladi: боксёр - boksyor, бюро -

byuro, славян - slavyan kabi: Bu ilova yuqoridagi muammoni bir qadar hal qiladi, ammo u yo, yu, ya harflarining birikmali qo'llanishini aniq chegaralab bera olmaydi: yozuv amaliyotida sentabr va sentyabr, oktabr va oktyabr kabi so'zlarning ikki xil yozila boshlanganligi ham shundan bo'lsa kerak. Qolaversa, boksyor, byuro, slavyan, aktyor so'zlarining yozma shakllarida harflar miqdori fonemalar miqdoridan ortmoqda, demak, yozuvda fonetik-grafik asimmetriya yuz bermoqda, bu holni ham, yuqorida aytib o'tilganidek, ijobiy hodisa sifatida baholab bo'lmaydi.

6. Lotin- o'zbek yozuvida tutuq belgisi (') va o', g' kabi bosma harflarning mavjudligi so'zlarning yozuvdagi optik-grafik tasvirini bir qadar slag'allashtirayotganligi ham shubhasiz. *Qiyos qiling*: fʻyp (kirill - o'zbek yozuvida) - g' o' r (lotin- o'zbek yozuvida), fʻyʻza (rus- o'zbek yozuvida) - g'o'za (lotin- o'zbek yozuvida), bʻyʻma (rus- o'zbek yozuvida) - bo'g'ma (lotin- o'zbek yozuvida) kabi.

Yuqoridagi tahlildan shunday xulosa kelib chiqadi: lotin- o'zbek yozuvining grafik tizimini shakllantirishda asosiy e'tibor uning milliylik pozitsiyalarini mustahkamlashga, yozuv texnikasidan, ayniqsa kompyuter imkoniyatlaridan unumli foydalanishga qaratilgan, ammo yozuvning pedagogik-psixologik va estetik jihatlari o'ldirilgan.

3. IMLO (ORFOGRAFIYA) HAQIDA MA'LUMOT. O'ZBEK IMLOSI.

IMLO-Orfografiya –yozuv tizimining ikkinchi komponenti

Orfografiya (grek. Orthos- "to'g'ri"+grapho - "yozaman") yozuv sistemasining grafikadan keyingi ikkinchi komponenti bo'lib, u to'g'ri yozish me'yorlarini belgilaydigan qoidalar tizimidan tarkib topadi. Bunday qoidalar tizimini o'rganadigan fan (tilshunoslikning bir bo'limi) ham orfografiya deb nomlanadi.

Orfogramma - so'zlarning yoki so'z tarkibidagi fonema va morfemalarning imlo qoidalariga muvofiq yozilgan adabiy-orfografik shakli. Bunday shakllar (orfogrammalar) so'zlarning yoki so'z tarkibidagi fonema va morfemalarning til va nutqdagi ko'rinishlaridan birini adabiy-orfografik me'yor qilib tanlanishiga asoslanadi. Masalan, *arpa*, *asal* so'zlarining yozma shaklida orfogramma yo'q, chunki bu so'zlarning yozilishini grafikaning o'zi boshqaradi; *maqsad* so'zining yozma shaklini me'yorlashtirishda esa ikki xil holatdan birini asos sifatida tanlash zarurati paydo bo'ladi: *maqsad* (fonematik prinsipga soslangan shakl)- *maqsat* (fonetik prinsipga asoslangan shakl). Hozirgi o'zbek orfografiyasida birinchi holat (fonematik prinsipga asoslangan shakl) imlo uchun asos sifatida tanlangan, demak, bu so'z tarkibidagi "d" orfogramma sanaladi, uni talaffuziga moslab "t" harfi bilan yozish imloviy xato hisoblanadi. Bunday holatlar o'zak va affiksial morfemalarning imlosida ham uchraydi. Chunonchi, sifatdosh yasovchi "-gan" affiksi nitq

oqimida “-gan”, “-kan”, “-qan” shakllarida namoyon bo‘ladi: *borgan, ekkan, oqqan* kabi. Bulardan birinchisida (*borgan* sifat-doshida) orfogramma yo‘q (“-gan”ning til va nutqdagi ko‘rinishlari o‘zaro farqlanmagani uchun); *ekkan, oqqan* so‘zlarining yozma shakllarida esa orfogramma bor: ularda “-kan” va “-qan” allomorflari adabiy-orfografik me‘yor etib belgilangan, demak, til va nutqdagi uchta morfning (“-gan”, “-kan” va “-qan”ning) faqat talaffuzdagi ko‘rinishlari orfogrammaga asos qilib tanlangan.

Tog‘+ga, bog‘+ga kabi kelishik shakllarining rus-o‘zbek va lotin-o‘zbek yozuvlaridagi orfogrammalari ham o‘zaro farqlidir. Ulardagi o‘zak va affiksial morfemalar “*moq*” va “*-qa*” (rus-o‘zbek yozuvida) hamda “*tog*” va “*-ga*” (lotin-o‘zbek yozuvida) shakllarida yoziladi, demak, rus-o‘zbek yozuvida bu morfemalarning talaffuzdagi ko‘rinishlari (*moqqa, boqqa* kabi), lotin-o‘zbek yozuvida esa ularning tildagi asl ko‘rinishlari (*tog‘ga, bog‘ga*) orfogrammaga asos qilib olingan.

E s l a t m a: orfogramma bilan bog‘liq masalalar qo‘shma, juft va takroriy so‘zlar imlosida ham uchraydi, ammo bu masalalar o‘zbek tilshunosligida hali izchil tadqiq etilmagan.

Orfografiya va grafika o‘rtasidagi tafovutlar

Orfografiya grafikadan quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

1. *Grafika qoidalari* grafemalarning mazmun planini (referentini) kodlashtirishga asoslanadi. Chunonchi, odam so‘zida “d” ning yozilishi d grafemasining grafikada kodlashtirilgan fonemasiga mos, shu sababli bu so‘zning yozilishi grafika tomonidan boshqariladi.

2. *Orfografiya qoidalari* esa ma‘lum prinsiplar asosida orfogrammalarni tanlashga asoslanadi. Chunonchi, savod so‘zi oxirida (kuchsiz pozitsiyada) jarangli “d” fonemasi jarangsiz “t”ga o‘tadi (savot tarzida talaffuz qilinadi), demak, uni ikki xil yozish mumkin: savod (fonematik prinsip asosida) - savot (fonetik prinsip asosida). Bu ikki holatdan birini imlo uchun me‘yor (orfogramma) qilib tanlash orfografiya zimmasiga tushadi. Hozirgi o‘zbek orfografiyasida savod deb yozish qoidalashtirilgan. Bundan tashqari, orfografiyada qo‘shma so‘z komponentlarining qo‘shilib yoki ajratilib yozilishini, so‘z qismlarining satrdan- satrga ko‘chirilishini, bosh va kichik harflarning qo‘llanishini belgilab beradigan qoidalar ham borki, ular yozuvning grafikaga aloqador bo‘lmagan jihatlarni tartibga solish va boshqarish imkonini beradi.

Adabiy tilning og‘zaki shaklida so‘z tanlash, gap tuzish va to‘g‘ri talaffuz me‘yorlariga amal qilish qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, uning yozma shaklida orfografiya me‘yorlariga (imlo qoidalarga) amal qilish shunchalik muhimdir. Bunday me‘yorlarga amal qilish yozma nutq mazmunining to‘g‘ri va aniq idrok qilinishiga yordam beradi, yozma nutqda anarxiyaning (boshboshdoqlikning) avj olishiga yo‘l qo‘ymaydi. Adabiy tilning, xususan, yozma nutqning ijtimoiy-madaniy va ma‘rifiy rolini mustahkamlashda buning o‘ziga yarasha ahamiyati bor.

Orfografiya prinsiplari

Orfografiya prinsiplari - orfografiya qoidalarining tuzilishiga asos bo'lgan tamoyillar. Ularning quyidagi turlari bor:

1. Fonetik prinsip. Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalariga ko'ra so'z yoki so'z shakllari talaffuzdagi ko'rinishiga mos ravishda yoziladi. Masalan, tojik tilidagi *tanur* so'zining o'zbek tilida *tandir* deb, ruscha *shchetka* so'zining esa *cho'tka* deb yozilishi shu so'zlarning o'zbek tilidagi talaffuz me'yorlariga (fonetik prinsipga) asoslanadi. Shuningdek, *ek+gan*, *ek+guncha* kabi so'z shakllari ham o'zbek yozuvi imlo qoidalariga ko'ra *ekkan*, *ekkuncha* deb (talaffuziga mos tarzda) yoziladi.

Quyidagi holatlarda ham fonetik prinsipga amal qilinadi:

a) ayrim otlarga egalik affiksi qo'shilganda: *burun>burni*, *ko'ngil>ko'nglim*, *og'iz>og'zing*, *o'g'il>o'g'lim* kabi;

b) ayrim sifatlardan fe'l yasalganda: *ulug'>ulg'aymoq*, *sariq>sarg'aymoq* kabi;

d) *qotmoq*, *achimoq*, *isimoq* fe'llaridan sifat yasalganda: *qot(moq)>qattiq*, *nchi(moq)>achchiq*, *isi(moq)>issiq* kabi;

e) *son*, *ot*, *yosh*, *ong* so'zlaridan fe'l yasalganda: *son>sana*, *ot>atamoq*, *yosh>yashamoq*, *ong>anglamoq* kabi;

f) *ikki*, *yetti* sonlariga "-ov" affiksi qo'shilganda: *ikki>ikkov*, *yetti>ettov* kabi;

g) "-a" bilan tugagan fe'llarga "-v" yoki "-q" qo'shib ot yasalganda: *tanla>tanlov*, *sana>sanov*, *so'ra>so'roq*, *bo'ya>bo'yoq*, *sayla>saylov* kabi.

Orfografiyaning fonetik prinsipi yozuv bilan talaffuzni bir-biriga yaqinlashtiradi va imlo qoidalarining o'zlashtirilishini ham osonlashtiradi.

2. Fonematik prinsip. Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalariga ko'ra harflar (yoki grafemalar) so'z tarkibidagi fonemalarga moslab tanlanadi. Chunonchi, kitob, omad so'zlarining oxiridagi "b" va "d" fonemalari jarangsiz "p" (kitop) va jarangsiz "t" (omat) tarzida talaffuz qilinsa-da, fonemaning asosiy ottenkasiga mos ravishda "b" (kitob) va "d" (omad) harflari bilan yoziladi.

O'zbek tilshunosligida "fonematik prinsip" tushunchasi XX asrning oxirrog'ida qo'llana boshlandi, bungacha u morfologik prinsip bilan bir hodisa sifatida izohlanib kelingan.

Rus tilshunosligida yozuvning fonemaga tayanishi haqidagi dastlabki

fikr 1928 yilda N.F. Yakovlev tomonidan aytilgan edi, ammo u bu fikrni orfografiyaga nisbatan emas, yozuvning o'ziga nisbatan bildiradi. Orfografiyaga nisbatan bu fikr birinchi marta 1930 yilda R.I. Avanesov va V.N. Sidorovlar tomonidan bildiriladi: ular imloning bu tamoyilini fonologik prinsip deb atashadi.

Rus tili imlosining fonematik xarakteriga oid nazariya esa dastlab I.S. Ilyinskaya va V.N. Sidorovlarning maxsus maqolasida ancha keng yoritilgan. Keyinroq bu prinsip A.A. Reformatskiy tomonidan shunday ta'riflanadi: "Yozuvning fonematik prinsipi shundan iboratki, unga ko'ra har bir fonema qaysi pozitsiyada qo'llangan bo'lishidan qat'i nazar o'ziga birlashtirilgan harf bilan ifodalanadi".

3. Morfologik prinsip yoki analogiya prinsipi. Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalari so'zning ma'noli qismlarini (o'zak va affiksial morfemalarni), ular qanday

talaffuz qilinishidan qat'i nazar, asliga (tipik shakliga) mos ravishda yozishni talab qiladi. Chunonchi, "g" bilan boshlangan "-ga", "-gan", "-gani", "-guncha" qo'shimchalari "sh", "t", "p", "s" kabi jarangsiz undoshlar bilan tugagan o'zaklarga qo'shilganda "-ka", "-kan", "-kani", "-kuncha" shakllarida talaffuz qilinsa-da, morfemalarning asl shakllariga mos ravishda "-ga", "-gan", "-gani", "-guncha" yoziladi. *Qiyos qiling*: ishga (yozuvda) - ishka (talaffuzda), ketgan (yozuvda) - ketkan (talaffuzda), ketguncha (yozuvda) - ketkuncha (talaffuzda), topgan (yozuvda) - topkan (talaffuzda), misga (yozuvda) - miska (talaffuzda) kabi.

Eslatma: "q", "k", "g", "g'" bilan tugagan so'zlarga "g" bilan boshlangan affikslarning qo'shilishida bu qoidaga amal qilinmaydi: ular rus-o'zbek yozuvi imlosida talaffuziga ko'ra (fonetik prinsip asosida) yoziladi. *Qiyos qiling*: oq+ran (asl shakli)-oqqaH (talaffuzda)-oqqaH (ad.-orf.yozuvda), эk+ran (asl shakli)-экqaH (talaffuzda)-экqaH (ad.-orf.yozuvda), туғ+ran (asl shakli)-туғqaH (talaffuzda)-туғqaH (ad.-orf.yozuvda), соғ+ran (asl shakli)-соғqaH (talaffuzda)-соғqaH (ad.-orf.yozuvda) kabi.

4. Grafik prinsip. Bu prinsip, aslida, orfografiya qoidalarini emas, grafika qoidalarini belgilaydi - grafemalarning grafikada kodlashtirilgan fonemalarini ifodalashga asoslanadi, shunga ko'ra u, ba'zan, fonemografik prinsip deb ham nomlanadi. Chunonchi, sirg'aluvchi "j" bilan qorishiq "j"(dj) ning yozuvda bitta j grafemasi orqali ifodalanishi, "η" fonemasining esa ng digrafi bilan ifodalanishi grafikada kodlashtirilgan. Yozuvda bu me'yorga amal qilinadi, xolos: jemper (sirg'aluvchi "j"), jang (qorishiq "dj" va sayoz til orqa "η") kabi. Orfografiyaning bunday kodlashtirishga bevosita aloqasi yo'q, bu grafemalarning yozuvda qo'llanishini grafikaning o'zi boshqaradi.

O'zbek tilshunosligida grafik prinsipni etimologik prinsipga asos bo'lgan tamoyil deb yoki hatto bu ikki prinsipni bir hodisa sifatida ta'riflash hollari ham bor. Xususan, o'zbek grafik lingvistikasining yetakchi vakillaridan biri Faxri Kamolov uni ayni shu ma'noda sharhlaydi: "Imloda,-deydi u,- grafik prinsip bir xalqning ikkinchi xalq bilan bo'lgan madaniy aloqasiga va yozuvning qaysi grafik sistema negizida maydonga kelishiga bog'liqdir. Arab alfaviti asosidagi eski o'zbek yozuvida etimologik prinsipning to'la ravishda amalga oshirilishi uchun o'sha davrning grafik sistemasi asos bo'lgan. Shuning uchun ham arabcha-forscha so'zlar, mahalliy tillarda qanday o'qilishi va qaysi xilda talaffuz etilishidan qat'i nazar, o'zining grafik shaklini to'la ravishda saqlab qolgan, arab imlosida qanday bo'lsa, aynan shu shaklda yozilgan. Bu esa arab alfavitini qabul qilgan xalqlar yozuvida umumiy qonun sifatida asosiy prinsiplardan biri hisoblangan..."

Darhaqiqat, grafik prinsipning yuzaga kelishida bir xalqning ikkinchi xalq bilan bo'lgan madaniy aloqasi, uning yozuv sistemasiga tayanishi kabi omillarning roli bor: arab grafikasidagi eski o'zbek yozuvida qisqa unilarning yozuvda ifodalanmaganligi (باق - baqo: "abadiylik", "mangulik"; صغار - sig'or: "yosh bolalar", "go'daklar" kabi), arabcha leksik o'zlashmalarning yozma shakllarida o'zbek tili fonologik tizimiga xos bo'lmagan fonemalarni ifodalovchi ع (ayn), ث (se), ص (sod), ض (zod), ط (to), ظ (zo) kabi harf-grafemalarning qo'llanganligi (عزم - azm: «qat'iy qaror», «jazm»; ثنا - sano: «maqtov»; صابر - sobir: «sabrli», «bardoshli»; ضابط - zobit: «oqsoqol»; طالع - tole: «baxt», «taqdir»; ظفر - zafar: «g'alaba» kabilar) shundan dalolat beradi. Biroq, grafik prinsipning

mohiyatini o'zbek yozuviga asos bo'lgan boshqa til yozuviga xos grafik belgilar va qoidalarining aynan (manba tilning yozuvi va imlosida qanday bo'lsa, shundayligicha) saqlanishi bilan bog'lashning o'zi yetarli emas: bu prinsip manba tilidagi harf-tovush munosabatlaridan chetga chiqishi, bevosita o'zbek tilining o'zidagi harf-tovush munosabatlarini qamrab olishi ham mumkin. Masalan, rus-o'zbek yozuvining grafik tizimidagi o grafemasi ruscha leksik o'zlashmalardagi o'rta-keng lablangan "o" unlisini ifodalaydi: *opera, tonna* s'zlarining yozilishi o grafemasining shu xususiyatiga asoslangan, bu xususiyat aslida rus tilining grafik tizimidagi harf-tovush munosabatlarining (grafik qoidaning) o'zbek yozuviga aynan (o'zgarishsiz) ko'chirilishiga tayanadi, Faxri Kamolovning "grafik prinsipi"da shu holat nazarda tutilgan. *Biroq o grafemasining mazmun planida o'zbek tili vokalizmining quyi-keng, kuchsiz lablangan "o" unlisi (ota, bola so'zlarining birinchi bo'g'inidagi fonemasi) ham kodlashtirilgan. Bu holat rus tilining grafik tizimiga xos emas, chunki rus tilida quyi-keng "o" fonemasi ham, uni yozuvda ifodalaydigan grafema ham yo'q: o grafemasining o'zbekcha quyi-keng "o" fonemasini ifodalashi o'zbek tilining grafik tizimida nazarda tutilgan, shunga ko'ra ota, bola so'zlaridagi o grafemasining qo'llanishi ham grafik prinsipning mahsuli bo'ladi. Faxri Kamolovning etimologik yoki grafik prinsipga bergan ta'rifi esa ko'proq tarixiy-an'anaviy prinsip talablariga mosdir. Rus tilshunosi A.N. Gvozdevning uni etimologik yoki tarixiy prinsip deb nomlashida ham shu xususiyat hisobga olingan.*

5. Tarixiy-an'anaviy prinsip. Bu prinsipga asoslangan imlo qoidalari so'zlarning yoki so'z shakllarining qadimdan odat bo'lib qolgan formada yoki an'anaga mos shaklda yozilishini hozirgi imlo uchun me'yor tarzida belgilaydi. Chunonchi, hurriyat so'zi tarkibida ikkita "r"ning mavjudligi hozirgi o'zbek tili uchun me'yor qabul qilinadi, ammo shu so'z ishtirokida yasalgan jumhuriyat so'zida esa bir "r" yoziladi, chunki bu so'zni bir "r" bilan yozish qadimdan odat bo'lib qolgan.

Tarixiy-an'anaviy prinsip so'zning yoki so'z shakllarining haqiqiy tarkibi (fonema yoki morfemalari) yetarli aniqlanmagan holatlarga nisbatan ham qo'llanadi. Masalan, taqozo so'zining oxirgi bo'g'inidagi unli ba'zan "o", ba'zan "a" holida (taqozo yoki taqoza kabi) talaffuz qilinadi, shulardan qaysi biri to'g'ri ekanligi hozircha aniq emas. Biroq, shu narsa ma'lumki, yozuvda taqozo shakli aktivroq qo'llanib kelgan, bu omil hozirgi o'zbek yozuvi imlosiga ham asos bo'lgan.

Tarixiy-an'anaviy prinsipga amal qilish holatlari hozirgi paytda yaratilayotgan ayrim badiiy asarlar tilida ham uchrab turadi: klassik adabiyot tiliga taqlid tarzida so'zlarning eski o'zbek tiliga xos shakllari ishlatiladi. Masalan:

Gul fasli sanam

Sayr ila gulshanda bo'libdur.

g'uncha ko'z ochib

Gul yuzida xanda bo'libdur.

Gullar ichida

Shohi o'zim der edi lola,

Mag'rurligidan

Ul o'zi sharmanda bo'libdur (E.V.)

(Eski o'zbek tiliga xos birliklar - ila, ul, "-dur")

6. Differensiatsiya prinsipi (simvolik prinsip). Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalariga ko'ra, shakli bir xil bo'lgan so'zlar (omonimlar) yozuvda *signalizatorlar (ishora belgilari), diakritik belgilar vositasida yoki bir harf o'rnida boshqa harf ishlatish orqali farqlanadi*: atlas (mato) - atlas (geografik atlas), yangi (sifat) - yangi (ravish), tana (gavda) - ta'na (minnat), bandá (qul) - bándá (shayka), urish (urmoq) - urush ("jang") kabi. Keltirilgan so'zlarda urg'u

(') va ayirish (^) belgilari orfografiyaning differensiatsiya prinsipi talabiga ko'ra qo'llangan; urish va urush so'zlarida esa "i" va "u" harflarining ishlatilishi ham shu prinsipga asoslangan.

7. Shakliy-an'anaviy yozuv. Bu prinsip so'z boshida yoki oxirida ikki undosh qatorlashib kelgan leksik birliklarning imlosini qoidalashtirishga asos bo'ladi. Ma'lumki, o'tmishda turkiy tillarda so'z boshida ikki undosh qatorlashib kelmagan. Shuning uchun boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim so'zlarning boshida ikki undoshning yonma-yon qo'llanishi uchrasa, ulardan oldin yoki shu ikki undosh orasida bir unlini orttirish odati bo'lgan. Bu odat hozirgi jonli so'zlashuvda ham uchrab turadi: shkaf>ishkop, staj>istaj, drap>dirap, plan>pilon kabi. *Ba'zan so'z oxirida ham ikki undosh orasida bir unli orttiriladi yoki undoshlardan biri (so'nggisi) tushirib qoldiriladi*: sabr>sabir, nasr>nasir, nashr>nashir, go'sht>go'sh, g'isht>g'ish kabi. Shakliy-an'anaviy yozuv prinsipiga ko'ra bunday paytlarda so'zlar talaffuzi asosida emas, o'zlarining asl shaklini saqlagan holda yoziladi: shkaf, staj, drap, plan, sabr, nasr, nashr, g'isht, go'sht kabi.

Bu prinsipning mohiyati Faxri Kamolov tomonidan "etimologik yoki grafik prinsip" deb nomlangan tamoyil mohiyatiga juda yaqin turadi.

8. Semantik-uslubiy prinsip: a) *semantik prinsip* so'z yoki so'z shakllarining imlosini ularning ma'nolariga tayanib belgilaydi. Masalan, lola, po'lat (turdosh otlar) - Lola, Po'lat (atoqli otlar), ishchi ("chi" kasb oti yasovchi) - ish-chi? ("-chi"-so'roq yuklamasi), senda ("-da"- o'rin-payt kelishigi affiksi)- sen-da! ("-da"- kuchaytiruv va ta'kid yuklamasi) kabi; b) *uslubiy prinsip* asosida tuzilgan imlo qoidalari so'z yoki grammatik shakllarning semantik tarkibidagi uslubiy semalarning nutqdagi faollashuvini yozuvda ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, ota, ona, vatan, siz, o'zingiz kabi so'zlar yoki grammatik shakllar shu so'zlar (shakllar) orqali ifodalangan shaxslarga yoki tug'ilib o'sgan yurtga, diyorga alohida hurmat-e'tibor bildirilganda bosh harf bilan yoziladi: Ota, Vatan, Ona, Siz, O'zingiz kabi. Shuningdek, gap ichida tinchlik, ozodlik, mehnat, baxt kabi so'zlarning ba'zan bosh harf bilan boshlanishi ham uslubiy prinsip talablaridan kelib chiqadi. Masalan, Yashasin Ozodlik, Tinchlik kabi.

Og'zaki nutqda so'z ma'nosini kuchaytirish maqsadida so'z tarkibidagi ayrim undoshlarni qavatlantirish (geminatsiya) yoki unililarni cho'zish kabi holatlar uchrab turadi. Ular yozuvda ham harflarni qavatlantirish orqali ifodalanadi: maza va mazza, yashamagur va yashshamagur, rosa va rossa, opa va opa-a kabi. Bunday holatlar negizida ham uslubiy maqsadlar yotadi.

9. Sintaktik prinsip. Bu prinsip bob, abzats, gap boshidagi birinchi so'zning bosh harf bilan boshlanishi kabi holatlarni me'yorlashtiruvchi qoidalarni belgilaydi. o'proq *sintaktik prinsipga* tayanadi.

Orfografiyaning semantik-uslubiy va sintaktik prinsiplari V.F. Ivanovning "Принципы русской орфографии" monografiyasida maxsus yoritilgan, ammo o'zbek tilshunosligida bu masala hali yetarli tadqiq etilmagan.

Amaldagi (kirillcha) o'zbek yozuvi imlo qoidalarining shakllantirilishida fonetik, fonematik va morfologik prinsiplarga ko'proq amal qilingan.

Tekshirish savollari va tayanch tushunchalar

- 1.Orfografiya nima? Orfografiya atamasining qanday ma'nolari bor?
- 2.Orfografiya bilan grafika o'rtasida qanday tafovutlar bor?
- 3.Orfografiya prinsiplarining mohiyatini qanday tushunasiz?
- 4.Imlo qoidalarining tuzilishi qanday prinsiplarga tayanadi?
- 5.Fonetik va fonematik (fonologik) prinsiplar qanday farqlanadi?
- 6.Morfologik prinsipga asoslangan qoidalarning mohiyatini qanday tushunasiz?
- 7.Grafik prinsip qanday qoidalarga asos bolgan?
- 8.Tarixiy-an'anaviy prinsip asosida qanday qoidalar yuzaga kelgan?
9. Differensiatsiya yoki simvolik prinsip asosida tuzilgan qoidalarning mazmun-nohiyatini qanday tushunasiz?
- 10.Shakliy-an'anaviy prinsip yozuv me'yorlarini qanday belgilaydi?
- 11.Semantik-uslubiy va sintaktik prinsiplar haqida nimalarni bilasiz?

Tayanch tushunchalar

Orfografiya (grek. Orthos- "to'g'ri"+grapho - "yozaman") – muayyan til yozuv sistemasining to'g'ri yozishni belgilaydigan qoidalari tizimi.Tilshunoslikning imlo qoidalari xususida bahs yurituvchi bo'limi ham *orfografiya* deb ataladi.

Orfografiya prinsiplari - orfografiya qoidalarining tuzilishiga asos bo'lgan tamoyillar.

Orfogramma- so'zlarning yoki so'z tarkibidagi fonema va morfemalarning imlo qoidalariga muvofiq yozilgan adabiy-orfografik shakli.

Adabiyotlar: A-5 (101-108), A-6(101-108), Q-2 (164-173)

IMLO QOIDALARI

1. Kirill-o'zbek yozuvining imlo qoidalari dastlab 1940- yilning 4 -iyulida yangi alifbe hukumat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan va shu yilning o'zida "Birlashgan o'zbek alfaviti va orfografiyasi" nomli to'plamda e'lon qilingan. Keyinchalik bu qoidalar yana bir necha marta qayta ishlandi, shular asosida 1952, 1953,1955-yillarda "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" loyiha tarzida besh marta qayta nashr qilindi, nihoyat, uning 5-nashri 1956-yilning 4-aprelida O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan tasdiqlandi. Hozirgi rus-o'zbek yozuvining imlosi ana shu "... qoidalar"ga asoslangan. U quyidagi 5 bo'limni o'z ichiga oladi:

1. Ayrim harflar imlosi (1-30-§ qoidalari).
2. O'zak-negiz va qo'shimchalar imlosi (31-55-§ qoidalari).
3. Qo'shma so'z va so'z birikmalari imlosi (56-58-§ qoidalari).
4. Bo'g'in ko'chirilishi (59-62-§ qoidalari).

5. Bosh harflarning yozilishi (63-72-§ qoidalar).

2. Yangi (lotin) o'zbek yozuvining imlo qoidalarini 1995 -yilning 24 -avgustida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan va shu yilning o'zida "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini" nomi bilan kitobcha shaklida nashr qilingan. U quyidagi 7 bo'limni o'z ichiga oladi:

1. Harflar imlosi:

Unlilar imlosi (1-7-qoidalar).

Undoshlar imlosi (8-32-qoidalar).

2. Asos va qo'shimchalar imlosi (33-37-qoidalar).

3. Qo'shib yozish (38-50-qoidalar).

4. Chiziqcha bilan yozish (51-56-qoidalar).

5. Ajratib yozish (57-65-qoidalar).

6 Bosh harflar imlosi (66-74-qoidalar).

7. Ko'chirish qoidalarini (75-82-qoidalar).

Har ikki yozuvning imlo qoidalaridagi tafovutlar

Rus-o'zbek yozuvi imlo qoidalarining ayrim paragraflari yangi (lotin) o'zbek yozuvi imlo qoidalarini tarkibiga kiritilmagan. Masalan: 2-paragraf (3-moddasi); 6-paragraf (2 va 3-moddalari); 8-paragraf (1-moddasi); 9-paragraf ("ë" harfi), 10-paragraf ("ю" harfi), 11-paragraf ("ya" harfi), 2-paragraf (2-moddasi), 13-paragraf (v>b kabi holatlar), 21-paragraf, 22-paragraf (2-moddasi), 26-paragraf (1-moddasi), 27-paragraf, 28-paragraf, 31-paragraf, 40-paragraf, 41-paragraf, 48-paragraf, 49-paragraf, 50-paragraf (2-moddasidagi "y/ю" ga aloqador qism), 52-paragraf, 58-paragraf va boshqalar. Yuqorida berilgan qoidalarining yangi qoidalar to'plamiga kiritilmaganligi bir qator omillarga asoslanadi: "e" harfining yangi yozuvda faqat "э" unlisini ifodalashi ("й+э"ni emas), ё,ю,ya harflarining yangi alifboda yo'qligi, ayrim qoidalarining o'zini oqlamaganligi kabi sabablar shular jumlasidandir.

Bu ikki yozuv imlo qoidalarida yana quyidagi tafovutlar bor:

1. Rus grafikasi asosidagi o'zbek orfografiyasida "-уқ(-uq)" "-иқ" ("-iq") qo'shimchasining imlosi qoidalashtirilmagan, lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi orfografiyasida esa bu qo'shimchaning imlosiga oid maxsus eslatma bor, unda shunday deyiladi: "Undosh bilan tugab, tarkibida u unlisi bor fe'lga -uq qo'shiladi: *uz-uzuuq, yut-yutuuq* kabi. Lekin *uyushiiq, burushiiq, uchuriiq* (shuningdek, *bulduriiq*) kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida "i" aytiladi va shunday yoziladi. (Q.: 33- qoidaning eslatma qismi);

2. Ma'lumki, otlarga egalik qo'shimchalarining qo'shilishida har xil holatlar uchraydi. Masalan, bobo va avzo so'zlariga egalik qo'shimchasi ikki xil tarzda -bobo so'ziga "-m" va "-ng" shakllarida (*bobom, bobong* kabi), avzo so'ziga esa "y+im", "y+ing" shakllarida ("o" dan so'ng bir "y" orttirilib) qo'shiladi: *avzo+y+im, avzo+y+ing* kabi. Bunday holatni "u" bilan tugagan ayrim so'zlarda ham uchramiz: *uyqu+m, uyqu+ng*, ammo *mavzu+y+im, mavzu+y+ing* kabi. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvining imlosida bunday holatlarni me'yorlashtiruvchi qoidalar yo'q edi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvining imlo tizimida esa yuqoridagi kabi holatlar hisobga olingan. Unda,

tasviri, shunday qoida berilgan: "o,o',u,e unilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi:

1) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari -m, -ng, -si; -miz, -ngiz (yoki -lar) shaklida tovush orttirmay qo'shiladi: *bobom, bobong, bobosi; bobomiz, bobongiz, bobosi* (yoki *bobolari*); *orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi* kabi.

2) *parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo* so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir "u" tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obro'yim, obro'ying; obro'yimiz, obro'yingiz* kabi. III shaxs egalik qo'shimchasi *parvo, avzo, obro', mavqe* so'zlariga "-yi" shaklida, *xudo, mavzu* so'zlariga esa "-si" shaklida qo'shiladi: *avzoyi, mavzusi* kabi (*avzoyi* kabi "y" undoshi bilan tugagan so'zga ham III shaxsda "-si" qo'shiladi: *avzoyisi* kabi). (qarang: 35-qoidaning 3-bandi).

3) Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra *шовул, овул, қувур* so'zlarida "v" dan so'ng "y", *шовилламоқ, ловилламоқ, гувилламоқ* fe'llarida esa "v" dan so'ng "и" yoziladi. (q.: 2- va 50-paragraf qoidalari). Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvida yuqoridagi ot va fe'llar uchun bitta umumiy qoida berilgan, bu qoidaga ko'ra taqlidiy so'zlardan yasalgan fe'llarda ham "v" dan+ so'ng "i" emas, "u" yoziladi: *shovulla, lovulla* kabi. (qarang: 37-qoidaning 1-bandi).

4) Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida ("...qoidalar"ning 42-paragrafida) fe'llarning orttirma daraja yasovchi "-dir" qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga "-tir" shaklida qo'shilishi aytilgan, aslida esa jarangli "z" dan so'ng "-tir" emas, "-dir" qo'shiladi. Qiyos qiling: *cho'miltirmoq, sevintirmoq, ammo tomizdirmoq, oqizdirmoq* kabi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosida bu kamchilikka barham berilgan. Unda shunday qoida bor: *"nisbat shaklini yasovchi "-dir" qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga (kel so'zidan boshqa), shuningdek z undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchidan keyin qo'shiladi: quvdir, egdir, kuldir, yondir; otkazdir, tomizdir* kabi". (Qarang: 37-qoidaning 2-bandi).

5) Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida ("...qoidalar"ning 34-paragrafida) "Ғ" yoki "г" bilan tugagan so'zlarga "r" bilan boshlangan qo'shimchalar qo'shilganda, so'z oxiri va qo'shimcha boshidagi undoshlar, aytilishiga mos holda yozilishi qoidalashtirilgan: *boz-boqqa, toz-toqqa, barg-barqqa, tez-tekkан* kabi. Lotin grafikasiga asoslangan yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra esa bunday so'zlar talaffuziga (fonetik prinsipga) ko'ra emas, morfemalarning asl holiga mos ravishda (morfologik prinsip asosida) yoziladi: *bog'ga, tog'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha, bargga, teggan* kabi. (Qarang: 37-qoidaning "v" bandi).

6) 1956 yil "... qoidalari"ning 43-paragrafiga ko'ra "-гир", "-гин", "-гиз", "-газ" qo'shimchalari jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda aytilishiga muvofiq "-кир", "-қир"; "-кин", "қин"; "-киз", "-қиз"; "-каз", "қаз" shakllarida yoziladi: *ўтқир, чопқир; кескин, мoшқин; етқизмоқ, ётқизмоқ; ўтказмоқ, катқизмоқ* kabi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra "-gin" qo'shimchasi "-k" yoki "-q" bilan tugagan so'zlardan boshqa so'zlarga qo'shilganda, so'z qanday tovush bilan tugashidan va qo'shimchalarning bosh tovushi k yoki g aytilishidan qat'i nazar, "g" bilan yoziladi. Qiyos qiling: *тартқин* (1956 yil

qoidasiga ko'ra) - *tortgin* (1995 yil qoidasiga ko'ra), *тонкин* (1956 yil qoidasiga ko'ra) - *topgin* (1995 yil qoidasiga ko'ra), Biroq, "-гир" ("-gir"), "-гиз" ("-giz"), "-газ" ("-gaz") qo'shimchalari bu qoida doirasiga kiritilmagan.

7. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvining "...asosiy qoidalari"da ikki otdan tuzilgan qo'shma sifatlarning ajratib yozilishi aytilgan: *дупор бўйин* (ot+ot=qo'shma sifat), *havo ранг* (ot+ot= qo'shma sifat), *бодом қовоқ* (ot+ot qo'shma sifat), *қўй кўз* (ot+ot= qo'shma sifat), *эўза нўчоқ* (ot+ot= qo'shma sifat) kabi (58-paragraf, 3-qoida). Qo'shma sifatlarning imlosiga oid bu qoida amalda o'zini oqlagani yo'q: *оромбахш*, *бўздойранг*, *илҳомбахш* so'zlari "ot+ot= qo'shma sifat" qolipida tuzilgan bo'lishiga qaramay, deyarli barcha imlo lug'atlarida qo'shib yozilgan, *девсифат*, *одамсифат* so'zlari esa (ular ham "ot+ot= qo'shma sifat" qolipida shakllangan) lug'atlarda har xil berilmoqda. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi "...qoidalari"da bu tipdagi qo'shma sifatlarning imlosi bir qadar tartibga solingan: "...qoidalar"ning 38-bandida, xona, noma, baxsh, rang, mijoz, sifat kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlarning qo'shib yozilishi qayd etilgan: *qabulxona*, *tabriknoma*, *orombaxsh*, *kamquvvat*, *bug'doyrang*, *sovuqmijoz*, *devsifat*, *suvtalab* kabi. (Qarang: 38-qoida). Shu qoida talablaridan kelib chiqqan holda, *havo rang*, *jigar rang*, *bodom qovoq*, *qo'y ko'z* kabi qo'shma sifatlarning komponentlari ham lotin-o'zbek yozuvida qo'shib yozilishi kerak. Qiyos qiling: *havo ранг*(rus-o'zbek yozuvida) - *havorang*(lotin-o'zbek yozuvida), *бодом қовоқ* (rus-o'zbek yozuvida) - *bodomqovoq*(lotin-o'zbek yozuvida), *қўй кўз*(rus-o'zbek yozuvida) - *qo'yko'z* (lotin-o'zbek yozuvida), *жигар ранг*(rus-o'zbek yozuvida) - *jigarrang* (lotin-o'zbek yozuvida) kabi.

8. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlo qoidalariga ko'ra *минг бoши*, *ўн бoши*, *сўз бoши* kabilar "birikmalik xususiyatini saqlagan so'zlar (?)" sifatida ajratib yoziladi (Qarang: 58-paragraf, 12-qoida). Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra esa "qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *mingboshi*, *so'zboshi*, *olmaqoqi*"(Qarang: 46-qoida).

9. 1956 yil "...qoidalari"da ikkinchi komponenti "e"lashgan tovush bilan boshlangan *шер юрак*, *муз ёрап*, *ush ёқмас*, *қўл ёзма* tipidagi so'zlarning ajratib yozilishi aytilgan (Qarang: 58-paragraf, 14-qoida). Lotin grafikasi asosidagi yangi yozuvda bunday so'zlar qo'shib yoziladi: *sheryurak*, *muzyorar*, *ishyoqmas* kabi (Qarang: 39-qoida).

10. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra *еру осмон*, *ору номус*, *туну кун*, *кечаю кундуз*, *ёшю қари*, *қўю кўзи* kabi juft so'zlarda defis (chiziqcha) qo'yilmaydi (57-paragraf, eslatma). Lotin grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra ham bunday so'zlar ajratib yoziladi, ammo ularning qismlari orasida -u(-yu) bog'lovchisi kelsa, shu elementlardan oldin chiziqcha qo'yiladi: *do'st-u dushman*, *kecha-yu kunduz* kabi (51-qoidadagi eslatmaning 2-bandi).

11. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra yil va oylarni (chislolarni) ko'rsatuvchi arabcha raqamdan so'ng chiziqcha (defis) yozilmaydi: *1956 йил 22 сентябрь* kabi (47-paragraf qoidasi). Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra bunday o'rinlarda chiziqcha qo'yiladi: *1991-yilning 1-sentabri*, *60-yillar* kabi (56-qoida).

12. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra *алла*, *қай* elementlari so'zga qo'shib yoziladi: *аллаким*, *аллақандай*, *қайбир*, *қайвақт* kabi (58-qoida, 13-bandi). Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra qay so'zi o'zidan keyingi yoki oldingi so'zdan ajratib yoziladi: *qay kuni*. Agar qay so'zi yoq, yet so'zlari bilan ishlatilganda, bir "y" tovushi tushsa, bu so'zlar qo'shilib yoziladi: *qayoqqa*, *qayerga* kabi (60-qoida).

Izoh: lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek imlosida *alla* komponentli so'zlarga qoida berilmagan, ularga munosabat ham bildirilmagan.

13. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra *бир* o'z ravishi tarkibidagi komponentlar ajratib yoziladi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra biroz so'zining komponentlari qo'shib yoziladi (60-qoida).

14. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida *йилдан-йилга*, *кўпдан-кўп* tipidagi birliklar juft so'zlar doirasida qaralgan, shu bois ularning komponentlari orasida chiziqchanning (defisning) yozilishi qoidalashtirilgan (57-paragraf, 1-qoida). Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalarning komponentlari, shuningdek, belgining ortiq darajasini bildiruvchi *kopdan kop*, *tekindan tekin*, *yangidan yangi*, *ochiqdan ochiq*, *qizigandan qizigan* kabilar ajratib (chiziqsiz) yoziladi (64-qoida).

15. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida izofali so'zlarning (*нуқтаи назар*, *ойнаи жаҳон*, *дарди бедavo* kabilarning) ajratib yozilishi nazarda tutilgan (58-paragraf, 7-qoida). Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosida bu qoidaga bitta o'zgarish kiritilgan: endilikda (yangi yozuvda) izofa undosh bilan tugagan so'zlarga "i" shaklida (masalan, *dardi bedavo* kabi), unli bilan tugagan so'zlarga esa "yi" shaklida (masalan, *nuqtayi nazar* kabi) qo'shiladi (65-qoida).

16. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi "...qoidalari"ning 69- va 71-paragraflari bir xil hodisaning birikmali nomlarini ikki xil yozishga yo'l ochadi: birikma muhim yig'ilish nomi bo'lganda, undagi har bir so'z bosh harf bilan, birikma muhim tarixiy voqea nomi bo'lganda esa undagi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi (demak, ... qolganlari kichik harf bilan yoziladi): *Крим Конференцсууаси* (69-paragraf qoidasiga mos) - *Крим конференцсууаси* (71-paragraf qoidasiga mos).

I z o h : birinchi misolda *Крим Конференцсууаси*ning muhim yig'ilish nomi ekanligi, ikkinchi misolda esa shu birikmaning muhim tarixiy voqea nomi hisoblanishi nazarda tutilgan.

Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosida shu ikki qoidadan faqat bittasi saqlangan, unga ko'ra "Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni*, *Xotira kuni*, *Ramazon hayiti*, *Navro'z bayrami* kabi" (70-qoida). Demak, lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosida yuqoridagi ikki qoidaning parallel yashashiga chek qo'yilgan, shu bilan mazkur qoidaning izchil bo'lishi ta'minlangan.

17. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosining "Ko'chirish qoidalari"da rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida berilmagan quyidagi qoidalar bor:

77- qoida: o'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: *dia-gramma*, *mono-grafiya* kabi;

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: *silin-drik* kabi.

79-qoida: ...bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi: *ŷzMU* kabi.

I z o h : 79-qoidaning bosh harflardan tuzilgan qisqartmalarga (AQSh, BMT kabilarga), shuningdek, ko'p xonali raqamlarga (16,245, 1994, XIX kabilarga) aloqador qismi rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida ham bor.

80-qoida: harflardan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi: 5-"A" sinf, V " V" guruhi, 110gr, 15 ga, 105 m, 25sm, 90 mm kabi.

81-qoida: Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko'chirilmaydi: "Navro 'z-92" (festival), "O'qituvchi-91" (ko'rik tanlov), "Andijon-9", "Termiz-16" (g'o'za navlari), "Boing-767" (samolyot), "Foton-774" (televizor) kabi.

82- qoida: *A.J. Jabborov, A.D. Abduvaliyev* kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi. Shuningdek, v.b. (va boshqalar), sh. k. (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

Tekshirish savollari

1. Lotin o'zbek yozuvining fonografik xarakterini qanday tushunasiz?
2. Harfiy va noharfiy belgilar tizimiga nimalar kiradi?
3. Grafema nima?
4. Grafemaning ifoda va mazmun planlarini (ifodalovchi va ifodalanuvchilarini) nimalar tashkil etadi?
5. Grafemaning qanday tiplari bor?
6. Orfografik va diakritik belgilar yozuvda qanday vazifalarni bajaradi?
7. Imlo-Orfografiya nima? U grafikadan qanday farqlanadi?
2. Orfografiya qoidalarining tuzilishi qanday prinsiplarga asoslanadi?
3. Amaldagi (kirillcha) o'zbek yozuvi imlo qoidalari qachon tasdiqlangan? Yangi (lotincha) o'zbek yozuvining imlo qoidalari-chi?
4. Yangi (lotincha) o'zbek yozuvining imlo qoidalari qanday bo'limlardan tarkib topgan? (Bo'limlarning nomlanishi, modda va bandlari).
6. Amaldagi (kirillcha) o'zbek yozuvi imlosidagi qaysi qoidalar yangi (lotincha) o'zbek yozuvi imlo qoidalari sirasiga kiritilmagan? Sabablari?
7. Har ikkala «...qoidalar» to'plamida imloga oid qanday farqlar bor?
8. O'zbek xalqi XX asrda qanday yozuvlardan foydalangan?
9. Arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuviga qaysi yillarda qanday o'zgartirishlar kiritilgan?
10. Arab grafikasi asosidagi o'zbek yozuvidan nechanchi yilgacha foydalanildi?
11. Kirill grafikasiga asoslangan o'zbek alifbosi qachon qabul qilindi, imlo qoidalari qachon tasdiqlandi?.

12. Yangi (lotincha) o'zbek alifbosining birinchi va ikkinchi variantlari qachon qabul qilindi? Yangi (lotincha) o'zbek yozuvining imlo qoidalari qachon tasdiqlangan?

UYGA VAZIFA

- 1) 14-mustaqil ishning 3.7-mavzuga oid topshiriqlarini bajarish.
- 2) 20-mashq(Q-3,50-bet) va 44-topshiriq (testlar) ustida ishlash: Q-3 (53-58-betlar).

7-MODUL (davomi). ORFOEPIYA. ORFOEPIYA HAQIDA MA'LUMOT

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti- soat	Талабалар сони: 60 –70 gacha
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza (ommaviy, jamoaviy ishlash)
Ma'ruza	Orfoepiya haqida ma'lumot.
Ma'ruza rejasi	<p>4.1-mavzu: Orfoepiya.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Orfoepiya haqida ma'lumot. 2.Unli tovushlar orfoepiyasi. 3.Undosh tovushlar orfoepiyasi. 4.So'z qismlari orfoepiyasi. 5.Boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim so'zlar orfoepiyasi. <p>4.2 -mavzu: Orfoepiyaning adabiy til faoliyatida tutgan o'rni</p> <p><i>Xulosa.</i></p>
<p><i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> talabalarga orfoepiya haqida ma'lumot berish, unli tovushlar orfoepiyasi, undosh tovushlar orfoepiyasi, so'z qismlari orfoepiyasi, boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim so'zlar orfoepiyasi, orfoepiyaning adabiy til faoliyatida tutgan o'rni bilan tanishtirish, shu asosda talabalarning mazkur mavzularga oid bilim darajasini shakllantirish..</p>	
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Orfoepiya haqida ma'lumot beradi. • Unli tovushlar orfoepiyasi haqida ma'lumot beradi. • Undosh tovushlar orfoepiyasi haqida ma'lumot beradi. • So'z qismlari orfoepiyasi haqida ma'lumot beradi. • Boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim so'zlar orfoepiyasi haqida ma'lumot beradi. • Orfoepiyaning adabiy til faoliyatida tutgan o'rni haqida ma'lumot beradi. 	<p><i>O'quv faoliyati natijalari :</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Orfoepiya haqidagi ma'lumotga ega bo'ladi. • Unli tovushlar orfoepiyasi haqidagi ma'lumotga ega bo'ladi. • Undosh tovushlar orfoepiyasi haqidagi ma'lumotga ega bo'ladi. • So'z qismlari orfoepiyasi haqidagi ma'lumotga ega bo'ladi. • Boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim so'zlar orfoepiyasi haqidagi ma'lumotga ega bo'ladi. • Orfoepiyaning adabiy til faoliyatida tutgan o'rni haqidagi ma'lumotga ega bo'ladi.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Ma'lumotli ma'ruza ta'lim tex-nologiyasi, elektron matnning mantiqiy nuqtalarini ajratib ko'rsatish.
<i>Ta'lim berish metodlari</i>	Og'zaki, ma'ruza, hikoya, suhbat, ko'rgazmalilik, namoyish qilish

<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, electron matn, proyektor, ekran, doska.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Hamkorlikda ishlash va taqdimotlarni amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob.

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlaydi. 2. Ma'ruza uchun taqdimot slaydlarini tayyorlaydi. 3. Talabalarning o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqadi. 4. Mavzuni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini tuzib chiqadi.	Tinglaydilar Tinglaydilar
1. Mavzuga kirish (5-7 minut)	1 Mavzuning nomini aytadi. Mavzuga oid adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi. 2. O'quv faoliyatini baholash mezon bilan talabalarni tanishtiradi (1- ilova). 3. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (60-65 minut)	Slaydlarni namoyish qilish va izohlash orqali talabalarga mavzular bo'yicha asosiy nazariy ma'lumotlarni beradi.	Tinglaydilar, yozadilar.. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
3. Yakuniy bosqich (5-7 minut)	1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 2 Mustaqil ishlash uchun mavzuga oid topshiriqlarni beradi.	Savollar beradilar Vazifani yozib oladilar.

Reja

- 1.Orfoepiya haqida ma'lumot.
 - 2.Unli tovushlar orfoepiyasi.
 - 3.Undosh tovushlar orfoepiyasi.
 - 4.So'z qismlari orfoepiyasi.
 - 5.Boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim so'zlar orfoepiyasi.
- Xulosa.*

Tayanch so'zlarning o'zbekcha - inglizcha-ruscha lug'ati

O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Orfografiya	Orthographical	Орфография
Orfografiya prinsiplari	Principles orthographical	Принципы орфографии

Orfogramma	Orthogramme	Орфограмма
Orfoepiya	Orthoepiy	Орфоэпия
Orfoepik me'yorlar	Orthoepiy norm	Орфоэпические нормы
To'g'ri talaffuz	Correctly pronounce	Правильное произношение

1. ORFOEPIYA HAQIDA MA'LUMOT

ORFOEPIYA so'zlarni, ularning tarkibidagi tovushlarni, shuningdek, o'zak va qo'shimchalardan iborat so'z formalarini to'g'ri talaffuz qilish me'yorlari tizimidir. Tilshunoslikning bu tizim haqidagi bo'limi ham orfoepiya deyiladi.

Orfoepik me'yorlar aslida xalq jonli tili faktlari asosida yaratiladi –jonli tildagi turlicha talaffuz ko'rinishlaridan adabiy til an'analariga, taraqqiyot traditsiyalariga mos keladiganlari tanlanadi. Masalan, o'zbek shevalarida bir so'z turlicha talaffuz qilinadi: *y o'q - j o'q, k o'z -g o'z, ota –ata, aka –oka, anor – onar* kabi. Hozirgi zamon davom fe'li qo'shimchasi shevalarda *-yap(ti), -op(ti), -ut(ti), -vot(ti)* shakllarida qo'llanadi: *boryapti, boropti, borutti, borvotti* kabi. Adabiy tilda shulardan *yo'q, ko'z, ota, aka, anor, boryapti* variantlari adabiy talaffuz me'yori (orfoepik norma) sifatida saralangan.

To'g'ri talaffuz nutq madaniyatining muhim belgilaridan biri sanaladi. Adabiy tilda to'g'ri yozish qanchalik muhim bo'lsa, to'g'ri talaffuz ham shunchalik ahamiyatlidir. Shuning uchun ham o'quvchi va talabalarda to'g'ri talaffuz ko'nikmalarining shakllantirilishiga ta'limning barcha bosqichlarida jiddiy e'tibor beriladi.

UNLI TOVUSHLAR ORFOEPIYASI

“I” unlisi: 1) bir bo'ginli so'zlarda qisqa va ingichka talaffuz qilinadi: *til, tish, sim* kabi; 2) q, g' x undoshlari bilan yondosh qo'llanganda yog'on (orqa qator unli tarzida) talaffuz etiladi: *qish, g'isht xil* kabi; 3) y, ng undoshlaridan oldin ingichka va biroz cho'ziq talaffuz etiladi: *chiy, kiy, ming* kabi; 4) h bilan yondosh bo'lganda ham biroz cho'ziq va ingichka talaffuz qilinadi: *hid, hind, his* kabi; 5) ko'p bo'ginli so'zlarning urg'usiz bo'g'inida kuchsiz va qisqa (bilan. biroq, sira, tilak, gilam, gilos, viqor kabi), urg'ulu bo'g'inda esa kuchliroq va cho'ziqroq (nozik, alik, rostlik kabi) talaffuz etiladi; b) so'z oxiridagi ochiq bo'g'inda biroz kengayadi (“i” dan kengroq, “e” dan torroq unli tarzida talaffuz qilinadi); *tepki, bordi, oftobi, xuddi, rozi* kabi.

“U” unlisi: 1) bir bo'ginli so'zlarda va ko'p bo'ginli so'zlarning urg'usiz bo'g'inida qisqa (*tush, tus, pul, buloq, bug'doy* kabi.), urg'uli bo'g'inida esa kuchliroq va cho'ziqroq (*bulut, yetuk, popuk* kabi) talaffuz etiladi; 2) k, g, y undoshlaridan keyin ingichka (old qator unli tarzida), q, g', x undoshlaridan so'ng esa yo'g'on (orqa qator unli tarzida) talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *kul* va *qul*, *atirgil* va *norg'ul*, *yuk* va *xulq* kabi; 3) –uvchi, -uv affikslari tarkibida cho'ziqriq aytiladi: *yozuvchi, o'quvchi, to'quvchi, oluv, qo'shuv* kabi.

“O” unlisi: 1) bir bo'ginli so'zlarda, shuningdek, ko'p bo'ginli so'zlarning

urg'usiz bo'g'nida qisqa talaffuz etiladi: bo'r, to'r, ro'mol kabi; 2) takroriy formalarning birinchi komponentida (urg'uli bo'g'inda) cho'ziq talaffuz qilinadi: ko'p-ko'p,zo'r-zo'r, mo'l-mo'l kabi; 3) sayoz til orqa k, g, til o'rta y va bo'g'iz undoshi (h) dan so'ng ingichka (old qator) unli tarzida, chuqur til orqa q, g', x undoshlaridan so'ng yo'g'on (orqa qator) unli tarzida talaffuz etiladi: Qiyos qiling: ko'l va qo'l (køl va qol), go'r va g'o'r (gør va g'or), ho'l va xo'r (høl va xor), yo'l va qo'r (yøl va qor) kabi.

“E” UNLISI: 1) so'z va bo'g'in boshida kengroq (erkin,ekin,eslamoq kabi), bo'g'in ichida biroz torroq (kecha, beda, lekin kabi) talaffuz qilinadi.

“A” UNLISI: 1) sayoz til orqa k,g undoshlari bilan yonma-yon kelganda ingichka unli tarzida (kəm, kəttə, gəp,gəl, gəzləmə, kəyfiyət kabi), chuqur til orqa q, g', x undoshlari bilan yondosh qo'llanganda esa yo'g'on unli tarzida (qalam, qarg'a,qasida,g'am,g'alvir, xalq,xabar, xat kabi) talaffuz qilinadi.

“O” UNLISI: quyi keng, kuchsiz lablangan unli tarzida talaffuz qilinadi: tosh, bahor, somon, shamol kabi. Shevalarda va jonli tilda bu unlining urg'usiz bo'g'inda “a”ga yaqin talaffuz qilinish hollari ham uchraydi: somon>samon, dovon>davon kabi, ammo bu hol adabiy talaffuz (orfoepik me'or) hisoblanmaydi; 2) sayoz til orqa k, g undoshlaridan so'ng ingichka, chuqur til orqa undoshlaridan so'ng esa yo'g'on unli tarzida talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: koshin va qoshiq,kotib va qolip, komil va qobil, gov va g'ov, govmish va g'ovlamoq kabi; 3) urg'uli bo'g'inda kuchliroq va biroz cho'ziq talaffuz etiladi: bog'bon, obod so'zlarining birinchi va oxirgi bo'g'inlaridagi “o” unlisi talaffuzini qiyoslang; 4) y va h undoshlari bilan yondosh qo'llandanda ham “o” unlisi biroz ingichkalanadi. Qiyos qiling: yor va qor, hokim va xolis kabi.

UNDOSH TOVUSHLAR ORFOEPIYASI

Undosh tovushlar orfoepiyasi ko'proq kombinator va pozitsion omillar ta'sirida yuz beradigan fonetik hodisalarga bog'liq bo'adi.Xususan:

1) b, d jarangli undoshlari so'z oxirida jarangsiz p, t tarzida talaffuz etiladi, bu hol o'zbek adabiy talaffuzi uchun me'yor hisoblanadi : kitob> kitop, borib>borip,yozib>yozip, savod> savot, obod> obot kabi;

2) b, d undoshlari jarangsiz undoshlar bilan yonma-yon qollanganda assimilatsiyaga uchrab, p,t hoida talaffuz etiladi, bu hol ham adabiy talaffuz me'yori hisoblanadi: ibtidoiy> iptidoiy,ketdi> ketti;

3) j,z undoshlarining jarangsiz undoshlar ta'sirida sh, s deb talaffuz etilishi ham adabiy til uchun me'yordir: ijtimoiy>ishtimoiy, mazkur>maskur kabi;

4) b,d undoshlarining intervokal holatda (ikki unli orasida) sirg'aluvchi v, g' undoshlariga o'tishi ham adabiy talaffuz me'yorlariga xilof emas: bora ber>boraver, keta ber>ketaver, qo'shiq> qishlog'i kabi.

SO'Z QISMLARI TALAFFUZI

1. Q, K bilan tugagan otlarning egalik affikslari bilan turlangan shakllari quyidagicha talaffuz etiladi: a) ko'p bo'g'inli so'zlarda: qishloq> qishlog'imiz, qishlog'ingiz, qishlog'i; telpak> telpagim, telpaging, telpagi kabi.Bir bo'g'inli

soʻzlarda bunday oʻzgarish boʻlmaydi: oʻq> oʻqi, tok> toki kabi (yoq, yoʻq soʻzlari bundan mustasno).

2. Q, K, Gʻ, G bilan tugagan otlarning joʻnalish kelishigidagi shakllari quyidagicha talaffuz qilinadi: qishloq+ga > qishloqqa, chelak+ga> chelakka, togʻ+ga>toqqa, pedagog+ga>pedagokka kabi. Boshqa barcha holatlarda: a) jaransiz undoshlardan soʻng –ka, jarangli undoshlardan va unlidan soʻng –ga talaffuz etiladi: otka, oshka, qopka ammo uyga, tolga, ovga, tomga, bolaga, akaga kabi.

3. Feʼllarda: a) on+la> angla, son+a> sana, yosh+a> yasha kabi; b) ek+gan>ekkan, ket+gan>ketkan oq+gan> oqqan, tush+gan>tushkan kabi.

4. Olmoshlarda: u+da>unda, bu+da>bunda, shu+da>shunda (bir “n” orttiriladi), men+ning>mening, sen+ning>sening (bir “n” tushirib qoldiriladi).

5. Bir soʻzidan dona son yasalganda, oʻzak oxiridagi “r” undoshi “t” ga oʻtadi: bir+ta>bitta kabi.

BOSHQA TILLARDAN OʻZLASHTIRILGAN AYRIM SOʻZLAR ORFOEPIYASI

1. Turkiy tillarda, maʼlumki, “f” fonemasi boʻlmagan, shuning uchun jonli soʻzlashuvda arab, fors va rus tillaridan oʻzlashtirilgan soʻzlardagi “f” ni “p” tarzida talaffuz qilish hollari uchraydi: *ulfat*> *ulpat*, *faner*> *paner*, *ferma*> *perma* kabi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida ularni “f” bilan talaffuz qilish meʼyor holiga kelgan.

2. Soʻz yoki boʻgʻin boshida undosh tovushlarning qatorlashib kelishi turkiy tillarga xos boʻlmagan. Bu hodisa keyinchalik boshqa tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlar talaffuziga ham taʼsir qilgan – jonli soʻzlashuvda zoʻz yoki boʻgʻin boshida yoxud boʻgʻindagi ikki undosh orasida bir unlining orttirilishiga olib kelgan: *shkaf*> *ishkop*, *stakan*>*istakon*, *plan*> *pilon*, *traktor*>*tiraktir* kabi. Bunday holat soʻz oxirida ham uchraydi: *aql*>*aqil*, *fikr*>*fikir*, *ilm*> *ilim*, *hukm*>*hukum* kabi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida bunday soʻzlarni asl holicha (unli orttirmay) talaffuz qilish orfoepik meʼyor sanaladi. Bunday meʼyor shu tipdagi soʻzlarning yozuvdagi shaklini(imlosini) toʻgʻri belgilashga ham yordam beradi.

3. Umumturkiy soʻzlarda ikki unli yonma-yon qoʻllanmaydi, bu hol arab tilidan oʻzlashgan *oila*, *doir*, *rais*, *maorif*, *saodat*, *mutolaa* kabi soʻzlar talaffuziga taʼsir qiladi: *oila*, *doir*, *rais* soʻzlaridagi ikki unli orasida bir “y” orttiriladi (*oyila*, *doyir*, *rayis* kabi), *maorif*, *saodat* *mutolaa* soʻzlarida esa unlilarning diftonglashuvu sodir boʻladi (ular *mo:rip*, *so:dat*, *mutola:* kabi talaffuz qilinadi). Keyingi bir asr ichida rus tilidan soʻz oʻzlashtirishning faollashganligi, ruscha oʻzlashmalarning rus tilidagi talaffuz va imlo meʼyorlarini oʻzbek tiliga aynan singdirish tendensiyalarining ustun boʻlganligi oʻzbek tilida ikki unlining soʻz tarkibida yonma-yon kelishini orfoepik va orfografik meʼyorga aylantirdi: *biologiya*, *geometriya*, *geologiya*, *geodeziya* va boshqalar. Bu hol arabcha oʻzlashmalarda (*oila*, *doir*, *rais*, *maorif*, *saodat*, *matbaa*, *mutolaa* kabilarda) ham ikki unlining yonma-yon talaffuz qilinishi va yozilishini meʼor darajasiga koʻtardi.

4. Arab tilidan oʻzlashtirilgan *taʼna*, *daʼvo*, *maʼno*, *eʼlon*, *meʼmor*, *moʼtabar* kabi soʻzlarning birinchi boʻgʻinidagi unlilar arabcha “ayn” tovushi taʼsirida boʻgʻiz artikulatsiyasi bilan choʻziqroq talaffuz etiladi.

5. Rus tilidan o'zlashgan so'zlarda "i" unlisi o'zbek tilining "i" unlisidan torroq va cho'ziqroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *tish* (o'zb.) – *tip* > *ti:p* (rus.), *til* (o'zb.) – *tir* > *ti:r* (rus.) kabi.

6. Rus tilidan o'zlashtirilgan ko'p bo'g'nli so'zlarning urg'usiz ochiq bo'g'inidagi "i" o'zbekcha "i" dan torroq va cho'ziqroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *bilan* (o'zb.) – *bilet* (rus.), *kinoya* (o'zb.) – *kino* (rus.) kabi.

7. Rus tili orqali o'zlashtirilgan so'zlarning so'nggi ochiq, urg'uli bo'g'nida "i" unlisi o'zbekcha "i" dan tor va cho'ziq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *maxsi* (o'zb.) – *taksi* (rus.), *tepki* (o'zb.) – *konki* (rus.) kabi. Urg'ulu bo'g'inning boshqa tiplarida (yopiq, to'la yopiq boginlarda) ham ruscha "i" o'zbekcha "i" dan cho'ziqroq va torroq talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *metin* (o'zb.) – *nikotin* > *nikoti:n* (rus.), *ovsin* (o'zb.) – *apelsin* > *apelsi:n* (rus.) kabi.

8. Rus tilidan o'zlashtirilgan bir bo'g'nli so'zlarda "u" unlisi o'zbek tilidagi "u" dan cho'ziqroq va kuchliroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *dud* (o'zb.) – *dub* > *du:b* (rus.), *pul* (o'zb.) – *puls* > *pu:ls* (rus.), *tush* (uzb.) – *tush* > *tu:sh* (rus.) kabi.

9. Rus tilidan o'zlashtirilgan ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'uli bo'g'inida "u" unlisi o'zbek tilidagi "u" unlisidan ancha cho'ziq va biroz yo'g'onroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *bú-da* (o'zb.) – *búdka* (rus.), *mahgú* (o'zb.) – *mangústa* (rus.), *mavzú* (o'zb. < arab.) – *medúza* (rus.) kabi.

10. Rus tilidan o'zlashtirilgan ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz bo'g'inidagi "u" qisqa talaffuz qilinadi, ammo o'zbek tilidagi "u" ayni shu fonetik pozitsiyada ruscha "u" dan qisqaroq bo'ladi. Qiyos qiling: *dushman* > *dshmán* (o'zb.) – *turbine* (rus.), *muzday* > *mzdəy* (o'zb.) – *muzey* (rus.) kabi.

11. So'z boshidagi berkitilmagan, urg'usiz bo'g'inda "u" unlisi ruscha so'zlarda yo'g'onroq, o'zbekcha so'zlarda ingichkaroq (yumshoqroq) talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *uklad* (rus.) – *uxlamoq* (o'zb.), *uzual* (rus.) – *uzum* (o'zb.) kabi.

12. Ruscha leksik o'zlashmalarda "u" unlisi yumshoq undoshdan so'ng o'ta ingichka (old qator unli tarzida), qattiq undoshdan so'ng esa yo'g'on (orqa qator unli tarzida) talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: *abajur* va *manikur* (*абажур* va *маникюр*), *ultimatum* va *kostum* (*ультиматум* va *костюм*), *plug* va *salut* (*п्लуг* va *салют*) kabi. Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlarda yumshoq undoshdan keyin kelgan "u" o'zbekcha "u" dan ham ingichkaroq va yumshoqroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *burro* (o'zb.) – *byuro* (rus.) kabi.

13. Ruscha leksik o'zlashmalarning urg'usiz bo'g'inidagi "e" unlisi o'zbekcha "e" dan ancha tor ("i" ga yaqin) talaffuz etiladi: *telefon* > *tilifon*, *televizor* > *tilivizr*, *adres* > *adris* kabi.

14. Rus tili orqali o'zlashgan so'zlarda "a" unlisi o'zbekcha "a" dan yo'g'onroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *kana* (o'zb.) – *kanal* (rus.) kabi.

15. Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlardagi o'rta keng, lablangan "o" unlisi urg'uli bo'g'inda o'zbek tilidagi o'rta keng, lablangan "o" dan kengroq talaffuz etiladi. Qiyos qiling: *ton* (rus.) – *to'n* (o'zb.), *tok* (rus.) – *to'k* (o'zb.), *tort* (rus.) – *ro'rt* (o'zb.) kabi. Urg'usiz bo'g'inda esa ruscha "o" reduksiyaga uchrab, o'ta kuchsizlanadi va qisqa "i" yoki "a" tarzida talaffuz qilinadi. *traktor* > *trəktɾ*, *samolyot* > *səməlyot* kabi.

16. Jonli tilda "r" bilan boshlangan arabcha, forscha va ruscha so'zlarning boshida bir "o" tovushining orttirilishi ancha keng tarqalgan: *ro'za* > *o'raza*,

rus>o'ris, ro'mol>o'ramol kabi. Adabiy talaffuz me'yor *sifatida* ro'za, rus, ro'mol shakllari saralangan.

17. Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlarning oxirida lab-tish "v" undoshi jarangsiz "f" tarzida talaffuz qilinadi: aktiv>aktif, passiv>passif, ustav>ustaf, kursiv>kursif kabi; "v"ning jarangsizlanishi so'z ichidagi assimilatativ holatda ham yuz beradi: avtomat>aftomat, stavka>stafka kabi. Bunday talaffuz adabiy til uchun me'yor sanaladi, ammo o'zbek tilining o'z so'zlarida qo'llanadigan lab-lab "v" undoshi so'z oxirida ham, jarangsiz undosh bilan yondosh qo'llanganda ham "f"ga o'tmaydi: ov, birov, ovqat, shavkat kabi. (Bu holat ham orfoepik me'yor sanaladi).

18. Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlarning ko'pchiligida urg'u erkin bo'ladi, bu hol o'zbek adabiy tili va adabiy talaffuziga ham singib bormoqda: atlas, trolléybus, tramváy kabi.

19. O'zbek tilidagi urg'u asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi, ammo ayrim o'zlashgan so'zlarda urg'u so'zning oldingi bo'g'inlarida bo'lishi ham mumkin: hamma, jámi, hamisha, afsúski kabi. Bunday holatlardan xabardor bo'lish adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilish imkonini beradi.

Orfoepiyaning adabiy til faoliyatida tutgan o'rni.

To'g'ri talaffuz nutq madaniyatining muhim belgilaridan biri sanaladi. Adabiy tilda to'g'ri yozish qanchalik muhim bo'lsa, to'g'ri talaffuz ham shunchalik ahamiyatlidir. Shuning uchun ham o'quvchi va talabalarda to'g'ri talaffuz ko'nikmalarining shakllantirilishiga ta'limning barcha bosqichlarida jiddiy e'tibor beriladi.

Tekshirish savollari

1. Orfoepiya nima?
2. Orfoepiyaning adabiy tildagi ahamiyati?
3. Unli tovushlar orfoepiyasi haqida nimalami bilasiz?
4. Unlilar qanday pozitsiyada ingichka talaffuz qilinadi?
5. Unlilar qanday undoshlar ta'sirida yo'g'on talaffuz etiladi?
6. B,d undoshlari qanday pozitsiyada jarangsiz p,t tarzida talaffuz etiladi?
7. J,z undoshlari qanday o'rinlarda jarangsizlanadi?
8. B,q undoshlarining sirg'aluvchi «v» va «g'»ga o'tishi qanday holatda yuz beradi?
9. Qanday paytlarda o'zak oxiridagi «k» undoshi «g»ga, «q» undoshi «g'»ga o'tadi?
10. «G» undoshi bilan boshlangan affikslar qanday so'zlarga qo'shilganda «-ka», «-kan», «-qa», «-qan» tarzida talaffuz qilinadi?
11. Qanday so'zlar o'zagidagi «o» fe'l yasovchilar qo'shilganda «a»ga o'tadi?
12. Boshqa tillardan olingan olzlashma so'zlar orfoepiyasi haqida nimalami bilasiz?

Asosiy adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'zME, 2013.

2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.

4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Т., 1994.

2. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2009.

3. Mirtojdiyev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.

4. Nazarov K., Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. (Punktuatsiya). Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.

5. Ne'matov H, Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.

6. Ne'matov H, Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.

7. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. Oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.

8. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –Т. 2006.

9. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti Toshkent-2010.

10. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфологияси. –Т., 1992

8-modul. LEKSIKOLOGIYA, UNING TURLARI, O'RGANISH MANBAYI VA PREDMETI. SEMASIOLOGIYA.

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti -2 soat	Talabalarning soni: 50 -60 kishi
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza (ommaviy, jamoaviy, juftlikda ishlash)
Mashg'ulot rejasi.	Leksikologiyaning obykti, predmeti, maqsadi, vazifalari va turlari . 1. Leksikologiyaning obykti, predmeti, maqsadi, vazifalari. 2. Leksikologiyaning turlari: a) umumiy leksikologiya; b) xususiy leksikologiya (tavsifiv, tarixiy leksikologiyalar); 3. Leksikologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi; 4. Leksikologiyada lug'at boyligining sistema sifatida o'rganilishi; 5. Semasiologiya tushunchasi.
Oquv mashg'ulotining maqsadi:	Talabalarda yuqoridagi mavzularga oid bilim darajasini shakllantirish
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari :
<ul style="list-style-type: none"> • 5.1-5.2-mavzularning mazmun mundarijasini gapirib berish; • Tayanch tushunchalar ustida 	<ul style="list-style-type: none"> • Talaba 5.1-5.2-mavzularning mazmun mundarijasini eshitadi, bu mavzularga oid bilimini mustahkamlaydi; • Talabalarning bilim darajasi, tahlil ko'nikmalari

tehlash	aniqlanadi, baholanadi.
• Ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar vositasida talabalar bilimini, ularning fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish.	
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali, ma'lumotli, trening, jamoada ishlash.
Ta'lim berish shakllari va metodlari	Og'zaki, yozma, ko'rgazmali, kitob bilan ishlash, aqliy hujum, kalit so'zlar, semik tahlil metodlari.
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanmalari, savolnomalar, tarqatma materiallar, proyektor, doska, audivizual vositalar
Ta'lim berish sharoiti	Hamkorlikda ishlash va taqdimotlarni amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob, suhbat, matn tahlili.

MA'RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Bosqichlar va ularning vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Kirish (10 daqiqa)	Darsga nisbatan talabalarning motivatsiyasini shakllantiradi.	1.1. Fikrlarini jamlaydi va darsga tayyorlanadi.
2-bosqich Asosiy qism (60 daqiqa)	1. Leksikologiyaning obyekti, predmeti, maqsadi, vazifalari va turlari haqida to'liq ma'lumot beradi (1-ilova). 2. Semasiologiya haqida to'liq ma'lumot beradadi.	1. Leksikologiyaning obyekti, predmeti, maqsadi, vazifalari va turlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi. 2. Semasiologiya haqida tushunchaga ega bo'ladi.
3-bosqich Yakuniy qism (10 daqiqa)	Mashg'ulotni yakunlaydi, xulosalaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi.	O'zining ahosini eshitib, to'g'ri xulosa qiladi.

Reja:

1. Leksikologiyaning obyekti, predmeti, maqsadi, vazifalari.
2. Leksikologiyaning turlari:
 - a) umumiy leksikologiya;
 - b) xususiy leksikologiya (tavsifiy, tarixiy leksikologiyalar).
2. Leksikologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
3. Semasiologiya tushunchasi.
4. Etimon.

Tayanch so'zlarning o'zbekcha - inglizcha-ruscha lug'ati

O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Leksikologiya	Lexicology	Лексикология
Obyekt	Object	Объект
Predmet	Object, thing	Предмет

Maqsad	Aim, purpose	СТИЛЬ
Vazifalar	Functions	ФУНКЦИИ

MA'RUZA MAZMUNI

1. Leksikologiyaning obyekti, predmeti, maqsadi, vazifalari

Obyekti - tilning lug'at boyligi.

Predmeti - lug'at boyligining strukturaviy va sistemaviy xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini, tilning boshqa sathlari (fonetik sath, grammatik sath) bilan aloqasini tadqiq qilish.

Maqsadi – talabalarda leksikologiyaning obyekti va predmeti haqida mustahkam bilim darajasini shakllantirish

Vazifalari a) muayan tilning lug'at boyligidagi eskirish va yangilanish jarayonlari, bu jarayonlarda lisoniy va nolisoniy (lingvistik va ekstralingvistik) omillarning ishtirokini o'rganish; b) lug'aviy birliklarning funksional-semantik tavsifini berish, ularning lisoniy va uslubiy vositalar sifatidagi xususiyatlarini yoritish; d) lug'at boyligidagi eskirgan, yangi va zamonaviy qatlamlarni, tematik guruhlar va mikrosistemalarni aniqlash; e) talabalarni leksikaga oid nazariy bilimlar bilan qurollantirish, ularda leksik-semantik tahlil ko'nikmalarini shakllantirish.

Leksikologiyada lug'at boyligining sistema sifatida o'rganilishi:

Leksikologiyada tilning lug'at boyligi sistema sifatida o'rganiladi, chunki bu boylik so'zlar va iboralarning oddiy, mexanik yig'indisi emas, balki o'zaro aloqada bo'lgan, birining bo'lishi ikkinchisining bo'lishini taqozo qiladigan lugaviy birliklar va elementlar tizimidir, bu tizimdagi so'z va elementlar yaxlit bir "organizm"ning "to'qimalari" va "hujayralari" munosabatida bo'ladi.

Leksikologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi

Leksikologiya tilshunoslikning quyidagi bo'limlari bilan aloqada bo'ladi:

fonetika, semasiologiya, onomasiologiya, etimologiya, frazeologiya, til tarixi, dialektologiya, uslubshunoslik, badiiy matnning lisoniy tahlili va boshqalar bilan bog'liq jihatlari.

2. Leksikologiyaning turlari:



1. Umumiy leksikologiyada barcha tillarning lugʻat boyliklaridagi umumiy holatlar, bu tizimlarning taraqqiyotini belgilovchi umumiy qonuniyatlar koʻriladi. Masalan:

- barcha tillarning lugʻat boyliklarida struktura va sistema munosabatlari bor;
- barcha tillarning lugʻat boyliklari rivojida lisoniy va nolisoniy omillar ishtirok etadi;
- barcha tillarning lugʻat boyliklari taraqqiyotida til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur munosabatlarining taʼsiri bor;
- barcha tillarning lugʻat boyliklarida tadrijiy ravishda eskirish va yangilanish jarayonlari boʻlib turadi;
- barcha tillarda lugʻaviy birliklarning zamoniylik, tarixiylik, emotsional-ekspressivlik va boshqa jihatlardan qatlamlanishi yuz beradi;
- barcha tillarda lugʻaviy birliklar maʼlum tematik va leksik-semantik guruhlariga uyushadi, bunday guruhlar oʻz navbatida sistema va tagsistena yoki makrosistema va mikrosistema munosabatlarida boʻladi.

2. Xususiy leksikologiya muayyan bir tilning lugʻat boyligi oʻrganiladi: oʻzbek tili leksikologiyasi, rus tili leksikologiyasi, ingliz tili leksikologiyasi kabi.

Xususiy leksikologiya muayyan bir tilning lugʻat boyligini tadqiq qilishda umumiy leksikologiyadagi nazariy umumlashmalarga va har bir tilning oʻz materialiga asoslanadi. U oʻz navbatida ikki turga- tavsifiy (sinxron) va tarixiy (diaxron) leksikologiyalarga boʻlinadi.



1. **Tavsifiy leksikologiya** ayrim olingan bir tilning, masalan, oʻzbek tilining leksikasi static holatda - shu til leksikasining avvalgi (oʻtmishdagi) taraqqiyot dinamikasiga bogʻlanmay oʻrganiladi, shunga koʻra u sinxron leksikologiya sanaladi.

2. **Tarixiy leksikologiyada** ayrim olingan bir tilning leksikasi dinamik holatda- tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan bogʻlab oʻrganiladi, shunga koʻra u diaxron leksikologiya hisoblanadi.

Hozirgi oʻzbek tili leksikologiyasi, asosan, tavsifiy (sinxron) leksikologiyadir, ammo unda tarixiy (diaxron) leksikologiyaga murojaat etish hollari ham bolib turadi: oʻzbek tili lugʻat boyligining tarixiy va zamonaviy qatlamlarini, soʻzlarning hozirgi va eskirgan maʼnolarini qiyoslash, tavsiflash kerak boʻlganda shunday qilinadi. Masalan: yogʻoch- "daraxt" (eski oʻzbek tilida), "tayoq" (hozirgi oʻzbek tilida); chechak - "gul" (qadimgi va eski turkey tillarda), "kasallikning bir turi" (hozirgi oʻzbek tilida), gʻam - "sevgi", "muhabbat" (eski oʻzbek tilida), "tashvish" (hozirgi oʻzbek tilida) kabi.

3. Semasiologiya tushunchasi.

So'zning semantik tarkibidagi leksik ma'nolar dastlab ikkita katta guruhga hozirgi leksik ma'nolarga va avvalgi leksik ma'nolarga ajratiladi.

Hozirgi leksik ma'no til taraqqiyotining hozirgi bosqichiga, avvalgi leksik ma'nolar esa til taraqqiyotining o'tmishdagi bosqichlariga xosdir. SHuning uchun hozirgi leksik ma'no tavsifiy semasiologiyada, avvalgi leksik ma'nolar esa tarixiy (diaxron) semasiologiyada o'rganiladi.

Hozirgi leksik ma'nolar o'z navbatida bosh ma'no va hosila ma'no kabi tiplarga bo'linadi, ular kontekst talabiga ko'ra to'g'ri ma'no va ko'chma ma'no, nominativ (nomlovchi) ma'no va majoziy ma'no, erkin ma'no va bog'li ma'no (yoki bog'langan ma'no) nomlari bilan ham ataladi. Tildagi leksik polisemiya ana shu bosh va hosila ma'nolar tizimiga asoslanadi.

Masalan, "o'zbek tilining izohli lug'ati"da (108,136-138) bosh leksemasining 15 ta leksik ma'nosi va yana bir necha ideomatik ma'nolari (frazemalar tarkibidagi qo'llanishi) izohlangan:

1. Tananing bo'yindan yuqori (odamda) yoki oldingi (hayvonlarda) qismi... 2. ko'chma s.t. Aql-xush, miya. 3. Boshliq, rahbar. Yaxshi yigit – davraning boshi... 4. s.f.t. Boshchilik, rahbarlik qiluvchi, eng katta yoki yuqori. Bosh vrach... 5. s.f.t. Eng mo'xim, asosiy. Bosh masala... 6. s.f.t.

Eng oldingi, birinchi. Bosh kelin... 7. Ko'chma s.f. Odam, kishi. Bir boshga bir o'lim... 8. (snq. sonlar bilan) chorva hisobiga har bir adad jonivor. o'n bosh ot. Ikki bosh qo'y... 9. Tik narsalarning tepa qismi, uchi, cho'qqisi. SHamol bo'lmasi daraxtning boshi qimirlamaydi... vab.lar.

Bosh ma'no so'zning semantik tarkibidagi boshqa ma'nolarning o'sib chiqishi uchun asos bo'lgan ma'nodir. Masalan, tulki so'zining bosh ma'nosi "Itlar turkumiga mansub yirtqich sutemizuvchi hayvondir". U to'g'ri ma'no (voqelik bilan bevosita bog'langanligi uchun), nominativ ma'no (voqelikni, predmetni nomlanganligi uchun), erkin ma'no (reallashuvi ma'lum kontekst, so'z qurshovi bilan cheklanmaganligi uchun) sanaladi.

Hosila ma'no bosh ma'nodan taraqqiy etib chiqqan ma'nodir. Masalan, tulki so'zining hosila ma'nosi "o'taketgan ayyor, makkor odam"dir. Bu ma'no ayrim kishilarning xatti-xarakatini tulkining hiylakorligiga o'xshatish, nisbatlash orqali (metafora yo'li bilan) yuzaga keltirilgan: Haqiqat esa bu tulkilar uni laqilitadilar. (A.G'.)

So'zning hosila ma'nosi kontekst talabidan kelib chiqib, ko'chma ma'no (so'zning to'g'ri ma'noda ifodalangan narsa-hodisalardan boshqa narsalarga nom bo'lib ko'chganligi uchun), majoziy ma'no (mavhum tushuncha yoki g'oyalarni konkret obraz orqali ifodalashga xizmat qilganligi uchun), boHli ma'no (reallashuvi ma'lum kontekst, so'z qurshovi bilan cheklanganligi uchun) degan nomlar bilan ham ataladi.

I z o h: Hosila ma'no ayrim hollarda bosh ma'no darajasiga ham ega bo'lib qoladi. Buni til leksemasi ma'nolari misolida ko'rsa bo'ladi. Qiyos qiling: til(1) – "maza-ta'm bilish xususiyatiga ega anatomik a'zo" (bosh ma'no); til(2) – "qishilar orasida fikrlashish vositasi vazifasini bajaruvchi sistema, ijtimoiy hodisa" (hosila ma'no); til(3) – "Nutqning o'ziga xos xususiyatlari va ifoda vositalari bilan ajralib

turadigan turi; ilmiy, uslub, badiiy uslub va b.lar" (hosila ma'no); til(4)- "harbiy asir" (hosila ma'no); til(5) – "asbob, mexanizm va sh.k.ning osilib, qimirlab turadigan qismi": qo'ng'iroqning tili (hosila ma'no) kabi. Keltirilgan ma'nolar o'rtasida quyidagi munosabatlar bor: til leksemasining 1-ma'nosi 2 va 5-ma'nolarga nisbatan bosh ma'nodir; til leksemasining 2-ma'nosi shu so'zning 3,4-ma'nolariga nisbatan bosh ma'no bo'ladi, ammo 1-ma'noga nisbatan u hosila ma'nodir. SHunga ko'ra bu ma'nolar tizimida 1-ma'no to'nHich bosh ma'no, 2-ma'no esa nisbiy bosh ma'no sanaladi. (24,90-b.).

Avvalgi leksik ma'nolar ham dastlab ikki turga bo'linadi: 1) eski leksik ma'no; 2) etimologik leksik ma'no. Bulardan birinchisi tarixiy semasiologiyada, ikkinchisi esa tilshunoslikning etimologiya bo'limida o'rganiladi.

Eski leksik ma'no leksemaning o'tmishda qo'llangan hozir esa arxaiklashgan ma'nosidir. Masalan, yoHoch leksemasining "daraxt" ma'nosi eski leksik ma'no (semantic arxaizm, arxaizm-ma'no) sanaladi. Bu so'z "daraxt" ma'nosida eski turkiy til va eski o'zbek tilida qo'llangan (yig'och), (94,1-m.,310-b.) yi g'och, archa yig'ochil, hozir esa u shu ma'noda deyarli ishlatilmaydi (tarixiy mavzularda yozilgan badiiy, ilmiy asarlar tili bundan mustasno,albatta).

Etimologik leksik ma'no – leksemasining kelib chiqishida uning mazmun planiga asos bo'lgan dastlabki ma'no. U ma'no etimoni deb ataladi. ("etimon" bahsiga qarang).

4. Etimon

Etimon (yun.: efymon – "haqiqat") – muayyan leksemaning kelib chiqishiga asos bo'lgan so'z (tub yoki yasama) so'z birikmasi: qatun>xatun>xotin (etimon-qatun), bu kun>bukun>bugun (etimon-"bu kun" so'z birikmasi), qyishlag'>qyishlag'>qishloq (etimon – qyishlag') kabi. Demak: a) hozirgi o'zbek tilidagi xotin leksemasining shakl etimoni qatun, ma'no etimoni esa "yuqori martabali kishining umr yo'ldoshi" bo'lgan. Hozir bu so'zning ma'nosi kengaygan: u "biror erkak kishining umr yo'ldoshi"ni va umuman "ayol"ni ham anglatadi; 2 b) bugun so'zining shakl etimoni "bu kun" so'z birikmasidir, ma'no etimoni esa "so'z borayotgan paytda kechirilayotgan yoki kechirilgan kun" haqidagi axborot, 108,1-t.,144-b.); v) qishloq leksemasining shakl etimoni "qyishlaH"dir, u quyidagi morfemalardan tarkib topgan: qyish(fasl)+la(fe'l yasovchi)+g'(ot yasovchi). Keyinchalik etimon tarkibida fonetik o'zgarishlar yuz bergan: qyishla g'>qyishlaq>(" g'" undoshi "q"ga o'tgan)>qishloq ("a" unlisi "o"ga o'tgan, "y" unlisi qattiqlik belgisini yo'qotgan) 3 bu so'zning ma'no etimoni esa "aholi yozda dalalarga ketib,qishda qaytib kelib yashaydigan joy" ma'nosidir. Hozir bu ma'no kuchsizlanib, sezilmas holga kelgan, so'nib qolgan.

Ba'zan bir necha til so'zlarining etimoni bitta bo'ladi. Buni qadimgi hind tilidagi sakkaxara (sakkhara) so'zi taqdirida ko'rsish mumkin: u shakar (o'zbekcha, forscha), sheker (turkcha), tsuker (nemischa), tsukor (ukraincha), sukkar (arabcha), saxar (ruscha), sakxaron yunoncha), syukr (frantsuzcha), sugar (inglizcha) leksemalari uchun dastlabki "poydevor" bo'lgan; bu so'z (etimon) qadimgi hind tilida "shaHal", "yirik qum" ma'nolarini anglatgan, keyinchalik, u metafora yo'li bilan ma'no ko'tarilishi asosida "shirin ta'mli qumsimon modda", "qumsimon shirinlik" ma'nosiga ega bo'lgan. Demak, sakkxara so'zining "yirik qum" ma'nosi yuqorida keltirilgan barcha so'zlar uchun ma'no etimonidir.

Etimon vazifasini bajargan soʻzning shakli va maʼnosi turli omillar taʼsirida koʻpincha oʻzgarib ketadi, bu hol uning asl "nusxa"si va "maʼno"sini xiralashtirib qoʻyadi, ularni aniqlash va tiklash ishlarini ham qiyinlashtiradi. Hozirgi kartoshka leksemasi tarixida xuddi shunday boʻlgan: tartufolo (italyancha: tartufolo- "er qoʻziqorini") soʻzi nemis tiliga oʻtgach, kartoriyel (Kartofiel) shakliga kirgan, soʻng rus tiliga kartofel shaklida oʻzlashgan, ammo rus dehqonlari uni soddalashtirib kartoshka deb qoʻllay boshlashgan, oʻzbek tiliga ham u shu shaklda kirib kelgan, farqi shundaki, rus tilida kartofel adabiy til birligi, kartoshka esa uning jonli soʻzlashuvdagi varianti boʻlsa, oʻzbek tilida kartoshka adabiy til birligi, kartoshka esa uning jonli soʻzlashuvdagi varianti tarzida ishlatilmoqda. Demak: oʻzbek tilidagi kartoshka soʻzining shakl etimoni italyanча tartufolo soʻzi, maʼno etimoni (etimologik maʼnosi) esa "er qoʻziqorini"dir: maʼlumki, kartoshkaning vatani – Janubiy Amerika. U yerdagi mahalliy hindlar kartoshkani patata deyishgan, shu nom bilan u XVI asrda Ispaniyaga keltirilgan, keyinchalik kartoshka Yevropaning boshqa mamlakatlariga tarqalgan, natijada YEvropadagi ayrim xalqlar kartoshkaga yangi nom qoʻyishgan: frantsuzlar uni pom de GER (pommés de terre – "er olmasi") deb, italyanlar esa tartufolo (tartufolo – "er qoʻziqorini") deb atashgan, bunda uning shakli qoʻziqoriniga oʻxshash boʻlganligi, ammo qoʻziqorindan farqli ravishda yer ustida emas, tuproq orasida yetilishi nazarda tutilgan.

Leksemalarning etimonini aniqlash bilan tilshunoslikning etimologiya boʻlimi shugʻullanadi. Bunday tadqiqot natijalari til sistemasi va strukturasidagi turli jarayonlarni hamda soʻzlarning etimologik maʼnolarini aniqlashda, etimologik luhatlar tuzishda ahamiyatlidir.

Soʻz etimologiyasining ilmiy (faktlar tahliliga asoslangan), soxta (Hayri ilmiy) va xalq etimologiyasi (xalqning taxminiga tayangan etimologiya) kabi turlari bor.

TEKSHIRISH SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR

1. Leksikologiya nimani oʻrganadi?
2. Leksika nima?
3. Leksikologiyaning maqsadi va vazifalari haqida maʼlumot bering.
4. Leksikologiyaning qanday turlari bor?
5. Leksikologiya tilshunoslikning qaysi boʻlimlari bilan aloqada boladi?
6. Leksemaning hozirgi va avvalgi maʼnolari qanday farqlanadi?
7. Bosh maʼno nima? Hosila maʼno-chi?
8. Kontekst talabiga koʻra maʼnoning qanday turlari oʻzaro farqlanadi?
9. Toʻngʻich bosh maʼno va nisbiy bosh maʼno haqida maʼlumot bering.
10. Avvalgi leksik maʼnolarning qanday turlari bor?
11. Eski leksik maʼno va etimologik leksik maʼno haqida maʼlumot bering.
12. Etimon nima?
13. Shakl va maʼno etimonlari haqida maʼlumot bering.
14. Tilshunoslikning qaysi boʻlimi leksemalarning etimonini aniqlash bilan shugʻullanadi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Oliy oʻquv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: OʻzME, 2013.

2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.

4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Т., 1994.
2. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2009.
3. Mirtojiyev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
4. Nazarov K., Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. (Punktuatsiya). Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
5. Ne'matov H, Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.
6. Ne'matov H, Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
7. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. Oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
8. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –T. 2006.
9. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti Toshkent-2010.
10. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфологияси. –Т., 1992

9-modul. LEKSEMA. LEKSEMA VA SO'Z MUNOSABATI

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti -2 soat	Talabalarning soni: 50 -60 kishi
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza (omnaviy, jamoaviy, juftlikda ishlash)
Mashg'ulot rejasi.	<ol style="list-style-type: none"> 1. So'zning leksik birlik sifatidagi mohiyati. 2. So'z- tilning eng muhim nominativ birligi. 3. Leksik mazmunli so'zlar (leksemalar). 4. Grammatik va modal mazmunli so'zlar (yordamchi so'zlar, modal so'zlar, taqlidiy so'zlar, undovlar, olmoshlar). 5. Leksemaning ifoda va mazmun jihatlari: nomema va semema haqida ma'lumot. 7. Leksemaning ifoda jihati (fonetik qiyofasi so'zga, birikmaga teng shakllari) tashqi forma, mazmun jihatining esa ichki forma ekanligi. Ichki formaning bir yoki bir necha leksik ma'nodan (demak, bir necha sememadan) tarkib topishi. 8. Tashqi va ichki formalar o'rtasidagi aloqada dialektikaning shakl va mazmun birligi qonuniyatining namoyon bo'lishi; 9. Leksemaning so'z birikmasi va gapdan farqli jihatlari.
Oquv mashg'ulotining maqsadi:	Talabalarda yuqoridagi mavzularga oid bilim darajasini shakllantirish
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari :

<ul style="list-style-type: none"> • 5.1-5.2-mavzularning mazmun mundarijasini gapirib berish; • Tayanch tushunchalar ustida ishlash • Ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar vositasida talabalar bilimini, ularning fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish. 	<ul style="list-style-type: none"> • Talaba 5.1-5.2-mavzularning mazmun mundarijasini eshitadi, bu mavzularga oid bilimini mustahkamlaydi; • Talabalarning bilim darajasi, tahlil ko'nikmalari aniqlanadi, baholanadi.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Ko'rgazmali, ma'lumotli, trening, jamoada ishlash.
<i>Ta'lim berish shakllari va metodlari</i>	Og'zaki, yozma, ko'rgazmali, kitob bilan ishlash, aqliy hujum, kalit so'zlar, semik tahlil metodlari.
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanmalari, savolnomalar, tarqatma materiallar, proyektor, doska, audivizual vositalar
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Hamkorlikda ishlash va taqdimotlarni amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob, suhbat, matn tahlili.

MA'RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Bosqichlar va ularning vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Kirish (10 daqiqa)	Darsga nisbatan talabalarning motivatsiyasini shakllantiradi.	1.1. Fikrlarini jamlaydi va darsga tayyorlanadi.
2-bosqich Asosiy qism (60 daqiqa)	So'zning leksik birlik sifatidagi mohiyatini tushuntirib beradi (2-ilova)	So'zning leksik birlik sifatidagi mohiyatini tushunadi.
3-bosqich Yakuniy qism (10 daqiqa)	Mashg'ulotni yakunlaydi, xulosalaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi.	O'zining ahosini eshitib, to'g'ri xulosa qiladi.

Reja:

1. So'zning leksik birlik sifatidagi mohiyati.
2. So'z - tilning eng muhim nominativ birligi.
3. Leksemaning mazmun jihati (semantik tarkibi). Leksik ma'noning semalari.
4. Leksik mazmunli so'zlar (leksemalar). Grammatik va modal mazmunli so'zlar (yordamchi so'zlar).


1. So'zning leksik birlik sifatidagi mohiyati

So'z tilning eng kichik nominativ birligidir, chunki u borliqdagi narsa-buyumlarni, predmet sifatida tasavvur qilinadigan mavhum tushunchalarni, harakat-holatni, rang-tus, maza-ta'm, hajm-miqdor, xislat kabi belgi-xususiyatlarni nomlaydi: *daraxt* (predmet nomi), *ong* (mavhum tushuncha nomi), *ishlamoq* (harakat nomi), *oq* (rang-tus nomi), *shirin* (maza-ta'm nomi), *katta* (hajm nomi), *bash* (miqdor nomi) kabi. Tilning lug'at boyligidagi bunday so'zlar leksik birliklar sanaladi. Ularni

grammatik mazmunli soʻzlardan farqlash kerak.

Tilshunoslikda leksik mazmunli soʻzlarning strukturasi har xil taʼriflanmoqda: ayrim manbalarda leksik mazmunli soʻzlarning ifoda tomoni (ifodalovchisi) *leksema* deb, mazmun tomoni (ifodalanuvchisi) esa *semema* deb atalmoqda. Demak, *leksema* va *semema* leksik birlikning (soʻzning) oʻzaro aloqada boʻlgan ikki tomoni ekanligi aytiladi (qarang: Толстой Н.И. Из опытов типологического исследования якутского словарного состава.- «Вопросы языкознания», 1963, №1. Yana: Новиков Л.И. Семантика русского языка. М.: «Высшая школа». 1982, с. 114). *Har qanday leksema soʻzning ifoda tomonigina emas, balki uning ifoda va mazmun tomonlari birligidan iborat yaxlit butunlik ekanligi taʼkidlanadi. Bu butunlik nominativ funksiyadagi soʻz yoki soʻz birikmasi shaklida boʻladi. U morfoloogiya va leksikologiyada tilning lugʻat tarkibidagi bir component (vokabula) sifatida, morfologiyada esa maʼlum maʼnolar tarkibidan iborat birlik (semantema) sifatida oʻrganiladi. (qarang: Кодухов В.И. Введение в языкознание. М.: «Просвещение». 1979, с. 184-186).*

Oʻzbek tilshunosligida leksik mazmunli soʻzning *leksema* deb atalishi (demak, *leksemaning ifodalovchi va ifodalanuvchi tomonlar birligidan iborat bir butun leksik birlik sifatida qaralishi*) keng tarqalgan? Bunda uning ifoda tomoni (ifodalovchisi) *nomema* termini bilan, mazmun tomoni (ifodalanuvchisi) esa *semema* termini bilan nomlanmoqda (qarang: Neʼmatov H., Rasulov R. Oʻzbek tili system leksikologiyasi asoslari.- T.: “Oʻqituvchi”, 1995, 54-55-b.). Bizning maʼruzalarimizda ham ana shu tushuncha amal qilinadi.



Shunday qilib, leksemalarning leksik birlik sifatidagi tavsifida quyidagi belgi-xususiyatlarning alohida oʻrni djr:

1. Har qanday leksema ikki tomonning – ifoda (tashqi) va mazmun (ichki) tomonlarning, demak, *nomema* va *sememaning birligidan tarkib topadi. Bunda:*

a) leksemaning ifoda tomoni (nomemasi)

Uning fonetik qobigʻi (fonemalar, boʻgʻinlar, va soʻz urgʻidan tarkib topgan moddiy-material shakli) dir. Masalan, quloq leksemasining ifoda tomonida 5 ta fonema (q,u,l,o,q), 2 ta boʻgʻin (qu-loq) va 1 ta soʻz urgʻisi (quloq) bor.

Yasama soʻzlarda oʻzak morfema va soʻz yasovchi moefemalar leksemaning ifoda

b) leksemaning mazmun tomoni

Uning maʼnosi (yoki maʼnolari) va baho semalari nazarda tutiladi. Masalan, quloq leksemasining mazmun tomonida quyidagi leksik maʼnolar bor: “*eshitish aʼzosi*” (odamning qulogʻi), “*dutor, tanbur torlarini sozlash uchun oʻrnatilgan murvatlar*” (dutorning qulogʻi), “*qozonning yon tomonlaridan chiqarilgan tutqich-dastalar*”

Leksemaning mazmun tomonidagi leksik ma'no (yoki ma'nolar) va baho semalari uning ichki formasi sanaladi.

Leksemaning ifoda va mazmun tomonlari dialektikaning shakl va mazmun kategoriyalari munosabatiga asoslanadi: shakl mazmunning bo'lishini taqozo qiladi. Mazmun esa shaklsiz yuzaga kelmaydi, ifodalanmaydi ham. Qiyos qiling: shahar, hashar leksemalarining ikkalasida bir xil fonemalar qatnashgan, ammo bu fonemalarning joylashish tartibi, demak, leksemaning shakli har xil. Bu hol shu ikki leksema ma'nolarining tilda farqlanishini ta'minlaydi. Ulardagi fonemalar tartibini o'zgartirish esa shaklning yo'qolishiga olib keladi: shahar (so'z, leksema)-ashhar (so'z emas), hashar (so'z, leksema) – rashah (so'z emas). Demak, tovushlarning har qanday yig'indisi so'z (leksema) bo'lavermaydi: bunday yig'indi til birligining (leksik birlikning) shakli darajasiga ko'tarilishi uchun u albatta mazmun bilan bog'langan bo'lishi kerak.

2. *Leksemalarga xos muhim belgilardan yana biri shuki, ularning har biri u yoki bu leksik-grammatik guruhlarga mansub bo'ladi:* predmet nomlari ot turkumiga, belgi-xususiyat nomlari sifat turkumiga, miqdor anglatuvchi so'zlar son turkumiga, harakat-holat mazmunli so'zlar esa fe'l turkumiga kiradi. Bunday mansublik leksemalarning nutqdagi grammatik shakllarini belgilaydi: otlar egalik, kelishik, ko'plik yoki birlik shakllarida, sifatlar oddiy, ortirma yoki qiyosiy daraja shakllarida, fe'llar shaxs-son, zamon, mayl, bo'lishli yoki bo'lishsiz, nisbat shakllarida qo'llanadi. Bu hol tilning leksik va grammatik sathlari o'rtasidagi aloqadorlikdan kelib chiqadi.

3. *Leksemalar albatta yaxlitlangan, bir butun birlik bo'ladi, shu xususiyati bilan grammatik shakllaedan, so'z birikmasi va gapdan farq qiladi.* Chunonchi, maktab leksemasi leksik birlik sifatida o'zgarib turadi: maktabning, maktabni, maktabga, maktabda, maktabdan kabi. Shuningdek, "beshta olma" birikmasini "beshta qizil olma" deb qo'llash (birikma tarkibiga "qizil" so'zini qo'shish) mumkin, ammo maktab leksemasi tarkibiga boshqa bo'g'in yoki so'z kiritilmaydi.

4. *Leksemada bitta bosh (asosiy) urg'u bo'ladi, u shu leksemaning yaxlitligini, bir butun birlik bo'lishini ta'minlovchi muhim supersegment birlikdir:* qovóq, oshqovóq, temir, temirbetón kabi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan shunday xulosa qilish mumkin: har qanday leksema shakl va ma'no butunligiga ega. Leksemaning shakli uning tashqi formasi, mazmun tomoni esa shu leksemaning ichki formasi bo'ladi. Shakl ma'noni borliq tusiga kiritadi, shu orqali ma'noning tilda va inson xotirasida yashashini ta'minlaydi.

3. Leksemaning mazmun jihati (semantik tarkibi). Leksik ma'noning semalari

Leksemaning mazmun ihati ikki hodisani (leksik ma'no va baho semalarini) o'z ichiga oladi.

Leksik ma'no leksemaning voqelikka nisbatan belgilangan lug'aviy mazmunidir.

U quyidagi uch hodisa orasidagi bog‘lanishdan tarkib topadi³⁸: a) fonetik so‘z (nomema); b) fonetik so‘z tomonidan nomlangan voqelik (predmet, hodisa, tushuncha. Bular denotat, referent deb nomlanadi); d) fonetik so‘z tomonidan ifodalangan ma‘no (signifikat). U inson ongida denotat haqida shakllangan ma‘nodir. Bu ma‘no insonning til xotirasida saqlanadi. Demak, a) fonetik so‘z (so‘zning material qismi, nomemasi) predmetni, denotatni ataydi (denotativ ma‘no), b) fonetik so‘z inson ongidagi signifikatni anglatadi (signifikativ ma‘no). Ana shu uch hodisa (fonetik so‘z, denotativ ma‘no va signifikativ ma‘no) o‘rtasidagi bog‘lanishdan yuzaga kelgan semantik birlik leksik ma‘no sanaladi.

Leksik ma‘no leksemaning lisoniy ma‘nosidir. Nutqda asosan leksemaning lisoniy ma‘nosi (uzual ma‘no) namoyon bo‘ladi. Biroq nutqiy vaziyat, so‘zlovchining bu vaziyatdagi maqsadi kabi omillar ta‘sirida leksema ba‘zan butunlay yangi ma‘no (kontekstual yoki okkazional ma‘no) anglatishi ham mumkin. Demak, leksemaning lisoniy va nutqiy ma‘nolari o‘zaro farqlanishi lozim. (Bu haqda quyiroqda fikr yuritamiz).

v) Leksik ma‘no leksemaning ifoda tomoni (fonetik so‘z) bilan tarixan bog‘langandir, ammo bundan ma‘no va tovushlar o‘rtasida tabiiy bog‘lanish bor degan xulosa chiqmasligi kerak, chunki tovush - ma‘nosiz birlik, fizik-akustik hodisa, ma‘no esa mavhum umumlashmadir. Tovushlar bilan ma‘no o‘rtasida tabiiy bog‘lanish bo‘lganda edi, bir ma‘no tilda bitta so‘z bilan ifodalanardi, aslida esa tilda bir ma‘noning bir necha so‘z bilan nomlanish hollari ham uchraydi: *Kulgi va handa, yolg‘onchi va aldamchi, chelak va satil* kabi sinonimlarning borligi buning isbotidir. Demak, leksik ma‘no fonetik birliklardan tarkib topgan fonetik so‘zga (yoki bir necha fonetik so‘zga) shu til egasi bo‘lgan jamoa tomonidan birlashtirilgan bo‘ladi. Buni quyidagicha tavsiflash mumkin: borliqdagi narsa-hodisalar sezgi a‘zolarimiz orqali ongimizga ta‘sir qiladi, natijada inson ongida shu narsa-hodisalarning in‘ikosi (obrazi) qoladi, unga nom tarzida birlashtirilgan so‘zning shakli ham ongimizda o‘z aksini topadi. Shunday qilib bu ikki hodisa – predmet in‘ikosi va so‘z shakli obrazi o‘rtasida doimiy, barqaror aloqa o‘rnatilib, bir butun birlik yuzaga keladi: har safar narsa-hodisani ko‘rganda yoki sezganda, ongimizda shu narsaning in‘ikosi bilan birga, uning nomi bo‘lgan so‘zning qiyofasi ham gavdalanadi yoki, aksincha, so‘zni eshitganda shu so‘z qiyofasi bilan birga u atagan narsa-hodisaning in‘ikosi, obrazi tiklanadi. Ana shu ikki hodisa o‘rtasidagi doimiy aloqa, bog‘lanish leksik ma‘no bo‘ladi (qarang: Головин В.Н. Введение в языкознание. – М.: «Высшая школа», 1977, с. 71). So‘z va uning ma‘nosi birgalikda inson ongida tushunchani shakllantiradi. Demak, so‘zni tushunchaning tildagi belgisi (знак понятию) deyish mumkin (Головин В.Н. Введение в языкознание. – М.: «Высшая школа», 1977, с. 73.). Biroq so‘zning ma‘nosi bilan tushuncha bitta narsa emas, Ma‘no tushunchaning shakllanishida ishtirok etadi, unga poydevor bo‘lib xizmat qiladi, ammo so‘zning (leksemaning) tarkibiy qismi bo‘lganligidan u til birligi sanaladi, tushuncha esa, garchi so‘z va uning ma‘nosi bilan aloqada bo‘lsa-da, inson tafakkurining mahsuli sifatida logik kategoriya hisoblanadi. Masalan, shox-shabbali, ko‘p yillik o‘simlik haqidagi

³⁸ Semantik uchburchak haqida qarang: N.A., Baskakov, A. Sodiqov, A.A. Abduazizov. Umumiy tilshunoslik. - T. O‘qituvchi, 1979. - 100-b.

tushuncha barcha millat vakillari ongida bir xil bolsa-da, uning shakllanishida poydevor vazifasini bajargan soʻzlar har xildir: oʻzbek tilida daraxt, rus tilida derevo, nemis tilida der Baum. Shuning uchun daraxt soʻzining maʼnosini nemis va rus bilmaydi, oʻzbek esa der Baum va derevo soʻzlarining maʼnolarini anglay olmaydi (agar shu tillardan xabari boʻlmasa), bunday holat ulardan birining (tushunchaning) logik kategoriya ekanligidan, ikkinchisining (soʻz va maʼnoning) esa lingvistik kategoriya ekanligidan kelib chiqadi, soʻz va uning maʼnolari qaysi tilga mansub boʻlsa, oʻsha til sistemasi ichida qaraladi, shuning uchun bir tushuncha nomi turli tillarda turlicha boʻlishi bilan birga, ularning maʼnolarida anchagina tafovutlar ham uchraydi: bosh (oʻzb.) va golova (rus.) soʻzlarining asosiy (toʻgʻri) maʼnolari oʻzaro tengdir, ammo oʻzbek tilidagi bosh soʻzining koʻchma maʼnolari- “koʻchaning boshi”, “oʻchoq boshi”, “daryo boshi” birikmalarida reallashgan maʼnolari ruscha golova soʻzining mazmun tomonida (semantik tarkibida) yoʻq.

Baho semasi leksemaning mazmun jihatidagi ikkinchi hodisa boʻlib, u nomlanayotgan hodisaga munosabat bildiruvchi semantik component sanaladi. Masalan, buyum va matoh leksemalarining leksik maʼnolari bir xildir: ularning ikkalasi “*tirikchilik-roʻzgʻorda qoʻllanadigan mol*” ni anglatadi. Biroq matoh leksemasining mazmun jihatida bu leksik maʼno salbiy boʻyoq (baho semasi) bilan qoplangan: “*Jon ota, matohlarini olib borib bering, agar meni qizim desangiz, olib borib bering...*” (X.Seitov.). Yuz, bet, aft, bashara, turq kabi sinonim soʻzlarning mazmun jihati ham ayni shu baho semalarining bor yoki yoʻqligi bilan farqlanadi: yuz soʻzining mazmun tomonida leksik maʼno bor, ammo baho semasi yoʻq. Shuning uchun bu leksema yuqoridagi sinonimik qatorda betaraf maʼnoli soʻz (dominanta) sanaladi. Mazkur sinonimik qatordagi boshqa soʻzlarning mazmun jihatida esa ayni shu leksik maʼno salbiy munosabat ifodalovchi baho semasi bilan qoplangan. Bunday semali soʻzlar kuchli uslubiy vositalar sanaladi (Bu haqda “Leksik sinonimlar” mavzusiga qarang.)

4. Leksik maʼnoning leksema mazmunidagi asosiy hodisa ekanligi

Leksemaning mazmun tomonidagi asosiy hodisa, soʻzsiz, leksik maʼnodir; baho semasi esa uni (leksik maʼnoni) qurshab turadi va leksemaning maʼlum uslubiy maqsadlarda qoʻllanishini taʼminlovchi sema sanaladi, shuning uchun u baʼzan “uslubiy maʼno qirralari”, “qoʻshimcha maʼno semalari” deb ham nomlanadi.

Baʼzan mazmun tomonida baho semasi boʻlmagan leksemalar ham maʼlum kontekst yoki nutqiy muhit taʼsirida baho semasini orttirishi mumkin. Bunday holat, koʻpincha, leksemalarning oʻziga xos boʻlmagan kontekstda qoʻllanishi tufayli sodir boʻladi. Masalan, *burun* va *tumshuq* soʻzlaridan har birining oʻz konteksti bor: *burun* leksemasi asosan odamga nisbatan, *tumshuq* leksemasi esa hayvon va parrandalarga nisbatan qoʻllanadi. Qiyos qiling: 1) *Sharofatning yupqa lablari koʻkarib pirpiradi, burni oqarib, kataklari kerildi.* (A. Qahhor); 2) *Laylakning boʻyi novcha, tumshugʻi bor tarnovcha. Lapanglaydi uchganda, uyasidan koʻchganda.* (Uygʻun.). Keltirilgan misollarning ikkalasida *burun* va *tumshuq* soʻzlari oʻz kontekstida qoʻllangan, shu bois ularda qoʻshimcha maʼno semalari (baho semalari) ifodalanmagan.

Yana m i s o l: *U bir koʻngli borib muttaham qozining tumshugʻiga tushirgisi yo iflos basharasiga tupurgisi keldi.* (M. Ismoilijiy). Bu gapda *tumshuq* soʻzi oʻziga xos boʻlmagan kontekstda – odamga nisbatan qoʻllangan, natijada unda

olimga (qoziga) nisbatan hurmatsizlik, nafrat munosabatlari ifodalangan.

O'zbek tilida baho semalarining morfemalar yordamida ifodalanishi keng tarqalgan: oyi-oyi(jon), til(i)-til(lari), uka -uka(gina+m) kabi.Masalan:

1. Mushfiq va mehribon oyijon. O'z tashvihlari bilan Sizni unutgan beaql, adashgan qizingizni ma'zur tuting (E. Samandar.).

2. Og'a, sog' bo'lsangiz avval Dadamlarga salom ayting.Yugurib chiqqan ul mushfiq Onamlarga salom ayting. (Hamza.).

3. Men uning tillarini kesib olaman, qo'limga bir tushsin yashshamagur. (E.Samandar.).

4.Bir oydan so'ng ko'zin yumib Mamaniyoz, Ko'kanchaga meros qopdi budalud, oz-oz. (G'. G').

5. Seni o'imdek bilaman, Ol, ukaginam. (S.Ahmad.).

6.Ana sichqon, mushukvoy, Ana xo'roz , kuchukvoy. (G'.G').


Yuqoridagi tahlil natijalaridan shu narsa ma'lum boladiki, baho semasi uch yo'l bilan ifodalanadi: 1) baho semasiga ega bo'lgan leksemaning o'zi bilan (leksik-semantik usul); 2) kontekst yordanida (kontekstual usul); 3)subyektiv baho ifodalovchi affiks morfemalar yordamida (morfologik usul).

5. Leksik ma'no va u bildirgan voqelik boshqa-boshqa hodisalardir

Leksik ma'noda turli hodisalarning - narsa-pregmetlar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlar yoki ular o'rtasidagi munosabatlarning o'zi emas, balki ular haqidagi tushuncha bilan bog'liq bo'lgan lug'aviy mazmun(lug'aviy mundarija) aks etadi.


Leksik ma'noning semalari

Leksik ma'no leksemaning mazmun jihatidagi yaxlit bir semantik butunlik bo'lsa-da, keyingi vaqtlarda bu butunlik tarkibida ma'lum ma'no qismlari- *semalar* borligi aniqlangan. Masalan, daraxt leksemasining leksik ma'nosi quyidagi semalardan tarkib topgan: 1) "*predmet*", 2) "*o'simlik*", 3) "*ko'p yillik o'simlik*", 4) "*yerda o'suvchi*", 5) "*yog'ochlashgan tanali*", 6) "*ildizli*", 7) "*shox-shabbali*", 8) "*bargli*". Bu semalar (ya'ni ma'no uzvlari) birlashib,daraxt leksemasining leksik ma'nosini shakllantirgan.Leksik ma'noning semema (ba'zan semantema) deb atalishi ham shundan (semema = semalar yig'indisidan iborat bir butun semantik birlik).



Leksema – leksik ma’no (semema) –semalar o’rtasida butun-bo‘lak (butun-qism) munosabati mavjuddir: leksemaning, ma’lumki, ikki tomoni -ifodalovchisi (nomemasi) va ifodalanuvchisi (leksik ma’nosi, sememasi) bor. Demak, *leksema* leksik ma’noga(sememaga) nisbatan butun, *leksik ma’no* esa leksemaga nisbatan bo‘lak (qism) sanaladi, *ayni paytda leksik ma’noning (sememaning) o‘zi* ham bir necha semalardan tarkib topganligi uchun, shu semalarga nisbatsn butun, *semalar* esa butunlik ichidagi qismlar munosabatida bo‘ladi.

Qiyos qiling: SHAHAR (leksema) =1) *Ifodalovchi tomoni (nomemasi)* 5 ta fonema, 2 ta bo‘g‘in va 1 ta so‘z urg‘sidan tarkib topgan fonetik so‘zdir + 2) *ifodalanuvchi tomoni (leksik ma’nosi)* esa “aholisi asosan sanoat va savdo, shuningdek maishiy xizmat ko‘rsatish, boshqaruv, fan, madaniyat shoxobchalarida mashg‘ul bo‘lgan yirik aholi punkti” mazmunli sememadir. Mazkur leksik ma’noning (sememaning) o‘zi quyidagi semalardan tarkib topgan: a) *yirik aholi punkti*; b) *sanoat va savdo markazi*; d) *ilm-fan markazi*; e) *madaniyat markazi*; f) *boshqaruv markazi*; g) *“maishiy xizmat ko‘rsatish markazi”*. Bu semalar yaxlit sememaning bo‘laklari (ma’no qismlari) sanaladi.




SEMALAR ma'no xususiyatlariga va vazifalariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: 1. Atash semalari. Ular ideografik semalar, denotativ semalar deb ham yuritiladi. Bunday semalar semema tarkibidagi asosiy semalar sanaladi, chunki ular denotativning (nomlanayotgan narsa yoki hodisaning) asosiy belgi-xususiyatini nomlaydi. Atash semalari (ideografik semalar) o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

a) integral semalar. Bunday semalar ikki yoki undan ortiq sememalarni bitta mazmuniy guruhga birlashtiradi. Masalan, o'zbek tilidagi amaki, amma, tog'a, xola leksemalarining barchasida "qarindosh", "yaqin qarindosh" semalari bor, bu semalar shu leksemalarni bir umumiy guruhga birlashtiradi (ularning "integral semalar" deb nomlanishi ham shundan); b) differensial semalar. Bunday semalar bir mazmuniy guruhdagi leksemalarning ma'nolarini bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladi. Chunonchi, amaki va tog'a leksemalari "qarindosh", "yaqin qarindosh" semalari asosida bitta mazmuniy guruhga birlashadi, ammo "amaki"dagi "otaning akasi yoki ukasi" semasi "tog'a" leksemasida yoq, "tog'a" leksemasining semantik tarkibidagi "onaning akasi yoki ukasi" semasi esa "amaki" leksemasining semantik tarkibida yo'q, demak bu sema amaki va tog'a leksemalarini bir-biridan farqlash imkonini beradi.; amaki va amma, tog'a va xola leksemalari ham "qarindosh", "yaqin qarindosh" semalari bilan birlashadi, ammo "erkak" va "ayol" semalari bilan o'zaro farqlanadi.

Leksik ma'noni (sememani) tarkibiy qismlarga – semalarga parchalab tadqiq qilish semasiologiyada komponent tahlil metodi, semik tahlil metodi nomlari bilan atab kelinmoqda.

2. Ifoda semalari. Ular baho semalari, konnotativ semalar deb ham yuritiladi. Bunday semalar leksema tomonidan nomlangan hodisaga, voqelikka subyektiv

munosabat bildiruvchi belgi sanaladi, shuning uchun baho semasi deb ham qaraladi. U uch xil yo'l bilan ifodalanadi (bu haqda "Leksemaning mazmun jihati" mavzusiga qarang).



Ba'zi adabiyotlarda semalarning ma'no xususiyatlariga ko'ra uchinchi turi – vazifa semasi borligi, ular leksemaning nutqdagi vazifasini belgilashi aytilgan³⁹. Tilshunos M. Hakimovning fikricha, "semema tarkibida denotativ va konnotativ semalar bilan bir qatorda vazifa semasining ajratilishi to'g'ri emasdek ko'rinadi. Zero, vazifa bajarish yoki birika olish leksik ma'noning imkoniyatidir, am mo uning tarkibiy qismi emas"⁴⁰.

Yuqoridagi ma'lumotlardan vazifa semasi haqidagi fikrlarning hozircha munozarali bo'lib qolayotganligi ham ma'lum bo'ladi.

Tilda integral semaning yirik guruhlarni birlashtiruvchi turi ham mavjud. Masalan, "miqdor" ma'nosi son turkumidagi *bir, ikki, uch, to'rt* leksemalarini bir guruhga birlashtiradi va shu guruh leksemalari uchun integral (birlashtiruvchi) sema sanaladi. Ayni shu sema (miqdor ma'nosi) ravish turkumidagi *ko'p, oz, mo'l, kam* leksemalari sememasida ham bor. Demak, "miqdor" semasi ikkita alohida-alohida guruh leksemalarining barchasi uchun umumiydir, shuning uchun u arxisema sanaladi.

³⁹ Bu haqda qarang: H. Ne'matov, R. Rasulov. O'zbek tili system leksikologiyasi asoslari. -T.: O'qituvchi, 1995. -62-b.

⁴⁰ Muhayyo Hakimova. Semasiologiya. -Toshkent, 2008. -39-40-b.

Leksik ma'noning lug'aviy (leksik) konteksti.

Bunday kontekst leksik ma'noning (yoki ma'nolardan birining) namoyon bo'lishi uchun zarur sharoitni yaratadi. Masalan, til leksemasining to'ng'ich bosh ma'nosi "og'iz bo'shlig'ida joylashgan a'zo"(1), "maza-tam bilish a'zosi"(2) semantalaridan tarkib topgandir. Bu bosh ma'no odam, hayvon, og'rimoq, yallig'lanmoq kabi leksemalar bilan bog'lanib kelganda namoyon bo'ladi: *odamning tili, hayvonning tili, tili yallig'langan* kabi. Til leksemasining "aloqa-aralashuv qobili" ma'nosi ham bor bo'lib, uning nutqda namoyon bo'lishi "ona", "milliy", "xalq" kabi ot va sifatlar, "gapirmoq", "so'zlashmoq", "o'rganmoq" kabi fe'llar bilan bog'lanishda namoyon bo'ladi: *ona tili, milliy til, xalq tili, ona tilida gapirmoq, ona tilida so'zlashmoq, rus tilini o'rganmoq* kabi. Demak, har bir leksik ma'no o'zining leksik kontekstiga ega. Bunday kontekst ayniqsa ko'p ma'noli leksemalarning u yoki bu ma'nosini nutqda reallashtirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Leksik ma'noning grammatik tabiati.

Polisemantik leksemalarning leksik ma'nolari o'zlarining leksik konteksti bilan birga, shu leksemaning u yoki bu morfologik shaklga kirish imkoniyatlari bilan ham bir-biridan farq qiladi. Masalan, "*tarix tilga kirdi*" deyish mumkin, ammo "*dehqonchilik tilga kirdi*" deb bo'lmaydi. Shuningdek, "*dehqonchilikning tilini biladi*" deyish mumkin bo'lgani holda, "*tarixning tilini biladi*" deyish hollari uchramaydi. Bular shuni ko'rsatadiki, har bir leksik ma'noning o'z leksik konteksti va o'z grammatik tabiati bor.

Leksik ma'nolarda semantik bog'lanish.

Leksemalar gapda teng va tobe munosabatlar asosida bog'lanib keladi. Bunday bog'lanishda ular o'rtasidagi semantik munosabatlar ham hisobga olinadi. Masalan, "*u choy ichdi*" deyish mumkin, ammo "*u choy yedi*" deb bo'lmaydi, chunki yemoq fe'llining semantik tarkibida "suyuqlik" semasi, "choy" leksemasida esa "quyuqlik" semasi yo'q: choy yeyilmaydi, non ichilmaydi. Demak, o'zaro bog'lanayotgan leksemalarning semantik tarkibida bir umumiy semaning bo'lishi shart. Bunday umumiy sema tilshunoslikda sintagmema deb yuritiladi.⁴¹ *Choy* va *ichmoq* so'zlarining har ikkalasida mavjud bo'lgan "suyuqlik" semasi "*choy ichdi*" bog'lanishida sintagmema vazifasini bajargan- bu ikki so'zning semantik bog'lanishini ta'minlagan. Leksemalarning birikma yoki gap tarkibida o'zaro aloqaga kirisha olish (bog'lana olish) xususiyatlari tilshunoslikda valentlik deb yuritiladi, valentlikka oid g'oyalar, qarashlar umumlashmasi esa valentlik nazariyasini shakllantiradi.

Tekshirish savollari va topshiriqlar

1. Nima uchun so'z nominativ birlik sanaladi?
7. Leksik so'zlar va grammatik so'zlar qanday farqlanadi?
8. Leksik va grammatik mazmunli so'zlar tilshunoslikning qaysi bo'limlarida o'rganiladi?
9. Leksema, nomema, semema atamalarini tushuntiring.
10. Leksemaning ifoda va mazmun planlari haqida ma'lumot bering.

⁴¹ Bu haqda qarang: Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. -T.:Universitet,2006.-72-b.

11. Tub va yasama so'zlarning ifoda planlari qanday farqlanadi?
12. Leksemaning yaxlit bir butun birlik ekanligi nimalarda namoyon boladi?
13. Leksik ma'no nima?
14. Denotat, referent nima?
16. Sema va semema haqida ma'lumot bering.
17. Semalar ma'no xususiyatlariga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
18. Atash (denotativ) semalari nima? Ifoda va vazifa semalari-chi?
19. Ideograllk semalarning integral va differensial semalarga bo'linishini tushuntiring.
20. Termin, uning ifoda va mazmun planlari haqida ma'lumot bering.
21. Terminlarda leksik ma'no bilan tushunchaning teng kelish holatlarini tushuntiring.

Asosiy adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'zME, 2013.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Т., 1994.
2. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2009.
3. Mirtojdiyev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
4. Nazarov K., Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. (Punktuatsiya). Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
5. Ne'matov H, Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.
6. Ne'matov H, Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
7. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. Oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
8. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –Т. 2006.
9. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti Toshkent-2010.
10. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфологияси. –Т., 1992

10-modul. LEKSEMANING IFODA VA MAZMUN TOMONI. POLISEMANTIKLIK VA KO'P MA'NOLILIK.

Reja

1. Leksemaning ifoda va mazmun tomoni.
2. Polisemantiklik va ko'p ma'nolilik.
3. Evfemizm va disfemizmlar.

1. Leksemaning ifoda tomoni.

Leksemalarning leksik birlik sifatidagi tavsifida quyidagi belgi-xususiyatlarning alohida o'rni bor:

1. Har qanday leksema ikki tomonning ifoda va mazmun planlarining nomema vasesemaning birligidan tarkib topadi:

1) leksemaning ifoda plani uning fonetik qobig'idir (fonemalar, bo'g'inlar va so'zurg'usidan iborat moddiy-material shakli). Masalan, quloq leksemasining ifoda planida 5 ta fonema (q,u,l,o,q), 2 ta bo'Hin (qu-loq) va 1 ta so'z urg'usi (quloq) bor.

Leksemaning ifoda plani bo'g'in tiplari, uning fonetik tarkibi bilan bog'langan bo'ladi: o'zbek tilining o'z qatlamidagi umumturkiy leksemalarning ko'pchiligini bir va ikki bo'g'inli tub so'zlardir. Bir bo'g'inli tub leksemalarning fonetik tarkibi undosh+unli+undosh (bosh, ko'z), unli+undosh (osh, o'n) sxemalarida bo'ladi; bo'g'in va so'z boshida ikki undosh qatorlashib kelmaydi, ammo so'z oxirida ikki undoshning ketma-ket kelishi uchrab turadi: to'rt, qirq kabi.

Ikki bo'g'inli tub leksemalarning birinchi bo'g'ini unli (o-na), unli+undosh (ol-ti), undosh+unli+undosh (kat-ta), undosh+unli (bo-la), ikkinchi bo'g'ini esa undosh+unli (o-ta), undosh+unli+undosh (ol-tin) sxemalarida bo'ladi. Ikkinchi bo'g'in hech qachon unli bilan boshlanmaydi, ammo unli bilan tugashholatlari (ochiq bo'g'in bo'lishi) ko'p uchraydi (gav-da, da-da, bo-la, bo-bo, bu-vi kabi). O'zbek tilining o'zlashgan qatlamidagi leksemalarning bo'g'inlarida, binobarin, so'zning ifoda planida ham bir qator o'ziga xosliklar bor. (Bu haqda «o'zbek tilining o'z va o'zlashgan qatlamlari» bahsiga qaralsin.)

Yasama so'zlarda o'zak morfema va so'z yasovchi morfemalar leksemaning ifoda plani o'ladi: ish-chi-ishchi, bosh-la(moq)-boshla(moq) kabi. Fonemalar esa o'zak va affikslarning ifoda plani vazifasiga qo'llanadi: ishchi-i,sh/ch,i; boshlamoq-b,o,sh/l,a/m,o,q kabi.

Leksik mazmunli juft va takror so'zlar ham yaxlitlangan bir leksema hisoblanadi: katta-kichik (bitta leksema), bola-chaqa (bitta leksema) qop-qop (bitta leksema) kabi (24,55-b.).

2) leksemaning mazmun plani deyilganda uning ma'nosi (yoki ma'nolari) va uslubiy bo'yoqlari (ma'no qirralari) nazarda tutiladi. Masalan, quloq leksemasining mazmun planida quyidagi leksik ma'nolar bor: «eshitish a'zosi» (odamning qulog'i), «dutor, tanbur torlarini sozlash uchun o'rnatilgan muruvvatlar» (dutorning qulog'i), «qozonning yon tomonlaridan chiqarilgan tutqich-dastalar» (qozonning qulog'i) kabi. Chehra leksemasining mazmun planida esa leksik ma'no qo'shimcha ottenka – uslubiy bo'yoq bilan qoplangan. Bu bo'yoq kishi kayfiyati, ruhiy holati yoki xulq-atvorining yuzdagi aksini ifodalaydi: chehra degan ko'ngilning oynasidir.

Leksemaning mazmun planidagi leksik ma'no (yoki ma'nolar) va uslubiy semalar uning ichki formasi sanaladi.

Leksemaning ifoda va mazmun planlari dialektikaning shakl va mazmun kategoriyalari munosabatiga asoslanadi: shakl mazmunning bo'lishini taqozo qiladi, mazmun esa shaklsiz yuzaga kelmaydi, ifodalanmaydi ham. G'iyos qiling: shahar, hashar leksemalarining ikkalasida bir xil fonemalar qatnashgan, ammo bu fonemalarning joylashish tartibi, demak, leksemaning shakli har xil. Bu hol shu ikki leksema ma'nolarining tilda farqlanishini ta'minlaydi. Ulardagi fonemalar tarkibini o'zgartirish esa shaklning yo'qolishiga olib keladi: shahar (so'z, leksema) – ashhar (so'z emas), hashar (so'z, leksema) – rashah (so'z emas). Demak, tovushlarning har qanday yig'indisi so'z (leksema) bo'lavermaydi, (chunki tovushning o'zida ma'no yo'q) bunday yig'indi til birligining (leksik birlikning) shakli darajasiga ko'tarilishi uchun u albatta mazmun bilan bog'langan bo'lishi kerak.

2. Loyeksemalarga xos muhim belgilardan yana biri shuki, ularning har biri u yoki bu leksik-grammatik guruhlariga mansub bo'ladi: predmet nomlari ot turkumiga, belgi-xususiyat nomlari sifat turkumiga, miqdor anglatuvchi so'zlar son turkumiga, harakat-holat mazmunli so'zlar esa fe'l turkumiga kiradi. Bunday mansublik leksemalarning nutqdagi Grammatik shakllarini belgilaydi: otlar egalik, kelishik, ko'plik yoki birlik shakllarida, sifatlar oddiy, orttirma yoki qiyosiy daraja shakllarida fe'llar shaxs-son, zamon, mayl, bo'lishli yoki bo'lishsiz, nisbat shakllarida qo'llanadi. Bu hol tilning leksik va grammatik sathlari o'rtasidagi aloqadorlikdan kelib chiqadi.

3. Leksemalar albatta yaxlitlangan, bir butun birlik bo'ladi, shu xususiyati bilan grammatik shakllardan, so'zlar birikmasi va gapdan farq qiladi. Chunonchi, maktab leksemasi leksik birlik sifatida o'zgarib turadi, ammo uning grammatik shakllari nutqda o'zgarib turadi: maktabning, maktabni, maktabga, maktabda, maktabdan kabi. Shuningdek, «beshta olma» birikmasini «beshta qizil olma» deb qo'llash (birikma tarkibiga «qizil» so'zini qo'shish) mumkin, ammo maktab leksemasi tarkibigaboshqa bo'g'in yoki so'z kiritilmaydi.

4. Leksemada bitta bosh (asosiy) urg'u bo'ladi, u shu leksemaning yaxlitligini, bir butun birlik bo'lishini ta'minlovchi muhim supersegment birlikdir: qovoq, oshqovoq, temir, temirbeton (so'nggi so'zning ikkinchi bo'Hinida ikkinchi darajali urg'u, oxirgi bo'g'inda esa bosh urg'u qo'llangan) kabi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkin: har qanday leksema shakl va ma'no butunligiga ega. Leksemaning shakli uning tashqi formasi, mazmun plani ega shu leksemaning ichki formasi bo'ladi. SHakl ma'noni borliq tusiga kiritadi, shu orqali ma'noning tilda va inson ongida yashashini ta'minlaydi.

2. Monosemiya va polisemiya

Monosemiya unoncha “mono” - bir, “sema” - ma'no so'zlaridan olingan bo'lib, bir ma'nolilik demakdir. Birgina tushuncha yoki tasavvurni anglatib kelgan so'zlar bir ma'noli yoki monosemantik so'zlar deb ataladi. Masalan: non, suv, shahar, qishloq, urg'u, kesim, traktor, компьютер kabi.

Odatda fan va texnika sohasiga oid atamalar, bir ma'noli bo'ladi, lekin bu ham chegaralangan, chunki ayrim fan va texnika sohalariga xos atamalar ham ko'p ma'noli bo'lishi mumkin: morfologiya - grammatikaning bir bo'limi va o'simlik,

hayvon xujayralarini o'rganuvchi soha; payvandlash-o'simliklarning yangi navlarini etishtirish va metall jismlarni bir-biriga ulash kabi.

Polisemiya so'zi ham iononcha "poly" - ko'p, "sema" - ma'no so'zlaridan olingan bo'lib, ko'p ma'nolilik demakdir. Ikki yoki undan ortiq ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladigan so'zlarga ko'p ma'noli yoki polisemantik so'zlar deyiladi. Ko'p ma'noli so'zlarning qanday ma'noda qo'llanganligi faqat matn ichida kontekstda bilinadi.

Masalan, bosh so'zining asl ma'nosi kalla (gavdaning bosh qismidir). Ammo bu so'z turli birikmalarda turli ma'nolarni ifodalaydi: ishning boshi birikmasida - ishning boshlanishi; bosh vazifa birimasida - muhim, asosiy vazifa, bosh ko'tarmoq birikmasida - qo'zqalmoq, harakatga kelmoq; bosh bo'lmoq iborasida - rahbarlik qilmoq, idora etmoq, ishni boshqarmoq; bosh egmoq iborasida - bo'ysunmoq, taslim bo'lmoq, o'zini aybdor his qilmoq; bosh biriktirmoq (qo'shmoq) iborasida - ahillik, ittifoqlik, birdamlik; boshboshdoqlik yasalmasida - o'zboshimchalik, tartibsizlik kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Ko'p ma'noli so'zlar faqat otlargagina xos bo'lmay balki fe'l, sifat va boshqa turkumlarda ham uchraydi. Masalan, o'chirmoq so'zining: 1) olovni o'chirmoq (o'z ma'nosi), 2) to'xtatmoq - ovozni o'chirmoq, 3) tozalamoq - doskani o'chirmoq, chiziqni o'chirmoq, 4) chizmoq - xatni siyoh bilan chizib o'chirmoq, 5) tuzatmoq - xatoni o'chirib tuzatmoq; ko'k so'zining: 1) rang, tus, 2) osmon, 3) rezavor o'simlik; besh so'zining: 1) raqam, 2) miqdor, 3) baho (a'lo), 4) iutuq, muvaffaqiyat, kayfiyat (uning ishi besh); oq so'zining 30 dan ortiq ma'nosi va boshqalar.

So'zlarning ko'p ma'noliligi aslida so'z ma'nolarining turli usullar bilan ko'chishi, davrlar o'tishi bilan ayrim so'zlarning ma'nosida kengayish yo torayish hodisasi ro'z berishi natijasida hosil bo'ladi. Kishilarning tabiat, jamiyat va ishlab chiqarish sohasidagi tasavvurlari, shu tasavvur va tushunchalarni ifodalovchi so'zlar, ularning ma'nolari o'zgarib, kengayib, boyib boradi. Lekin bu metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi hodisalar polisemiyaning ko'rinishlari degan gap emas. Ma'no ko'chishdagi so'z ma'nolarining o'zgarishi bilan ko'p ma'nolilikdagi so'z ma'nolarining o'zgarishi boshqa-boshqa hodisalardir.

Qiyoslang: oltin soat va oltin ko'z birikmalaridagi "oltin" so'zida ma'no ko'chishi ro'z bergan, lekin har ikkala birikmadagi oltin so'zi bir leksik ma'noda qo'llangan. Nok ko'chatlari payvand qilindi va gaz quvurlari payvand qilindi gaplarida esa "payvand" so'zi har ikkalasida ham ulamoq tushunchasini anglatga ham, birida kurtak o'rnatish, ikkinchisida eritib yopishtirish ma'nolarini anglatganligi uchun ikki leksik ma'no hosil bo'lgan va ko'p ma'nolilik ro'z bergan.

SHunga ko'ra polisemiya hodisasining ro'z berishining uch sababini ko'rsatish mumkin:

- a) so'zlarda hosila ma'noning ro'z berishi;
- b) so'z yasalishi;
- v) evfemizm va disfemizmlar.

Ma'lumki, so'zning semantik taraqqiyoti aynan bir so'z doirasida har safar yangi ma'no hosil qilinishiga olib keladi. Bu ma'no qanday usul bilan amalga oshirilgan bo'lmasin, yangi hosila ma'nodir. Hosila ma'no so'zning bosh ma'nosi taraqqiyoti natijasida ro'zaga kelgan yangi leksik ma'nodir.

Soʻzning leksik-semantik tarkibidagi hosila maʼnolar soʻz maʼnosi koʻchish usullarining har biri orqali iʼz berishi mumkin. Masalan, oʻrik gulladi gapida “gullamoq” feʼli oʻsimliklarning tabiiy gulga kirish maʼnosini, turmushimiz kundankun gullab, yashnamoqda gapida faravonlik maʼnosini, falonchi oqzidan gullab qoʻydi gapida esa sirni fosh qilmoq maʼnosini anglatadi. Bu maʼnolarning barchasi “gullamoq” soʻzining semantik tizimini tashkil etadi hamda har gal yangi-yangi hosila maʼnolarni iʼzaga keltiradi. Natija - soʻzning koʻp maʼnoliligini shakllantiradi. Biroq, iʼqorida aytilganidek, soʻz maʼnosining koʻchishi orqali hosil boʻlgan har qanday maʼno oʻzgarishi koʻp maʼnolilikni keltirib chiqaravermaydi (koʻz - uzukning koʻzi, buloqning koʻzi, daraxtning koʻzi kabi). Sababi soʻz maʼnosining har qanday oʻzgarishida yangi leksik maʼno hosil boʻlmaydi, shuning uchun ular polisemantik soʻzlar qatoriga kiritilmaydi. Masalan, vazifadoshlik usuli bilan hosil boʻlgan siyoh soʻzining maʼnosidagi oʻzgarish ham shunday: siyoh (forscha - qora) oʻtmishda qora rangli, suyoq yozuv qurolining nomi boʻlgan, lekin vazifasiga koʻra maʼno koʻchishi natijasida hozirgi yozuv qurollari ham qanday rangda boʻlishidan qatʼiy nazar, siyoh (qora siyoh, koʻk siyoh, qizil siyoh kabi) deb ataladi. Qadimgi siyoh soʻzidan iʼzaga kelgan yangi hosila (“siyoh”) yangi leksik maʼnoning hosil boʻlishi bilan emas, balki qadimiy va yangiligi bilangina (funktional koʻchim) farqlanadi, xolos.

Polisemantik soʻzlarning tarkib topishida, koʻp hollarda, soʻz yasalihi ham sabab boʻladi, lekin tildagi har qanday oʻzakdosh soʻzlar polisemantik soʻz boʻla olmaydi. Bunda uch holat kuzatiladi:

1. Yasalmalar maʼnosining differensiasiyalanishi, yasalma anglatgan maʼno qutblarining oʻzgarishi polisemantik soʻzlarni keltirib chiqaradi. Misollar: sutli, sutsiz, sutday, sutchi soʻzlari bir oʻzakdan hosil boʻlgani, turli leksik maʼno anglatgani bilan oʻzaro polisemantik soʻzlar emas. Lekin shulardan sutchi soʻzi “sut sotuvchi” va “sut tashuvchi” kabi ikki leksik maʼnoni anglatganligi uchun (bir yasalma (sutchi) maʼnosida differensiasiyalanish iʼz berganligi uchun) polisemantik soʻzdir. YA na: boshqarma - tashkilot va shu tashkilot binosi (qiyoslang: boshqarma boshligʻi, boshqarma oldida, boshqarma qarori kabi); gulchi - “gul oʻstiruvchi”, “gul sotuvchi”; mehmonxona - “mehmonlar yashaydigan joy”, shunga xoslangan bino, “mehmon kuzatiladigan alohida xona” va boshqalar.

2. Soʻz yasashda vosita boʻlgan yasovchining oʻzi koʻp maʼnoli boʻlsa, undan hosil boʻlgan yasamalar ham koʻp maʼnoli boʻladi: guliston - “gul oʻsadigan dasht”, “maxsus gul oʻsdiriladigan joy”, koʻchma maʼnoda - “goʻzal Vatan”; vazirlik - “vazirlik lavozimi”, “vazirlarga taalluqli tashkilot”, “shu tashkilot joylashgan bino”; oshxona - “ovqat tayyorlanadigan xona”, “umumiy ovqatlanish binosi” kabi.

3. Soʻz yasashda ishtirok etgan yasaluvchi asos koʻp maʼnoli boʻlsa, yasalmalar koʻp maʼnoli boʻladi. Masalan, ip ulamoq, telefon ulamoq, gapni gapga ulamoq birikmalarida “ulamoq”, paxtalik dala, paxtalik kiyim, paxtalik joy (paxtasi koʻp) birikmalarida “paxtalik” soʻzi koʻp maʼnolidir.

3. Evfemizm va disfemizmlar polisemantik soʻzlarning tarkib topishidagi eng asosiy omillardan biridir.

Avvalo, bular qanday til hodisasi?

Evfemizmlar, qisman disfemizmlar ham, til taraqqiyotida shu tilda soʻzlashuvchi xalq ruhiyati bilan bogʻliq holda shakllanadigan lugʻaviy

birikmalardir. Evfemizmlar mutloq nutqiy hodisa bo'lib, odatda, tilda biror aytilishi noqulay bo'lgan so'z yoki ibora o'rnida boshqa so'z qo'llash, uni romshatish asosida yuzaga keladi. Bu, ko'pincha, ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:

1. Tabu (man') qilingan so'zlar o'rnida boshqa so'zlar qo'llash.

2. Nutqiy muomalada aytilishi noqulay bo'lgan so'zlarning o'rnini almashtirish.

Tabu (<tapu) aslida polinezcha ta-"ajratmoq, chegaralamoq", pu-"butunlay, tamoman" so'zlaridan olingan bo'lib, tapu-"tamoman chegaralangan, man' qilingan" degan ma'nolarni ifodalaydi. Uning aksi poa -"odatiy, umumiste'moldagi" ma'nolarini beradi.

Tabu tilda o'z ifodasini topgan etnografik tushuncha bo'lib, u qadimgi polinezlar hayoti va tilida keng qo'llanilgan. Qabila a'zolarining tabiiy, ijtimoiy hodisalarga diniy-mifologik nuqtai nazardan qarashlari, ba'zi hodisalarni o'z nomi bilan atashni man' qilishlari, ilohiylashtirishlari, ya'ni tabu hisoblashlari natijasida, masalan, qabila boshliqlari yoki oila a'zolaridan birortasi vafot qilsa, uning nomini atash, u foydalangan ashyolarni ishlatishni man' qilganlar. Keyinchalik bu odatlar qabilalararo ommalashib boshqa voqea, hodisa, narsa, predmet va ularning nomlarini ham tabulashtirganlar, man' qilganlar.

Evfemizmlar tabulashtirilgan so'zlar o'rnida qo'llanadigan, uni almashtiradigan lug'aviy birliklardir.

Evfemizmlar so'zi grekcha euphemeo so'zidan olingan bo'lib, "romshoq gapiraman" degan ma'noni anglatadi. Ochiq aytish man etilgan yoki noqulay hisoblangan, odobsizlik axloqsizlik sanalgan, tasavvurda qo'rqinch noxushlik uyg'otadigan, hamma vaqt ham ochiq talaffuz qilaverish mumkin bo'lmagan so'z va iboralarning yashirin, beozorroq tusga kiritib aytish, mumkinqadar «pardali» tarzda buyon etish evfemizmlardir.

Masalan, tug'moq o'rnida ko'zi yorimoq, qutilib olmoq; o'g'ri o'rnida qo'li egri; ko'r o'rnida ko'zi ojiz, so'qir, a'mo; o'lmoq o'rnida nobud bo'lmoq, vafot etmoq, halok bo'lmoq kabi so'z va iboralar evfemik vositalardir.

Tilda evfemizmlarning paydo bo'lishi va mavjudligi tabu hodisasi bilan aloqadordir. Yuqorida ta'kidlanganidek, kishilik jamiyati tarixida tabiat hodisalarining ilohiylashtirilishi, ularning asl sabablariga tushunib etmaslik, natijada har bir narsa-predmet, voqea-hodisaning o'z yaratuvchilari, ya'ni xudolari bor deb tushunish zahirida ularning nomlarini tilga olmaslik, man qilish tabuning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Kishiga zarar etkazuvchi barcha narsalarning nomi ochiq aytilmagan. Sababi nom predmet bilan bog'liq, nomi tilga olingan narsa o'z predmeti - egasini xabardor qiladi va u kelib kishiga zarar etkazadi, deb tushunilgan. Masalan, bo'ri o'rnida jondor, itqush, haligi, u; chayon o'rnida benom, eshak, kajdum; ilon o'rnida arg'amchi, sudraluvchi, arqon; qizamiq o'rnida gul, oymoma, chechak; qoraqurt o'rnida g'unda, olagunda kabi so'zlar qo'llaniladi.

Ekspressiv-emosional nutq hosil qilishda, tantanavor va ko'tarinki uslubga erishishda evfemizmlarning roli beqiyos. Birgina «o'lmoq» tushunchasining 500 ga yaqin evfemik vositasi mavjudki, shulardan yosh bolalar o'limiga nisbatan go'dagi uchibdi, nobud bo'пти, go'dagi chennabdi (chetnabdi, chetlabdi), bolasi gul terгани ketibdi, xur bo'пти kabi o'nlab ifodalardan foydalaniladi.

Tilda aytish noqulay, noo'rin, nutqiy madaniyatsizlik, ma'naviyatsizlik hisoblangan so'z va iboralarni romshoq, beozor va silliq tarzda ifodalashdan tashqari, qo'pol va dag'al tarzda izhor qilish usuli ham mavjud.

Bu so'zlovchi va yozuvchining voqelikka salbiy munosabatini ifodalashi, nafrat va g'azabini anglatishi natijasi o'laroq yozaga keluvchi so'z va iboralar evfemizmlarning aksi - kakofemizm yoki disfemizmlardir.

Bunga o'lmoq tushunchasining yuqorida aytib o'tilgani kabi emas, balki ko'ziga tuproq to'lmoq, qon daryosida g'arq bo'lmoq, qulog'i ostida qolmoq, asfalasofilinga jo'namoq tarzida ifodalanishi, ya'ni so'zlovchining voqelikka salbiy munosabati misol bo'la oladi.

Yana misollar: To'nka - kishilar manfaatiga zid ish tutadigan, oddiy hodisalarni osonlikcha anglab etmaydigan, ezgulikni ko'ra olmaydigan shaxs; latta - bo'shang, kishilar manfaatiga amalga oshiriladigan ishni mijg'ovlik bilan, orqaga tashlab bajaradigan shaxs; ezma - mayda gap, ish o'rniga gap "sotuvchi" safsataboz; shilta - xayrli ishlarni barbod qiladigan, yaxshi odamlar orasiga rahna soladigan munofiq; olg'ir - o'z manfaati yo'lida har qanday qabihlikdan qaytmaydigan «korchalon» va boshqalar.

Shuningdek, bu kabi tilda azaldan o'rnashib qolgan lisoniy evfemizmlardan tashqari, muayyan nutq talabi bilan yozaga keladigan kontekstual (presuppozitiv - tagma'noli) evfemizmlar ham mavjud. Masalan, Ra'noni egasiga topshirmagunimizcha, - dedi Nigor oyim, - quyilmaydiganga o'xshaydi (A.Qodiriy). Mehri gul terгани ketibdi (so'zlashuvdan). Avval eson-omon qutilib oling, qizim (S.Ahmad) gaplarida egasiga topshirmoq, gul terгани ketmoq, qutilib olmoq iboralari erga bermoq, o'lmoq, tug'moq ma'nolarida qo'llanganki, bular kontekstdan tashqarida boshqa-boshqa (masalan, omonimik) ma'no kasb etadi.

Ko'rinadiki, ma'nosi kontekstda ro'yobga chiqadigan (tagma'noli) evfemik vositalar alohida olinganda hech qanday uslubiy buyoqqa ega bo'lmaydi. Masalan, Maryamxonim (achchiq ila marjonni uzib otib, erga urib): -Ol bisotingni, mening gavharim bor, quvvatim bor, ko'zinga ko'rinmaydi bunaqa narsalar (H.H.) matnidagi gavhar, quvvat so'zlari er - turmush o'rtoq ma'nosida qo'llangan badiiy evfemizmlardir.

Bundan tashqari, badiiy adabiyotda evfemizmlardan satira va romor, kinoya va hazilomuz tasvir yaratishda ham keng foydalaniladi. Masalan, H.Hakimzoda pora bermoq o'rnida tarnov-parnovini ho'llamoq individual evfemasidan foydalanadi: Qodirqul: -Biz ham o'shalarchalik tarnov-parnovingizni ho'llab qolarmiz.

Evfemik vositalar aytish nojoiz bo'lgan, tabulashtirilgan so'zlar o'rnida qo'llaniladigan so'z va iboralar emas, balki kishilarning kundalik turmushida eng faol qo'llaniladigan, umumiste'moldagi ko'lami keng nutq birliklaridir. Evfemizmlar hayotning turli jabhalarida qo'llanishi bilan birga, shaxsning kundalik biologik assimilyasion-dissimilyasion ehtiyojlari (dashtlamoq, tashqariga chiqmoq, yozilmoq), oilaviy munosabatlar (otasi, onasi, turmush o'rtoq, rafiq; ota-ona, qaynota-qaynona nomlari), ayollarning ichki kiyimlari (lozima, siynaband), intim munosabatlar (qovushmoq, aloqa qilmoq, ko'nglini olmoq), tug'ish-tug'ilish bilan bog'liq (ko'zi yorimoq, tavallud topmoq), kasallik (xastalanmoq, tobi qochmoq, betob bo'lmoq), o'lmoq (vafot qilmoq, dunyodan o'tmoq, ko'z rommoq, nobud bo'lmoq) kabi tushunchalarni ifodalashda keng qo'llaniladi.

Ko'rinadiki, evfemizmlar ham, disfemizmlar ham, qanday ma'noda qo'llanganligidan qat'i nazar, ko'p ma'nolilikni keltirib chiqaradi. Chunki evfemizm ham, disfemizm ham ma'lum tomoni bilan hosila ma'noni yuzaga keltirish imkoniyatini yaratadi.

SHuni ham ta'kidlash kerakki, evfemizm va disfemizmlar ko'pincha so'z shaklida ma'lum lug'aviy birlikni tashkil qiladi (nolisoniy, tagma'noli, implisit holatlar mustasno). SHuning uchun evfemistik yoki disfemistik hosila ma'no (leksik evfemizmlar) bilan so'zning asl leksik ma'nosi ko'p ma'nolilikni keltirib chiqaradi. Masalan, eshak - uy hayvoni va chayon, to'nka - daraxtning kesilgan ildiz qismi va manqurt odam, dadajonisi - jon er va bolamning dadajoni, it - hayvon, poyloqchi (u o'yimizing iti) va badfe'l, badjahl odam kabi.

IQoridagilardan ko'rinib turibdiki, evfemik vositalar nafaqat aytish man'atilgan, mumkin bo'lmagan narsa-predmet, voqea-hodisaning nomini yashirish maqsadida, balki madaniy, badiiy nutq hosil qilishda, shuningdek, uslubning rang-barang ko'rinishlarini yaratishda xizmat qilar ekan.

Xullas, polisemantizm so'z semantik taraqqiyotining serunum mahsulidir.

TEKSHIRISH SAVOLLARI VA TOPSHIRIQLAR.

1. Nima uchun so'z nominativ birlik sanaladi?
2. Leksik so'zlar va grammatik so'zlar qanday farqlanadi?
3. Leksik va grammatik mazmunli so'zlar tilshunoslikning qaysi bo'limlarida o'rganiladi?
4. Leksema, nomema, semema atamalarini tushuntiring.
5. Leksemaning ifoda va mazmun planlari haqida ma'lumot bering.
6. Tub va yasama so'zlarning ifoda planlari qanday farqlanadi?
7. Leksemaning tashqi va ichki formalari haqida ma'lumot bering.
8. Leksemaning ifoda va mazmun planlari dialektikaning qaysi kategoriyalariga mos?
9. Leksemaning yaxlit bir butun birlik ekanligi nimalarda namoyon bo'ladi?
10. Leksemaning leksik birlik sifatidagi asosiy belgilarini tushuntiring.

11-modul. LEKSEMALARARO LISONIY ZIDDIYATLAR VA LEKSIK PARADIGMA

REJA

1. Leksik ma'no taraqqiyoti.
2. So'zning o'z va ko'chma ma'nolari. Ma'no ko'chishi.
3. Leksik sinonimiya.
4. Leksik antonimiya.
5. Omonimlar, omoformalar.
6. Paronim va paranomaziya.
7. Giponimiya, graduonimiya, partonimiya.

Tayanch so'z va iboralar: leksik ma'no, so'zning o'z va ko'chma ma'nolari, ma'no ko'chishi, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifaviy ko'chish, ma'noning

kengayishi va torayishi, sinonimiya, antonimiya, omonimlar, omoformalar, paronim va paranomaziya, giponimiya, graduonimiya, partonimiya.

1. Leksik ma'no taraqqiyoti

So'zning leksik ma'nosi qotib qolgan, o'zgarmas hodisa emas, u ancha barqaror bo'lsa-da, ma'lum omillar ta'sirida, uzoq yillar davomida o'zgarishi mumkin. Bunday o'zgarishlarga sabab bo'ladigan omillar ikki xildir:

1) ekstralingvistik (nolisoniy) omillar – ijtimoiy-iqtisodiy hayot, ong, tafakkur rivoji va b.lar. Masalan, oyoq so'zi dastlab inson a'zolaridan birinchi nomlagan, keyinchalik u xontaxta, kursi, stol, stul, karavot kabi mebellarning «oyog'i»ni ham atay boshlagan: xontaxtaning oyo g'i, kursining oyoHi, stolning oyo g'i, karavotning oyoHi kabi. Bunga inson yashab turgan muhitda turli-tuman mebel jihozlarning paydo bo'lganligi, shu bilan bo g'liq ravishda inson ongida yangi tasavvurlarning yuzaga kelganligi, nihoyat, til bilan ijtimoiy hayot, ong va tafakkur o'rtasidagi murakkab aloqalar sabab bo'lgan;

2) lingvistik (lisoniy) omillar – til birliklarining til sistemasi ichidagi munosabatlar. Masalan, tilning luHat boyligidagi aniq va ochiq leksemalari kontekstual sinonimiya munosabatida bo'lishi mumkin: aniq gapirmoq va ochiq gapirmoq kabi, ammo «ochiq eshik»ni «aniq eshik» deb bo'lmaydi, bunga aniq va ochiq leksemalarining ma'no xususiyatlaridagi o'ziga xoslik, ularning valentlik imkoniyatlari yo'l qo'ymaydi. Demak, leksemaning leksik ma'nosi yuqorida keltirilgan omillar ta'sirida o'zgarib turadi, leksik ma'no taraqqiyoti deyilganda shular nazarda tutiladi. Bunday taraqqiyotning yo'llari ham har xildir: ma'noning ko'chishi, kengayishi va torayishi, bundagi miqdor va hajm o'zgarishlari shular jumlasidandir.

2. So'zning o'z va ko'chma ma'nolari. Ma'no ko'chishi.

So'z ma'nosining o'zgarishi - so'zning semantik taraqqiyoti tilning umumiy taraqqiyot jarayonlari bilan bog'liq. Tilning umumiy taraqqiyoti uning fonetik tizimi, grammatik qurilishi, lug'at tarkibi hamda lug'at tarkibidagi har bir so'zning semantik taraqqiyoti - so'z ma'nolarining o'zgarishi bilan belgilanadi. Demak, tilda so'zlar ham leksik, ham semantik jihatdan doim yangilanib turadi, so'zlar asl ma'nolarini o'zgartirmagani holda, shu ma'no bilan qay tomonlamadir bog'liq bo'lgan yangi ma'nolar kasb etadi. Masalan,

Yyshash soatining oltin kafgiri,
Har borib kelishi bir olam zamon.
Koinot shu damda o'z kurrasidan,
Yasab chiqa olur yangidan inson.
Yashash darvozasi ostonasidan,
Zarhal kitob kabi ochilur olam.
Tiriklik ko'rkidir mehnat, muhabbat,
Fursatdir qilguvchi aziz, mukarram (G'.G'ulom)

She'riy parchasida soat-umr, oltin-bebaho, kaftgir-devor soati mayatnigi, har borib kelishi-tun bilan kunning almashinishi, yasab chiqa olur-aylanmoq, yashash

darvozasi-umrning boshlanishi, ostonasi-ufqi, zarhal kitob-umr zarvaraqlari kabi deyarli barcha soʻz va iboralarning maʼnosida oʻzgarish yoz bergan.

Misollar shuni koʻrsatadiki, nutqda soʻzlar oʻz asl leksik maʼnolaridan tashqari, oʻzga - qoʻshimcha maʼnolarni ham anglatadi.

Soʻzning narsa va predmet, voqea va hodisa, belgi va xususiyat, harakat va holat haqidagi dastlabki real maʼnosi soʻzning oʻz maʼnosi deyiladi. Masalan, kitob-oʻquv quroli, shamol-tabiat hodisasi, oq-belgi, rang-tus, keldi-harakat, mudradi-holat kabi.

Soʻzlarning oʻz real maʼnosidan tashqari, oʻxshatish, mubolagʻa, kinoya, boʻrttirish kabi usullar bilan boshqa, yangi maʼnolar bilan qoʻllanishi soʻzning koʻchma maʼnosi deyiladi. Misollar: Er oʻz oʻqi atrofida aylanadi gapida er soʻzi oʻz dastlabki real maʼnosi planeta tushunchasini anglatgan. Chigit ekish uchun er yaxshi etildi gapida er - tuproq; Maktab eriga turli koʻchatlar oʻtkazdik gapida er - uchastka; Xoʻjaligimiz yangi kelin-kuyovlarni er bilan taʼminladi gapida er - tomorqa; Amu boʻylaridagi chegarachilarimiz har bir qarich erni koʻz qorachigʻiday usramoqda gapida esa er - Vatan, ona tuproq maʼnolarini anglatgan. Yana bir misol: Paxta-oʻzbek xalqining milliy boyligi, zavodimiz bir yilda chet elga ming tonna paxta sotmoqda, paxta oʻz vaqtida ekildi, paxta gulladi, talabalarimiz paxta yigʻim-terimida jonbozlik koʻrsatadilar gaplarida:

- 1) paxta-texnika oʻsimligi;
- 2) paxta-tola;
- 3) paxta-chigit;
- 4) paxta-gʻoʻza;
- 5) paxta-hosil maʼnolarida qoʻllangan.

Soʻzning maʼnolari turli usullar bilan koʻchadi, bular quyidagilar:

1. Metafora.
2. Metonimiya.
3. Sinekdoxa.
4. Funksional (vazifaviy) koʻchish.
5. Maʼnoning kengayishi va torayishi.

Metafora. Metafora inoncha soʻz boʻlib koʻchish, koʻchirish degan maʼnoni anglatadi. Bir predmetdagi tashqi belgining boshqa bir predmetdagi xuddi shunday belgiga oʻxshashligiga koʻra soʻz maʼnosining koʻchirilishi metafora usulida koʻchish deyiladi. Masalan, odam, hayvon va boshqa turli jonvorlarning koʻrish aʼzosi koʻz soʻzi orqali ifodalanib, u tashqi belgilariga koʻra aylana shakldaligi, yaltiroqligi bilan xarakterlanadi. Shunga qiyosan boshqa narsa va predmetlarda tashqi shakli va belgisi jihatidan shunga (koʻzga) oʻxshash shakl va belgilar boʻlsa, shu narsa yo uning biror qismi shu nom bilan ifodalanadi: buloqning koʻzi, uzukning koʻzi, yogʻochning koʻzi, ignaning koʻzi kabi. Shu oʻrinda taʼkidlash kerakki, metafora usulida maʼnoning oʻzgarishida “koʻrish” tushunchasi tasavvur qilinmaydi, balki faqat tashqi belgilar asos qilib olinadi, shuning uchun ishning koʻzi birikmasidagi koʻz soʻzi (uddaburon, oʻz ishini bilib qilish maʼnosi) boshqa usul bilan (vazifaviy koʻchish) koʻchgan boʻlib, maʼno oʻzgarishining metafora usuliga kirmaydi. Quloq odam va hayvonlarning tanasidan tashqariga boʻrtib chiqqan, ajralib turadigan bir juft eshitish aʼzosi. Metaforada quloqning eshitish

a'zosi ekanligi emas, tashqi ko'rinishi asos qilib olinadi: qozonning qulog'i, dutorning qulog'i, ariqning qulog'i (dutorning bir qulog'i bo'shabdi, qozonning bir qulog'i sinibdi, demak quloqlar birdan ortiq, ikkita yoki ko'p - qirq quloqli qozon) kabi. Lekin devorning ham qulog'i bor iborasida quloq so'zining nomlanishi metafora usulida roz bermagan: devorda ham quloq bor -devor ham eshitadi.

Umuman, quyidagi narsa va predmet nomlari metafora usuli bilan ko'chish uchun asos bo'ladi:

bosh: dalaning boshi, ariqning boshi;

chekka: yo'lning chekkasi, tavoqning chekkasi;

til: qulning tili;

tish: omochning tishi, arraning tishi;

lab: ariqning labi;

bo'yin: dutorning bo'yini;

elka: tarozining elkasi;

qo'ltiq: ariqning qo'ltig'i;

etak: erning etagi;

qanot: samoliyotning qanoti kabi.

Metonimiya. Metonimiya yunoncha yangi nom qo'yish, nomini o'zgartirish, qayta nomlash demakdir. So'z ma'nolarining narsa va hodisalarning ichki va tashqi o'xshashlik belgilariga ko'ra emas, balki ularning o'rin va paytga, zamon va makonga munosabatiga ko'ra o'zgarishi so'z ma'nosining metonimiya usulida ko'chishi deyiladi. Demak, metonimik ko'chishda bir narsa bilan ikkinchi bir narsa o'rtasidagi ichki yo tashqi o'xshash belgi va xususiyatlar hisobga olinmaydi, balki ular o'rtasidagi zamon va makonga xos yaqinlik, umumiylik, shuningdek, sabab asos bo'ladi.

Misollar: Hurmatli Prezidentimizni butun zal oyoqqa turib, gulduros qarsaklar bilan kutib oldi gapida zal so'zining ma'nosi o'rin munosabatiga ko'ra ko'chgan bo'lib, shu so'z orqali zalda to'plangan butun odamlar, anjuman qatnashchilari ma'nosi anglashiladi. O'zbekiston respublikasi konstruktorlar biyrosi yangi terim mashinasi qurilmasini ma'qullashdi gapida ham biyoro so'zining ma'nosi metonimiya asosida ko'chgan. Biyoro so'zi asli fransuzcha vuzeau so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu so'z dastlab tuya junidan to'qilgan mato, dasturxonni anglatgan. Keyinchalik shunday dasturxon yopilgan stolni, shunday dasturxon yopilgan stol qo'yilgan xonani va, nihoyat, shunday xonada to'plangan odamlar ja'mi biyoro deb nomlangan. Demak, misoldagi biyoro (dasturxon) so'zi butun o'zbekistonlik konstruktorlar ma'nosiga ko'chgan.

Fuzuliyni oldim qo'limga,

Majnun bo'lib yig'lab qichqirdi.

Va Navoiy chiqib yo'limga,

Faryod bilan o'rnidan turdi (H.Olimjon)

misralarida ham Fuzuliy va Navoiy o'z nomida emas, ko'chgan ma'noda, Fuzuliy va Navoiylar tomonidan yaratilgan asarlar, asar qahramonlari ko'zda tutilgan.

Metonimiya usulida so'z ma'nosining ko'chishida faqat narsalar qayta nomlanib qolmasdan, narsalar haqidagi tushunchalar ham o'zgaradi. SHu jihatiga ko'ra ham metonimiya metaforadan farqlanadiki, metaforada odamning qulog'i va

nutorning qulog'i birikmalaridagi quloq so'zi ham shakl, ham tushuncha holida nomlanadi. Bu auditoriya ancha faol deyilganda, auditoriya (xona) - shu xonadagi talabalar bilan (qiyoslang: auditoriya-talabalar), xona (predmetlik) tushunchasi talabalar (shaxslar) tushunchasi bilan ham almashadi - qayta nomlanadi.

Metonimiya usulida ma'no ko'chishning ko'proq quyidagi ko'rinishlari uchraydi:

1) biror narsaning nomi o'z ichidagi narsaning nomiga ko'chadi: bir kosa emoq, bir stakan ichmoq, butun stadion oyoqqa turmoq kabi;

2) biror narsaning nomi o'z ustidagi narsalarning nomiga ko'chadi: ziyofatda dasturxon zo'r bo'ldi (dasturxon - uning ustidagi noz-ne'matlar, ovqatlar), to'qqizinchi - tartib raqami, to'qqizinchi almashtirildi - ustiga "9" raqami yozilgan futbolchi kabi;

3) o'rin munosabatiga ko'ra ma'no ko'chadi: Akam Navoiyga ketdi gapida Navoiy - viloyat, rayon yoki jamoa xo'jaligi ma'nosida, "Ozodlik" da turamiz gapida "Ozodlik" - ko'cha ma'nosida;

4) xoslik, material, maxsus nomlariga ko'ra ma'no ko'chadi: Oybekni o'qiyapman (asari), "Paxtakor" ning g'alabasi (jamo'a) va b.

Sinekdoxa. Sinekdoxa ham faqatgina so'z bo'lib, birgalikda o'ylamoq, talqin qilmoq demakdir. Butun o'rnida qism yoki qism o'rnida butun, jins tushuncha o'rnida tur tushuncha yoki tur tushuncha o'rnida jins tushuncha ifodalash vositasi sifatida so'z ma'nolarining o'zgarishiga so'z ma'nolarining sinekdoxa usuli bilan ko'chish deyiladi. Tur va jins tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalagani uchun, odatda, sinekdoxa usulida ma'no ko'chish metonimiyaga o'xshatiladi, lekin metonimiyada ma'no ko'chish, asosan, predmetlarning o'rin va paytga munosabatiga ko'ra ro'z beradi, sinekdoxada esa ko'proq miqdoriy tushuncha asos bo'ladi. Misollar:

1) butun o'rnida qism yoki jins tushuncha o'rnida tur tushunchaning ifodalanishi: Chorvaning tuyuq soni yildan-yilga kamayib bormoqda gapida butun (qo'y, sigir) o'rnida qism (tuyuq) qo'llanilgan. Yoki Salomat to'rt yildan buyon tirnoqqa zor gapida tirnoq - bola, farzand, Mansur dekanning o'ng qo'li gapida o'ng qo'l - ishonchli odam, yaqin yordamchi, maslakdosh, Yigitlar samovarda o'tirishibdi gapida samovar - choyxona, Biznikidan bir piyola choy ichib keting gapida bir piyola choy - dasturxondagi noz-ne'matlar, ovqat ma'nolarida qo'llangan. Ma'no ko'chishning bu turi, ayniqsa, hazil, mutoyiba, askiya, ironiya kabi so'z qo'llashlarda keng ishlatiladi: Ey, Shlyapa yoki shapka; ho, burunboy; o', Xumkalla! ("Shaytanat" dagi Asadbekning gumashtasi) va b.;

2) qism o'rnida butun yoki tur tushuncha o'rnida jins tushunchasining qo'llanishi: besh qo'l barobar emas (qo'l panja o'rnida), chumchuqlar daraxtga qo'ndi (daraxt shoxiga: daraxt - butun, shox - qism), mashinaning dami chiqib to'xtab qoldi (mashinaning dami - ballonning dami, ballon mashinaning bir qismi) kabi.

Ma'noning vazifaviy ko'chishi. Predmetlarning bajaradigan vazifasiga ko'ra so'z ma'nolarining o'zgarishiga ma'noning funksional yoki vazifadoshlik asosida ko'chishi deyiladi. Ma'noning bu xil ko'chishi ham qisman o'xshashlikka asoslangani uchun metaforaga o'xshaydi, lekin metoforada predmetlardagi tashqi belgi asos (o'xshash) qilib olinadi. Funksional ko'chishda esa predmetlar tomonidan

bajariladigan vazifa bir xil, umumiylikka ega bo'ladi. Misollar: ilgari siyohga botirib qog'ozga yozadigan asbob parrandalar patidan (ruscha pero) tayyorlanib, pero deb atalgan. Hozir shu vazifani (yozish vazifasini) bajaruvchi asbob metall va boshqa jismlardan ishlangan bo'lsa ham, pero nomi saqlanib qolgan. O'q - kamon o'qi, uchli, uzun, to'g'ri asbob; miltiqning o'qi, to'pning o'qi, zambarakning o'qi birikmalarida o'q so'z kamon o'qiga tashqi o'xshashligiga ko'ra emas, balki vazifaviy o'xshashligiga ko'ra ko'chgan.

Ma'noning kengayishi va torayishi. Til lug'at tarkibining o'zgarishi bilan bog'liq ravishda so'z ma'nolari ham o'zgara boradi. Bu o'zgarish tilning butun tarixiy taraqqiyoti jarayonida ruz beradi. Ba'zi so'zlar shaklan o'zgarmay, ma'no jihatdan o'zgaradi: bir ma'noni bildirgan so'zlar bir necha ma'noda va, aksincha, bir necha ma'noni anglatgan so'zlar faqat bir ma'noda qo'llanib qolishi mumkin. Demak, so'zlarning ma'nosida kengayish va torayish ruz beradi.

Zamon o'tishi bilan tildagi ba'zi so'zlar dastlabki anglatgan ma'nolaridan tashqari, yana boshqa ma'nolarni ifodalay boshlaydi. Masalan, vatan so'zining ma'nosi kengaygan: birovning mulki, tug'ilgan joyi ma'nosidan butun o'zbeklar yurti (O'zbekiston Vatanim manim) -O'zbekiston ma'nosini anglatadi. Hozirgi o'zbek tilida burchak, kecha, rotuq kabi so'zlarning ma'nosida ham kengayish ruz bergan.

Davrlar o'tishi bilan ikki yoki undan ortiq ma'noni ifodalovchi so'z bir ma'noni ifodalash uchun ham xoslanib qolishi mumkin. Masalan, ichkari so'zi ilgari binoning ichkarisini ham, xotin-qizlar huquqsizligini ham anglatgan bo'lsa, hozir bu so'z bir ma'noni - ma'lum bino yoki narsaning ichki qismini ifodalaydi.

Atoqli otlarning turdosh otlarga (Muslimka - Muslima atoqli ot, muslimka - bug'doy navi), po'lat, temir, tasha, o'roq so'zlarining Po'lat, Temir, Tasha, O'roq kabi qo'llanishi ham so'z ma'nosining kengayishi va torayishi natijasidir.

3.LESIK SINONIMIYA

Ma'nolari bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lgan, aytilishi va yozilishi jihatidan turli shakllarga ega bo'lgan so'zlar tizmasiga sinonimlar deyiladi. Sinonim aslida grekcha nomdoshlik, bir xil nomlilik demakdir. SHunga qaraganda, roqoridagi ta'rif sinonimlarning mohiyatini to'la ochib bera olmaydi. SHuning uchun denotativ ma'nosi bir xil, konnotativ ma'nosi (qo'shimcha ma'no ottenkasi, semantik bo'yog'i) va boshqa xususiyatlari farqli bo'lgan so'zlarga sinonimlar deyiladi deb ham ta'rif beriladi. Masalan: jamol, oraz, ruxsor, chehra, ruz, bet, aft, bashara, turq; chiroyli, go'zal, ko'rkam; iljaymoq, jilmaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq kabi.

Sinonimlarga to'g'ri ta'rif berish va uning mohiyatini to'g'ri anglash uchun bir necha savollarga to'g'ri javob topishga to'g'ri keladi:

1. Nima uchun aynan bir predmet, voqea yoki hodisa turli so'z bilan turlicha nomlanadi?

2. Sinonim so'zlar ma'nosidagi umumiylikka nima sabab: tushunchami yoki narsami?

3. Sinonimlar so'zlarning semasiologik umumiyligidan tarkib topadimi yoki nominativligidanmi?

4. Predmet, voqea, hodisa-tushuncha-so'z o'rtasida qanday munosabat bor?

Avvalo, tushuncha predmet, voqea, hodisa, harakatlar haqida kishilarning tasavvuri bo'lib, so'z shularning ma'lum tovush va tovushlar yiqindisi sifatida tilda oqallashuvidir. Lekin bu so'z ma'nosi va tushuncha doim bir-biriga teng keladi, degan fikrni keltirib chiqarmaydi. Chunki inson ma'lum bir predmet haqida tasavvur qilar ekan, u shu predmet haqida butunligicha tasavvur hosil qilolmaydi, uning belgilarini qismlarga ajratadi va shu predmet haqida yaxlit bir tushuncha hosil, balki bir necha tushunchalar hosil bo'ladi. Predmet, voqea yoki hodisani ko'pomonlama tavsiflash shu predmet yoki hodisaga turlicha nom berishga olib keladi va sinonimiyani keltirib chiqaradi. Masalan, ichmoq, xo'plamoq, shimirmoq; ichqarmoq sinonimlarida ichish harakatining har xil idrok qilinishi, o't, olov, alanga, yulqin sinonimlarida esa olovning yonish jarayonidagi ovoz (lov-lov, lop-lop) va olov taratish (yal-yal, yalt-yalt) tushunchalari asos bo'lganligi aniq. Bu, ayniqsa, taqlidiy yasalmalarda yaqqolroq ko'rinadi: qarsak va chapak, xushtak va churrak bir xil hodisa (qarsak, chapak) va predmetning (hushtak, churrak) nomi ikki xil tushunchaga ko'ra turlicha nomlangan.

Sinonimlar o'zlarining qo'llanish xususiyatiga ko'ra ikkiga ajratiladi:

1. Barqaror (o'zgarmas) sinonimlar.
2. Beqaror (o'zgaruvchan) sinonimlar.

Doimiy ma'nodosh, har qanday holatda birining o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin bo'lgan sinonimlar barqaror sinonimlar deyiladi. Masalan, safar, marta, daf'a, karra, bor, qatla guruhidagi sinonimlardan faqat safar, marta, daf'a sinonimlarini barqaror hisoblash mumkin. Ularga "har" olmoshini qo'shib birikma hosil qilishda faqat shu sinonimlarga tenglikka ega (har safar, har marta, har daf'a kabi), lekin karra, bor, qatla sinonimlari "har" olmoshini qabul qila olmagan uchun (har karra, har bor, har qatla deb bo'lmaydi) barqarorlikni tashkil qila olmaydi. SHu o'rinda ta'kidlash kerakki, dublet sinonimlar deb xoritiladigan sinonimlarning bir turi doimiy barqaror sinonimlardir: lingvistika, tilshunoslik; qarsak, chapak; peshona, manglay; kabi. Chunki dubletlar semantik tarkibi to'raligi, bir-biriga mosligi bilan aynan bir xil bo'lgan birdan ortiq so'zlardir.

Inson ob'ektiv olamdagi bilish doirasini ma'lum bir so'z negizida namoyon qilib boradi. Bu esa, ko'pincha, mutlaq sinonimlikni yo'qqa chiqarib boradi. Bundan tashqari, dubletlarning tilda mavjudligi ijobiy hodisa emas, uning tarkibidagi bir so'z til uchun ortiqcha rokdir. SHuning uchun u ko'pincha tushib qoladi yoki o'z ma'nosini o'zgartirib dubletlikdan chiqib qoladi. CHapak va qarsak, manglay va peshona dubletlaridagi «chapak» hamda «manglay» so'zlarining hozirgi nutqimizda kamdan-kam qo'llanishini shundan deb bilish mumkin.

O'z guruhidagi sinonimlar bilan ayrim hollardagina ma'nodosh bo'lib, boshqa hollarda semantik jihatdan uzoq sinonimlar beqaror (o'zgaruvchan) sinonimlardir. IOqoridagi misolda karra, bor, qatla so'zlari safar, marta, daf'a so'zlari bilan ma'lum o'rinlarda sinonimlikni tashkil qilsa ham, bu - doimiy emas, o'rni kelganda, sinonimlikdan chiqib ketadi. Barqarorlik va beqarorlikni barcha sinonimik guruhlarning sinonimlar tarkibidagi semantik munosabatida kuzatish mumkin. Masalan, o'ldi denotatining vafot etdi, qazo qildi, nobud bo'ldi, halok bo'ldi, nopayid bo'ldi, nomardlik qildi, bo'lmadi, o'tdi, ketdi, ketib qoldi, ko'zini romdi, gul terгани ketdi kabi konnotativ ma'nolaridan - sinonimlaridan 6-12-lari «o'ldi»ga nisbatan beqaror sinonimlardir.

Sinonimlar qo'llanish doirasiga ko'ra asl va uslubiy sinonimlarga ham ajratiladi. Sinonimlardagi bu bo'linish, aslida, barqaror va beqaror sinonimlardan uqadar farqlanmaydi. Chunki asl sinonimlar doimiy sinonimlar (safar, marta, daf'na kabi) bo'lib, uslubiy sinonimlar o'z qatoridagi sinonimik guruhlar bilan ayrim nutqiy jarayonlardagina sinonimlar qatoriga kirishi mumkin. Masalan, kekxa, qari, mo'ysafid, oqsoqol, yoshuli sinonimlaridan faqat kekxa va qari so'zlari asl sinonimlardir, chunki kekxa kishi, qari kishi, kekxa sigir, qari sigir sifatida qo'llash mumkin. Biroq mo'ysafid, oqsoqol, yoshuli sinonimlari kishiga nisbatan qo'llanilgani holda molga nisbatan ishlatilmaydi. Demak, ular uslubiy sinonimlardir.

Uslubiy sinonimlar ma'lum leksik ma'nosi bilan aynan bir xil bo'lib, u bilan namoyon bo'lgan so'zlar muayyan bir ijtimoiy qatlamga, uslubga mansubligiga ko'ra o'zaro farqlanadi. Masalan, yashirin, maxfiy, pinhon, xufiya, bekitiqcha, yopiq, «imi-jimi»da sinonimlarining umumiy leksik ma'nosi bir bo'lsa-da, uslubiy qo'llanishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Bulardan "yashirin" sifati "sirli, o'zgaga bildirilmaydigan" leksik ma'nosi bilan umumleksikaga oid bo'lib, maxfiy sifati rasmiy uslubga, pinhon so'zi badiiy uslubga, xufiya so'z dialektal uslubga, bekitiqcha, yopiq va «imi-jimi»da so'zlari esa jonli so'zlashuv uslubiga oiddir. SHuning uchun ularning barchasi yashirin so'ziga nisbatan doimiy, barqaror sinonimlar emas.

Leksik ma'nosi bir xil bo'lgan birdan ortiq so'zlarning birlashtiruvchi ma'nosi bilan o'zaro bog'langan guruhiga sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qator ikki yoki undan ortiq so'zlardan tarkib topadi: iljaymoq, jilmaymoq, ishshaymoq, tirjaymoq; osmon, ko'k, samo, falak; qiziq, qalati, ajoyib, alomat, antiqa, ajab, ajib kabi.

Sinonimik qatorni tuzishda ma'lum chegaraga va aniqlikka ega bo'lgan, uslubiy jihatdan "betaraf" bo'lgan so'zga daminantaga deyiladi. IOqoridagi misollardagi osmon, jilmaymoq, qiziq so'zlari o'z qatorlarining dominantalaridir.

O'zbek adabiy tilida sinonimik qatorlar ham ichki, ham tashqi manba: chetdan so'z olish (erk-o'zbekcha, ozod-forcha), adabiy til va dialektal so'zlar (narvon-adabiy, shoti-dialektal), polisemantik so'zlar (bet-roz, sahifa) hisobiga tashkil topadi.

Ta'kidlash joizki, sinonimik qatorni tarkib toptiruvchi so'zlar ayni bir tilda, ayni bir vaqtda lug'aviy birlik holda qayd etilishi kerak. SHuning uchun ma'nodosh so'zlarning sinonimik qatorni tashkil qilishida quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Adabiy tilga munosabati: izlamoq, istamoq.
2. Uslubiy qo'llanishi: inson, bashar.
3. Emosional-ekspressivligi: roz, chehra kabi.

Tilda hamma so'z turkumlari sinonimik qator hosil qila oladi: odam-inson, go'zal-chiroyli, ming-lak, hamma-barcha, yig'lamoq-siqtamoq, tez-chaqqon, shivir-shivir, pichir-pichir kabi.

Sinonimlarning paydo bo'lish manbalari:

1. O'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari asosida:

a) tub so'zlar: odam, kishi; aytmoq, demoq kabi;

b) tub so'z va yasamalar: his, sezgi; savol, so'roq; vazifa, topshiriq kabi.

2. O'zbek tili va boshqa turkiy tillar o'zaro aloqasi asosida: paxta, momiq kabi.

3. O'zbek tili va uning dialektlari munosabati asosida: narvon, shoti; satil, paqir, chelak; buzoq, go'sala va b.

4. O'zbekcha va chetdan qabul qilingan so'zlar: roz, bet (o'zbekcha), aft, chehra (forscha); ulug', katta (o'zbek), kalon, buzurg (fors-tojik), gigant (rus) kabilar.

Sinonimlar og'zaki va yozma nutqda amaliy ahamiyatga ega, chunki ular so'zni o'rinsiz takror ishlatishga yo'l qo'ymaydi, uslubning ravonligini ta'minlaydi.

Sinonimlar - badiiy tasvir vositasi. YOzuvchilar o'z asarlarida sinonimlardan asar qahramonlarining xarakterini ochishda, manzaralarni obrazli tasvirlashda keng foydalanadi.

4.LESIK ANTONIMIYA

O'zaro zid, qarama-qarshi ma'noli til birliklariga antonimlar deyiladi. Masalan, katta-kichik, uzoq-yaqin, do'st-dushman kabi.

Misollardan ko'rinadiki, antonimiya so'z juftligida muayyan leksik ma'noning o'zaro qarama-qarshi bo'lishidir. YA'ni antonimlik faqat bir juft so'z o'rtasida bo'ladi. U bundan ortiq so'zni o'z ko'lamiga sig'dira olmaydi, chunki har qanday zidlik mantiqan ikki narsa o'rtasida bo'ladi, yaxshi va yomon antonimlari orasiga uchinchi bir "o'rtacha" belgi anglatuvchi so'z kiritish mumkin emas. Bu jihatdan antonimlar A va B nuqtalarda joylashgan bir to'g'ri chiziqning ikki uchiga o'xshaydi. YAna qiyoslang: katta-kichik, past-baland, yosh-qari, achchiq-chuchuk kabi.

So'zlar ma'nolari o'rtasidagi zidlik ko'proq sifat va ravishlarda, qisman ot (vafo va jafo) hamda fe'llarda (kel va ket, tur va o'tir kabi) uchraydi.

Chetdan qaraganda, antonimlardagi zidlik, qarama-qarshilik ma'lum predmet, belgi va harakatlarning inkor va tasdig'iga o'xshab ko'rinadi, chunki antonimlarga o'xshash inkor ham odatda sifat va fe'l turkumiga oid so'zlarda kuzatiladi. Lekin ular o'rtasida keskin farq bor.

Ma'lumki, hamma sifat va fe'llarning inkor shaklini yasash mumkin (yaxshi-yaxshi emas, baland-baland emas, kel-kelma, o'qi-o'qima, tur-turma kabi), lekin hamma sifat va fe'llar antonimlikni tashkil qila olmaydi. Masalan, qog'ozli-qog'ozsiz so'zi o'zaro antonim emas, balki bir-birining inkoridir, chunki qog'ozli so'zini inkor qilinsa, qog'ozsiz so'zining ma'nosi, aksincha, qog'ozsiz so'zini inkor qilinsa, qog'ozli so'zining ma'nosi kelib chiqadi. Bu inkor bir so'z doirasida boradi, shuning uchun ular antonimlikni tashkil qila olmaydi.

Ma'no xususiyatlariga ko'ra antonimlar turlicha bo'ladi:

- 1) yosh xususiyatiga ko'ra:
Yigitlikda yig'ilmning maxzanin,
Qarilik chog'i xarj qilgil oni (Navoiy).
- 2) jins xususiyatiga ko'ra:
Hurmatini saqlar har bir o'g'il-qiz,
Muqaddas, mo'tabar, aziz Vatanim (Uyg'un).
- 3) hajm, shakl, miqdor, o'lchov, daraja bildiradi:
Uzun aytma qisqa ayt - ko'p ma'no ber (maqol).
Yo'g'on cho'zilar, ingichka uzilar (maqol).
- 4) shaxs va predmetlarning xususiyatini anglatadi:
CHin so'zni yolg'onga chulg'ama,

- Va chin ayta olur tilni yolg'onga bo'lg'ama (Navoiy).
- 5) rang-tus anglatadi:
Men ham sening jigar go'shang - bolangman,
Ko'zingdagi so'nmas oqu qorangman (folklor).
- 6) Maza-ta'm bildiradi:
Ushoq qand oq tuzga monand erur,
Va lekin biri tuz, biri qand erur (Navoiy).
- 7) payt ifodalaydi:
Erta-ю kech fikru zikrim xayoling,
Bir so'rmading, nelar kechdi ahvoling (Muqimiy).
- 8) munosabat bildiradi:
Do'stga xor, dushmanga zor,
Nomardga muhtoj aylama (folklor).
- 9) his-tuyg'u anglatadi: vafo-jafo, rohat-azob; qayg'u-shodlik kabi.

Badiiy asarlarda, ayniqsa, xalq maqollarida antonimlar emosional-ekspressiv uslubiy vosita sifatida nutqning ifodaliligi, ixchamligi, o'tkirligi uchun xizmat qiladi: do'st achitib gapiradi, dushman kuldirib. Har kimki vafo qilsa, vafo topgusidir, har kimki jafo qilsa, jafo topgusidir (Bobur).

Yaxshi otga qamchi bossang kishnaydi,
Yomon ot-chi, egasini tishlaydi (folklor) kabi.

Zidlash munosabatini ifodalashning ko'rinishlaridan yana biri oksimorondir.

Oksimoron - kishi yoki predmetning tabiati va mohiyatiga xos bo'lmagan belgini unga nisbatan qo'llab, antonimik munosabat hosil qilishdir. SifatQot tipidagi mantiqiy nomuvofiq so'zlardan original uslubiy birikma hosil bo'ladi: shirin dard, aqlli tentak, soqolli ko'sa, qorong'u kun kabi.

5. OMONIMLAR

SHakli bir xil va ma'nolari turlicha bo'lgan ikki yoki undan ortiq so'zlar omonimlar deyiladi. Omonimlar asosan bir xil ohangda aytiladi va bir shaklda yoziladi. Masalan:

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
YAXshilik qil, bolam, yomonlikni ot,
Nasihatim yod qilib ol, farzandim,
YOlg'iz iorsa chang chiqarmas yaxshi ot.

YAna:

CHun pari-ю, hurdir oting, begim,
Sur'at ichra devdir oting, begim.
Har hadanggikim, ulus ondin qochar,
Notavon jonim sari oting, begim.

kupletlarining birinchisida ot so'zi omonim bo'lib kelgan bo'lib, u birinchi misrada nom, ikkinchi misrada buyruq fe'li, to'rtinchi misrada uy hayvoni-ot ma'nolarida, ikkinchisida esa birinchi misradagi oting-isming, noming, ikkinchi misradagi oting - otingiz, uy hayvoni va, nihoyat, to'rtinchi misradagi oting - hadang(o'q)ni menga oting, buyruq fe'li ma'nolarida kelgan. Ikkinchi to'rtlikdagi birinchi, ikkinchi, to'rtinchi misralardagi "begim" so'zi ham aytilishi va yozilishiga

ko'ra bir xil bo'lishiga qaramasdan, bir ma'noda va bir so'z (radif) bo'lganligi uchun omonim emas.

Turkum jihatdan omonimlar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Omonimlar ayrim hollardagina faqat atrofdan (temir-jism, Temir-ism; bo'ri-yovvoyi hayvon, Bo'ri-ism: ra'no-gul, Ra'no-ism kabi), ko'p hollarda esa turli turkumlardan tarkib topadi: toy - yilqining bolasi, o'rab qo'yilgan gazlama, buyruq fe'li; uch - raqam, biror narsaning so'nggi nuqtasi, buyruq fe'li; yosh - ko'z yoshi (ot), yosh yigit belgi (sifat) kabi.

O'tgan asrning 90-yillarida nashr etilgan grammatik adabiyotlarda omonimlarni aytilishi, yozilishi va ma'nolariga ko'ra turlarga ajratganda, sof va shartli omonimlar, to'la va yarim omonimlarga ajratib kelindi. Lekin so'nggi yillardagi ayrim qo'llanma va konspektiv kurslarning ayrimlarida omonimlarning turlarga bo'linishi umuman inkor qilinsa, ba'zilarida ularni leksik (sof omonimlar) va nutqiy omonimlar (omofoniya, omoforamiya, omografiya)ga ajratadilar. Omonimlarni bunday turlarga ajratish, ularga til hodisasi va nutq hodisasi sifatida qarash nuqtai nazardan, to'g'ri bo'lib, mohiyatan ilgarigi an'anaviy bo'linishdan farqlanmaydi. SHunga ko'ra, omonimlar, odatdagidek, quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Sof omonimlar.
2. SHartli omonimlar:
 - a) omofonlar;
 - b) omograflar;
 - v) omoformalar.

So'zlarning omonim yoki omonim emasligi aslida: 1) talaffuzdagi bir xilligiga; 2) yozuvdagi bir xilligiga; 3) ba'zan fonetik yo morfologik jihatdan so'zlarning bir xil bo'lib qolishiga bog'liq. SHu xususiyatlarning hammasiga to'la ega bo'lgan ikki yoki undan ortiq so'zlarnigina sof omonimlar deyish mumkin.

Demak, ham aytilishi, ham yozilishi bir xil bo'lgan so'zlarga sof omonimlar deyiladi: ot (ism), ot (buyruq fe'li), ot (ish hayvoni); uch (son) uch (buyruq fe'li), uch (biror narsaning tugallangan qismi) kabi.

Sof omonimlar lug'aviy birliklar sifatida bir xil tarkibga ega bo'lgan birdan ortiq so'zlardir. Masalan, qo'sh so'zi ham ot, ham sifat, ham fe'l turkumlari sifatida uch mustaqil leksemani tashkil qiladi.

Ba'zan so'zlar faqat bir tomoni yo aytilishi yo yozilishi yoki tarkibidagi biror morfemasi orqaligina o'xshash bo'lib qoladi, shuning uchun ular shartli omonimlar deb ioritiladi. Ular avvaldan til birligi sifatida mavjud bo'lmay, faqat nutqiy jarayonda bir xil shaklga kelib qoladi.

Omofonlar. Talaffuzi, aytilishi bir xil, yozilishi va ma'nolari turlicha bo'lgan so'zlarga omofonlar deyiladi. Masalan: to'n (kiyim), ton (ovoz); yot (begona), yod (yod olmoq, xotirada saqlamoq); urush (jang), urish (harakat nomi-urmoq) kabi.

Ko'rinadiki, bu so'zlarning o'xshashligi nutq jarayonida so'z tarkibidagi ayrim tovushlarning artikulyasion-akustik o'zgarishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, to'rt so'zining o'zbek tilida so'z oxirida undoshlarning qator kelmasligi qonuni asosida to'r (so'm) sifatida talaffuz qilinishi to'r (setka) so'zi bilan, tok (elektr zaryadi) so'zining ruschadan o'zlashgan so'zdagi unlining o'zbekcha talaffuzga moslashtirilishi natijasida to'k fe'lga shakldosh bo'lishiga sabab bo'lgan.

Omograflar. YOzilishi bir xil bo'lib, ma'nosi va talaffuzi har xil bo'lgan so'zlar omograflar yoki omogrammalar deyiladi. Masalan, tok (uzumning toki), tok (elektr toki); tom (uyning tomi), tom (kitob jildi); tort (buyruq fe'li), tort (shirinlik) kabi.

Omograflar doimiy bo'lmasligi ham mumkin, chunki ularning yozuvda bir xil qayd etilishi ma'lum grafika uchun belgilangan ma'lum imlo qoidasi bilan bog'liq holda yozaga keladi. Agar yozuv o'zgarsa, ayrim omograflar o'z belgisini yo'qotishi mumkin. Masalan, o'zbek yozuvining rus grafikasidan lotin yozuviga o'tishi ayrim omograflarning omograflik xususiyatining yo'qolishiga (tom, to'm kabi) olib kelishi, ayni paytda, yangi yozuvga ko'ra yangi omograflarning yozaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu ularning shartlilikini ko'rsatuvchi belgilardan ham biridir.

Omoformalar. Tarkibidagi morfemalarning o'zgarishi tufayli yozilishi va talaffuzi jihatidan bir xillikka ega bo'lgan so'zlarga omoformalar deyiladi. Misollar: olma (meva) - olQma (bo'lishsiz fe'l); tugma - tugQma; olQdi (fe'l), oldQi (ko'makchi) kabi.

Nutqda faqat so'zlar emas, balki so'z birikmalari, frazemalar, hatto gaplar ham omonimlik holatida bo'lishi mumkin: oqsoqol - keksa, soqoli oq, mahalla rahbari; ko'z yomdi - vafot qildi, biror xatoni kechirdi, bilib bilmaslikka oldi; ko'l ko'tardi - tasdiqladi, taslim bo'ldi, qo'lini yuqoriga ko'tardi; Ular bir umrga uchrashmaydigan bo'lib xayrlashdilar - er-xotinning, sevishganlarning ajrashishi, harbiy o'rtoqlarning xayrlashishi, o'ldi kabi. Bular hozirgi tilshunoslikda omomorfema (siz -sifat yasovchi va III shaxs egalik affiksi), omoevfema (etagi ho'l bo'ldi-nomussizlandi va kiyimning etak qismi suvga botdi), omofrazema va omosintagma ham deb yoritiladi.

Omonimlar ham shakliy, ham ma'no xususiyatlariga ko'ra polisemantik so'zlarga o'xshab ketadi, lekin ular farqli bo'lib, bu farq va o'xshashliklar quyidagicha:

1. Polisemantik so'z birdan ortiq ma'noga ega bo'lgan ayni bir so'zning o'zidir. Omonimlar esa fonetik tarkibi bir xil, birdan ortiq so'zlardir. Masalan, paxta bir so'z sifatida o'simlik, uning hosili, tola, chigit (paxta ekmoq) ma'nolarini anglatgani uchun polisemantik so'z; tuz so'zi tuz-mineral, osh tuzi, tuz-tuzmoq, tuz-tekis (dala) sifatida uch so'z va uch ma'no bo'lgani uchun omonimdir.

2. Polissemantik so'z ma'nolari bir-birini taqozo etadi. Ularning ma'nosi bir-biri bilan mushtarak, mazmunan bir-biri bilan aloqador: ko'z so'zi uzukning ko'zi, yog'ochning ko'zi, buloqning ko'zi iboralarida ko'zga o'xshashlilik ma'nosi bilan bir-biri bilan aloqador. Omonimlar tarkibidagi so'z ma'nolari bunday bog'lanish - aloqadorlikka ega emas. Masalan, ko'kat ma'nosidagi o't so'zi olov ma'nosidagi o't so'zi omonim, lekin ko'kat va olov ma'nolari o'rtasida aloqadorlik yo'q.

3. Polisemantik so'zlar bir so'zning ma'no taraqqiyoti natijasida yozaga keladi, omonimlarning yozaga kelishi esa, asosan, tasodifiydir.

4. Polisemantik so'zlar asosan bir til doirasidagi taraqqiyot natijasi, omonimlar esa turli tildagi ayrim so'zlarning bir tilda fonetik bir xillikka duch kelishidir.

Omonimlar manbalariga ko'ra ham turli xususiyatlarga ega:

1. Har bir tilning o'z ichki imkoniyatlari asosida:

a) tub so'zlar: o't (o'simlik, olov, buyruq fe'li), ot (ism, uy hayvoni, buyruq fe'li), tosh (jism, buyruq feli) kabi;

b) soʻzning fonetik oʻzgarishi: un (ovoz), un<uvQin>u:n;

v) soʻz yasalihi: oylik - maosh, reja;

g) konversiya: oltin - metall, material (oltin soat);

d) polisemantiklik: kun - quyosh, sutkaning yarmi;

e) adabiy til va dialekt: shoti - arava asosi va narvon.

2. CHet tillardan soʻz olish: tur (xil) - tur (sport), tom (uy) - tom (jild) kabi.

Omonimlar oʻzbek poeziyasi tarixida muhim rol oʻynagan. SHoirilar omonimlarning xilma-xil maʼnolaridan foydalanib, turoqlar, tajnislar yaratganlar. Xalq ogʻzaki ijodining turli janrlarida omonimlardan keng foydalanilgan:

Olmani soʻndi nigorim-ol!-dedi,

Olma birla bu koʻngilni-ol!-dedi.

Soʻrdim ersa olmasining rangini,

Ne soʻrarsan?-olma rangi-ol!-dedi (Navoiy).

Dilrabo, oʻltir boshingdan aylanay,

Tandim ol, oʻlsam soʻngagim ayla nay (Uvaysiy) va b.

6. PARONIMLAR

Paronimlar grekcha yonidagi nom, qoʻshaloq nom demakdir.

Leksik maʼnoga koʻra oʻzaro aloqador boʻlmagan ikki soʻzning talaffuzda oʻxshashligiga asoslangan ohangdosh soʻzlarga paronimlar deyiladi: yoriq-yoruq, qurt-qurut, burch-burj, abzal-afzal kabi.

Soʻzlarda paronimiyaning yuzaga kelishi uchun ularning fonetik tarkibidagi shunchaki oʻxshashlik etarli emas. Masalan, tuz va tut soʻzlari tarkibidagi bir tovush (z va t) hisobiga farqli boʻlsa ham, paronim boʻla olmaydi, chunki bu tovushlar artikulyasion-akustik jihatdan bir-biridan uzoq: t-jarangsiz, til oldi, portlovchi undosh, z-jarangli, til oldi, sirgʻaluvchi undosh. Koʻrinadiki bu tovushlar faqat artikulyasiya oʻrniga koʻra bir-biriga yaqin boʻlsa ham, ovoz va shovqinning ishtirokiga koʻra, artikulyasiya usuli va akustikasiga koʻra boshqa-boshqa tovushlardir. Paronim boʻlish uchun yondosh soʻzlar faqat bir xususiyatiga koʻra farqlanib, boshqa xususiyatlari bilan oʻxshash boʻlishi shart. Masalan, hol-xol soʻzlarida h va x paydo boʻlish oʻrniga koʻra, abzal-afzal soʻzlarida b va f tovushlari artikulyasiya usuliga koʻra, farqlanadi va paronimiyani hosil qiladi.

Paronimlar turli yoʻllar bilan hosil boʻladi:

a) tovush ohangdoshligiga koʻra: bot-bod;

b) turli oʻzakdan bir xil qoʻshimcha vositasida soʻz yasash natijasida: yonilgʻi-yoqilgʻi, yolqin-yorqin kabi;

v) soʻz oʻzlashtirish vositasida: oʻzbekcha ora>aro, fors-tojik oro, oʻzbekcha burch arabcha burj va boshqalar.

Paronimlardan poeziyada sheʼriy qofiyalar yaratishda, shuningdek, askiya, hazil-mutoyibada ham keng foydalaniladi.

Giponimiya

Leksemalararo semantik munosabatning yana bir turi giponimiya (aniqrogʻi, gipo-giperonimiya), yaʼni tur-jins munosabati.

Giponimik munosabatda giperonim (jins) va giponim farqlanadi.

Giperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi ko'pgina ma'noni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrotizimning markaziy leksemasi, dominantasi sifatida namoyon bo'luvchi lug'aviy birlik. Giponim esa ma'lum jins turining nomini hamda o'zining semantik tarkibida implitsit tarzda jins ma'nosini ham ifodalovchi, semantik jihatdan giperonimga nisbatan boy bo'lgan lug'aviy birlik.

Giponim va giperonim orasidagi aloqa mantiqiy asosga ega. Bu esa ob'ektiv borliqdagi umumiylik tushunchasi bilan bog'liq. Masalan, [*daraxt*] giperonimi jins ma'nosini ifodalovchi leksema sifatida daraxtning barcha turini ifodalovchi leksemalarni leksik-semantik munosabat asosida birlashtirib, leksik-semantik guruh hosil qiladi. Shu boisdan [*daraxt*] leksemasi giperonim sifatida giponimi bilan leksik-semantik aloqaga kirisha oladi. Masalan, [*daraxt*]-[*qayin*], [*daraxt*]-[*terak*], [*daraxt*]-[*dub*], [*daraxt*]-[*archa*].

Giponimlar teng huquqli bo'lib, giperonimga munosabati bir xil. O'z navbatida, bu munosabat polisemiya va omonimiya hodisasi bilan ham bog'lanadi. Masalan, o'zbek tilidagi [*daraxt*] nomi dastlab ikki guruhga bo'linadi: mevali daraxt va manzarali daraxt. Mevali daraxt o'z mevasining nomi bilan ataladi. Shuning uchun bu leksema ko'p ma'noli bo'lganligi bois bir tomondan [*meva*], ikkinchi tomondan [*daraxt*] giperonimi bilan semantik munosabatga kirishadi:

[*Meva*]: [*olma*]-[*o'rik*]-[*shaftoli*]-[*behi*].

[*Daraxt*]: [*olma*]-[*o'rik*]-[*shaftoli*]-[*behi*].

[*Daraxt*] giperonimi jins tushunchasini ifodalovchi leksema sifatida, birinchi navbatda, shu jinsning turini bildiruvchi so'z bilan bog'lanadi. [*Daraxt*] leksemasi uning turi nomi o'rnida qo'llanishi ham mumkin. Lekin giperonim giponim o'rnida qo'llanganda uning mohiyatini yorqin ifodalay olmaydi. Shu boisdan o'z oldidan giponimni aniqlovchi sifatida qabul qiladi: *o'rik daraxti*, *shaftoli daraxti* kabi.

Giponim leksemaning sememasi giponim leksemalar uchun birlashtiruvchi sema bo'lib xizmat qiladi. Masalan, [*daraxt*] giperonim leksemasining sememasi «tanasidan shoxlanuvchi o'simlik» bo'lib, «qizil, yashil, yoki sariq rangli yong'oqdan piyolagacha bo'lgan hajmdagi sersuv meva beruvchi daraxt» sememasiga ega [*olma*] leksemasining «daraxt» semasi [*daraxt*] giperonim leksemasi semasining sememalashgan ko'rinishi.

Giperonimning ma'nosi giponim leksemanikiga nisbatan kengroq va «xiraroq» (noaniqroq), giponim leksemaning ma'nosi esa giperonimnikiga nisbatan torroq va «yorqinroq». Shu boisdan, aytish mumkinki, giperonimning ma'noviy mohiyati barcha giponimining ma'noviy mohiyati yig'indisiga teng.

Aytilganidek, daraxt mevali va mevasiz daraxtga bo'linadi. Demak, borliqdagi bu bo'linish giponimiya hodisasi sifatida tilda ham aks etadi. Lekin daraxtning mevali va mevasiz turini ataydigan alohida leksema o'zbek tilida yo'q. Demak, giponimning o'rni bo'sh bo'lib, ular leksik lakuna (bo'sh xona) hosil qiladi. Leksik lakunani turli nutqiy nominativ birlik to'ldiraverishi mumkin (Masalan: *mevali daraxt* va *mevasiz daraxt* so'z birikmalari).

Har bir gipo-giperonimik qator cheklanmagan miqdorda lug'aviy lakunaga ega bo'ladi. Bu bo'sh xona ayni bir jinsning turli belgisi bilan chegaralanmagan miqdorda to'lib borish imkoniyatiga ega. Masalan, 10 ta uzum nomini biluvchi odam uchun o'zbek tilidagi 600 ta uzum navi nomining 590 tasi lug'aviy lakuna

hisoblanadi. Demak, lakunalar ijtimoiy ham («mevali daraxt» va «mevasiz daraxt» tushunchasini ifodalovchi leksemalar), individual ham (mavjud leksemani ma'lum bir kishining bilmasligi) bo'lishi mumkin.

GRADUONIMIYA (darajalanish)

Lug'aviy ma'no guruhlari doirasida ma'no darajalanishini ifodalovchi leksik birliklar graduonimiyadir.

Belgini darajalab atab keluvchi so'zlarni o'zaro birlashtirish tilshunoslikda uzoq tarixga ega. Alisher Navoiy «Muhokamatul-lug'atayn» asarida «yig'i» holatini ifodalovchi quyidagi darajalanish qatorini ajratadi: ingramoq, singramoq, yig'lamsinmoq, yig'lamoq, siqtamoq, o'kirmoq, hoy-hoy yig'lamoq. Bunday leksemalar qatori o'zaro darajali ziddiyat (graduonimik oppozisiya)da turadi. Qo'zishirvoz-tusoq-shishak-chori-panji qatorida «yoshning miqdori» semasi darajalangan.

Darajalanish munosabatlari bilan so'zlar qatorini: a) sof lisoniy asoslar; b) g'ayrilisoniy asoslar kabi ikki guruhga ajratish mumkin.

/ayrilisoniy asosga tabiatda bo'ladigan sifat va miqdoriy o'zgarishlar asosida o'z beradigan hodisalar va shu hodisalarga inson tomonidan atab qo'yilgan so'zlar kiradi. YA'ni miqdoriy farqlar alohida so'zlar bilan ataladi: nihol, ko'chat, daraxt kabi.

Lisoniy lug'aviy darajalanishda esa bir qator so'zlardagi atash-nomlash semalari tarkibidagi miqdorda ma'lum bir belgining oz-ko'pligiga, turli xil darajalariga ishora mavjud. Jumladan, darcha, eshik, darvoza so'zlarining talqinida «kichkina», «eshikcha», «katta» so'zlari miqdoriy belgilariga ishora mavjud.

So'zlarning graduonimik qatorlarga tizilishi ma'lum bir belgi (oppozisiya belgisi) zaminida sodir bo'ladi. Masalan, «qizillik» belgisi asosida gulobi, pushti, qizg'ish, qizil, ol, qirmizi; «yosh miqdori»ga ko'ra: qulun, toy, do'non, g'o'non, ot; «katta-kichiklik» miqdoriy belgisiga ko'ra: kulba, hujra, uy, ko'shk, qasr, saroy, koshona kabilarga bo'linadi.

Xullas, graduonimik munosabatlarni o'rganish graduonimik uyalar lug'atini tuzish, o'zbek tili lug'at xazinasidan unumli va samarali foydalanishga qulay imkoniyatlar yaratib beradi.

PARTONIMIYA

So'zlararo ma'noviy munosabatlarda partonimiya o'ziga xos o'rin tutadi. Partonimiya atamasi lotincha partos – bo'lak, qism va nomos nom demakdir, ya'ni so'zlararo butun-bo'lak munosabatlarini ifodalashga taalluqli aloqalar tushuniladi. Masalan, daraxt-ildiz-tana-shox-barg; uy-xona-devor-tom-eshik so'zlari o'zaro butun-bo'lak munosabatlari bilan bog'langan.

Partonimik lug'aviy ma'no guruhidagi so'zlar butunnom va bo'laknom kabi ikki turga ajratiladi: daraxt-butunnom; ildiz, tana, shox, barg-bo'laknom. «Odam» partonimik lug'aviy ma'no guruhida bosh, tana, qo'l, oyoq kabi 4 bo'lak o'zaro ma'lum tartibda va qonun-qoida asosida birlashib, bir sistemani – «odam» nisbiy butunligini tashkil etadi.

Partonimik lug'aviy ma'no guruhlaridagi so'zlarni qiyosiy o'rganish bu lug'aviy birliklarning ma'nosini yanada chuqurroq ochishga yordam beradi.

Tekshirish savollari va topshiriqlar

1. Ma'no taraqqiyotini qanday yo'llari bor?
2. Metafora yo'li bilan ma'noning ko'chishi?
3. Vazifadagi o'xshashlik asosida ma'noning ko'chirilishi?
4. Metonimiya yo'li bilan ma'noning ko'chirilishi?
5. Sinekdoxa yo'li bilan ma'noning ko'chirilishi?
6. Antonimiya nima? Antonimik juftlik-chi?
7. Qanday ma'noli leksemalarda antonimiya hodisasi keng tarqalgan?
8. Kontekstual antonimiya haqida ma'lumot bering.
9. Qanday holatlarda antonimiya hodisasi yuz bermaydi?
10. Antonimiya va enantiosemiya hodisalarini tushuntiring.
11. Antonimiya hodisasi bilan bog'liq qanday munozarali masalalarni bilasiz?
12. Antonimiya hodisasining mezoni sifatida qaraladigan *mantiqiy markaz* haqida ma'lumot bering.
13. Antonimlardan qanday uslubiy vosita sifatida foydalaniladi?
14. Paronimiya hodisasining qaysi jihatlari hozircha o'zining tugal yyechimini topmagan?
15. Paronimiya hodisasining nutqqa ta'siri bormi?
16. Paronomaziya nima?
17. Qanday hodisa paronimiya sanaladi?
18. Paronimlar va kvaziomonimlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni qanday tasavvur qilasiz?
20. Paronimlar, omonimlar va omoformalar qanday farqkanadi?
21. Paronimlar bilan so'z variantlari o'rtasidagi farqni qanday tushunasiz?

Tayanch tushunchalar

Uzual ma'no – leksemaning semantik tarkibida bor bo'lgan leksik ma'no.

Okkazional ma'no – leksemaning tildagi ma'nosiga xos bo'lmagan, ayrim shaxsning leksik qo'llashi natijasida yuzaga keltirilgan sun'iy ma'nosi.

Leksik qo'llash – leksemaning okkazional (nutqiy) ma'noda qullanishi.

Sinonimiya – leksemalarning bir xil ma'no anglatishiga ko'ra guruhlanish.

Sinonimik qator (sinonimik uya) – bir ma'no anglatishiga ko'ra guruhlangan sinonim so'zlar yig'indisi.

Dominanta – sinonimik qatordagi betaraf ma'noli so'z.

Ma'no sinonimlari – bir umumiy ma'noga ega bo'lsa-da, ma'no qirralari bilan farqlanuvchi sinonimlar.

Uslubiy sinonimlar – leksik ma'nolari ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalovchi semalar bilan qoplangan sinonimlar.

Nutqiy sinonimlar – **Antonimiya** – leksemalarning bir-biriga zid ma'no anglatishi asosida guruhlanishi.

Antonimik juftlik - o'zaro qarama-qarshi ma'noli ikki leksema.

Kontekstual antonimiya – tilda antonimik munosabatda bo'lmagan leksemalarning ma'lum kontekst doirasida antonimik munosabatga kiritilishi.

Enantiosemiya – bitta leksema ma'nosida nutqiy muhit taqozosi bilan zidlanishning ifodalanishi.

Mantiqiy markaz – ikki ma'no o'rtasidagi oraliq tushuncha.

Paronimiya-ikki yoki undan ortiq leksemaning talaffuzda o'zaro o'xshash, ohangdosh bo'lishi.

Paronomaziya –jonli so'zlashuvda paronim leksemalarni farqlamaslik (shakl neytralizatsiyasi) hodisasidan badiiy nutqda uslubiy figura sifatida foydalanish.

Giponimiya- lug'at boyligidagi leksemalarning pog'onali (ierarxik) aloqasidan kelib chiqadigan ma'no munosabatlari

Asosiy adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'zME, 2013.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Т., 1994.
2. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2009.
3. Mirtojdiyev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
4. Nazarov K., Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. (Punktuatsiya). Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
5. Ne'matov H, Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.
6. Ne'matov H, Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
7. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. Oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
8. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –Т. 2006.
9. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti Toshkent-2010.
10. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфологияси. –Т., 1992

12-modul. O'ZBEK TILI LEKSIKASINING TARIXIY TARAQQIYOTI

REJA:

1. O'zbek tili leksikasining taraqqiyot yo'llari.
2. So'z o'zlashtirish usul va yo'llari.
3. O'zbek tili leksikasining o'z qatlami:
a) *umumturkiy so'zlar;*

b) o'zbekcha so'zlar.

4. O'zbek tili leksikasining o'zlashgan qatlami:

a) tojik-fors so'zlari;

b) arabcha so'zlar;

v) ruscha va baynalminal so'zlar.

5. O'zbek tilining chet so'zlarga munosabati.

6. Xulosa.


1. O'zbek tili leksikasining taraqqiyot yo'llari

Tilning lug'at tarkibi til qurilishining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Har bir tilning, jumladan, o'zbek tilining ham lug'at boyligi, uning qay darajada ekanligi, u yoki bu xalqning shakllanish jarayoni, turmush sharoiti hamda keyingi o'sish va rivojlanish tarixi bilan bog'liq.

O'zbek tili O'rta Osiyodagi qadimiy mahalliy xalqlarning turkiy tillar tizimidagi tillaridan biri bo'lib, uning lug'at tarkibi va grammatik qurilishi ham qadimiydir. O'zbek tili leksikasi o'zining butun tarixiy takomilida shu tilning o'z ichki taraqqiyot qonunlari asosida o'sgan va rivojlangan.

Tarixiy nuqtai nazardan qaraganda, o'zbek tili leksikasida hamma turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'z birliklari o'zbek tili lug'at tarkibining ham asosini tashkil qiladi. Lekin bu hozirgi o'zbek adabiy tilining butun so'z boyligi faqat o'zbekcha va umumturkiy so'zlardan tarkib topgan degan gap emas. Sababi o'zbek xalqi o'z tarixiy taraqqiyoti jarayonlarida boshqa xalqlar bilan ham siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqada bo'lib kelganki, bu, tilda ham o'z ifodasini topgan. Chunki ellar o'rtasidagi aloqa tillar o'rtasidagi aloqadir. Dunyoda hech bir sof til yo'q. Dunyo xalqlari doimo bir-birlari bilan so'z olib, so'z berib kelgan. Demak, o'zbek tili lug'at boyligida nafaqat o'zbekcha va umumturkiy lug'aviy birliklarni, boshqa tillardan qabul qilingan ko'plab so'zlarni ham uchratish mumkin. Bu til taraqqiyotining asosiy qonunlaridan biridir.

Shu jihatdan qaraganda, hozirgi o'zbek adabiy tili leksik tarkibini ikki yirik (o'z va o'zlashgan) qatlamga ajratish mumkin.



2. Soʻz oʻzlashtirish usul va yoʻllari

Soʻz oʻzlashtirish boshqa til soʻzlarining oʻzbek tiliga olinishidir. Bu jarayon, yuqorida koʻrilganidek, oʻzbek tili leksikasining oʻzlashgan qatlamini yuzaga keltirgan.

Soʻz oʻzlashtirish til taraqqiyotining qonuniy koʻrinishidir: xalqlar oʻrtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maʼrifiy va ilmiy aloqalar, bunday aloqalarning jamiyatda shakllangan bilingvizm sharoitida barqaror tus olishi bir tildan ikkinchi tilga soʻz va atamalarning oʻtib turishini taqozo qiladi. Oʻzbek tiliga arab, fors-tojik va rus tillaridan soʻz oʻzlashtirilishi ham ana shunday ijtimoiy-tarixiy omillar tufayli sodir boʻlgan (Bu haqda “Oʻzlashgan qatlam” mavzusiga qaralsin.)

SOʻZ OʻZLASHTIRISHNING IKKI XIL YOʻLI

1. Jonli soʻzlashuv orqali soʻz oʻzlashtiriladi.

Bunda boshqa til soʻzlari oʻzbek tiliga mahalliy aholining ogʻzaki nutqi orqali oʻtadi. Masalan, ruscha *rami(pamy)*, *klubnika*, *podnos* soʻzlari oʻzbek tilining jonli soʻzlashuvida *rom*, *qulubnay* va *patnis* deb talaffuz qilingan, keyinchalik oʻzbek adabiy tiliga ham shu shaklda oʻzlashgan.

2. Bosma manbalar orqali oʻzlashtiriladi.

Bunda boshqa tildagi matnni oʻzbek tiliga tarjima qilish yoki oʻzbek tilida yozilgan maqolalarda, ilmiy va badiiy asarlarda boshqa til soʻzlarini (ayniqsa, termin va atamalarni) ishlatish orqali boʻladigan oʻzlashtirish nazarda tutiladi. Matematikadagi *katet*, *gipotenuza*, adabiyotshunoslikdagi *kulminatsiya*, *sujet* kabi terminlar, *ocherk*, *roman*, *povest* kabi soʻzlar shu yoʻl bilan oʻzlashtirilgandir.

SO'Z O'ZLASHTIRISH USULLARI

1. O'zicha olish.

Bunda boshqa tildan o'zlashtirilayotgan so'z hech qanday o'zgarishsiz yoki ayrim (juz'iy) fonetik o'zgarishlar bilan olinadi. Mas., *g'o'za* (f-t.), *poya* (f-t.), *kaptar* (<f-t: *kabutar*); *balo* (ar.) *bil'aks* (ar.), *davlat* (ar.), *muallim* (< ar. *mua'llim*); *direktor* (r-b.), *rektor* (r-b.), *institut* (r-b.), *metro* (r-b.), *cho't* (<rus. *счеты*), *cho'tka* (< rus *щетка*) kabi.

2. Kalkalab olish. Bunda boshqa tildagi (mas., rus tilidagi) so'zning morfemik tarkibidan qismini qism nusxa olish orqali o'zbekcha so'z yasaladi va shu so'z bilan boshqa til (mas., rus tili) leksemasining ma'nosi ifodalaniadi. Qiyos qiling: *yarim o'tkazgich* <rus: *полупроводник*, *ilmiy ommabop* < rus: *научно популярный* kabi. Kalkalashning bu turi to'liq kalka sanaladi, chunki unda boshqa til so'zining ifoda materiali o'zbek tili materiali bilan to'liq almashtirilgandir. Ba'zan, boshqa til so'zining bir qismi o'zgarishsiz olinadi, qolgan qismi esa o'zbek tili materiali bilan almashtiriladi. Qiyos qiling: *mikroo'g'it* <rus. *микрорудобрение*, *ultratovush* <rus *ультразвук*, *rekordli* < *рекордный*, *meshchanlik* < *мещанство* kabi. Kalkalashning bu turi yarim kalka hisoblanadi.

To'liq va yarim kalkalar so'z o'zlashtirishning *grammatik usuli* deb ham qaraladi, chunki bunda boshqa til so'zlarining ma'noli qismlaridan nusxa ko'chirilishi orqali so'z yasaladi. Ammo tilda ba'zan yangi so'z yasalmay, azaldan mavjud bo'lgan birorta lekseмага boshqa til leksemasining birorta ma'nosini yuklash orqali ham ma'no o'zlashtirilishi ta'minlanadi. O'zlashtirishning bu turi *semantik kalka* sanaladi. Masalan, til so'zi "so'zlashuv quroli" nomi sifatida ruscha *язык* so'ziga ekvivalentdir. Ayni shu holat rus tilidagi *язык* so'zining "asir" ma'nosini o'zbek tilidagi til so'zi bilan ifodalashga turtki bo'lgan: "*Qo'mondonlik Ostonaqullar keltirgan "til" dan hujum jangining planini tuzish uchun eng kerakli ma'lumotlarni oldi*". (A. Rahm. Ellik bir bahodir.)

O'zbek tilidagi o'zak leksemasida "so'zning o'zagi" ma'nosining paydo bo'lganligi ham ruscha *корень* leksemasining «*корень слово*» ma'nosiga asoslangandir.

So'z o'zlashtirishning chet so'zlarni qo'llashdan farqlari

So'z yoki ma'no o'zlashtirilishini chet so'zlarni qo'llashdan farq qilish kerak. So'z yoki ma'no o'zlashtirilishi muayyan til leksikasini boyituvchi qonuniy hodisadir, chunki bir til boshqa tildan o'zi uchun zarur bo'lgan leksik- semantik birliklarni o'zlashtiradi. Chet so'zlarni ishlatish hodisasi esa g'ayri qonuniydir, chunki o'zbek tilining o'zida biror so'z mavjud bo'lgani holda, uning o'rnida chet so'zni ehtiyojsiz, maqsadsiz qo'llash tilni boyitmaydi, aksincha, ayrim

shaxslarning o'z nutqiga e'tiborsiz qarashinigina aks ettiradi.

3. O'zbek tili leksikasining o'z qatlami

O'zbek tili leksikasining o'z qatlamiga oid so'zlarning mavjudligi o'zining juda uzoq tarixiga ega. U oltoy tillari alohida-alohida qabila va xalq tillari sifatida differensiasiyalashmagan, butun turkiy qavmlar bir umumiy tilga ega bo'lmagan davrlarda shakllana boshlagan. Davrlar o'tishi bilan umumturkiy tillarning alohida-alohida turkiy tillarga differensiasiyalanishi ularning tillarida ham o'ziga xos ayirmalarni keltirib chiqargan. Bu o'z navbatida har bir turkiy til, jumladan, o'zbek tili leksikasining o'z qatlamini ham ikkiga ajratishga asos bo'lgan:

1. *Umumturkiy so'zlar.*

2. *O'zbekcha so'zlar.*

Umumturkiy so'zlar. Turkiy xalqlarning barchasi uchun tushunarli bo'lgan so'zlarga umumturkiy so'zlar deyiladi. Umumturkiy so'zlar VI-VII asr yodnomalari tilida uchraydi: ata, ini, adaq, tav, altun kabi. Bu kabi so'zlar o'sha davr hamma turkiy tillari uchun umumiy bo'lgan.

Hozirgi turkiy tillar, jumladan, hozirgi o'zbek tili tarkibidagi bunday umumturkiy so'zlarni shartli ravishda quyidagicha belgilash mumkin:

1. Qarindoshlik atamaları umumturkiy leksikaning eng arxaik qatlamidir. Qarindoshlik atamaları qon-qarindoshlik, oila-nikoh, ota urug'i va ona urug'iga doir shaxslar hamda ularning yosh xususiyatlariga ko'ra farqlangan. Masalan, barcha turkiy tillar va o'zbek tilida ota//ata, opa//apa, tog'a//dayi//tay, xotin//katin//gado'n, kelin//gelin, qayin//qayo'n//qayn kabi.

2. Turli hayvon, jonivor, parrandalar nomlari, ularning anatomik a'zolari atamaları: ot//at, bedav//badav, echki//eshki//echi, eshak//yesek//eshteq, g'oz//qaz//kas, tuyoq//toyak//tuyak, tumshuq//tomshiq//tumzux va boshqalar.

3. O'simlik nomlari va ularning a'zolariga oid atamaları: boshqoq//majaq//masaq, yaproq//yalbo'rak//yapurmak, tomir//tamo'r//tamo'x kabi.

4. Tabiat hodisalarini anglatuvchi atamalar (anemonimlar): el (shamol)//jel//chel, yashin//jaso'n kabi.

5. Ayrim jo'g'rofiy va samoviy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar: yolduz//juldiz//yo'ldo'k, dengiz//deniz//tines, ko'k (osmon)//koy//ko'k, dala//talaa//tarla, suv (daryo)//suu//suq va boshqalar.

6. Narsa, hodisa, voqea, harakat, belgi va miqdor nomlari, shaxs va so'roq ma'nosini anglatuvchi qadimgi so'z va atamalar ham o'zbek tilining umumturkiy leksik qatlamining asosini tashkil qiladi.

Umuman, turkiy tizimdagi tillarda eng qadimgi davrlardan boshlab, amalda asosan bir xilda qo'llanib kelgan, keyinchalik o'sib, rivojlanib, hozirgi paytda ham deyarli barcha turkiy tillarda shakl va ma'no birligini saqlagan, lekin qisman har bir turkiy tilning artikulyasion xususiyatlariga ko'ra o'z fonetik ayrimliklariga ega bo'lgan lug'aviy birliklar barcha turkiy tillar leksikasining asosini tashkil qiladi.

Shubhasiz, turkiy tillarning har biri o'z ichki qonuniyatlari asosida rivojlanib kelgan, shuning uchun boshqa turkiy tillardagi ayrim so'zlar o'zbek tilida, o'zbek tilidagi ayrim so'zlar esa boshqa turkiy tillarda uchramasligi mumkin. Masalan, ev (uy), emgak (mehnat), emak (non), al (qo'l) singari umumturkiy so'zlar hozirgi

kunda o'zbek tilida ishlatilmaydi, o'zbek tilidagi ayrim so'zlar ham boshqa turkiy tillarda shunday.

O'zbekcha so'zlar. O'z qatlamning asosiy tarkibiy qismi o'zbekcha so'zlardir. Bu so'zlar o'zbek tilining o'zida shu tilning o'z ichki imkoniyatlari, fonetik, semantik, grammatik qonun-qoidalari asosida shakllangan so'zlardir. SHuning uchun o'zbek tili leksikasiga oid so'zlarni, ayrim qiyinchiliklari mavjud bo'lsa ham, o'ziga xos belgilari asosida bema'lol ajratib olish mumkin. Bu belgilar quyidagicha:

1. O'zbek tili leksikasidagi barcha olmoshlar, miqdor bildiruvchi barcha tub va tarkibli sonlar hamda tub fe'llar, boshqa turkiy tillarda uchramaydigan shamol, momaqaldiroq, to'liqin, voqea va hodisa nomlari, faqat o'zbeklarning o'ziga xos kasb-hunar va dehqonchilikka oid otlar sof o'zbekcha so'zlardir.

2. O'zbekcha bir bo'g'inli tub so'zlar, asosan, V (vokal-unli) S (konsonant-undosh): ol, ot, osh kabi; qisman SV: e (ye<je), de; asosan SVS: bosh, tosh, tush, chiq, qo'y tipida bo'lgan. Ayrim taqlidiy so'zlarni hisobga olmaganda (chars-churs, bilq-bilq, pirq-pirq kabi), SVSS tilidagi bir bo'g'inli so'zlar deyarli uchramaydi, chunki o'zbek tilida so'z o'zaklari qator undoshlar bilan tugamaydi. Qator undoshlar bilan tugagan so'z o'zaklari ba'zan uchrasa ham, u qo'sh undosh shaklida kelib, uning birinchisi ko'pincha n,r,s,y undoshlari bo'lib, so'ng jarangsiz undoshlar keladi: ost, qayt, ayt, turt, to'rt kabi.

3. O'zbek tilida so'zlar qator undosh bilan boshlanmaydi, yo unli bilan boshlanadi yo undosh bilan boshlanib, uning ketidan unli keladi: o'zgarish, qishloq kabi.

4. O'zbek tiliga oid so'zlarning ko'pchiligi ko'p ma'nolidir.

5. Sof o'zbekcha so'zlar orasida mavhum ma'noli so'zlar kam.

6. O'zbek tiliga oid so'zlar v, g, z, l, r, ng undoshlari bilan boshlanmaydi.

7. O'zbekcha so'zlarda grafik belgilar qo'llanmaydi va b.

O'z qatlamga xos jihatlar

1. Umumturkiy so'zlar: a) bosh-bas-bash; b) til-dil; d) tog'- too- tav, tau- dag' kabi.

Fonetik belgilari:

a) so'zlarning ko'pchiligi bir yoki ikki bo'inli (qo'l, ko'z, bosh, bir, uch; ikki, olti, oltin, yetti, ota, ona...);

b) so'z yoki bo'g'in boshida undosh tovushlar qatorlashib kelmaydi;

d) so'z oxirida undosh tovushlar qatorlashib kelishi mumkin, ammo bu hodisa kam uchraydi (ort, ost, ust, to'rt, qirq kabi);

e) ikki bo'g'inli so'zlarning birinchi bo'g'ini to'la ochiq (o-ta, o-na), boshi yopiq (ku-mish, bo-la), oxiri yopiq (ol-tin, o'r-dak), to'la yopiq (bay-ram, bay-roq), ikkinchi bo'g'ini esa boshi yopiq (o-ta, o-na) va to'la yopiq (ol-tin, ku-mush) bo'ladi;

f) ikkinchi bo'g'in hech qachon unli bilan boshlanmaydi, ammo unli bilan tugash holatlari keng tarqalgan: ik-ki, yet-ti, bo-la, ar-pa, bol-ta kabi;

g) so'z tarkibida ikki unli yoma-yon kelmaydi;

h) f, h, ts undoshlari umuman qo'llanmaydi;

i) r, l, v, ng, g, g', d, z undoshlari so'z boshida ishlatilmaydi;

j) e, o' unilari so'z oxirida qo'llanmaydi (ayrim undov so'zlar bundan mustasno);

k) urg'u ko'pincha so'z oxiriga tushadi.

Semantik belgilari:

a) umumturkiy soʻzlarning aksariyati koʻp maʼnolidir. Masalan; bosh-1) "odamning boshi"; 2) "koʻchaning boshi"; 3) "ishning boshi"; 4) "bosh agronom" kabi. Bunday koʻp maʼnolilik koʻz, quloq, burun kabi turkiy soʻzlarga ham xos;

b) bu qatlamda "qon-qarindoshlik", "inson aʼzolari", "uy hayvonlari", "yovvoyi hayvonlar", "parrandalar", "mehnat faoliyati", "uy- roʻzgʻor buyumlari", "rang-tus", "maza-taʼm", "miqdor", "sanoq", "harakat", "holat", "urf-odat" maʼnoli soʻzlar koʻpchilikni tashkil qiladi.

Morfologik belgilari:

a) umumturkiy soʻzlar hozirgi oʻzbek tilining barcha soʻz turkumlarida uchraydi;

b) turlanadi va tuslanadi;

d) oʻzak va affiks morfemalar erkin va standaryt boʻladi: koʻzim, koʻzing, koʻzi, koʻzni, koʻzning; boraman, borasan, boramiz kabi;

e) soʻz tarkibida prefikslar qoʻllanmaydi.

2. Sof oʻzbek soʻzlari- oʻzbek tilining oʻzida yasalgan leksemalar. Ular oʻz qatlamning ikkinchi (nisbatan yangi) qismini tashkil qiladi. Bunday yasalishning quyidagi turlari bor:

a) semantik usul- maʼno taraqqiyoti mahsuli sifatida yangi leksemaning yuzaga kelishi: koʻk ("rang")- koʻk ("osmon"), yetti ("son")- yetti ("maʼraka nomi"), yupqa (sifat turkumidagi soʻz) –yupqa (ot tukumidagi soʻz : "ovqatning bir turi") kabi;

b) affiksatsiya usuli- soʻz yasovchi morfemalarning asosga qoʻshilishi natijasida yangi soʻzning yuzaga kelishi: Bunda oʻzak va affikslar turli til materiallari boʻlishi mumkin, ammo ularning qoʻshilishi oʻzbek tili tarkibida yuz beradi, oʻzbek tilining soʻz yasash qoliplariga asoslanadi, shu sababli bunday yasama soʻzlar oʻzbek tilining oʻz qatlami birligi sanaladi. Masalan, bosh (umumturkiy soʻz)+ "-la"(oʻzb.) =boshla (oʻzb.), temir (umumturkiy) + "-chilik"(oʻzb.)= temirchilik (oʻzb.), jang (fors-tojik) + "-chi" (oʻzb) = jangchi (oʻzb), madaniyat (arab.) + "-li" (oʻzb.) = madaniyatli (oʻzb.), obuna (ruscha -baynalmilal) + "-chi" (oʻzb.) = obunachi (oʻzb.) kabi.

4. Oʻzbek tili leksikasining oʻzlashgan qatlami

Til jamiyatning taraqqiyoti bilan birga doimo oʻzgarib, taraqqiy etib boradi. Uning eng oʻzgaruvchan qismi boʻlgan lugʻat tarkibining oʻsishi va oʻzgarishining turli omillari mavjud:

1) lugʻat boyligining oʻzgarishi, eng avvalo, tilning oʻz ichki imkoniyatlari asosida roʻz beradi. Turli usullar bilan yangi soʻzlar hosil boʻladi, yasaladi va soʻzning semantikasida oʻzgarish roʻz berib, uning maʼnosida differensiasiyalanish sodir boʻladi, soʻzning har bir yangi maʼnosi yangi soʻz hosil qiladi;

2) adabiy til va uning tarkibidagi dialektlar oʻrtasida doimiy munosabat, aloqa mavjud boʻladi. Bu aloqa dialektlar tarkibidagi ayrim soʻzlar hisobiga adabiy til lugʻat boyligini oshirib boradi;

3) qarindosh xalqlar oʻrtasidagi doimiy ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalar tillar oʻrtasidagi aloqani ham koʻchaytiradi, bunday aloqalar har ikkala til va tillar oʻrtasidagi leksik almashinuvga katta imkoniyat yaratadi.

4) noqarindosh xalqlar oʻrtasidagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar tillar oʻrtasidagi aloqani ham vujudga keltiradi va bu, koʻpincha, bir tilda, baʼzan esa har ikkala tilda ham leksik olinmalarning koʻpayishiga sabab boʻladi.

Leksikada o'zlashgan qatlamning paydo bo'lishi har doim bir xil usulda bermaydi, so'z o'zlashtirish sabablari, tabiati har xil bo'ladi:

1. Noqarindosh ellar va tillarning tengligi asosida. Bu o'zaro aloqadagi xalqlarning hududiy yaqinligi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va kundalik turmush sharoitlarining umumiyliigi asosida quriladi va bularning barchasi tilda o'z ifodasini topadi. Juda uzoq tarixiy jarayonda aloqadagi tillar o'rtasida leksik olinmalar o'lib, rivojlanib boradi, shuningdek, tillar tarkibida yangi - o'zlashgan qatlamni shakllantiradi. Masalan, o'zbek tili leksikasi tarkibidagi fors-tojik so'zlari o'zbek va tojik xalqlarining bir hududda yashaganliklari, ularning azaliy erkin muloqoti natijasidir.

2. Noqarindosh ellar va tillarning o'zaro tengsizligi asosida. Bu noqarindosh qavmlar va xalqlar o'rtasidagi tashqi ziddiyatlar, o'zaro bosqinchilik urushlari, g'olib hamda mag'lub qavm va xalqlar, mamlakatlarni vujudga keltiradi. /olib mamlakatlarning mag'lub mamlakatlar ustidan hukmronligi, mag'lub mamlakat, elat va xalqlarning ijtimoiy turmush sharoiti, urf-odat va madaniyatiga ham ta'sir qilmasdan qolmaydi, albatta. Bu, dastavval, g'olib va mag'lub xalqlar tillarida o'z aksini topadi. Sababi g'olib mamlakat hukmronlari bosib olingan hududlarda o'z tilini hukmron til darajasiga ko'tarishga, davlatni boshqarishni o'z tillarida olib borishga, yozuv va yozma hujjatlarni o'z tili hisobiga o'zgartirishga intiladi. Natijada bir til leksikasida ikkinchi til leksikasiga oid yangi so'zlar va dubletlar paydo bo'la boshlaydi. Bular davrlar o'tishi bilan tobora kengaya boradi, mag'lub tillar leksikasida o'z qatlami bilan yonma-yon o'zlashgan qatlam iuzaga keladi. O'zbek tili leksikasi tarkibidagi arab, fors va rus tillariga oid leksik qatlamlarning paydo bo'lishi shu asosda roz bergan.

Qarindosh va noqarindosh tillar o'rtasidagi ana shu munosabatlarni leksik olinmalarning xususiyatlariga ko'ra o'zbek tili va boshqa tillar aloqasi misolida quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. O'zbek tili leksikasida tojik-fors so'zlar.
2. O'zbek tili leksikasida mo'g'ul, xitoy so'zlari.
3. O'zbek tili leksikasida arabcha so'zlar.
4. O'zbek tili leksikasida rus va baynalminimal so'zlar.

O'zbek tili leksikasida tojik-fors so'zlari. O'zbek xalqi bilan eroniy xalqlar, o'zbek tili bilan fors-tojik tillari o'rtasidagi munosabat juda qadim zamonlardan boshlangan, chunki Markaziy va O'rta Osiyoda o'zbeklar forslar va tojiklar bilan birga yashab kelganlar.

O'zbek va fors-tojik tillari o'rtasidagi aloqa tenglik va tinchlik asosida iuz bergan. SHubhasiz, yashash hududlari bir bo'lgan o'zbek (qisman qoraqalpoq, turkman) hamda fors va tojik xalqlarining iqtisodiy turmush sharoiti, ishlab chiqarish, fan va madaniyati, san'atida ham umumiylik bo'lgan, bu ularning urf-odatlari, oilaviy munosabatlarida ham o'z ifodasini topgan.

O'zbek tilidagi fors-tojik olinmalarning manbai, asosan, rivojlangan fors-tojik adabiy tili bo'lgan. O'rta Osiyoning mo'g'ullar istilosigacha bo'lgan davrida Qoraxoniylar va Xorazm davlatlari adabiy tili, undan keyin esa Oltin o'rda va Temuriylar davlati adabiy tili hamda ilmiy-adabiy aloqalari o'zbek tili leksikasi tarkibida fors-tojik olinmalarining asosi bo'lgan.

O'zbek xalqi va fors-tojik xalqlari, o'zbek tili va fors-tojik tillari o'rtasidagi a'zaliy aloqa va munosabatlarni faqat o'zbek va tojik xalqlari, o'zbek va tojik tillari o'rtasidagi munosabatlar orqali izohlash mumkin. Ma'lumki, Tojikistonning janubiy hududlari (Vaxsh va Qorarnihosh vodiylaridagi Qo'rqontepa, Qabadiyon, Jimko'l, Mahartuz nohiyalari) va Jonibedam viloyatida, O'zbekistonning Buxoro, Samarqand, Namangan, Termiz kabi markaziy shaharlari va Buxoro, Samarqand, Surxondaryo viloyatlari hamda Farg'ona vodiysining ko'pgina hududlarida o'zbeklar va tojiklar birga yashashadi. Bu birlik asosidagi o'zbek va tojik o'zaro og'zaki muloqoti Buxoro, Samarqand (XIV-XV asrlardayoq Hirot, Isfaxon, Qandahor, Balx) shaharlarida o'zbek va tojik ikkitilligini shakllantirgan bo'lsa, ko'p asrlar davomidagi buok mutafakkirlar Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy, Muqimiy va Muiziy, Sadridin Ayniy va Oybeklar o'rtasidagi ilmiy-adabiy hamkorlik va zullisonaynlik an'alarini davom ettirdi, rivojlantirdi. Temuriylar davrida va keyinchalik Buxoro, Qo'qon xonliklarida davlat-idora ishlarining ikki tilda olib borilishi, shubhasiz, har ikki tilning ham fonetik, leksik-grammatik ravnaqiga samarali ta'sir ko'rsatgan. SHuning uchun tojik-fors tilining o'zbek tiliga va o'zbek tilining tojik-fors tiliga ta'sirini faqat bu adabiy tillar leksikasida emas, balki ularning tovushlar tarkibidagi grammatik qurilishda ham ko'rish mumkin.

Misollar:

a) leksikada: kaft, obro', ohang, bahor, bekor, hamroh, poytaxt, astoydil, otashin, baland, past, kamtar, ro'para kabi;

b) fonetikada: o'zbek tili unlilar tizimidagi ayrim o'zgarishlar, tojikcha so'z boshida g, l, z, v, r tovushlarining odatiy qo'llanishi;

v) grammatikada: -boz, -bon, -do'z, -namo, -paz, -parvar, -furosh, -xona kabi yusovchilar, be-, ba-, bar-, ser-, no-, xush-, pur-, bo- kabi prefikslar va boshqalar.

O'zbek tili leksikasida mo'g'o'l, xitoy so'zlari: O'zbek tili leksikasi o'zlashgan qatlaminig ma'lum qismini mo'g'ul va juda kam miqdorda xitoy tilidan olingan so'zlar tashkil qiladi.

Bunga asosiy sabab, bir tomondan o'tmishda turk, mo'g'ul, tungus-manjur urug' va qabilalarining ginetik (kelib chiqish) birligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, keyingi davrlarda turkiy qabilalar va urushmalar yashaydigan butun hududlarning mo'g'ullar tomonidan istilo qilinishidir.

So'z qabul qilishda mo'g'ul tilining nufuzi hamma turkiy tillarda bir xil bo'lmagan. Turkiy elat va xalqlar yashaydigan erlar, hatto Amu sohillarigacha mo'g'ullar tomonidan istilo qilinganda ham, mo'g'ul imperiyasi hukmdorlari turkiy tillar, jumladan, o'zbek tiliga tayziq, o'tkaza olmagan. Ular bosib olingan erlarda talonchilik va vayrongarchilik bilan shug'ullangan. Bu davrlardagi turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi ham, ijtimoiy turmush sharoiti, urf-odati, madaniyati, san'ati va arxitekturasi, yozuv tili va adabiyoti jihatidan mo'g'ullarga nisbatan mutlaqo ustun bo'lgan. Mo'g'ullar o'zlari egallab olgan joylarda hech narsa qurmagan, faqat buzgan. Bu haqda mashhur venger turkshunos-tilshunosi H.Vemberi mo'g'ullar turklarga til o'rgatmadi, balki ulardan o'rgandi, deganida haqli edi. SHunga qaramay, hozirgi o'zbek tili leksikasida asli mo'g'ulcha bo'lgan dala, tangri, muz, ayron, bayan, bo'sag'a, xan kabi so'zlar va ba'zi etnotoponimlarni ko'plab uchratish mumkin.

O'zbek tilida uqadar ko'p bo'lmasa ham, xitoy tilidan olingan so'zlar ham uyaraydi. Turkiy xalqlar, jumladan o'zbeklar va xitoyliklar o'rtasida ham qadimiy aloqalar mavjud bo'lgan. Hozirgi o'zbek tilida uchraydigan zang, choy, chanoq (idish), qo'shni, yombi kabi so'zlarning mavjudligi ana shu aloqalar natijasidir.

O'zbek tili leksikasida arabcha so'zlar. Arab tili leksikasi o'zbek tilining o'zlashgan qatlami sifatida X asrlarga kelib, butun Markaziy va O'rta Osiyo hududlari arablar tomonidan bosib olingandan keyin, yoppasiga kirib kela boshladi. Bu davrlarda arab tili faqat arablarning o'zi uchun emas, balki barcha arab davlatlari hamda arablar tomonidan bosib olingan erlar xalqlari uchun ham din, fan, maktab va mahkamalar tiliga aylanib qolgan edi.

Arab tili dunyodagi o'zlashtirilishi eng og'ir bo'lgan tillardan biridir. SHunday bo'lishiga qaramasdan, arablar barcha erli aholini majburan islom diniga kiritdi, muqaddas Qur'on tilini barcha mavjud maktab va madrasalarda ona tili o'rnida - asosiy davlat tili sifatida o'qitishga va o'rganishga erishdi.

X-XI asrlarda Mahmud Koshg'ariy, Forobiy, Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Termiziy kabi mutafakkirlar o'z ilmiy asarlarini arab tilida yaratdi.

O'zbek tiliga arab tilidan olingan so'zlarni ma'nolariga ko'ra quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

1) diniy tushunchalarni anglatuvchi atamalar: Oллоh, oxirat, imon, masjid, tahorat, tavba kabi;

2) ilmiy abstrakt atamalar: adab, ahvol, olam, abjad, qodir, xayr, shafolat kabi;

3) davlat iqtisodiy-ishlab chiqarish atamaları: mahkama, mehnat, mol, foyda, qassob kabi;

4) ijtimoiy-siyosiy atamalar: jamiyat, madrasa, muassasa, zulm, zolim kabi;

5) grammatik ma'no ifodalovchi atamalar: va, lekin, aslo, albatta, masalan kabi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, arab tilidan qabul qilingan ayrim til birliklari o'zbek tili talaffuzi va imlosiga moslashtirildi, hatto arab grafikasiga isloh kiritildi.

O'zbek tili leksikasida ruscha va baynalminal so'zlar. O'zbek tilining rus tili bilan o'zaro aloqasi XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida vujudga keldi. Bu davrda O'rta Osiyo Rusiya tomonidan tamomila bosib olingan edi. Bu, bir tomondan, O'rta Osiyo xalqlarining Rusiyaga qaramligini yozaga keltirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, O'rta Osiyo o'lkalarida yangi ijtimoiy tuzumning barpo qilinishi, yangi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi, zavod va fabrikalarning maydonga kelishiga sabab bo'ldi, shuningdek, O'zbekistonda va shu zaminda yashovchi xalqlar o'rtasida ob'ektiv ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-ma'rifiy hamkorlikni yozaga keltirdi, o'zbek va rus tillarning o'zaro aloqasiga ham asos soldi.

XX asrning I yarmida o'zbek tiliga ruscha va rus tili orqali ingliz, nemis, fransuzcha-baynalminal so'zlar yoppasiga kirib kela boshladi.

Bular:

1. Ijtimoiy-siyosiy so'z va terminlar: byuro, demokratiya, diktatura, komitet, referendum, respublika kabi.

2. Sanoat va qishloq xo'jaligiga oid atamalar: industriya, metallurgiya, neft, elektr, stanok, agronom, traktor, seyalka, brigadir, irrigasiya kabi.

3. Fan, texnikaga oid so'zlar: akademiya, alfavit, geologiya, grammatika, gradus, kafedra, teorema, fizika, televizor kabi.

4. Harbiy ish, jismoniy tarbiya va sportga doir atamalar: general, kapitan, artilleriya, voleybol, futbol, finish, start kabi.

5. Qurilish, oziq-ovqat, uy-ro'zg'or buyumlari nomlari: kanal, galstuk, kostrom, konserva, pechenye, stol, stul va boshqalar.

Baynalminal so'z va atamalar:

1. Yunoncha: dialekt, diafragma, ideya, kafedra, magistr, grammatika kabi.

2. Lotincha: avtor, student, ekstern, senat, ministr, respublika kabi.

3. Nemischa: vaxta, lager, mundir, rota, rang, balet, tufla kabi.

4. Fransuzcha: drap, triko, kostrom, mebel, bufet, abajur, flot, eskadra kabi.

5. Inglizcha: vokzal, tramvay, tort, futbol, basketbol, boks, kross kabi.

6. Italyanacha: bas, ariya, libretto, loja, opera, bank, benzin va boshqalar.

Chet tillardan so'z va iboralarni qabul qilish ikki usul bilan yuz beradi:

1) so'z va iboralar to'g'ridan-to'g'ri, o'z holicha, shakli o'zgartirilmagan holda qabul qilinadi: traktor, tramvay, radio, televizor kabi;

2) so'z va iboralarni bir tildan boshqa tilga kalkalash usulida olinadi. Kalka - nusxa, kalkalash nusxa ko'chirish demakdir. Bunda qabul qilinuvchi tildagi biror so'z yoki iboraning ma'no va shakli qabul qiluvchi tildagi xuddi shunday ma'no yoki shakl bilan almashtiriladi. Bu bir tildagi so'zni boshqa tildagi so'zga tarjima qilishga o'xshab ko'rinadi, lekin bu oddiy tarjima emas. Masalan, ishlab chiqarish boshqarmasi iborasi rus tilidagi «proizvodstvennoe upravlenie» birikmasining, umumrivojlantiruvchi harakatlar iborasi rus tilidagi «obsherezvivaroshie dvijeniya» birikmasining aynan tarjimasi emas, kalkalashtirilgan nusxasidir.

Tilda faqat so'z va iboralar emas, balki ularning ma'nolari ham kalkalash yo'li bilan bir tildan ikkinchi tilga o'tishi mumkin. Masalan, izbrat-saylamoq, golosovat-ovoz bermoq oddiy leksik kalkalar bo'lsa, saylamoq (izbrat) ma'nosida qo'l ko'tarmoq iborasining qo'llanishi faqat ma'no jihatidan bo'lgani uchun semantik kalkadir.

Bir tildan ikkinchi tilga so'z va iboralarni kalka usulida o'zlashtirish to'liq yo to'liqsiz bo'lishi mumkin. Agar so'z va ibora butunligicha kalka usulida o'zlashtirilsa, to'liq kalka (ishlab chiqarish boshqarmasi, umumrivojlantiruvchi mashqlar kabi); qisman o'zlashtirilsa, to'liqsiz kalka deyiladi: *akt tuzmoq, kolleksiya to'plamoq, annotasiya yozmoq* va boshqalar.

Asosiy adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'zME, 2013.

2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.

4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Т., 1994.

2. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2009.

3. Mirtojiyev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.

4. Nazarov K., Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. (Punktuatsiya). Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
5. Ne'matov H, Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.
6. Ne'matov H, Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
7. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. Oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
8. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –T. 2006.
9. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti Toshkent-2010.
10. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфологияси. –Т., 1992

O'ZBEK TILI LEKSIKASINING CHEGARALANGAN QATLAMI

REJA:

1. O'zbek tili leksikasida umumiste'moldagi so'zlar va chegaralangan leksika.
2. Chegaralangan leksik qatlamning ko'rinishlari:
 - a) davr nuqtai nazaridan chegaralangan leksika;
 - b) hududiy nuqtai nazaridan chegaralangan leksika;
 - v) ijtimoiy chegaralangan leksika;
3. Davr nuqtai nazaridan chegaralangan leksika:
 - a) tarixiy so'zlar (istorizmlar);
 - b) eskirgan so'zlar (arxaizmlar);
 - v) yangi so'zlar (neologizmlar).
4. Hududiy nuqtai nazardan chegaralangan leksika: dialektal leksika.
5. Ijtimoiy chegaralangan leksika:
 - a) terminologik leksika;
 - b) kasb-hunar leksikasi;
 - v) jargon va argo;
 - g) vulgarizm va varvarizmlar.
6. Emosional-ekspressiv va uslubiy jihatdan o'zbek tili leksikasi.
7. Xulosa.

Tilning, jumladan, o'zbek tilining, lug'at tarkibidagi lug'aviy birliklar miqdor jihatidan cheksizdir. Ma'lum bir tilda so'zlashuvchi jamoa a'zolari lug'at tarkibidagi barcha so'zlardan barovar foydalanish imkoniyatiga ega emas. U nutq jarayonida zarur bo'lgan so'zlardagina foydalanadi. SHunga ko'ra tilning lug'at tarkibidagi jami so'zlar keng iste'moldagi so'zlar va qo'llanishi doirasi chegaralangan so'zlarga bo'linadi.

Ma'lum bir tilda so'zlashuvchi jamoaning hammasi uchun tushunarli bo'lgan, ularning kundalik turmushida keng qo'llanadigan tilning asosiy lug'at fondi tarkibidagi so'zlar umumiste'moldagi so'zlar deyiladi. Masalan, osh, non, suv, havo, er, osmon, daraxt, meva, yaxshi, yomon, bor, pul, besh, o'n, oh, voy kabi.

Ko'rinadiki, umumistemoldagi so'zlarga:

a) kundalik muomaladagi so'zlardan tashqari, qarindoshlik bildiruvchi, kishi, jonivor, o'simliklarning nomlari va a'zolarini anglatuvchi, ishlab chiqarish qurollari, uy-joy, ro'zg'or asboblari, oziq-ovqat va ularning turlarini nomlovchi otlar;

b) rang-tus, maza-ta'm, hajm-shakl, masofa anglatuvchi sifat va ravishlar;

v) barcha tub sonlar;

g) harakat va holat bildiruvchi tub fe'llar;

d) bog'lovchi vositalar;

e) his-hayajon, sharpa-tovush ifodalovchi til birliklari kiritiladi.

Tilning lug'at tarkibidagi so'zlar faqat shu bilan chegaralanmaydi, kundalik muomalada hamma so'zlar baravar ishtirok etmaydi. Ma'lum bir tilda so'zlashuvchi jamoaning barchasi uchun uqadar tushunarli bo'lmagan, ayrim shaxs va guruhlar tomonidan zaruriy sharoitlardagina qo'llaniladigan so'zlar shu til leksikasining chegaralangan qatlami deyiladi.

Bunday so'zlarni dastlab uch yirik guruhga bo'lish mumkin:

1. Davr nuqtai nazaridan chegaralangan leksika.

2. Hududiy nuqtai nazardan chegaralangan leksika.

3. Ijtimoiy chegaralangan leksika.

Davr nuqtai nazaridan chegaralangan leksika kishilarning kundalik turmushida deyarli qo'llanilmaydigan, faqat zaruriy-sharoitlardagina qo'llanadigan so'zlardir. Bunday so'zlar ham o'z xususiyatlari va qo'llanish doirasi jihatidan 3 ga bo'linadi:

1. Tarixiy so'zlar (istorizmlar).

2. Eskirgan so'zlar (arxaizmlar).

3. Yangi so'zlar (neologizmlar).

Istorizmlar. Til taraqqiyotining ma'lum bir davrida muomalada faol qo'llangan, lekin keyinchalik shu so'z ifodalagan predmet, voqea yoki hodisa o'zining hayotiy faoliyatini to'xtatgach, uni anglatgan so'z ham eskirsa, qo'llanish darajasini susaytirib, yo'qotib, tarixiy so'zga aylanib qoladi. Demak, tarixiy so'zlar o'zi atagan narsa yoki tushuncha iste'moldan chiqib ketganligi bois qo'llanmayotgan leksik qatlamdir. Bu qatlam har bir davrda jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda ʻrozga keladi, kamayib boradi.

Istorizmlar leksik, semantik, frazeologik xarakterga ega bo'ladi.

Eskirib iste'moldan chiqqan, o'z sinonimiga ega bo'lmagan so'zlarga leksik istorizmlar deyiladi: omoch, cho'ri, ʻrozboshi kabi.

Istorizmlar tilning leksik tarkibidan tamoman chiqib ketmaydi, zarur paytda nutqda qo'llanib turadi, lekin eskirganligi, unutilganligi sababli ma'nosi ko'pincha izoh talab qiladi.

Hozirgi o'zbek tili leksikasi tarkibidagi batrak, amin, vasiqa, vaqarnoma, mudarris, charx, kansava, tanob, choriq, quloq kabi so'zlar tarixiy so'zlar - leksik istorizmlardir.

So'z ma'nosi anglatgan narsa, voqea, hodisalar eskirmay, uning ma'nosida yangilanish ʻroz berib, oldingi ma'nosi istemoldan chiqsa, semantik istorizm deyiladi. Arbob-aristokrat, arbob-fan arbobi; saroy-podsho qarorgohi, saroy-san'at saroyi; vazir-podshoning o'rinbosari, vazir-ministr; rais-shayxlar rahnamosi, rais-jamoa xo'jaligi boshlig'i kabi.

Eskirib iste'moldan chiqqan, o'z ekvivalentiga ega bo'lmagan iboralarga frazeologik istorizmlar deyiladi. Masalan, madrasa tuprog'ini yalamoq, tarki dunyo qilmoq holatlari hayotda mavjud bo'lmasa ham, ularning ifodasi tarixiylik sifatida saqlanib qolgan.

Arxaizmlar. Eskirib iste'moldan chiqqan, ammo o'z ekvivalentiga, sinonimiga ega bo'lgan so'zlarga arxaizmlar deyiladi: ulus-xalq, tilmoch-tarjimon, sarf-morfologiya, nahv-sintaksis kabi.

Arxaizmlar ham leksik arxaizmlar, semantik arxaizmlar va frazeologik arxaizmlarga bo'linadi.

Leksik arxaizmda so'zning o'zi eskirib, uning o'rnida xuddi shu ma'noni ifodalovchi yangi so'z hosil bo'ladi. Bunda ba'zan qiziq hodisalar yuz berishi mumkin. Masalan, yaqin vaqtlargacha territoriya so'ziga nisbatan hudud so'zi arxaik edi, hozir, aksincha, zamon o'zgarishi bilan hudud so'zi faollashib, territoriya so'zi arxaiklashmoqda. Buni rayon va tuman so'zlari qiyosida ham kuzatish mumkin.

Pelisemantik so'z ma'nolaridan birining eskirishiga semantik arxaizm deyiladi. Bunda so'z shakli eskirmaydi, balki so'z semalaridan biri eskiradi, qo'llanish doirasi torayadi: paxta, tola, momiq - ko'p ma'noli so'z. Lekin shulardan momiq so'zining hozirgi til uchun paxta ma'nosi eskirgan. Bu holatni ko'pgina polisemantik so'zlarda uchratish mumkin.

Eskirib iste'moldan chiqqan, ammo o'z sinonimiga ega bo'lgan iboralar frazeologik iboralar deyiladi. Masalan, fotiha olmoq, oq fotiha bermoq iborolari hozirgi tildagi ruxsat olmoq, yo'llamoq so'z va iboralarining arxaizmidir.

Bir tomondan qaraganda, arxaizm va istorizmlar bir hodisaga o'xshab ko'rinadi, ularning o'xshashligi har ikkisinin ham eskirganligidadir, lekin ular farqli. Bu farqlar quyidagicha:

1) arxaizmlar hozirda mavjud hodisalarning (muhr-pechat kabi), istorizmlar esa o'tmish narsa-hodisalarning atamasidir: domla-muallim, bekat-to'xtash joyi kabi;

2) arxaizmlarning sinonimi mavjud, istorizmlarning sinonimi yo'q;

3) arxaizmlar ham polinativ, ham uslubiy vazifa bajaradi, istorizmlar esa faqat polinativlikka ega;

4) arxaizmlarning paydo bo'lishi til taraqqiyoti bilan, istorizmlarning paydo bo'lishi esa jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq.

Neologizmlar. Tilda yangi paydo bo'lib, kundalik iste'molda kam qo'llanadigan, hali ommalashmagan so'zlar neologizmlar deyiladi. Bunday so'zlar o'zida yangilik bo'yog'ini saqlagan so'zlardir. Neologizmlar ham odatda jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti natijasida ko'plab maydonga keladi. Hozirgi o'zbek tilida mustaqillik, ozodlik, bozor iqtisodi, menejment, menedjer, tadbirkor, tayyoragoh, bekat, senator, parlament, lizing, tender, brifing kabi so'zlar yangi so'zlardir. Ulardan ba'zilari qisqa davr ichida ommalashib, neologizmlik holatini yo'qotmoqda ham.

Neologizmlar davr o'tishi bilan umumiste'moldagi so'zlarga aylanib, yangilik bo'yog'ini yo'qotadi va neologizmlikdan chiqib ketadi. XX asrda jamiyatdagi o'zgarishlar, sanoat, qishloq xo'jaligi, fan va madaniyat taraqqiyoti bilan yozaga

kelgan ro'zlab yangi so'zlar qisqa davrda neologizmlik xususiyatini yo'qotib, tezda ommalashib ketdi. O'zbek tili taraqqiyotida hozir ham bu jarayon davom etmoqda.

Tilda neologizmlarning paydo bo'lishi jamiyatning ijobiy taraqqiyoti natijasi bo'lib, tilning taraqqiyotiga ham sabab bo'ladi.

Hududiy nuqtai nazardan chegaralangan leksika. Dialektal leksika. Hududiy nuqtai nazardan chegaralangan leksika o'zbek adabiy tili tarkibidagi barcha dialekt va shevalarning adabiy til leksikasi tarkibiga kirmagan, faqat shu dialekt va shevalargagina mansub bo'lgan lug'aviy birliklardir. Demak, ma'lum adabiy til tarqalgan sathning ayrim chegaralangan hududlarida qo'llaniladigan lug'aviy birliklarga dialektizmlar deyiladi.

Masalan: adabiy tilda narvon so'zining turli o'rinlarda (dialektlarda) shoti, bosqich, zangi; do'ppi so'zining kallapo'sh, kalabosh, taqiya; ona so'zining oyi, aya, apa, aja, ena tarzida qo'llanishi dialektizmlardir.

O'zbek adabiy tili tarkibidagi dialektlar, ularning fonetik, leksik-grammatik xususiyatlari, har tomonlama tasnifi XX asr boshlaridan to hozirgacha ko'plab o'zbek dialektolog-tilshunoslari tomonidan mukammal o'rganilgan. O'zbek adabiy tili tarkibidagi dialektlarning xususiyatlari haqida tilshunoslikning maxsus sohasi "Dialektologiya" fani shug'ullanadi.

SHunga qaramasdan, o'zbek adabiy tilining dialektlarga, dialektlarning adabiy tilga munosabati masalasi hali ham ma'lum darajada o'z tadqiqiga muhtoj.

O'zbek tili leksikasida ijtimoiy chegaralangan qatlam. Ijtimoiy nuqtai nazardan chegaralangan qatlamga kiruvchi lug'aviy birliklar o'z-o'zidan ma'lumki, ma'lum bir tilda so'zlashadigan jamoaning barchasi uchun emas, ularning ayrim guruhlarining foydalanish imtiyozi va nutqi uchun xoslangan so'z "to'plam"laridir. Qo'llanish doirasi jihatidan bu qatlamga kiritiladigan lug'aviy birliklarni o'ta chegaralangan qatlam ham deb atash mumkin, chunki bo'sozlardan asosan ilm-fan, kasb-hunarning ayrim sohalari bilan shug'ullanadigan shaxslar foydalanadi. Bu qatlamdagi lug'aviy birliklar quyidagicha guruhlanadi:

1. Terminologik leksika.

2. Kasb-hunar leksikasi.

3. Jargon va varvarizmlar.

Termin va terminologiya. O'z emosional-ekspressiv bo'yog'iga ega bo'lmagan, faqat bir tushunchaning jami sifatida qo'llanadigan, ijtimoiy nuqtai nazardan chegaralangan leksik qatlamga termin, terminlar haqidagi fan tarmog'iga terminologiya deyiladi.

Termin o'z sohasida faqat bir tushunchaga teng leksik ma'nosiga ega bo'lgan lug'aviy birlik - so'zdir. Demak, terminlar aslini olganda mustaqil ma'noli so'z, lekin har qanday so'z termin bo'la olmaydi, terminlar ma'lum bitta tushunchani anglatish ko'zda tutilgan holda so'zlar ichidan tanlab olinadi, ma'lum sohaga xoslantiriladi. SHunday bo'lishiga qaramasdan, so'z va termin bir-biridan farqli bu farqlar quyidagicha:

1. Terminning ma'nosi hamma vaqt tushunchaga teng keladi. So'zning ma'nosi ham tushuncha bildiradi, lekin u o'z ma'nosidan tashqari qo'shimcha ma'noga ham ega bo'ladi. Qo'shimcha ma'no termin uchun xos emas, bu narsa uni so'zdan farqlaydi.

2. Termining leksik ma'nosi har vaqt tushuncha anglatadi, so'zning ma'nosi tushuncha anglatmasligi ham mumkin. Masalan, atoqli otlarning leksik ma'nosi tushunchaga asoslangan emas.

3. Termining ma'nosi aniq tushunchaga asoslanadi, so'zda bunday bo'lishi shart emas, uning ma'nosi mavhum tushuncha asosida ham shakllanishi mumkin, masalan, olmoshlarda shunday.

4. So'z ko'pincha o'z sinonimiga ega bo'ladi, terminda bu mumkin emas. Agar terminda ham bir tushuncha ikki so'z bilan ifodalansa, bu bir paytda ikki qoshiq bilan ovqatlanishdek gap.

5. So'zda omonimlik mavjud, terminda bu mumkin emas.

6. Terminlar birikmali ham bo'lishi mumkin (tepkili terlama, erkin vazn, kvadrat ildiz, so'z birikmasi kabi), bu so'zga xos emas.

7. Termin tayyor so'z vositasida shaxslar tomonidan yaratiladi, so'zning shakllanishi til taraqqiyoti bilan bog'liq.

Professionalizmlar ham termin hisoblanadi, chunki har bir kasb egasi nutqida ishlatiladigan, shu kasbning o'ziga xos atamalar shu kasbning terminidir. Lekin professionalizmida hududiy chegaralanishi ham mavjud: qizamiq, qizilcha; ega, kesim; qo'shuv, oluv kabi.

Argo. Ma'lum soha guruhlari tomonidan qo'llanib, boshqalar uchun sir tutiladigan terminlarga argo deyiladi: pul otarchi uchun yakan, poraxo'r uchun qurug'i, o'g'rilar uchun loy; tomog'ini silab qo'ymoq-o'ldirmoq, sotib olmoq - o'g'irlamoq kabi.

Jargon. Jamiyatdagi tabaqalanish bo'yicha roz beradigan terminlarga jargon deyiladi: oqsurok, yalangoyoq, qoracha, xo'ja, taqsir, janob va boshqalar.

Vulgarizm va varvarizmlar. Vulgarizm adabiy tilda ishlatilmaydigan, dag'al, qo'pol, haqorat so'z va iboralardir. Vulgarizm iononcha oddiy xalqqa oid demakdir: itvachcha, hayvon, eshshak, oqpadar, padar la'nat, haromi kabi.

Varvarizm - ona tiliga o'zlashmagan, o'zga til hodisasi sifatida qo'llanuvchi so'z va iboralardir. Varvarizm lotincha ajnabiy demakdir: madam, paxan, maxan, bratan, chao, Zuli (Zulayho), Muhi (Muhayyo) va boshqalar.

Emosional-ekspressiv va uslubiy jihatdan o'zbek tili leksikasi. Leksikadagi ba'zi so'zlar:

1) ayrim so'zlar bir ma'noni ifodalashdan tashqari, qo'shimcha emosional-ekspressiv ma'noga ega bo'ladi: bo'sh-lavang, latta; novcha-naynov kabi;

2) so'zlovchi har qanday leksik birlikni o'zi kuzatgan kommunikativ maqsaddan (fikrni ifodali, kinoyali, ta'sirli qilish) kelib chiqib, tanlab ishlatadi. SHunga ko'ra so'zlar ma'lum nutq turi - vazifaviy uslubga xoslangan bo'ladi: emoq-tushirmoq, ichmoq-otmoq kabi. So'z qo'llashning uslubi, turlari ham ko'p, bu - tilshunoslikning maxsus sahasi bo'lgan "Uslubshunoslik" fanida maxsus o'rganiladi va o'rganiladi.

Nutq jarayonida so'zlovchining aytilayotgan fikrga ijobiy yo salbiy munosabatini anglatishga xoslangan leksikaga emosional-ekspressiv leksika deb roritiladi.

Tillar o'zoro nutqiy aloqa jarayonida faqat fikr almashish bilangina chegaralanib qolmasdan, balki borliqdagi turli vaqea va hodisalarga so'zlar orqali o'z munosabatini ham bildiradi. Lekin tildagi hamma so'zlar ham kishining muloqot

jurayonidagi g‘azab, nafrat, achinish, erkalash, kinoya kabi kayfiyatlarini ifodalash xususiyatga ega emas.

Ma’lumki, emosional-ekspressiv bo‘yoqsiz so‘zlar kishilarning kundalik muomalasida qo‘llanuvchi so‘zlar bo‘lib, ular aynan shu qo‘llanishda qo‘shimcha ma’nolarga ega bo‘lmaydi: roz, bet, katta, kichik, chiroyli, yaxshi kabi. Ekspressiv-emosional bo‘yoqli so‘zlar esa narsa va predmet, voqea va hodisa, belgi va xususiyat, harakat va holat kabi tushunchalarning nomini atash bilan birga shu narsa va hodisalarga so‘zlovchining bahosini, turlicha munosabatini ham bildiradi. Masalan, bet so‘zi o‘rnida oraz, chehra, turq; katta so‘zi o‘rnida ulkan, burok so‘zlarining qo‘llanilishi bet, katta so‘zilariga boshqacha rang, bo‘yoq beradi.

Tilda ekspressiv-emosional bo‘yoq turli usullar bilan ro‘yobga chiqarilishi mumkin:

a) fonetik usul bilan: ko‘zing-ko‘zzing, eshak-eshshak; qars etmoq - qa-a-ars etmoq kabi;

b) leksik-semantik usul bilan: azamat, loabar, dildor, ketvorgan; surbet, makkor, iflos, benomus kabi;

1) metaforik yo‘l bilan: eshak, tulki, bo‘ri, xo‘roz kabi.

2) morfologik yo‘l bilan: yaxshigina, bo‘taloqginam, bolajon, asalim kabi;

3) sintatik usul bilan: tog‘-tog‘ (xirmon), iuksak-iuksak (binolar) va boshqalar.

Asosiy adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O‘zME, 2013.

2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.

4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Jamolxonov H. O‘zbek tilining nazariy fonetikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan, 2009.

2. Ne‘matov H, Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.

3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. –T. 2006.

4. Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti Toshkent-2010.

5. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфологияси. –Т., 1992

**13-modul. O'ZBEK TILIDA BARQAROR BIRIKMALAR:
FRAZELOGIYA. FRAZELOGIYA HAQIDA UMUMIY
MA'LUMOT FRAZELOGIK MONOSEMIYA VA POLISEMIYA**

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti-2 soat	Talabalarning soni: 40-45 kishi
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza (ommaviy, jamoaviy, juftlikda ishlash)
Mashg'ulot rejasi.	<p>Mavzuning mazmun mundarijasi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Frazzeologiya tilshunoslikning frazemalar haqidagi bo'limi ekanligi. 2. Frazema – ko'chma ma'noli turg'un konstruksiya. 3. Frazemaning ifoda plani (tashqi tomoni, tuzilishi). 4. Frazemaning mazmun plani (ichki tomoni). 5. Frazemalarning so'z turkumlari bo'yicha guruhlanishi <p>6.2-mavzuning mazmun mundarijasi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Frazzeologik monosemiya. 2. Frazzeologik polisemiya. 3. Frazzeologik polisemiyaning ma'no ko'chish qonuniyatlariga asoslanishi. 4. Frazemalarning semantik turlari: <ol style="list-style-type: none"> a) frazeologik butunliklar; b) frazeologik chatishmalar.
Oquv mashg'ulotining maqsadi: Yuqoridagi reja asosida mavzuni mustahkamlash, talabalarning bilimini oshirish.	
Pedagogik vazifalar: <ul style="list-style-type: none"> • Mavzuning mazmun mundarijasini eslatish; • Mavzuni mustahkamlash maqsadida savol-javob o'tkazish; • Tayanch tushunchalar ustida ishlash; • Ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar vositasida talabalar bilimini, ularning fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish. 	O'quv faoliyati natijalari : <ul style="list-style-type: none"> • Talaba yangi mavzuning mazmun mundarijasini eshitadi, bu mavzularga oid bilimini mustahkamlaydi; • Talabalarning bilim darajasi, tahlil ko'nikmalari aniqlanadi, baholanadi.
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali, ma'lumotli, trening, jamoada ishlash.
Ta'lim berish shakllari va metodlari	Og'zaki, yozma, ko'rgazmali, kitob bilan ishlash, aqliy hujum, kalit so'zlar, semik tahlil metodlari.
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanmalari, savolnomalar, tarqatma materiallar, proyektor, doska, audevizual vositalar
Ta'lim berish sharoiti	Hamkorlikda ishlash va taqdimotlarni amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob, suhbat, matn tahlili.

MA'RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Bosqichlar ularning vaqti	va	Faoliyat mazmuni
----------------------------------	-----------	-------------------------

	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Kirish (10 daqiqa)	1.1. Darsga nisbatan talabalarning motivatsiyasini shakllantiradi.	1.1. Fikrlarini jamlaydi va darsga tayyorlanadi.
2-bosqich Asosiy qism (60 daqiqa)	Frazeologiya, frazeologik monosemiya va polisemiya, frazemalarning semantik turlari, frazemalarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari haqida umumiy ma'lumot beradi	2.1. Yangi mavzuni eshitadi, mavzuga oid ma'lumotlarni eshitadi, tushunadi, biladi va ularni sistemalashtiradi. 2.2. Mavzu yuzasidan savollar beradi. 2.3. Javoblarni to'ldiradi.
3-bosqich Yukuniy qism (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, xulosalaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rahbatlantiradi.	3.1. O'z-o'zini baholaydi.

Adabiyotlar: 2[216-226], 3 [82-88], 5 418[418-446].

Reja

1. Frazeologiya tilshunoslikning frazemalar haqidagi bo'limi ekanligi.
2. Frazema – ko'chma ma'noli turg'un konstruksiya.
3. Frazemaning ifoda plani (tashqi tomoni, tuzilishi).
4. Frazemaning mazmun plani (ichki tomoni).
5. Frazemalarning so'z turkumlari bo'yicha guruhlanishi
6. Frazeologik monosemiya.
7. Frazeologik polisemiya.
8. Frazeologik polisemiyaning ma'no ko'chish qonuniyatlariga asoslanishi.
9. Frazemalarning semantik turlari:
 - a) frazeologik butunliklar;
 - b) frazeologik chatishmalar.

Tayanch so'zlarning o'zbekcha - inglizcha-ruscha lug'ati

O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Frazeologiya	Phraseology	Фразеология
Frazema	Expression	Выражение
Frazeologik birlik	Phraseological unit	Фразеологическая единица
Frazeologik monosemiya	Phraseological monosemiy	Фразеологическая моносемиа
Frazeologik polisemiya	Phraseological polisemiya	Фразеологическая полисемиа

Frazeologiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi.

Frazema ko'chma ma'noli turg'un konstruksiyadir. Masalan, *zo'raymoq* (leksema) – *avj olmoq* (frazema), *qiynalmoq* (leksema) - *azob chekmoq* (frazema)

kabi. Demak, frazema ham leksema kabi lug'aviy birlik sanalsdi, ammo o'zining ifoda va mazmun planlaridagi qator belgilari bilan leksemalardan farqlanadi.

Frazemaning ifoda plani

Frazemaning ifoda plani deganda uning tovush tomoni, leksik tarkibi, birikmaga yoki gapga teng konstruksiyasi nazarda tutiladi. Masalan: *ko'ngulni olmoq* (birikmaga teng), *ko'zlari qinidan chiqib ketdi* (gapga teng), *boshi qotdi* (gapga teng), *ensasi qotdi* (gapga teng) kabi. Frazemalar orasida qo'shma gapga teng qurilishli turg'un konstruksiyalar ham uchraydi: "*qor yog'ib, izlar bosildi*" kabi. Frazemalar tarkibidagi so'zlarning bog'lanishi erkin birikma yoki gap tarkibidagi so'zlarning bog'lanishidan farq qilmaydi: ularning barchasida so'zlar tobelanish asosida bog'lanadi, biroq: a) erkin birikmadagi yoki gapdagi bog'lanish nutq jarayonida, nutq bilan bir paytda sodir bo'ladi; frazemadagi bog'lanish esa nutq paytidan ancha avval yuzaga kelib, turg'unlashib qoladi, inson xotirasida va tilda yaxlitligicha saqlanadi; b) erkin birikmadagi yoki gapdagi so'zlarni so'zlovchi o'z ixtiyori bilan almashtira oladi: "*keng ko'cha*" birikmasi o'rnida "*tor ko'cha*" birikmasini, "*men o'qiyman*" gapi o'rnida "*men ishlayman*" gapini qo'llashi mumkin, ammo "*yulduzni benarvon urmoq*" birikmasi o'rnida "*yulduzni narvonsiz urmoq*", "*yulduzni shotisiz urmoq*", "*yulduzni beshoti urmoq*" birikmalari qo'llanmaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, har qanday turg'un birikma frazema bo'lavermaydi. Masalan, *Birlashgan Millatlar Tashkiloti* birikmasi turg'un konstruksiyadir, ammo to'g'ri ma'noli turg'un konstruksiya bo'lganligidan frazema hisoblanmaydi. Frazema yaxlit holda ko'chma ma'no ifodalashi shart.

Frazemalarning ifoda planida leksemalardan tashqari, yordamchi so'zlar (ko'makchilar) va turli forma yasovchi morfemalar qatnashishi mumkin. Masalan, *ochiq yuz bilan* (bu frazemaning ifoda planida "*bilan*" ko'makchisi qatnashgan), *dam olmoq* (bu frazemaning ifoda planida "*-moq*" morfemasi ishtirok etgan). Keltirilgan misollarda ko'makchi va affiksial morfema frazemalarning doimiy belgilari hisoblanadi, chunki ular shu frazemalarning ichki Grammatik qirilishiga mansubdir, ammo *dam oldim*, *dam olgin*, *dam*

Frazemalarning semantik tarkibidagi turkum semalari

Bu semalar frazeologik ma'noga tayanadi. Masalan: *aravani quruq olib qochmoq* (fe'l frazema), *arpasini xom o'rmoq* (fe'l frazema), *ammamning buzog'iday* (sifat frazema), *bag'ri qattiq* (sifat frazema), *bir og'iz* (avish frazema), *bir og'izdan* (ravish frazema), *to'rt ko'z bilan* (ravish frazema), *tomdan tarasha tushganday* (ravish frazema) kabi.

FRAZELOGIK MONOSEMIYA VA POLISEMIYA. FRAZEMALARNING SEMANTIK TURLARI

Adabiyotlar: 2[219-221], 3 [85-86], 5 [428-435]

Frazeologik monosemiya

Frazeologik monosemiya - frazemaning semantik tarkibida bitta frazeologik ma'noning bo'lishi. Chunonchi, *ko'ngilga qo'l solmoq* frazemasining semantik tarkibida "yashirin fikr - o'yni bilishga harakat qilmoq" ma'nosidan boshqa frazeologik ma'no yo'q: "*Rizaning yuragiga qo'lsolib ko'rgan Muhiddin uning*

javobidan xursand bo'ldi." (R.F.). "Kechagi ishdan maqsadim u yerdagi butunlarning ko'ngliga qo'l solib ko'rish, undan keyin o'zimga ba'zi bir talonchilroqlarini tanlab olish edi." (S.Z.). keltirilgan gaplarning birinchisida ko'ngliga qo'l solmoq frazemasining variatsiyasi - "yuragiga qo'l solib ko'rmoq" talqinlangan, har ikki holda ham bitta frazeologik ma'no - "yashiri fikr-o'yini bilishga harakat qilmoq" nazarda tutilgan.

Frazeologik polisemiya

Frazeologik polisemiya – frazemaning semantik tarkibida ikki yoki undan ortiq frazeologik ma'noning bo'lishi. Masalan: *boshi(m) aylandi* frazemasining semantik tarkibida ikkita frazeologik ma'no bor: 1) "Behud bo'lmoq" ma'nosi: *stol yoniga kelguncha uning boshi aylanib ketdi. "Muncha darmonsiz bo'lmasam", - ayyladi u".* (S.Z.); 2) "Esankiramoq" ma'nosi: "... *muloyim qarab qo'yishlarini, ... o'ylamayib gapirishlarini sezardim, buning hammasidan boshim aylanardi".* (O. Yo.). Leksemalarda bo'lganidrak, frazemalarda ham polisemiya hodisasi ma'no ko'chish qonuniyatlariga asoslanadi.

Frazemalarning semantik turlari

Frazeologik butunlik.

Bunday frazemaning umumlashgan ko'chma ma'nosi frazema tarkibidagi leksemalar ma'nosi bilan izohlanadi. Masalan, *tepa sochi tikka bo'lmoq* frazemasini yaxlit holda "g'azablanmoq" ma'nosini – umumlashgan ko'chma anglatadi. Bunday ko'chma ma'noga esa kishi darg'azab bo'lganida uning badanidagi tuklarning sezilar-sezilmas harakatga kelishi (psixo-fiziologik holat) asos bo'lga, demak, frazemaning ko'chma ma'nosini frazemaning tarkibidagi so'zlarning o'zaro ma'nolari bilan izohlash mumkin. Y a n a: *Ona suti og'zida* frazemasini yaxlit holda "hali yosh", "tajribasiz" ma'nosini anglatadi, bunday ko'chma ma'noni esa frazema tarkibidagi so'zlar ma'nosi bilan izohlash mumkin: "*Mahmadona, shumsan-da. Ona suting og'zingda-yu, soqolimning oqiga qaramay oql o'rgataman deysan".* (O.).

Frazeologik chatishma.

Bunday frazema ifodalagan ko'chma ma'no frazema tarkibidagi so'zlar anglatgan leksik ma'nolar bilan izohlanmaydi. Masalan, *ikki qo'lini burniga tiqib* frazemasini "quruqdan quruq, evaziga hech narsa olmay" ma'nosini ifodalaydi, bu ma'noni frazema tarkibidagi so'zlarning ma'nolari bilan izohlab bo'lmaydi: "*Kelmagundan keyin, domlaga "ozodlik" olish kerak-da. Bu bo'lsa shumshayib, ikki qo'lini burniga tiqib keldi".* (P.T.) "...*Senga ish yo'q!*" – *deb, bizni quvib yubordi. Katta o'g'lim bilan ikki qo'limizni burnimizga suqib uyimizga bordik".* (S.A)

Frazeologik butunlik bilan frazeologik chatishma orasida ma'lim umumiylik va tafovutlar bor. Ularni quyidagicha izohlash mumkin:

Umumiylik:

1) ikkalasi ham turg'un konstruksiya sanaladi; 2) ikkalasida ham umumiy lashgan yaxlit bir ma'no (ko'chma ma'no) ifodalanadi; 3) ikkalasida ham uslubiy bo'yoq (uslubiy sema) bo'ladi, chunki frazemalarning barchasivoqelikni nomlash bilan cheklanmaydi, uni bahulash xususiyatiga ham ega; 4) ikkalasi ham nutqda yaxlit holda bitta sintaktik vazifada qo'llanadi.

Farqlari:

1) Frazeologik butunlik tarkibidagi so'zlarning manolari frazemaning ko'chma ma'nosini izohlaydi. Frazeologik chatishmada esa so'zlar ma'nosi bilan frazema ma'nosi (frazeologik ma'no) o'rtasida bunday aloqa yo'q; 2) frazeologik butunlikning ma'nosida ichki obraz saqlanadi: tarkibidagi so'zlarga xos ma'nolar sezilib turganligidan frazemaning ma'nosi ko'p qirrali, boy bo'ladi. Frazeologik chatishma ma'nosining gavdalanishida esa frazema tarkibidagi so'zlarning ma'nolari ishtirok etmaydi, shuning uchun unda ichki obraz so'ngan

FRAZEMALARNING SEMANTIK TURLARI. FRAZEMALARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATLARIGA KO'RA TURLARI.

FRAZEMALARNING ISHLATILISH DOIRASI VA ZAMONAVIYLIGI

Frazemalarning shakl munosabatiga ko'ra turlari

Frazemalarning shakl munosabati asosida frazeologik omonimiya va frazeologik paronimiya yuzaga keladi:

1. Frazeologik omonimiya frazemalarning ifoda planidagi (shakldagi, tuzilishdagi) tenglik hodisasidir.

Q i y o s q i l i n: 1. jon bermog – “barhayot qilmoq”:... Odamzodga jon bergan ham, jonini oladigan ham yaratganning o'zi (P. T.)


2. Jon bermog - “o'lmoq”, “so'nggi marta nafas chiqarmoq”: Semiz va hamisha yurak kasalidan qiynalib yurgan xotin arava ustida yulduz to'la osmanga termilib jon berdi. (Sh. R.) Y a n a: 1. Ustidan chiqmoq – “Biror narsa qilinayotganda tepasiga borib qolmoq”: Qaynanangiz rosa sevar ekan, rais, - dedi Ro'zi polvon hazil aralash, - ovqatning ustidan chiqdingiz (Sh.R). 2. Ustidan chiqmoq - “Bajarmoq”: Demak, Hakimov telefonda bergan so'zining ustidan chiqibdi (P. Q.).

Shaklan teng bo'lgan frazemalar tilshunoslikda *omofrazemalar* deb nomlanadi.

Erkin birikma bilan frazema (turg'un birikma) o'rtasidagi shakiliy tenglik hodisasi frazeologik omonimiya emas, *frazeologik omonimlik* sanaladi. Demak, bunday holatlarda “Omonimiya” va “omonimlik” atamaları o'zaro farqlanadi. Chunonchi: 1) *Ko'z yummoq* – (erkin birikma) – “Ko'zini yumibolmoq” ma'nosida;

2) *Ko'z yummoq* (turg'un birikma, frazema) – “ko'ra bila turib e'tiborsiz qoldirmoq” ma'nosida; 3) *ko'z yummoq* (turg'un birikma, frazema) – “vafot etmoq” ma'nosida. Keltirilgan misollarning birinchi va ikkinchisida erkin va turg'un biikmalar, ikkinchi va uchinchisida esa turg'un birikmalar (frazemalar) o'rtasida shakily tenglik orligini ko'ramiz. Birinchi va ikkinchi misollardagi shakliy tenglik omonimlik sirasiga, ikkinchi va uchinchi misollardagi shakliy tenglik esa omonimiya sirasiga kiradi.

2. Frazeologik paronimiya - tarkibidagi biror leksik komponent bilangina farq qiluvchi frazemalar. Bunday leksik komponentlar bir-biriga o'xshash bo'lishi kerak: 1) *Yetti uxlab tushiga kirmaslik* - “mutlaqo o'ylamaslik, kutmaslik”. 2) *Yetti uxlab tushida ham ko'rmaslik* – “hech qachon ko'rmaslik kabi. Bu ikki frazemaning tarkibidagi “kirmaslik” va ko'rmaslik” so'zlari talaffuzida (ma'nisida emas, albatta) o'xshashlik bor, bunday frazemalar tilshunoslikda parafrazemalar deb nomlanadi [27-142].



Frazemalarning ma'no munosabatlariga ko'ra turlari

Bunday munosabat asosida frazeologik sinonimiya va frazeologik antonimiya hodisalari yuzaga keladi.

1. Frazeologik sinonimiya bir necha frazemaning bitta frazeologik ma'no atrofida birlashishidir. Masalan: 1) *pixini yorgan* – “ayyor”, 2) *ilonning yig'ini yalagan* – “ayyor” kabi. Yana: 1) *yer bilan osmoncha* – “Juda katta farq”, 2) *ot bilan tuyacha* – “Juda katta farq” kabi.

Leksik sinonimiyada bo'lganidek, frazeologik sinonimiyada ham sinonimik qatorlar yuzaga keladi: birinchi misoldagi *pixini yorgan* va *ilonnig yog'ini yalagan* frazemalari “ayyor” ma'nosi bilan bitta sinonimik qatorni; ikkinchi misoldagi *yer bilan osmoncha* va *ot bilan tuyacha* frazemalari esa “juda katta farq” ma'nosi bilan bir sinonimik qatorni hosil qilmoqda.

Frazeologik sinonimlarda uslubiy bo'yoq, odatda bo'rtib turadi. Aslida, frazeologik birliklar (frazemalar) xuddi shu maqsadda – voqelikni nomlashda uni o'tkir baholab berish uchun, shu voqelikka ijobiy yoki salbiy ifodalash uchun yaratiladi, shuning uchun ular nutqning ta'sirchan, obrazli bo'lishini ta'minlovchi muhim uslubiy vosita sanaladi. Misollar: 1) *Bunga Botirning achchag'i keldi, buni Bo'ston sezdi.* (S. N.). 2) *Keyingi nasihatimiz gapi qonini qaynatib yubordi.* (S. Ay.).

Frazeologik sinonimiya hodisasi ko'proq har bir tilning o'z frazemalari doirasida uchraydi: *Qlidan quyrug'igacha.* – *Ipidan ignasigacha;* *Quvonchi olamga sig'maydi.* – *Sevinchi ichiga sig'maydi* kabi. Boshqa tildan frazema o'zlashtirish juda passiv bo'lganligidan, o'zlashma iboralarning frazeologik sinonimiya doirasiga tortilishi juda kam uchraydi.

Frazeologik sinonimiya hodisasini *frazeologik variatsiyadan* farqlash kerak;

frazeologiksinonimiyada bir necha frazema bir ma'no atrofida birlashadi, demak, bitta sinonimik qatorni hosil qiladi; frazeologik variatsiyada esa bitta frazemaning ichki ko'rinishlari nazarda tutiladi, bunday ko'rinishlar sinonimik qatorni hosil qilmaydi. Masalan: 1) *ko'zini yummoq*; 2) *bandalikni bajo keltirmoq*; 3) *jon bermoq*. Bu uch frazema bitta ma'noni – "vafot etmoq" ni bildiradi, shunga ko'ra bitta sinonimik qatorga birlashadi. *Qo'lini bigiz qilmoq* va *barmog'ini bigiz qilmoq* qo'shilmalari esa ikkita frazema emas: ular bitta frazemaning ikkita ko'rinishi, xolos. Bu frazema tarkibidagi "qo'l" va "barmoq" so'zlari o'rtasida sinekdoxa yo'li bilan ma'no ko'chishi (butun va qism munosabati) bor, bu hol "qo'l" so'zi o'rnida "barmoq" so'zining qo'llanishiga yo'l ochgan, ammo bir frazema o'rnida butunlay boshqa frazema yuzaga kelmagan, shunga ko'ra ular bitta frazemaning ichki ko'rinishlari – variatsiyalari sanaladi. Demak, variatsiyalar bir obrazga asoslanadi. Yana misollar: *Kiprik qoqmaslik*. – *Mijja qoqmaslik* (bir frazemaning ikki varianti. Chunki "kiprik" va "mijja" so'zlarida bir obraz mujassam).

Ba'zan leksema bilan frazema bir sinonimik qatorga birlashadi: *qaramoq* (leksema) – *ko'z qirini tashlamoq* (frazema), *xursand* (leksema) – *boshi osmonda* (frazema) kabi. Bular leksik-frazeologik sinonimlardir. Leksik-frazeologik sinonimlar qatorida leksema dominanta sanaladi. Demak, lug'aviy sinonimlar uch xil bo'ladi: 1) leksik sinonimlar (sinonimik qatorda faqat so'zlar birlashadi); 2) frazeologik sinonimlar (sinonimik qatorda faqat frazemalar birlashadi); 3) leksik-frazeologik sinonimlar (sinonimik qatorda so'z va frazemalar birlashadi).

2. Frazeologik antonimiya ikki frazemaning o'zaro zid ma'no ifodalashidir: *oshig'i olchi* va *ishi o'ngidan kelmaslik*; *boshi ko'kka yetmoq* va *fig'oni falakka chiqmoq* kabi.

Antonimiya hodisasi ikki frazema o'rtasidagina emas, leksema bilan frazema o'rtasida ham yuzaga kelishi mumkin: *xursand* (leksema) – *dili siyoh* (frazema), *landavur* (leksema) – *yulduzni benarvon uradigan* (frazema) kabi. Bular lug'aviy antonimlarning leksik-frazeologik turi sanaladi. Demak, lug'aviy birliklar o'zaro zid ma'no anglatishiga ko'ra leksi antonimlar (so'z bilan so'z o'rtasida), frazeologik antonimlar (frazema bilan frazema o'rtasida) va leksik-frazeologik antonimlar (so'z bilan frazema o'rtasida) kabi mikrosistemalarni hosil qilishlari mumkin.

Tekshirish savollari va topshiriqlar

1. Frazema nima?
2. Frazemaning ifoda planini qanday tushunasiz?
3. Frazeologik monosemiya va polisemiya hodisalari qanday farqlanadi?
4. Frazemalar erkin birikmalardan va to'g'ri ma'noli turg'un birikmalardan qanday farqlanadi?
5. Frazemaning mazmun plani haqida ma'lumot bering.
6. Frazeologik ma'no nima? U leksik ma'nodan nimasi bilan farqlanadi?
7. Frazemalardan nutqda qanday maqsadlarda foydalaniladi?
8. Frazemaning qanday semantik turlari bor?
9. Frazemalarning shakl munosabatini qanday tushunasiz? Ma'no munosabatini-chi?
10. Frazeologik omonimiya va frazeologik paronimiya qanday farqlanadi?
11. Frazeologik sinonimiya va frazeologik variatsiyaning farqlarini tushun-

tiring.

12. Frazeologik antonimlar haqida ma'lumot bering.

Asosiy adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'zME, 2013.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Т., 1994.
2. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2009.
3. Ne'matov H, Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –Т. 2006.
5. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti Toshkent-2010.
6. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфологияси. –Т., 1992

14-modul. O'ZBEK LEKSIKOGRAFIYASI

Reja:

1. Leksikografiya haqida umumiy ma'lumot.

2. Lug'atlarning asosiy tiplari.

a) qomusiy va lingvistik lug'atlar;

b) umumiy va maxsus lug'atlar;

v) tarjima va o'z tili (bir tilli) lug'atlar.

3. Terminologik lug'atlar.

4. O'zbek leksikografiyasi va o'zbek lug'atlari.

Tayanch tushunchalar: leksikografiya, ensiklopedik va lisoniy lug'atlar, umumiy va xususiy (maxsus) lug'atlar, izohli lug'atlar, bir tilli lug'atlar, ikki tilli va ko'p tilli tarjima lug'atlari, izohli lug'at, imlo lug'ati, lug'at maqolalari.

1. Leksikografiya haqida umumiy ma'lumot.

Tilimizdagi so'zlarning alifbo tartibida joylashtirilishiga lug'at, lug'at tuzish qoidalarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limiga *leksikografiya* deyiladi. Leksikografiya yunoncha "so'zlarni yozaman" demakdir.

Tilshunoslikning lug'at tuzish masalalarini ilmiy tadqiq qiluvchi va lug'at tuzish bilan shug'ullanuvchi sohasi leksikografiya (gr.lexikos-co'z, so'zga oid va grapho-yozaman) yoki lug'atchilik deyiladi. Maqsad va vazifasiga ko'ra leksikografiya ikkiga bo'linadi:

a) ilmiy leksikografiya lug'atchilikning nazariy masalasi bilan shug'ullanadi;

b) amaliy leksikografiya bevosita lugʻat tuzish ishi bilan mashgʻul boʻladi. Leksikografiya muhim ijtimoiy vazifani bajaradi. Bular quyidagilarda koʻzga tashlanadi:

- 1) ona tilini va boshqa tillarni oʻrgatish;
- 2) ona tilini tasvirlash va meʼyorlashtirish;
- 3) tillararo munosabatlarni taʼminlash;
 - 1) til leksikasini ilmiy tekshirish va talqin qilish.

2. Lugʻatlarning asosiy tiplari.

Koʻzlangan maqsad jihatidan lugʻatlar 2 xil boʻladi:

1. *Ensiklopedik - qomusiy lugʻatlar.*

2. *Lingvistik lugʻatlar.*

Bu lugʻatlar oʻzaro farqlanadi.

Qomusiy lugʻatlarda narsa, hodisa, tushuncha, shaxs haqida maʼlumotlar qayd etiladi. Lingvistik lugʻatlarda barcha mustaqil va yordamchi soʻzlar qayd etiladi.

Qomusiy lugʻatlar xarakteriga koʻra 2 ga boʻlinadi:

1. *Umumxarakterdagi qomuslar:* Oʻzbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi.

2. *Maxsus qomuslar:* Meditsina ensiklopediyasi, Adabiyotshunoslik ensiklopediyasi.

Lingvistik lugʻatlar ham bir necha turli boʻladi:

1. Izohli lugʻatlar
2. Bir tilli lugʻatlar
3. Ikki tilli tarjima lugʻatlar
4. Koʻp tilli tarjima lugʻatlari.

Tildagi barcha soʻzlarning qanday maʼnolarni bildirishini tanishtiruvchi lugʻat *izohli lugʻat* hisoblanadi.

Bir tildagi soʻz ikkinchi tilda qanday soʻzga teng kelishini koʻrsatuvchi lugʻat *tarjima lugʻati* sanaladi.

Soʻzlarning toʻgʻri yozilishini koʻrsatuvchi lugʻatga *imlo lugʻati* deyiladi.

Lugʻat oldiga qoʻyilgan maqsadiga koʻra bir necha turlarga boʻlinadi: izohli lugʻat, tarjima lugʻati, imlo lugʻati va boshqalar.

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da 65.000 ga yaqin soʻz joylashgan. Ikki jildli «Ruscha-oʻzbekcha lugʻat» (1983) esa 80.000 ga yaqin soʻzga izoh bergan. 1950-1955 yillar davomida nashr etilgan “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” (besh jildlik) oʻz ichiga 80.000 ga soʻzni olgan. “Oʻzbek tilining imlo lugʻat”larida 10.000 dan 65.000 gacha soʻzning qanday yozilishi yuzasidan izoh beriladi. 1976 yilda nashr etilgan “Oʻzbek tilining imlo lugʻat” ida 65.000 soʻzning qanday yozilishi haqida maʼlumot bor. Oʻquvchilar uchun chiqarilgan maxsus imlo lugʻatida 17.000 soʻzning toʻgʻri yozilishi berilgan. A.Navoiy asarlari boʻyicha E.Fozilov rahbarligida tuzilgan lugʻatda 70.000 ga yaqin soʻz, P.Shamsiev va S.Ibrohimovlar tuzgan lugʻatda 60.000 ga yaqin soʻzlar yozilishi koʻrsatilgan.

Oʻzbek tilidagi soʻzlarning barchasi toʻplansa, 100-120 mingdan ortib ketadi.

Oʻzbek tilshunosligi leksikografiya sohasida juda katta tarixga ega. Lekin oʻrta asr leksikografiyasida koʻproq eʼtibor izohli va tarjima lugʻatlarga

qaratilgan edi. XX asrning 40-yillaridan boshlab leksikografiya yo'nalishlari ham kengaydi. Lug'atning yangi-yangi turlari: qomusiy, imlo, orfoepik, morfem, mustotali, ters, frazeologik, dialektal lug'atlar paydo bo'ldi.

Ilgari yaratilgan izohli lug'atlar ko'proq ayrim mualliflarning, xususan, Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan so'zlarni izohlashga qaratilgan bo'lsa, 40-yillardan boshlab leksikografiya tilshunoslikning alohida tarmog'i sifatida shakllanishi natijasida uning xilma-xil turlari maydonga keldi. Umumiy va xususiy izohli lug'atlar paydo bo'ldi.

40-50-yillarda nashr etilgan lug'atlarni asosan beshta guruhga bo'lib ko'rsatish mumkin:

1. Imlo lug'atlari.
2. Terminologik lug'atlar.
3. O'zbekcha-ruscha, ruscha-o'zbekcha lug'atlar.
4. Ruscha-o'zbekcha lug'atlar.
5. O'zbek mumtoz adabiyoti asarlari uun qisqacha lug'at.

Imlo lug'atlari

Imlo lug'ati bir tilning so'z boyligi asosida tuziladi, imlo jihatidan xarakterli bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi, alfavit tartibi asosida tuziladi, so'zlarning standart shaklini – to'g'ri yozilishini belgilab berish uchun xizmat qiladi. O'zbek tilining orfografik lug'ati o'zbek tili lug'at boyligidagi so'zlarning bir xil shaklda to'g'ri yozilishini ko'rsatib beradi. Oktyabr to'ntarishidan keyin o'zbek yozuvining turlicha tizimiga muvofiq ravishda turli imlo lug'atlari tuzila boshlandi: arab alifbosi, lotin alifbosi, rus alifbosi negizidagi o'zbek yozuvining imlo lug'atlari kabi.

Rus grafikasi negizidagi o'zbek yozuvining orfografik lug'ati dastlab 1940 yil iyul oyida "*Birlashgan o'zbek alfaviti va orfografiyasi*" nomi bilan O'zFAN tomonidan bosib chiqarildi. Bu lug'at o'zbek adabiy tilining orfografiyasi bo'yicha tuzilgan va nashr qilingan boshqa lug'atlar uchun asos bo'ldi.

"Birlashgan o'zbek alfaviti va orfografiyasi" ikki bo'limdan iborat. Uning birinchi bo'limi rus grafikasi asosida tuzilgan yangi o'zbek alfaviti va unga moslangan asosiy imlo qoidalarini, ikkinchi bo'limi esa besh mingga yaqin so'zdan iborat qisqacha orfografik lug'atni o'z ichiga oladi. Bu lug'at imlo qoidalarini izohlab va aniqlab beradi.

Yangi o'zbek alfaviti va orfografiyasi masalasiga kirishdan oldin dastlab lug'atda O'zFAN Til, adabiyot va tarix ilmiy tekshirish instituti nomidan so'z boshi berilgan. Bunda yangi alfavit va orfografiyaning yuzaga kelishi haqida tubandagilar yozilgan:

"Rus grafikasi asosidagi yangi o'zbek alfaviti va yangi orfografiyasi ham unga ilova qilingan qisqacha orfografik lug'at professor A.K.Borovkovning rahbarligi ostida O'zFAN Til, adabiyot va tarix ilmiy tekshirish institutining ilmiy xodimi o'rtoq Faxri Kamol tomonidan tuzilgan va O'zSSR Maorif Xalq Komissariati hamda Til, adabiyot va tarix instituti huzurida tashkil etilgan maxsus ilmiy komissiyalar tomonidan ko'rib chiqilgan, tegishli o'zgarishlar kiritilgan".

Yangi alfavit ham orfografiya keng ishchilar, kolxozchilar, intellegensiya ommasining muhokamasidan o'tdi.

Rus grafikasi asosidagi yangi o'zbek alfavitini 1940 yil 8 mayda O'zbekiston SSR Oliy Soveti III Sessiyasi tasdiq etdi. Yangi orfografiya O'zbekiston Respublika

Orfografiya Kengashi, Respublika O'qituvchilar s'ezdi va O'ZSSR XKS yonidagi Yangi Alfavit Hukumat Komissiyasi tomonidan ma'qullangan"

Institut nomidan yozilgan so'z boshidan keyin O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1940- yil 8- mayda qabul qilgan "O'zbek yozuvini latinlashtirilgan alfavitdan rus grafikasi asosidagi yangi o'zbek alfavitiga ko'chirish haqida Qonun"i beriladi. Qonun besh moddadan iborat bo'lib, bunda yozuvni rus grafikasi asosidagi yangi alfavitga ko'chirishning "buyuk tarixiy ahamiyati" va yangi yozuvga ko'chirish haqida "respublika mehnatkashlarining iltimosini qondirib", alfavit proektining tasdiqlanishi respublikadagi hamma ishlarni yangi yozuvga ko'chirish muddati va bu ishni 1942- yilning 1- yanvarigacha tugallash majburiyati ko'rsatilgan.

Undan keyin yangi alifbo va orfografiyaning tuzilish tamoyillari, birlashgan o'zbek alifbosi va imlosi haqidagi asosiy qoidalari birin-ketin qisqacha izohlanadi.

"Alifbo va imloning tuzilish tamoyillari" haqida tubandagilar yozilgan:

1. Yangi o'zbek alfaviti va orfografiyasini tuzishda barcha o'zbek shevalari uun umumiy bo'lgan birlashgan adabiy talaffuz asosga olindi.

2. Yangi o'zbek alfaviti rus grafikasi negizida tuzildi. Rus grafikasidagi harflar (и va ы harflaridan boshqalari) o'z tartibida, o'z nomi va o'z xususiyatlari bilan olindi.

O'zbek tilining spetsifik tovushlari uchun rus grafikasiga qo'shimcha sifatida O'o', Qq, G'g', Hh harflari qabul qilindi.

3. Yangi o'zbek orfografiyasini tuzishda o'zbek adabiy tilida qo'llaniladigan so'zlarning morfologik, fonetik ham etimologik xususiyatlari hisobga olindi".

Birlashgan o'zbek alifbosida bosh va kichik harflar, harflarning bosma va yozma shakllari, tartibi va nomini ko'rsatuvchi jadval hamda unga izoh berilgan; izohda j harfi va ng birikmasining vazifasi, numeratsiya vaqtida yo, y, ', larning hisobga kirmasligi ko'rsatilgan. So'ngra unli va undosh tovushlarning ifodasi sifatida hamda ayirish va yumshatish vazifasiga ko'ra harflar to'rtta guruhga ajratilgan.

Birlashgan o'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari qismida: a, o, o', u, i, uv, iy, e, ye, yo, yu, ya harflarining imlosi, y, b, d, v, r, l, q, x, f, h, j, ng, s ruscha и undoshlarining imlosi yoritilgan; ayirish va yumshatish belgilarining ishlatilish o'rinlari ko'rsatilgan; o'zak va negizlar, qo'shimcha va yuklamalar, qo'shma so'z va so'z birikmalarining yozilishi, bo'g'in ko'chirilishi, bosh va kichik harflar imlosi qisqaa bayon qilingan.

Qisqaa orfografik lug'at bo'limiga orfografik jihatdan qiyin bo'lgan so'zlar, amalda kengroq qo'llaniladigan ilmiy-fanniy terminlar, imlo jihatidan muhim ahamiyatga ega bo'lgan so'z yasovchi qo'shimalar (o'zak-negiz bilan birga, albatta) kiritilgan, so'zlar qat'iy alifbo tartibida berilgan; ayrim so'zlarning yozilishi orfografiya qoidalarining qaysi bandiga to'g'ri kelsa, qavs iida raqam bilan shu bandning tartib raqami ko'rsatilgan. Bu hol tilning lug'at boyligidagi so'zlarning yozilishiga tatbiqan orfografik qoidadan o'rinli va to'g'ri foydalanishga yordam beradi, kitobxonlarning ishlarini ancha yengillashtiradi.

Lug'atdagi so'zlar har sahifada ikki ustunga ajratib tizilgan, qidirilgan so'zni tezroq topishga qulay bo'lsin uun har bir sahifaning tepasida, birinchi ustunning boshida birinchi, ya'ni sahifa boshidagi so'z, ikkinchi ustunning oxirida tugallovchi, ya'ni sahifa oxiridagi so'z berilgan. Demak, bir sahifaga shu boshlangan so'z bilan bet tamom bo'lgan so'z orasidagi lug'at kiritilgandir. Masalan, lug'atning 32-sahifasi

grammatika soʻzi bilan boshlangan va *dars* soʻzi bilan tugagan; alifbo tartibiga muvofiq shu ikki leksema oraligʻidagi boshqa soʻzlar joylashtirilgan.

Rus grafikasi negizidagi oʻzbek alifbosida nashr etilgan ikkinchi imlo lugʻati Sobir Ibrohimov va M. Rahmonov tuzgan “Oʻzbek adabiy tilining orfografik lugʻati”dir. Bu lugʻat ham OʻzFAN tomonidan 1940 yil dekabr oyining oxirida bosib chiqarilgan. Lugʻatda Til, adabiyot va tarix institutidan hamda mualliflar tomonidan yozilgan soʻzboshi bor, “lugʻatdan foydalanish tartibi” koʻrsatilgan; lugʻatning boshida “Oʻzbek adabiy tilining imlo qoidalari” berilgan va lugʻatdagi baʼzi bir qisqartirilgan soʻzlarning toʻliq shakllari koʻrsatilgan. Bu lugʻat oʻn besh mingdan ortiqroq soʻzni oʻz ichiga oladi.

“Lugʻatdan foydalanish tartibi”da tubandagilar bayon etilgan:

“1. Lugʻatdagi soʻzlar rus grafikasi asosidagi yangi alfavit (alifbo) sirasiga muvofiq tuzildi. Shu sababli, lugʻatdan kerakli soʻzni axtarib topa olish uchun alfavit sirasini bilish shart.

Eslatma: orfografik belgi (‘) oʻzining asosiy vazifasiga koʻra ayirish va yumshatish belgilari orasida keladi.

2. Lugʻatdan soʻzni qidirib topish oson boʻlsin uchun, har sahifaning tepasida oʻng tomonida qaysi soʻz bilan boshlanishi, soʻl tomonida esa, qaysi soʻz bilan tugallanishi yozib qoʻyildi.

3. Ikki xil yozilishi mumkin boʻlgan soʻzlar ketma-ket berildi: *baxavar* va *baxabar*; *bek* va *berk* kabi.

4. Baʼzi soʻzlarning izohi hamda baʼzi soʻzlarga keltirilgan misollar qavs ichida berildi.

5. Familiyalarga qaysi qoʻshimcha qoʻshilishi ismning yonida (-ov, -ova, yev, yeva shakllarida) koʻrsatildi”.

Lugʻatda baʼzan izchchilik koʻrinmaydi: sahifa ustiga yozilgan soʻzlar ikkinchi moddada koʻrsatilganlarga mos kelmaydi – ikki sahifa boshida ikki soʻz bor, soʻl tomondagi sahifa boshida yozilgan soʻz shu sahifada ikkinchi ustunning qanday soʻz bilan tugaganini, oʻng tomonda sahifa boshidagi soʻz esa shu sahifaning birinchi ustuni qanday soʻz bilan boshlanganini koʻrsatadi. Toʻgʻrisi buning aksicha boʻlishi yoki har bir sahifada birinchi soʻz bilan oxirgi soʻz alohida-alohida koʻrsatilishi kerak edi. Shuningdek, oltinchi moddaning oxirida aytilgan ot va sifatlarning soʻz urgʻusiga koʻra farq qilishi masalasi ham lugʻatda uzluksiz yoritilmagan.

“Oʻzbek adabiy tilining orfografik qoidalari”bahsida alifbodagi harflarning miqdori, tartibi va vazifasi qisqacha bayon etiladi; asosiy qoida birmuncha kengaytirilgan holda, unlilar va undoshlar imlosi hamda ayirish, yumshatish va orfografik belgining yozilishi, boʻgʻin tuzilishi va koʻchirilishi, oʻzak va negizlar, qoʻshimcha va yuklamalar, qoʻshma soʻzlar imlosi koʻrsatiladi, bosh va kichik harflarning yozilishiga doir qoidalar beriladi.

Lugʻat qismi ancha ixchamlashgan, orfografik jihatdan ahamiyatli soʻzlarga keng oʻrin berilgan. Shuning uchun ham bu lugʻat oʻsha mualliflarning oʻzlari tomonidan tuzilgan va lotin alifbosida bosilib chiqqvn imlo lugʻatidan farq qiladi. Eng muhim farq shundaki, ilgarigi lugʻatda bir oʻzakdan tarqalgan soʻzlar garchi imlo nuqtai nazaridan qimmatli boʻlmasa ham, lugʻatga kiritila bergan, keyingi lugʻatda bunday soʻzlarga birmuncha chek qoʻyilgan. Masalan, 1935 yilda lotin

alifbosida bosilgan imlo lug'atida *bosh* so'zidan tarqalgan yasama va qo'shma so'zlar miqdori 57 ta, kel o'zagidan tarqalganlarning soni 40 ta bo'lsa, 1941 yilda rus alifbosida nashr qilingan lug'atda birinchi so'zdan tarqalganlari 15 tacha, ikkinchi so'zdan tarqalganlari 26 tacha keladi. Shunga qaramay, lug'atning keyingi nashrida ham, imlo nuqtai nazaridan qaraganda, ortiqcha so'zlar uchraydi: *kelish, kelishim, kelishimli, kelishish, kelishmoq, kelishtirmoq, kelmoq, keltirish, keltirmoq, keluv* kabi.

Rus grafikasi asosidagi o'zbek alfavitida nashr etilgan orfografik lug'atning bir tipi maktablar uchun mo'ljallangan edi. Olim Usmonov tuzgan maktab imlo lug'atining birinchi nashri 1941 yili, ikkinchi nashri esa 1949 yili nashr etildi.

Lug'atning ikkinchi nashri birinчисiga nisbatan ancha mukammal ishlangan: imlo qoidalari kengaytirilgan, lug'at qismi to'ldirilgan. Bunda dastlab "Muhim imlo qoidalari", so'ngra "Shartli qisqartmalar" va "Alfavit" beriladi, so'ng lug'at qismida qaiy alfavit tartibida o'n mingdan ortiq so'zlarning imlosi ko'rsatilgan.

3. Terminologik lug'atlar

30-yillarda ilm-fan va kasb-hunarga doir lug'atlar ko'plab nashr etila boshlandi. Bu lug'atlar o'z vaqtida ijobiy hodisa bo'lgan bo'lsa ham, lekin keyingi vaqtlarda o'sgan madaniy talablarga javob berolmay qoldi. Yozuvning rus grafikasi asosidagi yangi alifboga ko'chirilishi falsafa, meditsina, fiziologiya, biologiya, tilshunoslik va siyosiy iqsisod fanlari bo'yicha bo'lib o'tgan erkin ilmiy munozaralar terminologiya sohasidagi nuqsonlarni ham ochishga katta yordam berdi.

Terminologiya sohasida hal qilinmagan masalalar va o'zbek tilida ilmiy-fanniy terminlarda bo'lgan xilma-xilliklar, ayniqsa, 1950 yildan keyin bosilib chiqqan terminologik lug'atlarda, shuningdek, ayrim ilmiy-tanqidiy maqolalarda juda ravshan ko'rsatilgan.

Terminologik lug'atlar ham boshqa tipdagi lug'atlar singari qat'iy alifbo tartibida qurilgan. O'zbek tilida nashr etilgan terminologik lug'atlarning tuzilish tamoyillari va so'z tanlash yo'llari lug'atlarga yozilgan bosh so'zlarda qisqacha bayon etilgan, bundan tashqari lug'atning o'z ichki materialiy oq buni aniq ko'rsatib beradi.

1952- yili M.D.Yagudanev va R.X.Mallin tomonidan tuzilgan "Ruscha-o'zbekcha fizik terminlar lug'ati"ni nashr etdi. Mualliflar tomonidan yozilgan so'z boshida lug'atning ilmiy-nazariy asoslari va atama qabul qilish yo'llari tubandagicha ko'rsatilgan:

"1. "Odat bo'lib qolgan" anchagina nobop terminlardan voz kechib, ularni sovet-internatsional terminlar bilan almashtirdik. Ayniqsa, fizika sohasidagi yangi terminlarni kiritishda sovet-internatsional terminlardan keng foydalanishga intildik. Masalan, hozirgaa "elektricheskiy tok" – "elektr oqimi" yoki "provodnik" – "o'tkazgich" deb olinar edi. Biz esa "elektricheskiy tok"ni "elektr tok" va "provodnik"ni "o'tkazgich" deyish bilan baravar "provodnik" deb ham aytish variantini qabul qildik"...

3. Ruschadan o'zbekchaga o'tishda sifatni ifodalash ishi ko'p joylarda bizni ancha katta qiyinchiliklarga duchor qildi. Ammo bu qiyinchiliklarni biz bilganimizcha hal qilgan bo'ldik. Masalan, "amplitudnaya xarakteristika" ni odatdagiday "amplitudali xarakteristika" emas, balki "amplitud xarakteristika" deb oldik; yoki "temperaturnyy skachek" ni "temperaturli sakrash" emas, balki

“temperatur sakrash” deb oldik; yoki «структурный мнoжител» “strukturali ko‘paytgich” emas, balki “struktur ko‘paytgich” deb olindi.

Lug‘at mualliflari yuqorida ko‘rsatib o‘tganlaridek, ko‘pgina fizik atamalar, ya‘ni ot xarakteridagi atamalar ruscha-baynalminal shaklida qabul qilingan: *aberratsiya, adapter, aktor, anod, barometr, ventilyator, voltmeter, galvanoakustika, gidron, guper, diafon, dilatograf, drossel, jiroskop, kasseta, konsistensiya, lantan, lyumen, lyapis, magneton, major, maxovik, neytron, nutatsiya, optika, peredatchik, propeller, richag, smola, teplorod, faradizatsiya, fuksin, ebonit, ellipsoid, effuziya, vadro, yakor, yashma* kabi.

Ko‘rinadiki, o‘zbek tilida ruscha-baynalminal so‘zlarni o‘rinsiz qabul qilish mana shu lug‘atlardan boshlangan.

1952- yilda M.A.Sobirov tomonidan tuzilgan “Ruscha-o‘zbekcha matematik terminlar lug‘ati” bosib chiqarilgan. Bu lug‘at ham fizik atamalar lug‘ati singari o‘z sohasidagi ilmiy atamalarni me‘yorlashtirishni, atamalarda bir xillikni ta‘minlashni maqsad qilib qo‘ygan. Bu lug‘atdagi so‘z tanlash tamoyili yuqoridagi lug‘atdan biroz farq qiladi. Buni quyidagi o‘qiyimiz:

“1. Terminlar lug‘atini tuzishda... har bir termini o‘zbek tilining o‘z boyligidan topishga tirishdik”...

“4. ...ikki so‘zdan yasalgan *vektornoe pole* terminini o‘zbekcha *vektor maydon, vektorial maydon, vektorli maydon, vektor maydoni, vektorlar maydoni* singari turlicha ifodalashlar bor. Shuningdek, *granichnye zadachi* yoki *granichnye usloviya* terminlarini olsak, bunda ham turlicha ifodalashlarni uchratamiz: *chegaraviy masala, chegara masala, chegara masalasi, chegaraga doir masala, chegaralar masalasi* va hokazo. *Dvoynoe vektornoe proizvedenie* iborasini olsak, uni o‘zbekcha ifodalashdagi qiyinchilik hammaga ma‘lum (*ikkilangan vektor ko‘paytma, ikkilanma vektorial ko‘paytma, ikki qaytali vektor ko‘paytma* va h.k.). *Uglovaya skorost, dvoynoy integral* va shunga o‘xshagan ko‘p terminlarni ishlatishda bunday qiyinchiliklarga uchraymiz. Mana shu qiyinchiliklarni mumkin bo‘lgancha yo‘qotish maqsadida ma‘no jihatdan terminga yaqin so‘zlar va ayrim tushunchalar kiritildi”.

1953- yilda “Qisqacha ruscha-o‘zbekcha geografiya terminlari lug‘ati” bosilib chiqdi. Bu lug‘atning mualliflari N.Dalimov, M.Qoriev, H.Hasanov, M.Mirbobonavlardir.

Geografiya atamalari lug‘ati rus va o‘zbek tilining leksik materiallari asosida berilgan, dastlab ularning ruscha ifodasi, so‘ng o‘zbekcha ekvivalenti yoki tarjimai ko‘rsatilgan. O‘zbekcha ekvivalenti bir so‘z orqali, o‘rniga ko‘ra so‘z birikmasi vositasida ifodalangan. Bunda geografiya faniga oid atamalargina olingan, geografik nomlar – atoqli otlar lug‘atga kiritilmagan.

1954-yilda professor A.Y.Yunusov tuzgan “Fiziologiya terminlarining izohli lug‘ati” bosilib chiqdi. Bu lug‘atni tuzishda muallif, asosan, meditsina, qishloq xo‘jaligi, pedagogika oliy o‘quv yurtlarida o‘tiladigan fiziologiya fanini ko‘zda tutgan va undagi eng zarur, izoh talab qiladigan atamalarni ko‘rsatgan.

1954- yilda Z.N.Said-Nosirova va T.V.Derkunskaya tomonidan “Ximiyadan qisqacha izohli ruscha-o‘zbekcha lug‘at” tuzildi. Bu lug‘at boshqalariga nisbatan o‘z ichiga olgan materiallarning hajmi va ularning izohi jihatidan ham ana mukammal lug‘atdir. Shunga ko‘ra bu lug‘at terminologik lug‘atlarga nisbatan kengdir, mazmuni va mohiyati jihatidan izohli lug‘atlar tipiga kiradi.

Professor T.N.Qoriniyozovning “Ruscha-o‘zbekcha matematika terminlari so‘zligi”, S.Ibrohimovning “Paxtachilikka doir qisqacha izohli lug‘at” “Bog‘dorchilik terminlari”, “Ruscha-o‘zbekcha uzumchilik va vinochilik terminlari lug‘ati”, S.Sahobiddinovning “Ruscha-o‘zbekcha botanika terminlari lug‘ati”, T.Zohidovning “Zoologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati” va boshqa lug‘atlar shular jumlasidandir.

4. O‘zbekcha-ruscha, ruscha-o‘zbekcha lug‘atlar.

Bu davrda bir qancha tarjima lug‘atlari yaratilgan bo‘lib, ular quyidagilardir:

1. 17 000 so‘zli “O‘zbekcha-ruscha lug‘at” (Qori-Niyoziy va A.K.Borovkov tahriri ostida, 1941). Bu lug‘at asosan o‘zbek tilini o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lsa ham, rus tilini o‘rganuvchilar, tarjimonlar, o‘qituvchi, talaba va ilmiy xodimlar uchun ham qo‘llanma sifatida xizmat qildi.

Lug‘atda o‘zbek tilining so‘z boyligida bo‘lgan turkiy, shu jumladan, o‘zbekcha so‘zlar bilan bir qatorda, o‘zlashib qolgan arabcha-forscha hamda ruscha-baynalminal so‘zlar ham berilgan.

2. 30 000 so‘zli “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at” (Qori-Niyoziy va A.K.Borovkov tahriri ostida, 1942). Lug‘atda rus va o‘zbek tillarida yozilgan so‘z boshidan keyin shartli qisqartmalar va «Rus tili grammatikasining qisqa ocherki” beriladi. Ocherk professor A.K.Borovkov tomonidan yozilgan bo‘lib, unda talaffuz va imlo masalalari yoritilgan, har bir so‘z turkumi (ot, sifat, son, olmosh, fe‘l, ravish, bog‘lovchi, yuklama va undov so‘zlar) ga qisqacha xarakteristika berilgan.

3. Fanlar Akademiyasi nashriyoti 1950-1955 yillar davomida qariyb 72 000 so‘zdan iborat besh jildli “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at” ni nashr ettirdi. Lug‘atning bosh muharriri A.K.Borovkov edi. Lug‘atning birinchi jildi 1950 yili, ikkinchi va uchinchi jildlari 1953 yili, to‘rtinchi jildi 1954 yili, nihoyat, beshinchi jildi 1955 yili nashr etilgan. Birinchi jildi 16105 so‘zni, ikkinchi jildi 11015 so‘zni, uchinchi jildi 12926 so‘zni, to‘rtinchi jildi 16295 so‘zni, beshinchi jildi 16182 so‘zni, demak, besh jildlik lug‘at hammasi bo‘lib, 71523 so‘zni o‘z ichiga oladi.

4. 50 000 so‘zli “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at” (1954). Bu lug‘at Moskvada chet til va milliy tillar lug‘atlari Davlat nashriyoti tomonidan R.Abdurahmonov tahriri ostida chop etilgan. Lug‘atga geografik nomlar va rus tilining grammatik tablitsalari ilova qilingan.

5. 40 000 so‘zli “O‘zbekcha-ruscha lug‘at” (1959). Bu lug‘at Moskvada bosilib chiqqan bo‘lib, uning yuzaga kelishida olim Zokir Ma‘rufovning xizmatlari beqiyosdir.

6. Русско-узбекский словарь: в двух томах. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2013, 888-б.

O‘zbek mumtoz adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at.

1953- yilda P.Shamsiyev va S.Ibrohimovlarning “O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at” i bosilib chiqdi. Lug‘at O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi G‘afur G‘ulomning umumiy tahriri ostida nashr etilgan.

Navoiy, Gulxaniy, Maxmur, Muqimiy, Furqat singari shoirlarning asarlari ko‘plab nashr etilishi, oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek tili va adabiyot tarixining maxsus

im sifatida o'qitilishi, bunda o'quvchi va o'qituvchilarning lug'atga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olib, mualliflar shu ehtiyojni bir darajada qondirish maqsadida ushbu lug'atni tuzganlar.

Tuzuvchilar tomonidan yozilgan so'zboshida lug'atga kiritilgan so'zlar haqida shunday deyiladi:

“Bu qisqacha lug'atga ko'proq klassik badiiy adabiyotda uchraydigan, hozirgi kunda anglashilishi qiyinroq bo'lgan so'z va iboralar kiritildi.

Lug'atni tuzishda Alisher Navoiy asarlari yuzasidan mukammal izohli lug'at tuzuvchi brigada tomonidan 1939-1941-yillar davomida yuzaga keltirilgan boy kartotekadan foydalanildi. Shu sababli lug'atning so'zligi asosan Alisher Navoiy asarlaridan olingan bo'lib, ayrim so'zlarning ma'nolarini ochish va ularni mukammalroq qilib berishda klassik adabiyotimizning boshqa namoyandalarining asarlariga ham murojaat etildi”.

Lug'atda so'zlar yoki so'z birikmalari rus grafikasi asosidagi o'zbek alfaviti tartibida joylashtirilgan, so'ngra arab alifbosidagi shakli berilgan, shundan keyin ularning ma'nolari izohlangan.

Ko'p ma'noli so'zlarning ayrim ma'nolari ba'zan raqam bilan, ba'zi o'rinlarda nuqtali vergul bilan ayiriladi. Sinonimlarning ma'nolari birida berilib, boshqalari unga hayola qilinadi. Shakldosh so'zlarning har qaysisi 1, 2, 3 kabi raqamlar bilan ayrim-ayrim beriladi.

Shuni aytish kerakki, 50- yillardan O'zbekistonda amaliy leksikografiya bilan bir qatorda, leksikografiyaning nazariy tomonlarini ishlashga ham alohida ahamiyat berila boshlandi.

Lug'atlar:

1. M. Xudoyberganova, S.Ziyamova. Orfografik lug'at. T. 1974.
2. M.Sodiqova, O'ktamxon Usmonova. O'zbek tilining orfoepik lug'ati. T. 1977.
3. A. G'ulomov va boshqalar. O'zbek tili morfem lug'ati. T. 1977.
4. Z.Do'simov, X.Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. T. 1977
5. A.Hojiyev. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. T. 1985.
6. Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. T. 1992.
7. Sh.Rahmatullayev va boshqalar. O'zbek tilining qisqa etimologik lug'ati. T. 1998.
8. Sh.Rahmatullayev va boshqalar. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. T. 1980.
9. A.Hojiyev. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. T.1974.
10. Sh.Rahmatullayev va boshqalar. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati.
11. Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev. O'zbek tilining imlo lug'ati. T. 1995.
12. S.Ibrohimov va boshqalar. Kasb-hunar leksikasi lug'ati.
13. O'zbek tilining alfavitli-chastotali lug'ati. T. 1982.
14. Русско-узбекский словарь: в двух томах. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2013, 888-б.

Tekshirish savollari va topshiriqlar

1. Leksikografiya nima?

2. Leksikografiyaning vazifa doirasiga nimalar kiradi?
3. Lug'atlar ko'zlangan maqsadga kokra qanday tiplarga bolinadi?
4. Ensiklopedik va lisoniy lug'atlar qanday farqlanadi?
5. Umumiy va xususiy (maxsus) lug'atlar qanday farqlanadi?
6. Lug'atlarning yana qanday turlarini bilasiz?
7. Lug'atda maqolalarning tashqi tartib asosida joylashtirilishida nimalar hisobga olinadi?
8. Lug'atda maqolalarning ichki tartib asosida joylashtirilishida nimalar hisobga olinadi?
9. XX asrning 30-40- yillarida bir tilli va ikki tilli terminologik lug'atlarning yaratilishiga ko'proq e'tibor berilganligini qanday izohlaysiz?
10. XX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan lug'atlarning turlari, obykti haqida ma'lumot bering.
11. Mustaqillik yillarida qanday lug'atlar chop qilindi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'zME, 2013.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
4. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2009.
2. Ne'matov H, Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.
3. Ne'matov H, Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
4. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. Oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –T. 2006.
6. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti Toshkent-2010.
7. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфологияси. –Т., 1992

AMALIY MASHG'ULOTLAR

<i>Mavzu</i>	TIL, LISON VA NUTQ MUNOSABATI. TIL SATHLARI VA BIRLIKLARI BO'YICHA MASHQ
--------------	--

AMALIY MASHG'ULOTDA TA'LIM TEXNOLOGIYASI

<i>Mashg'ulot vaqti – 2 soat</i>	<i>Talabalar soni – 25 nafar</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash
<i>Amaliy mashg'ulot rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Til haqida tushuncha 2. Lison va nutq munosabati 3. Me'yor tushunchasi va uning lison va nutqqa munosabati. 4. Til sathlari va birliklari.
<i>O'quv mashg'ulot maqsadi:</i>	“Til, lison, nutq munosabatlari. Til sathlari va birliklari” mavzusi yuzasidan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> – til haqidagi tasavvurlarni kengaytirish, uning ijtimoiy, ruhiy hodisa ekanligi haqida kengroq tushunchaga ega bo'lish. – lison va nutq munosabati haqida olingan nazariy ma'lumotlarni amalda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish. – me'yor tushunchasi haqida fikrlarni kengaytirish; – til sathlari va birliklari ma'lumot beradi. 	<p><i>O'quv faoliyati natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> – til haqida avvaldan mavjud bilimlarini, ko'rsatilgan adabiyotlardan olgan bilimlarini aytib beradi; – lison va nutq munosabati, uning tilshunosligimizga keyingi davrlarda kirib kelganligi bo'yicha talaba fikrlarini bildiradi; – me'yor tushunchasi va uning lison va nutqqa munosabati haqida munozara qiladi; – til sathlari va birliklari olgan bilimlarini mustahkamlaydi.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Suhbat, savol-javob, munozara.
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, yakka tartibda
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Darslik, turli ko'rsatilgan adabiyotlar, doska, daftar, grafik.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Amaliy mashg'ulotlarga mo'ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob

1- AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchi</i>

<p>Tayyorlov bosqichi</p>	<ul style="list-style-type: none"> – Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadini belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. – Mavzu bo'yicha tayanch konspekt ishlab chiqadi. – Belgilangan ta'limiy maqsadlarga erishishni ta'minlovchi o'quv topshiriqlarni ishlab chiqadi. – Kichik guruhlarda samarali faoliyatni ta'minlash uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi. – Natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqadi. 	
<p>1. O'quv mashg'ulotlariga kirish boshqichi (15 daqiqa)</p>	<p>1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalarni e'lon qiladi, ularning ahamiyatligi va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor-so'rov o'tkazib (1- ilova) talabalar bilimlarini faollashtiradi.</p> <p>1.3. Qo'shimcha ma'lumotlar aks etgan tayanch konspektini tarqatadi.</p>	<p>Tinglaydilar.</p> <p>Savollarga javob beradi.</p>
<p>2. Asosiy bosqich (45 daqiqa)</p>	<p>2.1. Til haqidagi fikrlarni va talabalarning bu mavzuga qanchalik tayyor ekanliklarini bilish maqsadida mavzuni gapirib berishni so'raydi.</p> <p>2.2. Lison va nutq borasida yangi adabiyotlardan o'qib kelganlarini aytib berishni va munozara qilishni so'raydi.</p> <p>2.3. Me'yor haqida nimani talabalarning nimani o'rganib kelganlarini so'raydi.</p> <p>2.4. Mashqlar ishlashni so'raydi. 1-mashq.</p>	<p>Fikrlarini bildiradilar. Mavzu yuzasidan chiqish qiladilar.</p> <p>Talabalar fikrlarini bildiradilar munozaraga kirishadilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Mashqni bajaradilar.</p>
<p>3. Yakuniy bosqich (15 daqiqa)</p>	<p>3.1. Mavzu yuzasidan umumiy xulosalar qiladilar.</p> <p>3.2. O'quv mashg'ulotlarining natijalarini sharhlaydi, faol talabalar bahosini e'lon qiladi.</p> <p>3.3. Mustaqil ishlash uchun vazifalar beradi: amaliy mashg'ulotga tayyorlanib kelish. Nazorat savollariga javob berish. Ilovada ko'rsatilgan topshiriq va</p>	<p>Tinglaydilar.</p>

1- ilova.

Tezkor savollar va topshiriqlar:

- Tilshunoslik sohalarini sanang.
- Hozirgi o'zbek tilining o'rganish o'byekti va predmeti haqida gapiring.
- Til deganda nimani tushunasiz?
- Nutq nima?
- Lison qanday termin sifatida qabul qilindi?
- Me'yor haqida tushunchalaringiz?
- til sathlari va birliklari ma'lumot bering.

1-mashq. 1. Matnni kuzating, lisoniy va nutqiy birliklarni aniqlang. 2. Lisoniy birliklar turli o'rinlarda qo'llangan gaplar tuzib, sirani boyiting. 3. Lisoniy va nutqiy birliklar xususiyatlarini alohida-alohida bayon qiling.

Tirik jon borki, nimaningdir ilinjida yashaydi. Ilinj odamlarni ne ko'ylarga solmaydi! Chunki ilinj – nimanidir qo'lga kiritish, olish degani, binobarin, insoniyat qavmining ko'plab qayg'u-sitamlari olish evaziga berish muvozanatining buzilishidan kelib chiqadi. Vaholanki, olish va berish dunyoni ostin-ustin bo'lib ketishidan saqlab turgan posangi, bu ikki posangi teng saqlangan joyda farovonlik, xotirjamlik, aks holda..., kimdir atayin, kimdir ongsiz – ixtiyorsiz ravishda bu ikki posangi muvozanatini buzadi... Bu yorug' dunyoda ofatu balolarning to'xtamasligi inson zotining manglayiga ana shu o'ta jo'n va o'ta mushkul hikmatni tushuna bilmaslik tamg'asi urilganidan dalolat beradi. Bu tamg'a «nafs» deb ataladi. Har qanday aql-idrokni aql idrok qiladigan ham, tinchlik - xotirjamlik kushandasiga aylantiradigan ham ana shu nafs. (*X.Do'st.*)

2- ilova.

Quyidagi reja asosida ko'rsatilgan adabiyotlardan foydalanib konspekt yozing.

Reja:

1. Til insoniyatga berilgan ne'mat.
2. Lison va nutq munosabati.
3. Me'yor tushunchasi haqida.
4. Tizim tushunchasi haqida.
5. Tizim va to'daga misollar keltirish.

Adabiyotlar: 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 11, 14, 22

AMALIY MASHG‘ULOTDA TA‘LIM TEXNOLOGIYASI

<i>Mashg‘ulot vaqti – 2 soat</i>	<i>Talabalar soni – 25 nafar</i>
<i>Mashg‘ulot shakli</i>	Bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish
<i>Amaliy mashg‘ulot rejasi</i>	1. Fonetikaning o‘rganish o‘byekti. 2. O‘zbek tilida tovushlar va uning tasnifi. 3. Unli fonemalar va uning tasnifi.
<i>O‘quv mashg‘ulot maqsadi:</i>	“O‘zbek tilida unli fonemalar” mavzusi yuzasidan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> – Fonetikaning o‘rganish o‘byekti haqida aniq tasavvur uyg‘otish. – O‘zbek tilida tovushlar va uning tasnifi haqida olingan nazariy ma‘lumotlarni amalda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish. – Unli fonemalar va uning tasnifi haqida fikrlarni kengaytirish va tahlil qilish ko‘nikmasini mustahkamlash.	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i> – Fonetikaning o‘rganish ob‘yekti haqida adabiyotlardan olgan bilimlarini aytib beradi. – O‘zbek tilida tovushlar va uning tasnifi haqida fikrlarini bildiradi. – Unli fonemalarni tasnif qiladi. Uning fonologik oppozitsiya belgilarini aytib beradi. Tahlil qiladi.
<i>Ta‘lim berish usullari</i>	Suhbat, savol-javob, munozara, tahlil.
<i>Ta‘lim berish shakllari</i>	Ommaviy, yakka tartibda
<i>Ta‘lim berish vositalari</i>	Darslik, turli ko‘rsatilgan adabiyotlar, doska, daftar, grafik, mashqlar.
<i>Ta‘lim berish sharoiti</i>	Amaliy mashg‘ulotlarga mo‘ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki nazorat: savol-javob, tahlil natijalari.

2- AMALIY MASHG‘ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta‘lim beruvchi</i>	<i>Ta‘lim oluvchi</i>
Tayyorlov bosqichi	– Mavzuni aniqlaydi, ta‘limiy maqsadini belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi.	

	<ul style="list-style-type: none"> - Mavzu bo'yicha tayanch konspekt ishlab chiqadi. - Belgilangan ta'limiy maqsadlarga erishishni ta'minlovchi o'quv topshiriqlarni ishlab chiqadi. - Kichik guruhlarda samarali faoliyatni ta'minlash uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi. - Natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqadi. 	
1. O'quv mashg'ulotlariga kirish boshqichi (15 daqiqa)	<p>1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalarni e'lon qiladi, ularning ahamiyatligi va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor-so'rov o'tkazib (1- ilova) talabalar bilimlarini faollashtiradi.</p> <p>1.3. Qo'shimcha ma'lumotlar aks etgan tayanch konspektini tarqatadi.</p>	<p>Tinglaydilar.</p> <p>Savollarga javob beradi.</p>
2. Asosiy bosqich (45 daqiqa)	<p>2.1. Fonetika haqidagi fikrlarni va talabalarning bu mavzuga qanchalik tayyor ekanliklarini bilish maqsadida mavzuni gapirib berishni so'raydi.</p> <p>2.2. Tovushlar va ularning tasnifi borasida yangi adabiyotlardan o'qib kelganlarini aytib berishni va munozara qilishni so'raydi.</p> <p>2.3. Unli fonemalar tasnifini va uni jadvalda aks ettirishni so'raydi.</p> <p>2.4. Mashqlar ishlashni so'raydi. 1,2- mashq, 12,3,4- topshiriq.</p>	<p>Fikrlarini bildiradilar.</p> <p>Mavzu yuzasidan chiqish qiladilar.</p> <p>Talabalar fikrlarini bildiradilar munozaraga kirishadilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Mashqni bajaradilar.</p>
3. Yakuniy bosqich (15 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu yuzasidan umumiy xulosalar qiladilar.</p> <p>3.2. O'quv mashg'ulotlarining natijalarini sharhlaydi, faol talabalar bahosini e'lon qiladi.</p> <p>3.3. Mustaqil ishlash uchun vazifalar beradi: amaliy mashg'ulotga tayyorlanib kelish. Nazorat savollariga javob berish. Ilovada ko'rsatilgan topshiriq va mashqlarni bajarish. (2- ilova)</p>	<p>Tinglaydilar.</p>

Tezkor savollar va topshiriqlar:

- Fonetika nimani o‘rganadi?
- Nutqning fonetik bo‘linishi haqida gapiring.
- Tovush nima?
- Tovushlar necha turli bo‘ladi?
- Unli va undoshlarning bir-biridan qanday farqli xususiyatlari bor?
- Unli qanday tasnif etiladi?
- Tasnif deganda nimani tushunasiz.
- O‘zbek olimlaridan kimlar o‘zbek tili nutq tovushlari tasnif qilgan?

1-mashq. 1. Matnni kuzating, fonema va tovushlarni aniqlang. 2. Qayd qilingan fonemalar turli o‘rinlarda qo‘llangan so‘zlardan misollar keltirib, sirani boyiting. 3. Fonema va tovushlarning xususiyatlarini alohida-alohida bayon qiling. 4. a) mavjud fonemalarni tasniflang; b) mavjud tovushlardagi farqlarni tasniflang. 5. Berilgan fonema va tovushlar orasidagi ziddiyatlar va munosabatlarni aniqlang.

1. O‘-o‘, boylik, boylik! Mening uyimga sen kiradigan bo‘lsang-u, iymon ketadigan bo‘lsa, men senga o‘t qo‘yaman, o‘t! (*I.Sul.*) 2. Aziz do‘stlar, oltin va kumushi bo‘lmagan odam kambag‘al emas, balki es-hushi va kasb-hunari bo‘lmagan kishi kambag‘aldir. (*M.Qor.*) 3. Vatan mehri hech qachon yurakdan ko‘tarilmaydi. Hech narsa uning o‘rnini bosolmaydi. Hech banda vatangado bo‘lmasin. (*Shuk.*) 4. Gul kabi nozik, billur singari shaffof, subhidamday pok qalb sohibi edi bu qiz. (*S.Ahm.*) 5. Ha, ha. Xuddi shunday. Bu yerda hammasi tabiiy. Darhaqiqat, tabiat san’ati. Yo‘q, yo‘q, mo‘jizasi.

6. Ko‘kda yulduz emas, u sirli qo‘shiq,
Intizor yigitning chashmiga singgan.
Muhabbat dardiga muftalo oshiq,
Senga havas bilan boqurman chindan. (*A.Orip.*)

1- topshiriq: (Q-3, 22-23-belar) savollariga javob bering.

1. Vokalizm nima?
2. O‘zbek adabiy tili vokalizmi qaysi fonemalarni o‘z ichiga oladi?
3. Unli fonemalar undoshlardan qanday farqlanadi?
4. Unli fonemalar tasnifi nimalarga asoslanadi?
5. Lablarning ishtirokiga ko‘ra unli qanday turlarga bo‘linadi?
6. Tilning tik (vertikal) harakatiga ko‘ra unli qanday farqlanadi?
7. Tilning yotiq (gorizontal) harakatiga ko‘ra unli qanday turlari bor?
8. Tasnifga asos bo‘lgan qaysi belgilar fonologik xarakterdadir?
9. Qaysi belgi o‘z holicha fonologik xususiyatga ega emas?
10. O‘zbek tilshunosligida hozirgi o‘zbek adabiy tili vokalizmiga oid qanday masalalar munozarali bo‘lib qolmoqda?

11. Unli fonemalarning kombinator va pozitsion ottenkalari qanday farqlanadi? Ularning har biri alohida fonema deb qaraladimi?

2-mashq (Q-3, 23-bet). Matnda ajratib ko'rasatilgan so'zlarning tarkibidagi unli larni tavsiflang.

O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi. Bu negizlar: umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik; xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish; insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi; vatanparvarlik.

(Islom Karimov)

N a m u n a: *Yangilash* so'zida a unlisi (birinchi va uchinchi bo'g'inglarda) va i unlisi (ikkinchi bo'g'ingda) qo'llangan: a unlisi – lablanmagan, quyi keng, old qator; i unlisi – lablanmagan, yuqori (tor), old qator. Barcha bo'g'inglarda bu ikki unli o'zining asosiy (tipik) ottenkasida reallashgan.

2-topshiriq (Q-3, 23-bet). Bir unli fonema bilan farqlanuvchi bir bo'g'ingli so'zlardan (kvaziomonimlardan) bir nechasini toping. Ulardagi unli larga tasnif asosida xarakteristika bering, so'z ma'nolarini farqlashdagi vazifasini tushuntiring.

N a m u n a: bog' va bug'.

O unlisi: 1) lablarning ishtirokiga ko'ra- kuchsiz lablangan; 2) tilning tik (vertikal) harakatiga ko'ra - quyi keng; 3) tilning yotiq (gorizontal) harakatiga ko'ra – orqa qator. U unlisi: 1) lablarning ishtirokiga ko'ra – lablangan; 2) tilning tik harakatiga ko'ra – yuqori tor unli; 3) tilning yotiq harakatiga ko'ra – orqa qator. Bu ikki unlining birinchi va uchinchi belgilari integral, ikkinchi belgisi differensial xarakterda, ayni shu ikkinchi belgi – birining quyi keng, ikkinchisining yuqori tor ekanligi bog' va bug' so'zlarining ma'nolarini farqlash vazifasini bajarmoqda.

3-topshiriq (Q-3, 23-24-betlar). Undoshlari bir xil, unli lari har xil bo'lgan ikki bo'g'ingli so'zlardan bir nechasini toping, ulardagi unli larni tavsiflang, funksional xarakteristikasini bering.

N a m u n a: qoshiq va qo'shiq. Birinchi so'zda o va i unli lari, ikkinchi so'zda esa o' va i unli lari qo'llangan.

O unlisi: 1) lablarning ishtirokiga ko'ra – kuchsiz lablangan; 2) tilning tik harakatiga ko'ra - quyi keng; 3) tilning yotiq harakatiga ko'ra - orqa qator. I unlisi: 1) lablarning ishtirokiga ko'ra – lablanmagan; 2) tilning tik harakatiga ko'ra – yuqori tor unli; 3) tilning yotiq harakatiga ko'ra – old qator «i» ning orqa qator kombinator ottenkasi («q»ga moslashgan ko'rinishi). Ikkinchi so'zdagi o' unlisi: 1) lablarning ishtirokiga ko'ra – lablangan; 2) tilning tik harakatiga ko'ra - o'rta keng; 3) tilning yotiq harakatiga ko'ra – orqa qator. I unlisining tavsifi birinchi so'zdan farqlanmaydi. Demak, so'zdagi «o'»ning birinchi va uchinchi belgilari integral (farqlanmaydigan), ikkinchi belgisi – «o'»ning quyi keng, «o'»ning o'rta keng ekanligi esa differensial xarakterdadir, bu belgilar qoshiq va qo'shiq so'zlarining ma'nolarini farqlash imkonini bermoqda.

4-topshiriq: (Q-3, 24-26-betlar). Test savollari asosida o'z bilimingizni tekshirib ko'ring.

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmi necha unlini o'z ichiga oladi?
 - A. 6 unlini.
 - B. 7 unlini.
 - D. 8 unlini.
 - E. 9 unlini.
 - F. 10 unlini.
2. Unli fonemalar undoshlardan qanday farqlanadi?
 - A. Unlilar ovozdan tarkib topadi, ularda shovqin qatnashmaydi. Undoshlarda esa shovqinning bo'lishi shart.
 - B. Unli tovushlar talaffuzida nutq a'zolari to'siq hosil qilmaydi, undoshlar artikulyatsiyasida esa nutq a'zolarining to'siq hosil qilishi shart.
 - D. Unlilar ham, undoshlar ham so'zning shakllanishida moddiy-material asos (substant) sifatida qatnashadi, har ikkalasi so'zning fonetik qobig'i va ma'nosini farqlash vazifasini bajaradi.
 - E. Unlilar bo'g'in hosil qiluvchi asosiy tovushlardir, undoshlar esa o'zi yolg'iz holda (unlisiz) bo'g'in hosil qila olmaydi (ayrim sonor tovushlar bundan mustasno).
 - F. Barcha javoblar to'g'ri.
3. O'zbek tilshunosligida unlilar qaysi belgilari asosida tasnif qilinmoqda?
 - A. Lablarning ishtirokiga ko'ra.
 - B. Artikulyatsiya o'rniga ko'ra.
 - D. Tilning tik (vertikal) harakatiga ko'ra.
 - E. Tilning yotiq (gorizontal) harakatiga ko'ra.
 - F A, E va D.
4. Ayrim fonologlar fikricha, unlilar tasnifidagi qaysi belgi fonologik xarakterda emas?
 - A. Lablarning ishtirokiga ko'ra belgilari.
 - B. Tilning tik (vertikal) harakatiga ko'ra belgilari.
 - D. Tilning yotiq (gorizontal) harakatiga ko'ra belgilari.
 - E. Tilning uch darajali ko'tarilish belgisi.
 - F. Lablanish-lablanmaslik belgisi.
5. Hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmiga oid qanday masalalar munozarali bo'lib qolmoqda?
 - A. Unlilarning fonologik relevant belgilarini baholash masalasi.
 - B. Hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmida kontrast juftliklarning bor-yo'qligi masalasi.
 - D. Eski o'zbek adabiy tilidagi 9 unlining hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati masalasi.
 - E. Quyi keng «o» unlisining lablanish-lablanmaslik belgisi masalasi.
 - F. Barcha javoblar to'g'ri.
7. Qir so'zidagi unli fonema qaysi qatorda to'g'ri tavsiflangan?
 - A. Lablashgan, orqa qator, o'rta keng.
 - B. Lablashmagan, old qator, quyi keng.
 - D. Lablashmagan, old qator «i» fonemasining orqa qator kombinator

ottenkasi.

E.Lablashmagan, old qator «i» fonemasining orqa qator pozitsion ottenkasi.

F.Lablashmagan, old qator «i» fonemasining aralash qator ottenkasi.

3. Ko'z so'zidagi unli fonema qaysi qatorda to'g'ri tavsiflangan?

A.Lablashgan, orqa qator, o'rta keng.

B.Lablashgan, orqa qator «o'»ning old qator kombinator ottenkasi, o'rta keng.

D.Lablashgan, old qator «o'»ning orqa qator ottenkasi, o'rta keng.

E.Lablashgan, aralash qator, quyi keng.

F.Lablashgan, old qator, yuqori tor unli.

4. G'isht so'zidagi unli fonema qaysi qatorda to'g'ri tavsiflangan?

A. Lablashgan, orqa qator, o'rta keng.

B. Lablashmagan, old qator, yuqori tor.

D. Lablashmagan, old qator «i»ning orqa qator kombinator ottenkasi, yuqori

tor unli.

E. Lablashmagan, orqa qator, yuqori tor.

F.Lablashgan, orqa qator, «i»ning old qator ottenkasi, yuqori tor unli.

4 talabdan iborat kichik guruhga topshiriq: quyidagi jadval sxemasini mustaqil ravishda to'ldiring.

Unli fonemalar

Tasnif belgilari	i	E	a	u	o'	o
Lablashgan						
Lablashmagan						
Yuqori tor						
O'rta keng						
Quyi keng						
Old qator						
Orqa qator						

Guruh a'zolariga jadvaldagi har bir unli ostiga to'g'ri javob ishorasi sifatida plus (+) belgisini qo'yib chiqish topshiriladi. Vazifa bajarib bo'lingach, har bir guruh jadvali boshqa guruh tomonidan tekshirilib, undagi javoblarga munosabat bildiriladi (noto'g'ri deb topilgan javoblar yoniga savol alomati qo'yiladi), so'ng guruh a'zolari javoblarga oid mulohazalarini og'zaki bayon etadi. Shu tarzda munozara-bahs uyushtiriladi. Dars oxirida o'qituvchi eng to'g'ri javoblarni aniqlab, guruh a'zolarining bilimini ball sistemasida baholaydi.

2- ilova. Uyga vazifa.

Quyidagi reja asosida ko'rsatilgan adabiyotlardan foydalanib konspekt yozing.

Reja:

- Fonetikaning o'rganish obyekti va predmeti.
- Fonetika va fonologiya munosabati.
- Fonemalar va ularning tasnifi.

Topshiriq. Unli fonemalarning tasifini jadvalga chizing va ularning oppozitiv belgilarini izohlang.

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 16, 17, 20, 25, 28, 31.

3-Mavzu

UNDOSH FONEMALAR PARADIGMASI, UNDAGI FONOLOGIK OPPOZITSİYALAR

AMALIY MASHG‘ULOTDA TA‘LIM TEXNOLOGIYASI

<i>Mashg‘ulot vaqti – 2 soat</i>	<i>Talabalar soni – 25 nafar</i>
<i>Mashg‘ulot shakli</i>	Bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish
<i>Amaliy mashg‘ulot rejasi</i>	1. Undosh fonemalarning xususiyatlari. 2. Undosh fonemalarning bir-biriga oppozitsiyalari. 3. Undosh fonemalar tasnifi.
<i>O‘quv mashg‘ulot maqsadi:</i>	“O‘zbek tilida undosh fonemalar” mavzusi yuzasidan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> – Undosh fonemalar haqida aniq tasavvur uyg‘otish. – O‘zbek tilida fonema va undosh tovushlarning lisoniy hamda nutqiy xususiyatlarini ochish. – Undosh fonemalar va uning tasnifi haqida fikrlarni kengaytirish va tahlil qilish ko‘nikmasini mustahkamlash.	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i> – Undosh fonemalar haqida adabiyotlardan olgan bilimlarini aytib beradi. – O‘zbek tilida undosh tovushlar va uning tasnifi haqida fikrlarini bildiradi. Fonema va tovush munosabati haqida xulosaga keladi. – Undosh fonemalarni tasnif qiladi. Uning fonologik oppozitsiya belgilarini aytib beradi. Tahlil qiladi.
<i>Ta‘lim berish usullari</i>	Suhbat, savol-javob, munozara, tahlil.
<i>Ta‘lim berish shakllari</i>	Ommaviy, guruhlarda ishlash.
<i>Ta‘lim berish vositalari</i>	Darslik, turli ko‘rsatilgan adabiyotlar, doska, daftar, grafik, mashqlar, tarqatma.
<i>Ta‘lim berish sharoiti</i>	Texnik ta‘minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo‘ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki nazorat: savol-javob, tahlil natijalari.

3- AMALIY MASHG‘ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta‘lim beruvchi</i>	<i>Ta‘lim oluvchi</i>

<p>Tayyorlov bosqichi</p>	<ul style="list-style-type: none"> - Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadini belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. - Mavzu bo'yicha tayanch konspekt ishlab chiqadi. - Belgilangan ta'limiy maqsadlarga erishishni ta'minlovchi o'quv mashq va topshiriqlarni ishlab chiqadi. - Kichik guruhlarda samarali faoliyatni ta'minlash uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi. - Natijalarni boholash mezonlarini ishlab chiqadi. 	
<p>1. O'quv mashg'ulotlariga kirish boshqichi (15 daqiqa)</p>	<p>1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalarni e'lon qiladi, ularning ahamiyatligi va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor-so'rov o'tkazib (1- ilova) talabalar bilimlarini faollashtiradi.</p> <p>1.3. Faoliyat kichik guruhlarda o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. (2- ilova)</p> <p>1.3. Qo'shimcha ma'lumotlar aks etgan tayanch konspektini tarqatadi.</p>	<p>Tinglaydilar.</p> <p>Savollarga javob beradi.</p>
<p>2. Asosiy bosqich (45 daqiqa)</p>	<p>2.1. Talabalarni 4 ta kichik guruhga bo'ladi. Mashg'ulotlar o'tkazish tartibini eslatadi. O'quv mashg'uloti "O'zi o'rganib, o'ziga o'rgatish", ya'ni hamkorlikda o'rganish prinsipi asosida o'tkazilishini aytadi.</p> <p>2.2. Guruhlar ishini tashkil qiladi. Matn berib uni tahlil qilish uchun 15 daqiqa beradi.</p> <p>2.2. Har bir gurug a'zosi tahlilni tugatgandan keyin boshqa talabalar bilan muhokama qilishga kirishadi O'zaro o'rgatish jarayoni boshlanadi Talabalar faoliyatini kuzatadim ularni yo'naltiradi, maslahatlar beradi. (15 daqiqa).</p> <p>2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Har bir guruhdan vakillar chiqib, faoliyat natijalarini taqdim qiladi. Taqdimot uchun</p>	<p>Kichik guruhlariga bo'linadilar.</p> <p>Topshiriq bo'yicha faoliyat boshlaydilar.</p> <p>Matnni o'qib tahlil qiladilar. Ma'lumotni muhokama qilib, fikr almashib, sistemalashtiradi.</p> <p>Berilgan tarqatma materiallarga tahlil natijalarini tushuradilar va taqdimot uchun tayyorlaydilar.</p>

	<p>har bir guruhga vaqt belgilaydi. Yo'naltiruvchi maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Javoblarni aniqlashtiradi, to'ldiradi, izoh beradi va tuzatishlar kiritadi.</p> <p>2.4. Har ber guruh taqdimoti oxirida tahlil bo'yicha xulosalar chiqaradi.</p>	Faoliyat natijalarini taqdimot qiladilar.
3. Yakuniy bosqich (15 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu yuzasidan umumiy xulosalar qiladilar.</p> <p>3.2. O'quv mashg'ulotlarining natijalarini sharhlaydi, faol talabalar bahosini e'lon qiladi.</p> <p>3.3. Mustaqil ishlash uchun vazifalar beradi: amaliy mashg'ulotga tayyorlanib kelish. Nazorat savollariga javob berish. Ilovada ko'rsatilgan topshiriq va mashqlarni bajarish. (3- ilova)</p>	Tinglaydilar.

1-ilova.

Savollariga javob toping:

1. Konsonantizm nima?
2. Hozirgi o'zbek adabiy tili konsonantizmi qanday undoshlardan tarkib topgan? Ularning soni nechta?
3. Tovush fokusi nima? Uning ahamiyati?
4. O'zbek tilining qaysi tovushlari ikki fokusli? Sababi?
5. Undosh fonemalar qaysi belgilar asosida tasnif qilinadi?
6. Artikulatsiya o'rniga ko'ra undoshlar tasnifi?
7. Artikulatsiya usuliga ko'ra undoshlar tasnifi?
8. Un paychalari ishtirokiga ko'ra undoshlar tasnifi?
9. Ovoz va shovqin munosabatiga ko'ra undoshlar tasnifi?
10. O'zbek tili konsonantizmidagi munozarali masalalar?

(S.Otamirzayeva, I.A.Kissen, A. Mahmudov, A.Nurmoov, Sh. Rahmatullayev, V.V.Reshetov, A.Abduazizov, M.Mirtojiyev, X. Doniyorov, B. To'y-chiboyev va boshqalarning qarashlari asosida).

-ilova.

Guruhlarda ishlash qoidasi

- Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
- Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondoshing.
- Agar yordam kerak bo'lsa, albatta murojaat qiling.
- Agar sizdan yordam so'rasha, albatta yordam bering.
- Guruhlar faoliyati natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart,

Aniq tushunmog'imiz lozim:

- Boshqalarga o'rgatish orqali o'zimiz o'rganamiz;
- Biz bitta kemadamiz: yoki birgalikda suzib chiqamiz, yoki birgalikda cho'kib ketamiz.

1-topshiriq (Q-3, 27-bet). Bir undosh bilan farqlanuvchi bir bo'g'inli so'zlardan (kvaziomonimlardan) bir nechasini topib, ulardagi undoshlarni tavsiflang

N a m u n a: **bob** va **bop**. Bu so'zlarda «b» va «p» undoshlari qatnashgan. So'z boshidagi «b»: 1) artikulyatsiya o'rniga ko'ra – lab-lab (bilabial); 2) artikulyatsiya usuliga ko'ra – sof portlovchi; 3) un paychalari ishtirokiga ko'ra- jarangli; 4) ovoz bilan shovqin munosabatiga ko'ra – shovqinli. Bu pozitsiyada (initsialda) «b» fonemasi o'zining asosiy ottenkasida namoyon bo'lmoqda. Birinchi so'z oxiridagi «b»: 1) artikulyatsiya o'rniga ko'ra – lab-lab (bilabial); 2) artikulyatsiya usuliga ko'ra sof portlovchi; 3) un paychalari ishtirokiga ko'ra – jarangli «b» fonemasining jarangsizlashgan pozitsion ottenkasi. Bu pozitsiyada (finalda) «b» fonemasi o'zining o'zgargan ottenkasida reallashmoqda; 4) ovoz va shovqin munosabatiga ko'ra – shovqinli.

1-mashq (Q-3, 27-bet). Yod va yot, barg va berk so'zlaridagi barcha fonemalarni tavsiflang.

N a m u n a: Yod so'zi tarkibida y+o+d fonemalari qo'llangan. «Y» fonemasi: 1) artikulyatsiya o'rniga ko'ra – til o'rta; 2) artikulyatsiya usuliga ko'ra – sirg'aluvchi; 3) un paychalari ishtirokiga ko'ra – jarangli; 4) ovoz bilan shovqin munosabatiga ko'ra – sonor (og'iz sonanti).

3-topshiriq. Berilgan gaplarni fonetik tahlil qiling (Tarqatma material beriladi).

Gap _____

So'zlar	Bo'g'inga bo'linishi	Tovush miqdori	
		Unlilar miqdori	Undoshlar miqdori
1.			
2.			

2-topshiriq (Q-3, 27-29-betlar). Test savollari asosida o'z bilimingizni sinab ko'ring.

1. Konsonantizm tizimiga to'g'ri javob berilgan qatorni aniqlang?

- A. Muayyan tildagi unlilar tizimi.
- B. Muayyan tildagi undoshlar tizimi
- D. Muayyan tildagi fonemalar va ularning ottenkalari.
- E. Muayyan tildagi fonemalarning ottenkalari, variantlari va variatsiyalari.
- F. Muayyan tildagi grafemalar tizimi.

2. O'zbek tili undoshlari qaysi belgilari asosida tasnif qilinadi?

- A. 1) hosil bo'lish o'rniga ko'ra; 2) hosil bo'lish usuliga ko'ra; 3) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra.
- B. 1) paydo bo'lish o'rniga ko'ra; 2) aytilish usuliga ko'ra; 3) tovush

paychalarining ishtirokiga ko'ra; 4) ovoz ishtirokiga ko'ra; 5) sostaviga ko'ra.

D. 1) tarkibida un bo'lishi yoki bo'lmasligiga ko'ra; 2) artikulyatsiya o'rniga ko'ra; 3) artikulyatsiya usuliga ko'ra.

E. 1) artikulyatsiya o'rniga ko'ra; 2) artikulyatsiya usuliga ko'ra; 3) un paychalari ishtirokiga ko'ra; 4) ovoz va shovqin munosabatiga ko'ra.

F. Barcha javoblar to'g'ri.

3. Labial undoshlarning qanday turlari bor?

A. Lab-lab, lab-tish.

B. Lab-tish, til-tish.

D. Lab-lab, til oldi.

E. Lab-lab, dental-dorsal.

F. Lab-lab, til oldi-tanglay.

4. Til undoshlarining qanday turlari bor?

A. Til oldi undoshlari.

B. Til o'rta undoshi.

D. Sayoz til orqa undoshlari.

E. Chuqur til orqa undoshlari.

F. Barcha javoblar to'g'ri.

5. Qaysi tovush bo'g'iz undoshi (faringal undosh) sanaladi?

A. Q undoshi.

B. G' undoshi.

D. X undoshi.

E. H undoshi.

F. Barcha javoblar to'g'ri.

6. Artikulyatsiya usuliga ko'ra undosh fonemalarning guruhlanishi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Til oldi, portlovchi, jarangli, shovqinli.

B. Lab-lab, sirg'aluvchi, jarangli, shovqinli.

D. Portlovchilar, sirg'aluvchilar, affrikatalar (qorishiq undoshlar), yumuq fokusli burun tovushlari, titroq tovush.

E. Til oldi dorsal, til oldi alveolyar, til oldi tanglay undoshlari.

F. Palatal, velyar, uvulyar va faringal undoshlar.

7. Un paychalari ishtirokiga ko'ra undoshlarning guruhlanishi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Jaranglilar va shovqinlilar.

B. Jaranglilar va jarangsizlar.

D. Jarangsizlar va sonorlar.

E. Yon tovushlar va titroq tovushlar.

F. Jaranglilar va affrikatalar.

8. Ovoz va shovqin munosabatlariga ko'ra undoshlarning guruhlanishi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Sonorlar va shovqinlilar.

B. Sonorlar va jarangsizlar.

D. Sonorlar va qorishiq portlovchilar.

E. Sonorlar va sof portlovchilar.

F. Burun sonantlari va og'iz sonantlari.

9. Sonantlar shovqinlilardan qanday farqlanadi?

A. Sonantlar faqat ovozdan tarkib topadi, shovqinlilarda ovoz bilan birga shovqin ham qatnashadi.

B. Sonantlarda rezonator tonlar qatnashmaydi, shovqinlilarda esa rezonator tonning bo'lishi shart.

D. Sonantlarda ovoz shovqindan ustun bo'ladi, shovqinlilarda esa shovqin ko'p, ovoz kam bo'ladi yoki ovoz butunlay qatnashmaydi.

E. Sonantlarda rezonatorlar ishtirok etadi, ular hatto bo'g'in hosil qila olishi mumkin. Shovqinlilarda bu xususiyat yo'q.

F. S va D.

10. Qaysi qatorda o'zbek tili sonantlari to'liq ko'rsatilgan?

A. L, M.

B. L, M, N.

D. L, M, N, V.

E. L, M, N, V, R.

F. L, M, N, v, R, Y.

11. Velyar va uvulyar undoshlar qanday farqlanadi?

A. Velyar undoshlar tilning orqa qismi bilan yumshoq tanglay orasidagi to'siqda hosil qilinadi. Uvulyar undoshlar esa tilning eng orqa qismi (ildizi) bilan kichik til o'rtasidagi to'siqda shakllanadi.

B. Velyar undoshlar kichik til bilan tilning eng orqa qismi oralig'idagi to'siqda yuzaga keladi, uvulyar undoshlar esa til bilan qattiq tanglay orasida hosil bo'ladi.

D. Velyar undoshlar bo'g'izda, uvulyar undoshlar esa og'iz bo'shlig'ida yuzaga keladi.

E. Velyar undoshlar tilning uchi bilan pastki tishlar orasidagi to'siqda shakllanadi; uvulyar undoshlar esa bo'g'izda hosil qilinadi.

F. Velyar undoshlarda rezonator tonlarning bo'lishi shart, uvulyar undoshlarda esa rezonator tonlar qatnashmaydi.

3- ilova.

Uyga vazifa.

1-mashq. 1. Ko'zdan yurakka tomgan, yurakdan bo'g'iz osmoniga borib, sig'may qolgan darddan yaralgan ovozning ko'z yoshlari. (*S.Say.*) 2. Lekin shunisi haqiqatki, biz fan va texnika taraqqiyotida ham har qancha yutuqlarga erishmaylik, hammamiz, afsuski, bir-birimizni yamlab yutadigan yirtqichligimizcha qolayotirmiz. (*Ch.Ayt.*) 3. To'g'ri aytdingiz, bozor, ozor, zor, or ... ozor chekasan, zor bo'lasan, oriyatingdan ayrilasan... Mana bozorning sharofati!.. . (*X.Dav*) 4. G'orga chuqur sukunat cho'kdi, adolatpanoh hakam esa o'z xayollari og'ushiga sho'ng'idi. (*J.Lon.*) 5. Bodomda jon bor, qilmish-qidirmish bor. (*T.Mur.*)

Topshiriqlar. 1. Berilgan gaplarni diqqat bilan o'qing, so'zlardagi korrelyativ belgili va korrelyativ belgisiz tovushlarni toping. 2. Korrelyativ belgili va korelyativ belgisiz undoshlar xususiyat-larini alohida-alohida sharhlang. 3. a) Korrelyativ belgililar guruhiga kiruvchi undosh tovushlardagi umumiylikni toping, b) korrelyativ belgisizlar guruhiga kiruvchi undosh tovushlardagi umumiylikni aniqlang. 4. Guruhlarga mansub undosh tovushlarni tasniflang. 5. Tovushlar orasidagi ziddiyat, munosabatlarni aniqlang.

2-mashq. 1. Lek erur bisyor dushman, bo'lsa u bir dona ham! (*E.Voh.*) 2. U avval bir oqardi, bir bo'zardi, keyin hazilga burmoqchi bo'ldi. (*D.Niyo.*) 3. Hayot dilni ravshan qiladigan bir nurki, inson har vaqt shu manaviy nurning ziyosiga muhtojdir. (*A.Avl.*) 4. Men sening ko'zlaringga termulib-termulib o'tirgim keladi, sening ko'zlaringdagi ko'lga cho'kkim keladi. (*N.Esh.* aylagan kishiga bu so'z bir kitobdir. (*S.Say.*)

Topshiriqlar. 1. Gaplarni diqqat bilan o'qing, so'zlar tarkibidagi unli va undosh tovushlarni ajrating. 2. Mavjud undosh tovushlar turli o'rinlarda qo'llangan so'zlarni tuzib, sirani boyiting. 3. Unli va undosh tovushlarning o'ziga xos xususiyatlarini alohida sharhlang. 4. Gaplarni quyida keltirilgan grafik asosida tahlil qiling.

UNLILAR TASNIFI

Unli	Tilning vertikal (tik) harakatiga ko'ra	tilning gorizontaal (yotiq) harakatiga ko'ra	Labning ishtirokiga ko'ra
	<i>yuqori tor o'rta keng quyi keng</i>	<i>til oldi til orqa</i>	<i>lablanmagan lablangan</i>
	<i>yuqori tor o'rta keng quyi keng</i>	<i>til oldi til orqa</i>	<i>lablanmagan lablangan</i>
	<i>yuqori tor o'rta keng quyi keng</i>	<i>til oldi til orqa</i>	<i>lablanmagan lablangan</i>

UNDOSHLAR TASNIFI

Undosh	I. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra.	II. Hosil bo'lish usuliga ko'ra	III. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra.	IV. Ovozning miqdoriga ko'ra
	<i>Lab undoshi: lab-lab; lab-tish; Til undoshi: til oldi; til-tish; til-milk; til o'rta; til orqa: yaqin (sayoz) til orqa, chuqur til orqa; Bo'g'iz undoshi; Burun undoshi</i>	<i>portlovchi sirg'aluvchi portlovi-sirg'aluvchi</i>	<i>jarangli jarangsiz (bo'lsa jufti)</i>	<i>sonor shovqinli</i>
	<i>Lab undoshi: lab-lab lab-tish; Til undoshi: til oldi: til-tish; til-milk; til o'rta; til orqa: yaqin (sayoz) til orqa, chuqur til orqa; Bo'g'iz undoshi; Burun undoshi</i>	<i>portlovchi sirg'aluvchi portlovi-sirg'aluvchi</i>	<i>jarangli jarangsiz (bo'lsa jufti)</i>	<i>sonor shovqinli</i>

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 16, 17, 20, 25, 26, 37.

DARS YAKUNI

1. Xulosa.
2. Baholash ballari e'lon qilinadi.

AMALIY MASHG'ULOTDA TA'LIM TEXNOLOGIYASI

<i>Mashg'ulot vaqti – 2 soat</i>	<i>Talabalar soni – 25 nafar</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish
<i>Amaliy mashg'ulot rejasi</i>	1. Bo'g'in va uni ajratish tamoyillari. 2. Bo'g'inning turlari. 3. O'zbek tilida urg'uning ahamiyati. 4. Urg'u va uning turlari.
<i>O'quv mashg'ulot maqsadi:</i>	“O'zbek tilida urg'u va bo'g'in” mavzusi yuzasidan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> – Bo'g'in haqida aniq tasavvur uyg'otish. – Bo'g'inni ajratish ko'nikmasini shakllantirish. – O'zbek tilida urg'uning ahamiyatini asoslash. – Urg'uni tushish o'rinlarini aniqlash ko'nikmasini hosil qilish.	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> – Bo'g'in haqida adabiyotlardan olgan bilimlarini aytib beradi. – O'zbek tilida bo'g'inlar va ularning turlari haqida fikrlarini bildiradi. – Urg'u va uning turlari haqida keng ma'lumotga ega bo'ladi. – Urg'uni toppish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Tahlil qiladi.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Suhbat, savol-javob, munozara, tahlil.
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, guruhlarda ishlash.
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Darslik, turli ko'rsatilgan adabiyotlar, doska, daftar, grafik, mashqlar, tarqatma.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob, tahlil natijalari.

4- AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchi</i>
Tayyorlov bosqichi	– Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadini belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. – Mavzu bo'yicha tayanch konspekt ishlab chiqadi. – Belgilangan ta'limiy maqsadlarga erishishni ta'minlovchi o'quv topshiriqlarni ishlab chiqadi.	

	<p>– Kichik guruhlarda samarali faoliyatni ta'minlash uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi.</p> <p>– Natijalarni boholash mezonlarini ishlab chiqadi.</p>	
1. O'quv mashg'ulotlariga kirish boshqichi (15 daqiqa)	<p>1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalarni e'lon qiladi, ularning ahamiyatliligi va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor-so'rov o'tkazib (1- ilova) talabalar bilimlarini faollashtiradi.</p> <p>1.3. Faoliyat kichik guruhlarda o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. (2- ilova)</p> <p>1.3. Qo'shimcha ma'lumotlar aks etgan tayanch konspektini tarqatadi.</p>	<p>Tinglaydilar.</p> <p>Savollarga javob beradi.</p>
2. Asosiy bosqich (45 daqiqa)	<p>2.1. Talabalarni 4 ta kichik guruhga bo'ladi. Mashg'ulotlar o'tkazish tartibini eslatadi. O'quv mashg'uloti "O'zi o'rganib, o'zgaga o'rgatish", ya'ni hamkorlikda o'rganish prinsipi asosida o'tkazilishini aytadi.</p> <p>2.2. Guruhlar ishini tashkil qiladi. Matn berib uni tahlil qilish uchun 15 daqiqa beradi.</p> <p>2.2. Har bir gurug a'zosi tahlilni tugatgandan keyin boshqa talabalar bilan muhokama qilishga kirishadi O'zaro o'rgatish jarayoni boshlanadi Talabalar faoliyatini kuzatadim ularni yo'naltiradi, maslahatlar beradi. (15 daqiqa).</p> <p>2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Har bir guruhdan vakillar chiqib, faoliyat natijalarini taqdim qiladi. Taqdimot uchun har bir guruhga vaqt belgilaydi. Yo'naltiruvchi maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Javoblarni aniqlashtiradi, to'ldiradi, izoh beradi va tuzatishlar kiritadi.</p> <p>2.4. Har ber guruh taqdimoti oxirida tahlil bo'yicha xulosalar chiqaradi.</p>	<p>Kichik guruhlariga bo'linadilar.</p> <p>Topshiriq bo'yicha faoliyat boshlaydilar.</p> <p>Matnni o'qib tahlil qiladilar.</p> <p>Ma'lumotni muhokama qilib, fikr almashib, sistemalashtiradi.</p> <p>Berilgan tarqatma materiallarga tahlil natijalarini tushuradilar va taqdimot uchun tayyorlaydilar.</p> <p>Faoliyat natijalarini taqdimot qiladilar.</p>
3. Yakuniy	3.1. Mavzu yuzasidan umumiy xulosalar	Tinglaydilar.

bosqich (15 daqiqa)	<p>qiladilar.</p> <p>3.2. O'quv mashg'ulotlarining natijalarini sharhlaydi, faol talabalar bahosini e'lon qiladi.</p> <p>3.3. Mustaqil ishlash uchun vazifalar beradi: amaliy mashg'ulotga tayyorlanib kelish. Nazorat savollariga javob berish. Ilovada ko'rsatilgan topshiriq va mashqlarni bajarish. (3- ilova)</p>	
---------------------	--	--

1- ilova.

Tezkor savollar va topshiriqlar:

- Bo'g'in qanday ajratiladi?
- Singil, ko'ngil so'zlari bo'g'inga qay tarzda ajratiladi?
- Bo'g'inning qanday turlari bor?
- O'zbek tilida urg'u qanday turlarga bo'linadi?
- Urg'u hamma tillarda bir xilmi?
- Urg'u olmaydigan so'zlar yoki qo'shimchalar bormi?

Uyga vazifa.

1-mashq. 1.Gaplarni kuzatib, bo'g'inlarga ajrating. 2.Bo'g'inlarning tuzilishiga ko'ra turlarini aniqlang. 3.Ochiq va yopiq bo'g'inlarni aniqlang. 4.Berkitilgan va berkitilmagan bo'g'inlarga ajrating. 5.Aniqlangan bo'g'inlar ishtirokida so'zlar hosil qiling. Quyidagi grafik asosida tahlil qiling.

Iltimos

*Senga balki ayon, balki noayon
Bir hayot hadisini aylayin bayon.
Mayli, suvlar kechgin, mayli, o'tda
yon,
Hargiz iltimosga kuning qolmasin.*

*Ta'nadir dunyoda yomondan yomon,
Non berib rangingni etgaydir somon.
Aqling butun bo'lsa, to'rt muchang
omon
Hargiz iltimosga kuning qolmasin*

*Bo'ri emas deysan odam odamga,
Ko'zing kattaroq och, boqqil olamga,
Birov otamga der, birov onamga,
Hargiz iltimosga kuning qolmasin.*

*Saxovat axliga garchi yuz burdim,
Gohi dam hayratda lol qotib turdim,
Norning it oldida cho'kkanin ko'rdim,
Hargiz iltimosga kuning qolmasin.*

*Oh, do'stim, demagil qaydan bu
tuyg'u,
She'rim, sen uchun ham bo'lolsin
ko'zgu.
Mening bir jaydari falsafamdir bu:
Hargiz iltimosga kuning qolmasin.*

(A.Oripov.)

Tarqatma material.

Bo'g'in tasnifi

So'zlar va uning bo'g'inga bo'linishi

Bo'g'in	Bo'g'in modeli	Unli yoki undosh bilan tugashiga	Ikki tomoni undosh bilan o'ralganiga ko'ra	Urg'u olishiga ko'ra
		<i>ochiq bo'g'in yopiq bo'g'in</i>	<i>berkitilgan berkitilmagan</i>	<i>urg'uli urg'usiz</i>
		<i>ochiq bo'g'in yopiq bo'g'in</i>	<i>berkitilgan berkitilmagan</i>	<i>urg'uli urg'usiz</i>

Eslatma: unlilar *V* bilan, undoshlar *C* bilan belgilanadi.

URG'U

Ma'no urg'usi tushgan so'z _____

Urg'u turi va so'zning qayeriga tushganligi

So'z	Nechanchi bo'g'inga tushgan	So'zning qayeriga tushishiga ko'ra	Erkin urg'uli bo'lsa, omonimi
	___ - <i>bo'g'inga urg'u olmagan</i>	<i>erkin urg'u bog'liq urg'u</i>	
	___ - <i>bo'g'inga urg'u olmagan</i>	<i>erkin urg'u bog'liq urg'u</i>	

2-mashq. Berilgan omonim so'zlarni ta'kidli va ta'kidsiz o'qing. Ularning urg'usi asosida farqlanishi uchun zarur nutqiy sharoitlarni tavsiflang. Ta'kidsiz aytilgan so'zlarni farqlovchi omillarni aniqlang. So'zlarning urg'uli urg'usiz variantlari uchun zarur matn tuzing.

Yangi-yangi, yaxshi-yaxshi, hozir-hozir, olma-olma, surma-surma, atlas-atlas, bo'lib-bo'lib.

3-mashq. Ko'chiring. Urg'u olmaydigan birliklarni aniqlang.

Alomat: hamma gap shunda-da nolimaysiz! Ko'nikib ketgansiz. Yaralar toshga aylangan – og'riq sezmaydi. Dod solib baqirish-ku, qo'lingizdan kelmas, hech qursa ingrab qo'yishga ham qodir emassiz, Qo'chqor aka! Qalbingizning unutilib ketgan, o'zingiz bilmaydigan allaqaysi burchaklarida miltillayotgan ushoqqina norozilikdan qo'rqasan, uni sezmaslikka olasiz! To'g'ri, qadr-qimmatingiz oshkora haqoratlan-ganda o'sha miltillayotgan cho'g' alanga olganday bo'ladi va siz uni aroq bilan o'chirishga o'rinasiz. Dunyoga shirakayf ko'zlar bilan qarab, taskin topasiz, lekin ertasi kayfingiz tarqab, dunyo yana asl holiga qaytadi! Shunda yig'lamoqdan o'zga chorangiz qolmaydi... Keyin o'ksib-o'ksib yig'laydisiz. (Sh.Bosh.)

4-mashq. Quyida berilgan baynalmilal soʻzlarning urgʻusini toʻgʻri qoʻyib, talaffuz qiling. Transkripsiyasini yozing. Qatorni davom ettiring.

Atom, adres, biolog, biologiya, jurnal, leksika, morfema, akademik.

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 16, 17, 25, 28, 31.

– 5–
Mavzu

FONETIK JARAYONLAR

AMALIY MASHGʻULOTDA TAʼLIM TEXNOLOGIYASI

<i>Mashgʻulot vaqti – 2 soat</i>	<i>Talabalar soni – 25 nafar</i>
<i>Mashgʻulot shakli</i>	Bilimlarni mustahkamlash va amaliy koʻnikmalarni shakllantirish
<i>Amaliy mashgʻulot rejasi</i>	1. Fonetik jarayonlar haqida tushuncha. 2. Tovush oʻzgarishlarining turlari.
<i>Oʻquv mashgʻulot maqsadi:</i>	“Fonetik jarayonlar” mavzusi yuzasidan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy koʻnikmalarni shakllantirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> – Fonetik jarayonlar haqida keng tushuncha berish. – Tovush oʻzgarishlarining turlarini aniqlash koʻnikmasini shakllantirish. – Tovush oʻzgarishlarining orfoepiya bilan munosabati.	<i>Oʻquv faoliyati natijalari:</i> – Fonetik jarayonlar haqida adabiyotlardan olgan bilimlarini aytib beradi. – Tovush oʻzgarishlarini aniqlaydi. – Tovush oʻzgarishlarining adabiy tilga munosabatini tushunadi. – Tahlil qiladi.
<i>Taʼlim berish usullari</i>	Suhbat, savol-javob, munozara, tahlil.
<i>Taʼlim berish shakllari</i>	Ommaviy, guruhlarda ishlash.
<i>Taʼlim berish vositalari</i>	Darslik, turli koʻrsatilgan adabiyotlar, doska, daftar, grafik, mashqlar, tarqatma.
<i>Taʼlim berish sharoiti</i>	Texnik taʼminlangan, guruhlarda ishlash uchun moʻljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Ogʻzaki nazorat: savol-javob, tahlil natijalari.

5- AMALIY MASHGʻULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Taʼlim beruvchi</i>	<i>Taʼlim oluvchi</i>
Tayyorlov bosqichi	– Mavzuni aniqlaydi, taʼlimiy maqsadini belgilaydi va kutilayotgan	

	<p>natijalarni shakllantiradi.</p> <ul style="list-style-type: none"> – Mavzu bo'yicha tayanch konspekt ishlab chiqadi. – Belgilangan ta'limiy maqsadlarga erishishni ta'minlovchi o'quv topshiriqlarni ishlab chiqadi. – Kichik guruhlarda samarali faoliyatni ta'minlash uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi. – Natijalarni boholash mezonlarini ishlab chiqadi. 	
<p>1. O'quv mashg'ulotlariga kirish boshqichi (15 daqiqa)</p>	<p>1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalarni e'lon qiladi, ularning ahamiyatligi va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor-so'rov o'tkazib (1- ilova) talabalar bilimlarini faollashtiradi.</p> <p>1.3. Faoliyat kichik guruhlarda o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. (2- ilova)</p> <p>1.3. Qo'shimcha ma'lumotlar aks etgan tayanch konspektini tarqatadi.</p>	<p>Tinglaydilar.</p> <p>Savollarga javob beradi.</p>
<p>2. Asosiy bosqich (45 daqiqa)</p>	<p>2.1. Talabalarni 4 ta kichik guruhga bo'ladi. Mashg'ulotlar o'tkazish tartibini eslatadi. O'quv mashg'uloti "O'zi o'rganib, o'zgaga o'rgatish", ya'ni hamkorlikda o'rganish prinsipi asosida o'tkazilishini aytadi.</p> <p>2.2. Guruhlar ishini tashkil qiladi. Matn berib uni tahlil qilish uchun 15 daqiqa beradi.</p> <p>2.2. Har bir gurug a'zosi tahlilni tugatgandan keyin boshqa talabalar bilan muhokama qilishga kirishadi O'zaro o'rgatish jarayoni boshlanadi Talabalar faoliyatini kuzatadim ularni yo'naltiradi, maslahatlar beradi. (15 daqiqa).</p> <p>2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Har bir guruhdan vakillar chiqib, faoliyat natijalarini taqdim qiladi. Taqdimot uchun har bir guruhga vaqt belgilaydi. Yo'naltiruvchi maslahatchi sifatida ishtirok</p>	<p>Kichik guruhlarga bo'linadilar.</p> <p>Topshiriq bo'yicha faoliyat boshlaydilar.</p> <p>Matnni o'qib tahlil qiladilar. Ma'lumotni muhokama qilib, fikr almashib, sistemalashtiradi.</p> <p>Berilgan tarqatma materiallarga tahlil natijalarini tushuradilar va taqdimot uchun tayyorlaydilar.</p>

	etadi. Javoblarni aniqlashtiradi, to'ldiradi, izoh beradi va tuzatishlar kiritadi. 2.4. Har ber guruh taqdimoti oxirida tahlil bo'yicha xulosalar chiqaradi.	Faoliyat natijalarini taqdimot qiladilar.
3. Yakuniy bosqich (15 daqiqa)	3.1. Mavzu yuzasidan umumiy xulosalar qiladilar. 3.2. O'quv mashg'ulotlarining natijalarini sharhlaydi, faol talabalar bahosini e'lon qiladi. 3.3. Mustaqil ishlash uchun vazifalar beradi: amaliy mashg'ulotga tayyorlanib kelish. Nazorat savollariga javob berish. Ilovada ko'rsatilgan topshiriq va mashqlarni bajarish. (3- ilova)	Tinglaydilar.

FONETIK HODISALAR

Tayanch so'zlarning o'zbekcha - inglizcha-ruscha lug'ati

O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Assimilatsiya	Assimilation	Ассимиляция
Dissimilatsiya	Dissimilation	Диссимиляция
Akkomodatsiya	Accommodation	Аккомодация
Nazalizatsiya	Nazalization	Назализация
Reduksiya	The reduction of	Редукция
Spirantizatsiya	Spirantization	Спирантизация
Proteza	Prothese	Протеза
Epenteza	Epenthese	Эпентеза
Epiteza	Epithese	Эпитеза
Prokopa	Procope	Прокопа
Sinkopa	Sincopé	Синкопа
Apokopa	Apocope	Апокопа
Metateza	Metathesis	Метатеза
Geminatsiya	Germination	Геминация
Degeminatsiya	Degemination	Дегеминация

Tezkor savollar va topshiriqlar:

- Fonetik o'zgarishlar deganda nimani tushunasiz.
- Tovush o'zgarishlari qanday turlarga bo'linadi?
- Assimilyatsiya nima?
- Dissimilyatsiya haqida?
- Metateza nima?

25-topshiriq (Q-3, 30-bet) savollariga javob toping:

1. Kombinator omillar nima? Ular fonemaning qanday ottenkasini yuzaga keltiradi?
2. Assimilyatsiya nima? Uning qanday turlari bor?
3. Akkomodatsiya hodisasi assimilyatsiyadan qanday farqlanadi? Uning qanday turlari bor?
4. Qanday fonetik hodisa dissimilyatsiya sanaladi?
5. Assimilyatsiya, dissimilyatsiya va akkomodatsiyada fonemalarning qanday ottenkalari yuzaga keladi?

11-mashq (Q-3, 30-bet). Quyidagi matndan fonetik dissimilatsiya, assimilatsiya va akkomodatsiyaga uchragan holatlarni aniqlang, ularning qonuniyatlarini tushuntiring

Buyuk matematik, astronom va geograf Muhammad al-Xorazmiy VIII asrning oxiri va IX asrning birinchi yarmida yashab ijod etdi. Bu davrda Markaziy Osiyo arab xalifaligi tarkibiga kirar edi.

Rivojlanib kelayotgan mavjud tuzum taqozo qilgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar bu davrdagi taraqqiyot jarayonining asosiy omillaridan biri bo'ldi. qurilish, savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarni yanada taraqqiy ettirish uchun astronomiya, geodeziya, geometriya kabi fanlarni rivojlantirish zaruriyati tug'ildi. O'sha davrning ilg'or olimlari bu fanlarning amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lib, Muhammad al-Xorazmiy esa shu olimlarning peshqadami va yo'l boshchisi edi.

(«Ma'naviyat yulduzlari»dan)

27-topshiriq (Q-3, 30-31-betlar) savollariga javob bering.

1. So'z tarkibida fonetik o'zgarishga olib keladigan pozitsion omillarga nimalar kiradi?
2. Pozitsion omillar ta'sirida fonemaning qanday ottenkalari shakllanadi?
3. Pozitsion omillar ta'sirida yuz beradigan o'zgarishlarning qanday turlari bor?
4. Kombinator va pozitsion omillar fonetik o'zgarish jarayonida aralash (kompleks) holda ishtirok etishi mumkinmi?
5. Spirantizatsiya nima? U qanday omillarga tayanadi?
6. Sintagmatik omillarga nimalar kiradi? Bu omillar ta'sirida qanday o'zgarishlar yuz beradi?
7. Umumturkiy so'zlarning fonetik tarkibida qanday pozitsion va sintagmatik xususiyatlar bor? Shu xususiyatlar ta'sirida ayrim o'zlashma (olinma) so'zlar tarkibida qanday o'zgarishlar bo'lib turadi?
8. Proteza nima? U qanday holatlarda yuz beradi?
9. Epenteza va epiteza hodisalarini qanday tushunasiz? Bu hodisalarning yuz berishi qanday omillarga asoslanadi?
10. Qanday holatlarda va nima sababdan so'z tarkibidagi

ayrim tovushlar talaffuzda tushirib qoldiriladi?

11. Tovush tushishining qanday turlari bor?
12. Metateza nima?
13. Geminatsiya hodisasini qanday tushunasiz?
14. Nazalizatsiya qanday omillar ta'sirida yuz beradi?
15. Sandxi qanday hodisa? Aferezis-chi?
16. Sinerezis nima? U qanday holatda yuz beradi?

28-topshiriq. O'g'il, og'iz, burun, mag'iz so'zlariga egalik affikslari qo'shilganda qanday fonetik hodisa yuz berishini aniqlang, buning sababini tushuntiring.

29- topshiriq. (Q-3, 32-34-betlar). Test savollari asosida o'z bilimingizni sinab ko'ring.

1. Uf so'zida qanday fonetik hodisa sodir bo'lgan?

A. Lab-tish «f» undoshi lablashgan «u» ning ta'sirida lab-lab «f» ga aylangan.

Bu hodisa tilshunoslikda spirantizatsiya deb ataladi.

V. . . . akkomodatsiya deb ataladi.

S. . . . assimilatsiya deb ataladi.

D. . . . eliziya deb ataladi.

E. . . . epenteza deb ataladi.

2. Ro'za, rus so'zlari boshida jonli so'zlashuvda bir «o'»ning orttirilishi (o'raza, o'ris deb talaffuz etilishi) qanday hodisa sanaladi?

A. Epiteza.

V. Epenteza.

S. Diereza.

D. Eliziya.

E. Proteza.

3. O'rin, buyur so'zlariga affikslar qo'shilganda o'zak oxiridagi unlining tushib qolishi (o'rin > o'rnashmoq, buyur > buyruq kabi talaffuz etilishi) qanday hodisa sanaladi?

A. Prokopa.

V. Epenteza.

S. Sinkopa.

D. Proteza.

E. Epiteza.

4. Bilan, biroq, tilak, sira, pirovardida so'zlarining birinchi bo'g'inidagi «i» ning talaffuzda kuchsizlanishi (blan, broq, tlak, sra, provardida tarzida talaffuz etilishi) qanday hodisa sanaladi?

A. Sinkopa.

V. Prokopa.

S. Reduksiya.

D. Geminatsiya.

E.Spirantizatsiya.

5.Tuproq soʻzi tarkibidagi p va r undoshlarining ayrim shevalarda yoxud jonli soʻzlashuvda oʻrin almashinuvi (turpoq shaklida qoʻllanilishi) qanday hodisa hisoblanadi?

A.Spirantizatsiya.

V.Assimilyatsiya.

S.Prokopa.

D.Proteza.

E.Metateza.

6.Goʻsht, gʻisht, xursand soʻzlari oxiridagi undoshning talaffuzda tushib qolishi (goʻsh, gʻish, xursan deb talaffuz qilinishi) qanday fonetik hodisa sanaladi?

A.Proteza

V.Prokopa.

S.Sinkopa.

D.Apokopa.

E.Epenteza.

7.Birorta > bironta. Bunda qanday fonetik hodisa sodir boʻlgan?

A.Assimilyatsiya.

V.Dissimilyatsiya.

S.Akkomodatsiya.

D.Metateza.

E. Austeza.

8.Bank > banka, tank > tanka, kiosk > kioska soʻzlari oxirida bir unlining orttirilishi qanday hodisa sanaladi?

A.Apokopa.

V.Sinkopa.

S.Prokopa.

D.Proteza.

E.Epiteza.

9.Bora oldi > boroldi shakllarida bir tovushning tushib qolishi qanday hodisa sanaladi?

A.Metateza.

V.Proteza.

S.Eliziya.

D.Epiteza.

E.Epenteza.

10.Qishloq > qishlogʻimiz, toboq > tovoq soʻzlarida portlovchi «q» va «b» undoshlarining sirgʻaluvchi «gʻ» va «v» ga oʻtishi qanday fonetik hodisa sanaladi?

A.Austeza.

V.Diereza.

S.Gaplologiya.

D.Eliziya.

E.Spirantzatsiya.

11.Fikr, mayl soʻzlarida bir «i» ning orttirilish holatlari (fikr, mayil tarzida

talaffuz etilishi) qanday hodisa sanaladi?

A. Proteza.

V. Epenteza.

S. Epiteza.

D. Eliziya.

E. Sinkopa.

12. Yozar edi > yozardi, yozgan emish > yozganmish kabi ixchamlashuvlar natijasida sodir bo'ladigan fonetik o'zgarishlar qanday hodisa hisoblanadi?

A. Gaplologiya.

V. Prokopa.

S. Aferezis.

D. Sandxi.

E. S va D.

13. So'z tarkibidagi ikkita bir xil bo'g'indan birining talaffuzda tushib qolishi (morfofonologiya > morfonologiya kabi) qanday fonetik hodisa sanaladi?

A. Austeza.

V. Prokopa.

S. Eliziya.

D. Apokopa.

E. Gaplologiya.

14. Yilon > ilon, yigna > igna so'zlari boshidagi «y» ning tushib qolganligi qanday fonetik hodisa sanaladi?

A. Proteza.

V. Prokopa.

S. Epenteza.

D. Sinkopa.

E. Epiteza.

Uyga vazifa.

1-mashq. 1. Gaplarni diqqat bilan o'qing, fonetik o'zgarish bo'lgan so'zlarni aniqlang. 2. O'zgarishga uchragan so'zlarning qaysi yozuv asosida yozilganini aniqlang. 3. O'zgarishga uchragan so'zlardan mustaqil topishga harakat qiling.

1. Sinovlarda men chiniqdim, qasamimga sodiqman. (*Sh. Rash.*) 2. Ikkovi valsqa raqs tushib, shamolday gir aylanib turganlarida, oyog'i kimgadir tegib ketdi. (*S. Nur.*) 3. Tanaffusga chalingan qo'ng'iroqning keti uzilmasdanoq, auditoriya eshigi lang ochildi-yu, o'qituvchi bilan izma-iz bolalar yo'lakka oqib chiqishdi. (*S. Ahm.*) 4. Issiq ovqat, choy-poylarimiz shularning bo'ynida. (*J. Abd.*) 5. Munavvar eng yaqin do'stini to'satdan uchratganday o'rnidan turib ketdi. (*S. Ahm.*) 6. Uni bunday qiynoqdan faqat qo'ng'iroqqina qutqardi. (*S. Ahm.*)

3-mashq. 1. Gaplarni diqqat bilan o'qing, fonetik o'zgarishga uchragan so'zlarni aniqlang. 2. Quyidagi grafik asosida tahlil qiling.

1. «Bo, zaril keptimi! – Lobar labini burdi. – Ishim boshimdan oshib yotibdi». (*H. G'ul.*) 2. Ko'rmay turib tusmonlab o'xshatardi kimgadir. (*Mirm.*) 3. Menga qara, Hojiakbarri o'g'lisan-a, ertaga bir do'ppi o'rik beraman, mana shu

xatti o'qib ber. (*S.Ahm.*) 4.Boybuvang to'y qilib, beripti xatti, ulug'im deb xon otangni yo'qlapti, Borolmasman bugun, bolam, bu to'yga, O'zi uchun otang sizni jo'natti! (*Usmon baxshi*) 5.Boshiga lo'mba degan narsa o'lgur tushdimi, zambarakmi, nayzagami duch keldi. (*Oyb.*) 6.Saida kasal kishiday bitta-bitta qadam bosib, hujrasiga tomon yo'naldi. (*A.Qah.*) 7.«Sayr qilsa arziydigan tun dedi Ketrin,- bevosh kecha, nimasini aytasiz». (*E.Xem.*)

Tarqatma material.

FONETIK O'ZGARISH

So'z	Tovush o'zgarishi turi	So'zning qaysi qismida ro'y berishiga ko'ra	Yozuvda aks etishiga ko'ra	Tovush o'zgarishining tabiatiga ko'ra	izoh
		<i>o'zakda qo'shimchada o'zak ham qo'shimchada</i>	<i>yozuvda aks etgan yozuvda aks etmagan</i>	<i>tovush tushishi tovush orttirilishi tovush almashishi</i>	
		<i>o'zakda qo'shimchada o'zak ham qo'shimchada</i>	<i>yozuvda aks etgan yozuvda aks etmagan</i>	<i>tovush tushishi tovush orttirilishi tovush almashishi</i>	

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 6, 7, 8, 9, 10, 14, 11, 16, 17, 25, 28, 31, 36.

6-Mavzu	LEKSIKOLOGIYA, UNING TURLARI, O'RGANISH MANBAYI VA PREDMETI. SEMASIOLOGIYA.
---------	--

AMALIY MASHG'ULOTDA TA'LIM TEXNOLOGIYASI

<i>Mashg'ulot vaqti – 2 soat</i>	<i>Talabalar soni – 25 nafar</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash
<i>Amaliy mashg'ulot rejasi</i>	1. Leksikologiya haqida tushuncha. 2. Leksik sath va uning birligi. 3. Leksema va so'z. 4. Leksemaning semantik tarkibi.
<i>O'quv mashg'ulot maqsadi:</i>	“Lug'aviy sath asosiy birligi – l eksema” mavzusiyuzasidan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>

<ul style="list-style-type: none"> – Lugʻaviy sath haqidagi tasavvurlarni kengaytirish, uning lisoniy sathlar ichida tutgan oʻrni haqida kengroq tushunchaga ega boʻlish. – Leksema haqida olingan nazariy maʼlumotlarni amalda qoʻllash koʻnikmasini shakllantirish. – Leksemaning semantic tarkibi haqida fikrlarni kengaytirish. 	<ul style="list-style-type: none"> – Lugʻaviy sath haqida koʻrsatilgan adabiyotlardan olgan bilimlarini aytib beradi. – Leksema va soʻz munosabati, uning tilshunosligimizga keyingi davrlarda kirib kelganligi boʻyicha talaba fikrlarini bildiradi. – Leksemaning semantic tarkibi haqida munozara qiladi.
<i>Taʼlim berish usullari</i>	Suhbat, savol-javob, munozara.
<i>Taʼlim berish shakllari</i>	Ommaviy, yakka tartibda
<i>Taʼlim berish vositalari</i>	Darslik, turli koʻrsatilgan adabiyotlar, doska, daftar, grafik.
<i>Taʼlim berish sharoiti</i>	Amaliy mashgʻulotlarga moʻljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Ogʻzaki nazorat: savol-javob

6- AMALIY MASHGʻULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Taʼlim beruvchi</i>	<i>Taʼlim oluvchi</i>
Tayyorlov bosqichi	<ul style="list-style-type: none"> – Mavzuni aniqlaydi, taʼlimiy maqsadini belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. – Mavzu boʻyicha tayanch konspekt ishlab chiqadi. – Belgilangan taʼlimiy maqsadlarga erishishni taʼminlovchi oʻquv topshiriqlarni ishlab chiqadi. – Kichik guruhlarda samarali faoliyatni taʼminlash uchun yozma yoʻriqnomalarni tayyorlaydi. – Natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqadi. 	
1. Oʻquv mashgʻulotlariga kirish boshqichi (15 daqiqa)	<p>1.1. Mashgʻulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalarni eʼlon qiladi, ularning ahamiyatligi va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>1.2. Mavzu boʻyicha asosiy tushunchalarga taʼrif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor-soʻrov oʻtkazib (1- ilova) talabalar bilimlarini faollashtiradi.</p>	<p>Tinglaydilar.</p> <p>Savollarga javob beradi.</p>

	1.3. Qo'shimcha ma'lumotlar aks etgan tayanch konspektini tarqatadi.	
2. Asosiy bosqich (45 daqiqa)	<p>2.1. Talabalarni 4 ta kichik guruhga bo'ladi. Mashg'ulotlar o'tkazish tartibini eslatadi. O'quv mashg'uloti "O'zi o'rganib, o'zgaga o'rgatish", ya'ni hamkorlikda o'rganish prinsipi asosida o'tkazilishini aytadi.</p> <p>2.2. Guruhlar ishini tashkil qiladi. Matn berib uni tahlil qilish uchun 15 daqiqa beradi.</p> <p>2.2. Har bir gurug a'zosi tahlilni tugatgandan keyin boshqa talabalar bilan muhokama qilishga kirishadi O'zaro o'rgatish jarayoni boshlanadi Talabalar faoliyatini kuzatadim ularni yo'naltiradi, maslahatlar beradi. (15 daqiqa).</p> <p>2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Har bir guruhdan vakillar chiqib, faoliyat natijalarini taqdim qiladi. Taqdimot uchun har bir guruhga vaqt belgilaydi. Yo'naltiruvchi maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Javoblarni aniqlashtiradi, to'ldiradi, izoh beradi va tuzatishlar kiritadi.</p> <p>2.4. Har ber guruh taqdimoti oxirida tahlil bo'yicha xulosalar chiqaradi.</p>	<p>Fikrlarini bildiradilar. Mavzu yuzasidan chiqish qiladilar.</p> <p>Talabalar fikrlarini bildiradilar munozaraga kirishadilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Mashqni bajaradilar.</p>
3. Yakuniy bosqich (15 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu yuzasidan umumiy xulosalar qiladilar.</p> <p>3.2. O'quv mashg'ulotlarining natijalarini sharhlaydi, faol talabalar bahosini e'lon qiladi.</p> <p>3.3. Mustaqil ishlash uchun vazifalar beradi: amaliy mashg'ulotga tayyorlanib kelish. Nazorat savollariga javob berish. Ilovada ko'rsatilgan topshiriq va mashqlarni bajarish. (2- ilova)</p>	Tinglaydilar.

1- ilova.

Tezkor savollar va topshiriqlar:

- Leksikologiya nimani o'rganadi?
- Leksik sath deganda nimani tushunasiz?
- Leksema va so'zning nima farqi bor?
- Leksemaning lisoniy birlik ekanligini tushuntiring?
- Leksema qanday ma'noviy unsurlardan tashkil topgan?

– Leksemaning ifoda plani deganda nima tushunasiz?

1-mashq. 1) Berilgan matndagi soʻzlarni ajratish. 2) Bu soʻzlarni oʻxshash birliklariga koʻra ikki guruhga ajratish. 3) Denotativ maʼnoli va grammatik maʼnoli soʻzlarni guruhlash. 4) Har bir guruhdan bittadan unsur olib, ularga oʻxshash birliklar ishtirok etgan misollar keltirish. 5) Oʻxshash birliklardagi farqlarni eʼtibordan soqit qilish. 6) Tiklangan umumiylikka taʼrif berish. 7) Taʼrifni lugʻatdagi izoh bilan qiyoslash.

I. Tilning eng asosiy poydevori va boyligi soʻzdir. Aytilgan soʻzni kishi eshitgan ekan, uni ongli ravishda borliqdagi biror tushuncha bilan bogʻlaydi. Soʻz ifoda etgan turli tushunchalar odam miyasida umumlashib, biror maʼno bildiradi. Demak, soʻzning aytilishi va ifoda etgan tushunchalar hamda tushunchalarning umumlashuvi natijasida hosil boʻlgan maʼno tilda doim oʻz aksini topadi.

II. Jannat xola endi choʻldan bir qadam ham boshqa yoqqa jila olmasdi. Uning yuragi shu choʻlda. Toʻqayga pinhoni qatnab yurishiga, chodirdan ustara yoʻqolishiga sabab bor edi.

Tursunboy shu toʻqayda. Uning qamishlar orasida yashirinib yurishini Jannat xoladan boshqa hech kim bilmasdi. (S. Ahm.)

III. Umr yoʻldoshi urushda halok boʻlgandan keyin Sharofat ikkinchi bor turmush quradi va shaharga ketadi oʻgʻli Akbarali esa ota yurtida, bobolari qoʻlida qoladi. Oradan oʻtgan yillar mobaynida ona-bola hamisha aloqada boʻlishadi. Sharofat xola uchun oʻzi dunyoga kelgan Shodasoy qishlogʻiga qaytib borish ulkan bir orzuga aylanadi. (A. Mux.)

2-mashq. 1. Berilgan leksemalarni oʻxshash belgilari asosida guruhlang. 2. Guruhdagi sirani davom ettiring. Guruhlarning oʻzaro umumiyligini toping. 3. Har bir guruhning oʻziga xos farqli belgilarini bayon qiling. 4. a) har bir guruh ichidagi birliklarning umumiy belgisini aniqlang; b) har bir guruh ichidagi birliklarning bir-biridan oʻzaro farqlovchi belgisini sharhlang. 5. Har bir guruhdagi birliklarni oʻxshash va farqli xususiyatlari asosida tasnif qiling va izoh yozing.

[yoz], [rasm], [daftar], [bahor], [yaxshi], [yosh], [bola], [kel], [oz], [oʻqi], [aql], [tekis], [ezgu].

[paxta], [bolalik], [katta], [oq], [buyuk], [oltin], [odob], [sekin], [gapir], [bor], [mustahkam], [besh], [musaffo], [chiq].

[til], [komil], [muqaddas], [kiyik], [ozodlik], [qaror], [toʻrt], [yigirma], [ek], [ich], [tabiat], [bir], [ishon].

3-mashq. Quyida berilgan leksemalarning semema tarkibini aniqlang va alohida-alohida yozing.

[yaxshi], [yuz], [yozmoq], [sezgir], [maktab], [qalam].
 [daftar], [qirmizi], [kirmoq], [katta], [qo'l], [oltin].
 [eshik], [ish], [besh], [chopmoq], [ko'p], [sodda], [qish].

4-mashq. 1. Matnda berilgan birliklarni o'xshash belgilari asosida guruhlariga ajrating. 2. Har bir guruhdan bittadan unsur tanlab oling. 3. Tanlab olingan birliklarning qurshovlarini aniqlang. 4. Aniqlangan qurshovga mos (o'xshash) birikuvlar hosil qiling. 5. Bir xil qurshovlar hosil qilgan birliklarning umumiy belgisini toping. 6. Har bir qurshovdan bittasini tanlab oling va qurshovdagi birliklarning sememasini aniqlang. 7. Leksema sememasining semalarini tartib bilan bayon qiling. 8. Qaysi semasi etakchi mavqeda bo'lganligini toping. 9. Leksemalarning o'xshashlik qatorlarini hosil qiling. 10. Kuzatuvdagi leksemalarga izoh bering.

I. Gulianor ko'p suluv: yaxshi suratli, shirin so'zli, quralay ko'zli, uzun bo'yli, keng ko'krakli, xush xayol, zehni tez, serfahm qiz edi. Ravshanbek uning bilan maktabda birga o'qiganda, ko'zining ostiga bosib qo'yar edi. («Ravshan».)

II...Shu yuqoridagi maktubga shoh Nu'mon imzo chekib, nomani olib boruvchi kishini yo'lga soldi. Chopar ham etib kelib, bitikni shoh Navdar qo'lga topshirdi. Navdar xatni ochib ko'z tashlar ekan, undagi barcha gaplarni o'qidi, va'da qilingan soatdan xabardor bo'ldi, xuddi o'sha paytda askarni ham, qurol-yarog'i ham tayyorladi. («Sab'ai sayyor».)

5-mashq. Quyida berilgan birikuvlarda leksemalar sememasidagi qaysi semalar etakchilik qilayotganligini aniqlang, yozib oling.

I. Umr daraxti; o'tkir qalam sohibi; chiroyli yozmoq; kitobni o'kimoq.

II. Orzular qanoti; dala malikasi; asar muallifi; o'rtog'ini qo'rmoq; besh qop.

III. Katta xona; temir intizom; kuchli shamol; o'tkir aql; olmani ekmoq; dunyoning tashvishi.

Adabiyotlar: 1, 2, 4, 6, 10, 11, 15, 22, 26, 27, 29, 30, 35.

– 7-Mavzu

LEKSEMANING IFODA VA MAZMUN TOMONI.
 POLISEMANTIKLIK VA KO'P MA'NOLILIK

AMALIY MASHG'ULOTDA TA'LIM TEXNOLOGIYASI

<i>Mashg'ulot vaqti – 2 soat</i>	<i>Talabalar soni – 25 nafar</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash
<i>Amaliy mashg'ulot rejasi</i>	1. Leksemalarning monosemantik va polisemantikligi. 2. So'z ma'nolarining ko'chish usullari .

	3. Metafora. 4. Metonimiya. 5. Sinekdoxa. 6. Vazifadoshlik. 7. Kinoya.
<i>O'quv mashg'ulot maqsadi:</i>	“Hosila semaning vujudga kelish yo‘llari” mavzusi yuzasidan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> – Leksemalarning monosemantik va polisemantikligi haqidagi tasavvurlarni kengaytirish. – So‘z ma’nolarining ko‘chish usullari haqida olingan nazariy ma’lumotlarni amalda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish.	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> – Leksemalarning monosemantik va polisemantikligi haqida ko‘rsatilgan adabiyotlardan olgan bilimlarini aytib beradi. – So‘z ma’nolarining ko‘chish usullari haqida munozara qiladi.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Suhbat, savol-javob, munozara.
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, yakka tartibda
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Darslik, turli ko‘rsatilgan adabiyotlar, doska, daftar, grafik.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Amaliy mashg‘ulotlarga mo‘ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki nazorat: savol-javob

AMALIY MASHG‘ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchi</i>
Tayyorlov bosqichi	<ul style="list-style-type: none"> – Mavzuni aniqlaydi, ta’limiy maqsadini belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. – Mavzu bo‘yicha tayanch konspekt ishlab chiqadi. – Belgilangan ta’limiy maqsadlarga erishishni ta’minlovchi o‘quv topshiriqlarni ishlab chiqadi. – Kichik guruhlarda samarali faoliyatni ta’minlash uchun yozma yo‘riqnomalarni tayyorlaydi. – Natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqadi. 	
1. O‘quv	1.1. Mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va	Tinglaydilar.

[yaxshi], [yuz], [yozmoq], [sezgir], [maktab], [qalam].
 [daftar], [qirmizi], [kirmoq], [katta], [qo'l], [oltin].
 [eshik], [ish], [besh], [chopmoq], [ko'p], [sodda], [qish].

4-mashq. 1. Matnda berilgan birliklarni o'xshash belgilari asosida guruhlarga ajrating. 2. Har bir guruhdan bittadan unsur tanlab oling. 3. Tanlab olingan birliklarning qurshovlarini aniqlang. 4. Aniqlangan qurshovga mos (o'xshash) birikuvlar hosil qiling. 5. Bir xil qurshovlar hosil qilgan birliklarning umumiy belgisini toping. 6. Har bir qurshovdan bittasini tanlab oling va qurshovdagi birliklarning sememasini aniqlang. 7. Leksema sememasining semalarini tartib bilan bayon qiling. 8. Qaysi semasi etakchi mavqeda bo'lganligini toping. 9. Leksemalarning o'xshashlik qatorlarini hosil qiling. 10. Kuzatuvdagi leksemalarga izoh bering.

I. Gulianor ko'p suluv: yaxshi suratli, shirin so'zli, quralay ko'zli, uzun bo'lyi, keng ko'krakli, xush xayol, zehni tez, serfahm qiz edi. Ravshanbek uning bilan maktabda birga o'qiganda, ko'zining ostiga bosib qo'yar edi. («Ravshan».)

II...Shu yuqoridagi maktubga shoh Nu'mon imzo chekib, nomani olib boruvchi kishini yo'lga soldi. Chopar ham etib kelib, bitikni shoh Navdar qo'lga topshirdi. Navdar xatni ochib ko'z tashlar ekan, undagi barcha gaplarni o'qidi, va'da qilingan soatdan xabardor bo'ldi, xuddi o'sha paytda askarni ham, qurol-yarog'i ham tayyorladi. («Sab' ai sayyor».)

5-mashq. Quyida berilgan birikuvlarda leksemalar sememasidagi qaysi semalar etakchilik qilayotganligini aniqlang, yozib oling.

I. Umr daraxti; o'tkir qalam sohibi; chiroyli yozmoq; kitobni o'kimoq.

II. Orzular qanoti; dala malikasi; asar muallifi; o'rtog'ini qo'rmoq; besh qop.

III. Katta xona; temir intizom; kuchli shamol; o'tkir aql; olmani ekmoq; dunyoning tashvishi.

Adabiyotlar: 1, 2, 4, 6, 10, 11, 15, 22, 26, 27, 29, 30, 35.

– 7-Mavzu	LEKSEMANING IFODA VA MAZMUN TOMONI. POLISEMANTIKLIK VA KO'P MA'NOLILIK
-----------	---

AMALIY MASHG'ULOTDA TA'LIM TEXNOLOGIYASI

<i>Mashg'ulot vaqti – 2 soat</i>	<i>Talabalar soni – 25 nafar</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash
<i>Amaliy mashg'ulot rejasi</i>	1. Leksemalarning monosemantik va polisemantikligi. 2. So'z ma'nolarining ko'chish usullari .

	3. Metafora. 4. Metonimiya. 5. Sinekdoxa. 6. Vazifadoshlik. 7. Kinoya.
<i>O'quv mashg'ulot maqsadi:</i>	"Hosila semaning vujudga kelish yo'llari" mavzusiyuzasidan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> – Leksemalarning monosemantik va polisemantikligi haqidagi tasavvurlarni kengaytirish. – So'z ma'nolarining ko'chish usullari haqida olingan nazariy ma'lumotlarni amalda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish.	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> – Leksemalarning monosemantik va polisemantikligi haqida ko'rsatilgan adabiyotlardan olgan bilimlarini aytib beradi. – So'z ma'nolarining ko'chish usullari haqida munozara qiladi.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Suhbat, savol-javob, munozara.
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, yakka tartibda
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Darslik, turli ko'rsatilgan adabiyotlar, doska, daftar, grafik.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Amaliy mashg'ulotlarga mo'ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob

AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchi</i>
Tayyorlov bosqichi	<ul style="list-style-type: none"> – Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadini belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. – Mavzu bo'yicha tayanch konspekt ishlab chiqadi. – Belgilangan ta'limiy maqsadlarga erishishni ta'minlovchi o'quv topshiriqlarni ishlab chiqadi. – Kichik guruhlarda samarali faoliyatni ta'minlash uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi. – Natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqadi. 	
1. O'quv	1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va	Tinglaydilar.

<p>mashg'ulotlariga kirish boshqichi (15 daqiqa)</p>	<p>kutilayotgan natijalarni e'lon qiladi, ularning ahamiyatligi va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor-so'rov o'tkazib (1- ilova) talabalar bilimlarini faollashtiradi.</p> <p>1.3. Qo'shimcha ma'lumotlar aks etgan tayanch konspektini tarqatadi.</p>	<p>Savollarga javob beradi.</p>
<p>2. Asosiy bosqich (45 daqiqa)</p>	<p>2.1. Talabalarni 4 ta kichik guruhga bo'ladi. Mashg'ulotlar o'tkazish tartibini eslatadi. O'quv mashg'uloti "O'zi o'rganib, o'zgaga o'rgatish", ya'ni hamkorlikda o'rganish prinsipi asosida o'tkazilishini aytadi.</p> <p>2.2. Guruhlar ishini tashkil qiladi. Matn berib uni tahlil qilish uchun 15 daqiqa beradi.</p> <p>2.2. Har bir gurug a'zosi tahlilni tugatgandan keyin boshqa talabalar bilan muhokama qilishga kirishadi O'zaro o'rgatish jarayoni boshlanadi Talabalar faoliyatini kuzatadim ularni yo'naltiradi, maslahatlar beradi. (15 daqiqa).</p> <p>2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Har bir guruhdan vakillar chiqib, faoliyat natijalarini taqdim qiladi. Taqdimot uchun har bir guruhga vaqt belgilaydi. Yo'naltiruvchi maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Javoblarni aniqlashtiradi, to'ldiradi, izoh beradi va tuzatishlar kiritadi.</p> <p>2.4. Har ber guruh taqdimoti oxirida tahlil bo'yicha xulosalar chiqaradi.</p>	<p>Fikrlarini bildiradila. Mavzu yuzasidan chiqish qiladilar.</p> <p>Talabalar fikrlarini bildiradilar munozaraga kirishadilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Mashqni bajaradilar.</p>
<p>3. Yakuniy bosqich (15 daqiqa)</p>	<p>3.1. Mavzu yuzasidan umumiy xulosalar qiladilar.</p> <p>3.2. O'quv mashg'ulotlarining natijalarini sharhlaydi, faol talabalar bahosini e'lon qiladi.</p> <p>3.3. Mustaqil ishlash uchun vazifalar beradi: amaliy mashg'ulotga tayyorlanib kelish. Nazorat savollariga javob berish. Ilovada ko'rsatilgan topshiriq va mashqlarni bajarish. (2- ilova)</p>	<p>Tinglaydilar.</p>

Tezkor savollar va topshiriqlar:

- Polisemantiklik deganda nimani tushunasiz?
- So‘z ma‘nolari qanday ko‘chadi?
- Metafora qanday ko‘chim?
- Metonimiya qanday ko‘chim?
- Vazifadoshlik haqida gapiring?
- Senekdoxik ko‘chimga misollar keltiring?

1-mashq. 1. Tarix g‘ildiragini orqaga aylantira oladigan kuch yo‘q dunyoda. («Qashq.») 2. Dasturxonga boqqan do‘st emas. (Maqol.) 3. Saidaning qoshi bir oz chimirildi, mayin tovushi o‘zgardi. (A.Qah.) 4. ..oyog‘im uzangidan toyib, burnim egarning qoshiga tegib ketdi. (G‘.G‘ul.) 5. Nikolay zamonida ostonam tuyoq ko‘prmagan. (Oyb.) 6. Zebixon g‘ildirak yog‘ochlariga oyog‘ini bir-bir qo‘yib, aravaga chiqdi. (S.Zun.) 7. Havo isib, maysalarga, daraxt shoxlariga qo‘ngan shudringni bir zumda yalab oladi. (Sh.Rash.) 8. Bo‘g‘moq so‘zi aslida «qattiq qismoq» ma‘nosini bildiradi. 9. Bu erda hayot hayotni bo‘g‘adi, temir temirni g‘ajiydi, o‘t o‘tni so‘ndiradi. (Oyb.) 10. Moyi tugab, piligi so‘xta bo‘lgan chiroq bir lip etib so‘ndi. (S.Ahm.) 11. Ota-onaning chirog‘ini yoqadigan kishi farzandidir. (M.Ism.) 12. Mening soatim to‘xtab qolibdi. (A.Qah.) 13. Besh qo‘lini og‘ziga tiqadi. (I.Rah.)

Topshiriqlar. 1. Berilgan gaplarni o‘qing. 2. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni 2 guruhga ajratib yozing. 3. a) to‘g‘ri (bosh) ma‘noda qo‘llangan so‘zlar; b) ko‘chma ma‘noda ishlatilgan so‘zlar. 4. Har ikkala guruhning o‘ziga xos jihatlarini sharhlang. 5. Ko‘chma ma‘noda ishlatilgan so‘zlarni ichki guruhlariga ajrating: a) o‘xshashlik asos bo‘lgan ma‘no; b) aloqadorlik asos bo‘lgan ma‘no; v) vazifadoshlik asos bo‘lgan ma‘no; g) butun-qism munosabati asos bo‘lgan ma‘no. 6. Har bir guruhning umumiyligini aniqlang. 7. Har bir guruhning o‘zaro farqlarini toping. 8. Har bir guruhni alohida-alohida izohlang. 9. Har bir so‘zni ko‘chma ma‘noda qo‘llab gaplar tuzing.

2-mashq. 1. Samolyotlar uchishga tayyor turishgan edi. (Shuh.) 2. Dasturxonga boqqan do‘st emas. (Maqol.) 3. Hoji Kumushning bosh tomoniga kelib o‘tirdi. (A.Qah.) 4. Oltin so‘zlarni aytdingiz. (Sh.Rash.) 5. Ko‘chaning boshida Salimboyvachcha ko‘rindi. (Oyb.) 6. Derazamning oldida bir tup o‘rik oppoq bo‘lib gulladiyu (H.Olim.) 7. Adirlar gulladi, gulladi diyor (G‘. G‘ul.) 8. Eski buloqning ko‘zlari ochildi. (O‘.Hosh.) 9. Zal oyoqqa turib ketishiga sal qoldi. (A.Mux.) 10. Er o‘z o‘qi atrofida va quyosh atrofida aylanadi. 11. Yurtim, 14 yillik tuying muborak! («Qashq.») 12. Til yaratish mumkin emas, chunki tilni halq yaratadi; filologlar tilning qonunlarini ochadilar va shu qonunlarini sistemaga keltiradilar. (V.Belins.) 13. Tong yaqin, tong yaqin, oppoq tong yaqin. Bir nafas orom ol, uxla, jigarim. (G‘.G‘ul.) 14. Rustam dehqonchilikning tilini yaxshigina o‘rgangan. (Oyb.) 15. Qora kiyib hali yig‘lab yurgandir. («Shirin bilan Shakardan».)

Topshiriqlar. 1. Berilgan gaplarni diqqat bilan o‘qing. 2. Gaplardagi ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘zlarni aniqlang. 3. Aniqlagan so‘zlarning bosh ma’nolarini toping. 4. Ko‘chma ma’no ko‘chishining qaysi usuliga asoslanganiga ko‘ra guruhlarga ajratib yozing. 5. Har bir guruhdagi so‘zlarning umumiylikini aniqlang. 6. Har bir guruhdagi so‘zlarni boshqa guruhdagi so‘zlardan farqli xususiyatlarini bayon qiling. 7. Har bir guruhni yana ikki guruhga ajrating: a) lisoniy (sememalashgan) hosila ma’noli; b) nutqiy ko‘chma ma’noli. 8. Ajratilgan ikki guruhning o‘ziga xos jihatlarini alohida-alohida izohlang.

3-mashq. [Ota], [aka], [uka], [ona], [opa], [singil], [olma], [o‘rik], [jiyda], [behi], [uzum], [gilos], [shaftoli], [xurmo], [gapirmoq], [aytmoq], [so‘zlamoq], [bayon qilmoq], [demoq], [lutf qilmoq], [og‘iz ochmoq], [tez], [qizil], [oz], [semiz], [puxta], [jiddiy], [katta], [oq]..

Topshiriqlar. 1. Berilgan birliklarning o‘xshash belgilarini topib, guruhleng. 2. Guruhlardagi birliklarning birlashtiruvchi va farqlovchi semalarini aniqlang. 3. Boshqa belgilar topib, topshiriqni qayta bajaring.

– 8-Mavzu

LEKSEMALAR TAHLILI. LEKSIK-SEMANTIK
MUNOSABATLAR VA ULARNING TURLARI

AMALIY MASHG‘ULOTDA TA‘LIM TEXNOLOGIYASI

<i>Mashg‘ulot vaqti – 2 soat</i>	<i>Talabalar soni – 25 nafar</i>
<i>Mashg‘ulot shakli</i>	Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash
<i>Amaliy mashg‘ulot rejasi</i>	1. Leksik tizim haqida tushuncha. 2. Leksik-semantik munosabatlar va ularning tasnifi. 3. Sinonimiya . 4. Antonimiya. 5. Graduonimiya. 6. Partomiya. 7. Omonimiya.
<i>O‘quv mashg‘ulot maqsadi:</i>	“Leksik-semantik munosabatlar” mavzusi yuzasidan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> – Leksik tizim haqidagi tasavvurlarni kengaytirish, uning lisoniy tizimlar ichida tutgan o‘rni haqida kengroq tushunchaga ega bo‘lish.	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i> – Leksik tizim haqida ko‘rsatilgan adabiyotlardan olgan bilimlarini aytib beradi. – Leksik-semantik munosabatlar bo‘yicha talabalar fikrlarini bildiradi.

<ul style="list-style-type: none"> - Leksik-semantik munosabatlar haqida olingan nazariy ma'lumotlarni amalda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish. - Sinonimiya, antonimiya, partomiya, giponimiya haqida fikrlarni kengaytirish. 	<ul style="list-style-type: none"> - Sinonimiya, antonimiya, partomiya, giponimiya haqida munozara qiladi.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Suhbat, savol-javob, munozara.
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, gurug'lar bilan ishlash
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Darslik, turli ko'rsatilgan adabiyotlar, doska, daftar, grafik, tarqatma.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob

10- AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchi</i>
Tayyorlov bosqichi	<ul style="list-style-type: none"> - Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadini belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. - Mavzu bo'yicha tayanch konspekt ishlab chiqadi. - Belgilangan ta'limiy maqsadlarga erishishni ta'minlovchi o'quv topshiriqlarni ishlab chiqadi. - Kichik guruhlarda samarali faoliyatni ta'minlash uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi. - Natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqadi. 	
1. O'quv mashg'ulotlariga kirish boshqichi (15 daqiqa)	<p>1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalarni e'lon qiladi, ularning ahamiyatligi va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor-so'rov o'tkazib (1- ilova) talabalar bilimlarini faollashtiradi.</p> <p>1.3. Qo'shimcha ma'lumotlar aks etgan tayanch konspektini tarqatadi.</p>	<p>Tinglaydilar.</p> <p>Savollarga javob beradi.</p>

<p>2. Asosiy bosqich (45 daqiqa)</p>	<p>2.1. Talabalarni 4 ta kichik guruhga bo'ladi. Mashg'ulotlar o'tkazish tartibini eslatadi. O'quv mashg'uloti "O'zi o'rganib, o'zgaga o'rgatish", ya'ni hamkorlikda o'rganish prinsipi asosida o'tkazilishini aytadi.</p> <p>2.2. Guruhlar ishini tashkil qiladi. Matn berib uni tahlil qilish uchun 15 daqiqa beradi.</p> <p>2.2. Har bir gurug a'zosi tahlilni tugatgandan keyin boshqa talabalar bilan muhokama qilishga kirishadi O'zaro o'rgatish jarayoni boshlanadi Talabalar faoliyatini kuzatadim ularni yo'naltiradi, maslahatlar beradi. (15 daqiqa).</p> <p>2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Har bir guruhdan vakillar chiqib, faoliyat natijalarini taqdim qiladi. Taqdimot uchun har bir guruhga vaqt belgilaydi. Yo'naltiruvchi maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Javoblarni aniqlashtiradi, to'ldiradi, izoh beradi va tuzatishlar kiritadi.</p> <p>2.4. Har ber guruh taqdimoti oxirida tahlil bo'yicha xulosalar chiqaradi.</p>	<p>Fikrlarini bildiradilar Mavzu yuzasidan chiqish qiladilar.</p> <p>Talabalar fikrlarini bildiradilar munozaraga kirishadilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Mashqni bajaradilar.</p>
<p>3. Yakuniy bosqich (15 daqiqa)</p>	<p>3.1. Mavzu yuzasidan umumiy xulosalar qiladilar.</p> <p>3.2. O'quv mashg'ulotlarining natijalarini sharhlaydi, faol talabalar bahosini e'lon qiladi.</p> <p>3.3. Mustaqil ishlash uchun vazifalar beradi: amaliy mashg'ulotga tayyorlanib kelish. Nazorat savollariga javob berish. Ilovada ko'rsatilgan topshiriq va mashqlarni bajarish. (2- ilova)</p>	<p>Tinglaydilar.</p>

– ilova.

Tezkor savollar va topshiriqlar:

- Leksik tizim deganda nimani tushunasiz?
- Leksik-semantik munosabatlar haqida gapiring?
- Sinonim nima?
- Partonim nima?
- Giponimik munosabat haqida gapiring?
- Antonimiya qanday munosabat?

1-mashq. 1. Berilgan gaplarni diqqat bilan o'qib chiqing. 2. Atash va vazifa semalari aynan bir xil bo'lgan birliklarni saralab oling: a) saralab olingan birliklarning umumiylikni izohlang; b) ushbu birliklarning farqlanishi qaysi semasi asosida ro'y berayotganligini aniqlang. 3. Saralab olingan birliklar orasida qanday munosabat mavjudligini ayting. 4. Ushbu qatordagi dominant leksemani toping. 5. Dominanta leksemaning o'ziga xos xususiyatlarini bayon qiling. 6. Ma'nodoshlik qatori qaysi tizimga, ya'ni lug'aviy ma'noviy guruhga mansub bo'ladi? 7. Ushbu guruhga qatordagi qaysi leksema asosida birikadi, nima uchun? 8. Ma'nodoshlik qatoridagi har bir leksemaning sememasidagi semalarni aniqlang. 9. Ma'nodoshlik qatoridagi umumiylik va farqlarga asoslanib izoh bering. 10. Har bir leksemani ishtirok ettirib, nutqiy birliklar hosil qiling.

I. 1. Salimjon aka... negadir bu odam bilan qiziqib qoldi-yu, aft-basharasi, bo'y-basti, xullas, hammasini surishtira boshladi. (L.Mah.) 2. Uning oppoq sochida, ko'zoynak taqqan nuroniy yuzida hamisha muloyim tabassum balqib turardi. (O'.Hosh.) 3. To'lgan oydek to'lg'anib, ul qomati zebo yana, o'z jamoliga berib pardozi ila oro yana... (Hab.) 4. Uning betidagi quyuc qora qoshi, qorachig'i, yirikdan kelgan o'ynoqi ko'zlari Elmurodga Muharramni eslatdi. (Shuh.) 5. Ular xuddi egizaklardek, chehralari bir-biriga g'oyat o'xshar, gavdalari qariyb farqsiz, ko'rinishda yuvosh odamlar edi. (Oyb.) 6. Turqi buzuc erkaklarning «ur uni (Hojarni)! U qishlog'imizga isnod keltirdi! ...»,- deb xuddi hayvondek o'kirganlari quloqlarim ostida qayta yangradi. (H.Nos.)

II. 1. O'zbekoyim burchakda bola ko'tarib o'tirgan Zaynabdan chaqaloqni olib, uni jomni to'kib kelishga buyurdi. (A.Qod.) 2. Esli bolalar ham ko'rinmaydi. Go'daklar esa beshikda, daraxtlar orasidagi belanchaklarda uxlab yotishadi. (Oyb.) 3. Urushga qiron kelsin. Ko'plab norasidalarini ota-onalaridan bevaqt judo qildi. (R.Fayz.) 4. Dadamlar bu erdan ketganlarida men chaqaloq edim. (Sh.Rash.)

2-mashq. Ma'nodosh leksemalarning birlashtiruvchi belgilarini toping va ularning izchil darajali qatorini tuzing.

[bahor],[ko'klam];

[shamol],[dovul],[nasim],[shabada],[sabo];

[ulkan],[katta],[azamat],[ulug'];

[yuz],[bet],[aft],[bashara],[turq],[jamol],[chehra],[oraz].

3-mashq. Berilgan leksemalarning darajalanishi qaysi semalar farqlanishi asosida yuz berayotganligini aniqlang.

[tol],[o'simlik],[daraxt],[ildiz],[yaproq];

[ajoyib],[go'zal],[chiroyli],[yaxshi],[yoqimli];

[baqir],[qichqir],[gapir],[shivirla],[o'kir];

[chop],[yugur],[yur],[qimirla];

[o'n],[qirq],[besh],[ming],[yuz];

[g'unan],[ot],[toy],[do'nan],[qulun].

4-mashq. Quyida berilgan leksemalarning o'xshashlik qatorlari asosida yotgan leksik-semantik munosabatlarni aniqlang.

1. [xona],[hovli],[uy],[ayvon],[bino],[imorat];
2. [qo'l],[tana],[bo'g'in],[oyoq],[tirnoq],[muskul],[suyak];
3. [barg],[tana],[ildiz],[shox],[po'stloq],[daraxt];
4. [bet],[bob],[kitob],[muqova],[varaqa];
5. [qopqoq],[jumrak],[dasta],[choynak].
6. [asr],[yil],[oy],[kun],[hafta],[sutka].

5-mashq. 1. Berilgan gaplarni diqqat bilan o'qib chiqing. 2. Gaplar tarkibidan o'zaro zidlanish munosabatida bo'la oladigan leksik birliklarni tanlab antonimik juftlikni hosil qiling. 3. Har bir antonimik juftlikni alohida-alohida sharhlang. 4. Har bir juftlikdagi leksemalar sememasi semalarini aniqlang. 5. O'zaro antonim leksemalarning birlashtiruvchi semalarini belgilang. 6. O'zaro antonim leksemalarning qarama-qarshi semalarini aniqlang. 7. Antonim juftliklarni muayyan bir belgilar asosida tasnif qiling. 8. Har bir guruhdagi umumiylik va farqlarga asoslanib zidlanish munosabatiga ta'rif bering. 9. Antonim juftliklardagi leksemalarning boshqa leksemalar bilan bo'ladigan munosabatlarini (paradigmatik, ierarxik, graduonimik) hosil qiling. 10. Antonim leksemalarni qo'llab yordamchi mashqlar tuzing.

1. El aziz etgan kishini hech kishi xor aylamas. 2. Avval o'yla, keyin so'zla. 3. Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning. 4. Yolg'onchining rost so'zi ham yolg'on. 5. Ko'z qo'rqqoq, qo'l botir. 6. Yoz yoping'ichingni qo'yma, qish o'zing bilasan. (Maqol.) 7. Insonni so'z ayladi judo hayvondin. (Nav.) 8. Eru ko'kni bilib bo'lmaydi-oppoq. (R.Bob.) 9. Bu qulog'idan kirib, u qulog'idan chiqadi. (Ertakdan.)

6-mashq. *Daraxt, nihol, go'dak, tana, ko'chat, bola, ninni, buzoq, qizil, yigit, chaqaloq, g'unajin, chol, sigir, darvoza, eshik, ikki, to'rt, darcha etti, uzun, yosh, o'rta, qisqa, kekxa, gulobi, qirmizi.*

Topshiriqlar. 1. Berilgan so'zlar guruhini diqqat bilan kuzating, o'qib chiqing. 2. So'zlarni saralab o'zaro ma'noviy munosabatlariga ko'ra guruhlarga ajrating. 3. Guruhdagi so'zlarning ma'noviy munosabatiga ko'ra darajalanish qatorini hosil qiling. 4. Darajalanish qatorini hosil qilgan so'zlarning darajalanish belgisini toping. 5. Har bir darajalanish qatorini alohida-alohida sharhlang. 6. Har bir qatorning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang va o'zaro qiyoslang. 7. Darajalanish munosabatlari bilan bog'langan so'zlar qatorini ikki guruhga ajrating: a) g'ayrilisoniy asosli; b) sof lisoniy asosli. 8. Har bir guruhni alohida-alohida izohlang. 9. Har bir guruhdagi har bir so'zning qurshovlarini toping. 10. Bitta darajalanish munosabatida bo'lgan so'zlarni tanlab, ular ishtirokida so'z birikmalari va gaplar tuzing.

Adabiyotlar: 2, 4, 6, 10, 11, 22, 26, 27, 29, 30, 37.

AMALIY MASHG'ULOTDA TA'LIM TEXNOLOGIYASI

<i>Mashg'ulot vaqti – 2 soat</i>	<i>Talabalar soni – 25 nafar</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash
<i>Amaliy mashg'ulot rejasi</i>	1. Leksemalarning leksik sathda paradigmatic munosabati. 2. Leksemalarning leksik sathda iyerarxik munosabatda joylashuvi 3. Leksemalarning sintagmatik munosabati. Adab: 2, 4, 6, 10, 11, 22, 26, 27, 29, 30, 37.
<i>O'quv mashg'ulot maqsadi:</i>	“Leksemalararo lisoniy ziddiyatlar va leksik paradigma bo'yicha mashqi” mavzusi yuzasidan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> – Lug'aviy sath haqidagi tasavvurlarni kengaytirish, uning lisoniy sathlar ichida tutgan o'rni haqida kengroq tushunchaga ega bo'lish. – Leksemalarning paradigmatic, iyerarxik joylashuvi haqida olingan nazariy ma'lumotlarni amalda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish. – Leksemaning sintagmatik imkoniyatlari haqida fikrlarni kengaytirish.	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> – Lug'aviy sath haqida ko'rsatilgan adabiyotlardan olgan bilimlarini aytib beradi. – Leksemalarning paradigmatic, sintagmatik, iyerarxik munosabatlari bo'yicha talaba fikrlarini bildiradi. – Leksemaning sintagmatik imkoniyatlari haqida bilimlarini kengaytirish.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Suhbat, savol-javob, munozara.
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, yakka tartibda
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Darslik, turli ko'rsatilgan adabiyotlar, doska, daftar, grafik.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Amaliy mashg'ulotlarga mo'ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob

9- AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchi</i>
Tayyorlov bosqichi	<ul style="list-style-type: none"> – Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadini belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. – Mavzu bo'yicha tayanch konspekt ishlab chiqadi. – Belgilangan ta'limiy maqsadlarga erishishni ta'minlovchi o'quv topshiriqlarni ishlab chiqadi. – Kichik guruhlarda samarali faoliyatni ta'minlash uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi. – Natijalarni boholash mezonlarini ishlab chiqadi. 	
1. O'quv mashg'ulotlariga kirish boshqichi (15 daqiqa)	<p>1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalarni e'lon qiladi, ularning ahamiyatligi va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor-so'rov o'tkazib (1- ilova) talabalar bilimlarini faollashtiradi.</p> <p>1.3. Qo'shimcha ma'lumotlar aks etgan tayanch konspektini tarqatadi.</p>	<p>Tinglaydilar.</p> <p>Savollarga javob beradi.</p>
2. Asosiy bosqich (45 daqiqa)	<p>2.1. Talabalarni 4 ta kichik guruhga bo'ladi. Mashg'ulotlar o'tkazish tartibini eslatadi. O'quv mashg'uloti "O'zi o'rganib, o'ziga o'rgatish", ya'ni hamkorlikda o'rganish prinsipi asosida o'tkazilishini aytadi.</p> <p>2.2. Guruhlar ishini tashkil qiladi. Matn berib uni tahlil qilish uchun 15 daqiqa beradi.</p> <p>2.2. Har bir gurug a'zosi tahlilni tugatgandan keyin boshqa talabalar bilan muhokama qilishga kirishadi O'zaro o'rgatish jarayoni boshlanadi Talabalar faoliyatini kuzatadim ularni yo'naltiradi, maslahatlar beradi. (15 daqiqa).</p> <p>2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Har bir guruhdan vakillar chiqib, faoliyat natijalarini taqdim qiladi. Taqdimot uchun har bir guruhga vaqt belgilaydi.</p>	<p>Fikrlarini bildiradilar.</p> <p>Mavzu yuzasidan chiqish qiladilar.</p> <p>Talabalar fikrlarini bildiradilar munozaraga kirishadilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Mashqni</p>

	Yo'naltiruvchi maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Javoblarni aniqlashtiradi, to'ldiradi, izoh beradi va tuzatishlar kiritadi. 2.4. Har ber guruh taqdimoti oxirida tahlil bo'yicha xulosalar chiqaradi.	bajaradilar.
3. Yakuniy bosqich (15 daqiqa)	3.1. Mavzu yuzasidan umumiy xulosalar qiladilar. 3.2. O'quv mashg'ulotlarining natijalarini sharhlaydi, faol talabalar bahosini e'lon qiladi. 3.3. Mustaqil ishlash uchun vazifalar beradi: amaliy mashg'ulotga tayyorlanib kelish. Nazorat savollariga javob berish. Ilovada ko'rsatilgan topshiriq va mashqlarni bajarish. (2- ilova)	Tinglaydilar.

1- ilova.

Tezkor savollar va topshiriqlar:

- Leksema deganda nimani tushunasiz?
- Leksik sath deganda nimani tushunasiz?
- Paradigmatik munosabat haqida gapiring?
- Iyerarxik munosabat qanday munosabat?
- Leksemalarning sintagmatik imkoniyatlari haqida gapiring?
- Leksema qanday tarkibiy qismlardan iborat?

1-mashq. 1) Berilgan matndagi so'zlarni ajratish. 2) Bu so'zlarni uyalarda guruhlang. 3) Bir uyaga kirgan so'zlarni paradigmatic va iyerarxik munosabatlarini izohlang. 4) So'zlarning sintagmatik munosabatini yoriting.

I. Tilning eng asosiy poydevori va boyligi so'zdir. Aytilgan so'zni kishi eshitarkan, uni ongli ravishda borliqdagi biror tushuncha bilan bog'laydi. So'z ifoda etgan turli tushunchalar odam miyasida umumlashib, biror ma'no bildiradi. Demak, so'zning aytilishi va ifoda etgan tushunchalar hamda tushunchalarning umumlashuvi natijasida hosil bo'lgan ma'no tilda doim o'z aksini topadi.

II. Jannat xola endi cho'ldan bir qadam ham boshqa yoqqa jila olmasdi. Uning yuragi shu cho'lda. To'qayga pinhoni qatnab yurishiga, chodirdan ustara yo'qolishiga sabab bor edi.

Tursunboy shu to'qayda. Uning qamishlar orasida yashirinib yurishini Jannat xoladan boshqa hech kim bilmasdi. (S.Ahm.)

III. Umr yo'ldoshi urushda halok bo'lgandan keyin Sharofat ikkinchi bor turmush quradi va shaharga ketadi o'g'li Akbarali esa ota yurtida, bobolari qo'lida qoladi. Oradan o'tgan yillar mobaynida ona-bola hamisha aloqada bo'lishadi.

Sharofat xola uchun o'zi dunyoga kelgan Shodasoy qishlog'iga qaytib borish ulkan bir orzuga aylanadi. (A. Mux.)

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 6, 10, 11, 14, 22, 21, 26, 27, 29, 30, 35.

– 10-Mavzu	<i>HOZIRGI O'ZBEK TILI LEKSIKASI TASNIFI BO'YICHA MASHQ LEKSIKOGRAFIYA</i>
------------	--

AMALIY MASHG'ULOTDA TA'LIM TEXNOLOGIYASI

<i>Mashg'ulot vaqti – 2 soat</i>	<i>Talabalar soni – 25 nafar</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash
<i>Amaliy mashg'ulot rejasi</i>	1. Lug'atshunoslik haqida tushuncha. 2. Lug'at va uning turlari. 3. Lug'atlar ustida ishlash.
<i>O'quv mashg'ulot maqsadi:</i>	“Leksikografiya” mavzusi yuzasidan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> – Lug'atshunoslik haqidagi tasavvurlarni kengaytirish. – Lug'atlar haqida kengroq ma'lumotga ega bo'lish. – Lug'atlar ustida ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> – Lug'atshunoslik haqida ko'rsatilgan adabiyotlardan olgan bilimlarini aytib beradi. – Lug'atlar va ularning turlari bo'yicha talabalar fikrlarini bildiradi. – Keyingi paytda yaratilayotgan lug'atlar haqida munozara qiladi.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Suhbat, savol-javob, munozara.
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, gurug'lar bilan ishlash
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Darslik, turli ko'rsatilgan adabiyotlar, doska, daftar, grafik, tarqatma.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob

10- AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchi</i>
Tayyorlov bosqichi	– Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadini belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi.	

	<ul style="list-style-type: none"> – Mavzu bo'yicha tayanch konspekt ishlab chiqadi. – Belgilangan ta'limiy maqsadlarga erishishni ta'minlovchi o'quv topshiriqlarni ishlab chiqadi. – Kichik guruhlarda samarali faoliyatni ta'minlash uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi. – Natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqadi. 	
1. O'quv mashg'ulotlariga kirish boshqichi (15 daqiqa)	<p>1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalarni e'lon qiladi, ularning ahamiyatligi va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor-so'rov o'tkazib (1- ilova) talabalar bilimlarini faollashtiradi.</p> <p>1.3. Qo'shimcha ma'lumotlar aks etgan tayanch konspektni tarqatadi.</p>	<p>Tinglaydilar.</p> <p>Savollarga javob beradi.</p>
2. Asosiy bosqich (45 daqiqa)	<p>2.1. Talabalarni 4 ta kichik guruhga bo'ladi. Mashg'ulotlar o'tkazish tartibini eslatadi. O'quv mashg'uloti "O'zi o'rganib, o'zgaga o'rgatish", ya'ni hamkorlikda o'rganish prinsipi asosida o'tkazilishini aytadi.</p> <p>2.2. Guruhlar ishini tashkil qiladi. Matn berib uni tahlil qilish uchun 15 daqiqa beradi.</p> <p>2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Har bir guruhdan vakillar chiqib, faoliyat natijalarini taqdim qiladi. Taqdimot uchun har bir guruhga vaqt belgilaydi. Yo'naltiruvchi maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Javoblarni aniqlashtiradi, to'ldiradi, izoh beradi va tuzatishlar kiritadi.</p> <p>2.4. Har ber guruh taqdimoti oxirida tahlil bo'yicha xulosalar chiqaradi.</p>	<p>Fikrlarini bildiradilar.</p> <p>Mavzu yuzasidan chiqish qiladilar.</p> <p>Talabalar fikrlarini bildiradilar munozaraga kirishadilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>Mashqni bajaradilar.</p>
3. Yakuniy bosqich (15 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu yuzasidan umumiy xulosalar qiladilar.</p> <p>3.2. O'quv mashg'ulotlarining natijalarini sharhlaydi, faol talabalar bahosini e'lon qiladi.</p> <p>3.3. Mustaqil ishlash uchun vazifalar beradi: amaliy mashg'ulotga tayyorlanib kelish. Nazorat savollariga javob berish. Ilovada</p>	<p>Tinglaydilar.</p>

ko'rsatilgan topshiriq va mashqlarni bajarish.
(2- ilova)

– ilova.

Tezkor savollar va topshiriqlar:

- Lug'atshunoslik qanday soha?
- Lug'atlarning qanday turlarini bilasiz?
- Chappa lug'at qanday lug'at?
- Chastotali lug'at haqida gapiring?
- Izohli lug'atdan qanday o'rinlarda foydalanish mumkin?
- Universal lug'at tuzish mumkinmi?

1-mashq. Keyingi 30 yil ichida nashr etilgan ikki tilli lug'atlarda boy, vatan, dehqon, madaniyat, ufq, qahramonlik so'zlariga berilgan izohlarni solishtiring. tavsiflardagi tafovutlar haqida o'z mulohazalaringizni yozing. Muammolarni bayon qiling.

2-mashq. «O'zbek tilining izohli lug'ati»dan «kitobiy» (kt.), «so'zlashuv tili» (nutqiy) (s.t.), «poetik nutq» (poet.), dialektal (dial.) kabi ishoralar bilan ko'rsatilgan bir nechta so'zni ko'chirib, bu ko'rsatmalarning nazariy fikrlarga qanchalik muvofiq kelishi haqida o'z mulohazalaringizni ayting.

3-mashq. Quyida ajratib ko'rsatilgan lug'aviy birliklarning sememalarini aniqlang. Aniqlangan sememalariga asoslanib izohlang. Izohlaringizni «O'zbek tilining izohli lug'ati»dagi izohlar bilan solishtiring va xatoliklar bo'lsa, tuzating.

1. Ota jangda qolgan bo'lsa ham, u baxsh etdi bizga saodat. (Sh.Odil.)
2. Uning qo'li baland, yo'li yorug'. (Yo. Shukr.)
3. Gulnor chiroyli va erka tabassum bilan xo'p deganday boshini qimirlatdi. (Oyb.)
4. Odamning yuzi oftobdan issiq. (Maqol.)
5. Yaxshi fikrlar tiniq uslubni talab qiladi. (F. Dost.)

Adabiyotlar: 2, 4, 6, 10, 11, 22, 26, 27, 29, 30, 37.

11-Mavzu

BARQAROR BIRIKMALAR BO'YICHA MASHQ

AMALIY MASHG'ULOTDA TA'LIM TEXNOLOGIYASI

Mashg'ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni – 25 nafar
Mashg'ulot shakli	Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash
Amaliy mashg'ulot rejasi	1. Frazzeologiya haqida tushuncha. 2. Iboralarning semantic tarkibi. 3. Iboralarda leksik-semantik munosabatlar.
